O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

L.N.XALIKOVA

# IQTISODIY TA’LIMOTLAR TARIXI

DARSLIK

“Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti
Samarqand - 2024

UO‘K 330.1(075)
KBK 65.01.
Ya 7

L.N.Xalikova. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. Darslik. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2024. – 354 b.

*Mazkur darslikda ko‘zda tutilgan asosiy maqsad turli davrlarda yashab ijod qilgan olim va mutafakkirlarning iqtisodiy fikrlar sohasidagi tarixiy merosi va g‘oyaviy boyliklarini o‘rganishda talabalarga ko‘maklashishdan iborat. Iqtisodiy fanlar tizimida oldin amal qilib kelgan va hozir amal qilayotgan alohida maktab va yo‘nalishlarning konsepsiya va nazariyalarini o‘rganish iqtisodiyot nazariyasidan olgan bilimlarini mustahkamlashga va chuqurlashtirishga, mamlakatimizda sodir bo‘layotgan iqtisodiy hodisalarni mustaqil tahlil qilishga va to‘g‘ri xulosa chiqarishga yordam beradi.*

*Darslik iqtisodiy yo‘nalishda tahsil olayotgan barcha bakalavrlar uchun mo‘ljallangan.*

**Taqrizchilar:** i.f.d., professor **M.M.Muhammedov**
i.f.d., professor **D.A.Nasimov**

Mazkur darslik Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Kengashining 2023-yil 10-noyabrdagi 4-sonli qaroriga asosan nashr qilishga ruxsat berilgan (Ro‘yxatga olish raqami 119-10/11).

ISBN 978-9910-9092-2-1

© Xalikova Lola Nazarovna, 2024
© “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2024

# KIRISH

*Donishmand xalqimiz har ikki renessans davrida jahonning eng ilg‘or, taraqqiy etgan xalqlari qatorida bo‘lgani barchamizga ulkan g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi.*[1]

**Sh.M.Mirziyoyev**

Kelajakni ko‘ra bilish va hozirgi davrni yaxshi tushunish uchun o‘tmishni bilish zarur. Chunki tarix takrorlanadi. Hozirgi kun muammosi bilan to‘qnashadi, o‘tmishga qarab uning sabab va oqibatlari yechimini topish mumkin. Bunda nafaqat iqtisodiy vaziyatlar balki, iqtisodiy g‘oyalar ham takrorlanadi.

Hozirgi davrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahnamoligida ishlab chiqilgan va hayotga tadbiq etilayotgan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi farmoni mamlakatimizda iqtisodiy tizimning G‘arb andozalariga monand va sharqona xususiyatlarni o‘zida aks ettirgan, madaniylashgan, zamonaviy bozor iqtisodiyotini shakllantirish jarayonlarini qamrab oladi. Yangi bosqichning mohiyati jamiyatda aynan inson manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, uning moddiy va ma`naviy ehtiyojlarini imkon qadar to‘laroq qondirish, haq-huquqlarini himoyalash, taqsimotda ijtimoiy adolatni kuchaytirishda o‘z ifodasini topadi.

Iqtisodiy ta’limotlar tarixi iqtisodiy fanlar tizimida alohida o‘rin tutadi. U iqtisodiy nazariyani to‘ldiradi va mustaqil fan sifatida iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlashda, ularning iqtisodiy bilim, malakasini oshirishda katta rol o‘ynaydi. Ayniqsa, hozirgi davrda iqtisodiyot har bir inson hayotiga jadallik bilan kirib bormoqda va odamlar iqtisodiyot to‘g‘risida imkoni boricha ko‘proq bilishga intilmoqdalar. Shu maqsadda Respublikamizda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ham «Iqtisodiyot asoslari» fani o‘tilmoqda. Yana shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, ushbu darslikda Qur’oni Karimdagi, hadislardagi, hatto Avestodagi iqtisodiy qarashlar mukammal berilgan. Shu bilan birgalikda IX-XV asrlardagi ulug‘ allomalarimiz bo‘lmish Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojibning iqtisodiy g‘oyalari tahlil qilingan. Amir Temur, Alisher Navoiy asarlaridagi iqtisodiy qarashlar ham berilgan.

Iqtisodiy ta’limotlar iqtisodiyotda sodir bo‘ladigan jarayonlarni

[1] Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – 464 b.

passiv aks ettirmaydi, balki ularga muayyan ta’sir ko‘rsatish yo‘li bilan ijtimoiy rivojlanishning tezlashishiga yoki sekinlashishiga olib keladi. Har bir davrda u yoki bu mamlakatda ayrim shaxslar, olim yoki rahbarlar tomonidan shunday iqtisodiy ahamiyatga molik fikr, g‘oya, nazariya, konsepsiyalar ilgari surilgan va amalga oshirilganki, ba’zi hollarda shular tufayli davlat va xalqlar ravnaq topgan, ba’zida esa tushkunlikka uchragan. Hammaga ma’lumki, ko‘pchilik konsepsiyalar davlatlarning iqtisodiy dasturlari asosi hisoblanib kelinadi. Masalan, bizga bugun yangidek tuyulgan bozor iqtisodiyoti to‘g‘risidagi fikrlar A.Smit tomonidan 1776 yili chop etilgan «Xalqlar boyligi» asarida asosan to‘la tahlil etib berilgan. Uzoq o‘tmishdagi ko‘pgina o‘gitlar, hayotiy tajribalar, allomalarning fikri va g‘oyalari hozirgi kunda asqotmoqda, ularni o‘rganish va eng muhimi hayotga tadbiq etish zarur.

Albatta, bugungi kunning dolzarb masalasi bo‘lgan, o‘sib kelayotgan avlod tarbiyasiga alohida e’tibor qaratishimiz lozim. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev aytganlaridek, “Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og‘ishmasdan, qat’iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko‘taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”[1]. Bunda biz tariximizni to‘la hal etishda o‘tgan davr iqtisodchilaridan tayyor javob topish qiyin, ammo o‘tgan donishmandlarning fikr-mulohazalari hozirda va kelajak to‘g‘risida to‘g‘ri xulosa chiqarish va yangi g‘oyalarni yaratish uchun imkon beradi. Zero, tarixiy tajriba shunisi bilan ham qimmatlidir.

Iqtisodiy ta’limotlar tarixiy rivojlanish jarayoniga muvofiq tarzda o‘rganiladi. Shu bilan birga shu narsani qayd qilib o‘tish kerakki, iqtisodiy ta’limotlar tarixi zamonaviylikka yo‘naltirilgan. O‘tgan davr iqtisodiy qarashlari hozirgi davr ilm-fan rivoji yo‘lida asos sifatida foydalanilishi, tarixni o‘rganishimiz asosiy maqsad qilib qo‘yilmoqda. Tarixiy tajriba shunisi bilan qimmatlidir. Tarixni bilish hozirgi davr ibtidosini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Ushbu darslikda O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlangan namunaviy dasturdagi barcha mavzularni qamrab olgan.

# I BOB. IQTISODIY TA’LIMOTLAR TARIXI FANINING PREDMETI VA O‘RGANISH USULLARI

## 1.1. «Iqtisodiy ta’limotlar tarixi» fanining predmeti, uslubi, vazifasi va manbalari

**«Iqtisodiy ta’limotlar tarixi»** kursi iqtisodiy fanlar tizimida muhim o‘rinni egallaydi.

Insoniyat o‘zining ko‘p yillik tarixi davomida katta iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan. Har bir davrda u yoki bu mamlakatda ayrim shaxslar (olim yoki hokimlar) tomonidan shunday iqtisodiy ahamiyatga molik fikr, g‘oya, nazariya, konsepsiyalar ilgari surilgan va amalga oshirilgan, bir holda shular davlat va xalqlar ravnaq topgan, ba’zida tushkunlikka uchragan. Ana shu iqtisodiy g‘oyalarni har tomonlama chuqur o‘rganish, tahlil etish, ular umumbashariy ahamiyatlarini ajratib olib, hozirgi davrga, ya’ni hayotga tatbiq etish nihoyatda ham amaliy, ham nazariy foydalidir, chunki ularda ko‘p yillik tajriba mujassamlashgan bo‘ladi.

***«Iqtisodiy ta’limotlar tarixi» fanining predmeti.*** Iqtisodiyot tarixi (xalq xo‘jaligi tarixi) va iqtisodiy ta’limotlar tarixi iqtisodiyot fanining faktologiya va metodologiya asoslarini ta’minlovchi va yaratuvchi asos sifatida ahamiyatlidir. Shu sababli bu fanlar iqtisodiyot fanining ajralmas va tarkibiy qismidir.

Ayniqsa, hozirgi davrda iqtisodiyot har bir inson hayotiga jo‘shqinlik bilan kirib bormoqda va odamlar iqtisodiyot to‘g‘risida imkoni boricha ko‘proq bilishga intilmoqdalar. Xo‘sh, ummon kabi keng iqtisodiyot fanini o‘rganishni nimadan boshlamoq kerak, degan savol tug‘ilishi tabiiy.

Sizningcha, bu ishni, shifokor bemorini tuzatishni uning kasallik tarixidan boshlagani kabi, tarixdan boshlash zarur. Albatta, bugungi va ertangi kun muammolarini to‘la hal etishda o‘tgan asr iqtisodchilaridan barcha savollarga tayyor javob topish qiyinchilik tug‘dirishi aniq, ammo donishmandlarning fikr-mulohazalari hozirgi va kelajak to‘g‘risida to‘g‘ri xulosa chiqarish uchun katta imkoniyat beradi. Aniqroq aytsak, **velosipedni qayta kashf qilishga** hojat qolmaydi, tarixiy tajriba shunisi bilan ham qimmatlidir.

Ammo shunday bo‘ldiki, oxirgi 25-30 yil davomida bu fanlarga kam e’tibor berildi, hatto **«Iqtisodiy ta’limotlar tarixi»** qatag‘onga uchradi,

faqat mustaqillik yillarida bu fanni oliy o‘quv yurtlarida qaytadan o‘qitish boshlandi.

Sovetlar tuzumi davrida ko‘pgina fanlar, shu jumladan, iqtisodiyot fani sinfiylik, partiyaviylik asosida o‘rganildi, marksizm-leninizm g‘oyalari birdan-bir to‘g‘ri ta’limot, deb qabul qilindi va barcha masalalar yechilgan, tarixga uzoq o‘tmishga hech qanday hojat yo‘q, degan umumiy kayfiyat yuzaga keldi. Sotsialistik va kommunistik jamiyat qurishda dasturilamal bo‘lgan mafkuraga muqobil bo‘lgan barcha fikrlar tanqidga uchradi, asosiy e’tibor markscha-lenincha iqtisodiy ta’limotni o‘rganishga, kapitalizm, bozor munosabatlarining kelajagi yo‘qligini zo‘rma-zo‘raki “isbotlashga”ga qaratildi.

Ammo bu yo‘l tarix sinovidan o‘tmadi. Iqtisodiyotda sinfiy, mafkuraviy tamoyillar ertaklardagi qum saroylari kabi vayron bo‘la boshladi. Tabiatning yomon ob-havosi bo‘lmaganidek, tarix ham bo‘lib o‘tgan yaxshi yoki yomon voqealar uchun hech kim oldida tavba-tazarru qilmaydi.

Hozirgi davr olimlari avvalgi mualliflardan ko‘proq biladilar, bu obyektiv jarayon, ammo shunisi ham ayni haqiqatki, biz ular tufayli ham shu narsalarni bilamiz.

Mustaqil taraqqiyot yo‘liga o‘tgan O‘zbekistonlik olimlar oldida, ko‘pgina fanlar kabi, iqtisodiyot fani borasida ham katta ishlarni amalga oshirish vazifasi turibdi. Yangi dastur, o‘quv qo‘llanma va darsliklar yaratish eng muhimdir. Iqtisodiyot insonning tarixi kabi qadimiydir. Iqtisodiyotga oid fikr, g‘oya, qarash, nazariya va ta’limotlar ham ko‘p ming yillik tarixga ega. Lekin ularning asosiy qismi yozuv paydo bo‘lganidan so‘ng, yozma manbalardan bizgacha yetib kelgan. Bu manbalar, ulardagi g‘oyalar, avvalo, insoniyatning muqaddas mulkidir, uni topish, o‘rganish va kelajak uchun saqlash savobli bo‘lsa, ulardagi nodir fikrlarni hayotga tadqiq etish ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi, katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

## 1.2. Fanning o‘rganish uslubi (metodi)

«Iqtisodiy ta’limotlar tarixi» fanining predmeti bo‘lib, ma’lum davrlardagi u yoki bu ijtimoiy qatlamlar, insonlar manfaatini ifoda etuvchi iqtisodiy g‘oyalar va ijtimoiy konsepsiyalarning vujudga kelishi, rivojlanishi va almashinuvi tarixiy jarayoni hisoblanadi.

Bu g‘oyalar ayrim iqtisodchi olimlar, nazariy maktablar, oqimlar va yo‘nalishlarga tegishlidir. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi mustaqil fan sifatida

eng qadimgi davrdan boshlab to hozirgi zamongacha vujudga kelgan asosiy iqtisodiy fikr, g‘oya, qarash, nazariya va ta’limotlarni o‘z ichiga oladi.

Metodik jihatdan bu fan iqtisodiy tahlilning ilg‘or uslublari yig‘indisidan iborat bo‘lib, tarixiy, induksiya, mantiqiy abstraksiya va boshqa usullardan keng foydalanadi.

«Iqtisodiy ta’limotlar tarixi» fani «iqtisodiy nazariya» fani bilan chambarchas bog‘liq, lekin undan katta farq qiladi. «Iqtisodiy nazariya» fanida eng muhim iqtisodiy kategoriyalarning so‘nggi davr uchun tahlili beriladi, ammo bu nazariyalar har doim ham turg‘un bo‘lmaydi va vaqt davomida, ayniqsa, keskin o‘zgarishlar davrida evolyutsiyada bo‘ladi.

«Iqtisodiy ta’limotlar tarixi» fanida ayrim olimlar, davlat arboblari tomonidan ilgari surilgan g‘oya, qarash, nazariya, qonun, ta’limot, konsepsiyalar insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlaridagi ijtimoiy qatlamlar, sinflar va boshqa guruhlarning manfaatlari nuqtai nazaridan tarixiy rivojlanishi tadqiq etiladi.

Iqtisodiy tafakkur tarixi fanining amaliy xo‘jalik obyekti bilan chambarchas bog‘liqligini namoyon etadi. «Eskirgan nazariyalarni ular faqat inkor etilganligi sababli ilmiy deb bo‘lmaydi» deb yozadi taniqli iqtisodchi T.Kun. Chunki keyingi, nisbatan yangi qarashlar avvalgilar asosida, ularni qabul qilish, rivojlantirish yoki inkor etish natijasida paydo bo‘lgan. Ba’zi mutaxassislar faqat yangi nazariyalarnigina o‘rganishni taklif etishadi, ammo bu so‘nggi nazariya avvalgi ko‘p yillik ilmiy, amaliy tadqiqotlarning yakuniy xulosasi sifatida namoyon bo‘ladi yoki bugun biz “yangi” degan fikr ma’lum vaqtdan keyin o‘zgarishi mumkin.

Bu fan boshqa iqtisodiy va tarixiy, ayniqsa, iqtisodiyot nazariya fani bilan bevosita bog‘liq. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi ancha keng davrni qamrab olgan va mustaqil xarakterga ega. Bu fanni o‘rganish orqali ekonomika, xalq xo‘jaligi tarixi, iqtisodiy tarix va iqtisodiy konsepsiyalar hamda aniq iqtisodiy predmetlarni o‘zlashtirish osonlashadi, u yoki bu iqtisodiy o‘zgarishning shart-sharoitlari va oqibatlarini tahlil etishga katta ko‘mak beradi.

Masalan, bizga bugun yangidek tuyilgan bozor iqtisodiyoti to‘g‘risidagi fikrlar Adam Smit tomonidan 1776 yili chop etilgan «Xalqlar boyligi» asarida asosan to‘la tahlil etib berilgan. Ba’zi iqtisodiy g‘oyalar esa qadimdan ma’lum. Ularni o‘rganish va eng muhimi hayotga tadqiq etish yaxshi samara beradi, ko‘p hollarda Amerikani yangidan kashf etishga hojat qolmaydi.

Hozirgi paytda dunyodagi ilg‘or g‘oyalarni o‘rganish davomida hur hamfikrlikka (plyuralizmga) keng o‘rin berish, har qanday fikrni atroflicha tahlil etish kerakligi aniq bo‘lib qoldi.

Bu fanni chuqurroq o‘rganish tufayli bir qancha yechimini kutayotgan nazariy masalalarga oydinlik kiritish imkoni tug‘iladi. Masalan, bozor munosabatlarining ibtidosi hanuzgacha aniq yechimga ega emas. Ayrim olimlar bu jarayonni xususiy mulk, sinfiy jamiyat yuzaga kelishi bilan bog‘lasalar, ayrimlari (R.Xeylbroner, l.Turou) uni kapitalizm bilan, Aniqroq, «ishlab chiqarish omillari» paydo bo‘lishi bilan izohlaydilar (mehnat, yer va kapital tovarga aylangach, bozor tizimi yuzaga kelgan ekan). Keyingi fikr bo‘yicha bozorning ibtidosi XVIII asrda Angliyada boshlandi.

O‘z davrida ilg‘or Sharqning ortda qolish, G‘arbning ilgarilab ketish sabablari, kelajak to‘g‘risidagi bashoratlar ham muammo bo‘lib turibdi.

**Fanni o‘rganish manbalari.** «Iqtisodiy ta’limotlar tarixi» fanini o‘rganish manbalari turli tuman bo‘lib, qadimgi arxeologik topilmalar, moddiy ne’matlar, qoya va bino devorlaridagi rasmlar, chizmalar va xalq og‘zaki ijodi namunalari muhim ahamiyatga ega. Ammo bu fanning eng muhim manbalari bo‘lib, qo‘lyozmalar, davlat arboblari, olim, donishmand, mutafakkirlarning yozib qoldirgan kitoblari hal qiluvchi o‘rinni egallaydi. Jahon iqtisodiy tafakkurida qadimgi qo‘lyozmalar o‘ta ahamiyatlidir. Masalan, O‘zbekiston fanlar akademiyasi sharqshunoslik institutida arab, fors, qadimgi turk tillarida yozilgan yigirma besh mingdan ortiq qo‘lyozma mavjud. Lekin bu qo‘lyozmalarni o‘rganishda ma’lum obyektiv va subyektiv kamchiliklar mavjud. Xuddi sutning qaymog‘ini olish oson bo‘lganidek, bu qo‘lyozmalardagi ensiklopedik g‘oyalardan muhimlarigina o‘rganilgan, iqtisodiyot tafakkuri bilan bog‘liq bo‘lgan materiallar hali o‘z tadqiqotchilarini kutib yotibdi. 2022-yili chiqqan monografiyada O‘rta Osiyo mutafakkirlarining iqtisodiy g‘oyalari ma’lum darajada o‘z aksini topgan. Asosiy iqtisodiy g‘oyalar, ayniqsa hozirgi zamon iqtisodiy ta’limotlari ma’lum shaxslar tomonidan yozilgan asarlari bizgacha yetib kelgan, ularni o‘rganish, tahlil qilish, xulosa chiqarish orqali iqtisodiy ta’limotlar majmuasi yuzaga kelgan.

Yetakchi g‘arb olimlari ko‘p hollarda bir nechta buyuk shaxslarning g‘oyalariga alohida urg‘u berishadi: bu A.Smit, K.Marks, A.Marshall va J.Keynsdir.

Bu olimlarning iqtisodiy g‘oyalarida mavjud ta’limotlarning ko‘pchiligi o‘z **intiqosini** topgan va ular jahon iqtisodiy g‘oyalari rivojiga alohida hissa qo‘shgan shaxslardir.

Iqtisodiy ta’limotlar tarixi fani bo‘yicha yaratilgan adabiyotlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, bu masala o‘zbek o‘quvchilari uchun eng nozik masala deyish mumkin.

***Ilmiy davrlash.*** Iqtisodiy ta’limotlar tarixini o‘rganishda ma’lum davrlash tizimidan foydalaniladi.

Taniqli iqtisodchi olim J.K.Gelbreyt: «Amalda iqtisodiy g‘oyalar o‘z davri va vujudga kelish joyining mahsuli bo‘lib, ular bilan chambarchas bog‘langandir; bu g‘oyalarni ular tushuntirib berayotgan dunyodan mustaqil ravishda ajratib qarash mumkin emas; bu dunyo esa doimo o‘zgarishda bo‘ladi, agar bu g‘oyalar o‘z maqsadlariga to‘la javob berishni ko‘zlasalar, doimo shunga mos ravishda o‘zgarib turishlari kerak», deb yozgan edi.

Kapitalizm, bozor munosabatlari davrida xo‘jalik va ijtimoiy hayotda baynalminallik (internatsionalizm) kuchayganligi tufayli, iqtisodiy fikrning rivojlanishi ham yagona jahon jarayoniga aylana boshladi. Oqibatda, klassik iqtisodiy maktab asoschilari U.Petti, A.Smit va D.Rikardoning qarashlari qisqa vaqt ichida butun jahonga ma’lum bo‘ldi, vaxolangki undan avvalgi ko‘pgina nazariyalar ayrim mamlakatlarda ko‘pchilikka ma’lum bo‘lmasdan «O‘lik mol» sifatida yotgan.

G‘arb mamlakatlarida yuzaga kelgan «Ekonomiks» va boshqa tadqiqodlar barchaning diqqat-e’tiborini jalb qilmoqda.

Qadimdan to hozirgi davrgacha minglab turli-tuman iqtisodiy g‘oya, qarash, konsepsiya, nazariya, ta’limotlar vujudga kelgan. Ularning barchasini to‘la o‘rganish va shu maqsadda yangi-yangi tadqiqodlar olib borish, tahlil etish va umumlashtirib e’lon qilish zarur, bu yaqin kelajak vazifasi sifatida qabul qilinishi mumkin.

Ammo hozirgi davrgacha jamlangan barcha iqtisodiy g‘oyalarni ma’lum sistemaga solish va shu asosida o‘rganish maqbuldir. Ammo o‘tgan davr hodisalari va g‘oyalarini hozirgi zamon qarashlari “qolipi”ga zo‘rma-zo‘raki kelishtirish, moslashtirsh mumkin emas. Bu tarixni vulgar zamonaviylashtirishga, o‘rganilayotgan davrning xususiyatlarini inkor etishga olib keladi.

Bu fan doim rivojlanishda bo‘lib, bir-birini to‘ldiruvchi evolyutsion (mavjud g‘oyalarning yanada chuqurroq takomillashuvi) va inqilobiy (butunlay yangicha konsepsiyalar vujudga kelishi) yo‘llari mavjud. A.Smit va uning izdoshlari g‘oyalari, marjinalistik to‘ntarish yangi klassik yo‘nalish (A.Marshal), J.M.Keynsning iqtisodiy qarashlarini keltirish mumkin.O‘tish davri iqtisodiyoti bo‘yicha g‘oyalar hozirgi

davrning muhim qarashlari majmuasiga kiradi va nihoyatda dolzarbdir, bu masala bizda O‘zbekiston misolida qarab chiqiladi.

Taniqli davlat arbobi Uingston Cherchill (1874-1965) «Qayerga borishimizni bilish uchun, qayerdan chiqqan ekganligimizni bilishimiz kerak», deb aytgan edi. Bu g‘oya nihoyatda ahamiyatli bo‘lib, bosib o‘tilgan yo‘lni to‘g‘ri baholash va kelajak istiqbolini ko‘zlash haqida gap boradi.

Iqtisodchilarning tadqiqotlaridagi asosiy bosh g‘oya-jamiyat, insoniyat, ayrim shaxslarning boyligi masalasidir. Maqsad bir, lekin unga eltadigan yo‘llar nihoyatda xilma-xil ekanligini ko‘ramiz. Ilk kapitalistik munosabatlar vujudga kelgan davrgacha (XV asr) bo‘lgan iqtisodiy g‘oyalardagi umumiylik shuki, barcha donishmandlar va ularning yozgan asarlarida mehnat va yer boylikning asosiy vazifasi ekanligi turli yo‘llar bilan talqin etiladi, ularda ishlab chiqarish sohasi asosiy deb hisoblangan.

XV-XVII asrlarda (qisman XVIII asr boshlarida) yangi iqtisodiy ta’limot-merkantelizm vujudga keldi. Merkantelizm to‘g‘risida qisqa ma’lumot beradigan bo‘lsak, uning mohiyati iqtisodiy siyosatda mamlakatda va davlat xazinasida nodir metallarni ko‘proq to‘plash, ta’limotda esa muammolar (savdo, pul oboroti) sohasidagi iqtisodiy qonuniyatlarni izlashdir, ya’ni avvalgi davrdagi g‘oyalardan keskin farq qiladi.

Keyingi muhim o‘zgarish, bu klassik iqtisodiy maktabning yuzaga kelishidir (XVIII asr). Bu iqtisodiy ta’limot ichida fiziokratizm ham vujudga keldiki, uning umri uncha uzoq bo‘lmadi. Klassik maktab g‘oyalari hozirgi davrda ham turli shakllarda qayta namoyon bo‘lmoqda (neoklassik, liberal, neoliberal, …). Marks nomi bilan bog‘liq bo‘lgan marksizm ta’limoti (nobozor iqtisodiyot) ham tarixda muhim o‘rinni egallaydi. Hozirgi davrda bu ta’limot to‘g‘risida imkoni boricha gapirmaslikga va ayniqsa yozmaslikka harakat kuchayib bormoqda, ko‘proq uning salbiy tomonlarini tilga olish “moda” ga kirgan. Bunda “jon” bor albatta, shuni 1917 yili Rossiyada boshlangan marksizmni hayotga tadbiq etish jarayoni samarasiz tugadi. Keyinchalik shu yo‘lga o‘tgan bir necha mamlakatlarda ham eksperiment samarasiz yakunlandi. Lekin tarix uchun insoniyatga bu saboq juda muhim, shu sababli uni chetlab O‘tish adolatdan emas, deb hisoblaymiz. Hayoliy sotsialistchilar va markschilarning iqtisodiy g‘oyalari ham o‘rganilishi zarur.

## 1.3. Fanni o‘rganish vazifasi va ahamiyati

Iqtisodiy ta’limotlar tarixi fanining boshqa fanlardan yana bir farqli xususiyati shuki, har bir g‘oya, ta’limot uni yaratgan bir yoki bir guruh insonlar, olimlar, davlat rahbarlarining faoliyati bilan chambarchas bog‘liq xolda beriladi.

Iqtisodiyot bo‘yicha Nobel mukofoti laureati Milton Fridmenning fikricha, fanni o‘rganishda odamlarning «avtobiografiya va bibliografiyalariga murojaat qilish, shu yo‘l bilan olimlarni aforizm va misollar yordamida rag‘batlantirish kerak, faqat sillogizm (deduktiv fikrlash) va teoremalar bilan cheklanmaslik zarur».

Sharq, xususan Markaziy Osiyo donishmandlarining iqtisodiy g‘oyalarini o‘rganish, aslini olganda, endi boshlandi, shu sababli ma’ruzalarning bu bo‘limi yangi materiallar bilan to‘lib borishiga ishonchimiz komil.

Yetakchi mamlakatlar taraqqiyotning asosiy omillaridan biri, bu davlatlar iqtisodiyotining bo‘layotgan o‘zgarishlarga tez adaptatsiyasidir, ya’ni moslashuvidir.

AQSH davlati tarixida qisqa vaqt davomida iqtisodiy siyosat bir necha almashdi va iqtisodiy ravnaq saqlab qolindi. Buyuk depressiya (1929-1933 yy.) dan keyingi davrda AQSH prezidenti **V.Ruzvelt** «yangi yo‘l» kursi bilan J.M.Keynsning iqtisodiy g‘oyalarini amalda qo‘lladi (davlatning iqtisodiyotdagi roli keskin oshdi, vaholanki undan avvalgi yillari xususiy mulk (99 foiz) asosiy va yetakchi bo‘lgan). Keyinroq prezident R.Reygan davlatning iqtisodiyotdagi roli ancha kamaytirilib, liberal (erkin) iqtisodiyotga keng yo‘l ochib berildi (reyganomika), oqibatda bu prezident davrida qo‘shimcha 14 million kishi tadbirkorligiga yo‘l ochib berildi, yangi-yangi millionerlar vujudga keldi. Xuddi shunday holat B.Klinton davrida ham qayd etildi.

Buyuk Britaniya iqtisodiyotida ham buni ko‘rish mumkin (**tetcherizm**). Iqtisodiy siyosat va iqtisodiy g‘oyalarning bir-biri bilan chambarchas bog‘liqligini isbotlovchi misollarni ko‘plab keltirish mumkin.

Ayniqsa, “sotsialistik” deb atalgan rivojlanish yo‘lidan voz kechmagan Xitoy va Vetnam davlatlarining iqtisodiy taraqqiyoti ham diqqatga sazovordir. Bozor iqtisodiyoti unsurlarining keng rivojlanishiga imkon beruvchi iqtisodiy islohotlar tufayli katta yutuqlarga erishildi.

Ikkinchi jahon urushi tufayli ikkiga ajratilgan GFR va FRGlarning bu davlatlar qayta birlashgandan keyingi iqtisodiy rivoji ham juda ibratlidir.

“Sotsialistik”lager vakillari ichida yetakchi bo‘lgan GDRning to‘la erkinbozor munosabatlariga o‘tish uchun hiyla katta mablag‘ va vaqt talab etilishi aniq bo‘lib qoldi. Vaholanki, Rossiyaning taniqli iqtisodchi olimlari bozor iqtisodiyotiga o‘tishning «500 kunlik»», hatto «100 kunlik» dasturlarini taklif etdilar (Shatalin, Yavlinskiy…). Bu yo‘l o‘zini oqlamadi.

Iqtisodiy ta’limotlar tarixiga, balki boshqa fanlarga ham xos yana bir xususiyat shuki, iqtisodiy g‘oyalar doimo dialektik rivojlanishda bo‘lib, ularning tahliliga so‘nggi nuqta qo‘yish qiyin. Bundan bir necha yuz yil avval yuzaga kelgan fikr va g‘oyalarning ma’nosi ustida tortishuv va bahslar xali ham davom etib kelmoqda. Masalan, hanuzgacha K.Marksning qiymat (ruscha – «stoimost») to‘grisidagi fikri aslida qimmat (ruscha – «sennost») bo‘lgan, degan fikri mavjud. Marks asarlarini nemis tilidan tarjimada yo‘l qo‘yilgan xato tufayli jiddiy tushunmovchilik yuzaga kelgan, deyilgan[2].

Bu fan tarixi shuni aniq isbotlanganki, ko‘pgina iqtisodiy g‘oyalar obyektiv xo‘jalik amaliyoti bilan chambarchas bog‘liq. Ko‘pgina olimlar avvallari (hozir ham uchrab turadi) o‘z qarashlarini mutlaq bekami – ko‘st deb ko‘rsatishga uringanlar. Albatta, “abadiy” qonuniyatlar ham mavjud bo‘lib, ularni istalgan tizimda kuzatish mumkin, ammo ko‘p hollarda olimlar bugungi haqiqatning tarixiyligini ilg‘ab olishga har doim qodir emas.

Yana bir muhim masala ustida to‘xtab o‘tish kerakki, avval yuzaga kelgan iqtisodiy g‘oyalarga shu kun bilan baho beriladi va odatda ilgarigi g‘oyadagi “xato” va “kamchiliklar”lar aniqlanib, yangi g‘oyaning undan afzalligi “isbotlanadi”.

Bunda dialletik mantiq bor albatta, lekin yuqorida ta’kidlanganidek, avvalgi g‘oyalar tufayli odatda yangi g‘oyalar yuzaga keladi, shuning uchun bu g‘oya “yaxshi”, unisi “yomon” kabi baholash adolatdan bo‘lmaydi. A.Smitning mashxur asarida o‘zidan avvalgi davrda yuzaga kelgan antik dunyo, merkantelizm, fiziokratizm ta’limotlari tahlil etilgan, Yevropaning iqtisodiy tarixi sinchiklab o‘rganilgan va yangi g‘oya vujudga kelgan.

Xorijda esa (jumladan, Rossiyada) bu sohada ancha ish qilinganligini qayd etib o‘tish kerak. Taniqli G‘arb iqtisodchisi **Mark Blaug**ning (1927 yil tug‘ilgan) «**Экономическая мысль В ретроспективе**» asarining to‘rtinchi nashri (1984-yil.) rus tiliga tarjima qilingan (1994-yil.) bo‘lib, bu kitobda iqtisodiy g‘oyalar tarixi bo‘yicha dastlabki adabiyotlar

[2] Блауг М. Экономическая мысль В ретроспективе. М., 1994

Britaniya ensiklopediyasida chop etilgan J.Mak-Qulloxning maqolasi bilan boshlanishi qayd etiladi. M.Blaug (birinchi nashri 1961-yil.) kitobida iqtisodiy g‘oyalar tarixi bo‘yicha boy bibliografiya berilgan. Adabiyotlar ikki qismga bo‘linishi mumkin: ular asosan tarixiy va mantiqiy tamoyillar asosida yozilgan. Ayniqsa, Germaniyadagi tarixiy maktab ta’siri ostida ko‘p adabiyot shu asosda beriladi. M.Blaug asari mantiqiy tamoyil asosida tuzilgan, asosiy e’tibor g‘oya mualliflariga, ularning tarjima xoli, o‘sha davrning shart-sharoitiga emas, balki ular yaratgan iqtisodiy ta’limotning mazmuni va boshqalardan farqiga bag‘ishlangan.

Rus tilida chop etilgan va biz o‘qib kelayotgan asosiy adabiyotlar tarixiy tamoyil asosida chop etilgan va sinfiy, partiyaviy nuqtai nazardan berilgan, asosiy mezon markscha-lenincha ta’limotdir. Shuning uchun deyarli barcha o‘quv qo‘llanmalari va darsliklar, 6 tomli «**История всемирной экономической мысли**» (4 tomi chiqqan) kitoblari ma’naviy jihatdan eskirdi. Bu kitobning 3-4-tomlari marksizm-leninizm g‘oyalariga bag‘ishlan-gan. 1994-yilda e’lon qilingan «**История экономических учений, часть II**» va undan keyin e’lon qilingan kitoblarigina hozirgi davr talablariga javob bera oladi (adabiyotlar ro‘yxatiga qarang).

Yana bir qiziqarli holat shuki, biz uchun iqtisodchi bo‘lgan shaxslarning ko‘pchiligi kasb-kori, mutaxassisligi bo‘yicha boshqa soha sohiblari yoki davlat arboblari bo‘lganlar. Masalan, klassik maktab asoschisi U.Petti vrach-shifokor, P.Buagilber huquqshunos - sudya, fiziokrat F.Kene jarroh va A.Smitlar faylasuf bo‘lishgan. Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin ammo biz ularni asosan iqtisodchilar deb bilamiz.

### *Tayanch ibora va tushunchalar.*

Iqtisodiy g‘oya, qarash, nazariya, qonun, konsepsiya, ta’limot; fan predmeti; uslubi (metodi); manbalar; ilmiy davrlash; merkantilizm; klassik maktab; sotsialistik yo‘nalish; marjinalizm; O‘tish davri iqtisodiyoti.

### Nazorat va mulohaza uchun savollari.

1. «Iqtisodiy ta’limotlar tarixi» fanining o‘rni nimadan iborat?
2. Mazkur fanning predmeti nima?
3. Bu fanni o‘rganish uslubi qanday?
4. Fanning asosiy manbalarini ta’riflab bering.

5. Ushbu fanning ilmiy davrlash uslublari nimadan iborat?

6. Bu fanni o‘rganishning asosiy vazifasi va ahamiyatini izohlab bering.

7. «Iqtisodiy ta’limotlar tarixi» va «Iqtisodiy tarix»ning o‘zaro bog‘liqlik jihatlari nimadan iborat?

8. Sharq va G‘arb olimlari iqtisodiy qarashlaridagi umumiylik va xususiylik nimalardan iborat?

# II BOB. QADIMGI DUNYO FEODAL JAMIYATI VA ILK KAPITALIZMNING IQTISODIY TA’LIMOTLARI

## 2.1. Ko‘hna Vaviloniya iqtisodiy fikrlari

Iqtisodiy fan manbalarini, avvalo, jahon sivilizatsiyasining beshigi bo‘lgan qadimgi Sharqdan izlash mantiqan to‘g‘ridir.

Iqtisodiy g‘oyalarning shakllanishi insoniyatning paydo bo‘lishi bilan bog‘langan, ammo, hozirgi paytda qo‘lyozmalarda aks ettirilgan g‘oyalargina tahlil qilingan. Shu sababli iqtisodiy ta’limotlar tarixi quldorlik jamiyati paydo bo‘lishi bilan bog‘lanadi.

Dastlabki iqtisodiy fikrlar, yozuv paydo bo‘lishi bilan, quldorlik davrida vujudga keladi. Miloddan 4 ming yil avval o‘sha davrning madaniyat o‘chog‘i hisoblangan, Mesopotamiya va Misrda ilk yozuv kashf qilinadi. Bunga asosiy sabab shuki, bu yerda texnologik inqilob ro‘y berdi, metall qurollar ishlatila boshlandi, qishloq xo‘jaligida intensiv, ko‘p hollarda sug‘orma dehqonchilikka o‘tildi. Oqibatda, jamiyatda mehnat taqsimotini rivojlantirishga, ko‘pgina hunarmandchilik sohalarining ajralib chiqishiga, sinfiy tabaqalanishiga turtki bo‘ldi.

Qadimgi Sharqda ancha rivojlangan davlatlardan biri Vaviloniya bo‘lgan. Unda xususiy mulkchilik va tovar-pul munosabatlari nisbatan tez rivojlana boshladi. Jamiyatdagi kishilar borgan sari ko‘proq tovar ayirboshlashga jalb qilinardi. Ularning ba’zilari sudxo‘rlar to‘riga ilinib, xonavayron bo‘ldi va qullarga aylandi. Jamiyatdagi erkin kishilarni sudxo‘rlardan himoya qilish maqsadida (ularning mulkini himoya qilish, savdo, ijara va boshqa shartlarni qonuniy ravishda rasmiylashtirish) xususiy, huquqiy munosabatlarni davlat tomonidan tartibga solish zarurati kuchaydi. Chunki erkin fuqarodan soliq to‘lash, sipohlikka olishda foydalanish mumkin edi. Qullarning bunga haqlari yo‘q edi. Bu borada iqtisodiy fikrlar nuqtai nazaridan Eshnun podshohi qonunlari (mil. avv. XX asr) va Xammurapi qonunlari (mil. avv. XVIII asr) ancha diqqatga sazovor.

Eshnun qonunlari matni asosiy mahsulotlarga qat’iy baho o‘rnatishdan boshlanadi. Bunda arpa, yog‘, teri, tuz, mis va boshqa mahsulotlarning kumushdagi narxi o‘rnatildi. Qat’iy narxning o‘rnatilishi qonun tuzuvchilarga yollanma va ijara haqi darajasini, jarima miqdorini, foiz normasini aniqlash imkonini berdi. Podsho qonunlari tovar-pul munosabatlarining rivojlanishida ijobiy rol o‘ynadi.

Qadimgi Vaviloniyada (Bobilda) Xammurapi (mil. avv. 1792-1750 y., XVIII asr) podshohlik qilgan davrda tayyorlangan qonunlar to‘plami

(jami 282 ta) ancha obro‘ qozongan. Bu to‘plam Fransiya poytaxti Parijdagi mashhur muzey – Luvrda saqlanmoqda. Nusxasini BMT binosidagi muzeyda ham ko‘rish mumkin. Toshga o‘yib yozilgan muhim va qadimiy, tarixiy hujjatni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, mavjud davlat sinfiy va sotsial jihatdan ancha mukammal ajralgan.[3]

Qonun moddalarida Vavilon fuqarolarining mulkini himoya qilish, ijara, sudxo‘rlik va ishga yollash masalalari ko‘rib chiqilgan. Xammurapi qonunlarida fuqarolarning ulushi (yerlari) sotilishi man etiladi. «Sipoh yoki daromad to‘lovchiga tegishli bo‘lgan dala, uy, bog‘, deyiladi qonunda, kumushga sotilishi mumkin emas». Sudxo‘rlik faoliyati cheklangan, uning miqdori pulda 20, mahsulotda 33% dan ortiq bo‘lmasligi kerak. Sudxo‘rlikning keng rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi asosiy omillaridan biri qarzdorlik uchun qullik muhlatining 3 yil bilan cheklanishidir (4-yilga kelib unga erkinlik berilishi lozim bo‘lgan). Biroq sudxo‘rlikka qarshi qonunchilikda izchillik bo‘lmagan. Xususan, qarzdorni ozod etishda uni ishlab chiqarish yoki yashash vositalari bilan ta’minlash nazarda tutilmagan. Hech qanday vositasi bo‘lmagach, ozod etilgan qarzdor yana qayta sudxo‘rga murojaat qilishga majbur bo‘lgan.

Qonundagi asosiy maqsad – ishlab chiqarishni, birinchi navbatda qishloq xo‘jaligini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash bo‘lgan, ya’ni mehnatsiz daromad topishga qarshi kurashilgan. Umuman, xususiy mulkchilik, shu jumladan, yerga bo‘lgan xususiy mulkchilik tan olingan. Birovning xususiy mulkiga ko‘z olaytirgan, unga zarar yetkazganlar iqtisodiy jihatdan jazolangan.

## 2.2. Eng qutlug‘ kasb - dehqonchilikdir

Qariyib uch ming yil ilgari vatani Xorazm bo‘lgan, keyinchalik Yaqin Sharq, Old Osiyo, janubiy Hindiston, Yunonistonga tarqalgan Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto” da “Eng qutlug‘ kasb-dehqonchilikdir” degan so‘zlarni o‘qir ekanmiz, o‘sha davrda ham bu soha insoniyatning diqqat markazida turganini, tiriklik va taraqqiyotning asosi bo‘lganligi uchun, uni asrab-avaylab, diqqat-e’tibor ila rivojlantirish g‘oyasi olg‘a surilganini guvohi bo‘lamiz.

Zardushtiylik dinining asosiy g‘oyasi – yashamoqchi bo‘lsang, chorvachilik, dehqonchilik bilan shug‘ullan, chorvani ko‘paytir, zaminni hammadan ko‘ra ko‘proq baxtiyor qilgin, ya’ni zaminni yaxshilab shudgor qilgin, deb chorvadorlar va dehqonlarga murojaat qiladi. “Chorvachilik rivojlangan, bug‘doylari mo‘l hosil beradigan ekinzorlarni olqishlaymiz!” Bular tirikchilik g‘oyasidir, degan madhiyalar Avestoda

ko‘plab uchraydi. Payg‘ambar Zardushtning “Qaysi yer eng yaxshi zamin”, “qaysi yurt xalqi eng baxtiyor odamlar hisoblanadi?” degan savoliga, yaxshilik xudosi Axuramazda, “sug‘oriladigan, chorvachilikni rivojlantirishga imkoniyati bo‘lgan, mollar yaxshi nasl qoldira oladigan yer eng yaxshi yer, baxtli yurtdir”, deb javob beradi. Avestoda “Uzoq vaqt ishlov bermay va ekin ekilmay qolgan yer eng baxtsiz zamindir”, deb aytib o‘tilgan.

Zardushtiylik dinida dindor taqdiriga tan berib yashaydigan “bersa yeyman, ursa o‘laman” degan inson emas, u faol dindor, u mehnatni yerni, hayotni shu bilan birga Ollohni ham sevuvchi, uning yo‘riqlarini ijro etuvchi insondir. Avestoda Naqshbandiylik tariqatidagi “Dil ba yoru, dast ba kor” – “ko‘ngil Xudoda bo‘lsin-u, qo‘l ish bilan band bo‘lsin” degan, Islom dinida katta ijobiy burilish yasagan iborani uchratmasakda, Ollohga ishonish va faol mehnat bilan shug‘ullanish zardushtiylik dinining mazmunini tashkil etadi.

“Dasht-u sahroda 10 yil tarki dunyo qilib yurgan odamdan ko‘ra, o‘sha cho‘lga bir tup ko‘chat o‘tqazib, ko‘kartirgan inson afzaldir.” Yana “O‘z vaqtida yerga toza urug‘ sepmoq 10 ming ibodatdan, har qanday qurbonlikdan afzaldir” deb ta’kidlangan.

“Qum sahrosini o‘z mehnati bilan serhosil yerga aylantirgan odam komil dindordir”, deyiladi Avestoda.

Zardushtiylik dini insonni hidoyat yo‘liga boshqaruvchi ta’limot sifatida nomoyon bo‘ladi.

Yaxshilik bilan yomonlik, yorug‘lik bilan zulmat o‘rtasida to‘xtovsiz kurashda yaxshilikni ifodalovchi Axuramazda buzg‘unchilik, yolg‘onchilik, xiyonatkorlik, tajovuzkorlik, o‘g‘rilik, yovuzlik, hasadgo‘ylikka qarshi shafqatsiz kurashda yenga oladigan kuch sifatida gavdalanadi. Masixiylik dinida “yovuzlikka qarshilik ko‘rsatmaslik” g‘oyasi olg‘a surilgan bo‘lsa, Zardushtiylik dinida yovuzlikka qarshi murosasiz kurashga da’vat etiladi. Insonni har qanday yovuzlik, yomonlikdan mehnat va yaxshi amallar, yaxshilik qutqarib qoladi, niyat qilgan maqsadiga yetkazadi. Avestoda Axuramazda yaxshilik ramzi bo‘lsa, yovuzlik ramzi Axriman dev obrazida nomoyon bo‘ladi.

“Qachonki, egatlarda urug‘ yetilsa, devlar o‘rinlaridan turadilar”. “Qachonki, bug‘doy gurkirab ko‘karsa, devlar dahshatdan titray boshlaydilar”.

“Qachonki, bug‘doy xirmonga uyulsa, devlar nobud bo‘ladilar”. “Qay bir xonadonda bug‘doy bosh chiqarsa, u xonadonga devlar yaqinlasha olmaydilar, uzoqlashadilar”, deb o‘qiymiz Avestoda.

Moddiy ne’matlar ishlab chiqarish jamiyat hayoti va rivojining asosidir. Avesto tili bilan aytganda “Moddiy olamda hal qilingan har bir mavjudot yemak bilan tirikdir, yemaksiz o‘likdir”. Bunga erishmoq uchun esa zaminni hammadan ko‘ra baxtiyor qilmoq kerak. “Videvdatda” bayon etilishicha, yerni xuddi qizni sevgandek sevmoq, unga yaxshi urug‘lar sepmoq, uni mo‘l-ko‘l hosil beruvchi onaga aylantirmoq kerak. Ishlov berilmagan va ekilmagan yer, ersiz va farzandsiz joxil qiz kabi baxtsizdir. Qiz yaxshi erni orzu qilganidek, yer ham yaxshi qo‘shchiga ilhaq.

“Ey Spitamen Zaratushtra! Kimda-kim zaminni chap va o‘ng qo‘li bilan shudgor qilsa, zamin unga farovonlik baxsh etadi. U go‘zal va pokiza qizga o‘xshaydi. Bu qiz er xonadoniga kirib borib, o‘zining halol yostiqdoshiga farzandlar tug‘ib beradi. Zamin ham mo‘l-ko‘l mevalarini in’om etadi”.

Avestoda hozir ham dolzarb bo‘lgan bir muhim masala o‘rin olgan. Bu ekologik madaniyat masalasidir. Inson butun umri davomida Yer, Suv, Olov, Havoni, umuman, dunyodagi jamiki yaxshi narsalarni pok va bus-butun asrashi kerak. Shu to‘rt unsurni ifloslantirgan kimsalarga nisbatan og‘ir jazolar ham belgilangan.

Anhor va ariq bo‘ylarida mol boqishga, otlarni bog‘lashga ruxsat etilmagan. Ko‘cha eshigi yonida axlat to‘plab qo‘ygan xonadon egasi 25 qamchi bilan, hovuz va chashmadan nopok ko‘za va idishda suv olgan shaxs 5 qamchi bilan jazolangan. Marhum tanasidagi infeksiyalar tarqalmasligi uchun mayit aholi yashaydigan joydan yiroqda, balandlikda qoldirilib suyaklari dafn etilgan. Bu xalqimizni tabiatni muhofaza qilish bilan azaldan shug‘ullanib kelganligidan dalolat beradi.

Eng muhimi, Avestoda insonning moddiy ta’minotining yaxshilanishi uning ma’naviy jihatdan kamol topishiga zamin yaratishi alohida ta’kidlangan.

Avestoda ochiq-oydin to‘yib ovqatlana olmaydiganlar sog‘lom avlod ham qoldiraolmaydi, toat-ibodat qilishga ham rag‘bati bo‘lmaydi va aksincha “Oziq-ovqat yaxshilanishi bilan insonning axloq-obodi ham kuchayadi. Ovqat mo‘l-ko‘l bo‘lsa, ilohiy so‘zlar yaxshi idrok etiladi” deb alohida ta’kidlanadi. Bu g‘oya boshqa bir qator qimmatli fikrlar ichida markaziy o‘rinni egallaydi.

Dehqonchilik va chorvachilik insonning eng qadimgi faoliyati bo‘lib, u bilan Odam Ato va Momo Havoning eng birinchi farzandlari: Qobil dehqonchilik, Hobil qo‘y boqish bilan shug‘ullanganlar, bugun bizning zamonimizda ham qishloq xo‘jaligiga e’tibor oshsa oshayapdiki, kamaygani yo‘q.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan boshlab, qishloq xo‘jaligiga e’tibor o‘zgara bordi. Sovetlar tuzumi davrida, qishloq hayotiga sinfiy nuqtai-nazar bilan aralashuv qishloq hayotida alg‘ov-dalg‘ovlarni kuchayishiga olib kelgan holatlarga barham berila boshlandi. U yangi taraqqiyot yo‘lida dadil qadamlar tashlamoqda. Ayniqsa, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan 2009 yilni “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” deb e’lon qilinishi davlatimiz va xalqimizning qishloq xo‘jaligiga e’tiborini yana bir pog‘onaga ko‘tardi.

Avesto yaratilishining 2700 yilligini (2000 y.) nishonlash munosabati bilan uni ilmiy tadqiq qilish yangi bosqichga ko‘tarildi.

Avestoni o‘zbek tiliga o‘girishda olim, yozuvchi, tarjimon Tilab Maxmudning xizmati beqiyos bo‘lib, u avestoshunoslikka keng yo‘l ochib berdi. Olima Fazila Suleymanova, taniqli tadqiqotchilar X.Baboyev va S.Xasanov, Hamidjon Xomidovlar “Avestoni tadqiq va targ‘ib qilishga katta hissa qo‘shdilar. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov o‘zining 2008-yilda nashr qilingan “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” deb nomlangan asarida “Avesto”ni bebaho ma’naviy obida” deb ta’riflab “Xalqning ma’naviyati uning bugungi hayoti va taqdirini, o‘sib kelayotgan farzandlarining kelajagini belgilashda shak-shubhasiz hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi” deb maktab, maorif, oliy ta’lim, mahalla, nuroniylar, ota-onalar uzluksiz e’tibor berishi lozim bo‘lgan vazifalarini ko‘rsatib, jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi kuch – ma’naviyat, ma’rifat deb ko‘rsatdi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov “Ma’naviy yuksalish fuqoralik jamiyati qurilishi yo‘lida hal qiluvchi mezon” deb ma’naviyat jamiyatimiz oldida turgan birinchi darajali vazifa ekanligini ta’kidladi.

Biz ham ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibotda izchillikni ta’minlash, barqaror tizim yaratish borasida jamoatchilik bilan o‘z fikrlarimizni baham ko‘rish maqsadida quyidagilarni taklif qilamiz.

Birinchi: “Avesto”ning tub mazmun-mohiyatini belgilab beradigan “Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal” degan tamoyilini olasizmi, sog‘lom avlod bunyod etish, odamiylik, tozalik-ozodalik, ekologiya, ma’naviy-huquqiy tarbiya masalalarini olasizmi, bularning har birida bir jahon mazmun bo‘lib, bugun ham, kelajakda ham insoniyat ma’naviyatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. “Avesto”ni insonni qanday yashashi kerakligini ko‘rsatuvchi qoidalarning yig‘indisi, dastlabki qomusi desa bo‘ladi.

Shuning uchun ma’naviy tarbiyani, ma’naviy targ‘ibotni ma’naviyatning dastlabki shamchirog‘i bo‘lgan, “Avesto”dan boshlasak

to‘gri bo‘lardi. Xalqimiz shunday boy ma’naviy merosimizdan bahramand bo‘lardi.

Ikkinchi taklifimiz. Sovetlar davrida shakllangan dunyoqarash sarqitlari to‘la yo‘qolmagan, yangi avlod yetishib kelayotgan bir davrda maktab, litsey, kollej, oliy ta’limda, mahallalarda diniy, ma’rifiy, ma’naviy masalalar bilan shug‘ullanuvchi, mahalla maslahatchilariga mo‘ljallangan uslubiy qo‘llanmalar, darsliklar yaratish, o‘quv rejalarida gumanitar fanlarga ajratilgan soatlar hisobidan ma’naviyat fanini dars jadvallariga kiritish, uzluksiz o‘qishni uyushtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

## 2.3. Qadimgi Hindistondagi iqtisodiy ta’limotlar

Qadimgi Hindiston xo‘jaligi, ijtimoiy tuzumi va iqtisodiy fikrlarini o‘rganishning asosiy manbai bo‘lib «Artxashastra» asari (mil. avv. 4 asr oxiri) hisoblanadi. Uni podsho Chandraguptaning maslahatchisi Kautilya yozgan deb taxmin qilinadi. Bu nodir asar 15 kitobdan iborat bo‘lib, «artxa» so‘zi – foyda, moddiy manfaat, «shastra» - ilm, ilmiy asar ma’nosini bildiradi.

Asarda qulchilikni mustahkamlash asosiy vazifa qilib qo‘yilgan. Qulchilik eng past tabaqalarga xos narsa deb sanalgan[3].

Bu asarda davlatni boshqarish bo‘yicha takliflar berilgan bo‘lib, bir qancha iqtisodiy g‘oyalar ham ilgari surilgan. Unda podsho to‘rtta «ilmni» bilishi zarurligi to‘g‘risida fikr yuritiladi. Uning bittasi iqtisodiyot hisoblanadi. «Iqtisodiyot» dehqonchilik, chorvachilik va savdo sifatida ko‘rib chiqiladi.

«Artxashastra»da aytilishicha, davlat yangi mintaqalarni tashkil etishi va odamlarni u yerlarga o‘rnashtirish ishlarini amalga oshirishi kerak. Yangi ko‘chib kelganlarga yer solig‘i to‘lash sharti bilan shaxsiy foydalanishga berilgan. Agar beriladigan yerlar yaxshi ishlatilmasa, ulardan yerlarni tortib olish va yaxshi ishlaydigan dehqonlarga berish tavsiya etiladi.

Asarda davlat bozor bahosini tartibga solib turishning chora-tadbirlarini ko‘rib chiqilishi lozimligi to‘g‘risida fikr yuritilgan. Masalan, unda mahsulotning bozor bahosi bilan uning tabiiy qiymati o‘rtasidagi farq aytilgan. Tovarga bo‘lgan ehtiyoj ortganda, uning bahosi qiymatdan oshib ketishi mumkin, deyilgan. Savdo bilan shug‘ullanuvchilarga alohida urg‘u berilgan bo‘lib, foydaning miqdori tovar bahosiga (boshqa xarajatlar qatorida) qo‘shilib, mahalliy mahsulot uchun 5 foiz, chetdan

[3] Razzoqov A. va boshq.”Iqtisodiy ta’limotlar tarixi”. Darslik. T., Moliya, 2007,14-bet.

kelgan tovarlar uchun 10 foiz qilib belgilangan. Tovarlar bahosining mavsumga qarab tebranib turishini bartaraf etish uchun, davlatning kerak paytda muomalaga chiqaradigan tovar zaxirasi bo‘lishi kerak. Bu bilan tovarlar bahosi barqarorligini ta’minlashga erishiladi.

«Artxashastra»da davlatning moliya muammolarini yechishga katta ahamiyat beriladi. Jumladan, daromad solig‘iga katta e’tibor berilgan. Davlat ba’zi ishlarni rivojlantirishi uchun moddiy va ma’naviy yordam berishi kerak deyilgan. Mahsulotga baho belgilash, davlatning boyishini ta’minlash (foydani oshirib, sarf-xarajatni kamaytirish), hisob-kitobni tartibga solish kerakligi belgilangan. Shu bilan birga davlat amaldorlarini tez-tez o‘zgartirib turish kerakligi tavsiya etilgan, chunki, «suvda suzib yurgan baliq, o‘sha suvdan ichayaptimi, yo‘qmi bilib bo‘lmaganidek, ishga biriktirilgan amaldor mulkni o‘zlashtirayaptimi, yo‘qmi – aniqlab bo‘lmaydi», deyiladi asarda.

Qadimgi Hindistonning «Manu qonunlari»da (er. avv. IV-III asrlar) ijtimoiy mehnat taqsimotining hukmronligi va bo‘ysunish institutlarining mavjudligi aytiladi.

Qadimgi Hindistonda yaratilgan «Veda»larda bir qancha muhim iqtisodiy g‘oyalar keltirilgan. Ularda xususiy mulk daxlsiz ekanligi qayd etilgan.

## 2.4. Qadimgi Xitoydagi iqtisodiy g‘oyalar

Qadimgi Xitoy mutafakkirlari ichida Konfutsiy (mil. avv. 551-479 yillar) alohida o‘rin tutadi. Konfutsiyning fikrlari uning shogirdlari yozib qoldirgan «Lun yuy» («Suhbat va mulohazalar») to‘plamida aks ettirilgan. Uning fikricha, mehnat ham kishilarning, ham davlatning boyligini ko‘paytiradi. Konfutsiy «buyuk jamoa mulki» (dehqonlar jamoasi mulki) va xususiy egalik (quldorlar mulki)ni farqlaydi, ikkinchisini ko‘proq qo‘llaydi. Bu yerda u xususiy mulkni xo‘jalik yuritishda ustun qo‘yadi. Konfutsiy aqliy mehnat bilan jismoniy mehnat farqini ko‘rsatib, aqliy mehnat bilan «yuqori» tabaqali kishilar, jismoniy mehnat bilan esa, asosiy qismi qullardan iborat bo‘lgan «oddiy» kishilar shug‘ullanadi, deb qayd qilib o‘tadi.

Konfutsiy ta’limotiga ko‘ra, bilimdon hukmdor – u «xalqning otasi», «to‘g‘ri amal qilishning» va boylikni ancha tekis taqsimlashning kafolati. Uning tasdiqlashicha, Xudo va tabiat tomonidan jamiyat toifalarga ajratilgan, ammo, shu bilan birga u har bir odamni ma’naviy yuksalishga da’vat etgan, kattalarga bo‘lgan hurmat qoidalari to‘g‘risida, farzandlik burchi to‘g‘risida, aka-ukalar o‘rtasidagi do‘stlik to‘g‘risida qimmatli

fikrlarni ilgari surgan.

## 2.5. Antik dunyodagi iqtisodiy fikrlar

Iqtisodiy fikrlar qadimgi Gretsiyada yana ham rivojlantirildi. Ksenofont, Platon, Aristotel asarlarida iqtisodiy muammolar maxsus tadqiqot obyektiga aylandi. Buni Suqrotning shogirdi, Platonning zamondoshi Ksenofont (mil. avv. 430-355 y.) asarlarida yaqqol ko‘rish mumkin. Uning asarlari ichida «Daromadlar to‘g‘risida» va «Ekonomiks» (xo‘jalik to‘g‘risida ta’limot) asarlari alohida ahamiyatga ega. Ksenofont «Daromadlar to‘g‘risida» asarida Afina davlatining iqtisodiy holatini tahlil qilib, uni yaxshilashning 3 yo‘lini tavsiya etadi:

1) xorijiy kishilardan olinadigan soliqni ko‘paytirish, ularning afinaga kelishini rag‘batlantirish;

2) kumush qazib olishni kengaytirish;

3) qullar savdosini tashkil etish.

Ksenofont qishloq xo‘jaligini xalq xo‘jaligining eng asosiy tarmog‘i deb hisoblagan. «Qishloq xo‘jaligi rivojlansa, deb yozadi u, boshqa faoliyat turlari ham rivojlanadi. Agar dehqonchilik rivoji pasaysa, u holda u bilan birga suv va quruqlikdagi barcha boshqa sanoat tarmoqlari ham barbod bo‘ladi».[5]

Ksenofont iqtisodiy fikrlar tarixiga birinchilardan bo‘lib, mehnat taqsimotini tahlil qilgan olim sifatida kirib keldi (bir usta erkaklarning oyoq-kiyimini tikadi, boshqasi esa – ayollarning).

Har qanday tovarning ikki yoqlama xususiyatini, ya’ni uning foydaliligini va almashuv qobiliyatini birinchilardan bo‘lib tushungan ham Ksenofont hisoblanadi. Bundan tashqari, u pulning zarurligini va foydaliligini tan olgan va unga xos bo‘lgan quyidagi funksiyalarni ko‘rsatib bergan:

1. Muomala vositasi;
2. Jamg‘arish vositasi.

Ksenofont quldorlar mafkurasining himoyachisi hisoblanadi, qulchilikni tabiiy, obyektiv jarayon deb baholaydi, qul mehnatiga asoslangan natural xo‘jalikni ulug‘laydi. U ayniqsa, qishloq xo‘jaligini, dehqonchilikni farovonlik manbai deb bilgan. Dehqonchilik tufayli odamlar o‘zlariga hayot uchun kerakli hamma narsani oladilar. Dalada ishlash sog‘lik uchun ham foydali, ham iqtisodiy naf keltiradi. U ikki xil mehnatni farqlaydi:

1. Rahbarlar mehnati;
2. Ijrochilar mehnati.

Uningcha, rahbarlar mehnati bilan erkin odamlar, ijrochilar jismoniy mehnat bilan shug‘ullanadilar, ya’ni jismoniy mehnat bilan qullar band bo‘lishlari kerak.

Ksenofontning fikricha, xo‘jalik faoliyati davomida foydali buyumlar, ya’ni iste’mol qiymatlari yaratiladi.

Natural xo‘jalik konsepsiyasi grek mutafakkiri Platonning (Aflotun) (mil. avv. 427-347 y.) “Davlat va qonunlar” asarida o‘z aksini topgan[4]. Bu asarlarda u ideal davlat qanday bo‘lishi kerakligini ochib bermoqchi bo‘ladi. U aholini uch toifaga ajratgan:

1. Faylasuflar – davlatni boshqaruvchilar;
2. Harbiylar – davlatni boshqarish apparatining bir qismi bo‘lib, ular biror mulk egasi bo‘lish huquqiga ega emas;
3. «Qora» toifa – dehqon, hunarmand va savdogarlardan iborat bo‘lib, ular mulk egasi bo‘lishi kerak.

Platonquldorlikka asoslangan natural xo‘jalikni himoya qiladi, pulnijamiyatdagi dushmanlikning bosh sababchisi deb biladi, u sudxo‘rlik operatsiyalarini inkor etdi va baholarni me’yorda saqlash yo‘li bilan savdogarlarning foydasini chegaralashni talab qildi. Aflotun qullarni fuqarolar deb tan olmadi va ularni biror toifaga kiritmadi.

U xuddi Ksenofontga o‘xshab dehqonchilikni iqtisodiyotdagi asosiy tarmoq deb hisobladi, shu bilan birga hunarmandchilik va savdoni uncha kerakli bo‘lmagan soha deb ahamiyat bermadi.

Platon birinchilardan bo‘lib, bahoning asosi va darajasi muammosini tahlil etdi. Uningcha baho davlat tomonidan tartibga solinib turishi kerak. Asos qilib shunday baho olinishi kerakki, bu baho o‘rtacha foyda olishni ta’minlasin.

Antik dunyodagi iqtisodiy qarashlarning yirik namoyondalaridan biri, Aristotel (Arastu) (mill. avv. 384-322 y.) hisoblanadi. Bu qadimgi grek mutafakkiri boshqa zamondoshlariga qaraganda iqtisodiy muammolarga chuqurroq kirib borishga muvaffaq bo‘lgan. Uning asosiy asarlari «Nikomax etikasi» va «Siyosat» hisoblanadi. Bu yerda Aristotel, xuddi Platonga o‘xshab, ideal davlat g‘oyasini ilgari suradi. Uning fikricha, jamiyatning quldor va qullarga bo‘linishi – bu tabiiy va qonuniy hol bo‘lib, odamlarning tabiatan turli-tumanligidandir.Uning g‘oyalarini o‘ziga xosligi shundaki, erkin fuqarolar, boshqaruvdagilar, yer egalari, chorvador, hunarmand va savdogarlar ham yashash vositalaridan foydalanish va boylik topish huquqiga ega.

Shu bilan birga Aristotel o‘z asarlarida iqtisodiyot (ekonomika) va

[4] Razzoqov A. va boshq. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. Darslik. T., Moliya, 2007, 21-bet.

xrematistika tushunchalarining farqini ajratib ko‘rsatib beradi. Ekonomika, Aristotel tushunchasi bo‘yicha – bu, eng avvalo, dehqonchilikdagi kishilarning hamda hunarmandchilik va mayda savdo bilan band bo‘lganlarning asosiy va sharafli faoliyatidir. Uning maqsadi – insonning eng muhim ehtiyojlarini qondirish hisoblanadi va shuning uchun unga davlat g‘amxo‘rlik qilishi kerak. Xrematistika esa – bu yirik savdo yo‘li bilan boylik orttirish mahoratidir. Boshqacha qilib aytganda, xrematistika – bu kapital qo‘yish, sudxo‘rlik va jamg‘arish «san’ati»dir. Aristotelning aytishicha, ekonomika «maqtovga» sazovor, xrematistika esa «tanbehga».

Qadimgi grek mutafakkirining ekonomika va xrematistikaga bo‘lgan bunday munosabati uning natural-xo‘jalik tarafdori bo‘lganligini yaqqol ko‘rsatib turibdi.

Aristotel savdoning rivojlanish bosqichlarini va pul muomalasini tahlil qilib, yirik savdo va ssuda operatsiyalariga salbiy munosabatda ekanligini bayon etdi. U pulning qiymat o‘lchovi va muomala vositasi funksiyalarini ekonomikaga boylikni ko‘paytirish funksiyasini xrematistikaga kiritdi.

## 2.6. Qadimgi Rimdagi iqtisodiy qarashlar

Rimning yirik siyosat arbobi va yozuvchisi Mark Katon (mil. avv. 234-149 y.) ham o‘zining «Dehqonchilik to‘g‘risida» asarida qishloq xo‘jaligini xalq xo‘jaligidagi asosiy tarmoq deb hisoblaydi. Katon dehqonchilikni tashkil etishning eng qulay usulini qo‘llashga, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotishni tashkil etishga katta e’tibor berdi. Katonning qishloq xo‘jaligi sohasida bo‘lgan asosiy e’tibori shundan kelib chiqadiki, agar Gretsiyada qullar ko‘proq hunarmandchilik va savdoda ezilgan bo‘lsa, Rimda ular ko‘proq qishloq xo‘jaligida ekspluatatsiya qilingan.

Katon tovar qiymatidan ortiqchasini foyda deb bilgan. Tovar qiymatini unga sarflangan xarajatlar deb tushungan. U savdogarlar va sudxo‘rlarga salbiy munosabatda bo‘lgan.

Bu davrda Rimda natural xo‘jalik bilan birga bozor munosabatlari ham rivojlanayotgan edi. Bozor munosabatlarini yoqlagan Katon, shu bilan birga, yollanma mehnatga dushman bo‘lgan. U qul mehnatini to‘g‘ri tashkil etishga alohida ahamiyat beradi. Bayram kunlari ish hayvonlariga dam berilgan holda qullar ishlashga majbur etilgan. Kasallangan ho‘kiz davolangan, qulni esa «eski arava» sifatida sotib yuborish tavsiya etilgan.

Katon savdogarlar va sudxo‘rlar faoliyatiga salbiy munosabatda bo‘lgan.

Miloddan avvalgi II asrda Rimda dehqonlar qo‘lidagi yerlar tortib olinib, yirik latifundiyalar vujudga kela boshladi. Erkin Rim aholisi, dehqonlar va armiya askarlari yersiz qoldi. Bu holat yirik yer egalari – patritsiylar va dehqon – plebeylar o‘rtasidagi qarama-qarshilikni kuchaytirdi, oxir-oqibatda aka-uka Tiberiy (mil. avv. 163-132 y.) va Gay (mil. avv. 153-121 y.) Grakxlarning agrar islohotiga sabab bo‘ldi. Ular yersiz yoki kichik yerga ega dehqonlarning yirik yer egalariga qarshi kurashini himoya qildilar.

Agrar masalalarni yechish maqsadida, Tiberiy Grakx (mil. avv. 133 y.) qonun qabul qilishni taklif qilib chiqdi. Bu qonunga muvofiq, italiyalik fuqarolarga davlatning haydaladigan yeridan 500 yuger (125 gektar)gacha ijaraga olish ruxsat etilgan. Bundan tashqari, 1 oila 1000 yugerdan oshiq yerga egalik qilishi man etilgan.

Tiberiy Grakxning agrar loyihasi qisman amalga oshirildi va natijada o‘n minglab dehqonlar yer olishga muvaffaq bo‘ldilar. Qonun qabul qilingandan so‘ng unga yirik yer egalari va senat qarshilik ko‘rsatib, Tiberiy Grakx ataylab o‘ldiriladi. Shundan keyin uning ishini ukasi Gay Grakx davom ettiradi va bir qancha demokratik o‘zgarishlarni amalga oshiradi. Dehqonlarga yer berish qaytadan boshlanadi hamda shaharlik kambag‘allarga davlat xazinasidan past bahoda don sotish to‘g‘risida qonun qabul qilinadi.

Shunday qilib, Grakxlarning islohoti mayda dehqon yer egaligi mavqeini kuchaytirish va aholi kambag‘allashuvining oldini olishga qaratilgan edi.

Bu davrning o‘zida Rimda bir qancha taniqli olimlar va yozuvchilar o‘z faoliyatlarini namoyon qilgan bo‘lib, ular qatorida atoqli Rim adibi va olim Mark Varron (mil. avv. 116-27 y.) va Rim yozuvchisi Yuniy Kolumella (mil. I asr) xalq xo‘jaligida dehqonchilik va chorvachilikni asosiy tarmoq hisobladilar. Mark Varron «Qishloq xo‘jaligi to‘g‘risida» degan asarida o‘zining iqtisodiy qarashlarini bayon etdi. U chorvachilikni bozor sharoitida eng foydali tarmoq deb hisoblagan. Bunga sabab o‘sha davrda Italiyada don ancha arzon bo‘lib, chorvachilik ancha daromadli soha hisoblangan. U qishloq xo‘jaligining itqtisodiyotdagi o‘rnini yaxshi tushunmagan.

Jumladan, Yuniy Kolumella «Qishloq xo‘jaligi to‘g‘risida» degan asarida qullar yerni yaxshi ishlatmaganligi sababli, yerdan yuqori hosil olish qiyinlashmoqda degan fikrga keladi. Shuning uchun u qullar mehnatidan ko‘ra, erkin mayda ishlab chiqaruvchilar mehnatining

afzalligini isbotlab beradi. Hosildorligi past bo‘lgan yerlarni u erkin kolonlarga bo‘lib berishni, mayda tovar ishlab chiqarishga o‘tish zarurligini tavsiya etadi.

Mark Sitseron (mil. avv. 106-43 y.) taniqli davlat arbobi va mashhur notiq. U yuqorida aytilgan olimlardan farqli ravishda, yirik savdoni qo‘llab-quvvatlaydi, mayda savdoni esa mensimadi. Sitseronning sudxo‘rlikka bo‘lgan munosabati ziddiyatli bo‘lgan. Bir asarida sudxo‘rlikni ma’qullasa, ikkinchi bir asarida uni qoralaydi. Shu bilan birga u xususiy mulkchilikni, ekspluatatsiyani kuchaytirishni tarafdori bo‘lgan. U bozorni tovar bilan ta’minlashda dehqonchilikning ahamiyati katta deb tushungan.

Shunday qilib, Rim (hozirgi Italiya)da quldorlik munosabatlari yuksaldi, lekin tanazzulga ham uchray boshladi. Osiyoda feodalizmga bo‘lgan munosabat o‘zgardi va erkin sohibkorlik ustunligi ortib, dehqonchilik bilan chorvachilik, yirik savdo, sudxo‘rlik jamiyati rivojlangan (Sitseron). Mayda ishlab chiqarishga o‘tish jarayoni, islohotlar (Grakxlar) yo‘li boshlandi.

Katon tomonidan foyda tushunchasi kiritilgan, ammo uni noto‘g‘ri talqin qilib, qiymatdan ortiq mahsulot deb bilgan. Undan tashqari Rimning iqtisodiy g‘oyalari Varron, Kolumella, Sitseron va boshqalarning asarida ham ko‘rsatilgan.

## Tayanch so‘z va iboralar:

Mesopotamiya, Eshnun qonunlari, Xammurapi qonunlari, konfutsiylik, natural-xo‘jalik munosabatlari, «Avesto», «Artxashastra», sudxo‘rlik, «mehnat taqsimoti», «ideal davlat», «ekonomika», «xrematistika», boylik taqsimoti, daosizm, «Manu qonunlari», «buyumning qiymati», «gapiruvchi qurollar».

## Muhokama uchun savollar:

1. Ilk yozuv qayerda va qaysi mamlakatda kashf etildi?
2. Eshnun qonunlarining yaratilish sabablari.
3. Avesto zardushtiylikning muqaddas kitobi.
4. Artxashastra- foyda to‘g‘risidagi ta’limot.
5. Qadimgi Xitoydagi iqtisodiy ta’limotlarning mohiyatini tushuntirib bering.
6. Dastlabki yer va non islohotlarini tushuntirib bering.

# III BOB. ILK UYG‘ONISH DAVRI G‘OYALARI

## 3.1. Qur’oni Karimdagi iqtisodiy qarashlar

Muqaddas kitob – Qur’oni Karimda kishilik jamiyatining faoliyat turlaridan biri, iqtisodiyot sohasidagi munosabatlar muhim o‘rin tutadi. Chunki, iqtisodiy munosabatlarda insonlarning asosiy fe’l-atvorlari namoyon bo‘ladi. Qur’oni Karim ahkomlari insonlarga ilohiy farmoyish sifatida, zamindagi barcha insonlarning bir ota-ona, Odam alayhissalom va Momo Havo farzandlari, binobarin aka-uka, opa-singil ekanligiga asoslanadi. Jumladan, «Xujurot» sur’asining 13-oyatida «Ey insonlar, biz sizlarni bir ota (Odam alayhissalom) va bir ona (Momo Havo)dan yaratib, yer yuzi bo‘ylab har xil xalq, qabila va elatlar tarzida tarqatib yubordik, toki sizlar bir-birlaringiz bilan tanishib, mehr-muhabbat hosil qilg‘aysizlar. Albatta, sizlarning Olloh nazdida eng hurmatlirog‘ingiz-taqvodorrog‘ingizdir. Albatta, Olloh bilguvchi va hamma narsadan ogoh zotdir». Islomda «taqvo» deganda solih, xayrli ishlarni ado etib, munkar, man qilingan, insoniyatni zavolga boshlaydigan ishlarni qilmaslik tushuniladi. Demak, taqvo insonlarning bir-biridan afzalligini belgilashdagi asosiy o‘lchovlardan biri hisoblanadi. Bu afzallik ma’naviy va ruhiy tarbiyalash bilan o‘zgalarni yashash va turmush kechirish huquqlarini e’tirof etish asosida shakllanadi.

Qur’oni Karimdagi iqtisodiy g‘oyalarni bir necha guruhga ajratish mumkin. Ulardan biri eng avvalo, halol mehnat, xususan, dehqon, chorvador, hunarmandlar mehnati ulug‘lanadi, peshona teri bilan halollik asosida hayot kechirishga da’vat etiladi, barcha boylikning asosida mehnat yotishi uqtiriladi.

Ikkinchi guruh g‘oyalar – tijorat, ya’ni kengroq ma’noda esa bozor munosabatlariga alohida e’tibor qaratiladi. Masalan, Niso sur’asida (29-oyat) «Mollaringizni nohaq (ya’ni o‘g‘rilik, qaroqchilik, sudxo‘rlik, poraxo‘rlik, qimor kabi) yo‘llar bilan yemangiz! Balki o‘zaro rizolik bilan bo‘lgan savdo-sotiq orqali mol-dunyo qilingiz», deyiladi. Biroq sudxo‘rlik, poraxo‘rlik kabi illatlar sha’riy jihatdan harom ekanligi qayta-qayta ta’kidlanadi.

Uchinchi guruh iqtisodiy g‘oyalar esa mulk va meros masalalariga qaratilgan. Mulkning muqaddasligi, birovning mulkiga xiyonat (ayniqsa, omonatga xiyonat) qoralanadi, hatto biron odamning mol-mulkiga hasad qilish ham katta gunoh deb hisoblanadi.

Yerga egalik qilish, mulkchilik munosabatlari to‘g‘risida ham alohida fikrlar lo‘nda bayon etilgan. Masalan, Moida sur’asining 40-oyatida

yerdan unumli foydalanib, olingan narsalargina insonga tegishli ekanligi ta’kidlangan.

Islomda jamiyatning tengsizligi taqdiri azaldan deb tan olinadi, Ammo halollik va to‘g‘rilikka buyuriladi, yolg‘on ishlatish, o‘g‘rilik, mehnatsiz daromad topish man etiladi. Bu xatoga yo‘l qo‘yganligi uchun qattiq jazo choralari belgilanadi (Moida sur’asi, 38-oyat), «…*Ammo kim bunday jabru-zulmdan keyin tavba qilib, o‘zini tuzatsa, albatta, Olloh tavbasini qabul qilar*» (39-oyat).

Olloh taoloning Qur’oni Karimda qarz olish va berish, meros, uni taqsimlash (4-sura, 8-oyat), yetim-yesirlarga muruvvat, hayr-ehson qilish haqidagi oyat, karimalaridan kelib chiqadigan g‘oyalar hamda soliq turlari va miqdori ham katta ahamiyat kasb etadi. Yetim-yesirlar haqiga xiyonat qilish eng katta gunohlardan deb e’lon qilingan. Shuningdek, o‘zaro yordam ham zarur, lekin yomon ishlarda va dushmanlikda emas, deyiladi.

Islom ta’limotini chuqurroq tushunishda Qur’oni Karimdan keyingi hujjat payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomning hadisi shariflari hisoblanadi. Hadisi shariflardan quyidagi namunalarni keltiramiz:

- munofiqning belgisi uchtadir: yolg‘on so‘zlash, va’dasining ustidan chiqmaslik va omonatga xiyonat qilish.
- amirning sovg‘a olishi harom va qozining pora olishi dindan chiqishdir.
- boylarning uyiga kamroq kiringlar, aks holda Tangrining sizlarga bergan ne’matlarini pisand qilmagan bo‘lasizlar.
- tilanchilik quyidagi uch toifadan birigagina joizdir:
  1. Xun to‘lovchiga;
  2. Og‘ir qarzdorga;
  3. Miskin qashshoq kishiga.
- ekmoq niyatida qo‘lingizda ko‘chat turgan paytda bexosdan qiyomat- qoyim bo‘lib qolishi aniq bo‘lganda ham, ulgursangiz uni ekib qo‘yavering.
- kimki hayotda tejamkor bo‘lsa, zinhor qashshoqlikka duchor bo‘lmaydi.
- pora beruvchi ham, uni oluvchi ham do‘zaxga mahkumdir.
- ilmga nisbatan go‘yo cho‘pon kabi posbon bo‘linglar, lekin ilmni faqat rivoyat qilguvchi bo‘lmanglar.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, Markaziy Osiyo donishmandlaridan al-Termiziy, al-Buxoriylarning to‘plagan hadisi shariflari islom olamida eng ishonchli hisoblanadi.

Iqtisodiy munosabatlarning huquqiy asoslari islom ta’limotidagi

fikrning tarkibiy qismini tashkil etadi. Vatandoshimiz Marg‘iloniyning «Hidoya» asari shular jumlasidandir. Buyuk olim Burxoniddin al Marg‘iloniyning to‘liq ismi Ali ibn Bakr ibn Abdul Jalil al-Farg‘oniy ar-Rishtoniy al-Marg‘iloniy bo‘lib, ul zot 1123-yil 23-sentyabrda tug‘ilgan. Ul zot Qur’onni, Hadis ilmlarini mukammal egallab, fiqh – islom huquqshunosligi borasida benihoya chuqur bilimga ega bo‘lganligi va bu sohada beqiyos durdonalar yaratganligi tufayli, Burxoniddin valmilla (Islom dinining dalili) va Burxoniddin al-Marg‘iloniy nomlari bilan mashhurdir. Olim dastlabki ta’limni Marg‘ilonda olib, keyinchalik Movarounnahrning o‘sha davrdagi diniy va ma’rifiy markazi bo‘lgan Samarqandga ko‘chib borgan va umrining oxirigacha o‘sha yerda yashagan. O‘z asarlarini yaratishda Islom dinidagi sun’iylarning to‘rt mazhabi asoschilarining asarlarini o‘rgangan. Bizgacha uning o‘nga yaqin asari yetib kelgan. «Al-Hidoya» asari esa 1178-yili Samarqandda yozilgan. Bu asar Xanafiya mazhabining fiqh masalalari bo‘yicha asosiy qo‘llanmaga aylangan. Keyinchalik esa butun musulmon olamiga mashhur bo‘lib, musulmon huquqi - fiqh bo‘yicha, eng aniq, izchil mukammal asar sifatida tan olingan. Asarda keltirilgan jumlalarning har biri puxta, sermazmun va qisqa so‘zlar tarkibidan iborat. «Al-Hidoya»ning birinchi kitobi to‘rt jilddan iborat bo‘lib, har biri alohida muammolarni tahlil etadi. Bu kitob 1994-yilda professor A.X.Saidovning izohi bilan nashr etilgan. Kitobning tarkibi quyidagicha: 1-jild – tahorat, namoz, ro‘za, zakot va haj kabi farz amallarining ibodat masalalariga bag‘ishlangan.

2-jild – oila huquqi, qullar muammolari, sherikchilik va vaqf mulki kabi masalalarni yoritgan.

3-jild – oldi-sotdi, pul muomalalari, kafolat, qozilarning vazifalari, guvohlik, berilgan guvohlikdan qaytish, vakolat, da’vo, iqror bo‘lish, sulh, bir ishda pul bilan sherik bo‘lish, pulni saqlashga berish, qarz berish, sovg‘a, ijara, muayyan shart asosida cheklangan ozodlik berilgan qullar, valiylik, majbur qilish, homiylik, bosqinchilik xususidagi masalalar yoritilgan.

4-jild – shafe’lik, meros taqsimlash, dehqonchilik va bog‘dorchilik xususida shartnoma, qurbonlik qilish to‘g‘risida, shariatga zid, yomon narsalar haqida, tashlandiq va qo‘riq yerlarni o‘zlashtirish xususida, ovchilik, garovga qo‘yish, jinoyatlar xususida, xun haqi to‘lash, vasiyat kabi masalalarga bag‘ishlangan.

Ushbu asarda yoritilgan masalalar tarkibida ko‘rinadiki, u juda boy tarixiy tajribani o‘zida mujassamlashtirgan. Chunonchi, kishilar

o‘rtasidagi munosabatlarda insonparvarlik, adolat barqaror bo‘lishida katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, tijorat ishlarida adolat, to‘g‘rilik, halollik, insonparvarlik qoidalariga rioya qilish nihoyatda zarur ekanligi qayd qilinadi. Birovning haqiga xiyonat qilish, kishilarni aldash kabi sifatlar ta’riflanadi. Demak, «Al -Hidoya» sakkiz asrdan buyon Islom dunyosi mamlakatlari uchun eng ishonarli manbalardan biri sifatida mo‘tabar qo‘llanma vazifasini o‘tab kelmoqda.

## 3.2. Xalq og‘zaki ijodidagi iqtisodiy qarashlar

O‘zbek xalqi iqtisodiy tafakkurining rivojlanishida muhim manbalardan biri – xalq og‘zaki ijodi namunalari hisoblanadi. Bu namunalar jumlasiga dostonlar, xalq maqollari va qo‘shiqlar kiradi. Tarixiy merosimizning noyob yodgorliklaridan biri, Alpomish dostonidir. Bu doston shakllanganiga ming yildan ortiqroq bo‘lganligini dalillar tasdiqlamoqda. Shuning uchun ham Alpomish dostonining ming yilligi respublikamizda 2000-yilda keng nishonlandi. Asarning badiiy ahamiyatidan tashqari undagi iqtisodiy qarashlar ham muhim o‘rin tutadi. Alpomish dostonidagi iqtisodiy munosabatlar tarkibini quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Islom ta’limoti asosidagi iqtisodiy munosabatlar. Bu munosabatlarning negizini zakot va juz’ya to‘lovlari bilan bog‘lik masalalar tashkil etadi. Ya’ni Qo‘ngirot elida hukmronlik qilgan Alpomishning otasi Boybo‘ri bilan uning akasi Boysaribiyning zakot to‘lovi bo‘yicha nizolari.
2. Mehnat taqsimotining rivojlanganlik darajasi. Dostonda ko‘rinadiki, o‘sha davrga kelib chorvachilik tarmog‘i Qo‘ngirot eli ixtisoslashuvining ko‘rsatkichidir.
3. Tovar-pul va moliya tizimi munosabatlari. Dostonda keltirilishicha, qo‘ng‘irotliklarning tovar-pul munosabatlarida natura to‘lovlari ustuvorligi namoyon bo‘ladi. Qalmoqlar davlatida esa daromad va xarajatlarni tartibga solish muhrdor lavozimi orqali yuritiladi. Muhrdor daromad va xarajatlar bo‘yicha hisob-kitoblar qilishda, oqsoqollar tomonidan yig‘ib topshiriladigan soliq va yig‘imlarga tayanadi. Bu mamlakatda 500 ta oqsoqollik lavozimi joriy etilgan. Ularning maoshi to‘plangan soliqlardan bir qismini tashkil etadi. Sipohiylar uchun esa 500 pul birligi miqdorida maosh tayinlangan. Muomala uchun ishlatiladigan pul birliklari qo‘shni mamlakatlardagi zarb qilingan oltin va kumush tangalar ekanligi to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan. Soliqlarning manbai bir tomondan yer solig‘i bo‘lsa, ikkinchi tomondan esa savdo karvonlari

va ichki bozordan olinadigan yig‘imlar hisoblanadi.

Umuman olganda, xalq og‘zaki ijodidagi asarlar millat tarixidagi iqtisodiy munosabatlarni bayon etishda muhim manbalardan biri hisoblanadi. O‘zbek xalqining maqollari ham iqtisodiy aqidalarning tarkibiy qismini tashkil etadi. Demak, milliy iqtisodiy tafakkurning umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unligini ta’minlashda xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

## 3.3. Abu Nasr Forobiyning iqtisodiy g‘oyalari



Abu Nasr Forobiy va Abu Ali ibn Sino iqtisodiy merosi markazida inson va uning ehtiyojlarini qondirish masalasi turadi. Zero, yuqorida aytilganidek, inson bu dunyoning oliy ne’mati va uning ehtiyojlarini qondirish har qanday jamiyatning yashash va rivojlanish shartidir. Albatta, inson ehtiyojlari turli-tuman va doimiy o‘sib boruvchidir. Odamlar ehtiyojlarini iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy guruhlarga ajratish mumkin. Ammo inson ehtiyojlari ichida ustuvor o‘rinda iqtisodiy-ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish turadi.

Abu Nasr Forobiy buyuk ajdodlarimizdan biridir. U ilm-fan tarixiga Sharqning buyuk faylasufi, Sharq Arastusi, Sharq Aflotuni kabi mashhur nomlar bilan muhrlangan. Uning iqtisodiy va boshqa ijtimoiy qarashlari Arastu va Aflotun asarlarini tushuntirishga qaratilganligi bir qancha asarlarida bayon etilgan, jumladan, uning iqtisodiy dunyoqarashi «Fozil odamlar shahri» asarida ham o‘z ifodasini topgan.

Mutafakkir, Aflotun qarashlari haqida gapirar ekan, «mulkka ega bo‘lish yomon odat emasligini, qashshoqlikda (mulksiz) yashagandan ko‘ra, badavlat yashamoq afzaldir», degan fikrni aytadi. Faqat «mulkni befoyda jamg‘arishdan saqlanish zarur», degan fikrni ilgari suradi. Fikrini davom ettirib yozadiki: «Odamlarga, avlodga zarar keltirmaydigan mol-mulk orttirish foydali ishdir; bunda qonunlar yordamida ruh va badanni e’zozlanishiga sazovor qiladigan tarbiya muhim ahamiyatga ega. Faqat boshqalar uchun zarar keltiradigan boylik to‘plash, mol-mulkka ega bo‘lish yomon odatdir»[5].

Olim Aflotun falsafasini sharhlar ekan, odamlarni mulkiy qonunlar

[5] Forobiy. “Fozil odamlar shahri”.T.,1993.

asosida tarbiyalash masalasiga alohida e’tibor beradi. «Agar shahar aholisi ma’rifatsiz, tajribasiz odamlar va bolalardan iborat bo‘lsa, u holda ular qonun o‘rnatgan tartib va boshqaruv usulini qabul qilmaydilar»[6]. Qayd etiladiki, qonunlar asosida, ya’ni huquqiy tarbiya ijtimoiy-iqtisodiy hayotda g‘oyat muhim ahamiyatga ega. Huquqiy tarbiya faqat o‘zini emas balki boshqalarni ham o‘ylab yashash va ishlashga xizmat qiladi, mulkiy manbalarni to‘g‘ri tasarruf etish, undan yaxshi natijalar olishga da’vat etadi. Shuning uchun ham mamlakatimizning “Ta’lim to‘g‘risidagi” dastur va qonunida, huquqiy va mulkiy tarbiyaga alohida e’tibor berildi. Forobiy uqtiradiki, “Mulk orttirishda unchalik xavf yo‘q, ammo uni ehtiyot qilib saqlash kerak. Agar boshqa birovlar hisobiga mulk orttirganlar jazolanmasalar, u holda shahar aholisidan insof va shuhrat yo‘qoladi. Mulkni ehtiyot qilib saqlab, o‘z ehtiyoji uchun ishlatsa, bu yomon ish-hisoblanmaydi...”

Bu ko‘rsatmalarning ahamiyati bugungi kunda juda ham katta. Zero, odamlar, mustaqillik va demokratiya tufayli mulkdor bo‘lmoqdalar. Biroq mulkdor bo‘lish boshqa-yu, mulkni ehtiyot qilib, o‘zi va jamiyati uchun samarali foydalanish undan ham muhim.

Ishlab chiqarish va iste’mol uchun xarajat qilish muayyan zaruratdir. Ishlab chiqarish va hayotning samarasi ko‘pincha ana shu xarajatlar miqdori, tartibi va mezonlariga ham bog‘liqdir. Olim hisoblaydiki, yashash uchun ega bo‘lingan mablag‘larni, mahsulotlar va mulkni to‘g‘ri taqsimlanmasa, me’yori bilan xarajat qilinmasa, bunday ishda «nomaqbulchilik ro‘y beradi». «Bu – boshqarilishi eng qiyin bo‘lgan ishdir, kimda-kim o‘z ixtiyorida bo‘lgan mulkni foyda keltirish uchun muomalaga qo‘ymasa, uni faqat o‘zi uchungina jamg‘arsa, juda katta zarar keltiradi».

Forobiy qarashlarida taqsimot masalasi juda keng va o‘ziga xos usulda talqin etiladi. U jamiyat va odamlar qo‘lidagi mulk va noz-ne’matlarni to‘g‘ri taqsimlash davlat qurilishida asosiy masaladir, degan fikrni bildiradi. Demak, jamiyat hayotida eng muhim muammolardan biri, mulkni, mahsulotlarni kerakli maqsadlarga to‘g‘ri, samarali taqsimlanishidir. Taqsimot ishi maqsadga muvofiq yo‘lga qo‘yilmas ekan, ko‘pchilik odamlar bachkanalashib ketadi, odamlar faqir ahvolga tushib qoladi.

Taqsimot mavjud mulk, mahsulot, boyliklar hisobini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishdan boshlanadi. Xuddi ana shu fikr Forobiy tomonidan oldingi o‘ringa qo‘yiladi. «Avvalo, - deydi olim, - yer va joylarning miqdori,

[6] Forobiy. “Fozil odamlar shahri”.T., 1993.

keyin ularning egalari va tutgan o‘rinlari, so‘ngra nihoyatda zarur narsalar bo‘lgan oziq-ovqatlar, ekin ekiladigan yerlar, saroy va shaxsiy uylarning miqdori hisobga olinishi zarur»[7]. Forobiy Aflotunning quyidagi fikrlarini alohida ajratib keltiradi: «Taqsimotning ishi juda qiyin, lekin juda zarur ishdir». Buyuk daholarning taqsimot va mulkni tasarruf etish masalalariga bu qadar chuqur qarashlari bejiz emas.

Albatta, taqsimot mavjud narsalar taqsimotidir, u ishlab chiqarishga nisbatan vaqt jihatidan keyingi o‘rinda turadi, ishlab chiqarish munosabatlaridagi ikkinchi bo‘g‘indir. Biroq shuni unutmaslik kerakki, taqsimot ishlab chiqarishning boshqa tomoni, aslida uning davomi va takrorlanishidir. Buning ma’nosi shuki, to‘g‘ri va adolatli taqsimot tizimi yaratilgan sharoitdagina ishlab chiqarish natijalari shunchalik yaxshi bo‘ladi. Bu yerda gap faqat makroiqtisodiy darajadagi taqsimot ustidagina borayotgani yo‘q, bu xulosa mikroiqtisodiyotning barcha bo‘g‘inlari uchun ham birdek ahamiyatga ega. Forobiyning iqtisodiy qarashlarida jamiyat hayotining eng muhim masalalari ko‘rsatib o‘tilgan. Sharq falsafasida ehtiyojlar masalasi deganda odamlar ehtiyojlari va ularning qondirish vositalarini qidirish emas, balki har bir odamning shaxs sifatidagi zaruriy ehtiyojlarni tadqiq qilish va ularni qondirish muammolari muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shu ehtiyojlar tizimida odamning shunday fiziologik ehtiyojlari mavjudki, ular faqat harakat qilish, mehnat va yaratuvchanlik (ishlab chiqarish) bilan qondiriladi.

Demak, inson ehtiyojlarining eng muhimi mehnat qilish (yaratuvchanlik) ehtiyojidir. Barcha ehtiyojlarni qondirishga ham xuddi ana shu mehnatga bo‘lgan ehtiyojni qondirish orqali erishiladi. Sharq iqtisodiy tafakkuri markazida inson va uning ehtiyojlari, ularni qondirish masalasining turishi bejiz emas.

Ijtimoiy-iqtisodiy tafakkurning ana shu eng dolzarb masalasi, Sharqning buyuk farzandi, faylasuf Abu Nasr Forobiy asarlarida asosiy o‘rin olganligi fikrimizning dalilidir. Sharq Arastusi nomi bilan mashhur bo‘lgan alloma Arastu falsafasi tahliliga bag‘ishlangan asarida iqtisodiyot fanining muhim kategoriyasi bo‘lgan ehtiyojlar masalasiga alohida e’tibor berib, ehtiyojlarni qondirish inson harakatining markazida turishini ko‘rsatdi. U inson ehtiyojlarini qondirishda mehnat va mehnat qurollarining o‘rni beqiyos ekanligini uqtirib o‘tadi.

[7] Forobiy.”Fozil odamlar shahri”.T., 1993.

## 3.4. Abu Ali ibn Sinoning iqtisodiy g‘oyalari

Abu Ali ibn Sino shu narsani chuqur tushunib yetadiki, odamlar o‘zaro hamkorlikda bo‘lishlari kerak, ya’ni ular iqtisodiy munosabatlarga kirishishlari lozim. Chunki, har bir odam alohida holda ishlaganda, u qanchalik kuchli va salohiyatli bo‘lmasin, hatto o‘z ehtiyojlarini ham qondira oladigan mahsulotni yaratishga qurbi yetmaydi. Shuning uchun odamlar o‘zaro iqtisodiy kelishuvga kelishga, ya’ni mehnat taqsimoti asosida faoliyat yuritishga intiladilar. Buning iqtisodiy nazariya nuqtai-nazaridan ma’nosi shuki, ishlab chiqarish munosabatlari haqiqatdir, tabiiy zaruratdir va muayyan holatdir.



Ibn Sino odam jamiyatdan tashqarida yashay olmasligini, u jamoat muhitidagina ijtimoiy bog‘liq bo‘la olishini qayd etgan. Ular o‘zaro iqtisodiy hamkorlik orqali o‘z hayotlarini ko‘radilar, o‘zlarining hayotiy ehtiyojlarini qondiradilar. Biroq, odamlarning o‘zaro munosabatlari adolat doirasida bo‘lmog‘i darkor, adolatni esa fanni (haqiqatni) sevadigan davlat o‘rnatishi mumkin, xolos.

Ibn Sino fikricha, davlat har bir odamning jamiyatdagi o‘rnini (ish joyini) aniq belgilab, qanday faoliyat yuritishini tashkil qilib berishi kerak, ayniqsa, davlatda tekinxo‘rlar, boshqalar hisobiga kun ko‘ruvchilar bo‘lishiga aslo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Davlat bunday natijaga faqat fanni rivojlantirish orqali erishadi.

Ibn Sino savdo munosabatlarining jamiyat taraqqiyotida katta rol o‘ynashini ham uqtirgan. U savdo aloqalari shaharlar (mamlakatlar, xalqlar) o‘rtasida yo‘lga qo‘yilishi lozimligini ta’kidlaydi, chunki shundagina ijtimoiy taraqqiyot yuz beradi, odamlar o‘rtasida tushunish vujudga keladi. Yuqoridagi qoidalarga xulosa qilib, shuni aytishimiz mumkinki, Ibn Sino ilmiy ijodida iqtisodiy munosabatlar masalasi ham, uning muammolari va ularni takomillashtirishga oid tadqiqotlar ham salmoqli o‘rin tutadi.

Abu Ali ibn Sino «Tibbiyot dostoni»da yozadiki, agar hayvonlar tabiat ne’matlariga qanoat qilib yashasalar, odamlarga bu ne’matlar ozlik qiladi, ular oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joyga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishlari lozim. Uning ta’kidlashicha, agar hayvonlar tayyor tabiat ne’matlarini o‘zlashtirib olsalar, odamlar o‘z mehnatlari bilan o‘zlariga

ovqat, kiyim-bosh, uy-joy yaratadilar, ular ana shu maqsadda dehqonchilik, hunarmandchilik, chorvachilik bilan shug‘ullanadilar. Shuning uchun alloma odamlarni ijtimoiy foydali mehnatga chorlaydi.

Ibn Sino (980-1037)ning fikricha: «*Hayvon tabiat ne’matlariga qanoat qiladi, odamlarga esa tabiat ne’matlari kamlik qiladi, u ovqat, kiyim-kechak va uy-joyga ehtiyoj sezadi. Hayvon tabiat ne’matlarini o‘zlashtirib oladi, odam esa o‘z mehnati bilan o‘ziga ovqat, kiyim, joy yaratadi. Shu maqsadda inson dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug‘ullanishi kerak*».

## 3.5. Yusuf Xos Hojibning iqtisodiy g‘oyalari



Yusuf Xos Hojib. Atoqli davlat arbobi, ilk turkiy dostonnavis Yusuf Xos Hojib 1020-yili qoraxoniylarning markaziy shaharlaridan biri Bolasog‘unda tug‘ildi (olamdan o‘tgan yili noma’lum). Bo‘lajak mutafakkir o‘z davridagi barcha bilimlarni, arab va forsiy tillar va undagi adabiyotlarni puxta egallaydi.

Bizgacha donishmandning faqat bir asari yetib kelgan, ammo bu asarda shunday durdonalar to‘planganki, ularga qoyil qolmay iloj yo‘q. Asar 13 ming misra (nasriy va nazmiy muqaddimadan tashqari), 73 bobdan iborat. Unda inson tafakkurining barcha jabhalari bo‘yicha so‘z yuritiladi va nihoyatda qimmatli fikrlar bayon etilgan. Kitobda berilgan bu g‘oyalar o‘z davri uchun ham, hozirgi davr uchun ham nihoyatda qadrlidir.

Ayniqsa, iqtisodiyot masalalari bo‘yicha davlat va raiyat munosabatlari sinchiklab o‘rganilgan. Asar 18 oy – bir yarim yilda yozib tugallangan (Bolasog‘unda boshlangan va Qashqarda nihoyalangan) bo‘lsa ham, uni yaratish uchun juda uzoq vaqt tayyorgarlik ko‘rilgan. Donishmand fikricha, ezgu orzularga faqat toat-ibodat bilangina yetishib bo‘lmaydi. Buning uchun talay ezgu ishlar qilish, foydali faoliyat ko‘rsatish kerak, degan fikrni ilgari suradi.

Taniqli iqtisodchi Adam Smitning iqtisodiy bo‘xrondan chiqarish uchun 3 narsa:

1. Tinchlik-osoyishtalik;
2. Me’yoridagi soliqlar;
3. Iqtisodiy erkin faoliyat yuritish imkoni talab etiladi. Ana shu g‘oya aslida bizning mutafakkirimiz Yusuf Xos Hojib tomonidan yetti asr avval bayon etilgan.

Xalq, raiyat (soliq to‘lovchilar) mamlakat hukmdorlaridan uch narsani kutadi, deb uqtiradi Yusuf Xos Hojib, bular: 1) pulning qadrini ko‘tarish yoki (ushlab turish); 2) xalqqa xususiy mulk huquqini ta’minlovchi qonunlarni joriy etish va 3) yo‘llarni o‘g‘ri-qaroqchilardan muhofaza qilish. Shoh esa fuqarolardan soliqlarni vaqtida to‘lashni (hozirgi kunda ham nihoyatda dolzarb), chiqargan farmon qonunlarni bajarish hamda do‘stga-do‘st, dushmanga-dushman bo‘lishni talab qiladi, deb yozadi. Ko‘rinib turibdiki, bunda jamiyat va siyosiy hokimiyat o‘zaro mutanosib bo‘lishi zarurligi g‘oyasi aniq ifoda etiladi.

Pulnig qadrli bo‘lishi haqidagi g‘oya, aslini olganda inflyatsiya muammosi bilan chambarchas bog‘liq, baholarning mo‘tadilligi ham nazarda tutiladi. U o‘z navbatida inqirozsiz iqtisodiyot, erkin muomaladagi valyuta masalalariga borib taqaladi.

Xususiy mulk huquqini ta’minlash bozor munosabatlarining asosiy unsuridir, mulkka egalik hissi taraqqiyot omili sifatida butun jahon rivoji asosida isbotlangan va hozirgi davrda respublikamizda ham jadallik bilan amalga oshirilmoqda. Davlat, umumxalq mulkiga ommaviy o‘tishning salbiy oqibatlarini sobiq sho‘rolar davrida boshimizdan kechirganmiz.

Yo‘llarni o‘g‘rilardan muhofaza qilish ichki va ayniqsa, tashqi savdo (eksport-import)ni ta’minlash va qo‘llab quvvatlash maqsadga muvofiqdir. Bu yerda savdoning xalq xo‘jaligi uchun ustuvor ahamiyati to‘g‘risida gap yuritiladi. Hozirgi davrda bu g‘oyalar mustaqil O‘zbekiston iqtisodiy siyosatining asosini tashkil etadi. Bu g‘oyalarning amaliy ahamiyati, ayniqsa, Sohibqiron Amir Temur faoliyatida yorqin namoyon bo‘lgan.

«Qutadg‘u bilig» – qutga, ya’ni baxt-saodatga eltuvchi bilim, degan ma’noni beradi. Uni mutafakkir, shoir 1069-yilda yozib tamomlagan. Muallif bunday ulkan tarbiyaviy, ma’naviy, iqtisodiy tafakkur manbai bo‘lgan asarni yozish uchun uzoq tayyorgarlik ko‘radi. U ko‘plab o‘lkalarga sayohat qiladi, ko‘plab madaniy-adabiy manbalarni o‘rganadi, tadqiq etadi. U deyarli barcha turkiy xalqlar yashaydigan o‘lkalarda (Xitoy, Turkiston, Eron va Turon) bo‘ladi.

Asar o‘sha davrning podshohi Tavg‘ochxon huzuriga keltiriladi. Xon bu asar bilan tanishib chiqqach, uning badiiy, ilmiy, tarixiy, ma’naviy ahamiyatini haqqoniy taqdirlab, shoirga Xos Hojib unvoni beriladi. Ushbu asar XV asr o‘rtalarida Hirot shahrida qayta ko‘chiriladi. Ma’lumki, bu davr Hirotda Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy kabi so‘z mulkining daholari ijod etar edilar. Shunday bir muhitda kitobga berilgan e’tibor asarning haqiqatda ham juda yuqori qiymatidan dalolat berar edi.

«Qutadg‘u bilig» biz uchun g‘oyat muhim iqtisodiy g‘oyalar ilgari surilgan asar sifatida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Asardagi iqtisodiy munosabatlarning turli jihatlari to‘g‘risidagi iqtisodiy fikrlar, ayniqsa, qimmatlidir. Asarda mehnatga to‘g‘ri haq to‘lash, boshqalar mehnatini to‘g‘ri taqdirlash, qadriga yetish, moddiy manfaatdorlik, kasb-hunar egallash, kuchli ijtimoiy himoya masalalariga katta o‘rin berilgan. Asarda muallif taqsimot munosabatlariga, ularning rag‘batlantiruvchi ahamiyatiga e’tiborni qaratadi, zero, rag‘batlantirish kuchiga ega bo‘lgan taqsimot munosabati ishlab chiqarishni kuchaytiradi, jamiyat va xalq boyligini orttiradi. Yusuf Xos Hojib yozadi: «Xizmat ahli o‘z mehnati natijasidan umidvor turadi. Umidini topmagan xodim ko‘ngli sinadi.Ammo xizmat qiluvchilarni hammasi ham bir xil emas. Ular turli-tuman toifalarga bo‘linadi. Xodimlarning naf keltiruvchilari bor, shuningdek, nafi yo‘g‘i ham ancha. Naf keltiruvchi kishiga xizmatiga loyiq ravishda tortiqlar berish kerak. Xizmatiga loyiq tortiq ko‘rgan xodimning boshi ko‘kka yetadi. Inson degani, axir, hayvon tengi emas. Ana shuni bilib, unga amal qilinsa, barcha ish ko‘ngildagidek bo‘ladi».[8]

Ko‘rinib turibdiki, alloma tekis taqsimotni, barchani bab-barobar ta’minlash tizimini tanqid qilmoqda. Har bir xodim o‘z mehnatiga, harakatiga, ish unumiga, keltirgan nafiga qarab taqdirlansa, hamma ish ko‘ngildagidek bo‘ladi. Shu bilan birga, har bir sohibkor, ish beruvchi unga yollangan xodimning mehnatini to‘g‘ri qadrlashga chaqiriladi.

Yusuf Xos Hojib «*odamga foydasi tegmaydigan odam – o‘lik, essiz o‘tgan umr emas, essiz sarflangan mehnat*», deydi (1069 y. «Qutadg‘u bilig» asarini yaratgan).

IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo ilg‘or ijtimoiy tafakkurning Sharqdagi yirik markazlardan biriga aylandi. Bu davrda mazkur hududdagi davlat markazlashgan va eng rivojlangan pallaga kirdi. Buyuk Ipak yo‘li, Tinch okeani atrofidagi mamlakatlar (Yaponiya, Xitoy, Koreya)ni Vizantiya va G‘arbiy Yevropa bilan chambarchas bog‘lar edi. Bu esa karvon yo‘li orqali minglab odamlar, ot-ulovlar, turli-tuman tovarlarning qarama-qarshi harakatini, almashuvini vujudga keltirdi. O‘rta Osiyo Yevropani Osiyo bilan bog‘lovchi yirik moddiy-ma’naviy savdo markaziga aylandi. Bu jarayonlar bir-biridan minglab chaqirim uzoqlikdagi davlatlar, xalqlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni shakllantiradi. Axir, Osiyodagi va Yevropadagi tovarlarga bo‘lgan talab va taklifni (bozorning asosiy unsurlarini) yaxshi bilmay turib, uzoq va xatarli yo‘lga chiqish mumkinmidi, katta karvonlarni tog‘-u toshlardan,

[8] Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig”. T., 1971.

qum cho‘llardan olib o‘tish osonmidi, buning uchun ma’lum qoidalarga, amallarga tayanib ish ko‘rish kerak bo‘ladi. Yevropaga qancha va qaysi tovarlarni olib borish, u yerdan nima olib qaytish, karvon yo‘lidagi davlatlar, xalqlar talab va ehtiyojini yaxshi bilish talab etilgan. Oqibatda, turli bilim sohalari, matematika (al- jabr), geometriya (handasa), astronomiya (falakkiyot) va boshqa ko‘pgina fanlar rivojlandi. Bu davrda butun dunyoga tanilgan Xorazmiy, Farg‘oniy, Ibn Sino, Ibn Rushd, Yusuf Xos Hojib, Nizomulmulk va boshqa ko‘plab mutafakkirlar yashab, ijod qilishdi. Ularning asarlarida muhim iqtisodiy g‘oyalar ham o‘z aksini topgan. Sharq uyg‘onish davridagi olimlar shu davrdagi tijorat, mulkdorlik sirlarini bayon etganlar. Ularning ko‘plari hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Musulmon huquqshunosligida tovarning iste’mol qiymati tan olingan, tovarning qiymati bilan so‘ralayotgan baho (bozor narxi) farqlangan. Yirik din peshvosi Bahouddin Naqshbandning «*Dil ba yor- u, dast ba kor*», ya’ni «*dil yor (Alloh) bilan, qo‘l ish bilan (band bo‘lsin)*» degan tezisi o‘sha davr uchun muhim edi, chunki ilgari Xudoga faqat e’tiqod qilishning o‘zi kifoya deb bilingan. Nizomulmulk (1018-1092) «*Siyosatnoma*» asarida hukmdorlar va qozilarning mansabni suiiste’mol qilishni, soliqlarning og‘irligi, davlat mablag‘larini saqlash va sarflashda hisob-kitob zarurligini qayd etgan. Saljuqiylar davlati arbobi sifatida iqto‘ni tanqid qilgan. Iqto‘ – o‘rta asrlarda o‘rta Sharq, shu jumladan, O‘rta Osiyoda hukmdor tomonidan ayrim shaxslarga katta xizmatlari evaziga chek yer in’om qilingan (Temuriylar davlatida suyurg‘ol).

## 3.6. Abu Rayhon Beruniyning iqtisodiy g‘oyalari



Pul paydo bo‘lgan davrdan, ayniqsa, tanga shaklda turli metallardan pul zarb etish boshlangan davrlardan boshlab iqtisodiy tafakkur daholarining fikr-u zikri turli mineral xomashyolar hajmi va og‘irligida mujassamlashgan, qimmatbaho metallar oltin, kumush, mis va boshqalar hissasini aniqlash uslubi va asbobini yaratish muammosi bo‘lib kelgan. Ayniqsa, bu masala X-XI asrlarda – xalqaro savdo tez rivojlanib, zargarlik buyumlari yasash kuchayavergach, fan va amaliyotning eng dolzarb muammosiga aylandi. X asrda Movarounnahr va Xurosonda juda katta miqdorda to‘la qiymatga ega

bo‘lmagan tangalar zarb etish avjiga chiqqach, ahvol yana ham og‘irlashdi. Masalan, muomalada bo‘lgan «Ismoiliy» dirhamlari yoniga qimmatga ega bo‘lmagan metallardan zarb qilingan Buxoro dirhami – «Gitrifiy» kabilar yoki past sifatli kumushdan yasalgan «Muhammadiy» tangalar muomalaga chiqarildi. Bunday hol turli xil qallobliklarning, aldashlarning kuchayishiga qulay sharoit yaratdi. Bu oltin dinorlar ham muomalada qatnashmay qolishiga olib keldiki, natijada oltin tangalar oddiy tovarlar kabi tortib beriladigan vaziyat vujudga keldi.

Ma’lumki, Abu Rayxon Beruniy mineralogiya va metallshunoslik bo‘yicha o‘z davrining eng yetuk olimi edi. Shuning uchun ham u iqtisodiy taraqqiyotga putur yetkazayotgan bunday ahvolga qarab tura olmas edi. U juda katta tadqiqotlar, izlanishlar, amaliy tajribalar o‘tkazib, minerallar tarkibidagi qimmatbaho metallar hissasini topish uslubini yaratdi. Bu usulni amalda qo‘llash uchun maxsus o‘lchov asbobi yaratish ham kerak edi. Shunday asbob Beruniy tomonidan yaratildi, bu esa pul munosabatlari tarixida, uning rivojlanishida bebaho ahamiyatga ega bo‘ldi. Beruniy o‘zi yasagan asbobning tuzilishini, uning qanday mexanizmlardan va qanday qilib yasaganini «Mineralogiya» nomli asarida bayon qilgan. Bu asbob yordamida turli metallardan yasalgan tangalar tarkibidagi qimmatbaho metallarning haqiqiy miqdorini o‘lchash mumkin bo‘ldi. Bunday asbobning yaratilishi pullar o‘rtasidagi haqiqiy nisbatlarni aniqlash, ularni o‘zaro almashtirishning adolatli asoslariga ega bo‘lish imkoniyatini berdi. Shuningdek, bu usul yordamida pul yasashdagi mavjud qallobliklarni bartaraf qilish va ana shunday noxushliklarning oldini olish mumkin bo‘lib qoldi. Buyuk bobokalonimizning bundan 1000 yildan ziyodroq avval ishlab chiqqan usullari hozirgacha ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Beruniyning iqtisodiy g‘oyalari. Buyuk qomusiy olim Abu Rayxon Beruniy (973-1048) 150 dan ortiq asar yaratgan bo‘lib, ularda mehnat boylikning asosi ekanligi to‘g‘risidagi g‘oya asosiydir. Uning ko‘pgina fikr va qarashlari bugungi kun uchun ham ahamiyatini yo‘qotmagan.

Olim yashagan davrdagi munosabatlar, ishlab chiqarishning yuksalganligi, savdo-sotiqning rivojlanishi, sug‘orish inshootlarining ishga tushirilishi ana shu davr uchun xos edi.

Shu asosda, Beruniyda kishilik ehtiyojlarining paydo bo‘lishi va uni qondirish asoslari, mehnat va hunarga munosabatlari uyg‘unlashib ketadi. Uning fikriga ko‘ra, kishilar o‘z zarur ehtiyojlarini qondirish uchun uyushgan holda yashash va ishlashga majburdirlar. Ehtiyojlar turli-tuman va ko‘p bo‘lganligi uchun insonlar birlashgan holda turar joy va shaharlar

yaratishga intiladilar, deb hisoblaydi. Shuningdek, u davlatning paydo bo‘lishini ham ehtiyoj tufayli deb o‘ylagan. Eng muhim g‘oya shuki, barcha qimmatli narsalar inson mehnati bilan yaratiladi va insonning qadr-qimmati uning avlod-ajdodlarining kim bo‘lganligi emas, balki uning mehnati, aqliy va jismoniy mahorati bilan belgilanadi. Har bir davrning urf-odatlari o‘ziga xos bo‘ladi va inson aqli ularga rioya qilmog‘i darkordir, aks holda nizom va bir xillik yo‘qolsa, tartib ham yo‘q bo‘ladi, deb uqtiradi buyuk donishmand.

Olimning fikrlariga tayanib, shunday muhim xulosa chiqarish mumkinki, inson yerdagi bunyodkor va yaratuvchi kuchdir. Inson avvalo halol mehnati bilan ulug‘lanadi, kishilik jamiyatining asl ibtidosi ham mehnatdandir.

## Tayanch so‘z va iboralar

Ehtiyojlar, mulkchilik munosabatlari, taqsimot, moddiy va ma’naviy ne’matlar, pul muomalasini tartibga solish, sarf-xarajatlar me’yori.

## Muhokama uchun savollar:

1. Abu Nasr Forobiyning mulk va mulkdor bo‘lishning hosiyati haqidagi g‘oyalari.
2. Taqsimot munosabatlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi ahamiyati haqida.
3. Abu Ali ibn Sino ijtimoiy mehnat haqida qanday g‘oyalarni ilgari surgan?
4. Abu Rayxon Beruniy iqtisodiy g‘oyalari nimalardan iborat?
5. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari nima haqida?

# IV BOB. AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDAGI IQTISODIY QARASHLAR

## 4.1. Alisher Navoiy va boburiylar davridagi iqtisodiy g‘oyalar



Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijodida ham iqtisodiy g‘oyalar muhim o‘rinni egallaydi. Uning asarlarida va faoliyatida ayniqsa, tijorat, savdo masalalari ancha mukammal yoritilgan.

A.Navoiy asarlarida savdogarlik ishi ma’qullanadi, lekin tovlamachi va chayqovchilar qattiq tanqid qilinadi. A.Navoiy davlat arbobi sifatida mamlakatni tinch saqlash, obodonlashtirish ishiga katta hissa qo‘shdi. U tirikligida mingta inshoot qurishga va’da bergan va va’dasining ustidan chiqqan, ko‘pgina madrasa, shifoxona, hammom, ko‘prik, rabot va boshqalarni o‘z hisobidan qurdirgan. Mehnatning inson hayotidagi o‘rniga, do‘stlikka yuksak baho bergan. Alisher Navoiy (1441-1501) shoir va davlatning yetakchi vaziri sifatida nom qozongan. Navoiyning mana shu sifatlari uning ijtimoiy- iqtisodiy, falsafiy qarashlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Navoiy o‘z davrining progressiv kishisi sifatida, gumanistik va vatanparvarlik xislatlarini uyg‘otish kerak ekanligini erta tushunib yetdi.

Navoiyning dastlabki ijtimoiy-iqtisodiy fikrlari shakllangan asari – bu 1469-yilda Husayn Boyqaroning taxtga kelishiga bag‘ishlangan, «Hiloliya» asaridir. Husayn Boyqaroning taxtga kelishini Navoiy zulmat qorong‘uligini yoritadigan «*hilol*», ya’ni uch kunlik oy bilan tenglashtiradi. Mamlakatning iqtisodiy, siyosiy qudrati mustahkamlanishiga, aholining ijtimoiy, moddiy ahvoli yaxshilanishiga, feodal urushlarga barham berilishiga, mamlakatda tinchlik o‘rnatilishiga ishongan. Navoiy Husayn Boyqaroni shohlar shohi deb maqtaydi. Lekin Navoiy, maqtash bilan birga muhim ijtimoiy-iqtisodiy fikrlarni ham ilgari suradi. Hukmdorni maqtash Navoiy tomonidan qo‘llangan taktik bir usul edi. Uning asosiy strategik maqsadi esa mamlakatning iqtisodiy-siyosiy ahvolini yaxshilashga, yagona markazga markazlashgan, qudratli davlat barpo qilishga qaratilgan edi. Navoiy Husayn Boyqaroning taxtga kelishidan mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy, sotsial-siyosiy va madaniy sohalarida yuksak o‘zgarishlar amalga oshirilishiga katta umid bog‘laydi.

Navoiy hukmdor shaxsining roliga katta e’tibor berib, mamlakat

iqtisodiy ahvoli shu mamlakat hukmdorining aql-idroki va qobiliyatiga bog‘liq deb hisoblaydi. Agar mamlakat hukmdori fanlarni, ayniqsa, iqtisodiyot, tarix, falsafa va siyosiy fanlarni mukammal bilmasa, u boshqarayotgan mamlakat qashshoq va xarob bo‘ladi, deydi. Navoiy *boshsiz tana bo‘lmaganidek, podshohsiz davlat ham bo‘lmaydi,* deb tarixda realist sifatida nom qoldirdi.

Davlat arbobi va qomusiy olim Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) va uning avlodlari tomonidan ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy masalalarda katta ishlar amalga oshirilganligi bizga tarixiy bitiklardan ma’lum. Xususan, Boburning «Boburnoma» asarida, «Mubbayin al-zakot» kabi to‘plamlarida iqtisodiyotga oid ma’lumotlarga, shu jumladan, soliq siyosatiga katta o‘rin berilgan. «Zakot to‘g‘risidagi katta kitob»da esa o‘sha davrdagi soliq, uning turlari to‘g‘risida qimmatli fikrlar bildiriladi. Bu asarlarni mutolaa qilar ekanmiz, ulardan mamlakatimizning bugungi hayotida ro‘y berayotgan iqtisodiy islohotlarni, o‘zgarishlarni tahlil qilish, xulosalar chiqarish amaliyotda foydalanish uchun yangi fikrlar, maslahatlar topamiz. Ayniqsa, iqtisodiyotga oid, uning umumiy asoslari bo‘lmish ishlab chiqarish, shuningdek, savdo va tijoratga oid, soliq va boj to‘lovlari bilan bog‘liq bo‘lgan qarashlari bizni to‘lqinlantiradi. E’tirof etish kerakki, garchi bizning hayotimizda Boburning davlatni boshqarish, ishlab chiqarish va savdoni tashkil etish masalalariga doir alohida asari yoki uning o‘z hukmronligi davrida yurgizgan iqtisodiy siyosatiga oid birlamchi manbalar bo‘lmasa ham, ilmiy bilish va idrok etish kuchiga suyangan holda shunday xulosaga kelamizki, u buyuk mutafakkir, qomusiy olim sifatida iqtisodiy qonunlarning mohiyatini, iqtisodiyotning jamiyat va davlat hayotidagi belgilovchi ahamiyatini chuqur tushungan. Shuning uchun ham, u dolzarb va adolatli farmonlar va hukmlar chiqarib, ilmiy jihatdan asoslangan iqtisodiy siyosat yurgizgan, buning oqibati u hukmronlik qilgan davrda davlatda osoyishtalik, milliy totuvlik, siyosiy- ijtimoiy taraqqiyot qaror topgan. Shu bois ham Bobur asos solgan saltanat bir necha asr davomida yashadi va tarixda o‘chmas iz qoldirdi. Bobur va uning vorislari davrida soliq masalalari muhim o‘rinni egallagan.

Boburning «Mubbayin al-zakot» asari to‘la ravishda qonunlar va iqtisodiy masalalarga bag‘ishlangan. Asarning nomi ham «qonunlar izohi» ma’nosiga ega.

## 4.2. Amir Temur davridagi iqtisodiy g‘oyalar

Amir Temur va uning avlodlari davrida markazlashgan davlat barpo etildi, iqtisodiyotning barcha sohalarida (hunarmandchilik, qurilish, qishloq xo‘jaligi, ayniqsa, savdoda) muhim yutuqlar qo‘lga kiritildi. Bunga to‘g‘ri tanlab olingan iqtisodiy g‘oyalar va iqtisodiy siyosat yordam berdi.



Amir Temur (1336-1405) davlat va iqtisodiyotni boshqarishda o‘ziga xos maktab yaratgandi. Sohibqiron davlatida *devoni buzrug* (bosh vazir)dan tashqari har bir viloyatda *Devon* deyiluvchi boshqarma bo‘lgan. U davlatning butkul ishlarini: soliq yig‘ish, tartib saqlashni, ijtimoiy binolar – bozorlar, hammomlar, yo‘llar, suv inshootlari tarmoqlarini nazorat qilardi. Xalqning xulq va axloqi kuzatib turiladi. Uning xodimlari vaqti-vaqti bilan so‘roq, tekshirish, taftish va tergov ishlarini olib borishardi. Ayniqsa, tosh-u tarozi to‘g‘riligi, odil baho tekshirilgan, qallob va tovlamachilar qat’iy jazolangan, eng muhimi bu ish to‘ppa-to‘g‘ri bozorda, xalq oldida amalga oshirilgan. Savdogarlarga olib kelingan mol ustiga 10 foiz narx qo‘yish mumkin bo‘lgan. Temur saltanatini idora qilish uchun turli vazirlar faoliyat ko‘rsatgan. Shunday vazirlardan birinchisiga yer soliqlari, boj, o‘lpon-soliq undirish hamda mirshablik yumushlarini boshqarish yuklatilgan. Bu vazir mamlakatdagi muhim ishlarni, kundalik muammolarni hal qilgan, raiyat ahvolini kuzatgan, viloyatlardan olingan hosil, soliq, o‘lponlarni taqsimlagan.

Ikkinchi vazir sipoh vaziri hisoblanib, sipohiylarni maoshlari va *tanxo* (bu yerda – toju taxt uchun qilgan xizmatlari evaziga beriladigan in’om ma’nosida) larni boshqargan.

Uchinchi vazir esa egasiz qolgan, o‘lib ketgan va qochganlarga tegishli mollarni, kelib-ketayotganlar, savdogarlar mol-mulkidan olinadigan zakot va bojlarni, mamlakat chorvasini boshqarib, ularning barchasidan to‘plangan daromadlarni omonat tarzida saqlagan. Agar g‘oyib bo‘lganlar va vafot etganlarning mol-mulki bo‘lsa, ularni o‘z merosxo‘rlariga topshirgan.

To‘rtinchi vazir saltanat ishlarini yurituvchi vazir bo‘lib, u saltanatdagi jami idoralarning kirim-chiqimlari, xazinadan sarf qilingan xarajat, hatto otxona va saroydagi boshqa jonzodlarga qilingan

xarajatlardan ogoh bo‘lib borgan. Vazirlar Devonbegiga bo‘ysingan.

Sohibqiron Amir Temur, jumladan, shunday degan edilar: «*Amr qildimki, sadrlar sadri (sadr, vaqf yerlar va vaqf etilgan boshqa mulkning hisob-kitobini olib boruvchi mansabdor) sayyidlar va boshqa arboblarga suyurg‘ol tariqasida berilgan yerlar va vaqflarning ahvolini, ularning vazifalarini qay darajada ado etayotganliklarini tekshirib, menga arz qilib tursin… Saltanatning xar bir idorasida kirim-chiqimlarni, kundalik xarajatlarni yozib borish uchun bir kitob tayinlansin».*

Sohibqiron davrida yerga egalikning beshta asosiy ko‘rinishi bo‘lgan:

1. *Suyurg‘ol yerlar*. Katta hajmdagi bu yerlar davlat tomonidan ajratib berilib, bir avloddan ikkinchisiga o‘tgan. Suyurg‘ol yerning egasi markaziy xazinaga to‘lanadigan soliqdan ozod qilingan. Bunday yer egalari dehqonlarni ishlatib, yer solig‘i – xiroj olganlar.

2. *Tarxon yerlar*. Bu yerlar xususiy mulk bo‘lib, ular odamlarga biron-bir xizmati uchun berilgan.

3. *Ushr yerlar*. Sayyid va xo‘jalarga mansub yerlardir. Bunda olingan hosilning o‘ndan biri davlatga berilgan.

4. *Vaqf yerlar* – masjid, madrasa, xonaqoh, qabriston va shu singari joylarga doir yerlardir. Vaqfda yer, suv, bozor, ko‘l va boshqalar mol-mulki bilan in’om etiladi. Masalan, Amir Temurning Ahmad Yassaviy uchun qurdirgan vaqfnomasi katta ahamiyatga ega. Ahmad Yassaviy va boshqa avliyolar, din peshvolarining maqbaralari uchun vaqfdan mablag‘ ajratilgan.

5. Askarlarga, askarlarning rahbarlariga beriladigan yerlar.

Kimda-kim, biror sahroni obod qilsa yoki koriz (yer osti suvlarini tortib chiqarish uchun qurilgan inshoot) qursa, biror bog‘ ko‘kartirsa yohud birorta xarob bo‘lib yotgan joyni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olmaganlar. Ikkinchi yili raiyat o‘z roziligi bilan berganini olgan. Uchinchi yildagina soliq qonun-qoidasiga muvofiq xiroj yig‘ilgan.

Amir Temur katta-yu kichik har bir shahar, har bir qishloqda masjid, madrasa va xonaqohlar bino qilishni, faqir-u miskinlarga langarxona (yo‘lovchilar qo‘nib o‘tadigan, kambag‘al yetim-yesirlarga ovqat beriladigan joy), g‘aribxona qurishni, kasallar uchun shifoxona bunyod etishni va ularda ishlash uchun tabiblar tayinlashni buyurgan edi.

Amir Temur Angliya va Farangiston qirollariga murojaat qilib, xalqaro savdo aloqalarini rivojlantirdi. Markaziy Osiyo orqali o‘tadigan Buyuk Ipak yo‘lida karvonlarning xavfsizligini ta’minladi. Mashriqdan Mag‘ribgacha bo‘lgan savdo-sotiq ishlarini kuchaytirib, turli ravotlar, karvonsaroylar, savdo rastalari qurdirdi.

A.Temurning davlat va iqtisodiyot sohasidagi asosiy fikrlari «Temur tuzuklari»da to‘la bayon etilgan. Tuzuklar Amir Temurning 1342-1405 yillar oralig‘idagi faoliyatini aks ettiradi va ikki qismdan (maqoladan) iborat. Birinchi qismda asosan yagona davlat barpo etish, uni mustahkamlash, qo‘shni (27) yurt va mamlakatlarni zabt etish masalalari yoritilgan bo‘lsa, ikkinchi qismda Sohibqiron nomidan aytilgan o‘ziga xos vasiyat, pand-nasihat, turli sohalardagi, shu jumladan, ijtimoiy iqtisodiyotga oid fikr-mulohazalar keltirilgan.

A.Temur mamlakatda gadoylar bo‘lmasligi kerak, degan qoidaga amal qilgan va uning yo‘lini ham belgilab bergan. Gadoylarning barchasi to‘plangan va ularga bir yillik kerakli oziq-ovqat, kiyim-kechak berilgan, ularni biror foydali ish bilan shug‘ullanishga jalb etilgan. Odatda, ko‘pchilik gadoylikni tark etib, biror faoliyat bilan kun ko‘rgan. Gadoylikni tark etmaganlar qul qilib sotilgan yoki mamlakatdan chiqarib yuborilgan.

## 4.3. Amir Temur davlati iqtisodiy taraqqiyotida savdo-sotiqning tutgan o‘rni

Amir Temur hukmronligi davrida Chingizxonning yovvoyi qo‘shinlari tomonidan tamoman buzib tashlangan Samarqand butunlay qayta tiklanib, ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Shaharni qayta qurish va obodonlashtirish uchun Temur har qancha mablag‘ni ayamadi. U Samarqandga nafaqat qimmatbaho mol-u mulk va harbiy asirlar, balki uning qurilishi va gullab-yashnashi uchun ko‘plab binokor-muhandislar, falakkiyot va tibbiyot bilimdonlari, iqtisodchi va tarixchilar, olim-u fuzalolar va yuksak malakali hunarmandlarni jalb etdi. Shu bois, Samarqand shahri mamlakatning iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy hayotida muhim o‘rin tutgan yirik markazga aylandi.

Samarqandda savdo-pul munosabatlarini rivojlantirish maqsadida Amir Temurning buyrug‘i bilan shaharning bir chetini ikkinchi bir cheti bilan bog‘laydigan, keng va bemalol oldi-sotdi qilish uchun qulay bo‘lgan yirik-yirik savdo rastalari qurib bitkazilib, ishga tushirildi. U bu ishlarni nazorat qilishni o‘zining ikkita mirzasiga topshirgan edi. Mirzalar qilinayotgan ishlar uchun boshlari bilan javob berishgan. Rastalar qurilishi bosqichma-bosqich kecha-yu kunduz olib borilgan. Quruvchi va ustalarning ish haqlari bajarilgan ishga qarab, ish joylarining o‘zida uzluksiz berib borilgan. Bu yumushlarni o‘nlab mamlakatlardan keltirilgan yuksak mahoratga ega bo‘lgan usta va hunarmandlar bajarganlar. Damashqdan oyna va loy ustalari, o‘q-yoy ishlab

chiqaradigan ustalar, Turkiyadan oltin va kumush, shuningdek, har xil toshlarga ishlov beradigan zargarlar va to‘p ustalari, Xorazmdan taxta va yog‘ochga ishlov beradigan o‘ymakorlik ustalari, Misrdan naqqoshlar olib kelingan. O‘sha davrda Samarqand va boshqa yirik shaharlarda 150 mingdan ortiqroq yuksak malakali usta va hunarmandlar, zargarlar, muhandislar, ishchilar mehnat qilishgan, bunyodkorlik ishlari bilan shug‘ullanishgan. Masalan, Sharofiddin Ali Yazdiy «Zafarnoma»da:

«Amir Temurning «Masjidi Sangin» imoratida Ozarbayjon, Fors, Hindiston va boshqa mamlakatlardan har kuni 200 kishi ish qilurlar edi»[9], – deb yozgan edi.

Amir Temur davrida mamlakat bozorlarida muntazam tartib o‘rnatilgan, narx-navo ustidan doimiy nazorat joriy etilgan. Raislar va har bir bozorning nazoratchilari sotuvchilar ustidan qattiq nazorat o‘rnatib, xaridorlar haqqiga xiyonat qilgan sotuvchilarni qattiq jazolar edi. Hatto, 1404-yilda Temurning o‘zi shaxsan qozilik qilib, go‘shtni yuqori narxda sotishda ayblangan qassobni o‘limga hukm qilgan.

Amir Temurning iqtisodiy siyosati ham harbiy siyosati kabi o‘ta aniq, qattiq va fuqaroparvar bo‘lgan. Uning iqtisodiy siyosati «Temur tuzuklari» asarida, Sharofiddin Ali Yazdiy «Zafarnoma» kitobida, «Boburnoma»da va boshqa tarixiy manbalarda har tomonlama batafsil bayon etilgan. Bu asarlarda mamlakat iqtisodiyotini tashkil etish, barqarorlashtirish, tartibga solish, rivojlantirish va yuksaltirishga oid qimmatli iqtisodiy tavsiyalar, g‘oyalar, qarashlar, yo‘nalishlar tizimi bayon etilgan. Amir Temur mamlakat fuqarolarini ish bilan ta’minlash, dehqonchilik, hunarmandchilik va tijorat ishlari bilan mashg‘ul bo‘lishiga imkoniyatlar yaratib bergan.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Amir Temur mamlakatda savdo va pul munosabatlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘ygan. Poytaxtda savdo rastalarini qurishdan asosiy maqsad ham kichik va mayda savdoni rivojlantirish, ish bilan bandlikni ta’minlashga qaratilgan edi. Ayniqsa, buyuk jahongir bilimdon iqtisodchi sifatida mamlakatga chet el sarmoyasi kirib kelishini va buning natijasida mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini, fuqarolarning farovonligi ta’minlanishini o‘ta oqilona tushunib yetgan: «Har mamlakat va diyor sayohatchilari-yu musofirlarining boshini siladimki, turli mamlakatlardan menga xabar keltirib turdilar. Har bir mamlakatga va diyorga karvonboshilar tayinladimki, ular qayerga borishmasin: Xitoygami, Xo‘tan, Chin-u Mochin, Hindiston, Arab mamlakatlari, Misr, Shom, Rum, Jazoir, Farangistongami, u yerlarning nafis matolari va

[9] Qosimov B, Nusratullo Jumaxo‘ja. O‘zbek adabiyoti. – T.: O‘qituvchi, 1999, 183-bet.

munosib tuhfalaridan keltirsinlar. O‘sha mamlakatlarda istiqomat qiluvchi kishilarning hol-ahvoli, turish-turmushi haqida menga xabar olib kelsinlar. Har bir mamlakat hukmdorining o‘z raiyatiga qanday muomala-yu munosabatda ekanligini aniqlasinlar!»[10].

Amir Temur Angliya, Ispaniya, Farangiston qirollariga murojaat etib, xalqaro savdo munosabatlarini yuksak darajada rivojlantirishga erishdi. Shu bois, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov shavkatli bobomiz tavalludining 660 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan xalqaro milliy konferensiyada qilgan ma’ruzasida, bu haqida shunday deydi: «Amir Temur faoliyatidagi biz uchun ibratli nuqtalardan yana biri shundaki, u savdo-iqtisod munosabatlari orqali xalqlar, mamlakatlar o‘rtasida yagona makon barpo etish sohasida shunday yutuqlarga erishganki, bunga qoyil qolmasdan ilojimiz yo‘q. Amir Temur Ispaniya qiroli Genrix III, Fransiya hukmdori Karl VI, Angliya qiroli Genrix IV saroylariga elchilar yuborib, mutanosib ravishda ispaniyalik, fransiyalik, angliyalik, xitoylik va boshqa qator xorijiy elchilarni o‘z saltanatida qabul qilgan»[11].

Sohibqironning Fransiya qiroli Karl VI ga yozgan xatidagi quyidagi fikri diqqatga sazovordir: «Siz o‘z savdogarlaringizni mening saltanatimga yuboring. Biz ularni iliq qarshi olib izzat-ikrom ko‘rsatamiz. Biz ham o‘z savdogarlarimizni sizning yurtingizga yo‘llaymiz. Siz ham ularga hurmat ko‘rsating, ularga ortiqcha tazyiqlar qilinishiga yo‘l qo‘ymang. Sizga bundan bo‘lak talabim yo‘q. Zero, dunyo savdo ahli ila obod bo‘lajak»[13].

Ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixoning ma’lumot berishicha, Amir Temur G‘arb mamlakatlari bilan siyosiy va iqtisodiy aloqalar o‘rnatar ekan, savdogarlarning diniy mansubligidan qat’iy nazar, ularni savdo erkinligi bilan ta’minlashga harakat qilgan. O‘zga davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal rivojlanishi natijasida yangidan-yangi karvonsaroylar barpo etildi. Bunday karvonsaroylar janubiy-g‘arbiy viloyatlardan Samarqandga eltuvchi yo‘llarda, ko‘pincha dala o‘rtasida qurilgan. Savdo yo‘llarida otlar saqlanadigan bekatlar ham bunyod etilgan. Bunday maskanlarda horigan otlarni almashtirib olish mumkin bo‘lgan. Aholi yashaydigan yerlardan ancha uzoqda, dasht-u biyobonlardan o‘tadigan karvon yo‘llarida joylashgan karvonsaroylar maxsus irrigatsiya inshootlari yordamida suv bilan ta’minlangan. Ana shunday karvonsaroylardan biri haqida, Rui Gonsales de Klavixo o‘z

[10] “Temur tuzuklari”.B. Ahmedov tahriri ostida. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1996, 84-bet.

[11] Karimov I.A. “Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi”. 5-tom. – T.: O‘zbekiston, 1997, 186-bet.

kundaliklarida quyidagicha ma’lumotlar keltirgan: «Ikki kunlik yo‘l davomida havoning juda issiqligi va suvning juda kamligi tufayli birorta ham turarjoy ko‘rinmaydi. Karvonsaroylardagi suv esa bu yerdan bir kunlik uzoqlikdagi joydan yer osti quvurlari orqali keltiriladi»[12].

Amir Temur davrida O‘rta Osiyo shaharlarining Sharq mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalari Buyuk Ipak yo‘lining an’anaviy tarmoqlari orqali amalga oshirilgan. Bu savdo yo‘li orqali kechgan iqtisodiy jarayonga Samarqand, Buxoro, Urganch, Toshkent, Andijon kabi savdo-hunarmandchilik markazlarigina emas, balki Movarounnahrning ancha mayda shahar va qishloqlari ham jalb etilgan.

Temur davlatining Xitoy bilan savdo-diplomatik aloqalari kengayib borgan. Xitoy imperatorining temuriy hukmdorlarga yuborgan sovg‘alari ro‘yxatida aholining yuqori tabaqasi ehtiyojlarini qondirishga mo‘ljallangan mollar, xususan, chinni buyumlar, ov qushlari, qog‘ozning alohida navi kabilar mavjud edi. Turon va Xitoy o‘rtasida mahsulot ayirboshlashda hunarmandlar uchun zaruriy xomashyo va mahsulotlar almashish katta o‘rin tutgan. Pilla qurti boqish va ipak mato ishlab chiqarish ko‘pgina mamlakatlarda yo‘lga qo‘yilganligiga qaramay, Xitoydan Temuriylar davlatiga yuborilgan sovg‘alar ro‘yxatida shoyi va undan tikilgan kiyim-kechaklar anchagina miqdorni tashkil etgan.

Chet el mamlakatlari bilan savdo aloqalarida Hindiston alohida o‘rin tutgan. Hindistondan zar qo‘shib to‘qilgan yupqa matolar; ishlab chiqarilgan joyiga qarab haydarobod, gujarot, banoras matolari deb ataluvchi gazmollar, shuningdek, shakar va bo‘yoqlar olib kelinar edi. Hindiston bilan bunday munosabatlar, ayniqsa, Zahiriddin Muhammad Bobur davrida rivoj topdi.

Movarounnahrga turli mamlakatlarning mahsulotlari qatorida, Rus va Totoriyadan charm va zig‘irdan tayyorlangan matolar keltirilgan. Yuqori sifatli charm Volga orqali Bulg‘ordan ham olib kelingan. «Bulg‘ori» deb atalgan bunday charmdan poyabzal usti, qimmatbaho egarlar, xurjun, kitobning bezakli g‘ilofi, bezakli o‘q-yoy g‘ilofi, egar-jabduq kabilar tayyorlangan.

Amir Temur Ispaniya qiroli yuborgan sovg‘alarni qabul qilib olar ekan, juda mamnun bo‘lgan edi. Chunki ular orasida buyuk jahongirning xotini uchun qizil movut, shuningdek, ov lochinlari ham bo‘lgan. Termizda ispan elchilarini kutib olishga chiqqan choparga Florensiya ko‘ylagi sovg‘a qilingan yoki Ispaniya qiroli saroyiga yuborilgan elchi

[12] Руи Гонсалес де Клавихо.”Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура”(1403 – 1406). – М.:1990, стр.153.

Samarqandga ispancha libosda qaytib kelgan edi.

Amir Temur Samarqandni butun mamlakatning ichki va tashqi savdosini boshqarib turuvchi markaz sifatida ko‘rishni xohlar edi. Shu bois, uning sa’y-harakati bilan Samarqandning ichki va tashqi savdosi hunarmandlar, qishloq ahli, o‘troq va ko‘chmanchi aholi o‘rtasida tovar ayirboshlashni muvofiqlashtiruvchilik rolini bajargan. Amir Temur yuritgan iqtisodiy siyosat qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishini bozor bilan bog‘lab turdi: qishloq mehnatkashlarini bozor orqali qo‘shimcha xomashyo, yarim mahsulot va ba’zi hunarmandchilik mahsulotlarini ko‘plab ishlab chiqarishga rag‘batlantirib, ular xo‘jaligining iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirdi.

Buyuk jahongir bundan 600 yil burun barpo etgan yagona iqtisodiy-savdo maydonida karvonlarning xavfsizligini ta’minlab, saltanatining u chetidan bu chetigacha biror bolakay boshida bir lagan tilla ko‘tarib o‘tadigan bo‘lsa, bir donasiga ham zarar yetmaydigan qat’iy tartib-intizom o‘rnatdi. Mashriqdan mag‘ribgacha bo‘lgan savdo-sotiq ishlarini rivojlantirib, minglab rabotlar, savdo rastalari qurilishini ta’minladi. Sharofiddin Ali Yazdiyning yozishicha, Temur saroyiga Misr, Farangiston, Dashti Qipchoq, Ispaniya va Arab mamlakatlaridan, Sharqiy Turkistondan juda ko‘plab elchilar kelib turishgan. Ayniqsa, Turon atrofidagi badavlat mamlakatlar bilan savdo munosabatlarini rivojlantirishga alohida e’tibor berilgan. Temur saltanati Buyuk Ipak yo‘lining eng serqatnov, serdaromad, gavjum va osoyishta qismi hisoblangan. Chunki hududda uzoq yo‘l bosuvchi savdogarlar safarini yengillashtirish maqsadida barcha karvon yo‘llari yoqalarida karvonsaroylar qurilgan bo‘lib, ularda savdo karvonlari uchun barcha qulayliklar yaratilgan, katta yo‘llarda soqchilar savdogarlar va sayohatchilarni qo‘riqlagan. Ular olib ketayotgan yukni, ya’ni tovar mahsulotlarni qaroqchilar bosqinidan himoyalagan. Yo‘l ustida birortasining narsasi yo‘qolsa, o‘zi o‘ldirilsa yoki boshqa biror kor-hol yuz bersa, bular uchun kuzatuvchi zobitlar javob bergan. Shu bilan birga, Temur o‘z davlati chegaralarining daxlsizligini ham qat’iy himoya qilgan. Mamlakat chegaralaridan olib chiqib ketilayotgan yoki, aksincha, olib kelinayotgan mahsulotlar muntazam ravishda tekshiruv postlari orqali kiritilgan yoki chiqarilgan. Rui Gonsales de Klavixoning «Kundalik» asarida yozilishicha, maxsus ruxsatnomasi bo‘lmasa, hech kimga Amudaryoning janubiy qirg‘og‘iga suzib o‘tishga ruxsat berilmagan. Kimki Samarqanddan Amudaryo orqali qayiqlarda ruxsatsiz chiqib ketishga harakat qilsa yoki tovar mahsulotlarni ruxsatsiz olib chiqib

ketmoqchi bo‘lsa, maxsus tekshiruv bo‘limlarida qo‘lga olingan va qattiq jazolangan. Bu to‘g‘rida Sohibqiron: «Va yana buyurdimki, yo‘l ustiga kuzatuvchilar, zobitlar tayinlasinlarki, yo‘llarni qo‘riqlab, yo‘lovchilar, savdogarlar, musofirlarni kuzatib, mol-mulki va boshqa narsalarini manzildan-manzilga yetkazib qo‘ysinlar... Atrofdan kirgan-chiqqan mol-mulk, chetdan kirgan va chetga chiqayotgan yot kishilar, har qanday mamlakatdan kelgan karvonlar, hukmdorlar haqidagi xabarlar; qo‘shni podsholar, ularning gaplari, fikr-mulohazalari va ishlari; uzoq o‘lkalardan bo‘lib, mening dargohimga yuzlangan ulamo, fuzalo haqidagi batafsil fikrlarni, xabarlarni rostlik, to‘g‘rilik bilan menga yetkazib tursinlar… Amr etdimki, o‘g‘ri va qaroqchilarni «Yaso» asosida jazolasinlar; fasodchi, buzuqi, nafsi yomon kishilarni mamlakatdan haydasinlar»[1315], – deb o‘git bergan.

Amir Temur davlati iqtisodiy hayotini anchagina chuqur va mukammal o‘rgangan de Klavixo Samarqand savdosi, bozorlari nafaqat oziq-ovqat mahsulotlari bilan, balki bu yerda ko‘plab tayyorlanadigan ipak va gazlamalar, paxta va mo‘yna, surmalar va upa-eliklar, xushbo‘y dorivorlar-u oltin-lojuvardlar hamda boshqa mamlakatlardan keltirilgan turli-tuman tovarlar bilan ham shuhrat qozonganligini ta’kidlab o‘tadi. Aynan ushbu «ta’kid»lar mamlakatda savdo-pul munosabatlarining behad rivojlanganligini dalillaydi. Shubhasiz, Samarqand bozorlari shuhratining olamga yoyilishida Sohibqironning mamlakatda ichki va tashqi savdoni rivojlantirishga qaratgan amaliy e’tibori, yordami va rag‘bati, jumladan, savdo-sotiq majmualari qurilishi, turli mamlakatlar savdogarlariga erkin iqtisodiy faoliyat yuritishga qulay sharoit yaratib berilishi, o‘zaro savdo bitimlarida teng imkoniyatlar yaratilganligi, savdogarlarni zo‘ravonlik va bosqindan himoya qilishi kabi tadbirlari muhim o‘rin tutdi. Bugina emas, bu choralar mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotiga barakali ta’sir ko‘rsatdi. Amir Temurning tadbirkorlik bilan olib borgan savdo-pul siyosati, xususan, tashqi savdoni rivojlantirish borasidagi tadbirlari nihoyatda diqqatomuzdir. Chunki, u tashqi savdoni mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-madaniy hayotida hal qiluvchi omil ekanligini chuqur anglagan. Hatto, Amir Temurning yurishlarini tahlil qilgan ba’zi olimlar (masalan, falsafa fanlari doktori, professor Abdullajon Begmatov) ning fikricha, uning ko‘p mamlakatlarni zabt etishdan ko‘zlagan asosiy maqsadi ba’zi tarixchilar yozganlaridek, bosqin va talon-taroj bo‘lmagan. U o‘z yurishlarini uzoq muddatga mo‘ljallangan iqtisodiy maqsadlarni ko‘zlab

[13] “Temur tuzuklari”.B. Ahmedov tahriri ostida. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1996, 119-bet.

amalga oshirgan. Albatta, bundan Amir Temur askarlari zabt etilgan mamlakat va shaharlarda talon-taroj ishlari bilan mutlaqo shug‘ullanmagan, deyish noto‘g‘ri. Chunki, u davrlarda talash va o‘lja olish urushning oddiy hodisasi bo‘lgan. Biroq, bu harbiy yurishlardan asosiy maqsad talon-tarojlar uyushtirish bo‘lmagan. «Bu fikrni Sohibqironning Oltin O‘rdaga qilgan yurishlari ham tasdiqlaydi, – deb yozadi, professor Abdullajon Begmatov. Oltin O‘rda va Oq O‘rdani birlashtirishga muvaffaq bo‘lgan, To‘xtamishxon Amir Temur saltanatiga shimoldan xavf solib turgan bo‘lsa ham, aslida shimolga qilingan yurishlardan ko‘zlangan asosiy maqsad Movarounnahr shaharlarini Sharq va G‘arb bilan olib borilgan savdodan va bu savdo keltiradigan ulkan tushumlardan mahrum qilgan yangi karvon yo‘li edi. Bu yo‘l Sharq mamlakatlarini O‘tror, Urganch, Saroy Botu, Saroy Berka, Astraxan shaharlari orqali G‘arb va Shimol bilan bog‘lagan edi. Qisqa muddatda bu shaharlar juda boyib, rivojlanib ketdilar!»[14].

Tashqi savdoni rivojlantirish, muhim savdo yo‘llarini qo‘lga kiritish Amir Temurni «Shimoliy yurish»ga undadi. Savdo karvonlari yo‘li bu davrga kelib shimolga qarab burilib ketgan, oqibatda Movarounnahr shahar va qishloqlarida iqtisodiy tanglik vujudga kelayotgan edi. Bu yurish To‘xtamishxon qo‘shinlarining mag‘lubiyati bilan tugadi. Natijada Urganch, Astraxan, Saroy Botu, Saroy Berka shaharlari egallandi. Savdo karvonlari oqimini Samarqand va Movarounnahrning boshqa shaharlariga burish maqsadida Amir Temur bu shaharlarni egallash bilangina kifoyalanmay, mutlaqo buzib tashladi va yer bilan tep-tekis qildi. So‘ngra shavkatli bobomiz Don daryosiga qarab yurdi. Chunki, bu daryoning bo‘yida yirik savdo markazlaridan biri Tan shahri joylashgan edi. Bu shahar Yevropaning Genuya, Venetsiya, Kastiliya, Andalusiya, Fransiya mamlakatlari bilan savdo qilar edi. Bu shahar shitob bilan egallanib, shahardagi savdo rastalari, omborlar, banklar buzib tashlandi, savdogarlar asir qilindi. Ular katta pul evaziga o‘zlarini zo‘rg‘a ozod qildilar. Amir Temurning «Shimoliy yurishi» qisqa vaqt ichida o‘z natijasini berdi. Savdo karvonlari yo‘lining shimoldan janubga, ya’ni Movarounnahr va Xurosonga burib yuborilishi bu o‘lkalarning yuz yildan ortiqroq davr mobaynida gullab-yashnashiga sabab bo‘ldi. Vaholanki, qiyin va qizg‘in janglar tufayli tashkil etilgan ulkan davlat qisqa muddat yashadi.

Professor Abdullajon Begmatov ta’kidlaganidek: «Karvon yo‘llarining Movarounnahrga burilishi faqat Samarqand yoki Buxoroning

[14] Begmatov A.”Movarounnahrning iqtisodiy rivojlanishi”. «Iqtisod va hisobot» jurnali, T., 1996, 11- son, 68-69-betlar.

emas, Marg‘ilon, Andijon, O‘sh, O‘zgand, Shom, Xo‘jand va mintaqadagi boshqa qator shaharlarning bir asrdan ortiqroq davr mobaynida iqtisodiy rivojlanishiga katta turtki bo‘ldi. Amir Temurning bu tadbiri faqatgina O‘zbekiston uchun emas, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Qozog‘istonning katta qismi, Ozarbayjon, Afg‘oniston, Eron hududlarida yashagan xalqlarning iqtisodiy taraqqiy etishiga katta imkon yaratdi»[15]. Chunki, hozirda bu mustaqil davlatlar o‘sha davrlarda buyuk Sohibqiron davlati tarkibida bo‘lib, uning iqtisodiy siyosatidan chetda bo‘lmagan. Mamlakat hududidan karvon yo‘llarining o‘tishi va savdoning rivojlanishi mintaqada hunarmandchilik va dehqonchilikning gurkirab o‘sishini, tovar-pul munosabatlarining rivojlanishini ta’minladi. Demak, Amir Temur davridagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot zabt etilgan o‘lkalar va mamlakatlardan boyliklar, hunarmand-ustalar va fozil-u ulamolar olib kelinishi bilangina emas, balki birinchi navbatda uzoqni ko‘zlagan tashqi iqtisodiy siyosat yuritilganligi, ya’ni tashqi savdo va tashqi iqtisodiy aloqalarning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi bilan ham izohlanadi.

Keyinchalik XV asr oxiri va XVI asr boshlarida Hindiston va Xitoyni Ovropa bilan bog‘laydigan dengiz yo‘lining kashf etilishi, bu mamlakatlardan G‘arbga Movarounnahr orqali o‘tadigan savdo karvonlarining kamayishiga va asta-sekin mutlaqo to‘xtab qolishiga olib keldi. Movarounnahr orqali o‘tadigan savdo yo‘li o‘z ahamiyatini yo‘qotgach, bu mintaqada chuqur va uzoq davom etgan iqtisodiy va madaniy inqiroz boshlandi. Bu inqiroz o‘zaro nizolar va noto‘g‘ri olib borilgan iqtisodiy siyosat bilan qo‘shilib, bu o‘lkalarda yashayotgan xalqlarning ajdodlarini to‘rt asr davomida tushkunlikka giriftor etdi. Bizningcha, bu tarixiy haqiqat Amir Temurning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti yo‘lida o‘ta xushyorlik bilan qat’iy yuritiladigan tashqi iqtisodiy-savdo munosabatlariga naqadar bog‘liqligini chuqur anglaganligidan dalolat beradi. Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda iqtisodiy aloqalarning ko‘p asrlik tajribasidan foydalangan holda olib borilayotgan iqtisodiy siyosatda, tashqi savdo va xalqaro iqtisodiy aloqalar muhim o‘rin tutmoqda. Xususan, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning 1995-yil iyun oyida «Buyuk ipak yo‘lini qayta tiklashda O‘zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi farmonga imzo chekishi va boshqa qabul qilingan huquqiy hujjatlar mazmuni hamda

[15] Begmatov A.“Movarounnahrning iqtisodiy rivojlanishi”. «Iqtisod va hisobot» jurnali,T., 1996, 11- son, 69-bet.

mamlakat transport aloqa yo‘llarini dunyo okeani bilan bog‘lash uchun qilgan sa’y-harakati kabilar O‘zbekiston hukumatining tashqi savdo iqtisodiy aloqalarda shavkatli bobomiz o‘gitlariga amal qilganligini ko‘rsatmoqda. Bu iqtisodiy tadbirlar, shubhasiz, mamlakat iqtisodiy hayotini gurkirab rivojlanishini ta’minlaydigan asosiy omillardan biri.

## 4.4. Amir Temur davrida dehqonchilik, hunarmandchilik va soliqlar tizimi

Butun o‘rta asrlar davomida, shu jumladan, Amir Temur davrida ham davlat-u saltanat uch narsa bilan: mulk, xazina va lashkar bilan tirikdir, degan fikr hukmronlik qilardi. O‘zi hukmronlik qilgan hududlarda feodal tarqoqlikni tugatish va markazlashgan davlatni vujudga keltirish sharoitida, Temur iqtisodiy fikrni yangi bosqichga ko‘tarishga erishdi. Davr iqtisodiy tafakkuridagi sifat o‘zgarishlari uning iqtisodiy siyosatida namoyon bo‘la boshladi. Bu siyosat mohiyati va hajmi jihatdan keng va katta vazifalarni bajarishga qaratilgan edi. Uning asosini yer-mulk munosabatlari tashkil etardi. Yer-suvga egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish o‘rta asrlarda hukmronlik qilgan jamiyatlar iqtisodiy munosabatlarining asosini tashkil etgan. Amir Temurning xizmati shundaki, u o‘z hukmronligi davrigacha shakllangan iqtisodiy munosabatlarni mustahkamladi, barqarorligini ta’minladi, suiiste’mol qilish yo‘llarini to‘sdi. Eng muhimi, raiyat yer-suvi, mol-mulki buyumlari himoya qilindi, ularning daxlsizligi ta’minlandi. Amir Temur har bir diyor aholisining ahvolidan xabardor bo‘lib turdi. Zolimlardan mazlumlar haqini olib berar, ular yetkazgan ashyoviy va jismoniy zararlarni undirish tadbirlarini ishlab chiqar; hokimlar sipoh va raiyatdan qaysi biriga jabr-zulm yetkazganidan xabar topsa, ularga nisbatan darhol adolat-u insof yuzasidan chora ko‘rar edi.

Amir Temur iqtisodiy siyosatining asosiy tamoyili «mamlakatni obod, raiyatni rozi» qilish edi. U bunga mamlakat obodonligining sababi va odamzod rizqining vositasi bo‘lmish, dehqonchilikni rivojlantirish orqali erishish mumkin deb bildi. Raiyatning roziligi ham, xazinaning boyligi ham, mamlakat harbiy qudratining iqtisodiy negizi ham shunda deb qaradi. Tarixchi Ibn Arabshohning yozishicha, Amir Temur dehqonchilikni rivojlantirishga juda katta e’tibor bergan va bu soha taraqqiyoti uchun qat’iyatlilik ko‘rsatib, hatto, biron kishi garchi namozini tark qilishga majbur bo‘lsa ham, dehqonchilikni tark qilishdan hazarda bo‘lishi lozimligi haqida ko‘rsatma bergan. Sohibqiron agrar siyosatining zamonamiz hokim-u amaldorlari va soha mutasaddilari

uchun ibrat bo‘ladigan tomoni shundaki, u o‘z mamlakatininggina emas, hattoki, fath etilgan har bir mamlakatdagi dehqonlar va ekin maydonlariga ishlov beruvchi (muzorion)larning «ko‘nglini xushnud etsinlar, o‘zlariga qaratsinlar» deb uqtirdi. Dehqonlarga yordam berish hamda ularni qo‘llab-quvvatlashni davlat iqtisodiy siyosatining asosi deb bildi. Xarob bo‘lib yotgan yerlar egasiz bo‘lsa, davlat tarafidan obod qilindi.

Amir Temur davrida dehqonchilik asosiy iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan. Sohibqiron bobomizning oqilona yuritgan iqtisodiy siyosati bois, mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida avvalgi davrlarga nisbatan qishloq xo‘jaligining ahamiyati ortib bordi. Tarixchi Sharofiddin Ali Yazdiyning guvohlik berishicha, Amir Temur obodonchilikka yaraydigan biron qarich yerning ham zoye bo‘lishini ravo ko‘rmasdi. «Bir daraxt kestirsam, o‘rniga o‘nta ko‘chat ektirdim», – degan so‘zlari ham dehqonchilik Sohibqiron saltanatining asosiy iqtisodiy zamini ekanligini anglatadi. Shu bois, bu davrda yangi ariqlar qazish, mavjud sug‘orish tarmoqlarini ta’mirlash va kengaytirishga alohida e’tibor berilgan. Dashtlarga suv chiqarilib, yangi yer maydonlari o‘zlashtirildi. Bu borada xususiy sohibkorlarning dasht joylardan yangi yerlar ochish, korizlar qazib, bog‘lar barpo qilish va qarovsiz qolgan tashlandiq yerlarni sug‘orib obod etish maqsadida amalga oshirgan har qanday faoliyatlari davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlangan: «Yana amr etdimki, kimki biron sahroni obod qilsa yoki koriz qursa, yo biron bog‘ ko‘kartirsa, yoxud biron xarob bo‘lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olmasinlar, ikkinchi yili raiyat o‘z roziligi bilan berganini olsinlar, uchinchi yili esa (oliq-soliq) qonun-qoidaga muvofiq xiroj yig‘sinlar!»[16]

Jamiyatning iqtisodiy holati, kelajak taraqqiyoti, odamlar farovonligi qishloq xo‘jaligiga bog‘liqligini chuqur anglagan, muruvvatli bobomiz Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Marv vohalarida, Tus, Hirot va uning atrofida yirik sug‘orish inshootlari barpo ettirib, dehqonchilik vohalarining suv ta’minotini tartibga soldi. Umuman, bu davrda Movarounnahr va Xurosonda katta-kichik daryo va soylardan yirik irrigatsiya tarmoqlari chiqarilib, korizlar qazildi, suv omborlari va hovuzlar barpo etilib, suvga tanqis ayrim viloyat va vohalar, shahar-u qishloqlarning suv ta’minoti yaxshilandi. Qo‘riq va bo‘z yerlar o‘zlashtirilib, hosildor yerlarning maydoni kengaytirildi. Yangidan-yangi qishloqlar, chorbog‘lar va sayilgoh bo‘stonlar bunyod etildi. Samarqand

[16] “Temur tuzuklari”.B. Ahmedov tahriri ostida. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1996, 124-bet.

vohasida Zarafshon daryosidan boshlanuvchi, Darg‘om arig‘idan chiqarilgan, qadimgi Anhor kanalining qayta tiklanishi muhim voqea bo‘ldi. Bu kanal orqali Zarafshon daryosi suvining bir qismi Qashqadaryoga tashlanib, uning adog‘ida joylashgan yerlar suv bilan to‘la ta’minlandi.

Amir Temur faqat Movarounnahrda emas, balki Xuroson, Eron, Kavkaz va boshqa viloyatlarda ham bir qancha yirik irrigatsiya ishlarini amalga oshirdi. Uning farmoni bilan Murg‘ob vohasida qazdirilgan qator sug‘orish kanallari, Kobul yaqinidagi Jo‘yinav dahasining Bodon anhori yoki Kavkazda Boylaqon mavzeidagi Barlos arig‘i shular jumlasidandir.

XV asrning birinchi yarmida Movarounnahr va Xurosonda Shohruh va Ulug‘bek hukmronlik qilgan yillarda irrigatsiya ishlari, ayniqsa, rivoj topdi. Dashtlarga suv chiqarilib, yangi yer maydonlari o‘zlashtirildi. Bu borada xususiy sohibkorlarning dashtliklardan yangi yerlarni ochish, korizlar qazib, bog‘ barpo etish, tashlandiq yerlarni sug‘orib, obod etish uchun amalga oshirgan har qanday faoliyati temuriylar tomonidan qo‘llab-quvvatlandi. Hatto, bunday sohibkorlar bir-ikki yil davomida hamma soliq va to‘lovlardan ozod etilgan. Jumladan, Amir Temur dehqonchilikni rivojlantirish, oddiy mehnatkash xalqning iltijolarini qondirish uchun quyidagi tuzuklarini yaratdi: «Dehqonlar va raiyatdan qaysi birining dehqonchilik qilishga qurbi yetmay qolgan bo‘lsa, unga ekin uchun zarur urug‘ va asbob tayyorlab berilsin... Xarob bo‘lib yotgan yerlar egasiz bo‘lsa, xolisa tarafidan obod qilinsin. Agar egasi bo‘lsa-yu, obod qilishga qurbi yetmasa, unga turli asboblar va kerakli narsalar bersinlar, toki o‘z yerini obod qilib olsin»[17].

Bunday insonparvar g‘oyalarni va siyosatni tarixiy manbalarda kamdan-kam uchratamiz. Demak, ulkan mamlakat xalqini, hisobsiz sipohilar va xizmatkorlarni boqadigan asosiy daromad manbai-qishloq xo‘jaligi ekanligini Amir Temur teran anglagan.

Mo‘g‘ullar bosqini davrida vayron etilgan Murg‘ob daryosining bosh to‘g‘oni Sultonbandning Shohruh tomonidan tiklanishi va sug‘orish tarmoqlarining loyqadan tozalanishi tufayli, Marv shahri hamda Murg‘ob vohasining suv ta’minoti tubdan yaxshilandi, shahar atrofidagi suvsizlikdan qurib qolgan yerlarga qayta suv chiqarilib, sug‘orma dehqonchilik yer maydonini kengaytirish imkoniyati paydo bo‘ldi. Husayn Boyqaro hukmronligi davrida esa uning tashabbusi bilan Marviruddan yangi kanal chiqarilishi tufayli kattagina yer maydoni

[17] “Temur tuzuklari”.B. Ahmedov tahriri ostida. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1996, 124-bet.

sug‘orilib, obod etildi. Shuningdek, Hirot va Mashhad atroflarida Alisher Navoiyning tashabbusi bilan amalga oshirilgan sug‘orish ishlari Xuroson dehqonchilik tarixida muhim voqea bo‘ldi. Navoiy Tus viloyatining yuqori qismida joylashgan Choshmag‘ul mavzeida Turuqband suv ombori qurdirdi. O‘n farsax (60-70 km) uzunlikda maxsus kanal qazdirilib, Turuqband suv omborida jamg‘arilgan suv Mashhadga olib kelindi. Natijada shahar suv bilan ta’min etilib, Mashhad atrofidagi yerlarga suv chiqarildi va obod etildi. Bu davrga kelib irrigatsiya texnikasi ham taraqqiy qildi.

Qishloq xo‘jaligida g‘alla, sabzavot va poliz ekinlarining o‘sha davrda ma’lum bo‘lgan deyarli barcha navlari yetishtirilgan. Bog‘dorchilikka zo‘r ahamiyat berilgan. Xo‘jalikning asosiy turlaridan yana biri chorvachilik edi. Mamlakatning iqtisodiy hayotida, ayniqsa, yaylov chorvachiligi (yilqichilik, qo‘ychilik, qoramolchilik) muhim o‘rin tutgan. Qishloq xo‘jaligi sohasida yetishtirilgan moddiy boyliklar mehnatkash xalqning og‘ir va mashaqqatli mehnati vositasida vujudga keltirilib, uning taqsimoti aholi tabaqalarining ijtimoiy va iqtisodiy munosabati mohiyatini belgilagan. Bu davrda Movarounnahr va Xurosonda avvalgidek yer va mulkchilikning asosan to‘rt shakli: mulki devoniy – davlat yerlari, mulki xususiy, mulki vaqfi – madrasa va ibodatxonalar tasarrufidagi yerlar va jamoa yerlari bo‘lgan. Dehqonchilik qilinadigan yerlarning eng katta qismi davlat mulki hisoblangan. Bu yerlarga avvalgidek mamlakat hukmdori yoki amirlar egalik qilganlar. Temuriylar davrida davlat yerlarini suyurg‘ol tarzida in’om etish keng tarqaldi. Odatda, shahar yoki viloyatlardan tortib, to alohida qishloqlar ham suyurg‘ol shaklida in’om etilgan. Butun bir shahar yoki viloyat ko‘pincha hukmron sulola namoyondalari yoki yirik harbiy mansabdorlarga berilgan. Bunday suyurg‘ol yer va mulklar ko‘pincha avloddan-avlodga meros bo‘lib ham qolgan. Dehqonchilik maydonlarining boshqa kattagina qismi mulk maqomidagi xususiy yerlardan iborat bo‘lib, yirik mulkdorlarning katta yer maydonlari ham, mehnatkash ziroatchilarning mayda paykallari ham xususiy mulk hisoblangan. Xususiy mulk bo‘lgan yerlarning katta qismi ma’muriy, harbiy va diniy arboblarning tasarrufida bo‘lgan.

Temur hukmronligi davrida Movarounnahr va Xurosonda ko‘plab masjid, madrasa va shifoxonalar barpo etilib, ularga katta yer maydonlari biriktirilgan. Bu mulk vaqf mulki deyilgan. Shuningdek, dehqonchilik qilinadigan yerlarning ma’lum qismi qishloq aholisining umumiy tasarrufida bo‘lgan. Bunday yerlar jamoa mulki hisoblanib, ular ko‘proq

tog‘ oldi nohiyalarining suvga tanqis joylarida birmuncha keng tarqalgan. Odatda, ko‘pchilikning ishtiroki va mablag‘i bilan barpo etilgan sug‘orish inshootlari va ular vositasida o‘zlashtirilgan yerlar jamoa mulkiga aylangan.

Hunarmandchilikni rivojlantirish Amir Temur davlati iqtisodiy siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri edi. Hunarmandchilikka mamlakat rivojining asoslaridan biri deb qaradi. Amir Temur va temuriylar davrida Movarounnahr shaharlarida hunarmandchilikning yetakchi sohalaridan biri to‘qimachilik edi. Chunki, bu davrda qimmatbaho matolarga talab ortdi. Boy-u boyonlar talabini qondirish maqsadida juda qimmatbaho turdagi gazlamalar ishlab chiqarilgan. To‘qimachilik haqidagi ayrim ma’lumotlar mazkur davrga oid yozma manbalarda, xususan, qozilik qarorlarida, oldi-sotdi ahdnomalarida, vaqf yorliqlarida va boshqa hujjatlarda saqlanib qolgan. Hunarmandlar paxta, ipak va jundan xilma-xil matolar tayyorlashgan. Shuningdek, bu davrda Samarqand sharqning qog‘oz ishlab chiqaruvchi markazlaridan biri edi. Bulardan tashqari, Movarounnahr hunarmandchiligining muhim sohalaridan: kulolchilik, turli xil metallardan uy-ro‘zg‘or buyumlari tayyorlash, zargarlik, gilamchilik, ko‘nchilik, etikdo‘zlik kabilar ham juda rivojlangan. Shu o‘rinda Rui Gonsales de Klavixoning Samarqand qal’asida joylashgan korxona haqidagi ma’lumoti diqqatga sazovordir. Uning qayd etishicha, Amir Temur Samarqandda mingga yaqin asir hunarmandlarni saqlagan. Ular yil bo‘yi sovut, dubulg‘a, kamon va o‘q yasashgan. Amir Temur shahardan yetti yillik yurishga ketgan vaqtdan to qaytib kelguniga qadar, asirlar yasagan qurol-aslahalarni uning oldiga qo‘yishlarini buyurgan[20]. Tarixiy manbalarning guvohlik berishiga qaraganda, Amir Temur hunarmand, kasb-kor egalariga katta hurmat bilan qaragan, ularni fath qilingan mamlakatlarda talon-tarojdan himoya qilgan, ommaviy jazo choralari amalga oshirilayotgan davrda o‘limdan saqlagan, sohibi hunarlarni o‘z atrofiga to‘plagan.

Amir Temur fath qilingan shaharlardan kosiblarni, tikuvchilar, sartaroshlar, duradgorlar, temirchilar, otboqarlar, chodir yasovchilar va lochindorlarni Samarqandga olib kelgan. Bir qismini davlat hunarmandchilik korxonalarida ishlatgan. «Tuzuklar»da yozilishicha, davlatxonaga olib kelingan kasb-u hunar egalari davlat o‘rdalarida, safarda, qo‘shinlar bir joyda turib qolganida sipohlar uchun kerak yaroqlar va boshqa narsalarni tayyorlaganlar. Asosan, hunar egalaridan mamlakat obodonligi yo‘lida foydalanilgan: ular raiyat talab-ehtiyojlariga qarab hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarganlar; shaharlarda

masjidlar, xonaqohlar, rabotlar, oliy imoratlar barpo etganlar, ko‘priklar qurganlar. Ular yordamida Amir Temur Samarqand va boshqa shaharlarda bog‘-bo‘stonlar, qasrlar bunyod etgan.

Amir Temur hunarmandchilikni rivojlantirishga shunchalik katta e’tibor berganki, g‘alaba va to‘y bahonasida hunarmandchilik mahsulotlari, hunarmandlar san’at ko‘rgazmalarini tashkil etgan, yarmarkalar uyushtirgan.

Sharofiddin Ali Yazdiy va Ibn Arabshoh kabi tarixchilarning guvohlik berishicha, 1404 yilning kuzida yetti yillik (1399-1404) yurishdan g‘alaba bilan qaytgach, Samarqand yaqinidagi Konigilda oltita nevarasining nikoh to‘yini o‘tkazayotib, hunarmandchilik ko‘rgazmasini ham tashkil etgan. Bu ko‘rgazmada har bir hunarmand o‘z hunariga bog‘liq sohada jiddu-jahd ko‘rsatgan. Bir qamish to‘quvchi qamishdan mukammal qurol-yarog‘li bir otliqni yasab chiqaradi va uning suratini kamoliga yetkazib, hatto, tirnoqlari-yu kipriklarini ham yasagan. Paxta tikuvchilar paxtadan odamlarni o‘ziga lol qoldiradigan mezana – masjidning azon aytadigan joyini yasaganlar. Ibn Arabshohning ta’rificha, u o‘z jismining oqligida jannat huridan ham yuqori va bo‘yining barkamolligi jihatdan baland qasrlardan ham baland edi. Shuningdek, ko‘rgazmada zargarlar, temirchilar, etikdo‘zlar, yoy yasovchilar va boshqa toifa hunarmandlar, musiqachilar, hazil-mutoyiba ustasi bo‘lgan askiyachilar va latifago‘ylar ham o‘z hunar-u san’atlarini namoyish qilganlar.

Hunarmandlar shaharning madaniyatli tabaqasi guruhiga mansub edi. XV asr va XVI asr boshlarida yashagan shoirlar, musiqachi-yu sozandalar, muarrixlarning bir qismi badavlat hunarmandlar va mayda savdogarlar orasidan yetishib chiqqan edilar. Masalan, samarqandlik shoirlardan Javhariy sovungarlar rastasining oqsoqoli, Mavlono Havofiy – tikuvchi, Mavlono Mir Arg‘un – xaymado‘z, ya’ni chodir tikuvchi, Mavlono Kobuliy – g‘azolfurush (kalava sotuvchi), Mavlono Kamardo‘z – tasma tikuvchi va Bisotiy Samarqandiy – bo‘yra to‘quvchi hunarmandlar bo‘lgan.

Buyuk Sohibqiron oqilona yuritgan soliq siyosati bilan ham dehqonlar, chorvadorlar, bog‘bonlar va hunarmandlar mehnatini rag‘batlantirgan. U sarishumor va xonashumor kabi jon boshiga to‘lovlarni man etgan. Amir Temur soliq siyosatini shakllantirishda va olib borishda, dastlab, Qur’on va shariat tavsiyalariga amal qildi. So‘ngra avvalgi davrlarda amal qilgan qonun-qoidalarni har tomonlama o‘rganib, o‘z davri xususiyatidan kelib chiqib tuzuklar ishlab chiqdi. Mo‘g‘ullar

istilosi chog‘ida susaygan shariat tavsiyalarini tikladi. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, o‘sha davrda (Amir Temur davlatni boshqarishning dastlabki paytlarida) mo‘g‘ullardan va mahalliy hokimlardan unga ko‘plab soliq va yig‘imlar meros qolgandi: a) yer yoki daromad solig‘i (oliy mansabdorlar bu soliqdan ozod qilingan); b) kubchur – ko‘chmanchi aholidan olingan; v) targ‘u – hunarmandlar va savdogarlardan olinib, ishlab chiqarilgan yoki sotilgan molning o‘ttizdan bir qismi hajmi hisobida belgilangan; g) tuz solig‘i; d) jon yoki kumush solig‘i. Aholi turli elchilar to‘xtagan joylarda ularga ot-ulov yetkazib bergan, oziq-ovqat bilan ta’minlagan. Bundan tashqari, mamlakat hunarmandlari tugun deb atalgan maxsus to‘lov to‘lab turganlar[21].

Amir Temur davrida mamlakat iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi hal qiluvchi rol o‘ynagan. Milliy daromadning eng ko‘p qismi shu sohada yaratilgan. Asosiy ishlab chiqaruvchilar yer egalari bo‘lgan dehqonlar va yerga ishlov beruvchi ijarachilar hisoblangan. Bu davrda, asosan, dehqonchilik bilan bog‘liq bo‘lgan xiroj va ushr solig‘i amal qilgan. Davlat xazinasiga keladigan daromadlarning aksariyati ana shu soliqlarga asoslangan. Shuningdek, qishloqda bog‘dorchilik, chorvachilik rivojlangani uchun mol sardaraxt, mol o‘tloq, mol suvloq, miroboni soliqlari ham amalda bo‘lgan. Savdogarlar va hunarmandlar tamg‘a yoki zakot to‘lashgan, chegaradan o‘tgan mollar hisobidan ham boj olingan. Bu soliqlar davlat xazinasining asosiy manbai hisoblangan.

Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida, jumladan, Markaziy Osiyoda davlat tomonidan undiriladigan yer solig‘i xiroj deb yuritilgan. Xiroj, asosan, hosil yetilib, uni yig‘ishtirib olish vaqtlarida yer unumdorligi hamda suv bilan ta’minlanganlikka qarab belgilangan.

Xiroj olish dastavval arab xalifaliklari hududlarida «juz’ya» atamasining sinonimi sifatida qo‘llanilib, musulmon bo‘lmagan aholi bilan bir qatorda yer-suvga ega bo‘lgan musulmonlardan ham undirilgan. Musulmon qonunshunosligi xirojni «Xiroj-musaxa» (yer maydoni birligidan undiriladigan) va «Xiroj-muxasama» (yerning sifati va sug‘orish usullariga qarab, hosilning to‘rtdan biri, uchdan biri yoki ikkidan biri hajmida undiriladigan)ga ajratganlar. Markaziy Osiyoda xiroj undirish VII asrda arablar tomonidan joriy qilingan. Xiroj yig‘ish uchun har bir viloyatga sarkor, qishloqqa devonbegi va kotib tayinlangan.

Amir Temur ham saltanat taxtiga o‘tirgach, yer-suvdan olinadigan xirojni mahsulot (asosan don) shaklida va pul (oltin yoki kumush) shaklida olishni joriy etgan. Biroq, Sohibqiron soliq tizimiga jiddiy o‘zgartirishlar kiritib, Turkiston zaminini ziroatchilik, hunarmandchilik,

ilm-fan va madaniyati rivojlangan mamlakatga aylantirmoqchi bo‘ldi. Amir Temur raiyatdan mol-xiroj olishda, mamlakat iqtisodiyotini tartibga keltirish va rivojlantirishda, yurt xavfsizligi va obodonchiligini ta’minlashda soliqchi-amaldorlarning o‘z burchlari va vazifalarini adolatli bajarishlari nihoyatda muhimligini uqtiradi: «Amr etdimki, raiyatdan mol-xiroj yig‘ishda ularni og‘ir ahvolga solishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushirib qo‘yishdan saqlanish kerak. Negaki, raiyatni xonavayron qilish xazinaning kambag‘allanishiga olib keladi. Xazinaning kamayib qolishi esa, sipohning tarqalib ketishiga sabab bo‘ladi. Sipohning tarqoqligi, o‘z navbatida, saltanatning kuchsizlanishiga olib boradi… Agar yerlik fuqaro azaldan berib kelgan xiroj miqdoriga rozi bo‘lsa, ularning roziligi bilan ish ko‘rsinlar, aks holda, (xirojni) tuzukka muvofiq yig‘sinlar… Yana buyurdimki, agar, amaldorlar va kalontarlar oddiy fuqaroga jabr-zulm qilsa va shu orqali bechoralarga zarar yetkazgan bo‘lsa, (bunday vaqtlarda) yetkazilgan zararni kalontarlardan undirib, jabr ko‘rganlarga bersinlar, toki ular yana o‘z hollariga kelsinlar»[18]

Amir Temur soliqqa tortishda soliq to‘lovchilarga yengillik berishga alohida e’tibor bergan edi. U soliq solishda daromadlarni hisobga olib ish tutish kerakligini, qo‘shimcha miqdorda hech qanday soliq talab qilmaslikni, hosil pishib yetilmasdan burun dehqonlardan soliq olmaslikni buyuradi: «Amr qildimki, hosil pishib yetilmasdan burun raiyatdan mol-u jihot olinmasin. Hosil yetilishiga qarab, soliqni uchga bo‘lib olsinlar. Agar raiyat soliq to‘plovchi bormasdan, soliqni o‘zi keltirib bersa, u holda, u yerga soliq to‘plovchi yubormasinlar. Agar soliq oluvchini yuborishga majbur bo‘lsalar, ular soliqlarni buyruq berish va yaxshi so‘z bilan olsinlar, kaltak, arqon ishlatib, ishni urish-so‘kishgacha olib bormasinlar»[19].

Sohibqiron xirojni, daromad solig‘ini ekindan olingan hosilga va yerning unumdorligiga qarab yig‘ishni; doimo uzluksiz ravishda koriz, buloq va daryo suvi bilan sug‘oriladigan ekin yerlarini hisobga olishni va bunday yerlardan olingan hosildan ikki hissasini raiyatga, bir hissasini esa oliy sarkorlik (saltanat xazinasi) uchun olishni tavsiya etgan. Bu yerda hosildan olingan xiroj yer solig‘i o‘rnida bo‘lib, u natural va qiymat ko‘rinishida yig‘ib olingan. Tuzuklarda uqtirilishicha, soliq to‘lovchilarga to‘lovning o‘zlariga qulay bo‘lgan bir qancha muqobil usullaridan foydalanishlariga imkon berilgan: «Bordi-yu, raiyat hosilni uchga

[18] “Temur tuzuklari”.B. Ahmedov tahriri ostida. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1996, 122-124-betlar.

[19] “Temur tuzuklari”.B. Ahmedov tahriri ostida. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1996, 124-bet.

ayirishga rozi bo‘lmasa, u chog‘da hisobga olingan ekin yerlarni birinchi, ikkinchi va uchinchi jarib ekin yer qilib ajratsinlar. Birinchi jaribdan (olingan hosilning) uch xarvori, ikkinchi jaribdan ikki xarvor, uchinchi jaribdan bir xarvorini yig‘ib olsinlar. Buning yarmini bug‘doy, yarmini arpa hisoblab, hosilning yarmini olsinlar. Agar raiyat bu yo‘sinda soliq to‘lashga rozi bo‘lmasa, u holda bir xarvor bug‘doyiga besh misqol kumush, bir xarvor arpasiga ikki yarim misqol kumush miqdorida narx qo‘ysinlar. Yana qal’a foydasiga beriladigan tortiqni ham bunga qo‘shib qo‘ysinlar. Shulardan boshqa, qo‘shimcha tarzda, ulardan hech qanday oliq-soliq talab qilmasinlar»[20]. Demak, yer egasi soliqni pul hisobida to‘lashga rozi bo‘lsa, unda hosilning bir qismi bozor narxi hisobida pulga chaqilgan. Shuningdek, g‘alla g‘aram qilinmasdan burun soliq to‘plash qat’iy man etilgan edi. Soliq muayyan uch muddatda: saraton (iyun-iyul), sumbula-mezon (avgust-sentabr) va qavs (noyabr oylarida) to‘lanar edi.

Amir Temurning yer soliq tizimida hozirgi zamon yer solig‘i va yer rentasining dastlabki kurtaklari mavjudligi ko‘rinib turibdi: xiroj sug‘oriladigan, lalmikor yerlardan, o‘tloqlar va suvloqlardan Renta I ko‘rinishida olingan. Kuzgi, bahorgi, qishki va yozgi dehqonchilikdan olingan qo‘shimcha hosil differensial renta II ko‘rinishida dehqonlarning

o‘ziga qoldirilgan. Uning soliq siyosatida imtiyozlar muhim o‘rin egallagan: yangi yer o‘zlashtirganlar, koriz qurganlar, bog‘ ko‘kartirganlar, xarobalarni obod qilganlar soliq to‘lashdan bir yil mobaynida ozod qilinganlar, ikkinchi yili o‘z ixtiyorlariga ko‘ra soliq to‘laganlar. Uchinchi yili esa mamlakatda amal qilgan soliq qonun-qoidalariga binoan xiroj to‘laganlar. Xaroba yerlarni o‘zlashtiruvchilarga xolisa (ma’muriyat) tarafidan turli asboblar berish kerakligi ko‘rsatilgan.

Amir Temur har bir mamlakatda soliqlarning qanday olinishini aniqlash bilan jiddiy shug‘ullangan. U soliqlarning demokratik xususiyatini ko‘zda tutib, favqulodda soliqlarning talay qismini bekor qildi. Amir Temur o‘zi asos solgan ulkan mamlakatda soliq nazariyasiga asos soldi. Masalan, XVIII asrda yashagan ingliz iqtisodchisi Adam Smitdan III-IV asr oldin soliqqa tortish tamoyillarini ishlab chiqqan. Uningcha, soliqqa tortish va soliq undirishda adolatparvarlik tamoyili asosiy o‘rin tutadi. Ikkinchi tamoyil – aniqlik tamoyili. Uchinchi tamoyil– soliq to‘lash va to‘langan soliqni undirish aholiga qulay bo‘lishi, ya’ni soliqlar fuqarolar uchun qulay vaqt va usulda undirilishi lozim. To‘rtinchi tamoyil – soliqlar muttasil takomillashtirilib borilishi, soliq tizimiga

[20] “Temur tuzuklari”.B. Ahmedov tahriri ostida. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1996, 123-bet.

o‘zgartirishlar kiritilishi va soliq to‘lash xarajatlari muttasil kamayib borishi kerak.

Amir Temurning soliqqa tortish, undirish va savdogarlardan boj olish, ular daromadidan soliq olish siyosati nihoyatda adolatli bo‘lgani uchun mamlakat hududida va uning tasarrufidagi hududlarda fuqarolar soliq solish jabri va nohaqligi yuzasidan norozilik bildirishmagan. Chunki, u soliq to‘plashda raiyatning ixtiyoriga qarab ish ko‘rishni ma’qul ko‘rgan. Sohibqiron o‘z tuzuklarida aholidan olinadigan soliqlar ularning ishlab topgan daromadlari darajasiga qarab adolatli belgilanishi, aholining qaysi birlari el-yurt, tuman va shahar obodonchiligi yo‘lida, madaniyat va ma’rifatning rivoji yo‘lida o‘z mol-mulki va sarmoyasini ayamay sarflasalar, ularga davlat soliq to‘lash borasida har xil yengilliklar, imtiyozlar berishi lozimligini ko‘rsatib o‘tadi. Hatto, saltanatda soliq to‘lashdan ozod etilgan, imtiyozga ega bo‘lgan toifalar ham bo‘lgan. Biroq Amir Temur tasarrufidagi uluslar (viloyat va mamlakatlar) uning soliq siyosatidan chetda bo‘lmagan. Mazkur ulus hukmdorlarining alohida davlat apparati, mustaqil qo‘shini bo‘lsa-da, ular o‘z hududlaridan undirib olgan hosilning uchdan bir qismini Samarqandga – markaziy davlat xazinasiga yuborib turgan; oliy hukmdor harbiy yurishlarga chiqqanda o‘z qo‘shini bilan qatnashgan va uni yetarli oziq-ovqat, kiyim-kechak va qurol-aslahalar bilan ta’minlab turgan.

Amir Temur aholidan xiroj yig‘ishda, yuqorida ta’kidlaganimizdek, o‘ta oqilona, vazminlik va saxiylik bilan ish ko‘rishni ma’qul ko‘rgan. Raiyatga haq-nohaq jarima soluvchi vazir mamlakatni va butun saltanatni xarob etadi deb bilgan. Viloyatlarga (tiyul qilib berilgan har bir mamlakatga) oliq-soliq ishlarini boshqarish uchun ikkitadan vazir tayinlangan: «Bulardan biri raiyat uchun bo‘lib, undan yig‘iladigan oliq-soliqlarning undirilishini kuzatib, hisobotini olib borsin. Oliq-soliq miqdori, soliq to‘lovchilarining nomlarini yozib borsin va raiyatdan yig‘ilgan mablag‘ni saqlasin. Ikkinchi vazir sipoh ishlarini boshqaradi. Sipohga berilgan va berilishi lozim bo‘lgan mablag‘ hisobini olib borsin»[21]. Biroq shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, Temur davridagi buxgalteriya hisobining aniq namunalari hisoblangan, ya’ni o‘sha vazirlar tomonidan yuritilgan kirim va chiqim daftarlari haqida hozirgacha aniq ma’lumotga ega emasmiz. Shuningdek, saltanatning har bir idorasida kirim-chiqimlarni, kundalik xarajatlarni yozib borish uchun bir kotib tayinlangan. Mazkur hisob-kitob ishlariga oid hujjatlarni ham hozircha

[21] “Temur tuzuklari”.B. Ahmedov tahriri ostida. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1996, 125-bet.

uchratmadik. Ehtimol, buxgalteriya hisobiga oid bu noyob hujjatlar qaysidir muzey, kutubxona yoki qaysidir xonadonlar tokchalarida o‘z o‘quvchisini kutib yotgandir.

Amir Temurning tiyul yerlardagi soliq siyosati faqat yuqoridagilar bilan cheklanmaydi. Sohibqiron qaysi bir amirga tiyul bersa, uni uch yilgacha o‘z holiga qo‘ygan. Uch yildan so‘ng esa uni tekshirib ko‘rib, agar mamlakat tinch, el rozi bo‘lsa, uni o‘z o‘rnida qoldirgan. Agar ahvol bunga xilof ravishda bo‘lsa, ul viloyatni xolisa (davlat ixtiyoridagi barcha soliqlardan ozod etilgan yer-suv va mol-mulkni tasarruf etuvchi oliy idora)ga o‘tkazgan va uch yilgacha o‘sha amirga ulufa berilmagan.

Amir Temur to‘plangan mol-u mulkni, olingan boj-u xirojni xayrli maqsadlarga sarf qilgan: obodonchilik, qurilish ishlari olib borilgan, yangi bog‘lar bunyod etilgan, xazinadagi naqd pul va qimmatbaho buyumlarning tegishli qismi ulufa sifatida sipohilarga taqsimlab berilgan.

## 4.5. Amir Temurning iqtisodiy siyosatida moliya ishlari

Amir Temur davrida ham davlat-u saltanat uch narsa bilan: mulk, xazina va lashkar bilan tirikdir, degan tafakkur asosiy o‘rin tutardi. O‘zi hukmronlik qilgan hududlarda feodal tarqoqlikni tugatish va markazlashgan davlatni vujudga keltirish sharoitida, Temur iqtisodiy fikrni yangi bosqichga ko‘tarishga erishdi. Davr iqtisodiy tafakkuridagi sifatiy o‘zgarishlar uning iqtisodiy siyosatida namoyon bo‘la boshladi. Bu siyosat mohiyati va hajmi jihatdan keng va ulkan vazifalarni bajarishga qaratilgan edi. Albatta, uning asosini yer-mulk munosabatlari tashkil etsa-da, Amir Temurning yagona mustahkam saltanatni shakllantirish strategiyasida moliyaviy ishlar o‘zining muhimligi bilan boshqa masalalardan ajralib turar edi. Jahondagi o‘ttizga yaqin mamlakatni bosqichma-bosqich o‘z tarkibiga olgan bepoyon hududda turli xil tabiiy sharoit, turli xil iqtisodiy rivojlanish, turli xil turmush darajasi, turli xil millat va elatlar mavjud bo‘lib, shubhasiz, bu o‘lkani idora qilish shariat qonunlarida ko‘rsatilgan tavsiyalar, mavjud an’analar asosida olib borildi. Biroq, yuqorida ta’kidlaganimizdek, Sohibqiron o‘zi bunyod etgan bepoyon mamlakatning iqtisodiyoti va moliya tizimini muntazam takomillashtirib bordi. Avvalo, davlat moliyasining mo‘g‘ul va boshqa bosqinchilarga qaramligini uzil-kesil tugatib, o‘z saltanatining mustaqil davlat moliyasini yaratdi. Markazlashtirilgan davlat tarkibiga kirgan barcha mamlakatlar moliyasini bir tizimga birlashtirdi va ularni ma’muriy boshqarish talablari asosida idora qilish usullarini joriy etdi. Davlat xazinasi zahiralari, shuningdek, o‘z qo‘l ostidagi mahalliy ulus va

tumanlarga qarashli mablag‘lar tarkibiga aniqlik kiritdi hamda ularning markaziy hokimiyat bilan moliyaviy munosabatlarini takomillashtirdi. Shu asosda, ulkan mamlakatni boshqarishda byudjetning dastlabki kurtaklarini o‘z zamonasiga nisbatan izchil ravishda ishlab chiqdi. Sohibqironning moliya sohasida amalga oshirgan ishlari Qur’on talablarini o‘zida mujassamlashtirgan shariat qonunlari asosidagi soliqlar tizimiga asoslandi. Soliqlar tizimini shakllantirishda har bir mamlakat, mintaqa va aholining xususiyatlarini e’tiborga oldi, qator imtiyozlar joriy qildi.

Amir Temur davrida davlat ixtiyoridagi xazina hozirgi ibora bilan aytganda, ikki fonddan tarkib topgan bo‘lib, birinchi, ya’ni asosiy xazinada uzoq yillar davomida avloddan-avlodga meros bo‘lib kelgan mablag‘lar saqlanar edi. Ikkinchi fond esa joriy xarajatlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, mabodo, mablag‘ yetishmasa, birinchi fonddan qarz olinar edi. Tadbirkor bobomiz xazinadagi birinchi jamg‘arma fondini saqlab qolgan holda ikkinchi fondning shakllanishi va sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirdi. Amir Temur da’vatiga ko‘ra har ikkala fonddagi mablag‘lar harakati yozib boriladigan bo‘ldi. Ikkinchi fond xarajatlariga mablag‘lar berish vazirlar zimmasiga yuklatildi, har bir vazir o‘ziga topshirilgan daromad va xarajatlar ustidan qat’iy nazorat olib boradigan bo‘ldi. «Tuzuklar»da yozilishicha, saltanatning har bir idorasida kirim-chiqimlar, kundalik xarajatlar maxsus tayinlangan kotiblar tomonidan yozib borilgan. Davlat xazinasining joriy xarajatlar manbai hisoblangan ikkinchi bo‘limiga alohida e’tibor berilgan. Bulardan tashqari, mahalliy ehtiyojlar belgilangan me’yorda mablag‘ bilan ta’minlab borilgan. Natijada markaziy xazina bilan uluslar o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlar yanada takomillashtirilgan.

Buyuk Sohibqiron soliqlarning demokratik xususiyatini aniq va chuqur o‘rganganligi bois oqilona yuritgan soliq siyosati bilan dehqonlar, chorvadorlar va hunarmandlar mehnatini rag‘batlantirgan. Chunki, bu davrda mamlakat iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi hal qiluvchi rol o‘ynagan. Davlat xazinasini boyitadigan eng katta tushumlar ham shu sohalardan undirilgan. Amir Temur moliya ishlarini boshqarishni osonlashtirish maqsadida, o‘z saltanati tarkibiga kirgan mamlakatlardan olinishi lozim bo‘lgan barcha soliqlarni markaziy devonga to‘plamasdan, suyurg‘ol va tarxon qilib berilgan yerlardan tushadigan soliqlarni idora qilishni uluslarga, tumanlarga topshirgan hamda ularning ixtiyorida qoldiriladigan mablag‘lar hisobidan boshqa xarajatlarni ta’minlashni joriy qilgan. Davlatning mahalliy va markaziy bo‘g‘inlari xarajatlarini

ma’muriy idora va saroyning umumiy sarflari; ilm-fan, madaniy va diniy tadbirlar bilan bog‘liq xarajatlar; harbiy xarajatlar va harbiy ahamiyatga molik xarajatlar; mamlakat obodonchiligi va yurt farovonligini oshirishga qaratilgan xarajatlar, ijtimoiy himoya xarajatlari kabi boshqa sarf va xarajatlarga ajratish mumkin. Shuningdek, markaziy va mahalliy xazinalarga tushadigan to‘lovlar, ayrim, soliqli va soliqsiz daromadlar (masalan, oltin va kumush pullar zarb qilishdan keladigan daromadlar, nodir metallarni qazib olish va ularni sotishdan olinadigan daromadlar, chorvachilikdan keladigan daromadlar, qo‘shib olingan mamlakatlar xazinalarini musodara qilishdan tushadigan daromadlar, vorissiz mol-mulklar va bedarak yo‘qolgan shaxslardan qolgan mol-mulklar, jarimalar, sovg‘alar va sh.k.) ham Amir Temur davlati moliyasini shakllanishida ma’lum rol o‘ynagan.

Amir Temur saltanatining keyingi davrlarida daromad va xarajatlar hisobi har bir vazirlik bo‘yicha mehnat taqsimoti asosida amalga oshirila boshlandi (ilgari daromad va xarajatlar xazinabon daftarida qayd qilinar edi). Daromad va xarajatlar ixtisoslashgan guruhlar bo‘yicha hisobga olinadigan bo‘ldi. Bunda devondagi kirim-chiqimlar to‘rt vazir tomonidan amalga oshirilib, mahalliy mahkamalarda xarajat turlarining ko‘pligi ishni ancha murakkablashtirgan. Demak, Amir Temur davrida byudjetning alohida ko‘rinishlari nafaqat markaziy devonda, balki mahalliy boshqaruv mahkamalarida ham rivojlana boshlagan.

Amir Temur saltanatida «devon» deb ataluvchi boshqarma mavjud bo‘lib, u davlatning tartibni saqlash, soliq yig‘ish, bozorlar, yo‘llar, suv inshootlari, hammomlar va boshqa tarmoqlari faoliyatini nazorat qilgan. Devon Sohibqironning «ko‘zi» va «qulog‘i» vazifasini bajargan.

Bu xususida «Temur tuzuklari»da quyidagilar yozilgan: «Amr qildimki, to‘rt vazir har kuni devonxonada hozir bo‘lsinlar. Birinchisi – mamlakat va raiyat vaziri...

Ikkinchisi – sipoh vaziri… Uchinchisi – egasiz qolgan, o‘lib ketgan va qochganlarga tegishli mollarni, kelib-ketayotgan (savdogarlar va sayyohlarning) mol-mulkidan olinadigan zakot va bojlarni, mamlakat chorvalarini, ularning o‘tlov-yaylovlarini boshqarib, bularning barchasidan yig‘ilgan daromadni omonat tarzida saqlovchi vazir... To‘rtinchisi – saltanat ishlarini yurituvchi vazir...

Yana amr qildimki, chegara yerlar va menga tobe mamlakatlarga oid (ishlarga mas’ul) uch vazirdan iborat davlat hay’ati (xolisa) tuzilsin. Ular mazkur joylardagi moliyaviy muomalalarni va keladigan daromadlarni boshqarsinlar. Bu yetti vazir devonbegiga bo‘ysunishi lozim va u bilan

ittifoqda muhim moliyaviy ishlarni amalga oshirmoqlari va mening arzimga yetkizishlari zarur»[22]. Xullas, oliy hukmdor davlatni boshqarish san'atini oliy maqomga ko'targan, o'z saltanati boshqaruv tizimini nihoyatda takomillashtirish orqali ham faol, to'laqonli iqtisodiy siyosat yuritgan.

Amir Temur o'z saltanatida xarajatlarni ma'lum me'yorga keltirishga harakat qilgan. Daromad va xarajatlar muvozanatini smeta[2324] orqali aniqlash, uni tahlil qilish va shu asosda xarajatlarni belgilash mamlakatning kelajakdagi moliyaviy ahvoliga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Masalan, «Tuzuklar»da xarajatlarni me'yorlashtirish, qilingan xizmatlar uchun tiyul belgilashda; sipohilar, lashkarboshilar, vazirlik xodimlariga beriladigan ulufalarda o'z ifodasini topgan. Sohibqironning moliyaviy ishlarni tashkil qilishdagi muvaffaqiyatlari o'z qo'l ostidagi mahalliy hokimiyatlardan foydalanib, ular tasarrufidagi muassasalar faoliyati haqida kerakli ma'lumot va hisobotlarni olib ish yuritganligida bo'lsa kerak. Chunki, olingan hisobotlar mablag'lar harakati ustidan nazorat olib borishga yordam bergan. Xarajatlar sirasida harbiy va harbiy ahamiyatga molik xarajatlar, ma'muriy boshqaruv va saroy saltanati xarajatlari asosiy o'rin tutgan. Saltanatdagi xarajatlarning yana biri – ijtimoiy himoya xarajatlari (quyida fikr yuritamiz) hisoblangan. Bulardan tashqari, davlat xarajatlari sirasida mamlakat xazinasidan ilm-fan, madaniy va diniy tadbirlar uchun ajratilgan xarajatlar ham muhim o'rin tutgan. Amir Temur tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlagan, mehnat unumdorligiga erishgan iste'dodli hunarmandlarni rag'batlantirgan; olim-u me'morlar, muhandis-u shoirlardan xazina mablag'larini ayamagan; narxlar ustidan nazorat o'rnatgan, xorijiy savdogarlarning muayyan narxlarda mol xarid qilishlarini ta'minlagan. Demak, Amir Temur moliya ishlarida o'z zamonasiga nisbatan ilg'or yo'nalish va usullarni joriy etib, arab sayyohi Ibn Xoldun va rus olimi D.N.Logofet e'tirof etganidek, moliyaviy masalalarda qat'iy tartib o'rnatdi. Shu bois, tarixshunos olim A.Yakubovskiy Amir Temurning moliyaviy siyosatini Mahmud G'aznaviy bilan solishtirib tahlil etar ekan, unga «Amir Temur boshqacha edi. U yaxshi hisob-kitobli rahbar edi»[25], – deb baho bergan.

---

[22] "Temur tuzuklari".B. Ahmedov tahriri ostida. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1996, 107-108-betlar.

[23] Якубовский А. "Самарканд при Тимуре и Тимуридах". Очерк. – Санкт-Петербург: 1933, стр. 27.

[24] Smeta – (rus.) oldindan tuzilgan kirim-chiqim, daromad-buromad hisobi.

[25] Smeta – (rus.) oldindan tuzilgan kirim-chiqim, daromad-buromad hisobi.

## 4.1. Temur tuzuklarida ijtimoiy himoya masalalari

Amir Temur mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti, fuqaroning osoyishtaligi va farovonligi, davlatning buyukligi turli toifalarning va turli pog‘onadagi amir-u umarolarning bilimi va iqtidoriga, adolat va insof bilan ish yuritishiga bog‘liqligini chuqur anglagan. Shu bois, mazkur toifalardan, ularning imkoniyatlaridan o‘rinli va unumli foydalangan. Shu bilan birga, ularni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlagan. Oliy hukmdor turli toifalar va turli pog‘onadagi amir-u ulamolarni ijtimoiy himoyalashda iqtisodiy rag‘batlantirishning ulufa shaklidan keng foydalangan. Chunki, ulufa xalqning barcha tabaqalariga, ayniqsa, amir-u sipohilarga tayanib, ularni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qiziqtirib, manfaatdorlik va adl-u insof bilan ish yuritishda nihoyatda qo‘l kelgan. Masalan, qaysi bir sipohi xizmatda yurib qarilik yoshiga yetsa, u ulufadan mahrum etilmagan va martabasidan tushirilmagan.

Amir Temur markazlashgan davlat vujudga keltirish jarayonida raiyatning mol-mulkini talon-taroj qilishdan himoya qildi, ichki va tashqi bosqinchilar, talonchi va qaroqchilarning yo‘li to‘sildi.

Ta’kidlaganimizdek, markazlashgan kuchli davlat iqtisodiy siyosatida aholini ijtimoiy himoya qilish muhim o‘rinni egalladi. Tariximizni bilmasligimiz tufayli yaqin-yaqingacha aholining ehtiyojmand qismini ijtimoiy himoya qilish sotsializm, deb atalgan jamiyatning kashfiyoti, kapitalizm deb atalgan tuzum bu namunadan xabardor mehnatkashlar noroziligidan cho‘chib ijtimoiy himoya tizimini joriy qilgan deb kelardik. «Tuzuklar»ni o‘rganish jarayonida Amir Temurning bevosita rahnamoligida ijtimoiy himoyalashning keng qamrovli tizimi amal qilganligiga amin bo‘ldik. Agar ilgarilari ijtimoiy himoyalash islom dinining axloqiy qonun-qoidalariga muvofiq ixtiyoriy xayr-u ehson shaklida amalga oshirilgan bo‘lsa, Amir Temur davrida aholini ijtimoiy himoyalashning davlat tizimi ham vujudga kelib, u iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Hamma zamonlarda ham, shu jumladan, Amir Temur zamonida ham raiyatni adolat-u insofdan chekingan, imon-u insofni nafs balosiga almashtirgan alohida amaldor hokimlar, beklar, qozilar, yasovul-u chopovullar, zakotchilar va shunga o‘xshashlardan himoya qilish talab qilingan. Shuningdek, sipohilar tomonidan ham qonun-qoidani buzish va kezi kelganda aholi mulkini talon-taroj qilish, zo‘ravonlik holatlari sodir bo‘lgan. Adolatpesha bobomiz o‘g‘ri, qaroqchi, zo‘ravonlarni jazolagan; fasodchi, buzuqi, nafsi yomon kishilarni mamlakatdan haydab chiqargan:

«Hokimlar, sipoh va raiyatdan qaysi birining xalqqa jabr-zulm

yetkazganini eshitsam, ularga nisbatan darhol adolat-u insof yuzasidan chora ko‘rdim»[26].

Raiyatga zolimlar tomonidan yetkazilgan ashyoviy va jismoniy zararlar, shariat qonunlariga muvofiq odamlar o‘rtasida muhokama qilinar, isbotlangandan keyin zarar to‘lanar hamda shariat qonun-qoidalariga muvofiq jazo belgilanardi. Yo‘llarni qo‘riqlash, o‘tkinchilar, savdogarlar, musofirlarning mol-mulki va boshqa narsalarini manzildan-manzilga yetkazib berish uchun kuzatuvchilar, zobitlar tayinlangan edi. Agar yo‘l ustida birortaning narsasi yo‘qolsa, o‘zi o‘ldirilsa yoki boshqa kor-hol yuz bersa, bular uchun javob berish ularning zimmasiga yuklanardi.

Aholining kam ta’minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoyalash, qo‘llab-quvvatlash borasida ham izchil iqtisodiy siyosat olib borilgan. Ishsizlik o‘sha zamonning ham katta ijtimoiy illati hisoblangan. Natural xo‘jalik hukmronlik qilgan zamonda mehnat bozori juda sust rivojlangan bo‘lib, ishsizlar va gadolar sonining ko‘payishiga sabab bo‘lardi. Amir Temur gadolarni mamlakatni xunuk ko‘rsatuvchi omil deb qaradi va bu ijtimoiy illatning iqtisodiy zaminini yo‘qotmasdan, uning oldini olish mumkin emasligini aniq tahlil qilgan holda ijtimoiy himoya qilishning turli usullaridan foydalandi. Birinchi navbatda aholining ijtimoiy jihatdan nochor tabaqalari: nogironlar, shol, ko‘r, qarilik sababi bilan ishlay olmaydiganlar nafaqa bilan ta’minlandi. Ba’zi ma’lumotlarga qaraganda, xazinaning o‘n foizi shu maqsadga sarflangan. Ikkinchi navbatda, mehnatga qobiliyatli, bilagida kuchi bor faqir-u miskinlar va gadolarni ish bilan ta’minlash chora-tadbirlari amalga oshirildi: «Yana buyurdikki, har mamlakatning gadolariga vazifa yuklab ish bersinlar, toki shu yo‘l bilan gadolik rasmi yo‘qotilsin»[27]. Biroq, shunga qaramay, gadolikni kasb qilib olganlar, nafaqa olib ham gadolik qiluvchilar mamlakat hududidan haydab yuborilgan. Mamlakatda dangasalar va tekinxo‘rlarga nisbatan nafrat va murosasizlik kayfiyati uyg‘otilgan.

Amir Temur davlati ijtimoiy himoya tizimining eng muhim xususiyati shundan iboratki, saltanatda aholining turli qatlamlariga qat’iy tabaqalashtirilgan tarzda yondashilgan, ya’ni ijtimoiy himoya davlatning moddiy yordamiga muhtoj bo‘lgan jamiyat a’zolarigagina yo‘naltirilgan. Ijtimoiy himoyaga tabaqalashtirilgan holda yondashilgan deganimizning ikkinchi bir isboti shuki, qaysi bir sipohi xizmatda yurib qarilik yoshiga

[26] “Temur tuzuklari”.B.Ahmedov tahriri ostida. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1996, 56-bet.

[27] Temur tuzuklari”.B.Ahmedov tahriri ostida. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1996, 56-bet.

yetsa, u ulufadan mahrum etilmagan va martabasidan tushirilmagan. Ijtimoiy himoyalash, albatta, mamlakat va elatlarning milliy an'analari va urf-odatlariga tayanilgan holda amalga oshirilgan. Aholining ijtimoiy himoyalash tizimida mahalla-guzarlar muhim o‘rin tutgan. Shuningdek, Amir Temur saltanati sog‘liqni saqlash, musofirlarga yordam ko‘rsatish, suv chiqarish, ko‘priklar qurish kabi ishlarda raiyatdan yordamini ayamagan. Masalan, davlat mablag‘lari hisobiga har bir shaharda masjidlar, madrasalar, xonaqohlar (darveshlar, qalandarlar, g‘arib-miskinlar to‘xtaydigan, istiqomat qiladigan joy) qurilgan.

Amir Temur moddiy va ma'naviy rag‘batlantirishga jamiyatni, jamoani, shaxsni harakatga keltiruvchi ulkan kuch deb qaradi va undan davlatni, iqtisodiyotni boshqarishda dasturilamal sifatida foydalandi. Xazinadan beriladigan maosh fuqaroning egallagan vazifasi, bajargan xizmatiga qarab darajama-daraja oshirib borildi. Bu tarzda maosh belgilash, ya'ni egallagan vazifasi va bajargan xizmatiga qarab maoshning darajama-daraja oshirib borilishi hozirgi zamonda amal qilayotgan tarif setkasini eslatadi. Amir Temur bunday tizimni XIV asrning ikkinchi yarmida joriy etgan bo‘lsa, biz esa mazmun jihatidan shunga monand moddiy rag‘batlantirish tizimini respublikamizda 1992 yilda joriy qildik.

Amir Temur, ayniqsa, qo‘shinlarning jangovorlik ruhini ko‘tarish, muxolif kuchlar ustidan g‘alaba qilish va qo‘yilgan maqsadga tezroq erishish uchun moddiy manfaatdorlik tamoyilidan ustalik bilan foydalangan. Sipohilarning oylik haqlarini so‘rattirmay bergan. Rum yurishida esa sipohilarning ruhini ko‘tarish maqsadida yetti yillik ozuqalarini birdaniga bergan.

Mamlakat ichki va tashqi siyosatida barqarorlikni ta'minlashda, raiyatning turli qatlamlari orasida birlikni vujudga keltirishda, turli elat va millatlarni markazlashgan davlat atrofida birlashtirishda dasturilamal bo‘lib xizmat qilgan moddiy rag‘batlantirish tamoyilining turli qirralarini Sohibqironning quyidagi so‘z va amaliy ishlarida ko‘rish mumkin:

- xayr-u ehson ishlarim bilan odamlar ko‘nglidan joy oldim.
- amirlarim va sipohilarimni martaba va unvonlar, zar-u zevarlar bilan xushnud etdim. Dirham va dinorlarni ulardan darig‘ tutmadim.
- sayyidlar, ulamo, shayxlar va boshqa diniy arboblarga suyurg‘ol belgilab, har birining vazifasini tayin qildim.
- har el va har mamlakatning ulug‘larini, boshliq – oqsoqollarini qadrladim, ularga sovg‘a-salomlar berib xizmatlaridan foydalandim.
- ahli majlis bo‘lmish sayyidlar, olimlar, fozil kishilar, hakimlar,

tabiblar, munajjimlar, qissaxonlar, xabarchilar, tarixchilarga o‘z hollariga qarab suyurg‘ol, vazifa va maosh belgilansin deb buyurdim.

- raiyat, har bir diyor aholisining ahvolidan ogoh bo‘lib turdim.

Amir Temur mamlakatning siyosiy birligini mustahkamlashda, jahongirlikda, yagona markazlashgan davlatni vujudga keltirishda, fan va madaniyatni hamda iqtisodiyotni rivojlantirishda ma’naviy rag‘batlantirishga ham buyuk harakatlantiruvchi kuch deb qaradi. Shubhasiz, moddiy va ma’naviy rag‘batlantirishning Amir Temur uslubi biz uchun tarixiy saboqdir. Uning eng yaxshi tomonlaridan foydalanish, mazmunan va shaklan kengaytirish, uni yanada chuqurlashtirish jamiyatimiz rivojida harakatlantiruvchi kuch sifatida xizmat qilishini inobatga olib, tadbirkor bobomizning ma’naviy rag‘batlantirish haqidagi o‘gitlarini kitobxonlarga havola qilishni lozim topdik:

- lashkarni, raiyatni atrofimga birlashtirish uchun muruvvat ko‘rsatdim, ularga mehribonlik qildim;
- shirin so‘z va ochiq yuz bilan ularni o‘zimga rom etdim;
- qilgan bir xizmatini o‘n barobar qilib taqdirlab, dillarini xushnud qildim;
- amirlarim va sipohlarimni martaba va unvonlar bilan xushnud etdim;
- fuqaro va qo‘l ostimdagilarga rahmdillik qildim, zolimlardan mazlumlar haqqini oldim;
- raiyat ahvolidan ogoh bo‘ldim, ulug‘larini og‘a qatorida, kichiklarini farzand o‘rnida ko‘rdim;
- kim menga do‘stlik qilgan bo‘lsa, davlat-u ne’mat martabasiga erishganimda unutmadim, haqlarini ado etdim;
- menda biron kimsaning haqqi bo‘lsa, haqqini hech vaqt unutmadim;
- biron kimsa bilan tanishgan bo‘lsam, uni hech vaqt nazarimdan chetda qoldirmadim;
- sayyidlar, oqil-u donolar, xabarchilar, tarixchilarni e’tiborli odamlar hisoblab, izzat-u hurmatlarini joyiga qo‘ydim;
- qaysi biri ko‘zga ko‘rinarli biror xizmat ko‘rsatar ekan, in’omlar berib, boshqalardan ayricha hurmatladim, so‘ngra ko‘rsatgan xizmatiga yarasha martabasini yanada ko‘tardim.

Moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish hamda aholini ijtimoiy himoyalash Amir Temur iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlari ekanligi, uning mamlakati sarhadlarida iqtisodiy adolat qaror topishiga zamin bo‘ldi. Shu bois, sohibqiron o‘z tuzuklarida davlatni boshqarishda

aholining barcha qatlamlari qatnashishini maqsadga muvofiq deb bildi (Ajabo, buyuk bobokalonimizning bu purhikmat o‘gitlari demokratik va fuqarolik jamiyati qurayotgan mustaqil O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan qutlug‘ ishlarga naqadar monand). Oliy hukmdor aholining barcha qatlamlarini o‘n ikki ijtimoiy toifaga bo‘ladi: 1) sayyidlar, ulamo, shayxlar, fozil kishilar; 2) aqlli kishilar, ehtiyotkor arboblar, sergak va olisni ko‘rib ish yurituvchi keksa va tajribali kishilar; 3) duogo‘y kishilar; 4) amirlar, sarhanglar va sipohsolarlar (harbiy rahbarlar); 5) sipoh va raiyat (askar va qora xalq); 6) saltanat ishlari va uning sir-asrorini bilgan, kengash qilishga loyiq tajribali va ishonchli kishilar; 7) vazirlar, bosh kotiblar va devon xodimlari; 8) hakimlar, tabiblar, munajjimlar va muhandislar; 9) muhaddislar (hadischi olimlar), roviylar (qissachilar, tarixchilar); 10) mashoyix, so‘filar, zukko oriflar; 11) kasb-u hunar egalari; 12) sayyoh va savdogarlar.

Shavkatli sohibqiron saltanatida ulufa masalalari bilan, asosan, sipoh vaziri shug‘ullangan. Amirlar, mingboshilar, yuzboshilar, o‘nboshi va sipohilarga ulufa tartibida maosh belgilangan. Oddiy sipohi (askar)ga o‘z vazifasini sadoqat bilan o‘rinlatib bajarish sharti bilan mingan otining bahosiga teng maosh belgilangan. Bahodirlarning maoshi ikki ot bahosidan to‘rt ot bahosigacha bo‘lgan miqdorda tayin qilingan. O‘nboshilarning maoshi qo‘l ostidagi sipohilar maoshidan o‘n barobar ortiq bo‘lgan. Yuzboshilarning maoshi o‘nboshilarning maoshiga qaraganda ikki barobar, mingboshilarning maoshi esa yuzboshilarning maoshiga qaraganda uch barobar ortiq bo‘lgan. Agar yurish paytlari xatoga yo‘l qo‘yilsa, maoshlarining o‘ndan bir qismi kamaytirilar edi:

«Yana hukm qildimki, sipohilardan qaysi biri urush ishlarida xatolikka yo‘l qo‘ysa, oyligini o‘ndan birga kamaytirsinlar»[28]. Amir Temur sipohilarni iqtisodiy jihatdan qiziqtirish, rag‘batlantirish orqali manfaatdorlikka alohida e’tibor bergan. Bu tadbirlar, albatta, jang-u jadallarda jahongir bobomizga muvaffaqiyatlar keltirgan. Sipohilar va bahodirlar faqat maosh, ulufa bilangina taqdirlanib qolmasdan, ularga jangdan oldin ukunka (maxsus sovg‘a)lar ham berib borilgan. Jangdan keyin esa ular o‘ljalardan bahramand bo‘lganlar. «Temur tuzuklari»da qayd etilgan ushbu ta’kid fikrimizni yanada to‘ldiradi: «Sipohilarni hamisha jangga tayyor holda tutdim, oylik haqlarini so‘rattirmay vaqtida berdirdim... Qaysi biri ko‘zga ko‘rinarli biror xizmat ko‘rsatar ekan, in’omlar berib, boshqalardan ayricha hurmatladim... Sipohilardan kimki

[28] “Temur tuzuklari”.B. Ahmedov tahriri ostida. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1996, 89-bet.

astoydil qilich chopsa, oyligini oshirsinlar»[29] [32]. Biroq «Tuzuklar»da raiyatga zulm o‘tkazgan sipohilar qattiq qoralanadi: «Qaysi bir sipohi haddidan oshib, qo‘l ostidagi kishiga zulm o‘tkazar ekan, uni tutib mazlum qo‘liga topshirsinlar, toki uning jazosini zulm ko‘rganlar bersin»[30].

Bugina emas, hatto sipohlar maoshi va tanho ishlarini boshqaruvchi sipoh vaziri faoliyati ham qattiq nazorat qilingan: «Mamlakat xazinachilari bo‘lmish moliya vazirlari, moliya ishlarida xiyonat qilsalar va boylikning bir qismini o‘zlashtirib olgan bo‘lsalar tekshirib ko‘rilsin. Agar o‘zlashtirib olgan mablag‘i o‘ziga tegishli haq miqdoridan oshmasa, mazkur mablag‘ unga in’om o‘rnida qoldirilsin. Agar o‘zlashtirib olgan mablag‘i maoshidan ikki barobar ortiq bo‘lsa, ortig‘i oladigan oyligi hisobidan ushlab qolinsin. Agar maoshidan uch barobar ko‘p mablag‘ olgan bo‘lsa, hammasi (saltanat xazinasiga) tortiq sifatida olinsin»[31].

Sohibqiron: «Yana buyurdimki, o‘nboshi yuzboshi tasdig‘i bilan, mingboshi amirlar amiri tasdig‘i bilan haq olsinlar»[32], – degan edi. Shuningdek, amirlar amirining oyligi, o‘z qo‘l ostidagilardan o‘n barobar ortiq bo‘lgan. Devonbegi va vazirlarning maoshlari esa amirlar maoshlaridan o‘n barobar ko‘p bo‘lgan. Yasovul (xonlarning kichik xizmatchisi, ya’ni qo‘riqchi), chopovul (chopqichi, asosan, tunda o‘tkaziladigan bosqinlar qatnashchisi), qalaqchi (aholidan, yig‘ilgan hosildan xiroj yig‘uvchi, xiroj miqdorini belgilovchi mansabdor)larning maoshlari o‘z xizmatlariga yarasha, mingdan tortib, hatto o‘n ming tangagacha miqdorda bo‘lgan.

Payg‘ambarimiz, Muhammad alayhissalomning avlodlari bo‘lmish sayyidlar, olimlar, fozil kishilar, hakimlar, tabiblar, munajjimlar, qissaxonlar, xabarchilar, tarixchilarning har biriga hollariga qarab suyurg‘ol (doimiy foydalanishga berilgan yer-suv, in’om, sovg‘a, marhamat), vazifa (xizmat haqi) va maosh belgilangan. Xizmatchilar, barcha turdagi xodim (bu yerda gilam to‘shovchilardan tortib, ko‘cha supuruvchilargacha)larga yuz tangadan ming tangagacha maosh belgilangan.

Biroq bu iqtisodiy tadbirlar ijrosi shaxsan saxovatpesha bobomiz

[29] “Temur tuzuklari”.B. Ahmedov tahriri ostida. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1996, 100-bet.

[30] “Temur tuzuklari”.B. Ahmedov tahriri ostida. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1996, 93-bet.

[31] “Temur tuzuklari”.B. Ahmedov tahriri ostida. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1996, 93-bet.

[32] Temur tuzuklari”.B. Ahmedov tahriri ostida. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1996, 89-bet.

tomonidan tekshirib borilgan: «Yana hukm qildimki, amirlar amiri o‘z haqini devonbegi va vazirlarning tasdig‘i bilan olsin. Davlat tomonidan belgilangan butun maoshlarning to‘liq ma’lumotlarini devonbegi va vazirlar avval menga bildirib, so‘ngra haqlar berilsin»[33].

Yana «Tuzuklar»da talqin etilishicha, piyodalar, qalaqchilar, yasovullar va chopovullarning bir yillik maoshlari hisoblanib, belgilangan mablag‘ devonxonaga keltirilib, bu yerda ularga ulashilgan. Oddiy sipohilar va bahodirlarning olti oylik maoshi hisob-kitob qilinib, tanho xazinasidan olib berish buyurilgan. O‘nboshi, yuzboshilarga maosh shahar aholisidan olinadigan soliqlardan yig‘iladigan xazinadan va podsholik mulki daromadidan naqd pul hisobida berilgan. Mingboshiga viloyat ichidagi yerlardan tiyullar hisobiga berilgan. Amirlar va amir-u ulamolarga esa viloyatlardan biri tiyul qilib berilgan. Amir Temur viloyatlardan tushgan daromadlarni taqsimlash haqida quyidagicha farmoyish bergan: «Viloyatlardan tushgan daromadlarni ushbu yo‘sinda taqsimlashni buyurdim: viloyatlar va mamlakatlardan olingan jami daromadni taqsimlab, maosh berish yorliqlariga biriga kam, biriga ortiq qilib yozsinlar. So‘ng yorliqlar devonxonaga keltirilsin. Amirlar va mingboshilar shu yorliqlardan birini chiqarib olsin. Agar yorliqda maoshidan ortiq (ko‘rsatilgan) bo‘lsa, boshqani o‘ziga sherik qilsin. Bordi-yu, kam bo‘lsa, uni qo‘yib, boshqa yorliq tortib olsin»[34]. Sohibqironning iqtisodiy siyosatidan farzandlari ham chetda turmagan. Uning amriga binoan to‘ng‘ich o‘g‘li Muhammad Jahongir Mirzo valiahd va viloyat hokimi bo‘lib, o‘n ikki ming otliq askarga ulufa olgan. Ikkinchi o‘g‘li Umarshayx Mirzo o‘n ikki ming otliq askarga haq olib, bir viloyatni boshqargan. Uchinchi o‘g‘li Mironshoh Mirzo to‘qqiz ming otliq askarga ulufa olib, bir viloyatni tasarruf etgan. To‘rtinchi o‘g‘li Shohruh Mirzo yetti ming otliq askarga ulufa olib, bir viloyatga egalik qilgan.

«Tuzuklar»dagi ushbu ta’kidlar saxovatpesha hukmdorning yigirma yetti podshohlik taxtini egallashida nafaqat shamshiri zarbi, balki o‘ta adolat va insof bilan yuritgan iqtisodiy tadbirlarining zarbi ham behad ekanligini bildiradi: «Amirlarim va sipohilarimni martaba va unvonlar, oltin-kumush bilan xushnud etdim. Bazmlarda ularga (o‘z yonimdan) o‘rin berdim, shuning uchun janglarda jonlarini fido qildilar. Dirham va dinorlarni ulardan darig‘ tutmadim... Kimki mening xizmatimni qilgan

[33] “Temur tuzuklari”.B. Ahmedov tahriri ostida. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1996, 89-bet.

[34] “Temur tuzuklari”.B. Ahmedov tahriri ostida. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1996, 90-bet.

bo‘lsa, xizmati haqqini ado etdim... Farzandlar, qarindoshlar, oshna-og‘aynilar, qo‘ni-qo‘shnilar va men bilan bir vaqtlar do‘stlik qilgan barcha odamlarni davlat-u ne’mat martabasiga erishganimda unutmadim, mol-u mulk va naqd pul bilan haqlarini ado etdim... Menda biron kimsaning haqqi bo‘lsa, haqqini hech vaqt unutmadim»[35].

Tarixchi olim Ibrohim Mo‘minov: «Chingizxonning yovvoyi qo‘shinlari Samarqandni – Afrosiyobni tamomila buzib tashladilar. Tarixiy manbalarning ko‘rsatishicha, Chig‘atoy ulusining (Chingiziylarning) 1220-1360-yillar ichidagi hukmronligi davrida Samarqandda ko‘zga ko‘rinarli birorta ham ijtimoiy bino qurilgan emas. Temur Samarqanddagi ahvolni butunlay o‘zgartirib yubordi. U Samarqandda Ko‘ksaroyni, Bibixonim masjidini, Shohizinda mavzoleyini, Samarqand atrofida Bog‘i Chinor, Bog‘i Shamol, Bog‘i Dilkusho, Bog‘i Bekat, Bog‘i Nav kabi bog‘ va saroylarni qurdirdi. Yo‘llar qurib, Ko‘hak (Zarafshon) daryosiga ko‘priklar solindi…», – deb ma’lumot beradi[36]. Haqiqatdan ham, Amir Temur davri shavkatli bobomizning bunyodkorlik va yaratuvchilik faoliyati tufayli insoniyat tarixida yorqin bir sahifani tashkil etadi. Sohibqironning bunyodkorlik va yaratuvchilik faoliyati uning iqtisodiy qudratidan guvohlik beradi. Xullas, Amir Temur davlati iqtisodiy qudratining oshib borishiga ichki va tashqi savdoning rivojlanishi, pul muomalasi, soliq islohotlari va ijtimoiy himoyalash borasida o‘ta oqilona qo‘llangan iqtisodiy tadbirlar jiddiy ta’sir ko‘rsatdi.

## Tayanch so‘z va iboralar

Soliq tizimi, dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo, xizmatga yarasha haq, qo‘shimcha mahsulot, pul, boylik.

## Muhokama uchun savollar:

1. “Temur tuzuklari” asarining ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy, ma’rifiy ahamiyati.
2. Amir Temurning aholini ijtimoiy himoyalash siyosati.
3. Amir Temur iqtisodiy qarashlarining hozirgi vaqtda O‘zbekistonda o‘tkazilayotgan islohotlar bilan hamohangligini qanday izohlaysiz?

---

[35] “Temur tuzuklari”.B. Ahmedov tahriri ostida. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1996, 69-71-betlar.

[36] Yo‘ldoshev A. “Jahon Amir Temur to‘g‘risida”. «Iqtisod va hisobot» jurnali,T.,1996, 12-son, 72-bet.

# V BOB. MERKANTILIZM IQTISODIY TA’LIMOTI VA UNING MOHIYATI

## 5.1.Merkantilizm - ilk iqtisodiy maktab sifatida

Natural xo‘jalik munosabatlarining bozor munosabatlari tomonidan siqib chiqarilishi XVI asrdan XVIII asrgacha bo‘lgan tarixiy davrni o‘z ichiga oladi. Bu davr merkantilizm davri deb ataladi. Merkantilizm (italyancha «merkante» so‘zidan kelib chiqqan – savdogar ma’nosini anglatadi) birinchi ilmiy qarashlar tizimi hisoblanadi.

Merkantilistlarning ilmiy dunyoqarash tamoyillari quyidagilar bilan tavsiflanadi: har qanday oltin va qimmatbaho narsalarga boylik sifatida qarash; mamlakatga oltin va kumushning oqib kelishini ta’minlash maqsadida tashqi savdoni tartibga solish; arzon xomashyoni import qilish yo‘li bilan sanoatni rag‘batlantirish; import qilinadigan sanoat tovarlariga proteksionistik tariflarni belgilash; eksportni, ayniqsa, tayyor mahsulotlar eksportini rag‘batlantirish; ish haqining past darajasini ushlab turish uchun aholining o‘sishi. Milliy farovonlikning zaruriy sharti sifatidagi aktiv savdo balansi doktrinasi, shak-shubhasiz, merkantilizmning asosi hisoblanadi.

Bu ta’limotning kelib chiqishiga bir qancha sotsial-iqtisodiy sabablar turtki bo‘ldi. Avvalo, feodal tuzumining yemirilishi, tovar-pul munosabatlarining o‘sishi, fan va madaniyatning rivoji, ayniqsa, yangi yerlarning ochilishi, buyuk geografik kashfiyotlar, mustamlakachilik tizimining paydo bo‘lishi savdo-sotiqning rivojiga turtki bo‘ldi.

Merkantilizm, eng avvalo, davlatning iqtisodiy siyosatini ifoda etgan, uning amaliy faoliyati uchun tavsiyalar ishlab chiqqan. Ular davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvini qo‘llab-quvvatladilar, yuqori soliq stavkasini va davlat xarajatlarini himoya qildilar.

Bir necha asrlar davomida boylikning manbai, xalq farovonligining asosi mehnat, yer, dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik deb tushunilar edi. Lekin XV asrga kelib, natural xo‘jalikning yemirilishi, tovar-pul munosabatlarining o‘sishi, fan va madaniyatning yuksalishi, yangi yerlarning ochilishi, buyuk geografik kashfiyotlar va mustamlakachilik tuzumining paydo bo‘lishi savdoning tez rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Mana shu davrga kelib, Yevropadagi asosiy mamlakatlar merkantilizm siyosati ta’sirida edilar. Merkantilistlar, millatlar xuddi savdogarlar singari foyda olish uchun bir-birlari bilan raqobat qilishlari kerak deb hisoblardilar. Hukumat eksportni qonunlar bilan qo‘llab-quvvatlashi, sanoatda ish haqi va resurslarga kam xarajat qilishi kerak deb

ta’kidladilar. Shu usulda «qulay savdo balansiga» erishishi mumkin.

«Qulay savdo balansi» deb eksport importdan ortiq bo‘lgan vaziyat tushunilar edi. Merkantilistlarning fikricha, oltin va kumush zaxirasining ko‘payishi millat farovonligining o‘lchovidir.

Merkantilizmni zamon muammolariga ilmiy munosabat sifatida tushunish to‘g‘ri bo‘ladi. Xususiy mulk inqirozga uchrab, davlat mulkiga aylantirilayotgan bir davrda merkantilistlar xalq boyligi va qudratini oshirish uchun eng yaxshi siyosat va yo‘llarni belgilashga intilardilar.

Merkantilistlar dunyodagi umumiy boylik o‘zgarmas deb qabul qilishgan. Shu farazga asoslangan holda sxolastiklar, insonlar o‘rtasida savdo amalga oshirilganda ulardan birining daromad olishi boshqasiga albatta zarar keltiradi deb ta’kidlashgan. Merkantilistlar xuddi shu mantiqni xalqlar o‘rtasidagi savdoda ham qo‘llab, bir xalqning iqtisodiy qudrati va boyligining o‘sishi faqatgina boshqa davlat boyligi hisobiga amalga oshadi degan xulosaga kelishgan. Shunday qilib, merkantilistlar xalqaro savdo millatning qudrati va boyligining ravnaq topishida muhim vosita ekanini e’tirof etib, ko‘proq xalqaro savdo balansiga e’tibor qaratishgan. Ko‘pchilik merkantilistlar fikriga ko‘ra, iqtisodiy faoliyatdan maqsad iste’mol emas, balki ishlab chiqarishdir va bu keyinchalik klassik iqtisodchilar tomonidan ham qabul qilindi. Shuningdek, ularning fikricha, millat boyligi shaxsiy boyliklar yig‘indisi shaklida aniqlanmaydi. Ular bir vaqtning o‘zida ham ishlab chiqarishni, ham eksportni rag‘batlantirish, hamda iste’molni cheklash orqali millatning boyligini ko‘paytirish mumkin deb hisobladilar. Shunday qilib, xalqning boyligi ko‘pchilikning qashshoqligiga asoslanadi. Merkantilistlar ishlab chiqarishga katta ahamiyat bergan bo‘lsalar ham, ichki bozorga ko‘p mahsulot ishlab chiqarishni ma’qullamaganlar. Ko‘p ishlab chiqarish bilan birga, kam iste’mol qilish eksportni oshirishga imkon beradi, bu esa millat boyligining va qudratining oshishiga olib keladi deb hisoblaganlar.

## 5.2. Merkantilizmning predmeti va uslubi

Merkantilizmning predmetida - ishlab chiqarishdan ajralgan holda muomala sohasi tahlil qilindi. Tadqiqot usuli sifatida iqtisodiy hodisalarning tashqi holatini ifoda etuvchi va iqtisodiyotni sistemali tahlil etishni inkor etuvchi, nazariyadan ko‘ra amaliy faoliyatga moyil bo‘lgan - **empirizm usulidan** foydalandilar.

Merkantilistlarning ilmiy dunyoqarash prinsiplari quyidagilardan iborat:

- har qanday oltin va qimmatbaho narsalarga boylik sifatida qarash;

- mamlakatga oltin va kumushning oqib kelishini ta’minlash maqsadida tashqi savdoni tartiblash;
- arzon xomashyoni import qilish yo‘li bilan sanoatni rag‘batlantirish;
- import tovarlarga proteksionistik tariflarni belgilash. Bu siyosatni, ayniqsa, Angliya keng qo‘llangan (1/120, jumladan Ost-Indiya, Afrika).
- tayyor mahsulotlar eksportini rag‘batlantirish;
- pulning paydo bo‘lishini sun’iy ixtiro natijasi deb hisoblab, pulning o‘zini boylik to‘plashning birdan-bir vositasi deb qaradilar;
- ish haqining past darajasini ushlab turish uchun aholining o‘sishi. («qashshoqlik va muhtojlik xalqni shunchalik aqlli va mehnatsevar qiladi», deydi T.Mann).

Demak, merkantilizmning asosiy doktrinasi aktiv savdo balansini yurgizishdan iborat edi. Bunda pul balansi siyosati olib borilgan, chetdan imkoni boricha kam tayyor tovar olishga urinilgan. Chet ellik savdogarlarni esa sotilgan mol pulining hammasiga yangi tovar sotib olishga majbur qilingan.

Merkantilizm rivojida 2 davrni ajratish mumkin:

1. Ilk merkantilizm yoki monetarizm (15-16 asr o‘rtalari);
2. Rivojlangan merkantilizm, savdo balansi (yoki manufaktura) (16-18 asr o‘rtalari).

(Iqtisodiyot tarixida sanoatning 3 xil shaklini ajratish mumkin: uy hunarmandchiligi, manufaktura va fabrika. Uy hunarmandchiligida sohalar, tarmoqlararo mehnat taqsimoti mavjud, hamma ishni bir odam yoki shogird, oila bilan birga qiladi. Manufakturada esa koperatsiya yuzaga keladi, eng muhimi chuqur mehnat taqsimoti, xususiy tadbirkor, yollanma ishchi paydo bo‘ladi (15 asr)).

## 5.3. Dastlabki va keyingi merkantilizmning o‘ziga xosligi

Dastlabki merkantilizm XVI asrning o‘rtalarigacha faol amal qilib keldi. Uning asosiy vakillari U.Stafford (Angliya), G.Skaruffi (Italiya) hisoblanadi. Dastlabki, merkantilizm «pul balansi» siyosatini olib borgan. Bu siyosat tashqi savdoni qattiq tartiblab turish yo‘li bilan mamlakatning pul boyligini ko‘paytirishga qaratilgan edi (mamlakatning puli qancha ko‘p bo‘lsa, u shuncha boy hisoblangan).

Dastlabki merkantilistlar quyidagi omillarni:

- eksport qilinadigan tovarlarga maksimum yuqori baho o‘rnatishni;
- tovarlar importini har tomonlama cheklashni;
- mamlakatdan oltin va kumushning oqib chiqib ketishiga yo‘l

qo‘ymaslikni maqsadga muvofiq hisobladilar.

Dastlabki merkantilizm davrida hukumat xorijiy savdogarlarni ularning pulini mahalliy pulga almashtirish va ko‘proq tovar sotib olishga qiziqtirish maqsadida ataylab chaqalarni buzib, ularning qimmatini pasaytirish bilan shug‘ullangan. Keyinchalik tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi, tashqi savdoning kengayishi merkantilistlarning boylik muammosiga bo‘lgan qarashini o‘zgartirishga majbur etdi[37].

Keyingi merkantilizm XVI asrning ikkinchi yarmidan XVIII asrgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu davrga kelib milliy sanoat va savdoni rivojlanishining davlat tomonidan rag‘batlantirilishi sababli, mamlakatlar o‘rtasida savdo aloqalari keng va muntazam rivojlana boshladi. Dastlabki merkantilistlarning «pul balansi» o‘rniga keyingi merkantilistlarning «savdo balansi» nazariyasi kelib chiqdi. «Savdo balansi» nazariyasi (yoki yetuk merkantilizm) Angliyada keng tarqala boshladi. Mazkur konsepsiya vakillari dastlabki merkantilistlarni mamlakatdan tashqariga pul chiqarishni man etgani, importni haddan tashqari cheklagani uchun tanqid qildi. Ularning fikricha, hukumatning tashqi iqtisodiy siyosatdagi asosiy vazifasi - mamlakatda imkoni boricha ko‘proq pul mablag‘larini jamg‘arish emas, balki, aktiv savdo balansiga erishishdir (eksportning importdan ustun bo‘lishi). Eksport va import o‘rtasidagi farq ya’ni ijobiy saldo-mamlakat boyligining o‘sishidir.

Demak, real boylik bu «o‘lik pullar» yig‘indisi emas, balki yangi pullarni, ya’ni pul kapitalini vujudga keltiruvchi pullardir. Merkantilistlar fikriga ko‘ra, savdoning muqobil balansiga erishish uchun davlat eksportni rag‘batlantirib, importni ta’riflar, kvotalar, subsidiya va soliqlar orqali ishga solishi kerak. Mahsulot ichki iqtisodiyotda hukumat aralashuvi orqali rag‘batlantirilishi va xorijiy savdo orqali boshqarilishi lozim. Xorijdan manufaktura tovarlarni keltirilishi arzon xomashyolar importini, ularni tovar eksporti uchun ishlatilishi kabilar himoya majburiyatlari hisoblangan. Merkantilistlar savdo balansi mohiyati va tabiati o‘rtasidagi nomutanosibliklar haqida fikr yuritishgan. Shunisi aniqki, ko‘pgina merkantilistlar davlat boyligi tovar, iste’mol yoki ishlab chiqarishda emas, balki, qimmatbaho metallarga egaligida deb fikr yuritishgan, qimmatbaho metallarning ishlab chiqarilishi savdo balansini o‘rnatadi, degan fikrni o‘rtaga tashlaydi.Ularning qarashlariga ko‘ra, xalqlar bilan savdoning umumiy balansi muhim ahamiyat kasb etadi. Ya’ni, Angliya va Hindiston savdo balansi bir-biriga mos kelmasligi mumkin, biroq Hindistondan import qilingan arzon xomashyolardan

[37] “History of Economic thought” E.K.Hunt and Mark Lautzenheiser, 2011.

Angliyada eksport qilinadigan tovarlar manufakturasi uchun foydalanilishi mumkin. Shunday masalalardan biri, qimmatbaho metallar yoki eksport bilan bog‘liq, ilk merkantilistlar yombilar eksporti qat’iyan taqiqlanishi kerakligini tavsiya qilishgan. Keyinchalik yozuvchilar agar yombi eksport tovarlari uchun xomashyo sotib olish maqsadida ishlatilsa, u savdo balansi uchun o‘rinli bo‘lishi mumkin degan farazni taklif etishgan. Shulardan kelib chiqqan holda, keyingi merkantilizm vakillari aktiv savdo balansiga erishish uchun qator tavsiyalarni ilgari surdilar:

- tashqi bozorlarni nisbatan arzon tovarlar sotish yo‘li bilan egallash hamda bir mamlakat tovarini olib, boshqalariga uni qimmatga sotish;
- mamlakatda faqat aktiv savdo balansini saqlab turgan holda, tovarlar importiga ruxsat etish (zeb-ziynat buyumlaridan tashqari);
- qulay savdo ishlarini amalga oshirish uchun oltin va kumushni chetga chiqarish, pirovard natijada mamlakatda ularning massasini ko‘paytirish.

Pulning tovarli mohiyatini tan olsada, uning qimmatini keyingi merkantilistlar ilgarigidek, oltin va kumushning tabiiy xususiyatidan deb qaradilar. Ammo, aynan ular metallistik nazariyadan pulning miqdoriy nazariyasiga va monometallizm tizimiga o‘tishga sabab bo‘lgan. Agar, dastlabki merkantilistlar pulning jamg‘arish funksiyasini asosiy deb bilgan bo‘lsalar, keyingi rivojlangan merkantilistlar-muomala funksiyasini asosiy hisobladilar. Keyingi merkantilistlarning ishonchiga ko‘ra, pulning qimmati uning miqdoriga nisbatan teskari bog‘liqlikda, tovarlar bahosi darajasi esa pul miqdoriga to‘g‘ri mutanosiblikda bo‘ladi. Ular, pul taklifining ko‘payishi unga bo‘lgan talabni oshirgach, savdoni rag‘batlantiradi, deb bir tomonlama hisobladilar.

## 5.4. Merkantilizmning tarixiy ahamiyati

Merkantilizm va uning vakilari - ijodiy merosidagi ham pozitiv, ham negativ unsurlar nuqtai nazaridan, iqtisodiy ta’limotlar tarixida o‘chmas iz qoldirdi. Birinchidan, merkantilistlar konsepsiyasi deyarli butunlay muomala sohasidagi xo‘jalik hayotining amaliyotiga qaratilgan. Shunday bo‘lsada, bu ularga ko‘plab iqtisodiy kategoriyalarni ilmiy muomalaga kiritish, savdo sohasi, ssuda operatsiyalari va pul muomalasining muhim qonuniyatlarini aniqlab berish imkonini beradi. Lekin iqtisodiyotning boshqa sohalariga bo‘lgan ularning ta’siri doimo aynan bir xil bo‘lgan emas.

Ikkinchidan, merkantilizm bozor munosabatlari shakllanishining va Yevropada ancha rivojlangan mamlakatlar - Angliya va Fransiyada uning

o‘rnini olgan klassik siyosiy iqtisodning o‘ziga xos xususiyatlarini keltirib chiqardi. Xususan, Fransiyada XVII asrda moliya vaziri Jan Batist Kolber ancha faol proteksionizm siyosatini olib borgan davrda sanoatning qudratli manufaktura tarmog‘i yaratildi. Ammo bir vaqtning o‘zida mamlakat tashqarisiga don chiqarishni man etish va boshqa mamlakatlardan uni erkin olib kelish yo‘li bilan fermer xo‘jaliklarining shakllanishiga to‘sqinlik qilindi.

## Tayanch so‘z va iboralar

Merkantilizm, dastlabki va keyingi merkantilizm, «pul balansi», «savdo balansi», proteksionizm, savdo kapitalining asosiy tamoyili, kolbertizm.

## Muhokama uchun savollar:

1. Merkantilizm ta’limotining mazmuni va uning bosqichlari, umumiylik va farqlari nimadan iborat?
2. Merkantilizm bo‘yicha boylikning asosi nima?
3. Merkantilizm ta’limotining asosiy namoyondalari kimlar?

# VI BOB. ILK KLASSIK MAKTABNING VUJUDGA KELISHI DAVRIDAGI IQTISODIY TA’LIMOTLAR

## 6.1. Klassik iqtisodiy maktab vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari

Merkantilizmning yemirilishi va klassik siyosiy iqtisod maktabining paydo bo‘lishi Angliyada XVII asrga to‘g‘ri keldi. Buyuk Britaniya dunyoda iqtisodiyoti eng rivojlangan mamlakatga aylandi. Bu yerda manufakturalarning rivoji mustamlakalardan keltirilgan arzon, ko‘p va sifatli xomashyo hisobiga ro‘y berdi, tayyor mollar esa o‘sha va boshqa mamlakatlarga olib borilib, ancha qimmatga pullangan. Noekvivalent almashuv oqibatida metropoliya boyib borgan. Bu sohada aynan Angliya yuksak yutuqlarni qo‘lga kiritdi. Agar Angliya hududini 1 deb olsak, u o‘zidan 120 marta katta bo‘lgan yerni koloniyaga aylantirgan va undan ustalik bilan foydalangan. XVIII asrga kelib bu yerda kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlari faqat savdoda emas, balki sanoat va qishloq xo‘jaligida ham g‘alaba qozondi.

Xullas, bu davrga kelib iqtisodiy ta’limotlarni rivojlantirish uchun, ya’ni iqtisodiyotni obyektiv tahlil qilish uchun qulay sharoit yaratildi. Mana shu sharoitda yashab ijod qilgan U.Petti, A.Smit, D.Rikardo, F.Kene iqtisodiyotni ilmiy nuqtai nazardan tadqiq qildilar.

Bu maktabni klassik (mumtoz) deb atalishining asosiy sababi, eng avvalo, shundan iboratki, uning ko‘plab nazariy va metodologik qoidalari chinakam ilmiy, namunali bo‘lib, ular zamonaviy iqtisodiy nazariya asosini tashkil etadi. «Klassik maktab» atamasi K.Marks tomonidan berilgan. Klassik siyosiy iqtisod vakillari tufayli iqtisodiy nazariya ilmiy fan maqomiga ega bo‘ldi.

Angliyada klassik siyosiy iqtisod maktabining dastlabki vakili U.Petti bo‘lsa, Fransiyada – P.Buagilber, F.Kene, A.Tyurgo hisoblanadi. Keyinchalik bu maktab ta’limoti A.Smit, D.Rikardo, J.B.Sey, T.Maltus tomonidan rivojlantirildi va J.S.Mill, K.Marks tomonidan yakunlandi.



## 6.2. U.Pettining iqtisodiy ta’limoti

Uilyam Petti (1623-1687) – Angliyada klassik siyosiy iqtisodning asoschisi va statistika fanining kashfiyotchisidir. U.Petti professional iqtisodchi olim bo‘lgan.

U.Petti iqtisodiy muammolarga

bag‘ishlangan «Soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risida traktat» (1662), «Donishmandlarga so‘z» (1665), «Siyosiy arifmetika» (1683) va boshqa asarlarni yozdi. U asosiy e’tiborni savdo muammosidan ishlab chiqarish muammosiga qaratdi. 1647 yilda u nusxa ko‘chiradigan mashinani (kseroks) ixtiro qildi.

U.Petti yangi kapitalistik jamiyatni, erkin tadbirkorlikni, kapitalistlarni himoya qildi. Xususiy mulkni «Muqaddas» va «Daxlsiz» deb bildi. U iqtisodiy tadqiqotda tabiiy fanlarni ya’ni abstrakt usullarni qo‘llab, har bir masalaning ichki bog‘liqligiga asosiy e’tiborni qaratdi.

Kapitalistlarning foydasini imkoni boricha oshirishni, ishchilarni soliq to‘lashlarini zarur deb bildi.

Pulning roli va uning mamlakatdagi miqdori masalalarini, asosan to‘g‘ri hal etdi, ya’ni pul miqdori ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga to‘g‘ri, pulning aylanish oborotiga esa teskari proporsionalligini aniqladi. Pulning me’yorida bo‘lishini qo‘llab-quvvatladi. Yer va renta masalalarini ancha puxta ishlab chiqdi. Ish haqi va rentaning bir-biriga qarama-qarshiligini isbotladi (yer bahosini to‘g‘ri hal etmadi).

Petti «Siyosiy arifmetika» va boshqa asarlarida statistika, aniqrog‘i demografik statistika faniga asos soldi (aholi boyligi asosiy masalasini to‘g‘ri qo‘ydi). Milliy daromadni tahlil qildi va uni qisman hal etdi.

**U.Pettining boylik va pul nazariyasi.** Merkantilistlardan farqli ravishda, U.Petti fikri bo‘yicha, nafaqat qimmatli metall, toshlar va pul boylik hisoblanadi, balki mamlakatning yeri, uylar, kemalar, tovarlar va hatto uy jihozlari ham boylikni tashkil etadi. «Mehnat - boylikning otasi, yer esa – uning onasi» degan iborani ishlatdi.

Mamlakat boyligini ko‘paytirish uchun u qamoq jazosi o‘rniga pul jarimasini joriy etish zarurligini, pul to‘lashga «qurbi yetmagan o‘g‘rilarni» esa «qullikka» mahkum etishni, ishlashga majbur qilishni tavsiya etadi.

Shu bilan birga, U.Petti chetga pul chiqarishni taqiqlash bema’ni narsa ekanligini ko‘rsatib o‘tadi. Davlatning bunday xatti-harakati, uning fikricha, mamlakatga chetdan tovar keltirishni man etish bilan bir narsadir. U asosiy e’tiborni pulning umumiy ekvivalent va muomala vositasi sifatidagi roliga qaratgan holda, uning qimmatni saqlash vositasi sifatidagi funksiyasini inkor etdi.

Ammo U.Petti savdo va savdo kapitalining milliy boylik yaratishdagi ishtirokini inkor etdi va hatto, savdogarlar sonini ancha kamaytirishni qattiq ma’qulladi.

**Qiymat nazariyasi.** U.Pettining merkantilistlar g‘oyasiga bo‘lgan

salbiy yondashuvi nafaqat boylikning mohiyatini va uni ko‘paytirish yo‘llarini tahlil qilishda, balki tovarlar qiymatining yaratilish tabiatini va bozorda ularning qimmati darajasiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlashda ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Bu boradagi uning tadqiqotlari keyinchalik uni qiymatning mehnat nazariyasi birinchi muallifi deb tan olinishiga sabab bo‘ldi. Umuman olganda, qiymatning mehnat nazariyasi klassik iqtisodiy maktabning asosiy belgilaridan biri hisoblanadi. U.Petti nazariyalarining birida aytilishicha, tovar qiymati kumush qazib oluvchi mehnati bilan yaratiladi va uning «tabiiy bahosi» hisoblanadi; kumush qiymatiga tenglashtirilgan tovarlar qiymati esa ularning «haqiqiy bozor bahosi» hisoblanadi. Ikkinchi bir joyda qayd qilinishicha, tovar qiymati mehnat va yer ishtirokida yaratiladi. Ya’ni U.Pettining o‘zi aytganidek,

«Kemaning yoki kamzul (syurtuk)ning qiymati qandaydir yer miqdori va qandaydir mehnat miqdori qiymatiga teng, chunki har ikkalasi - kema ham, kamzul ham - yer va inson mehnati bilan yaratiladi». Bundan ko‘rinib turibdiki, U.Pettida tovar bahosi asosida sarfli mexanizm yotadi.

**Daromadlar nazariyasi.** Ishchilarning daromadlari, pul kapitali va yer egalarining daromadlari to‘g‘risida U.Petti aytib o‘tgan qoidalar keyinchalik klassik iqtisod maktabi vakillarining nazariy izlanishlari uchun asos bo‘lib xizmat qildi. U.Petti ishchining daromadi sifatidagi ish haqini mehnatning bahosi deb hisobladi va uning darajasini ishchining yashashi uchun zarur bo‘lgan vositalar minimumi bilan ifodaladi. U.Petti, har bir ishchi «yashash, mehnat qilish va ko‘payishi uchun» kerakli narsani olsa bas, degan xulosaga keldi. Buni u nazariy jihatdan isbotlab bermoqchi bo‘ldi: agar ishchiga ko‘rsatilgan minimumdan ikki baravar ko‘p haq to‘lansa, u chog‘da ishchi ikki marta kamroq ishlaydi, bu esa jamiyat uchun shuncha miqdordagi mehnat boy berilganini bildiradi. U.Pettining ish haqi to‘g‘risidagi mazkur qoidasi «klassik maktabning» ko‘pchilik vakillari nazariy tadqiqotlarining asosini tashkil etdi. Masalan, U.Pettidan keyin, D.Rikardo va T.Maltus ish haqini ishchi mehnatining bahosi sifatida tavsiflab, uni ishchining va uni oilasining yashashi uchun zarur bo‘lgan vositalar minimumi bilan bog‘lab tushuntirganlar.

Tadbirkorlar va yer egalari daromadlarini U.Petti o‘zi umumlashtirgan tushuncha - “renta” sifatida tavsifladi. U, masalan, dehqonchilikda yaratilgan mahsulot qiymati bilan uni ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar o‘rtasidagi farqni renta deb atagan (ya’ni tuproq unumdorligiga bog‘liq bo‘lgan renta). Ikkinchi bir misolda, ssuda foizining kelib chiqish mohiyatini ko‘rib chiqqach, U.Petti soddalashtirib, bu ko‘rsatkich “ssudaga beriladigan pulga sotib olinishi mumkin bo‘lgan

muayyan yer maydonidan olinadigan rentaga teng”, deb atadi. Yana bir joyda yer uchastkasining bozorga uzoq-yaqin joylashishidan kelib chiqadigan renta shakli ko‘rsatib beriladi. Aholi yashash joylariga yaqin joylashgan yer uchastkalaridan nafaqat yuqori renta olinadi, balki yillik renta summasi ham boshqa xuddi shunday unumdor, lekin aholi turar joylaridan ancha uzoq bo‘lgan yerlarga nisbatan ko‘p bo‘ladi. Shu bilan U.Petti yer bahosini aniqlash bilan bog‘liq bo‘lgan muammoni yechib berishga uringan. Lekin bu yerda ham olim mazkur muammoni hal etishda yuzaki yondashdi. Uningcha, yerning bahosi bir yillik muayyan miqdordagi rentaga teng bo‘lishi kerak. Ammo u bu miqdorni ilmiy jihatdan aniqlab bera olmadi, ya’ni yerning bahosini keltirib chiqarish uchun bir yillik rentani ko‘paytirish mumkin bo‘lgan sonni topa olmadi.

Shu bilan birga, uning yer bahosini aniqlashdan kelib chiqadigan ssuda kapitali bilan yerdan olinadigan yillik renta o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik g‘oyasi iqtisodiy fikrlarning rivojlanishida ijobiy rol o‘ynadi. Buni keyinchalik K.Marks qayd qilib o‘tadi. Ma’lum ma’noda xuddi shunday fikr Y.Shumpeterning iqtisodiy qarashlarida ham uchraydi. Uningcha, birorta kapitalist yer uchastkasini ushbu uchastkadan olinishi mumkin bo‘lgan rentaga teng foiz keltirishi mumkin bo‘lgan pul summasidan yuqori ham, past ham baholashi mumkin emas. Birorta yer egasi o‘z uchastkasini undan olinadigan rentaga teng foiz keltiruvchi pul summasidan kamiga sotmaydi. Ammo, u o‘sha summadan ko‘pini ham ololmaydi, negaki bunday summani to‘lashga rozi bo‘lgan kapitalistga birdaniga juda ko‘p yer uchastkalari taklif qilinadi.

## 6.3. P.Buagilberning iqtisodiy qarashlari



Fransiya klassik iqtisodiy maktabining asoschisi Pyer Buagilber (1646-1714) hisoblanadi. U huquqshunoslikdan ta’lim olganiga qaramay, iqtisodiyot sohasiga ancha qiziquvchan bo‘lgan.

Fransiyadagi ijtimoiy-iqtisodiy muhit Angliyanikidan keskin farq qilar edi. Fransiyada feodal munosabatlar hali ham kuchli bo‘lib, qirollar va uning atrofidagilar tomonidan qattiq himoya qilingan. Vaholanki, agar Angliyada burjua inqilobi XVII asrda bo‘lib o‘tgan bo‘lsa, Fransiyada bu inqilob XVIII asrni oxirida ro‘y berdi. Xo‘jalikdagi kapitalistik uklad nihoyatda sekin rivojlandi, ichki bozor hiyla tor edi,

xalq ho‘jaligida natural xo‘jalik asosiy bo‘lib, sanoat rivoji past edi. Faqat zeb-ziynat buyumlari va parfyumeriya mahsulotlari tayyorlash bo‘yichagina Fransiya Yevropada yuqori o‘rinda edi.

Fransiyadagi klassik iqtisodiy maktabning dastlabki vakili P.Buagilber ham muhim g‘oyalarni ilgari surdi. Bu mamlakat ahvoli Angliyanikidan ancha katta farq qiladi. Shu sababli iqtisodiy qarashlarda o‘ziga xoslik seziladi. Agar U.Petti ko‘proq sanoat va savdoni qo‘llagan bo‘lsa, Buagilber asosan qishloq xo‘jaligi sohasini tadqiq etdi va o‘zining muhim xulosalarini chiqardi.Qiymatni aynan iste’mol qiymati shaklida tushindi.

«Proporsional baholar» tarafdori edi, erkin tadbirkorlik, raqobat va erkin baholarni qo‘lladi. Ortiqcha ishlab chiqarish inqrozini to‘g‘ri tushuntirib berdi. Pulga salbiy munosabatda bo‘ldi, oltin va kumushlarni yovuzlik sababi deb bildi. Noto‘g‘ri ravishda faqat qishloq xo‘jaligini qo‘llab quvvatladi, sanoat va savdoga kam e’tibor berdi. Buagilberning iqtisodiy islohotlari bo‘yicha takliflari o‘z davri uchun nihoyatda ahamiyatlidir.

Olimning tadqiqot predmeti jamoat boyligi konsepsiyasidan iborat edi. U jamiyatda erkin raqobat va milliy iqtisodiyot manfaatlari uchun shaxsiy manfaatning jamoat manfaatlaridan ustunligini tan oladi. P.Buagilber sanoat va savdoni kamsitish yo‘li bilan qishloq xo‘jaligining rolini mutlaqlashtirgan. 1691-yilda u Fransiyani og‘ir iqtisodiy ahvoldan chiqarish tizimini taklif etadi. 1707-yili u «Fransiyani qoralash» degan asarini chop etadi. Unda Fransiyaning kambag‘allik holati ko‘rsatiladi, merkantilistik siyosat qoralanadi. Iqtisodiy islohotlar o‘tkazish to‘g‘risida yangi g‘oyalar ilgari surildi. Jumladan, soliq tizimini o‘tkazish, ichki bozorni kengaytirish va tovar-pul muomalasini kuchaytirish uchun ichki savdoni har xil cheklashlardan ozod qilish, mehnat taqsimoti o‘sishini ta’minlash va hokazo. U o‘z takliflari bilan bir necha bor qirolga murojaat qiladi, ammo uning bu harakatlari zoye ketadi. Uning g‘oyalari faqat kitoblarida qoladi.

P.Buagilber U.Pettiga o‘xshab, mamlakatning boyligi pul miqdoridan iborat emas, balki barcha foydali narsa va ne’matlardan tashkil topadi, degan konsepsiyani ilgari surdi. U pulga keskin qarshi chiqadi, pulda barcha yovuzlik va ofatlarning manbai mujassamlangan, degan fikrga keladi. Pulning yagona yaxshi tomoni shundaki, u almashuvni osonlashtiradi. Oltin va kumush o‘rnini qog‘oz pul bemalol qoplaydi. Ko‘rinib turibdiki, olim pulning barcha funksiyalarini tushunib yetmaydi.

P.Buagilber nazariy qoidalarining o‘ziga xosligi shundan iborat ediki,

u iqtisodiy erkinlik tarafdori edi va bunda davlatning iqtisodiy funksiyasini inkor etmadi. Uningcha, davlat to‘g‘ri soliq tizimi orqali mamlakatda iste’mol va talabni yuqori darajada ta’minlashi mumkin. Agar iste’mol sarflari oqimi pasaysa, tovarlarni sotish va ishlab chiqarish keskin kamayadi. Agar kambag‘allar ko‘proq ishlab topsalar, soliqlarga kam sarf qilsalar, ular o‘z daromadlarini tez sarflashga moyildirlar.

P.Buagilberning muhim yutug‘i, U.Pettiga o‘xshab, qiymatning mehnat nazariyasini «asoslab» berishi hisoblanadi. Bunda u bozorda tovarlar o‘rtasidagi almashuv nisbatlari mexanizmini sarflangan mehnat miqdori yoki ish vaqtini hisobga olgan holda tahlil qiladi. Bu konsepsiya nomukammal bo‘lishiga qaramasdan (uning asosida sarfli prinsip yotadi) o‘z davri uchun progressiv hisoblanadi, negaki merkantilistlarning bahoning shakllanishida pulning tabiiy roli to‘g‘risidagi konsepsiyasidan keskin farq qiladi. P.Buagilber merkantilizmni ko‘p jihatdan to‘g‘ri tanqid qilish bilan birga, pulning iqtisodiyotdagi ahamiyatini mensimagan holda, mamlakatning iqtisodiy o‘sishida qishloq xo‘jaligi ahamiyatini mutlaqlashtirdi, boylikni ko‘paytirishdagi sanoat va savdoning ahamiyatini inkor etdi. Klassik iqtisodiy nazariya vakillari ichida u pulni bekor qilish mumkin va zarur deb hisoblagan yagona iqtisodchi hisoblanadi, uningcha pul tovarlarning «haqiqiy qiymatlari» bo‘yicha ayirboshlanishini buzadi.

P.Buagilberning eng buyuk xizmati shundaki, u qiymatni sarflangan ish vaqtiga tenglashtirdi. Agar U.Pettining iqtisodiy ta’limotida almashuv qiymati asosiy bo‘lsa, Buagilberda iste’mol qiymati bosh rolni o‘ynadi (Aslida ularni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi).

## 6.4. Fiziokratizm iqtisodiy ta’limoti. F.Kene – fiziokratlar ta’limotining asoschisi

Fiziokratlar (lot. - tabiat, hukmronlik) - bu XVIII asrdagi fransuz iqtisodchilari, klassik siyosiy iqtisod vakillaridir. Fiziokratlar maktabi Fransiyada feodalizmdan kapitalizmga o‘tish davrida vujudga keldi. Bu tasodifiy hol emas edi. O‘sha davrda Fransiyada manufaktura ancha rivojlangan bo‘lsada, ammo mamlakat hali ham agrar holatda edi. Aholining asosiy qismi qishloqlarda yashar, milliy boylikning 2/3 qismi shu sohada yuzaga keltirilar edi. Qishloq xo‘jaligi ahvolini yaxshilash tadbirlari fiziokratlar tadqiqotlarining asosini tashkil etadi. Ular qishloq xo‘jaligini iqtisodiyotning yagona unumli sohasi deb hisobladilar. Ularning fikricha, boylik faqat qishloq xo‘jaligida yaratiladi, sanoat va savdoda esa u qayta ishlanadi va qayta taqsimlanadi, xolos. Shunga ko‘ra

fiziokratlar tadqiqotni muomala sohasidan ishlab chiqarish sohasiga olib o‘tdilar va bu bilan kapitalistik tizimning keyingi tahlili uchun asos yaratdilar[38].

Bu ta’limot klassik iqtisodiy maktabning tarkibiy, butun zanjirning ajralmas qismi sifatida muhim ahamiyatga egadir. Bu oqimning asosiy vakillari F.Kene, A. Tyurgo mamlakatdagi o‘sha davr iqtisodiy holatini har tomonlama tahlil etib iqtisodiyotning muhim kategoriyalari bo‘yicha qimmatli fikrlarni berdilar. Ular fermerlarni himoya qilgan holda avvalo, merkantilizmdan voz kechib, boylikning asosiy manbai mehnat va yer ekanligini ko‘rsatdilar. «Tabiiy tartib» konsepsiyasi asosida «unumli mehnat» , «sof mahsulot», kapital to‘g‘risidagi ta’limotlar ilgari surildi.

Kapitalistik munosabat, xususiy mulk, erkin baholar, erkin raqobat davlatning iqtisodga kam aralashuvi «tabiiy xol» deb tan olindi. Ularning fikricha, qiymat iste’mol qiymati bo‘lib, hatto tabiat, yer in’omi sifatida talqin etiladi. Shundan dehqonchilikdan boshqa sanoat, savdo va xizmat tarmoqlari unumsiz soha deb qaraladi. Bunday noto‘g‘ri fikrning paydo bo‘lishi Fransiyaning o‘sha davrdagi ahvoli (agrar mamlakat) bilan bog‘liqdir.

Kapital tushunchasining kiritilishi va uning boshlang‘ich va yillik bo‘nak kabi ikki qismga bo‘linishi iqtisodiyot tarixida muhim qadamdir. Shundan doimiy va aylanma kapital g‘oyalari ham kelib chiqadi.



**Fransua Kene (1694-1774) – fiziokratlar maktabining asoschisidir**. U nafaqat fiziokratizm maktabi asosini yaratdi, balki uning nazariy va siyosiy dasturini ham shakllantirdi. F.Kene har tomonlama bilimli olim bo‘lib, tibbiyot va biologiyaga oid ko‘pgina asarlar yaratdi. U iqtisodiyot muammolari bilan 60 yoshidan boshlab bevosita shug‘ullana boshladi.

F.Kenening «Fermerlar», «Don», «Aholi», «Soliqlar» nomli dastlabki iqtisodiy maqolalari chop etilgan. 1758 yilda uning asosiy asari «Iqtisodiy jadval» nashrdan chiqdi.

F.Kenening o‘rganish metodi shundan iborat ediki, u yuqori davlat hokimiyatini tabiiy tartib qonunlarini yaxshi biladigan, o‘qimishli bir shaxs qo‘lida bo‘lishini maqsadga muvofiq deb bilgan. Ya’ni, «yuqori hokimiyat» oqsuyaklardan va yirik yer egalaridan tashkil topmasligi kerakligini uqtiradi. «Ular, deydi u, birga qo‘shilib qonunning o‘zidan

[38] History of Economic Thought E.K.Hunt and Mark Lautzenheiser, 2011.

ancha kuchli hokimiyat tashkil etadi, millatni qul qiladi, adolatsizlikni keltirib chiqaradi, yirtqichlarga zulm o‘tkazadi va o‘taketgan beboshlikni keltirib chiqarishi mumkin».

**Sof mahsulot to‘g‘risidagi ta’limot.** F.Kenening nazariy merosida uning sof mahsulot (milliy daromad) to‘g‘risidagi ta’limoti muhim o‘rin egallaydi. Uning fikriga ko‘ra, sof mahsulotning manbai yer va unga sarflangan kishilarning mehnati hisoblanadi. Shu boisdan, davlat sanoatni emas, balki qishloq xo‘jaligini rag‘batlantirish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishi kerak. F.Kene «dehqonlar kambag‘al bo‘lsa qirollik kambag‘al bo‘ladi» deb, hukumatni ishontirishga harakat qilgan. Savdo va sanoat boylik yaratmaydi, negaki savdogar va hunarmandlar qishloq xo‘jaligida yaratilgan boylikni faqat bir joydan ikkinchi bir joyga yetkazish va o‘zgartirish bilan shug‘ullanadi. Shuning uchun savdo va sanoat «unumsiz» hisoblanadi.

**F.Kenening sinflar nazariyasi.** F.Kene jamiyatni 3 sinfga ajratib, ko‘rsatib beradi: *unumli sinf, unumsiz sinf, mulkdorlar sinfi*. Unumli sinf – bunga qishloq xo‘jaligida ish bilan band bo‘lgan barcha kishilar, dehqon va fermerlar kiradi. «Unumsiz» sinf – bular hunarmandlar, ishchilar, savdogarlar, xizmatkorlar, amaldorlar, ya’ni dehqonchilikdan boshqa sohada ish bilan band bo‘lgan kishilar. Ular faqat o‘zlarini ta’minlaydilar, o‘z iste’moliga qanchalik mahsulot kerak bo‘lsa, shunchalik mahsulot yaratadilar. Ular jamiyat uchun foydali, ammo o‘zining ham, jamiyatning ham boyligini ko‘paytirmaydi, shu ma’noda, unumsizdir. Mulkdorlar sinfi esa yer egalari, unga qirol va ruhoniylar ham kiradi. Mulkdorlar tomonidan olinadigan daromad – bu ularning oldin qilgan xarajatlari uchun in’om.

**F.Kenening kapital nazariyasi.** Merkantilistlar kapitalni pul bilan bir narsa deb hisoblagan bo‘lsalar, F.Kene fikriga ko‘ra «pul unumsiz boylik bo‘lib, u hech narsa ishlab chiqarmaydi». Uning atamasi bo‘yicha qishloq xo‘jaligi qurollari, qurilishlari, mollari, hayvonlari va dehqonchilikda bir necha ishlab chiqarish sikllarida foydalaniladigan barcha narsalar «dastlabki avanslar» deyiladi (yoki asosiy kapital). Bir ishlab chiqarish siklida ishlatiladigan urug‘lik, yem-xashak, ishchilarning mehnat haqi va boshqalarni u «har yillik avanslar»ga kiritdi (yoki aylanma kapital). Demak, uning fikriga ko‘ra, kapital – bu pulga olinadigan barcha ishlab chiqarish vositalari hisoblanadi. U aylanma kapital bilan birga asosiy kapitalni ham harakatda bo‘lishini isbotlab berdi.

**Takror ishlab chiqarish nazariyasi.** Iqtisodiy ta’limotlar

rivojlanishida F.Kenening mashhur «Iqtisodiy jadval» asari juda katta rol o‘ynadi. Bu asarda ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayoni, takror (uzliksiz) ishlab chiqarish jarayoni va yalpi ijtimoiy mahsulot muomalasi birinchi marta makroiqtisodiy darajada tahlil qilindi. Oddiy takror ishlab chiqarish chizmasi beriladi va tayyor mahsulotning aylanish tamoyillari ko‘rsatiladi, bu o‘sha davr uchun katta kashfiyot edi. F.Kene jamiyatdagi uchta sotsial guruh – ya’ni fermerlar (unumli sinf), mulkdorlar (yer egalari), sanoatchilar (unumsiz sinf) o‘rtasida mahsulot va pulning ayirboshlanish jarayonini ko‘rsatib berdi. Takror ishlab chiqarish jarayonini tahlil etishda baholarning o‘zgarmasligi asos qilib olinadi. Bunda almashuv ekvivalentlik tamoyili asosida ro‘y berayapti, deb faraz qilinadi. Bu jarayon tashqi bozor ta’sirisiz, ya’ni faqat ichki bozor sharoitida yuz berayapti, deb qaraladi. Tarmoqlar, ya’ni sektorlararo taqsimotning aniq proporsiyalari bo‘lishi zarurligi qayd etiladi, ma’lumki bu tamoyil hozirgi davrda ham muhim. F.Kenening takror ishlab chiqarish nazariyasida jamiyatni sinflarga bo‘lishi kamchiligi bo‘lsa, milliy iqtisodiyotni makroiqtisodiy darajada tahlil qilishi bo‘lajak iqtisodiy modellar uchun kurtak vazifasini bajaradi.

## 6.5. A.Tyurgoning iqtisodiy ta’limoti



F.Kene g‘oyalari Ann Rober Jak Tyurgo (1727-1781) tomonidan davom ettirildi va chuqurlashtirildi. Ammo u o‘zini F.Kene shogirdi yoki davomchisi deb hisoblamagan. U Parijda dvoryanlar oilasida tug‘ildi.

Olim va davlat arbobi A.Tyurgoning iqtisodiy g‘oyalari ancha mukammal bo‘lib o‘sha davrdagi jamiyat va iqtisodiyotdagi jarayonlarni ancha izchil tahlil etadi va sanoatda kapitalistlar va yollanma ishchilar mavjudligini e’tirof etiladi. Bu xulosa to‘g‘ri xulosadir. A.Tyurgo sanoat va xizmat sohalariga ijobiy yondashadi. U kapital va qo‘shimcha mahsulot (qiymat) masalalarini ancha mukammal hal etadi, sanoat, ssuda va kapital haqida fikr yuritadi. Lekin oxir oqibatda fiziokratizm qobig‘idan chiqa olmaydi, qo‘shimcha mahsulotning asosiy shakli yana yerga, yer rentasiga qaytadi.

A.Tyurgoning iqtisodiy qarashlari uning 1766-yilda yozilgan (1769-1770 yillarda chop etilgan) «Boylikning paydo bo‘lishi va taqsimlanishi to‘g‘risidagi mulohazalar» asarida nisbatan to‘la yoritilgan.

U kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlarini ancha chuqur tushundi, feodalizmni islohotlar o‘tkazish yo‘li bilan yaxshilash mumkin degan fikrga (F.Kene fikri) ishonmadi.

1774-yili qirol Lyudovik XVI A.Tyurgoni moliya bosh nazoratchisi lavozimiga (moliya vaziri lavozimi bilan bir xil) tayinladi. Bu lavozimda ikki yilga yaqin ishlagan A.Tyurgo davlat xarajatlarini kamaytirishga erisha olmagan bo‘lsada, lekin mamlakat iqtisodiyotini har tomonlama erkinlashtirish uchun imkoniyat yaratib beruvchi bir qator farmon va qonun loyihalarini amalga oshirishga muvaffaq bo‘ldi. Ammo uning har bir islohotga oid yangiliklari parlamentda o‘zining monopol mavqeini saqlab qolishga intilgan amaldorlar tomonidan qattiq qarshilikka duch keldi. Shuning uchun islohotlari ko‘p vaqt amal qilmadi. 1776-yili A.Tyurgo iste’foga chiqqach, ular bekor qilindi. A.Tyurgo vazir sifatida amalga oshirgan asosiy islohotlar: mamlakat ichkarisida don va uning erkin savdosining tashkil etilishi; qirollikka erkin don olib kelish va undan boj to‘lovlarisiz erkin don olib chiqish; natural yer majburiyatining pulli yer solig‘i (o‘lpon) bilan almashtirilishi; sanoat sohasida tadbirkorlikning rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi hunarmandchilik sexlari va gildiyalarining (yirik savdogarlar va hunarmandlar birlashmasi) bekor qilinishi va boshqalar hisoblanadi.

**Ish haqi nazariyasi.** Xuddi fiziokratlarga o‘xshab, A.Tyurgoning tasdiqlashicha, dehqon barcha ishlarda birinchi harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi, u o‘z yerida barcha hunarmandlarning ish haqini yaratadi. U merkantilistlarni tanqid qilgan holda, millatning boyligi deb, eng avvalo, yerni va undan olinadigan «sof daromadni» hisobladi. A.Tyurgo ish haqini F.Kene kabi yashash vositalari minimumiga bog‘lab tushuntiradi. Ammo A.Tyurgo undan farqli ravishda, ish haqining yashash vositalari minimumiga kelib taqalish mexanizmini ochib bermoqchi bo‘ldi. Ish haqini ishchining hayoti uchun zarur bo‘lgan yashash vositalari minimumi darajasiga pasaytiruvchi bunday mexanizm, uning fikricha, mehnatga bo‘lgan talabning mehnat taklifidan orqada qolib ketishi, ishchilar o‘rtasidagi raqobatning rivojlanmaganligi hisoblanadi.

**Sinflar nazariyasi.** A.Tyurgo F.Kenega o‘xshab, jamiyatni uch sinfga ajratadi: unumli sinf (qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bilan band bo‘lgan kishilar); unumsiz sinf (sanoat va boshqa moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarida va xizmat ko‘rsatish sohasida band bo‘lgan kishilar) hamda yer egalari sinfi. Lekin birinchi ikkita sinfni «ishlovchilar yoki ish bilan band sinflar» deb ataydi. Ularning har biridagi odamlarni ikki toifaga bo‘lib ko‘rsatadi, ya’ni tadbirkorlar yoki avans beruvchi kapitalistlar va

ish haqi oluvchi oddiy ishchilar. Shu bilan birga, olimning tasdiqlashicha, aynan unumsiz sinf «ish haqi oluvchi jamiyat a'zolari»ni o'z ichiga oladi.

**Qiymat, pul va foiz nazariyalari.** A.Tyurgo qiymat, baho va pulni tahlil qildi. Uning bu sohadagi fikrlari o'ziga xos tavsifga ega va qiymatning mehnat nazariyasidan farq qiladi. A.Tyurgo tovarning narxi sotuvchi va xaridorlar istagining intensivligi bilan aniqlanishi to'g'risidagi g'oyani ilgari surdi. Bunda kamyoblik tovar narxini "baholashda asosiy unsurlardan biri" hisoblanadi. Keyinchalik bu g'oya zamonaviy baho nazariyasining shakllanishida ijobiy o'rin tutadi. A.Tyurgo iqtisodiyotda proteksionizm siyosatining salbiy tomonini ko'rsatib berdi. Uning fikricha, «olish va sotishdagi umumiy erkinlik, bir tomondan, sotuvchiga ishlab chiqarishni rag'batlantiruvchi narxni, ikkinchi tomondan, xaridorga eng yaxshi tovarni eng past bahoda sotib olishni ta'minlashning yagona vositasidir». A.Tyurgo pulni o'z mohiyatiga ko'ra tovarlar dunyosidagi bir tovar sifatida ta'riflab, ayniqsa, «oltin va kumushni, boshqa har qanday materialga nisbatan moneta (tanga) xizmatini o'tashga yaroqli», deb hisobladi, negaki ular tabiatan moneta bo'lib yaralgan, buning ustiga, har qanday kelishuv va qonunlardan qat'iy nazar hamma uchun umumiy moneta bo'lib qoladi. Uning fikricha, pul, ya'ni oltin va kumushning bahosi nafaqat barcha boshqa tovarlarga nisbatan o'zgarib turadi, balki bir-biriga bo'lgan nisbati, kam yoki ko'pligiga qarab ham o'zgarib turadi. A.Tyurgo qog'oz pullarning miqdori yaratilgan tovar va xizmatlarning miqdoriga mos kelmagan sharoitda bunday pullardan foydalanish noqulayliklari to'g'risidagi qoidani dalillar bilan isbotlab berdi[39].

A.Tyurgo ssuda (pul) foizini tadqiqot qilar ekan, qarzga olingan pulni ustamasi bilan qaytarishga jinoyat sifatida qaraydigan nasihatgo'ylar bid'atlarini qoraladi. Uning ta'kidlashicha, qarz beruvchi qarz vaqti davomida ushbu qarzga bergan puli uchun olishi mumkin bo'lgan daromadni yo'qotadi, qarz oluvchi esa bu pulni samarali ishlatib ancha foyda ko'rishi mumkin. Ko'rinib turibdiki, qarz beruvchi qarz oluvchiga ozor yetkazayotgani yo'q, aksincha, birinchisining pulidan ikkinchisi foyda ko'rayapti. Ana shu foyda qarz oluvchini foiz to'lash sharti bilan qarz olishga undovchi asosiy kuch hisoblanadi. U foizni foydadan to'laydi. Demak, A.Tyurgoning fikriga ko'ra, bunday «kelishuvdan» qarz beruvchi ham, qarz oluvchi ham manfaatdor. Joriy foizga kelsak, A.Tyurgo bo'yicha, u bozorda kapitalning ko'p yoki kamligini ko'rsatuvchi termometr vazifasini o'taydi, xususan, foizning past bo'lishi

[39] "History of Economic thought" E.K.Hunt and Mark Lautzenheiser.2011

bu - kapital ko‘pligi natijasidir. Iqtisodiy ta’limotlar tarixida fiziokratlar o‘ziga xos o‘rinni egallaydi. A.Smit o‘z vaqtida: «fiziokratizm tizimi qanchalik nomukammal bo‘lmasin, shu davrgacha chop etilgan iqtisodiy g‘oyalar ichida haqiqatga eng yaqini edi», - deb aytgan. Bu ta’limotning merkantilizmni inkor qilishi, mehnat bilan yer boylikning asosi ekanligini tan olishi, savdo-sotiqda bojxona cheklovlarini bekor qilishni taklif etishi nihoyatda muhimdir. Fiziokratlarning boylik tezisi, ayniqsa, uni yaratishdagi mehnatning ahamiyati diqqatga sazovor: boylik - bu jamiyat mehnati bilan har yili yaratilgan iste’mol qiymatlari yig‘indisidir. Bu tezis A.Smit tomonidan ham qabul qilingan. Kapital va uning ikki qismga ajratib ko‘rsatilishi (asosiy va aylanma), takror ishlab chiqarish jarayonining tahlil qilinishi, erkin sohibkorlik to‘g‘risidagi g‘oyalar, jamiyatning sinflarga ajratilishi iqtisodiy ta’limotlarning rivojida keyingi muhim qadamdir. Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun erkin bozor munosabatlariga o‘tish va dehqonchilikdan olinadigan soliqni kamaytirish zarurligi, yagona soliq tizimiga o‘tish kerakligi to‘g‘risidagi fikrlar nihoyatda qimmatlidir. Chunki sohibkor va tadbirkorlar shaxsiy manfaatdorlik bo‘lgan sharoitda ishlab chiqarishni tez rivojlantirishga intiladilar. Hozirgi zamon tili bilan aytganda, fiziokratlar sof bozor munosabatlarining unsurlarini asosan to‘g‘ri hal etib berdilar. Xalq xo‘jaligi tarmoqlari o‘rtasida muayyan mutanosiblik bo‘lgan sharoitda takror ishlab chiqarish va realizatsiya jarayonining uzluksiz davom etishi mumkinligi aniqlab berildi. Bu muammoni hal etishda fiziokratlar tomonidan mamlakatdagi uch sektor o‘rtasidagi munosabatlar misol qilib olingan. Ammo amalda, ayniqsa, hozirgi davrda, bunday sektorlar juda ko‘p bo‘lib, ular o‘rtasidagi aloqalar Nobel mukofoti sohibi V.Leontevning «xarajatlar - ishlab chiqarish» balansida tarmoq uchun ishlab chiqilgan. Hozirgi davrda bunday balans tarmoqlararo balans deb yuritiladi va makroiqtisodiy tahlilda va umuman iqtisodiyotda muhim ahamiyat kasb etadi. Undagi g‘oyaning kurtaklari fiziokratlar asarlarida yaratilgan bo‘lib, u klassik iqtisodiy maktab ta’limoti zanjirining ajralmas qismi sifatida muhim o‘rin egallaydi.

## 6.6. Fiziokratizmning ahamiyati va uning tarixiy taqdiri

Fiziokratizm ta’limotining muhim tomonlari quyidagilardan iborat:

a) merkantilizmni inkor qilishi;
b) mehnat bilan yer boylikning asosi ekanligini tan olishi;
v) savdo-sotiqda bojxona cheklashlarini bekor qilishni taklif etishi.

Fiziokratlarning boylik to‘g‘risidagi tezisi, ayniqsa «boylik – bu

jamiyat mehnati bilan har yili yaratilgan iste’mol qiymatlari yig‘indisidir», degan tezisi diqqatga sazovor. Bu tezis A.Smit tomonidan ham qabul qilingan.

Kapital va uning ikki qismga ajratilishi (asosiy va aylanma), takror ishlab chiqarish, jamiyatning sinflarga ajratilishi iqtisodiy ta’limotlarning rivojida keyingi muhim qadamdir.

Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun erkin bozor munosabatlariga o‘tish va dehqonchilikdan olinadigan soliqni kamaytirish zarurligi, yagona soliq tizimiga o‘tish kerakligi to‘g‘risidagi fikrlar nihoyatda qimmatlidir.

Hozirgi davr tili bilan aytganda, fiziokratlar sof bozor munosabatlarini qo‘lladilar, ammo ularning g‘oyasi asosan qishloq xo‘jaligi bilan cheklab qo‘yildi, barcha fikrlarda mukammallik yetishmas edi. Bu vazifalar esa keyingi olimlar tomonidan hal etildi.

Shu bilan birga hozirgi zamon iqtisodiy ta’limotlari nuqtai nazaridan, fiziokratizm g‘oyalari o‘z ahamiyatini tezda yo‘qotdi va o‘tkinchi xarakterga ega bo‘ldi. Ayniqsa, boylikni faqat dehqonchilik bilan bog‘lab tushuntiruvchi fiziokratizm g‘oyalari sanoat inqilobi natijasida yuz bergan o‘zgarishlar tufayli tez unutilayozdi.

## Tayanch so‘z va iboralar

Klassik (namunaviy) maktab, mehnat boylik manbai, tabiiy baho, bozor bahosi, qiymat nazariyasi, sof mahsulot, fiziokratizm, unumli sinf, unumsiz sinf, dastlabki avanslar, har yillik avanslar, iqtisodiy jadval.

## Muhokama uchun savollar:

1. Klassik iqtisodiy maktab vujudga kelishining shart-sharoitlari.
2. Bu maktabning merkantilizmdan asosiy farqi nimadan iborat ?
3. U.Pettining iqtisodiy qarashlari, uning uslubi.
4. «Fiziokratizm» so‘zining mazmuni va bu ta’limotning muhim xususiyatlari nimadan iborat?

# VII BOB. KLASSIK IQTISODIY MAKTABNING TO‘LA SHAKLLANISHI, A.SMIT VA D.RIKARDOLARNING IQTISODIY TA’LIMOTLARI

## 7.1. A.Smit va uning «Xalqlar boyligi…» asari

Buyuk ingliz iqtisodchisi Adam Smitning «Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to‘g‘risida tadqiqot» asari zamonaviy iqtisod fanining boshlanishi hisoblanadi. A.Smit o‘z davridagi iqtisodiy bilim va konsepsiyalarini umumlashtirdi va tizimlashtirdi. U xo‘jalik hayotining asosiy sohalarini tavsiflab beruvchi bir butun nazariya yaratdi. 1890-yillarga qadar hukmron bo‘lgan. Ikki yangi iqtisodchi olimlar Maltus va Marks ba’zi jihatlari klassik yo‘nalishda bo‘lsada, ular klassik iqtisodiy maktab tarafdorlari emas, balki tanqidchilar sifatida ko‘zga ko‘rinadi.

Tomas Maltusning “Nufus nazariyasi” klassik nazariya bilan bog‘liq, biroq Maltus o‘z nazariyalarida mulkdorlar sinfining o‘rni va mohiyati, hamda uning makroiqtisodiy jihatlari tahlilida klassik an’analar ta’limoti ilgari suriladi. Karl Marks klassik iqtsodiyotdan ba’zi elementlarni chiqarib tashladi, turli xil istiqbolli va birqancha yangi tahliliy tushunchalar kiritdi va klassik nazariyaga mutlaqo teskari xulosalar taqdim etdi. Iqtisodiyotning klassik davri yuz yildan ziyodroq vaqt mobaynida ilgari surilgan iqtisodiy g‘oyalarni qamrab oladi, uning asosiy yo‘nalishi va hissadorlari britaniyaliklarga qaratilgan edi. Klassik maktabning uch yirik traktatlari: Adam Smit tomonidan yozilgan “Xalqlar boyligining sabablari va tabiati tadqiqotlari” asari, David Rikardo muallifligidagi “Soliq va siyosiy iqtisodiyotning asosiy qonun- qoidalari” asari, hamda “Siyosiy qonun-qoidalar (tamoyillar)” nomli asarlaridir.

Shuningdek, Rikardoning kitobi chop etilgandan so‘ng qisqa fursatlarda bir qator neoklassik nazariyaning kichik ko‘rinishlari paydo bo‘ldi. Jon Styuart Mill klassik davrning oxirini izohlashga urindi, biroq u klassik qoidalarning ba’zilarini yoqlamagan. Smit, Rikardo va J.S.Millar tomonidan 1776-yildan 19 asrning so‘ngiga qadar iqtisodiy nazariyalar boshqarib turilgan: Smit 1776-yildan deyarli 1820-yilgacha, Rikardo 1820-yildan deyarli 1850-yillargacha, J.S.Mill esa 1850-yillardan 1890-yillarga qadar hukmron bo‘lgan. Ikki yangi iqtisodchi olimlar Maltus va Marks ba’zi jihatlari klassik yo‘nalishda bo‘lsada, ular klassik iqtisodiy maktab tarafdorlari emas, balki tanqidchilar sifatida ko‘zga ko‘rinadi.

Tomas Maltusning “Nufus nazariyasi» klassik nazariya bilan bog‘liq, biroq Maltus o‘z nazariyalarida mulkdorlar sinfining o‘rni va mohiyati, hamda uning makroiqtisodiy jihatlari tahlilida klassik an’analar ta’limoti

ilgari suriladi. Karl Marks klassik iqtisodiyotdan ba’zi elementlarni chiqarib tashladi, turli xil istiqbolli va bir qancha yangi tahliliy tushunchalar kiritdi va klassik nazariyaga mutlaqo teskari xulosalar taqdim etdi[40].



Adam Smit (1723-1790) Shotlandiyaning Kerkoldi shahrida bojxona amaldori oilasida dunyoga keldi. U Glazgo va Oksford universitetlarida ta’lim oldi, bu yerda adabiyot, tarix, falsafa fanlari bilan birga fizika, matematikani ham o‘rgandi. A. Smit 1748-yilda Edinburgda ommaviy leksiyalar o‘qiy boshladi, 1751-yilda Glazgo universitetining professori bo‘ldi va ijtimoiy fanlar kafedrasini boshqardi. A.Smit-1759 yilda o‘qigan leksiyalari etikaning falsafiy muammolariga bag‘ishlangan. Keyinchalik ijtimoiy fanlar kafedrasini boshqardi. A.Smit 1759-yilda o‘qigan leksiyalari asosida etikaning falsafiy muammolariga bag‘ishlangan o‘zining birinchi «Axloqiy hissiyot nazariyasi» kitobini yaratdi. 1764-yili A.Smit hayotida keskin o‘zgarish bo‘ldi: u kafedrani tark etdi va o‘sha davrda ko‘zga ko‘ringan siyosiy arbob - gersog Baklning o‘g‘li yosh lordning xorijga qiladigan sayohatida unga hamrohlik qilish to‘g‘risidagi taklifini qabul qildi. Bu sayohatdan A.Smit katta moddiy manfaatdorlik ko‘rar edi, ya’ni umrining oxirigacha unga har oyda 800 funt sterling kafolatlangan edi. Bu uning professorlik gonoraridan ancha ko‘p bo‘lgan. Sayohat chog‘ida u Shvetsariyada Valter, Fransiyada fiziokratlar F.Kene, A.Tyurgo, Dalamber va boshqa atoqli olimlar bilan uchrashdi, ularning ishlari bilan tanishdi. Bu uchrashuvlar A.Smitning dunyoqarashini shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. 1766-yilda u o‘z yurtiga qaytib keldi va «Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to‘g‘risida tadqiqot» nomli asosiy asarini yozishga kirishdi. Bu asar 1776-yil martda chop etildi. Asarda insoniyat tomonidan oldin yaratilgan iqtisodiy bilimlar umumlashtirildi va umumiy nazariy tamoyil asosida iqtisodiy fan tizimiga aylandi. A.Smitning bu asari besh qismdan (kitobdan) iborat bo‘lib, birinchi qismida qiymat va qo‘shimcha daromad muammolari tadqiq etildi, ikkinchisida-kapital jamg‘arilishi va uning funksional shakllari, uchinchisida-kapitalizm rivojlanishining tarixiy shart- sharoitlari ko‘rsatib berildi, to‘rtinchisida-merkantilizm va fiziokratlar ta’limotiga bo‘lgan

[40] “History of economic thought”. Harry Landreth, David C. Colander, 2004.

o‘zining munosabatlari aks etildi, beshinchi qismida davlat moliyasi savollari ko‘rib chiqildi. Bu asar A.Smit hayot paytidayoq to‘rt marta, uning o‘limidan keyin asr oxirigacha yana uch marta qayta nashr etildi. U nafaqat Angliyada, balki chet ellarda ham zo‘r qiziqish uyg‘otdi. A.Smitning bu buyuk asari dunyodagi barcha keyingi iqtisodiy ta’limotlarining rivojlanishiga va ko‘pchilik davlatlarning iqtisodiy siyosatiga o‘zining katta ta’sirini ko‘rsatdi.

“Xalqlar boyligining tabiati va sabablari” asarida Smit xalqlar boyligining tabiati konsepsiyasini tushuntirib o‘tgan. Bu ishi bilan u o‘z qarashlarini merkantilistlar va fiziokratlarnikidan farqlanishini isbotlab berdi. Xalqlar boyligi asarining ko‘p qismlarida Smit millat boyligi yoki miqdori bilan o‘lchanadi, degan fikrlari uchun merkantilistlarga qarshi bo‘lgan. Uning fikricha,boylik qimmatbaho metallar miqdori bilan emas, balki tovar va xizmatlardan olinadigan yillik foyda miqdori bilan o‘lchanadi. U shuningdek, eksport va import o‘rtasidagi bog‘liqlikni ham tushuntirib beradi[44].

Smitning fikricha, xalqlar boyligi aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan foyda bilan ham o‘lchanadi. Hozirda, masalan Angliya Xitoydan boyroq, deyilganda ularning aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan foyda qiyoslanadi, umumiy ishlab chiqarilayotgan mahsulot va foyda emas. Bu qarash hozirda ham o‘z kuchini yo‘qotgan emas. Xuddi shu bandda Smit aytib o‘tganki: “iste’mol barcha ishlab chiqarishning yagona natijasi va maqsadi”, u merkantilistlarga qattiq qarshilik bildirgan, chunki ularning tizimida iste’molchining talabi, deyarli ishlab chiqaruvchinikiga mos kelgan.

Xalqlar boyligi sabablari asaridagi g‘oyalar, Smit biz hozirda millat daromadi deb ataydigan davlat boyligi 1) ish unumdorligi va 2) unumdor ishlaydigan ishchilar mutanosibligiga bog‘liq deb hisoblangan. Ish unumdorligi, ishchi kuchining unumdor mehnati nima bilan belgilanadi? Smitning birinchi kitobida ish unumdorligi ish taqsimotiga bog‘liq, deb yozadi. Mehnatning ixtisoslashtirilganligi mehnat unumdorligini oshirishi mumkinligi kuzatilgan. Bu “xalqlar boyligi” dan ancha oldin aytib o‘tilgan, lekin hech kim Smitdek asoslab o‘tmagan[41]. Bizning hozirgi zamonaviy iqtisodiyotimizda ham hattoki, ilmiy tadqiqotda mehnat taqsimoti sezilarli ta’sir qilishi o‘rganilgan. Smit mehnat taqsimotini ko‘p misollar bilan tarixdan o‘rganib, zavodda har bir ishchi faoliyatini kuzatib, foydasini o‘rganib chiqqan. Agar har bir ishchi donalab mahsulot ishlab chiqarsa, unda juda sekin agar, ishlab chiqarish jarayoni bir qancha

[41] “History of economic thought”. Harry Landreth, David C. Colander, 2004.

operatsiyalarga bo‘lib tashlansa, har bir ishchi shu operatsiyalardan biriga ixtisoslashsa, har bir ishga nisbatan mahsulot hajmi katta miqdorda oshadi. Ixtisoslashuvning bir salbiy tomoni shundaki, ishchilar bir xil ishni bajaraverishadi va natijada zerikish paydo bo‘ladi. Insoniyat ishlab chiqarish jarayoniga bog‘lanib qolib mashinalashib ketadi, qayta-qayta bir xil ishni qilaverib insoniy xislatlarini yo‘qotadi. Lekin Smit inson farovonligi, mehnat taqsimotiga mos ravishda oshishiga hech shubhasi yo‘q edi. Shuningdek, mehnat taqsimoti Smitning bozorning kengayishi hamda kapitalning jamg‘arilishi haqidagi fikriga ham bog‘liq. Bozor qanchalik katta bo‘lsa shunchalik, ko‘p miqdorda tovar sotiladi va shunchalik mehnat taqsimotiga imkoniyat oshadi. Cheklangan bozor o‘z navbatida cheklangan mehnatni talab qiladi. Mehnat taqsimoti kapital jamg‘armasi orqali cheklab qo‘yilgan, chunki ishlab chiqarish jarayoni juda ko‘p vaqtni oladigan jarayon bo‘lib, ishning boshidan to mahsulot tayyor bo‘lib, sotilgunga qadar orada ancha vaqt bor.

Kapitalistning asosiy vazifasi ishlab chiqarish boshlanganidan, to mahsulot sotilgunga qadar ketadigan vaqtni qisqartirishdir. Shuning uchun, mahsulot ishlab chiqarish talab qilayotgan kengayish, kapital jamg‘armasi bilan chegaralanib qolgan. Shuning uchun Smit quyidagi xulosaga keldi: “Resurslarning jamlanish jarayoni mehnat taqsimotidan oldin bo‘lishi talab etiladi va shu sababdan zaxiralar qancha ko‘p jamg‘arilsa, mehnat shuncha samarali taqsimlanadi”.

**Samarali va samarasiz mehnat**. Smit fikriga ko‘ra, kapital miqdori ish bilan ta’minlangan va ta’minlangan ishchilar soni o‘rtasida o‘zaro nisbat bilan belgilanadi. Unumdor mehnat va samarasiz mehnat orasidagi farq haqidagi qarashlarda “iqtisodiyotda davlatning roli” haqida fikr keltirib o‘tadi. Qachonlardir u iqtisodiy rivojlanishda uchraydigan muammolardan xabardor bo‘lishni aniq ko‘rsatib bergan. Smit kuzatishicha, bozorda tovarni ishlab chiqarishda band bo‘lish samarali mehnat hisoblangan, ishlab chiqarishda band bo‘lgan ishchi kuchining xizmati samarasiz bo‘lgan. Boshqa tomondan qaraganda, ijtimoiy-iqtisodiy tartibni o‘zgarishini, u kapitalistlarning faoliyati deb taklif kiritgandi, yani ishlab chiqarishda real mahsulotlarning ortib borayotganligi iqtisodiy o‘sish va rivojlanish uchun foydali natija edi, holbuki, xizmatlar va boshqa nomoddiy tovarlar uchun yer egalarining xarajatlari isrof edi. “Bir kishi ko‘plab ishlab chiqaruchilarni yollasa, boyligi oshib boraveradi agar, u ko‘plab xizmatkorlarni boqsa kambag‘alligi ortib boraveradi. ”Kapital samarali ishchi kuchini qo‘llab quvvatlash uchun talab qilinadi, shuningdek, katta kapital to‘plash uchun

jami ishchi kuchining katta qismini samarali mehnatga jalb etish kerak bo‘ladi. “Kapitalistlar isrofgarchilik va noto‘g‘ri xatti - harakatlarni kamaytirib, tejamkorlik orqali rivojlanishadi”. Bu samarali va samarasiz mehnat o‘rtasidagi farq, shuningdek, Smitning iqtisodiyotda davlatning roli nazariyasiga ta’sir ko‘rsatdi. Faqat yer egalari sinfining sarf-xarajatlaridek xizmatchilar uchun qilinadigan xarajatlar va iqtisodiy rivojlanishga zararli bo‘lgan samarasiz mehnatning boshqa shakllari, shuningdek, hukumat xarajatlarining bir qismi hisoblanadi. “Suveren davlatlarda adolat va urishda xizmat qiluvchi ofitserlar, armiya, havo kuchlari barchasi samarasiz ishchilardir”. Bundan tashqari, samarasiz mehnat uchun xarajatlar hukumat tomonidan cheklangan bo‘ladi, u hukumatga biroz yaxshi, shuningdek, kapitalistlarda soliqlar kamroq bo‘ladi, chunki ular ko‘proq kapital yig‘ishi kerak bo‘ladi.

## 7.2. A.Smitning ijtimoiy-iqtisodiy nazariyalari

A.Smit o‘z kitobida jamiyatning iqtisodiy rivojlanishini va uning farovonligini oshirishni markaziy o‘ringa qo‘yadi. Asarning boshida A.Smit boylikni chinakam yaratuvchi bu - “har bir xalqning yillik mehnati” deb ko‘rsatib o‘tadi. Demak, boylikning manbai - mehnat. A.Smit bu fikrni rivojlantirib, mehnat taqsimoti boylikni yaratishda asosiy omil hisoblanadi, degan xulosaga keladi. Chunki mehnat taqsimoti asosida uning unumdorligi oshadi. Muallif bu tezisni to‘g‘nog‘ich ishlab chiqarish ustaxonasi misoli yordamida asoslab beradi. Ustaxonada o‘n kishi ishlaydi. Ular o‘rtasida mehnat taqsimlangan: biri simni tortadi, ikkinchisi uni to‘g‘rilaydi, uchinchisi kesadi, to‘rtinchisi uchini o‘tkirlaydi va h. Bir kunda bu o‘n kishi 48000 to‘g‘nog‘ich, ya’ni har bir kishi 4800 donadan to‘g‘nog‘ich ishlab chiqaradi. Agar ular bir - birlariga bog‘liq bo‘lmagan holda ishlaganlarida, ularning hech qaysisi bir kunda 20 dan ko‘p to‘g‘nog‘ich tayyorlay olmagan bo‘lar edi. Demak, ixtisoslashuv tufayli mehnat unumdorligi 240 baravardan ko‘proq oshgan. A.Smitning fikri bo‘yicha, mehnat taqsimoti milliy mahsulot yaratish jarayonida odamlar o‘rtasida hamkorlikni amalga oshirishning juda qulay shakli hisoblanadi. Ixtisoslashuv tufayli mehnat jarayonini amalga oshirishda kishilarning chaqqonligi ortadi; ular vaqtni tejaydilar, chunki doimo bir ish turidan boshqasiga o‘tishga hojat bo‘lmaydi; ular o‘z faoliyatlarini takomillashtirish, ixtiro qilish uchun katta imkoniyatlarga ega bo‘ladilar. Taraqqiyot va jamiyat farovonligining haqiqiy manbai «tabiat in’omi» emas (fiziokratlar hisoblaganlaridek), balki aynan mehnat taqsimotidir. Shu bilan birga, ixtisoslashuvni chuqurlashtirish

imkoniyatlari cheklangan bo‘ladi, negaki birinchidan, agar yaratilgan qo‘shimcha mahsulot xarid qilinmasa, undagi mehnatni yanada taqsimlashga zarurat bo‘lmaydi, ikkinchidan, korxonalarning ko‘lami qancha kichik bo‘lsa, mehnat taqsimoti uchun imkoniyatlar shuncha kam bo‘ladi (foydalanayotgan kapital miqdoriga qarab).

Ushbu nazariyadan, milliy boylikning ko‘payishi jamiyatdagi ayrim sinflar faoliyati natijasi emas (merkantilistlarda - savdogarlar, fiziokratlarda - yer egalari), balki mehnat taqsimotida qatnashayotgan barcha kishilar faoliyatining natijasidir, degan xulosa kelib chiqadi. Boshqacha aytganda, foyda yaratuvchi har qanday mehnat unumli mehnatdir. Ammo bu masala bo‘yicha A.Smitda izchillik bo‘lmagan.

Birinchidan, u faqat moddiy narsalarni yaratish va o‘zgartirish bilan bog‘liq bo‘lgan mehnatni unumli mehnat hisoblangan. O‘qituvchilar, huquqshunoslar, harbiylar, ma’muriyat, yozuvchilar va shu kabilarning mehnati esa unumli hisoblanmagan.

Ikkinchidan, A.Smit iqtisodiyotda qishloq xo‘jaligi sohasining ustunligi g‘oyasidan qutula olmagan. U hunarmandlar va savdogarlar mehnatini yer egalari mehnatiga nisbatan kam unumli bo‘ladi, deb tasdiqlaydi. Negaki, yer egalariga tabiat «yordam» beradi va «dehqonchilikka qo‘yilgan kapital haqiqiy boylikka va daromadga ancha ko‘p qiymat qo‘shadi». Bunda A.Smitning ta’kidlashicha, iqtisodiyotning rivojlanib borishi bilan sanoat tovarlari bahosi pasayib borish moyilligiga, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bahosi esa o‘sish moyilligiga ega. Shuning uchun, uning fikricha, qishloq xo‘jaligiga qo‘yilgan kapital ancha foydali hisoblanadi. Agar o‘sha davrda Angliyada manufaktura sanoati rivojlana boshlaganini va hatto birinchi yuqori unumli fabrikalarning paydo bo‘lganligini hisobga oladigan bo‘lsak, A.Smitning bu xatosini tushunish yana ham qiyinlashadi. Uning unumli mehnat konsepsiyasida izchillikning yo‘qligi, ishlab chiqarish jarayonidagi kapital mavqeini yetarlicha tushunmaganligi natijasidir. A.Smitning fiziokratik bid’atlari jamiyat o‘z resurslarini, birinchi navbatda, qishloq xo‘jaligiga, ikkinchi navbatda, sanoatga va faqat, uchinchi navbatda, savdoga yo‘naltirishi kerakligini tasdiqlashida o‘z ifodasini topadi. Bundan A.Smit sanoat to‘ntarilishining dastlabki uchqunlarini va kelajakda yirik sanoat ishlab chiqarishining hal qiluvchi ahamiyatini ko‘ra olmagan, degan xulosa kelib chiqadi. A.Smit boylikni ko‘paytirishda pulning o‘rniga alohida urg‘u berib o‘tadi. Uning tasdiqlashicha, qimmatli metallarning, pulning maxsus ahamiyati to‘g‘risidagi merkantilistlarning fikri noto‘g‘ri.

Agar pulni jamg‘arish asosiy maqsad bo‘lsa, unda pul harakatsiz

qolib ketadi, bu esa ushbu pulga ishlab chiqarish yoki sotib olish mumkin bo‘lgan mahsulotlarning kamayib ketishiga olib keladi. Pul jamiyat boyligini ko‘paytirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. A.Smit kapitalni tahlil qilgach, ishlab chiqarishning o‘sishi, manufaktura sanoatining yaratilishi kapital faoliyati natijasi ekanligini ko‘rsatib beradi. U kapital deganda, maxsus ishlab chiqarish fondlarini, ishlab chiqarish vositalari, ishlab chiqarishning moddiy omillarini tushungan.

A.Smit kapitalni asosiy va aylanma kapital turlariga ajratib ko‘rsatadi. Muomalada bo‘ladigan kapital aylanma kapital, muomalada amal qilmaydigan kapital asosiy kapital nomini olgan. A.Smit bo‘yicha, asosiy kapital ham, aylanma kapital ham boylik yaratadi. Kapitalning o‘sishi - millat boyligini ko‘paytirishning uchinchi (mehnat taqsimoti va puldan foydalanish bilan birga) asosiy omili. Kapital qancha ko‘p bo‘lsa, ishchilarni boqish va ularni ixtisoslashtirish imkoniyati shuncha ko‘p bo‘ladi. Buning ustiga, kapitalning o‘sishi ayrim vaziyatlarda boylikni ko‘paytirishning yagona vositasi bo‘lishi mumkin. Shuning uchun A.Smit tejamkorlikni qo‘llab - quvvatlaydi. Uning yozishicha, «har bir isrofgar - jamiyat boyligining dushmani, har qanday tejamkor odam - jamiyatga muruvvat ko‘rsatuvchidir».

**Iqtisodiy erkinlik prinsipi.** Jamiyatdagi mehnat taqsimoti odamlarni bir birlari bilan bog‘lab turuvchi va ularga mahsulot va resurslarni almashtirish imkonini beruvchi mexanizmning bo‘lishini taqozo etadi. Bunday mexanizm bozor hisoblanadi. Bozor to‘g‘risida A.Smit ta’limotidagi asosiy g‘oya iqtisodiy liberalizm g‘oyasi, davlatning iqtisodiyotga aralashuvini minimallashtirish g‘oyasi, erkin raqobat asosida tashkil topadigan baho yordamida iqtisodiyotning o‘zini-o‘zi boshqarish g‘oyasi hisoblanadi. Uning ta’limotiga ko‘ra, bozor odamlar faoliyatini muvofiqlashtiradi (koordinatsiyalashtiradi), ularning manfaatlarini uyg‘unlashtiradi. Bozor iqtisodiyoti novvoyni shirin non yopishga, dehqonni ekologik toza meva-sabzavot yetishtirishga, savdogarlarni boshqa mintaqalardan arzon bahoga tovarlar olib kelishga undaydi. Raqobat sharoitida iste’molchilar ehtiyojini yuqori darajada qondira oladigan ishlab chiqaruvchilar yashab keta oladi. Demak, ko‘proq foyda olish ishtiyoqida bo‘lgan tadbirkorlarning bir tomonlama manfaatlari, ularni jamiyatning boshqa a’zolari manfaatlariga xizmat qilishga majbur qiladi. “Menga nima kerak bo‘lsa, shuni menga ber va sen o‘zingga nima kerak bo‘lsa o‘shani olasan”. Aynan shunday ko‘rinishda odamlar o‘zlari ehtiyoj sezgan narsalarni bir-birlaridan ko‘proq olishga erishadilar. A.Smit kitobining asosiy mohiyati

hukumatning va boshqalarning erkin raqobatga aralashuvini tanqid qilishdan iborat. A.Smitning fikricha, iqtisodiy hayotda garmonik tartib hukmronlik qiladi: agar erkin raqobat cheklanmasa, unda u dunyoni takomillashuvga olib kelgan bo‘lar edi. Bunday xulosaga kelishda A.Smit o‘zgarmas «tabiiy» iqtisodiy qonunlar mavjudligiga asoslangan. A.Smit tushunchasi bo‘yicha, shaxsiy manfaatlar ijtimoiy manfaatlardan ustun tursa, ya’ni jamiyat manfaatlari uning a’zolari manfaatlarining yig‘indisi deb qaralsa, shundagina bozor qonunlari iqtisodiyotga ko‘proq ta’sir ko‘rsatadi. A.Smitning asosiy xizmatlaridan biri shundan iboratki, u birinchi bo‘lib iqtisodiyotni o‘zining ichki qonuniyatlariga muvofiq amal qiluvchi, obyektiv, odamlarning irodasiga bog‘liq bo‘lmagan tizim sifatida qaraydi.

Bunday tizim o‘zining ichki qonuniyatlariga muvofiq amal qiladi. A.Smit iqtisodiyotning davlat sektori samarasizligini ko‘rsatib o‘tadi. «Har xil sabablarga ko‘ra, - deb yozadi u, - hukumat doimo va istisnosiz tarzda isrofgar. Eng avvalo, u birovlar ishlab topgan pulni sarflaydi, o‘zgalar pulini esa hamisha o‘zingnikidan ko‘ra behuda sarflaysan. Bundan tashqari, hukumat xususiy korxonalardan juda uzoq turadi va ularning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan e’tiborni ularga qarata olmaydi».

A.Smit davlatning faqat uch funksiyasini tan oladi: adolatli sud qilish, mamlakat xavfsizligini ta’minlash, jamiyat uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy korxona va muassasalarni ta’minlash. A.Smit merkantilistlarning proteksionizm siyosatini tanqid qiladi. Unga ko‘ra, chetdan ancha arzon bahoga olib kelishi mumkin bo‘lgan tovarni o‘zida ishlab chiqarish be’mani narsadir. «Har qanday ongli oila boshlig‘ining qoidasi sotib olishdan ko‘ra uyda tayyorlash qimmatga tushsa, uni uyda tayyorlamaslikdan iborat... Ayrim oilalar uchun oqilona hisoblangan narsa, bir butun davlat uchun be’mani hisoblanmaydi». Erkin raqobat sharoitida bozor mexanizmi, eng avvalo, baho orqali iqtisodiyotda “tartib o‘rnatadi”. Baho bozor xo‘jaligining asosiy tashkiliy kuchi sifatida qaraladi. Baho talab va taklif o‘zgarishi to‘g‘risida ishlab chiqaruvchilar bilan iste’molchilarga signal berib turadi, ularni bir-birlarining manfaatlariga moslashishga majbur etadi. Baho orqali talab asosida kapital qo‘yilmasi amalga oshiriladi, kerakli mahsulotlar ishlab chiqariladi. Odamlar bir-birlariga xizmat qilish orqali o‘z manfaatlarini amalga oshiradi. Bozor iqtisodiyoti o‘z-o‘zidan amal qilayotgandek ko‘rinadi, aslida u xatolar va tuzatishlar uslubida tartibga solib turiladi.

**“Ko‘rinmas qo‘l”**. Bozor iqtisodiyoti bir markazdan turib

boshqarilmaydi. Shunday bo‘lsada, u muayyan tartib va qoidaga amal qiladi. Xo‘jalik faoliyatining har bir ishtirokchisi o‘z maqsadini ko‘zlagan holda ish yuritadi. Biroq bunday sharoitda alohida kishilarning manfaatlari qanday uyg‘unlashadi, barcha jamiyat manfaatlari qanday yuzaga chiqadi? Birinchi bo‘lib, bu muammoni ilmiy darajaga ko‘targan A.Smit bo‘ldi. U shunday yozadi: «Har bir kishi o‘z kapitalini ko‘proq qiymat keltiradigan qilib ishlatishga harakat qiladi. Odatda, u jamiyat foydasiga ta’sir ko‘rsatishni nazarda tutmaydi va unga ancha ta’sir ko‘rsatayotganini sezmaydi. U faqat o‘z manfaatini nazarda tutadi, faqat o‘z foydasini ko‘zlaydi. Shunday bo‘lsada, bunday maqsad uning rejasiga kirmagan bo‘lsa ham, ushbu sharoitda ko‘rinmas qo‘l uni maqsad sari yo‘naltiradi. O‘z manfaatlarini ko‘zlagan holda, jamiyat manfaatlariga ataylab unga xizmat qilgandan ko‘ra tez-tez xizmat qilib turadi». Gap shundaki, o‘z manfaati yo‘lida xizmat qilayotgan har bir odam pirovard natijada ijtimoiy mahsulotning ko‘payishiga, jamiyat boyligining oshishiga yordam beradi. Shaxsiy manfaatga intilish ishlab chiqarishning rivojlanishiga, taraqqiyotga olib keladi. Har bir kishi o‘zini o‘ylab ish yuritadi, bundan butun jamiyat yutadi. A.Smit aytib o‘tgan «ko‘rinmas qo‘l» bozor mexanizmidir. U odamlarni o‘z istak va xohishlariga bog‘liq bo‘lmagan holda maqsad sari yo‘naltirib turadi. Masalan, agar qandaydir bir mahsulotga, aytaylik, nonga bo‘lgan talab oshsa, novvoylar uning narxini oshiradilar. Ularning daromadlari oshadi. Kapital bir tarmoqdan ikkinchi tarmoqqa oqib o‘tib turadi, ayni chog‘da, u non yopish sanoatiga oqib o‘ta boshlaydi. Natijada, non ishlab chiqarish ko‘payadi va narx yana pasaya boshlaydi. Bu yerda A.Smit shaxsiy manfaatni raqobat va xo‘jalik mexanizmining ichki harakatlantiruvchi kuchi sifatida ko‘rsatib bergan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha turli mehnat egalari o‘rtasida raqobat kurashi amal qilib turadi. Bunda shaxsiy manfaat, o‘z foydasini ko‘zlab ish yuritish bir vaqtning o‘zida jamiyatga foyda keltiradi, umumiy boylikka erishishni ta’minlaydi. Demak, bozor iqtisodiyotida “ko‘rinmas qo‘l” amal qiladi.

**Qiymat va bahoning shakllanishi**. A.Smit «sarfli» qiymat nazariyasiga asos soldi. U tovarning foydaliligi (iste’mol qiymati) bilan almashuv qiymatini bir-biriga qarshi qo‘ydi va almashuv qiymatining shakllanishini tahlil qilishda foydalilikni inkor etdi. Keyinchalik, bu nazariyadan ikki qarama-qarshi yo‘nalish hisoblangan-iqtisodiy liberalizm va sotsializm vakillari o‘zlarining tamoyillarini asoslash uchun foydalandilar. A.Smit bozor bahosining beqarorligini talab va taklifdagi doimiy o‘zgarishlarning natijasi ekanligini ko‘rsatib o‘tadi. Lekin

boylikning «haqiqiy» qimmati doimo o‘zgarib turishi mumkin emas. Shuning uchun A.Smit o‘z oldiga tovarning «real», «tabiiy» bahosini, ya’ni uning qiymatini topish vazifasini qo‘ydi. Bunda u bir vaqtning o‘zida ikki har xil konsepsiyadan foydalandi. Birinchisi-tovarning qiymati faqat unga sarflangan mehnat bilan aniqlanadi: qancha ko‘p mehnat sarflansa, tovar shuncha qimmat bo‘ladi (bu konsepsiya D.Rikardo va K.Marks iqtisodiy ta’limotlarining asosini tashkil etadi). Ammo ushbu qoida, A.Smitning fikricha, faqat jamiyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida, «qoloq jamiyatlarda» qo‘llaniladi. Lekin sivilizatsiyalashgan jamiyatda tovar qiymatini aniqlashda kapital va yer ham hisobga olinadi. Ikkinchi konsepsiya ana shunday paydo bo‘ladi, unga binoan tovar qiymatini yaratishda barcha ishlab chiqarish omillari (mehnat, kapital, yer) qatnashadi. Shunga muvofiq, tovar qiymati mehnat sarflaridan, foyda va yer rentasidan tashkil topadi, ya’ni ishlab chiqarish xarajatlari bilan aniqlanadi. Mehnat bilan yaratilgan daromad taqsimlanish jarayonida ish haqi, foyda va rentaga bo‘linadi. Bu konsepsiya mahsulot va daromadlarni yaratishda mehnat bilan birga kapital va yerning ham ishtirok etishini bildiradi.

**Qiymat nazariyasi.** Qiymat yoki narx haqidagi savollar avvalgi iqtisodchilar tomonidan ko‘p e’tiborga olingan. Lekin bir qator savollar borki, ularni aniqlashtirish lozim.

1. Tovar narxini nima belgilaydi?
2. Nima narxlarning umumiy darajasini belgilaydi?
3. Farovonlikning eng yaxshi o‘lchovi qanday?

Birinchi va uchinchi savollar zamonaviy mikroiqtisodiyotni o‘z ichiga oladi; ikkinchi savol esa makro-mikro dixotomiyani ifodalasada, aslida umumiy holatda makroiqtisodiyotning tarkibiy qismi hisoblanadi, Smit bu borada tegishli narxlarning mehnat nazariyasini ishlab chiqdi, ibtidoiy jamiyatdagi mehnat haqi va iqtisodiyotdagi mahsulot narxi, o‘lchov o‘zgaruvchanligi, narxning umumiy bosqichlarini izohlovchi nazariyalarni o‘rganib, tekshirib, so‘ng tegishli xulosalarni yozib oladi. Smitning to‘g‘ri fikrlari borasida iqtisodiy g‘oyalar tarixchilarining bahs olib borayotgani hayratlanarli emas. Bir guruh yozuvchilar Smitning nominal narxlar(mehnat narxi, mehnat taqsimoti va mahsulot narxi) nazariyasini va narxlarning umumiy darajasini tushuntirish nazariyasini yoqlaydi. Boshqa bir guruh esa uning nominal narxlar mahsulot tannarxi nazariyasi, qo‘shimcha ish soatlari o‘zgarishlarini hisoblash nazariyasi va narxlarning umumiy darajasi nazariyasiga asoslanishiga ishonadi. Ikkinchi guruh Smitning nominal narxlar, ishchi nazariyasini rad etadi.

Biz Smitning bu barcha nazariyalarni tajriba qilib ko‘rganiga ishonamiz: ibtidoiy jamiyat uchun ishchi narxi va mehnat taqsimoti hamda rivojlangan iqtisodiyot uchun mahsulot narxidan iborat nominal narxlar nazariyasi; qo‘shimcha ish soatlari o‘zgarishlarini hisoblash ko‘rsatkichi formulasi va narxlar umumiy darajasini o‘rganish nazariyasi. Biz, avvalo, uning nominal narxlar nazariaysini esga olamiz. Adam Smit garchi nominal narx taklif yoki faqatgina mahsulot narxlari kabi belgilanadi, deb izohlagan bo‘lsa ham, u talabning rolini butunlay rad etmagan. U bozordagi narx talab va taklifning har ikkisi tomonidan belgilanadi, deb ishongan. U bazida tabiiy narxlar ham aynan talab va taklifga bog‘liqligini ta’kidlagan.

Shuningdek, u iqtisodning turli sektorlari orasida resurslar nazoratida va tabiiy narxlar tuzilmasida talabning o‘rni haqida qayd etib o‘tgan. Smitning nominal narxlarning shakllanishi haqidagi tahlili, uning davridagi iqtisodni ikki davrga ajratdi: qisqa va uzun muddat hamda iqtisodning ikki katta sektori bo‘lgan qishloq xo‘jaligi va ishlab chiqarish. Qisqa muddat mobaynida yoki savdo-sotiq davrida Smit ishlab chiqarish va qishloq xo‘jaligida tez sur’atlarda tushayotgan talab va ko‘tarilayotgan taklif ko‘rsatkichlarini topdi va shu sababli savdo-sotiq narxlari talab va taklifga bog‘lidir. Smitning uzun muddatda uchraydigan murakkabroq “tannarx” ustidagi tahlili o‘z ichiga ba’zi bir qarama-qarshiliklarni oladi.

Qishloq xo‘jaligi sektori uchun tannarx ehtiyoj va ta’minotga bog‘liq, buning sababi uzoq muddatli ta’minot ko‘rsatkichi o‘smoqda va bu esa o‘z navbatida narxlarning ko‘tarilishini ko‘rsatadi. Ammo ishlab chiqarish sektori uchun uzun muddatli ta’minot ko‘rsatkichi vaqti-vaqti bilan mutlaqo elastikligi (gorizontalligi) ya’ni o‘zining o‘zgarmas narxlarning ifoda qilishi deb taxmin qilinsa, tahlilning boshqa qismlarida esa u pastga yo‘nalgan ko‘rsatkich ya’ni narxlarning pasayishi deb ko‘rsatiladi. Ishlab chiqarishda uzoq muddatli ta’minot ko‘rsatkichi butunlay elastik bo‘lganda, narx mahsulot bahosiga bog‘liq, Ammo u pastga yo‘nalganda esa tannarx ikkala ehtiyoj va ta’minotga bog‘liqdir. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning tannarxini aniqlashga kelganda, Smitning fikriga bir necha xil mumkin bo‘lgan izohlar mavjud. Birining taxminicha, uning ta’rifi ozgina nomunosib bo‘lgan, buning sababi ehtimol “Wealth of nations” - “Xalqlar boyligi” kitobi uzoq muddat ichida yozilganligi yoki ushbu masalalar uning fikricha ahamiyatsiz bo‘lganligidadir. Boshqa yondashishga ko‘ra, uning ishlab chiqarish narxlari haqidagi fikrini “haqiqiy Adam Smit” vakili deb tanlamoqdir. Bu o‘z navbatida, qaysi yondashish olinmasin, bir-biridan katta farq

qilmaydi, chunki Smit tannarxlarning shakllanishida va iqtisodning turli sektorlariga resurslarning taqsimotida, ehtiyojning ahamiyati haqida tez-tez eslatib o‘tadi. Bunga qaramasdan, Smit va keying klassik iqtisodchilarga xos bo‘lgan belgi, ya’ni ishlab chiqarishdagi uzoq muddatli ta’minot ko‘rsatkichining shaklini hisobga olmaganda, tannarxni aniqlashdagi katta urg‘u mahsulotning narxiga beriladi. Aqidaparastlarda nominal narxlar haqidagi savolga qiziqish uyg‘ondi, buning sababi ular ayirboshlashning ayrim tomonlari haqida o‘ylashayotgan bo‘lsa, savdogarlar esa boylik ayirboshlash jarayonida yaratiladi, deb hisoblashar edilar. Smit narxlarni o‘z nuqtayi nazaridan, muhokama qilishiga qaramasdan, unda nominal narxlarni aniqlashdagi omillar haqida qiziqishga muhim bir sababi bor edi. Iqtisodda ixtisoslashtirish va mehnat taqsimoti amalga oshirilsa, ayirboshlash zarur omillarga aylanadi. Agar Smit ta’riflagan davrda, ayirboshlash bozordan o‘rin olsa, ma’lum bir muammolarni keltirib chiqaradi. Birinchidan, agar ayirboshlash barter darajasidan ustunroq bo‘lsa, o‘rta pul ayirboshlash savoli tug‘iladi. Smit pulning o‘rta ayirboshlashdagi ahamiyatini 1-kitobning 4-bo‘limida muhokama qiladi. Ikkinchidan, bu yerda nisbiy narx va baho savoli paydo bo‘ladi. Smitning yondashishini olsak, qanday qonun-qoidalar tovarlarning nisbiy yoki almashinadigan bahosini tashkil etadi. U ushbu savolni 1-kitobning 5,6,7-bo‘limlarida yoritadi. Uchinchidan, ishlab chiqarishga qaratilganlarga iqtisodiyotning mahsuloti qay tarzda bo‘linadi. Smit 1-kitobning qolgan bo‘limlarida daromadning taqsimlanishi haqida so‘z yuritadi. Smitning qiymat so‘zi ikki turli ma’noga ega ekanini, foydasini ifodalashga, ba’zida boshqa tovarlarni sotib olish qudratini ifodalash mumkinligini ta’kidlardi. Ular “amal qiymat” va “ayirboshlashdagi qiymat” deb ham ataladi. Amalda yuqori qiymatga ega bo‘lgan narsa ayirboshlashda hech qanda qiymatga ega bo‘lmaydi. Smit fikriga ko‘ra, ayirboshlashdagi qiymat boshqa tovarlarni sotib olish uchun mahsulotning qudrati. Bu bozor nuqtai nazarida xolis bahodir. Uning foydalanish bo‘yicha tushunchasi noaniqdir; uning nominal narxlarni tushuntirishdagi qiyinchiliklarni yengillatishda yaxshi natija berdi. Smitning qat’iy tartiblari uning foydalanishda olmoslarning deyarli ahamiyatisizligi haqidagi bayonotida asosan e’tiborga molikdir. Boshqa tomondan, amaliy ahamiyat bu tovarning talabni qondirilish kuchi, mahsulotni yig‘ish yoki iste’mol qilish orqali qabul qilingan yutuqdir. Tovar iste’mol qilinganda bir necha turdagi yutuqlarga erishish mumkin: to‘liq, o‘rtacha va past foyda. Smitning diqqat markazida u yozib ketgandan keyin yuz yilgacha iqtisodchilar tomonidan sababi

tushunilmagan, o‘rtacha foyda va qiymat o‘rtasidagi munosabatdan iborat bo‘lgan to‘liq foyda edi va bu talabning narxni aniqlashda qanchalik rol o‘ynashi haqidagi uning tushunchalarini yashirdi. Shu aniqki, suvning to‘liq foydasi olmosning to‘liq foydasidan kattaroq; bu Smit ta’kidlaganidek, suvning amaliy ahamiyati olmosnikiga qaraganda balandroq bo‘lishiga ishora qiladi. Shunga qaramay, suvning boshqa bir tarkibiy qismi olmosnikidan pastroq foydali bo‘lishining ancha ehtimolligi bor, chunki tovarning oxirgi foydasi uning ko‘p iste’mol qilinishi sababli ko‘pincha kamayadi. Tovar uchun biz to‘lashni xohlaydigan narx uning to‘liq afzalliklariga emas, balki oxirgi afzalligiga bog‘liqdir. Chunki Smit buni eslamaydi (boshqa iqtisodchilar ham 1870-yilgacha eslamaydi). U na olmos-suv paradoksiga qoniqarli yechim topa oladi, na amaliy ahamiyat va ayirboshlash ahamiyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘ra oladi. Suvdan ko‘ra foydaliroq narsa yo‘q, lekin uning sotish qiymati juda past; olmos hech qanday foydalanish qiymatiga ega emas, biroq tovarlar almashinuvida juda yuqori qiymatga ega. Mana shundan so‘ng olmos-suv paradoksi kelib chiqqan.

**Sinflar nazariyasi**. A.Smit qarashlarida jamiyat uch sinfga ajratib ko‘rsatiladi: yer egalari, tadbirkorlar, yollanma ishchilar. Yer egalari qo‘lida asosiy ishlab chiqarish vositasi yer bo‘ladi. Ular ijaraga bergan yeri uchun ijara to‘lovlari sifatida ushbu yerdan olingan daromadning bir qismini renta ko‘rinishida oladi; - tadbirkorlar ishlab chiqarish vositalarining ikkinchi bir turiga (imorat-inshootlar, asbob-uskunalar, fermalar, xomashyo zaxiralariga) egalik qiladi, ishchilarni yollaydi va daromad ko‘rinishida foyda oladi; yollanma ishchilar - eng ko‘p, kambag‘al sinf hisoblanadi, ular mulk egasi emas va ular mehnatini sotib, daromad ko‘rinishida ish haqi oladi, A.Smit bo‘yicha jamiyat uch sinfdan tashqari har xil guruh va qatlamlarni ham o‘z ichiga oladi. Asosiy sinflar daromadlari birlamchi hisoblanishi bilan ajralib turadi. Boshqa guruhlarning daromadlari esa – ikkilamchi bo‘lib shakllanadi. A.Smit daromadning har uchala asosiy shaklini alohida ko‘rib chiqdi. Ish haqi nazariyasi. Ishchining daromad sifatidagi ish haqi, A.Smit bo‘yicha, mamlakatning milliy boyligi darajasiga bevosita bog‘liq. A.Smitning ish haqi nazariyasining e’tiborga molik joyi shundan iboratki, u U.Petti, fiziokratlar va keyingi D.Rikardodan farqli ravishda, mehnatga haq to‘lash miqdori yashash minimumi darajasigacha pasayadi, deb atalmish qonuniyatni inkor etgan. Buning ustiga, A.Smit mehnatga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirish maqsadida ish haqini oshirish tarafdori bo‘lgan. Uningcha, past ish haqidan ko‘ra, yuqori ish haqi amal qilib turgan paytda

faol faoliyat yurituvchi ishchilarni doimo topish, ishga jalb etish mumkin bo‘ladi.

**Foyda nazariyasi**. A.Smit bo‘yicha, tovar qiymatining bir qismi ish haqi sifatida ishchiga tegadi, qo‘shimcha mehnat bilan yaratilgan qiymatning qolgan qismi tadbirkorning daromadi ko‘rinishida uning foydasini tashkil etadi. A.Smit foydani tadbirkorlik tavakkalchiligi uchun, ishchiga yashash vositalarini avanslagani uchun tadbirkorga to‘lanadigan haq deb hisobladi, undan keyinchalik tadbirkorlik daromadining adolatli ekanligini isbotlashda keng foydalanildi. Foyda miqdori, A.Smit bo‘yicha, “kapital qiymati bilan aniqlanadi va foydaning ko‘p yoki kam bo‘lishi ushbu kapital miqdoriga bog‘liq bo‘ladi”. Foyda me’yorining pasayish moyilligi qayd qilib o‘tiladi, bunday moyillik iqtisodiy rivojlanish bilan bog‘lab tushuntiriladi, negaki ancha rivojlangan mamlakatlarda foyda me’yori hamisha past bo‘ladi. U foyda miqdoriga 3 ta omil ta’sir ko‘rsatishi mumkin deb taxmin qiladi:

1) Mehnat bozorlaridagi raqobat. Buning natijasida maoshlar ko‘tariladi.

2) Mahsulot bozori o‘rtasidagi raqobat. Ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida raqobat ortadi, mahsulot narxlari tushadi, foyda ham kamayadi.

3) Investitsiya bozorlarida raqobat, investitsiya imkoniyatlari soni cheklangan, kapital miqdori oshganda foyda kamayadi. U ba’zi hudud (masalan Shimoliy Amerikada) maosh va foyda har ikkisi yuqori darajada oshganini ham e’tirof etib o‘tadi.

**Renta nazariyasi**. A.Smit nazariyasiga ko‘ra, renta ishchining haq to‘lanmagan mehnati bilan yaratiladi, uning mehnati mahsulotning bir qismi hisoblanadi. U rentada yerga bo‘lgan xususiy mulkchilik monopoliyasi unsurlarini ko‘rgan, lekin absolyut va differensial renta tushunchalarini ajratib ko‘rsatib bermagan. Yer uchastkalari ham unumdorligi, ham joylashishi bo‘yicha farq qilishi, bu farqlarning ikkalasi ham turli tavsif va miqdordagi rentaning shakllanishiga sabab bo‘lishi mumkinligi qayd qilib o‘tilgan. Smit rentaning eng kamida 4 ta nazariyasini taklif etadi, rentaning kelib chiqishi

1. Yer egalari tomonidan talab;
2. Monopoliya;
3. Turli xil afzalliklar;
4. Tabiat saxiyligi bilan belgilanadi.

Adam Smit garchi nominal narx taklif yoki faqatgina mahsulot narxlari kabi belgilanadi, deb izohlagan bo‘lsa ham, u talabning rolini butunlay rad etmagan. U bozordagi narx talab va taklifning har ikkisi

tomonidan belgilanadi deb ishongan. U ba’zida tabiiy narxlar ham aynan talab va taklifga bog‘liqligini ta’kidlagan. Shuningdek, u iqtisodning turli sektorlari orasida resurslar nazoratida va tabiiy narxlar tuzilmasida talabning o‘rni haqida qayd etib o‘tgan. Nominal narxni belgilashda ba’zi faktorlar chalg‘ituvchi bo‘lgani sabab, Smit 3 ta alohida nazariyani ishlab chiqdi: 1) mehnat qiymati; 2) mehnat buyrug‘i nazariyasi va 3) mahsulot narxi nazariyalari. Smitning fikricha, narxlar talab va taklif bilan bog‘liq holda shakllanadi.

**Taqsimot nazariyasi.** Daromadning shaxsiy taqsimoti alohida sotilgan mahsulot miqdori va narxiga bog‘liq bo‘ladi. Mehnat ko‘pchilik oila va ro‘zg‘or tomonidan egalik qilinadigan mahsulot omilidir, shuning uchun daromad maosh darajasi va ish vaqtiga bog‘liq bo‘lgan holda shakllanadi deydi. Smitning iqtisodiy nazariyaga qo‘shgan hissasi nihoyatda ulkan. Boshqa o‘sha davrdagi mutafakkirlarga qaraganda, Smit bozor iqtisodiyotini boshqarishning asosiy g‘oya va kuchlarini ko‘ra oldi. Biroq, uning ishlari xatolardan holi emas. U bazi jabhalarda, ya’ni narxlarning umumiy darajasi, nisbiy narxlarda chalkashliklarga yo‘l qo‘ydi. Biroq uning g‘oyalari iqtisodiy siyosat va bozor o‘rtasidagi munosabatlarga aniqlik kiritdi, tartibga soldi. Umumiy olganda, Smit raqobatbardosh bozorlar faoliyati ustida tadqiqotlar olib borgan holda, iqtisodiy nazariyaga sezilarli darajada o‘z hissasini qo‘shgan Rikardo, J.S.Mill va A.Marshall kabi nazariyotchilar Adam Smitning tahlillarini o‘rganishgan.

## 7.3. D.Rikardoning iqtisodiy ta’limoti



Ingliz klassik iqtisodiyotining mashhur namoyondasi David Rikardo (1772-1823) Peti va Smitning iqtisodiy g‘oyalarini yanada rivojlantirdi. U matematika, fizika, kimyo va biologiyani mustaqil o‘rgandi. D.Rikardo dastlab birja dalloli, keyinroq matematika o‘qituvchisi bo‘ldi, 2 marta sherif (politsiya boshlig‘i) etib saylandi, 1819-1823-yillarda Angliya parlamentining a’zosi bo‘ldi. Parlament minbaridan o‘zining ilg‘or iqtisodiy fikrlarini tarqatish maqsadida foydalandi, erkin savdoni talab etdi, proteksionizm va pul muomalasi sohasidagi davlat siyosatini tanqid qildi.

D.Rikardo 1799-yilda kurortda A.Smitning «Xalqlar boyligi…» asarini ko‘rib qoladi va unda bu fanga ishtiyoq paydo bo‘ladi. U jamiyat moddiy boyligini o‘sishi uchun ijtimoiy ishlab chiqarish va taqsimotning qanday sharoitlari eng qulay va optimal degan masalaga to‘xtaladi. D.Rikardo yagona iqtisodiy konsepsiya asosida pul muammosi va kredit, xalqaro iqtisodiy munosabatlar, soliq, yer rentasi, xalqaro mehnat taqsimoti to‘g‘risida fundamental fikrlar berdi.

Uning dastlabki «Oltin ajdahosi to‘g‘risida uch xat» (1809-y.) hamda boshqa asarlari pul va pul muammolarini tahlil qilishga bag‘ishlandi.

U Smitning g‘oyalarini qo‘llash bilan birga uni to‘ldirdi va qarshi fikrlarni ham ilgari surdi. U kapitalistlar va ishchilarning manfaatlari bir-birlariga qarama-qarshi ekanligini ochib berdi (Smitda bu manfaatlar bir edi).

18 asr oxiri va 19 asrning boshlarida Angliyada sanoat to‘ntarilishi ro‘y berdi. Oqibatda sanoat tez o‘sdi, ishchilar soni ortdi, shaharlar ko‘paydi, lekin mehnatkashlarning qashshoqlashishi va ekspluatator sinflarning boyishi kuchaydi, ya’ni differensiatsiya yuz berdi. Ish kuni 12-13 soatgacha uzaydi, mehnat sharoiti esa yomonlashdi, ishchilar mashinaning qo‘shimcha qismiga aylandi, xalq ommasi kurashga otlandi, *ludditlar* (mashina sindiruvchilar) harakati kuchaydi, fabrikalarga o‘t qo‘yildi. Ammo sanoat inqilobi davrida proletariat hali yagona, uyushgan sinfga aylanmagan edi. Rikardo sanoat inqilobi davrining iqtisodchisi sifatida maydonga chiqdi va shular tufayli, iqtisodiy ta’limotni yuqoriroq pog‘onaga ko‘tardi (A.Smit esa manufaktura davrining iqtisodchisi edi).

**Qiymat konsepsiyasi.** D.Rikardo o‘z konsepsiyasi asosida qiymat qonunini, ya’ni tovarlarning qiymatini sarflangan mehnat bilan aniqlashni qo‘ydi. Unda u mantiqiy abstraksiya va ilmiy deduksiya usullarini keng qo‘lladi. U tovarning ikki faktori: iste’mol va almashuv qiymatlarini yanada aniqroq o‘rgandi (masalan, nonni yeyish va sotish mumkin). Foydalilik, ya’ni iste’mol qiymati almashuv qiymatining zaruriy sharti, deb ta’kidladi. Tovarning qiymati uni yomon ishlab chiqarish sharoitida tayyorlashga ketgan jonli mehnat sarflari bilan hamda kapital va xomashyoni ishlab chiqarish uchun ketgan oldingi mehnat sarflari bilan o‘lchanadi. D.Rikardo ta’limotiga ko‘ra, tovar qiymatini aniqlashda faqat uni ishlab chiqarishga ketgan mehnat sarflarini emas, balki uning sifatini (malakali va murakkab mehnatga ko‘p haq to‘lanadi), tovarni bozorga olib kelishga ketgan vaqtni, asosiy va aylanma kapitaldan foydalanish xususiyatini ham hisobga olish zarur.

Erkin takror ishlab chiqarilmaydigan tovarlar qiymati esa nafaqat

mehnat sarflariga, balki noyoblikka ham bog‘liq bo‘ladi.

Umuman olganda, D.Rikardo tomonidan ishlab chiqilgan qiymatning mehnat nazariyasi sarfli prinsiplarga asoslangan.

**Renta va ish haqi nazariyalari.** D.Rikardo yer rentasi miqdorini tuproq unumdorligiga va uchastkaning bozorga uzoq-yaqin joylashishiga bog‘liq bo‘ladi, deb fikr yuritgan. Bu qoida keyinchalik differensial renta konsepsiyasi nomini oladi.

Smitning fikricha, ish haqi mehnat unumdorligining natijasi, renta esa – yer unumdorligining natijasidir. Rikkardo ta’limotiga ko‘ra ish haqi - mehnat sarflari natijasi, renta – kamyoblik va yer uchastkalarining har xilligi natijasidir.

D.Rikardo ta’limotiga ko‘ra, mehnatning qiymati ishchining jismoniy jihatdan yashash va o‘z avlodini ko‘paytirish uchun zarur bo‘lgan hayotiy vositalar qiymati bilan aniqlanadi. Demak, real ish haqi doimiy. Nominal ish haqi esa oziq-ovqat mahsulotlari bahosi oshishi sababli ko‘payishi mumkin.

Kapitalistlar erkin raqobat sharoitida ish haqi o‘sishini bahoga ko‘chira olmaydi va foydaning bir qismidan mahrum bo‘lishga majbur. Bu qoida katta ijtimoiy-siyosiy xususiyatga ega, chunki Smit ishchilarning ish haqi oshsa, baholar ham oshadi, degan fikrda bo‘lgan (real daromad o‘zgarmaydi). Ish haqi oshganda baholar o‘zgarmaydi, kapitalistlarning foyda me’yori kamayadi.

**«Asr stagnatsiyasi».** D.Rikardo o‘z ta’limotida quyidagi xulosaga keladi: «jamiyat evolyutsiyasi mehnatga bo‘lgan talabning ko‘payishiga olib keladi – bu esa aholining o‘sishini rag‘batlantiradi. Aholining o‘sishi yomon yer uchastkalarini ishlashga majbur etadi va shu bilan bir vaqtda oziq-ovqat mahsulotlari bahosining oshishini va yer rentasining ko‘payishini keltirib chiqaradi. Shunga ko‘ra dadbirkor yer egasi va yollanma ishchilarning ish haqini oshiradi. Bunda tadbirkorning daromadi kamayadi. Bu esa foyda normasining pasayishiga olib keladi. Foyda normasining pasayib borishi bilan birga investitsiyaga va ishlab chiqarishni kengaytirishga bo‘lgan qiziqish kamayadi. Natijada iqtisodiyot ertami-kechmi o‘z rivojlanishini to‘xtatadi. Bu «asr stagnatsiyasi»dir. D.Rikardo bu jarayonning oldini olishning quyidagi yo‘llarini ko‘rsatib beradi:

1. Tug‘ilishni kamaytirish.

2. Texnika taraqqiyotini tadbiq etish;

3. Xalqaro savdoni rivojlantirish, chet el mamlakatlaridan erkin don olib kelishni joriy etish.

**«Qiyosiy ustunlik nazariyasi».** Xalqaro mehnat taqsimotiga asoslangan holda, u qiyosiy ustunlik nazariyasini yaratdi. Bu nazariyaning asosiy qoidasi shundan iboratki, har bir mamlakat o‘zining muayyan tovarni ishlab chiqarishga ketadigan xarajatlari bilan uni sotib olishga ketadigan xarajatlari o‘rtasidagi farqni hisobga olgan holda tashqi savdodan foyda ko‘radi. Muayyan tovarni ishlab chiqarish bir mamlakat uchun boshqa mamlakatlarga nisbatan qulayroq bo‘lishi mumkin. Qiyosiy ustunlik nazariyasiga ko‘ra mamlakatlar xarajatlarni hisoga olgan holda u yoki bu mahsulotni ishlab chiqarishga ixtisoslashishi kerak. Bunda tabiiy va iqlimiy faktorlar ham katta rol o‘ynaydi. Mazkur siyosat «fritrederlik» bo‘lib (erkin savdo siyosati), «proteksionizm»dan qat’iy farq qiladi.

## Tayanch so‘z va iboralar

A.Smit, «Xalqlar boyligi», mehnat taqsimoti, «ko‘rinmas qo‘l», qiymatning mehnat nazariyasi, D.Rikardo, qiyosiy ustunlik, differensial renta, ishlab chiqarishning uch asosiy omili, foydalilik, iqtisodiy liberalizm, asr stagnatsiyasi, renta.

## Muhokama uchun savollar:

1. A.Smitning «Xalqlar boyligi…» asaridagi bosh g‘oya.
2. A.Smitning iqtisodiy liberalizm konsepsiyasini tushuntiring.
3. Qiymatning ikki konsepsiyasi.
4. D.Rikardoning qiyosiy ustunlik nazariyasini tushuntirib bering.
5. Iqtisodiy ta’limotlarga differensial renta tushunchasining kiritilishi.

# XIII BOB. KLASSIK IQTISODIY MAKTABGA MUQOBIL G‘OYALARNING VUJUDGA KELISHI

## 8.1. J.B.Seyning iqtisodiy ta’limoti. «Bozor qonuni»



Yevropadagi ko‘pchilik rivojlangan mamlakatlarda va AQShda butun XIX asr davomida, ya’ni klassik siyosiy iqtisodning marjinalizm bilan o‘rin almashish davriga qadar, klassik maktab g‘oyalarining va konsepsiyalarining keyingi rivojlanishida A.Smit ta’limoti asos bo‘lib keldi. Shu ma’noda Fransiyada A.Smit g‘oyalarini ancha izchil va ijodiy davom ettirgan Jan Batist Sey (1767-1832) hisoblanadi. U 1767 yil, 5 yanvarda Lionda savdogar oilasida tug‘ildi. Oilaviy tadbirkorlik an’analarni davom ettirish uchun zarur bo‘lgan bilimni olish bilan birga, J.B.Sey o‘z bilimini mustaqil oshirish, ayniqsa, siyosiy iqtisodni o‘rganish bilan shug‘ullandi. Keyinchalik ma’lum bo‘lishicha, u A.Smitning “Odamlar boyligi” asariga asosiy e’tibor qaratgan. Undagi g‘oyalarni ommaviylashtirish, uning fikricha, Fransiya manfaatlariga ham, shuningdek, barcha insoniyat manfaatlariga ham xizmat qiladi. J.B.Sey hayotda har xil mashg‘ulot turlari bilan shug‘ullandi. U savdo kontorasida nazoratchi bo‘lib ishladi, Fransiya armiyasida xizmat qildi, nufuzli jurnal muhariri bo‘ldi, davlat muassasalarida ishladi. Ammo uning hayotidagi asosiy ishi - iqtisodiy bilim sohasidagi tadqiqotidir. U o‘zining «Siyosiy iqtisod traktati» (1803) asarida A.Smit konsepsiyasini tizimlashtirishga, uni keng xalq ommasi uchun tushunarli qilib berishga harakat qildi. Unda J.B.Sey sanoatning yuksalishiga va xalq boyligini ko‘paytirishga to‘sqinlik qiluvchi “man etuvchi tizim”ga qarshi chiqdi.

«Traktatdagi» iqtisodiy liberalizm to‘g‘risidagi g‘oya, xususan, davlatning iqtisodiyotga va xo‘jalik hayotini qayta qurishga aralashmasligi to‘g‘risida g‘oyaning amalga oshirilishi harbiy-sanoat boshqaruvini o‘sha davrdagi Fransiya hukumatidagi real hukmronlikdan mahrum qilgan bo‘lar edi. Napaleon “Traktat” bilan tanishib chiqqach, uning muallifini suhbatga chaqirgan va unga o‘z asarini tubdan qayta ishlashni taklif qilgan. J.B.Sey bu taklifni rad etdi va siyosiy “sahnadan” ketishga majbur bo‘ldi. Ammo tinib-tinchimas J.B.Sey o‘zining xususiy ip yigirish fabrikasini ochdi. Keyinchalik, 1813 yili uni sotib, topgan puliga «Traktat»ni ikkinchi nashrdan chiqarish uchun Parijga qaytib keldi.

Asar 1814 yili chop etiladi, so‘ngra qisqa vaqt ichida yana uch marta 1817, 1819 va 1826 yillarda qayta nashr etildi. Bu asar tez orada juda ko‘p tillarga tarjima qilindi. Fransiyada Napaleon tuzumining yemirilishi bilan vujudga kelgan o‘zgarishlar J.B.Seyning iqtisodchi- olim va jamiyat arbobi sifatidagi nomini oqladi. U ruhlanib, siyosiy iqtisod bo‘yicha o‘z asarlari ustida ishlashni davom ettirdi, ko‘p leksiyalar o‘qidi va ularda iqtisodiy nazariya qoidalarini tizimlashtirish va ommaviylashtirish mahoratini namoyish etdi. J.B.Sey asarlarida iqtisodiy fan sof nazariy va tavsifiy fanga aylandi. U iqtisodiy nazariyadan siyosatning, ideologiyaning va statistikaning ajralib chiqishini ma’qulladi.

**«Sey qonuni»**. J.B.Sey A.Smitning erkin bozor, bahoning erkin shakllanishi, ichki va tashqi savdo, tadbirkorlarning cheklanmagan erkin raqobati va proteksionizmning har qanday ko‘rinishiga yo‘l qo‘ymaslik tamoyillarini qo‘llab-quvvatladi va ularni ko‘klarga ko‘tardi. Agar bu tamoyillar qo‘llanilsa, J.B. Sey bashoratiga ko‘ra, ortiqcha ishlab chiqarish ham, ijtimoiy mahsulotni to‘la iste’mol qilmaslik ham bo‘lmaydi, ya’ni iqtisodiy inqirozlarning obyektiv zarurligi kelib chiqmaydi. U bu g‘oyani rivojlantirib, o‘zining «bozor qonuni»ni yaratdi. U “Sey qonuni” deb ataladi. Bu qonunning mohiyatiga ko‘ra, har qanday ishlab chiqarish daromadlarni keltirib chiqaradi, bu daromadlarga qiymati ularga teng bo‘lgan tovarlar sotib olinadi, yalpi talab esa hamisha yalpi taklifga teng bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, tovarlar taklifi o‘zi uchun shaxsiy talabni yaratadi, ya’ni o‘z tovarini sotib daromad olgan har bir kishi ushbu daromadga mos ravishda talabni keltirib chiqaradi (boshqa tovarlar sotib olinadi).

**Sey qonuni.** Klassik ortodoks iqtisodchilari Lauderdeyl, Sismondi va Maltusning fikrlarini rad etishadi. Ularning vaziyati mahsulot ishlab chiqarish, bozorda tovarni qoniqarli narxlarda olish uchun qoniqarli sotuv qobilyati vujudga keltirilgan protsess ustida baxs olib borgan J.B.Sey, Jeyms Mill va Rikardolar tomonidan eng ta’sirli va tushunarli tarzda rivojlantirilgan. Ular to‘yintirilgan deb ataydigan yoki oxirgi mahsulotni, bozorning ma’lum qismida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan, lekin butun iqtisodiyot uchun umumiy oxirgi ishlab chiqarishga ega bo‘lish imkonsiz ekanligini qo‘llab quvvatlaydi. Pasayishda iqtisodiy faoliyatning umumiy darajasi qisqa vaqt davom etganda bozor avtomatik tarzda resurslaridan to‘liq foydalanish tizimiga qaytgan bo‘lardi. Shunday qilib klassiklar qat’iyat bilan ta’kidladilarki, uzoq foydalanishda xaddan tashqari kapital jamg‘arilishi bo‘lmasdi. Taxminan olganda, ishlab chiqarilgan avtomobil 20,000 dollar sotilsa va biz ishlab chiqarishning har xil faktorlari uchun

xarajatlarni chegirib tashlasak, qoldiq nolga teng bo‘ladi. Bu tajribaga ko‘ra to‘g‘ri, chunki ish xaqlari, ijara to‘lovi yoki daromad sifatida kapital kiritishga qiziqish vujudga keladi.

Hozir ishchilar, yer egalari va kapitalistlar cho‘ntagida sotuv qobiliyatining qiymati 20,000 dollar. Yaxlit iqtisodiyot uchun bir xilda egalik qilish; iqtisodiyot a’zolari tomonidan sotuv qobiliyati sifatida qabul qilingan yillik mahsulot qiymatidir. Bunda muammo bo‘lmasligi mumkin, lekin bozorga mahsulotni doimiy ishlab chiqarish uchun qoniqarli sotuv kuchi vujudga keltiriladi.

Klassiklar ayrim bozorlarda talab va taklif o‘zaro mutanosib bo‘lmasligi mumkinligi va sanoat ishlab chiqarishda ayrim turdagi tovarlarda taklif ortiqchaligi bo‘lishi mumkinligini o‘rgandilar. Sanoatda bunday to‘yinganlik ishda bozor kuchlari, talab yoki taklif tomonlaridan birining namoyishi hisoblanadi. Lekin sanoatning bir tarmog‘ida ortiqchalik boshqa sanoat tarmog‘ining tovari uchun talab ham ortiqcha bo‘lishi kerakligini anglatadi. Narxlar elastikligi va resurslar noturg‘unligi, ishlab chiqarish omillari taklif ortiqchaligi bo‘lgan sanoatni tark etadi va talabning ortiqchaligi bo‘lgan sanoatga oqib o‘tadi. Shunday qilib, resurslardan to‘liq foydalanish ularning uzoq davom etishini kafolatlaydi. Agarda hamma ishlab chiqarilgan tovarlarni bozorga yetkazish uchun yetarli sotuv kuchi vujudga keltirilsa, bozorda bu sotuv kuchidan foydalanilishini nima kafolatlaydi?

Sey qonunida quyidagi oddiy javob keltirilgan: taklif o‘z talabini o‘zi yaratadi. Bunda muammo bo‘lmasligi mumkin, lekin taklif potensial talab yaratadi, biroq potensial talab bozorda haqiqiy talab sifatida qo‘llanilish yoki qo‘llanilmasligini hal qilish kerak. Rikardo, Jeyms Mill va Sey bunga barcha potensial sotuv qobiliyati iste’molchi yoki tovar ishlab chiqaruvchi uchun talab sifatida bozorga qaytarilgan degan oddiy yondashuv bilan murojaat qildilar. Mantiqan olganda ular Smitning investitsiya kiritish qarorini saqlab qolish qarori vaziyatiga qaytdilar. Ular zaxira to‘plash imkoniyatini rad etdilar, ya’ni hech kim oltinni qutida qulflab saqlolmaydi. Ularning tizimida pul faqatgina ayirboshlash vositasi bo‘lgan, shunday qilib ular depressiya yoki turg‘unlikning pulga oid sabablarining ehtimolini rad etganlar. Klassiklar izohiga ko‘ra, Sey qonunining kamchiliklari bor, Maltus hech qachon bu qiyinchiliklarni aniq namoyish etmagan. U qabul qilingan taxminlar o‘z isbotiga muxtoj bo‘lishi nazariyasini rad etishga uringan. U bu nazariya noto‘g‘ri bo‘lgan deb gumon qilgan, lekin u hech qachon bunday tanqid yoki daromadlar miqdori va iqtisodiy o‘sish darajasining hal qiluvchi omillarining muqobil

nazariyasini aniq ifodalab berolmagan[42]. Demak, jamiyat miqyosida taklif va talab muvozanatlashadi, ortiqcha ishlab chiqarish bo‘lmaydi. Ortiqcha ishlab chiqarish faqat ayrim tarmoqlarda boshqa tarmoqlardagi kam ishlab chiqarish hisobiga vujudga keladi. Boshqacha qilib aytganda, ko‘p ishlab chiqarishdan qo‘rqmaslik kerak, faqat ayrim tovarlarning ortiqcha ishlab chiqarilish xavfi tug‘ilishi mumkin. «Sey qonuni» nomini olgan bu qoida klassiklarning makroiqtisodiy nazariyasining asosini tashkil etdi va keyinchalik J.M.Keyns tomonidan inkor etildi. J.M. Keynsning tasdiqlashicha, odamlar daromadlarning barchasini iste’molga sarflamaydilar, balki ularning bir qismini jamg‘arib boradilar. Bu esa shunga muvofiq ravishda yalpi talabni kamaytiradi, ish bilan bandlikni qisqartiradi. Pirovard natijada bunday holat Sey qonunining noto‘g‘ri ekanligini keltirib chiqaradi. Chunki bu qonunga muvofiq iste’molga sarflanishi kerak bo‘lgan daromadning bir qismi jamg‘armaga ajratiladi. Demak, yalpi taklif bilan u keltirib chiqaradigan yalpi talab o‘rtasidagi muvozanat buziladi. Ammo «Sey qonuni»ning muhim tomoni shundan iboratki, iqtisodiy liberalizmning barcha prinsiplariga jamiyat tomonidan rioya qilinsa, ishlab chiqarish (taklif) o‘ziga mos ravishda iste’molni (talabni) keltirib chiqaradi, ya’ni tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish A.Smitning «tabiiy tartib» (pulning passiv roliga asoslangan mehnat natijalarini ayirboshlash) sharoitida, albatta, shunday daromadlarni keltirib chiqaradiki, ularga bu tovar va xizmatlar erkin amalga oshiriladi. Iqtisodiy liberalizm konsepsiyasining barcha tarafdorlari tomonidan «Sey qonuni» shu ko‘rinishda qabul qilingan va bozorda bahoning erkin tashkil topishi xo‘jalik kon’yunkturasidagi o‘zgarishga darhol moslasha oladi, iqtisodiyotning o‘zini-o‘zi tartibga solib turishini kafolatlaydi, deb hisoblagan. Haqiqatdan ham, agar pul faqat hisob-kitob birligi hisoblangan barterli iqtisodiyot amal qiladi desak, unda taklif miqdori talab miqdoriga teng bo‘ladi, ortiqcha ishlab chiqarish bo‘lmaydi. Bu Sey qonunining mohiyatini tashkil etadi.

**Qiymat va ishlab chiqarish omillari nazariyalari**. Klassik iqtisodiy maktab vakillari ichida J.B.Seyning qiymat nazariyasi o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. A.Smit, D.Rikardo, ijtimoiy, utopistlar, S.Sismondi, K.Marks va boshqa bir qator iqtisodchilar tovar qiymatining yagona manbai mehnat deb hisoblaganlar. J.B.Seyda bu muammoga ikki xil yondashuv mavjud: u bir joyda, tovar qiymati kapitalga, ish haqiga va yer rentasiga bo‘lgan xarajatlaridan tashkil topadi degan bo‘lsa, ikkinchi bir joyda, qiymat foydalilik bilan aniqlanadi deydi. J.B.Sey foydalilik bilan

[42] “History of economic thought”. Harry Landreth, David C. Colander, 2004.

buyumning (tovarning) qimmati o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniq qilib ko‘rsatib berdi. «Foydalilik - bu qimmat o‘lchovidir», - deb yozadi J.B.Sey. Bu bilan u tovar qiymati nafaqat mehnat sarflari bilan, balki mahsulotning foydalilik darajasi bilan ham o‘lchanishi mumkinligini aytib berdi. Lekin bu xususida iqtisodiy ta’limotlar tarixi bo‘yicha yirik mutaxassis M.Blaugning yozishicha, «talabning to‘yinish darajasini izohlab berishda foydalilikning pasayib borishi tushunchasi ishlatilmagan foydalilikka asoslangan qimmat konsepsiyasini bahoning shakllanish nazariyasi hisoblash noo‘rin». J.B.Sey tovar qiymatining yaratilishida ishlab chiqarishning uch omiliga (mehnat, kapital, yer) alohida e’tibor bergan. Uning tasdiqlashicha, bu omillar tovar qiymatini yaratishda bir xil ishtirok etadi, barcha mahsulotning umumiy qiymati esa uch sinf - ishchilar, kapitalistlar va yer egalari daromadlaridan tashkil topadi. J.B.Seyning uch omil nazariyasiga muvofiq «mehnat» omili ishchilarning daromadi sifatida ish haqi yaratadi, «kapital» omili kapitalistlarning daromadi sifatida foyda yaratadi, «yer» omili yer egalarining daromadi sifatida renta yaratadi. Demak, boylik yaratishda ishlab chiqarishning har bir omili qatnashadi. (Smitda faqat unumli mehnat boylik yaratadi deyiladi). J.B.Sey yuqorida ko‘rsatilgan omillar (mehnat, kapital, yer) ishchilar, kapitalistlar va yer egalarining daromadlarini yaratishda mustaqillikka ega ekanligini qayd qilib o‘tadi.

Demak, J.B.Sey nazariyasida tadbirkorlarning cheklanmagan erkin raqobati sharoitida ishlab chiqarish omillarini va jamiyatdagi sinflarni ekspluatatsiya qilish inkor etiladi. Uningcha, ishlab chiqarishda tadbirkorlar (ular ishlab chiqarishni tashkil etadilar va boshqaradilar), yer egalari (tovar ishlab chiqarish uchun tabiiy materiallarni beradilar) va ishchilar (tayyor mahsulot yaratadilar) o‘zaro ta’sirda bo‘ladilar va bir-birlarini to‘ldirib boradilar. Ishlab chiqarish jarayoni qatnashchilari bir-birlariga qarshi turmaydilar, aksincha, bir-birlarini to‘ldirib turadilar. Ishlab chiqarish omillari tomonidan yaratilgan ijtimoiy mahsulot qiymati ushbu omil egalariga daromad sifatida taqsimlanadi, xususan, tadbirkor daromadi, J.B.Seyning aniqlab berishicha, bu uning qobiliyati, iste’dodi, faoliyati va boshqaruvi uchun to‘lanadigan haq.

Uning fikricha, kapitalning oshib borishi bilan «quyi sinflarning» ahvoli yaxshilanib boradi va ularning ko‘pchiligi «yuqori sinf» safini to‘ldirib boradi. J.B.Sey kompensatsiya nazariyasiga asos soldi. Mashinalar dastlab ishchilarni ishlab chiqarishdan siqib chiqaradi, keyinchalik pirovard natijada esa ish bilan bandlikni oshiradi va mahsulot ishlab chiqarishni arzonlashtirish hisobiga ularga katta foyda keltiradi.

Uning ifoda etishicha, «ishlab chiqarishdagi texnik yangiliklardan boshqalarga nisbatan ishchilar sinfi ko‘proq manfaatdor».

Umuman, iqtisodiy ta’limotlar tarixida J.B.Seyning nomi bozor iqtisodiyoti sharoitida sinflar manfaati uyg‘unligiga cheksiz ishongan olim sifatida tilga olinadi. J.B.Seyning o‘tmishdoshlari «haqiqiy» boylik yaratadigan iqtisodiyot tarmoqlarini (merkantilistlar tashqi savdoni, fiziokratlar qishloq xo‘jaligini) ajratib ko‘rsatib berishga harakat qilgan. Hatto A.Smit xizmat ko‘rsatish sohasidagi mehnatni unumsiz mehnat, sanoat va savdodagi mehnatni esa kam unumli mehnat, qishloq xo‘jaligidagi mehnatni yuqori unumli mehnat hisoblangan, negaki unga tabiat «yordam» beradi. J.B.Sey iqtisodiyotning asosiy sohalari - sanoat, qishloq xo‘jaligi, savdo va xizmat ko‘rsatish o‘rtasidagi «tenglikni» ko‘rsatib berdi. Uning fikriga ko‘ra, to‘rtta sohaning barchasida boylik yaratiladi, chunki sanoatda ham, qishloq xo‘jaligida ham, savdoda ham, xizmat ko‘rsatishda ham foydalilik ishlab chiqariladi. Hozirgi zamon g‘arb iqtisodchilari o‘tmishdoshlaridan, birinchi navbatda J.B.Seydan, ishlab chiqarishning har xil, teng huquqli omillari milliy daromad yaratadi, degan tushunchani meros qilib olgan. Bunday yondashuvning ma’nosi shundan iboratki, har bir daromad oluvchi kasbi va faoliyat sohasidan qat’iy nazar bir vaqtning o‘zida uni yaratuvchi hisoblanadi.

## 8.2. T.Maltusning iqtisodiy ta’limoti. «Nufus qonuni»



**Ingliz iqtisodchisi Tomas Robert Maltus** (1766-1834) dvoryan oilasida tug‘ilgan. Uning asosiy asarlari « Aholi nufusi qonuni to‘g‘risidagi tajriba» (1798), «Yer rentasining tabiati va o‘sishi to‘g‘risida tadqiqot» (1815), «Siyosiy iqtisod prinsiplari» (1820) hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti – ishlab chiqarish sohasini rivojlantirish yo‘li bilan jamiyatning moddiy boyligini yanada ko‘paytirish masalasi qaraladi. Shu bilan birga, birinchi marta iqtisodiy o‘sish muammosini aholining o‘sishi bilan bog‘lashga harakat qilingan.

**«Aholi nufusi qonuni».** Muallifning xulosa qilishicha, aholi o‘sishi, agar u ongli sur’atda cheklanmasa, unda kambag‘allik, urushlar, kasalliklar va boshqa halokatli sabablar bilan to‘xtatib turiladi. T.Maltus aholining tez o‘sish sur’atini pasaytirish maqsadida, kambag‘allarning

nikohdan o‘zlarini tiyishlarini, kech turmush qurishlarini taklif qiladi. Lekin uning o‘zi ham o‘z tavsiyalarining to‘g‘riligiga unchalik ishonmagan.

T.Maltus o‘z nazairyasini asoslab berishda tuproq unumdorligining pasayishi konsepsiyasidan foydalangan. Agar bitta yer uchastkasining o‘ziga ustma-ust mehnat sarflansa, u xuddi shunday nisbatda hosildorlikning o‘sishiga olib kelmaydi, chunki hosildorlik faqat mehnatga emas, balki tuproqning tabiiy unumdorligiga ham bog‘liq bo‘ladi. U berishi mumkin bo‘lgan narsadan ortiqchasini undan olib bo‘lmaydi. Hisoblab chiqqach, T.Maltus xulosa qiladi: insoniyat qancha harakat qilmasin, qishloq xo‘jaligidan u oladigan oziq-ovqat mahsulotlari miqdori faqat arifmetik progressiyada o‘sishi, aholining soni esa geometrik progressiyada o‘sishi mumkin.

T.Maltus hisobidan shu narsa kelib chiqadi: agar yer kurrasi aholisi sonining o‘sishi cheklanmaydigan bo‘lsa, u chog‘da odamlar dahshatli ocharchilikka duch keladilar.

**T.R.Maltus «Nufus qonuni»ning matematik ifodasi**

| | | |
|---|---|---|
| Aholining o‘sishi | Geometrik progressiya | 1,2,4,8,16,32,64,128… (2 barobar ko‘p bo‘ladi) |
| Tirikchilik vositalarining o‘sishi | Arifmetik progressiya | 1,2,3,4,5,6,7,8,9,10,… (absolyut miqdorga oshib boradi) |
| 200 yildan so‘ng | Aholining o‘sishi 256 marta | Tirikchilik vositalari 9 marta |
| 300 yildan so‘ng | Aholining o‘sishi 9096 marta | Tirikchilik vositalari 13 marta |

Bu nazariya barcha iqtisodiy ta’limotlar ichida eng qayg‘uli, eng ma’yuslisi hisoblanadi. Maltus «doktrinasi» avvalo, uslubiy jihatdan xato edi, chunki insonlar o‘simlik va hayvonot dunyosidan farqli o‘laroq faqat iste’mol qilmaydilar, balki o‘zlari ishlab chiqaradilar va tirikchilik vositasini ko‘paytirish imkoniyatlariga egadirlar. Qolaversa, ingliz olimi o‘lim darajasiga e’tibor bermagan (o‘lim darajasi bilan aholining ko‘payish darajasi nisbatan bir xil) va jamiyat farovonligining o‘sishi tug‘ilishning kamayishiga olib kelishini ham hisobga olmagan. Chunki tug‘ilishning kamayishiga ta’sir etuvchi sabab urbanizatsiya – ya’ni jamiyatning rivojlanishida shaharning ahamiyati oshib borishi hisoblanadi. Shahar hayot tarzi ko‘p bolali oilalarning ko‘payishini keltirib chiqarmaydi. Agar qishloqda bola yoshligidan yordamchi hisoblansa, shaharda esa o‘z tarbiyasi uchun katta mablag‘ va vaqt

sarflashni talab qiluvchi iste’molchi hisoblanadi.

Biroq, Maltus g‘oyalarida bir qancha ijobiy fikrlar ham mavjud. XXI asr boshida sayyoramizda 6 mlrddan ortiq aholi istiqomat qilmoqda (1945 yilda aholi soni 2,5 mlrd edi) va bu ko‘rsatkich tobora ortib bormoqda. Eng muhim va ayanchli tomoni shundaki, kam rivojlangan va qoloq davlatlarda bu o‘sish tez bo‘lib, aholining 75% i shu davlatlarga to‘g‘ri keladi. BMT ma’lumotiga ko‘ra hozir dunyoda 1 mlrd 400 ming kishi kambag‘al. Kam rivojlangan mamlakatlar turmush darajasini «jahon andozasi»ga «ko‘tarish» uchun resurslardan foydalanishni 50 baravar ko‘paytirishga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun demografiya muammosi hozirda ham nihoyatda dolzarbdir. Bugungi kunda bu muammoni hal qilish maqsadida hatto oilani rejalashtirish chora-tadbirlari taklif qilinmoqda.

## 8.3. J.S.Millning iqtisodiy ta’limoti



Ingliz Jon Styuart Mill (1806-1873) klassik maktabning so‘nggi namoyondalaridan biri deb qaraladi. Tadqiqot predmetida D.Rikardo g‘oyalariga yaqin turadi va birinchi o‘ringa «ishlab chiqarish qonunlari»ni qo‘yadi.

J.S.Mill o‘zining birinchi asari – «Tajriba»ni 23 yoshida (1829) nashr ettirdi. 1843 yili unga shuhrat keltirgan «Mantiq tizimi» nomli falsafiy asari vujudga keldi. Asosiy asari beshta kitobdan iborat «Siyosiy iqtisod asoslari» bo‘lib, u 1848 yili chop etilgan. J.S.Mill bu asarida klassik maktabning juda ko‘p konsepsiyalarini rivojlantirdi va umumlashtirdi.

J.S.Mill siyosiy iqtisodni iqtisodiy qonunlar to‘g‘risidagi fan sifatida tadqiq etadi. U raqobat qonunini, talab va taklif qonunini, differensial renta qonunini, xalqaro savdo qonunini va boshqa bir qator qonunlarni ajratib ko‘rsatib berdi.

**Qiymat, baho va pul nazariyalari.** J.S.Mill fikri bo‘yicha, boylik almashuv qiymatiga ega bo‘lgan ne’matlardan tashkil topadi. «Evaziga hech nima olib bo‘lmaydigan narsa, u qanchalik foydali yoki zarur bo‘lmasin, boylik hisoblanmaydi. Masalan, havo inson uchun mutlaq zarur hisoblansada, bozorda hech qanday narxga ega emas, negaki uni tekinga olish mumkin». Tovar qiymatining puldagi ifodasi uning bahosi hisoblanadi.

Pulning qiymati unga sotib olinishi mumkin bo‘lgan tovarlar miqdori bilan o‘lchanadi. Pulning qiymati pul miqdoriga teskari mutanosiblikda o‘zgaradi, ya’ni pulning har qanday kamayishi esa xuddi shunday proporsiyada uning qadrini oshiradi, bu – pulning maxsus xususiyati.

Baho bevosita raqobat asosida o‘rnatiladi. Raqobat esa xaridor arzon olishga, sotuvchi esa qimmat sotishga intilishi sababli kelib chiqadi. Erkin raqobatda bozor bahosi talab va taklif darajasiga qarab o‘rnatiladi. **Kapital va foyda.** J.S.Mill jamg‘arish natijasida vujudga keladigan mehnat mahsulotlari zaxirasini kapital deb atagan. Kapitalning har bir ko‘payishi ishlab chiqarishning kengayishiga olib keladi (investitsiya) va buning natijasida ish bilan bandlik doirasini kengaytirish imkoniyatini beradi.

Foydaning vujudga kelish sababini J.S.Mill xuddi A.Smit va D.Rikardoga o‘xshab tushuntiradi: «Foyda – mehnatning unumdorlik kuchi natijasida vujudga keladi… Agar mamlakatdagi barcha mehnatkashlar tomonidan yaratilgan mahsulot, ish haqi ko‘rinishida 20% ko‘p bo‘lsa, unda foyda 20% tashkil etadi».

**Pul, kredit va savdo nazariyalari.** J.S.Mill pulning miqdoriy nazariyasi tarafdori ekanligini ko‘rsatadi. Pul miqdorining ko‘payishi yoki kamayishi tovarlar bahosining nisbiy o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatadi. Ammo, agar pul zaxirada saqlanayotgan bo‘lsa yoki uning miqdorining ko‘payishi oldi-sotdi miqdorining ko‘payishiga muvofiq kelsa, pul miqdorining ko‘payishi bahoning oshishiga olib kelmaydi.

Foiz normasi ssuda fondiga bo‘lgan talab va uning taklifi bilan aniqlanadi.

Millning ko‘rsatib berishicha, mamlakatga oltinning kirib kelishi, agar u baho oshishiga olib kelsada, foiz normasini pasaytiradi. Foiz normasining pasayishi qisqa muddatli kapitallarni chet mamlakatlarga oqib o‘tishiga, bu esa valyuta kursining tenglashishiga olib keladi. Markaziy bank foiz normasini oshirib, bank zaxiralarini himoya qiladi. Foiz normasining o‘sishi xorijiy kapitallarning kirib kelishiga va valyuta kursining tenglashuviga olib keladi, deb hisoblaydi.

J.S.Mill shunday yozadi: «Kredit mamlakatning ishlab chiqarish resurslarini ko‘paytirmaydi, lekin kredit tufayli ular ishalab chiqarish faoliyatida ancha to‘liq ishlatiladi». Bunda oltinning kirib kelishi kreditning ko‘payishiga ta’sir ko‘rsatadi. Kredit to‘lovga qobil talabni kengaytirgach, savdoda tovarlar narxining o‘sishiga va savdogarlarning foyda olish maqsadida tovarlar xaridini kuchaytiradi, bu esa ssuda miqdorini ko‘paytiradi va baholarni oshiradi. Bir oz vaqt o‘tgach

baholarning o‘sishi to‘xtaydi. Savdogarlar sotishga kirishadi. Narxlar pasaya boshlaydi. Savdogarlar zararni qoplash maqsadida bozorga shoshadilar, narxlar o‘sganiga qaraganda tez pasayadi, natijada savdo inqirozi kelib chiqadi.

Erkin savdo munosabatlarini qo‘llash bilan birga, ayrim sohalarda (infratuzilma, fan, qonunlarni ishlab chiqish va b.) davlat aralashuvi kerak deb hisoblanadi. Mill ayniqsa, ta’lim sifatiga alohida e’tibor qiladi, xususiy maktablar tarafdori bo‘lib, yomon o‘qiganlar uchun jarima berilishini taklif etadi[43].

**Iqtisodiy taraqqiyot va ijtimoiy masalalar.** Iqtisodiy taraqqiyot, J.S.Mill ta’limotiga ko‘ra, fan-texnika taraqqiyoti, shaxsning va mulkning rivojlanishi bilan bog‘liq. Ishlab chiqarish va jamg‘arish ko‘payadi, soliqlar ancha erkinlashadi, ko‘pchilik kishilarning ishbilarmonligi oshadi, koperatsiya takomillashib va rivojlanib boradi. Bularning barchasi samaradorlikning o‘sishiga, ya’ni ishlab chiqarish xarajatlarining kamayishiga va qiymatning pasayishiga olib keladi (oziq- ovqat qiymatidan tashqari).

Millning ijtimoiy islohoti uch pozitsiyani o‘z ichiga oladi:

– Ishlab chiqarish koperatsiyasini rivojlantirish yo‘li bilan yollanma mehnatni tugatish. Yollanish, J.S.Mill fikricha, mehnatga bo‘lgan qiziqishni yo‘qotadi. Shuning uchun kapitalistik korxonalar o‘rniga koperativ birlashmalarni tashkil etish zarur, unda ishchilar bir vaqtning o‘zida mulk egasi ham hisoblanadi.

– Yer rentasini yer solig‘i yordamida umumlashtirish. Renta iqtisodiy erkinlik prinsiplariga zid. Renta yer egasiga emas, balki jamoaga yoki barcha jamiyatga tegishli bo‘lishi kerak.

– J.S.Mill mayda yer egalarini qo‘llab-quvvatlaydi.

– Merosxo‘rlik qonunini cheklash yordamida boylikning tengsizligini cheklash.

## 8.4.Mayda ishlab chiqarish nazariyalari vujudga kelishining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari

XVIII asr oxiri va XIX asr boshlaridagi sanoat to‘ntarishi katta iqtisodiy-ijtimoiy o‘zgarishlarga olib keldi. Proletariat bilan burjuaziya jamiyatning asosiy sinflari bo‘lib, qaror topdi. Mashina ishlab chiqarishi vujudga keldi, ijtimoiy ziddiyatlar keskinlashdi. Mehnatning kapitalga rasman bo‘ysunishi haqiqatga aylandi. Proletariatning qashshoqlashuvi,

[43] Islomov A. va boshq. “Iqtisodiy ta’limotlar tarixi”. O‘quv qo‘llanma. T., O‘zbekiston, 2003. - 106 bet.

ishsizlik, ijtimoiy ishlab chiqarishning tartibsizligi,ijtimoiy tabaqalanish kuchaydi. Kapitalistik takror ishlab chiqarish asta-sekin mayda ishlab chiqarishning ijtimoiy negizlarini qo‘pora boshladi. Mashina industriyasi iqtisodiyotning umuman o‘sishiga, ammo aholi katta qismining qashshoqlashuviga olib keldi, byudjet holatni tushuntirib berish talab etildi va yangi iqtisodiy qarashlar paydo bo‘ldi.

Kapitalistik rivojlanishdan orqada qolgan va mayda tovar ishlab chiqarish ustun bo‘lgan sharoitda sanoat to‘ntarishi davriga kirayotgan mamlakatlarda bu jarayonlar, ayniqsa, o‘tkir tus oldi. Bunday mamlakatlarda go‘yoki proletariat manfaatlarini himoya qilib kapitalizmni tanqid qiluvchi qarashlar paydo bo‘lishi tabiiy bir xol edi. Mayda ishlab chiqaruvchi nazariyasini yaratgan olimlar sotsialistlarga ham shuningdek, klassik iqtisodiy maktabga ham bab-baravar qarshi turuvchi ta’limotni ilgari surishga intildilar. Mayda ishlab chiqarish nazariyotchilari kapitalistik jamiyatda yirik sanoat mayda tovar ishlab chiqarishni siqib chiqarishini, yollanma qullikni kengaytirish bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘pgina belgilarni tanqid qildilar, biroq xususiy mulkchilikni, sohibkorlikning erkinligini va shu kabilarni tanqiddan tashqari qoldirdilar (ya’ni bozor munosabatlari qo‘llab-quvvatlangan).

Mayda burjuaziyaning ijtimoiy-iqtisodiy mavqei mayda ishlab chiqarish, siyosiy iqtisodning ziddiyatligi va noizchilligini oldindan belgilab qo‘ygan edi, uning rivoji bir necha bosqichni o‘z ichiga oladi. Avvalo insonparvarlik, so‘ngra esa xayr-ehson maktabi shakllandi. Agar birinchi maktab hali kapitalizmdan voz kechishni orzu qilgan, uni chetlab qo‘yishga intilgan, proletariatning kulfatlari xususida astoydil kuyungan bo‘lsa, ikkinchi maktab kapitalizmni isloh qilish loyihasini ilgari surib, hammani o‘rta hollarga aylantirmoqchi bo‘lgan, u «kichik kapitalizm» tarafdori edi.

## 8.5. N.V.Senior, F.Bastia, G.Keri va boshqalarning iqtisodiy ta’limotlari

Klassik maktab g‘oyalarini boyitishga Angliyada N.Senior, Fransiyada F.Bastia, AQShda G.Keri, Germaniyada tarixiy maktab namoyondalari katta hissa qo‘shdilar. Bular ichida N.Senior alohida o‘rin egallaydi.

Nassau Vilyam Senior (1790-1864) Londondagi mashhur Oksford universitetining siyosiy iqtisod kafedrasi professori, «tiyilish» va «so‘nggi soat» nazariyalarining muallifi sifatida mashhur bo‘ldi.

Asosiy g‘oyalari «Siyosiy iqtisod fani ocherklari» (1836) va «Fabrika

qonunchiligi to‘g‘risidagi xatlar»da bayon etilgan.

**Qiymat nazariyasi.** U o‘zining qiymat nazariyasida, qiymatni baho bilan bir narsa deb hisoblaydi va qiymat talab bilan taklifga bog‘liq, deydi. U mehnat (ishchilarning «qurboni») bilan bir qatorda kapitalistning «tiyilishi»ni ham qiymatning manbai deb e’lon qiladi.

**«Tiyilish» nazariyasi.** N.Senior kapitalni kapitalistning berayotgan «qurboni» deb hisobladi. Uning ta’kidlashicha, kapitalist o‘z kapitalini ishlab chiqarish sohasiga qo‘yib (investitsiya), o‘zining shaxsiy iste’molidan go‘yo ma’lum davr «tiyilib» turadi, mehnat esa o‘z navbatida ishchining dam olish va tinchlik evaziga qilgan «qurboni» deb ta’kidlaydi. Shuning uchun ish haqi va foyda kapitalist va ishchi bergan tegishli «qurbonlar» uchun bab-baravar mukofot *emish*. N.Seniorning fikricha, foyda kapitalistning «mehnati»dan, foiz esa uning sabr-qanoatidan hosil bo‘lishini kashf qildi.

**So‘nggi soat nazariyasi.** Sanoatning tez sur’atlarda rivojlanishiga qaramasdan, ishchilarning ish soatlari nihoyatda yuqori bo‘lib, shu sababli XIX asrning 30-yillarida Angliyada 10 soatlik ish kuni uchun kurash kuchayib ketdi. N.Senior esa o‘sha davrda mavjud bo‘lgan 11,5 soatlik ish kunini qisqartirishning «ilojsizligini», ish kunining 10,5 soatida sarflangan kapitalning qiymati yangidan vujudga keladi, faqat oxirgi bir soatidagina foyda yaratiladi, deb uqtirdi. Shu sababli, ish kunini 10 soatgacha qisqartirish foydaning kamayishiga, bu esa ishlab chiqarishga qiziqishning yo‘q bo‘lishiga sabab bo‘ladi, deb targ‘ibot qiladi. Bu g‘oyalari bilan u kapitalistlarni ochiqdan-ochiq himoya qiladi. XIX asrning 40-50-yillarida fransuz va xalqaro ishbilarmonlar orasida F.Bastianing (1801-1850) iqtisodiy qarashlari keng ommalashdi. U boy fransuz ishbilarmoni oilasida tug‘ildi. Bastia erkin savdo foydasiga proteksionizmni inkoretuvchi, vino ishlab chiqaruvchi manfaatini himoya qiluvchi, sotsialistik g‘oyalarga qarshi bo‘lgan qarashlarni faol targ‘ib etdi. F.Bastianing eng asosiy g‘oyasi – jamiyatdagi ijtimoiy antagonizmning mavjudligini inkor etishdir. Uningcha, o‘sha davrdagi jamiyat dunyodagi *«eng go‘zal, mukammal, mustahkam butunjahon assotsiatsiyalaridandir. Barcha qonuniy manfaatlar uyg‘unlashgandir».*

**Iqtisodiy garmoniya.** F.Bastia 1850 yilda «Iqtisodiy garmoniyalar» kitobini chop etdi. Unda u garmoniya (uyg‘unlik)ning asosini raqobatda deb hisoblaydi. F.Bastia o‘z g‘oyasini isbotlashda Seyning fikridan foydalangan bo‘lib, xizmatlar nazariyasi bunga mos keladi, ya’ni almashuv, xarid-savdo o‘zaro teng «xizmatlar»ni almashish demakdir. Bastia jamiyat hayotining qanday sohasida bo‘lmasin, faqat shaxsiy

xizmatlarni ustun qo‘yadi. U «Xizmat» deganda ishlab chiqarishda qatnashadigan va foyda keltiradigan barcha narsalarni nazarda tutadi. Bundan shu *narsa* aniq bo‘lib qoladiki, qiymat yaratishda ishlab chiqarishga faqat ishchilar emas, balki kapitalist va yer egalari ham katta «xizmat» ko‘rsatadilar. Kapitalistning «xizmati» unga foiz olish imkoniyatini beradi, chunki ma’lum iste’molidan voz kechadi va bu kapitalistning «qurboni» deb hisoblaydi. Bu Seniorning tiyilish nazariyasining o‘zidir. «Tiyilish» so‘zi o‘rniga «orqaga surish» so‘zi qo‘yilgan, xolos.

Mehnat va kapital o‘rtasidagi uyg‘unlik, ya’ni garmoniyani yanada to‘laroq isbotlash maqsadida, Bastia o‘zining kapital jamg‘arilishi «qonuni»ni yaratdi va unda Rikardoning foyda va ish haqining bir-biriga qarama-qarshi ekanligi to‘g‘risidagi ta’limotini inkor etishga harakat qildi. F.Bastianing bu «qonuni»ga ko‘ra, mehnat va kapital manfaatlari oliy darajada hamohangdir. Oqibatda, kapitalistning foydasi va ishchining maoshi bir vaqtda va bir miqdorda oshib boradi, hatto ishchilarning hissasi kapitalistlarnikidan tezroq o‘sadi, deb hisoblaydi. F.Bastia o‘zining bu nazariyasi yordamida kapitalistlar va yer egalari o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarni hal etadi. U yer rentasini yer egasining yoki uning ota-bobolarining shu yerni ishlash va yaxshilash xizmati uchun berilgan mukofot deb hisoblaydi. Shunday qilib, kapital va yer egaligi o‘rtasidagi uyg‘unlik shu bilan hal etiladiki, yer rentasi yerga qo‘yilgan kapital foizining bir ko‘rinishiga aylantiriladi. U renta va foydani bir narsa deb hisoblaydi.

Demak, Bastianing izohi bo‘yicha, o‘sha davrdagi burjua jamiyati turli sinflar o‘rtasidagi o‘z xizmatlari bilan almashib turuvchi «uyg‘unlashgan hamkorlik» jamiyati tarzida namoyon bo‘ladi. Iqtisodiy erkinlik-bu xizmatlar almashuvi ekvivalentligining garovi hisoblanadi, chunki bu erkinlik nomutanosib harakatlarning oldini oladi.

1775-1785 yillardagi mustaqillik uchun Shimoliy Amerika va Angliya o‘rtasidagi kurashda qozonilgan g‘alaba tufayli AQSH davlati vujudga keldi. Hokimiyat tepasiga yangi sinf – burjuaziya o‘tirdi. AQSH burjuaziyasi ingliz burjuaziyasidan anchagina farq qilar edi. AQShdagi hukmron sinf 1865 yilgacha qullikni saqlab qoldi va ingliz siyosiy iqtisodiga zid ravishda o‘z siyosiy iqtisodini yaratishga tayyor edi. Biroq AQShda siyosiy iqtisod klassik asosda vujudga kelmadi. Buning sababi shuki, XIX asrning 20-30 yillarida AQShda kapitalizmning nisbatan tez rivojlanishi ishchilar harakatining vujudga kelishiga va AQShda yuzaga kela boshlagan iqtisodiy fikr klassik maktabga qarshi chiqdi. Bu g‘oyalar



Genri Charlz Keri (1793-1879) tadqiqotlarida o‘z aksini topdi.

Yirik noshirning o‘g‘li bo‘lgan G.Keri kommersiya sohasida katta yutuqlarga erishdi. Boyib olgach, yirik fabrikantga aylandi va iqtisodiy tadqiqotlarga kirishdi. U bir qancha iqtisodiy asarlar muallifi edi. 1837- 1840 yillarda uning «Siyosiy iqtisod prinsiplari» va 1857-1859 yillarda «Ijtimoiy fanlarning asoslari» nomli asarlari chop etildi. G.Ch.Keri ingliz siyosiy iqtisodiga keskin qarshi chiqib, AQSH kapitalizmini madh etdi. Uning asosiy asari «Manfaatlar uyg‘unligi» (1872) kitobidir. G.Kerining qarashlari Angliyaga qarshi ruhda edi. U Rikardoning ta’limoti va Maltus aqidalarini rad qildi.

G.Kerining metodologiyasi obyektiv iqtisodiy qonunlarni tabiat qonunlariga almashtirish bilan tavsiflanadi.

G.Keri hamma iqtisodiy toifalarni ta’riflab berishga intildi. U qiymatni insonning tabiatga hukmronligi o‘lchovi, deb ta’rif berdi. U narxni predmetning o‘zini ayirboshlash evaziga pul olish qobiliyati, deb hisobladi. Kapital odamlarning tabiat kuchlarini boshqarish imkoniyatini olishlarida yordam beradigan buyum yoki qurol deb tushundi. G.Keri D.Rikardoning yer rentasi nazariyasini tanqid qilib, uni kapitalistlar va ishchilar o‘rtasidagi ziddiyat tarafdori deb hisobladi.

G.Kerining o‘zi esa rentani yer egalarining mehnati uchun mukofot deb hisoblab, uni foiz bilan aynan bir narsa deb tushundi. Keri burjua jamiyatini eng mukammal jamiyat deb isbotlamoqchi bo‘ldi. U taqsimot qonunini o‘z nazariyasiga asos qilib oldi. G.Keri proletariat bilan burjuaziya manfaatlarining bir xil, go‘yoki kapitalistik jamiyatda mehnat unumdorligi oshishi bilan ish haqi ham oshib boraveradi, shuning natijasida ishchi bilan kapitalistning iqtisodiy ahvolidagi tafovut asta-sekin kamayadi degan qoida bilan asoslamoqchi bo‘ldi.

G.Keri kapitalistik jamiyatda ishchilar sinfi farovonligining oshib borishi texnika taraqqiyoti bilan bog‘liq deb hisobladi.

Keri qullikni qo‘lladi (bu davrda AQShning janubida hali qul plantatsiyalari mavjud edi). Proteksionizm siyosati ham himoya qilindi, chunki AQSH hali yosh davlat sifatida sanoati pastligi tufayli unga muhtoj edi, chunki Angliya sanoati bilan ochiq raqobatda yengishi qiyin bo‘lgan. Shular tufayli Smit va Rikardolarning fritrederlik (erkin savdo) siyosati to‘g‘ri kelmay qoldi.

Mehnat unumdorligining o‘sishi ishchilarning tirikchilik vositalari qiymati pasayishi bilan bog‘liq, bunda ishchi kuchi qiymati ham pasayadi, kapitalistning milliy daromaddagi hissasi esa oshib boradi. Keri kapitalist va yer egasi «manfaatlari uyg‘unligi»ni isbotlab berishga intiladi. Bunda ham u Rikardoga qarshi chiqadi, ayniqsa, unundorligi past yerlarni ishga tushirishga monelik bildiradi. Keri Bastia kabi rentani aslida kapitalga foiz shakli sifatida qaraydi, dehqonchilik xususiyatlarini inkor etadi.

Keri «millatlar uyg‘unligi» haqida ham gapirib, Buyuk Britaniyaning sanoat va mustamlakachilik monopoliyasiga qat’iy qarshi chiqadi, boshqa davlatlarni agrar xomashyo manbaiga aylantirish siyosatini inkor qiladi va shu maqsadda proteksionizmni keng qo‘llash kerak, deydi.

## 8.6. S.Sismondining iqtisodiy qarashlari va uning nazariyasi



Simond de Sismondi (1773-1842) shvedsariyalik iqtisodchi, fransuz klassik iqtisodiy maktabini nihoyasiga yetkazuvchi va ayni vaqtda mayda ishlab chiqaruvchi iqtisodiy maktabi asoschilaridan biridir. Siyosat bilan unchalik ko‘p vaqt shug‘ullanmadi, Fransiya ma’naviy va siyosiy fanlar akademiyasining a’zosi etib saylandi. S. Sismondi iqtisod va tarix fanlari sohasida katta ishlarni amalga oshirib, boy ilmiy adabiy meros qoldirdi. «Toskani qishloq xo‘jaligining ko‘rinishi»(1801), «Savdo boyligi yoki siyosiy iqtisod prinsiplari va ularni savdo qonunchiligida qo‘llanish to‘g‘risida»(1803), «Italiya respublikalarining tarixi» (1807), 1818 yilda esa Edinburg ensiklopediyasi uchun «siyosiy iqtisod» maqolasini tayyorladi. Lekin «Siyosiy iqtisod yangi ibtidolari yoki boylikning aholi nufusiga munosabatlari to‘g‘risida» (1819) kitobining nashr qilinishi uning shuhratini keskin oshirdi. Keyingi yillarda «Siyosiy iqtisoddan etyudlar» (1837 ) va fundamental tarixiy asarlar «Fransuzlar tarixi» (31 tom), «Rim imperiyasi qulashining tarixi» va boshqa asarlari nashr qilindi.

S.Sismondi g‘oyalarining shakllanishi sanoat to‘ntarilishi davri bilan bog‘liq bo‘lib, u mayda ishlab chiqaruvchi tomonida turib kapitalizmni tanqid qilib, mayda tovar ishlab chiqarishga qaytishni orzu qildi.

Olim klassik maktab g‘oyalarini qo‘llaydi, kapitalni, inqirozlarni, mahsulotni realizatsiya qilish masalalarini tadqiq etadi. U birinchilardan bo‘lib, zarur ish vaqti tushunchasini joriy etdi. Sismondi pul-ichki

qiymatga ega bo‘lgan mehnat mahsuloti va shu sababli u qiymatning umumiy mezoni tarzida namoyon bo‘ladi, degan to‘g‘ri xulosa chiqaradi. Pulning qadrsizlanishi ortiqcha qog‘oz pullar muomalaga chiqarilishi xaddan ortib ketishining natijasi deb hisoblaydi. Ammo u pulning vujudga kelish jarayonini, uning vazifasini tadqiq etmaydi. Sismondi iste’mol qiymati bilan qiymat o‘rtasidagi ziddiyatlarni ko‘ra bilgan bo‘lsa ham, ammo uning mohiyatini tushunmadi. U qiymatdan chetga chiqishni qiymat qonunining buzilishi deb hisoblaydi.

S.Sismondi ta’biricha, ijtimoiy fan ikki qismdan:

1.Oliy siyosat;

2.Siyosiy iqtisoddan iborat.

Agar siyosat davlat tarkibini qanday vujudga kelishini, fuqarolarni diyonat va din to‘g‘risida tarbiyalashni o‘rgatsa, siyosiy iqtisod xo‘jalikni qanday boshqarishni, ijtimoy tartibni saqlashni hukumatga tavsiya qilishi kerak.

S.Sismondining fikricha, «odamlarning moddiy farovonligi, inson tabiati» siyosiy iqtisod predmeti bo‘lishi kerak, «odamlarning moddiy farovonligi esa» davlatga bog‘liq, S.Sismondi siyosiy iqtisod predmetini davlatning iqtisodiy siyosati bilan bir narsa deb biladi, uni sinflardan ustun turadigan fan deb talqin etdi. U ishlab chiqarish munosabatlari, iqtisodiy qonunlarni bilish zarurligini inkor qiladi. U insonning fe’l-atvorini birinchi o‘ringa qo‘ydi.

S.Sismondi iqtisodiy qonunlarning sub’ektiv xarakterini tan olmadi. U kapitalistik iqtisodiyot notekis rivojlanishini xaqli ravishda ko‘rsatgan bo‘lsa ham, bu narsa iqtisodiy qonunlar amal qilinishining o‘ziga xos tarzida namoyon bo‘lishi ekanini ko‘ra bilmadi.

S.Sismondi klassik maktabga qarama-qarshi o‘laroq, mayda tovar ishlab chiqaruvchining xonavayron bo‘layotganligini «ortiqcha» aholi paydo bo‘layotganini, mashinalar ishchilarni siqib chiqarayotganini ko‘rsatdi. S.Sismondi klassik maktabning inqirozlar bo‘lishi mumkin emas va kapitalizm ziddiyatlar nima ekanligini bilmaydi, degan mulohazalarini tanqid qildi.

Olim o‘z g‘oyasini isbotlashda ishlab chiqarish va iste’mol o‘rtasidagi tafovutni 1-o‘ringa qo‘yadi. Yirik ishlab chiqaruvchi iste’moli pasayadi, oqibatda mamlakatda inqiroz ro‘y beradi, deydi. Shuning uchun yirik ishlab chiqarishni to‘xtatish va mayda ishlab chiqarishga qaytishni taklif etadi, kapitalizmni inkor etadi.

S.Sismondi yakka tartibdagi daromadlardan, boyliklardan olingan foyda va ishchi ish haqining yig‘indisi bo‘lgan daromad muammosiga

o‘tadi. Bu milliy daromad bilan yalpi mahsulotni aynan bir narsa, deb bilganligi uning asosiy nazariy xatosidir. U kapitalni doimiy va o‘zgaruvchi kapitalga ajrata bildi. Sismondi kapitalni milliy daromaddan farqini izohlay olmadi.

**«Uchinchi shaxslar» nazariyasi.** Sismondi «Uchinchi shaxslar»deb mayda ishlab chiqaruvchilarni ataydi. «Uchinchi shaxslar» ya’ni mayda ishlab chiqaruvchiga madad berishiga umid bog‘laydi, turli mamlakatlarning hukumatlariga murojaat etib, ularning kapitalistik rivojlanishini to‘xtatsinlar, deb so‘raydi (masalan, Napoleondan) Jamiyat mayda ishlab chiqarishga qaytgan taqdirdagina, go‘yo mo‘l- ko‘lchilik boshlanar emish (mulkni bo‘lish kerak).

Ishlab chiqarish bilan taqsimot o‘rtasidagi ziddiyat, shaxsiy iste’molning takror ishlab chiqarish jarayonlari uchun muhimligini Sismondi to‘g‘ri tushunadi, bu uning ijobiy jihatidir.

Sismondi kapitalistik yo‘ldan voz kechishni taklif qildi. Kapitalizmni tartibga solishga, ishchilar bilan kapitalistlar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganishga, ishchilarni foydani taqsimlashda qatnashtirishga, ishsizlar, nogironlar haqida g‘amxo‘rlik qilishda va buning uchun maxsus fondlarni vujudga keltirishga, mayda ishlab chiqarishni saqlab qolish va qo‘llab-quvvatlashga, manufakturagacha bo‘lgan yirik mulkchilikni ko‘p sonli kapitalistlar o‘rtasida taqsimlashga chaqirdi. U yollanma ishchilarni ham mulkdorlar safiga qo‘shishni orzu qildi. S.Sismondi davlatning yordamiga umid qildi.

**Pyer Jozef Prudonning iqtisodiy nazariyasi.** Pyer Jozef Prudon (1809-1855) fransuz publisisti, mayda ishlab chiqaruvchi nazariyotchisi, kambag‘al kosib oilasida tug‘ilgan. Moddiy jihatdan nochorligi sababli kollejdagi o‘qishni bitira olmagan.



P.Prudon feodalizmga qaytib bo‘lmaslikni, kapitalizmni tan oladi. Ammo u mayda ishlab chiqarishni saqlab qolishni taklif qiladi.P. Prudon qarashlari butun tuzum reformizmi, ishchilar sinfiga dushmanlik ruhi bilan sug‘orilgandir. P. Prudon proletariatning o‘z siyosiy va iqtisodiy manfaatlari uchun kurashiga qarshi chiqadi. U ishchilarning ish tashlashini g‘ayri qonuniy deb e’lon qiladi.

P. Prudon avval kapitalizmning tanqidchisi bo‘lib maydonga chiqdi.

«Mulkchilik nima»(1840) degan asari unga zo‘r shuhrat keltirdi. Bu

asarda hali Prudonning amaliy dasturi bayon qilinmagan edi. «Iqtisodiy ziddiyatlar sistemasi yoki qashshoqlik falsafasi» asarida P. Prudon kapitalizmni isloh qilishning amaliy dasturini ishlab chiqishga, siyosiy kurashning bexudaligi va davlat hokimiyatiga ehtiyoj yo‘qligi to‘g‘risidagi anarxiyachilik qarashlarini asoslashga urindi, Fransiya hukmdorlarini o‘zining siyosiy xayrixohligiga ishontirishga urindi.

Prudon Sismondi kabi mayda ishlab chiqarishni qo‘llaydi, ammo kapitalizmni (yirik ishlab chiqarishni) islohotlar yo‘li bilan to‘g‘rilash mumkin, degan xulosaga keladi.

P.Prudon o‘zining mayda ishlab chiqaruvchi konsepsiyasini maydonga tashlar ekan, juda ko‘p masalalar xususida fikrlarni bayon etadi. Mehnat taqsimoti, tovarning xususiyati, ish haqi, mulkchilik, kapital, foyda, foiz, qiymat va boshqa muammolarni o‘z iqtisodiy romantizm pozitsiyalarida turib aktiv tadqiq qiladi.

«Belgilangan qiymat» nazariyasini P. Prudon o‘zining butun iqtisodiy negizi deb hisoblaydi. Uning fikricha, tovar ishlab chiqarishning hamma qiyinchiliklarini bartaraf qilish uchun har bir tovarga «belgilangan» qiymat qo‘yib qo‘yish yoki uni bozorda sotilishga kafolat berish, tovar bilan pul o‘rtasidagi ziddiyatni tugatish zarur. P. Prudon tilla bilan kumushni «belgilangan» qiymatga ega bo‘lgan dastlabki tovarlar, deb ataydi.

U pulga qarshi edi, ammo davlat banki tuzish, «Ishchi puli» (talon)ni joriy qilishni taklif etadi, aholi o‘z mahsulotini bankka topshirib, ishchi puli oladi va unga kerakli boshqa mahsulotlarni oladi, maqsad iste’mol mollari ishlab chiqarishni qo‘llashdir.

## 8.7. Iqtisodiyotda ekonometrik usullarni qo‘llanilishi



XVIII asrga kelib, tovar-pul munosabatlarining rivojlanishida iqtisodiy ko‘rsatkichlarning miqdoriy o‘zgarishda, o‘zaro bog‘liqlikda qonuniyatlar asosida ro‘y berishi to‘liq va aniq ayon bo‘ldi.

Bu qonuniyatlarni matematik izohlashdagi dastlabki mukammal tadqiqotlar fransiyalik olim Antuan Ogyusten Kurno (1801-1877) ning “Boylik nazariyasi matematik prinsiplarining tadqiqoti” (1838) asarida bayon etildi. Kurno bozordagi xaridor va sotuvchining turlicha imkoniyatlari asosida tovar bahosining iste’molchi-xaridor talabiga bog‘liqlik masalasini tahlil etdi.

Ma’lumki, bozor munosabatlari amaliyotida tovar bahosi hamda talab orasidagi bog‘liqlik quyidagicha namoyon bo‘ladi. Ya’ni, tovar bahosining oshuvi iste’molchi talabining kamayishiga olib keladi. Aksincha, baho pasaysa, talab ortadi.

Kurno bu bog‘liqlikni “Talab qonuni” deb hisoblaydi va uni talab funksiyasi ko‘rinishida quyidagicha ifodalaydi:

$$\mathbf{D = f(r)}$$

*bunda, D- iste’molchi talabi, r-tovar bahosi*

Tovar sotuvidan tushgan pul tushumi (R) funksiyasi esa quyidagi ko‘paytmadan iborat bo‘ladi:

$$\mathbf{R=r \times D = r \times F\ (p)}$$

Bu funksiya uzluksiz bo‘lib, bahoning har bir cheksiz o‘zgarishiga, talabning cheksiz o‘zgarishi mos ishlashini aks ettiradi. Talab funksiyasi differensiyalanadi. Differensiyaning maksimum qiymati yuqori daromad olishga qaratiladi, deb hisoblaydi.

Kurno iqtisodiyotga birinchi marta elastiklik tushunchasini tadbiq etdi.

Talab funksiyasining bahoga nisbatan elastikligi-tovar bahosining bir foizga o‘zgarganda talab miqdorining qanchaga o‘zgarishini anglatadi. Kurno talabning bahoga nisbatan past elastiklik mavjudligi bilan izohlaydi.

1. Bahoning nisbatan katta bo‘lmagan o‘zgarishiga talabning katta o‘zgarishi ro‘y berishi, talabning yuqori elastiklik holati hisoblanadi.

2. Baholarning sezilarli o‘zgarishidan qat’iy nazar talabning o‘zgarishi sekin bo‘lsa, past elastliklik holati deyiladi.

Masalan, tor doiradagi muhlislar uchun, skripka yoki astronomik teleskop narxining ikki barovar o‘zgarishi, ularga bo‘lgan talabning jiddiy o‘zgarishga olib kelmaydi.

Shuningdek, narx keskin o‘zgarishidan qat’iy nazar, transport vositalari, oziq-ovqat mahsulotlariga talab deyarli kam o‘zgaradi.

Kurno o‘z tadqiqotlarida, tabiiy monopoliya, ya’ni noyob ma’danli suv chiqaradigan buyum egasining, yuqori daromad olish uchun qanday baho qo‘yish masalasini tahlil etadi. Bunda yangi omillar-ishlab chiqarish chiqimlari, raqobat kabilar ham hisobga olinadi.

Shuningdek, Kurno, 2 ta raqobatli monopoliya va duopoliya, chekli va ko‘p raqobatchilar holatlarini ham tahlil qilgan.

Tahlil matematik aniqliq va kuchli mantiqiylik asosida amalga oshirilgan.

Kurno tadqiqotlarining eng muhim jihatlaridan biri, ishlab chiqarish sohasidagi qiymatning mehnat nazariyasi emas, muomala sohasidagi baholar tahlil etilgan.

**Iogan Genrix fon Tyunen** (1783-1850) shimoliy germaniyalik bo‘lib, (pomeshchik) qishloq xo‘jaligi bilan bevosita shug‘ullangan. Kurno g‘oyalarini amaliy material bilan to‘ldirgan. Iqtisodiy model yaratgan. Modelga ko‘ra, xo‘jalik doira shaklidan iborat bo‘lgan. Markazda qishloq xo‘jalik mahsulotlari iste’molchisi shahar, atrofida esa, bir xil tuproq unumdorligida bo‘lgan yopiq hudud tushuntiriladi.



Qishloq xo‘jaligi tarmoqlari samaradorligi pasayib boruvchi konsentrik doiralarga joylashtirilgan.

Belgilangan baho bilan ishlab chiqarish va taransport xarajatlari orasidagi farq asosida qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirishning norentabelligi hisoblab chiqilgan.

Tyunenning fikricha, iqtisodiy jarayon ketma-ket kichik orttirmalar yo‘li bilan rivojlanadi. Rivojlanishning ma’lum holatiga kelib keskin sifat o‘zgarishi ro‘y beradi. Bu usul ishlab chiqarish optimal tarkibining ya’ni, mehnat va kapitalining o‘zaro to‘ldirish jarayonining shakllanishiga imkon beradi.

Tyunen qo‘llagan usul keyinchalik iqtisodiyotda kichik orttirmalar va cheklangan sharoitlar uslubi marjinalizmi nomini oldi.

Tyunen davlatning qishloq xo‘jaligi va milliy iqtisodiyotga munosabati yoritilgan yagona asar yozgan. U Smitning daromad taqsimoti g‘oyasini hamda Rikardodan bexabar holda differensial renta g‘oyasini qiymatning mehnat nazariyasi asosida rivojlantirdi.

Umuman olganda 19-asrga kelib, iqtisodiyotda matematikaning targ‘ibi mustahkam asosga ega bo‘ldi.

Natijada, keyingi tadqiqotlarning ilmiy negizda bo‘lishiga katta hissa qo‘shildi. Iqtisodiy jarayonlar tahliliga sinfiy-siyosiy tus berilishidan chetlashildi.

## Tayanch so‘z va iboralar

Nisbiy naflilik tamoyili, differensial renta, fritrederlik, Sey, «bozor qonuni», ishlab chiqarishning uch asosiy omili, foydalilik, Maltus, arifmetik va geometrik progressiya, «aholi nufusi nazariyasi», tuproq

unumdorligi pasayishi qonuni, inqirozlar, Senior, tiyilish, so‘nggi soat nazariyalari, Bastia, Keri, iqtisodiy uyg‘unlik, elastiklik, orttirmalar.

**Muhokama uchun savollar:**

1. J.B.Seyning asosiy qonuni nimani bildiradi? Izohlab bering.
2. Sey fikricha inqirozlar bo‘lishi mumkinmi?
3. T.Maltus «aholi nufusi nazariyasi»dagi asosiy g‘oya nima?
4. «Tuproq unumdorligi pasayib borish qonuni» oqibatlari qanday bo‘lishi mumkin?
5. Nima uchun «Uchinchi shaxslar nazariyasi» vujudga keldi?
6. Seniorning «tiyilish» va «so‘nggi soat» nazariyalari mohiyatini ochib bering.
7. P.Bastia va Kerining iqisodiy uyg‘unlik g‘oyalarida qanday umumiyliklar bor?
8. Ekonometirik usullar nima?

# IX BOB. GERMANIYADAGI TARIXIY MAKTAB IQTISODIY G‘OYALARINING MOHIYATI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATI

## 9.1. Germaniya tarixiy maktablarining o‘ziga xos xususiyatlari

XIX asrning o‘rtalarida Germaniya yerlarini birlashtirib, yagona davlatga aylantirilish davrida klassik iqtisodiy maktabga muqobil yana bir yo‘nalish «nemis tarixiy maktablari» yo‘nalishi vujudga keldi.

Bu maktablar nafaqat tarixiy balki ijtimoiy-tarixiy yo‘nalishni o‘z ichiga olib, klassiklardan farq qilib, siyosiy iqtisod fani tadqiqot mavzuyiga iqtisodiy va iqtisodiy bo‘lmagan omillarni kiritdilar, shu bilan dastlabki tadqiqotchilar sifatida ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni turli xillarini ijtimoiy munosabatlarning umumiy yig‘inida ko‘rib chiqdilar.

Barcha tarixiy maktablarning mualliflari klassiklarni tanqid qilishda bir fikrda edilar. Ular klassiklar abstraksiya va umumiy qisqacha xulosalarga berilib, kerakli fakt va kuzatishlarga e’tiborsiz qarashayotganliklarini, shuningdek iqtisodiy liberalizm negizlarini mutlaq holda ko‘rsatayotganliklarini tanqid qilib, voqelikni haqqoniy tadqiq qilish maqsadga muvofiqdir, deb hisoblaydilar.

Taniqli ingliz iqtisodchi olimi Mark Blaug XIX asrning 60- yillarida Yevropa qit’asida klassik iqtisodiy maktabga muqobil nazariy maktablarning shakllanishini ta’minlaydigan, haqiqiy intellektual inqiroz sezilmasdan turib, yagona tarixiy maktabgina o‘zining muqobil modelini taklif qilganini alohida ta’kidlaydi (Blaug Ekonomicheskaya misl v retrospektive Delo LTD,1994,str,275). Hqiqatdan ham tarixiy maktab nazariyotchilari XIX asr Germaniya taraqqiyotiga va ilm-fan rivojiga salmoqli hissa qo‘shdilar. «Tarixiy usul» jozibasi keyingi avlod iqtisodchilari tomonidan yangi tarixiy maktabning yaratilishiga sabab bo‘ldi.

Lekin yangi davr albatta yangicha talablarni qo‘yar edi. Bu talablarni F.List va keyinchalik tarixiy maktab vakillari hal etishga harakat qildilar. F.List o‘z qarashlari bilan nafaqat iqtisodiy nazariyani rivojlantirishga intildi, balki endi rivojlanayotgan davlatning iqtisodiy siyosatini tubdan o‘zgartirishga harakat qildi. Uning milliy xo‘jalik sistemasi ilg‘or nemis burjuaziyasi manfaatlarini ifoda etib, industrial rivojlanish yo‘llarini izladi. Milliy qalb, milliy xarakter, milliy taqdir shu va shunga o‘xshash tushunchalar XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida Germaniya jamoatchiligi fikriga singib kirmoqda edi. Tarixiy maktab vakillari tarixdan bo‘lak yana nima milliy bo‘lishi mumkin, degan fikrlarga asoslanib siyosiy iqtisodda tarixiy usul o‘rnini ko‘rsatishga harakat

qildilar. Ular milliy fan sifatida, siyosiy iqtisod orqali tabiiy xususiyatlarga va xalq harakatlariga bog‘liq holda rivojlanadigan milliy xo‘jalikni o‘rganishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘ydilar.

## 9.2. F.Listning iqtisodiy qarashlari



Fridrix List (1789-1846 yy.) Janubiy Germaniyaning Reydlingen shahrida, boy hunarmand oilasida tug‘ildi. U o‘qishni 15 yoshda tugatib, hunarmandchilik ustaxonasida otasiga shogird bo‘lib ikki yil ishladi. Keyinchalik Vyurtemberg qirolligida turli lavozimlarda ishlab, bir vaqtning o‘zida Tyubingen universitetini huquq mutaxassisligi bo‘yicha tugatdi. 1817 yildan shu universitetning davlat boshqaruvi amaliyoti kafedrasi professori bo‘lib ishladi. List 28 yoshida liberal yo‘nalishdagi taniqli publisist, radikal burjua-demokratik islohotlarning qat’iy tarafdori sifatida tanildi. U 1847 yil Brussel shahrida bo‘lib o‘tgan, iqtisodchilar kongressida o‘zining aniq ehtirosli fikrlari, siyosiy yetukligi va kuchli notiqlik qobiliyati bilan ko‘pchilikning e’tiborini o‘ziga qaratdi. List 1819 yilda Germaniya iqtisodiy birligini ta’minlash maqsadida «Savdo-sanoat ittifoqi»ni tuzdi.

F.List 30 yoshida Vyurtemberg parlamenti a’zosi bo‘lib, o‘zining keng demokratik islohotlar dasturi bilan hukumatga murojaat qildi. Bunday siyosiy chiqish Listga qarshi kuchlar shakllanishiga sabab bo‘ldi. Natijada u 1825 yilda Germaniyani tark etib, AQShga doimiy yashash uchun ketdi. Dastlab u fermerlik bilan shug‘ullandi, keyinchalik nemis gazetalarining muharriri bo‘ldi hamda sanoat sohasida tadbirkorlik faoliyatini olib bordi. F.List Angliya sanoati bilan raqobat qiluvchi Germaniya va AQShda sanoat rivojlanishi xususiyatlarini chuqur o‘rganib, Amerika taraqqiyoti uchun iqtisodiy dasturni tayyorladi.

1832-yildan F.List Yevropaga qaytib AQShning Leypsigdagi elchisi bo‘lib ishladi. Shuningdek, u Leypsig-Drezden temir yo‘lini qurish maqsadida Germaniyada birinchi bo‘lib, hissadorlik uyushmasini tashkil etdi. F.List o‘zining uchinchi va oxirgi emigratsiyasidan so‘ng Parijda uch yil yashadi. U o‘zining bor kuchini, idroki va iqtidorini iqtisodiy muammolarni keng o‘rganishga qaratdi. Sanoat burjuaziyasi manfaatlarining ifodachisi bo‘lgan F.List iqtisodiy birlik uchun birinchilar qatori maydonga chiqdi. U o‘zining «Siyosiy iqtisodning milliy

sistemasi» (1841) nomli asosiy asarida milliy siyosiy iqtisodni yaratish vazifasini o‘rtaga qo‘ydi. Mamlakatning ishlab chiqaruvchi kuchlari to‘g‘risidagi ta’limot unga asos bo‘lishi kerak edi. F.List davlatning faoliyatini, dinni, axloqni, ma’naviyatni va shu kabilarni ishlab chiqaruvchi kuchlar jumlasiga qo‘shdi.

F.Listning ta’limotiga ko‘ra, qiymatni ishlab chiqaruvchi kuchlar, «millatning ruhi» (toj-taxtning meros bo‘lib qolishi, huquq, sud, armiya, polisiya va shu kabilar) yaratadi.

F.List ta’limotida xo‘jalik taraqqiyotining tarixiy bosqichlari to‘g‘risidagi g‘oyalar katta o‘rin egallaydi. U tarixiy taraqqiyotni beshta bosqichga: badaviylik, cho‘ponlik, dehqonchilik, dehqonchilik-manufaktura, dehqonchilik - manufaktura - savdo bosqichlariga bo‘ladi. Bunday bo‘lishidan ko‘zda tutilgan maqsad, Germaniyada sanoatning o‘sishini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, bir yoqlama rivojlanishdan - qishloq xo‘jaligining ustunligidan voz kechish kerak, degan fikrni isbotlashdan iborat edi.

F.Listning asosiy iqtisodiy asari Germaniyaning iqtisodiy rivojlanishi va savdo siyosati atrofidagi qizg‘in tortishuvlarda alohida o‘rin egallab, nemis iqtisodiy fikriga katta ta’sir ko‘rsatdi. F.List o‘zining g‘oyalarini rivojlantirar ekan, Germaniyaning gullab-yashnashi sanoat taraqqiyoti orqali bo‘lishi mumkinligini va shuning uchun uni chet el raqobatidan himoya qilish zarur ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu asar o‘z davrida demokratik ziyolilar tomonidan qizg‘in qabul qilinib, katta qiziqish bilan o‘qildi.

Germaniyaga qaytgandan so‘ng olim Augsburg shahrida yashab, ilmiy ishini davom ettirdi. U xuddi ana shu buyuk davlatchilik, shovinistik kayfiyatdagi asarlarini yaratib, nemis imperializmining dastlabki himoyachilariga yo‘l ochib berdi. List urushlar va bosqinchilikning tarafdori bo‘lib, dehqonchilik holatidan dehqonchilik-sanoat holatiga o‘tishga ko‘maklashadigan urushlarni yoqlaydi. U Janubiy-sharqiy Yevropadagi bo‘sh yerlarni Germaniya bosib olishi zarur, deb hisoblaydi. List hayotining so‘nggi yillarida Angliyaga bo‘lgan o‘z munosabatini o‘zgartiradi, chunki, u doim Angliyani Germaniyaning birlashishiga va sanoat rivojiga qarshi deb hisoblardi. Endi uning fikricha, Angliyani Germaniyaning qit’a qo‘shnisi hisoblangan Fransiya va Rossiyaga qarshi harakatlarda qo‘llash mumkin edi.

List iqtisodiy fanda klassik maktabni, ayniqsa uning yirik namoyondasi bo‘lgan A.Smit iqtisodiyotini tanqid qiluvchi bo‘lib faoliyat ko‘rsatdi, lekin u klassik maktabning asosi bo‘lgan qiymat va daromadlar

nazariyasini mutlaqo tahrir qilmadi. Iqtisodiyotning bu kategoriyalari olimni qiziqtirmadi. Asosiy e'tibor iqtisodiy siyosatning asosiy masalalariga va ayniqsa tashqi savdo siyosatiga qaratildi. F.List Smit iqtisodiy sistemasini kosmopolitizmda ayblab, uni ayrim mamlakatlar xo'jalik rivojlanishining milliy xususiyatlarini ko'rmasdan, barchasiga umumiy «tabiiy» qonun-qoidalarni dogmatik ravishda majbur kiritilmoqda, deydi. «Turli millatlar, deb yozadi List, turli bosqichda bo'ladilar. Bunday sharoitda ular o'rtasidagi to'liq erkin savdo ayirboshlash qiymati nuqtai nazaridan jahon xo'jaligi uchun ma'lum mavhum foydani keltirishi mumkin bo'ladi.» Lekin bu holat qolgan mamlakatlar ishlab chiqarish kuchlari rivojiga to'sqinlik qiladi. U o'z konsepsiyasini ishlab chiqarish kuchlari nazariyasi deb yuritib, Smitning ayirboshlash qiymati nazariyasiga qarshi qo'yadi. Lekin shuni aytish zarurki, ishlab chiqarish kuchlari deganda, List ijtimoiy sharoitlar majmuasini tushunadi va ularsiz millat boyligi bo'lmaydi, deb yozadi. Shuningdek, u faqatgina qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanadigan millat bir qo'l bilan mehnat qiladigan kishi kabidir, deydi. List ishlab chiqarish unumdorligini oshirishni proteksionizm tarbiyasi yordamida amalga oshirishni o'rtaga tashlaydi. Davlat sistemasidagi tadbirlar milliy ishlab chiqarishni chet el raqobatidan to o'zini tiklab olguncha va teng raqobatdosh bo'lguncha himoya qilishi kerak deyiladi. Erkin savdoni amalga oshirishni esa u keyinroq, ya'ni hamma millatlar bir xil rivojlanish darajasiga yetgunicha qoldirishni tavsiya qiladi. Hozirgi davrga kelib, Listning bunday qarashlarining ayrimlari dolzarb bo'lib, hayotda o'z o'rnini topmoqda. Masalan, millatning boy, qudratli bo'lib borishi uning qanchalik ko'p sanoat mahsulotini eksport qilishi bilan va kam mahsulotni import qilishi bilan belgilanadi. Bu o'rinda Yaponiya tajribasini ko'rsatishimiz kifoyadir. Bu davlat so'nggi yillarda tez iqtisodiy rivojlanish hisobiga, ya'ni tashqi savdoni to'g'ri yo'lga qo'yganligi uchun rivojlangan mamlakatlar qatorida oldingi o'ringa chiqib oldi.

Listning iqtisodiy nazariyasi asosiy masalalardan hisoblangan, kapitalizm taraqqiyoti doirasida o'z tarixi va xo'jaligining xususiyatiga ko'ra jahon hamjamiyatining so'nggi qatorlaridan o'rin olgan mamlakatlarning iqtisodiy qoloqligini bartaraf etish yo'lidagi dastlabki urinish edi. Hozirgi davrda milliy sanoatni rivojlantirish uchun harakat qilayotgan yosh, rivojlanayotgan mamlakatlarning List ta'limotiga katta e'tibor berayotganliklari tabiiy holdir. Chunki ularning oldida jahon bozorida hukmronlik qilayotgan rivojlangan mamlakatlar monopoliyasi

sharoitida o‘z sanoatlarini himoya qilish vazifasi turibdi.

Germaniyada tarixiy maktablar shakllanishi va evolyutsiyasini ilmiy-iqtisodiy adabiyotda uch asosiy davrga ajratiladi. Birinchi davr XIX asrning 40-60-yillarini o‘z ichiga olib, «Eski tarixiy maktab» yoki oddiygina «Tarixiy maktab» davri deb nomlanadi. V.Rosheo, K.Knis va B.Gildebrand bu davrning asosiy mualliflaridir. Ikkinchi davr XIX asrning 70-90 yillariga to‘g‘ri kelib «Yangi tarixiy maktab» davri deb nomlanadi. G.Shimoller va L.Brentano bu davrning asosiy ijodkorlaridir. Uchinchi davr XX asrning 30-yillarigacha davom etib «eng yangi tarixiy maktab» davri yoki qisqacha «ijtimoiy yo‘nalish» nomini oldi. V.Zombart va M.Veberlar uning asosiy mualliflari edilar. Biz ushbu maktablar namoyondalarining qarashlarini o‘rganishdan boshlaymiz. «Yangi tarixiy maktab» va «ijtimoiy yo‘nalish»ni esa ularning ko‘pgina qarash va fikrlarining yaqinligi sababli birgalikda ko‘rib chiqamiz.

## 9.3. Tarixiy maktab (V.Rosher, K.Knis va B.Gildebrand)

F.List tarixiy maktab o‘tmishdoshi bo‘ldi. Bu maktabning o‘zi XIX asrning 40-yillarida vujudga keldi.Ular barcha kapitalistik mamlakatlar uchun umumiy bo‘lgan obyektiv iqtisodiy qonunlarni pisand qilmadilar. Tarixiy maktab abstrakt usulini rad qilib, uni oshkora empirizm (amaliy hayotga moyillik) bilan almashtirdilar. Iqtisodiy sub’ektivizm bu maktabning o‘ziga xos xususiyatidir.

Tarixiy maktab usulining mana shu hamma xususiyatlari shu bilan izohlanadiki, bu maktab namoyondalari hatto vulgar - madhiyabozlik nusxasidagi siyosiy iqtisodning ham nazariy asoslarini tugatish uchun jon-jahdlari bilan kurashdilar. Bu maktab nazariyotchilariga F.List ta’limoti kuchli ta’sir o‘tkazdi. Biz buni quyidagi holatlarda sezishimiz mumkin:

1. Tarixiy maktab vakillari siyosiy iqtisodni xo‘jalik rivojlanishining umumiy qonunlarini o‘rganadigan fan deb emas, balki davlatning yetakchilik rolini e’tirof etgan milliy xo‘jalik haqidagi fan deb hisobladilar;
2. Ular klassik maktabga va unga ergashuvchilarga tanqidiy yondashdilar, abstraksiya usuliga qarshi chiqdilar;
3. Ular mamlakat iqtisodiy rivojlanishini bosqichma-bosqich olib borish konsepsiyasiga asoslandilar.

Lekin tarixiy maktab vakillari Listdan ilgarilab borib, siyosiy iqtisodda alohida tarixiy usulni yaratdilar. Tarixiy maktabning g‘oyalari tobora tushunarli bo‘lib boradi, chunki bu iqtisodiy ta’limotlarning

negizlari Angliyadagi rikardochilar va Fransiyadagi Sey maktabi qarashlariga yaqin turadi. Shuningdek, ular iqtisodiy fan markazida ma'naviy va psixik murakkab, milliy va tarixiy xususiyatli konkret kishi bo‘lishini istar edilar. Shu asosda iqtisodiy fanning asosiy yo‘nalishini tarix, etika, huquq, psixologiya va etnografiya fanlariga almashtiradilar, ya'ni jamiyat iqtisodiy taraqqiyotining obyektiv qonunlarini bilishni rad etadilar.

Iqtisodiy ta'limotlar tarixi fanida tarixiy maktabni uch taniqli olimlari: Rosher, Knis va Gildebrandlarning ijodi bilan bog‘lab o‘rganilsa-da, bu yo‘nalishda yana boshqa ko‘pgina olimlar ham ish olib borganliklarini aytishimiz zarurdir. Shunday bo‘lsa ham, bu professorlar tarixiy maktabning asosiy namoyondalari bo‘lib, iqtisodiy nazariyaga katta hissa qo‘shdilar.

Gettingem va Leypsig dorilfununlarining professori Vilgelm Georg Fridrix Rosher (1817-1894) Germaniyadagi tarixiy maktabning asoschisi hisoblanadi. 1843 yilda u «Tarixiy usul nuqtai nazaridan siyosiy iqtisod kursining qisqa asoslari» kitobini chiqardi. Iqtisodiy qonunlarning obyektivligini rad qilish bu ta'limotning o‘zagidir. V.Rosher ijtimoiy iqtisodiyotning umumiy qonuniyati yo‘q, balki faqat iqtisodiy omillar taraqqiyotininggina qonunlari bor, deb da'vo qilgan edi. Siyosiy iqtisod millat oldida burch tuyg‘usiga ega bo‘lgan ma'naviy fandir. V.Rosher siyosiy iqtisod predmetini ta'riflashda Listning sistemasini to‘la-to‘kis qabul qilib olib, jamiyat asta-sekin rivojlanadi, deb hisobladi va sinfiy kurash mavjudligini inkor etdi. Rosher urushning madhiyachisi edi, u urushni tabiiy holat deb hisobladi va Germaniyani mustamlakalarni bosib olishga chaqirdi.

Rosher tarixiy - fiziologik, deb ataladigan usulni ishlab chiqdi. Bu usul kapitalizm taraqqiyoti yo‘lini, unga xos bo‘lgan feodal sarqitlarni (dehqonlarning yer egalariga bo‘ysunishi, hunarmandlarning uyushmalariga va tabaqalariga xos cheklashlarini) tarixan oqlashdan va ko‘klarga ko‘tarib maqtashdan, faktlarni to‘plashdan va shu faktlarni tarixiy o‘xshashliklar asosida izohlashdan iborat.

O‘zining nazariy qoidalarida Rosher qiymatni iste'mol qiymatidan (foydalilikdan) iborat deb bildi, kapital deganda unumli iste'mol uchun mo‘ljallangan har qanday mehnatni tushundi. J.B.Seyning ishlab chiqarishning uch omili nazariyasini V.Rosher tarixiy usul pozitsiyalarida turib talqin etdi. Foydani kapitalistlar mehnatining natijasi deb e'lon qilib, daromadlarni taqsimlashda uyg‘unlik hukmronlik qiladi, tenglik esa iqtisodiy taraqqiyot omili bo‘lib xizmat qiladi, deb hisobladi. Iqtisodiy

kategoriyalarni talqin etishda Rosher aslida odamlarning buyumga bo‘lgan munosabatini ko‘rdi. Garchi, u klassik maktab qoidalarini o‘zgartirgan bo‘lsa ham, ammo rasman hali bu maktabning merosi bilan aloqani uza olmagan edi. Uning izdoshlari va maslakdoshlari undan ilgarilab ketishdi.

Tarixiy maktab g‘oyalarini Karl Knis (1821-1892) jon-jahdi bilan o‘rgandi. 1853 yilda uning «Tarixiy usul nuqtai nazaridan siyosiy iqtisod» kitobi bosilib chiqdi. Bu kitobda u mazkur maktabning qarashlarini himoya etish va muntazamlashtirishga harakat qildi. K.Knis alohida iqtisodiy qonunlar yo‘q, faqat doimo va hamma joyda amal qiladigan tabiiy qonunlar bor deb da’vo qildi. Shunga asoslanib, u xususiy mulkchilik va kapitalizmning abadiyligi to‘g‘risida qisqacha xulosalar chiqardi.

Knis siyosiy iqtisodni tarixiy usul pozitsiyalarida turib tez qayta qurish mumkinligini asoslamoqchi bo‘ldi. Uning fikricha, siyosiy iqtisod faqat iqtisodiy hodisalarni tasvirlab berishi mumkin, u nazariy umumlashmalarni berishga qodir emas. Knis iqtisodiy hodisalarni bilib olish hodisalari, deb statistika va tarixiy bayonni tan oldi. U iqtisodiy siyosatga katta ahamiyat berdi. Bu siyosatni amalga oshirish uchun turli xalqlarning iqtisodiy turmushiga oid kuzatuvlardan olingan aniq-ravshan shart-sharoitlarni bilish zarurligini uqtirdi. Knis millat turmushining iqtisodiy sharoitlari uchun individ (shaxs), jamiyat va davlatning mas’uliyatini eklektik (qorishma) tarzida birlashtirmoqchi bo‘ldi, pulni talqin etishda metallchilar konsepsiyasi pozitsiyasida qoldi.

1848 yilda Bruno Gildebrand (1812-1878) «Hozirgi zamon va kelajakning siyosiy iqtisodi» kitobini e’lon qildi. Bu kitobda u F.Engelsning «Angliyada ishchilar sinfining ahvoli» asariga qarshi chiqdi. B.Gildebrand kapitalizm ishchilar sinfining ahvolini yaxshilaydi va bu tuzumga qarshi kurashdan ma’no yo‘q, deb hisoblaydi. B.Gildebrand iqtisodiy hodisalarni tadqiq qilishning o‘z tarixiy usulini ilgari surdi, bu usul jamiyat tizimining iqtisodiy qonunlarini tahlil etishga statistika va tarixiy ma’lumotlarni yuzaki tarzda to‘plashni qarama-qarshi qo‘ydi. U qiymatni foydalilikdan iborat, deb bildi va xususiy mulkchilikning himoyachisi bo‘lib maydonga chiqdi. Xususiy mulkchilikni har qanday ta’na qilishni tarixiy qonuniyatlarni halokatli ravishda buzish, deb ta’rifladi.

B.Gildebrand taklif etgan insoniyat taraqqiyotining sistemasi natura, pul va kredit xo‘jaligini o‘z ichiga oladi. U ayirboshlash konsepsiyasiga asoslanib ish tutadi va ishlab chiqarish vositalarining bu xarakterini tan

olmaydi, holbuki, uning xarakteri iqtisodiy formatsiyaning ijtimoiy tabiatini va jamiyatning sinfiy tuzilishini tashkil qildi. 1861 yilda B.Gildebrand Germaniyaga qaytib, hayotining oxirigacha Yen universitetida faoliyat ko‘rsatdi. U o‘z asarlarining maqsadi qilib, millat xo‘jalik rivojlanishi qonunlarini o‘rganishga e’tiborni qaratdi, turli xalqlar iqtisodiy tarixini o‘rganishda taqqoslash usulini qo‘llash zarurligini ko‘rsatdi.

## 9.4. Yangi tarixiy maktab va «ijtimoiy yo‘nalish»

XIX asrning ikkinchi yarmida ham Germaniyada iqtisodiyot fani tarixiy usul asosida rivojlanmoqda edi. Nemis iqtisodchilari bundan avvalgi davrda iqtisodiy adabiyotda vujudga kelgan an’analarni davom ettirib, kuchaytirdilar. Ular Germaniya ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining o‘ziga xosligini aks ettirib, feodalizm sarqitlarining uzoq vaqtdan beri saqlanib kelayotganligini keskin tanqid qildilar. Shu davr Germaniya iqtisodiy tadqiqotlarida Yangi tarixiy maktab yetakchi o‘rinlardan birini egallar edi. Ushbu maktabning yetakchi olimlari, Gustav Shimoller (1838-1917) bo‘lsa, Luno Brentano (1844-1931), Verner Zombart (1863-1941), Maks Veber (1864-1921) o‘zlarining ijtimoiy yo‘nalishlari bilan «Yangi tarixiy maktab» ning ilmiy ishlarini davom ettirdilar.

G.Shimoller Berlin universiteti professori Gustav Shimoller o‘zining «Xalq xo‘jaligi to‘g‘risidagi umumiy ma’lumot asoslari» (1900-1904) nomli asosiy iqtisodiy asarida tarixiy maktabning asosiy vakillari V.Rosher va B.Gildebrandning asosiy qoidalari va usullarini yanada rivojlantirdi. Bu iqtisodiy amaliyotdan uch xil faoliyat turini: xususiy xo‘jalik, davlat xo‘jaligi va diniy xo‘jalikni alohida ajratib ko‘rsatadi. Birinchisida xususiy manfaat, ikkinchisida jamiyat, ijtimoiy manfaat va uchinchisida xayr-ehson asosiy deb belgilanadi. Umuman, G.Shimollerning qarashlariga davlatning belgilovchilik, yetakchilik rolini ko‘rsatish xosdir. G.Shimoller marksizmga qarshi kurashib, ijtimoiy va sinfiy muammolarni siyosiy iqtisoddan chiqarib tashlab, uni xalq xo‘jaligi tarixi faniga aylantirishga urindi. U faktlarni va statistika manbalarini o‘rganish, xalq xo‘jaligidagi hodisalarni bayon etib, berishni siyosiy iqtisodning bosh vazifasi deb hisoblaydi.

G.Shimoller umuman xalq xo‘jaligi o‘zgarishsiz qolaveradi, degan fikrga asoslanib, uning ayrim bo‘g‘inlarida juz’iy o‘zgarishlar bo‘lishi haqidagina gapirish mumkin, deb hisoblaydi. Tadqiqotlarning qat’iyan rad etilayotgan abstrakt usuliga qarama-qarshi qo‘yilgan empirizm (nazariy mashg‘ulotlardan ko‘ra amaliy faoliyatga ko‘proq moyillik) olim

va uning izdoshlariga xos xususiyat edi.

G.Shimoller iqtisodiyotda odob-huquq omilini belgilovchi omil deb hisoblab, har bir xalqning hayot tarzi odob qoidalarida, xo‘jalik huquqida o‘zining asosiy ifodasini topadi, deb ta’kidlaydi. Yangi tarixiy maktab iqtisodchilari xo‘jalik turmushida burjua-pomeshchik davlati hal qiluvchi rol o‘ynaydi, deb bilar edilar. Ular Germaniyada kuchli milliy davlat tashkil etilishi tarafdori edilar.

Yangi tarixiy maktabning namoyondalari «Sinfiy inoqlik» g‘oyalarini ishlab chiqib, targ‘ib qildilar. G.Shimoller tomonidan tuzilgan «Ijtimoiy siyosat uyushmasi»ning faoliyati shu maqsadga xizmat qilar edi. Uning yetakchi nazariyotchilari universitet professorlari bo‘lib, ularning dasturlari «kafedra-sotsializm» (kafedradagi sotsializm), deb atalar edi. Ushbu dasturdagi boshlang‘ich ta’limni majburiy kiritish, bolalar, o‘smirlar va ayollar mehnatini davlat tomonidan tartibga solish, ishchilarni kasallik va baxtsiz hodisalardan sug‘urta qilish, qarilik va mehnat layoqatlarini yo‘qotgan chog‘ida nafaqa to‘lash kabi islohotchilik g‘oyalari sotsial-demokratlar orasida ham keng yoyildi.

Germaniyada Luno Brentano ham asosiy nazariyotchilardan hisoblanib, «Yangi tarixiy maktab» ning liberal qanotiga boshchilik qildi. O‘zining «Klassik siyosiy iqtisod» (1888y.), «Tarixda axloq-odob va xalq xo‘jaligi»(1894y.) nomli asosiy asarlari bilan iqtisodiy fan taraqqiyotiga katta hissa qo‘shdi. L.Brentano G.Shimoller kabi iqtisodiyotda axloq va huquq omillari belgilovchi rol o‘ynaydi, deb hisoblab ishlab chiqarish va uning tabiiy va ijtimoiy jihatlariga e’tibor bermaydi. U ayriboshlash konsepsiyasining tarafdori bo‘lib, realizatsiya va ayirboshlash sharoitlarining o‘zgarishi xo‘jalik turmushida va ishlab chiqarish shakllarida belgilovchi ahamiyatga ega bo‘ladi, deb hisoblaydi. L.Brentano liberal kapitalistlarning manfaatlarini ifodalab, nemis ishchilar sifining inqilobiy-siyosiy chiqishlariga qarshi edi. U o‘zining liberal «ijtimoiy inoqlik» deb nomlangan islohotlar dasturida ingliz tred-yunionlari (kasaba uyushmalari) tajribalaridan keng foydalanishni taklif qiladi. Jumladan, kasaba uyushmalari fabrika qonunlari yordamida ishchilar o‘rtaga tashlagan talablarni qondirishda foydalanish bilan birga uy joy qurilishi va matbuot koperatsiyalarida ham turli masalalarni hal etishda keng foydalanishlari zarur, deb hisoblaydi.

L.Brentano ham davlat sotsializmi g‘oyalarini o‘z holicha talqin qilib, tobora keng tus olayotgan ishchilar harakatlarini ma’lum darajada jilovlashga harakat qilar edi.

Lekin, Brentano timsolida yangi tarixiy maktab o‘zining yuksak

cho‘qqilariga ham hali yetgani yo‘q edi. Uning ijtimoiy to‘qnashuvlarning oldini olishga qaratilgan «sinfiy inoqlik» nazariyasi islohotchilik oqimidagi ijtimoiy maktablar, institusionalizm yo‘nalishi uchun aosiy manba rolini o‘ynadi, xolos.

K.Menger, G.Shimollerning shogirdi Verner Zombart ham yangi tarixiy maktabning asosiy vakillaridan edi. Berlin universitetining professori, Zombart o‘zining K.Marksga yaqinligini ko‘rsatish maqsadida «Hozirgi zamon kapitalizmi» kitobida «Meni Shimollerdan K.Marks ajratib turadi», deb yozgan edi. U K.Marksning olimligini uning revolyutsionligidan ajratishga urinib, marksizm asoschisi ta’limotidagi mana shu ikki negizning bir-biriga zidligi to‘g‘risidagi fikrni ko‘tarib chiqdi. Shuningdek, markscha siyosiy iqtisodning iqtisodiy kategoriyalarini haqiqiy mazmundan mahrum etib, o‘z holicha ta’rifladi. Chunonchi, qiymatning mehnat nazariyasi «ishning g‘oyasi», deb e’lon qilindi va fikran mantiqiy bir ishdan iborat, deb ko‘rsatildi. Zombart ishlab chiqarishning uch omili xususidagi nazariyaning tarafdori bo‘lib (kapital, mehnat, yer), antagonistik ziddiyatlar va iqtisodiy inqirozlarning muqarrarligini inkor etdi. U o‘z asarida ijtimoiy- iqtisodiy formatsiyalar to‘g‘risidagi ta’limotni va ayniqsa, proletariat diktaturasi nazariyasini inkor qildi. Marksizm nazariyasiga Zombart sotsial pluralizm (lotincha pluralis - ko‘pfikrlilik) deb atalgan konsepsiyani qarama-qarshi qo‘ydi. U jamiyatning taraqqiyoti sotsializm sari borayotgani yo‘q, balki xo‘jalikning ko‘pgina eski va yangi shakllarini o‘z ichiga oladigan murakkab iqtisodiy sistema sari boryapti, deb ko‘rsatdi. Sotsial pluralizm konsepsiyasi Zombartning fikricha, jamiyat haqiqiy taraqqiyotga mos ravishda kapitalizm hayotining mustahkamligi va uzoq davom etishini isbotlashi kerak edi.

Zombartning iqtisodiy qarashlari bora-bora reaksion tus olib ketdi. II Jahon urushi yillarida u ochiqdan-ochiq militarizm va shovinizm tomonidan turib, Germaniya imperializmining mafkurachisiga aylandi. Uning asarlari esa nemis fashizmi mafkurasining shakllanishiga ko‘maklashdi. Ayniqsa «Nemis sotsializmi» (1934) kitobida, Zombart gitlerizmni oshkora maqtab yozdi, fashizmning inson zotiga nafratdan iborat doktrinasi barcha bandlari bilan birdam ekanligini bildirdi.

Uning fashizmga yaqinligi yangi tarixiy maktab vakillari orasida yagona jiddiy kamchilik edi.

Maks Veber har tomonlama ma’lumotli va ko‘pqirrali olim edi. U falsafa, tarix, sotsiologiya va iqtisodiyot fanlarini o‘rganib chiqqan edi.

M.Veber fanlarning rivojiga katta hissa qo‘shdi. Uning ijodida tarixiy

maktab o‘zining eng yuqori pog‘onasiga ko‘tarildi. M.Veber hammadan ko‘proq darajada noto‘g‘ri fikrga asoslangan millatchilik va bir taraflama «tarixiy usul»dan yiroqda edi. U ijodida hech qanday qiyinchiliksiz xalqlar iqtisodiy hayotining rivojlanish yillaridagi qiyinchiliklarni yengib, milliy xususiyatlar va an’analar orqali konkret tarixiy sharoitlar, milliy xarakterlar va ularning madaniyati qandaydir umumiy qonun asosida belgilanadi, degan fikrni ko‘rish mumkin. O‘zining dastlabki asarlarida M.Veber tarixiy fanlarga faqat bayonchilik yetarli emasligini ko‘rsatdi. U yuksak benuqson tiplar konsepsiyasini ilgari surdi. Yuksak va benuqson tip - bu o‘z mohiyatiga ko‘ra olim shakllantirgan konkret faktlar va u yoki bu xalqning tarixiy rivojlanish jarayonlarini tushuntirib berishi uchun tuzadigan muayyan sxemasidir. M.Veberning XV-XVI asrlarda Yevropaning xo‘jalik burilishiga deformatsiyaning ta’siri sohasidagi izlanishlari fanda juda katta iz qoldirdi. Bu izlanishlarning markazida «Protestant etikasi va kapitalizm ruhi» asari turadi. Ma’lum ma’noda, Veber Zombart amalga oshira olmagan ishni, ya’ni fundamental tarixiy-iqtisodiy asarini yaratdi. Bu kitob sayohatchining kelajak haqidagi yozuvlari emas, balki kosmosdan turib kuzatishi edi.

## Tayanch iboralar

Tarixiy maktab, F.List, millatning ruhi, iqtisodiy ta’limotlar tarixida tarixiy usul, yangi tarixiy maktab, davlat sotsializmi, benuqson tiplar, pluralizm.

## Muhokama uchun savollar:

1. XIX asrning o‘rtalarida Germaniyaning iqtisodiy rivojlanish xususiyatlarini aytib bering.
2. F.List iqtisodiy ta’limotlar tarixi fanida qaysi yo‘nalishga asos soldi?
3. F.List ta’limotida xo‘jalik taraqqiyotining tarixiy bosqichlari qanday ifodalanadi?
4. Tarixiy maktabning asosiy vakillari kimlar? Ular haqida ma’lumot bering.
5. V.Rosherning asosiy iqtisodiy asari, uning uslubiyati nimalardan iborat?
6. K.Knisning tarixiy maktab rivojiga qo‘shgan hissasi va uslubiyatini tushuntirib bering.
7. B.Gildebrand taklif etgan insoniyat taraqqiyotining sistemasi qaysi xususiyatlari bilan ajralib turadi?

8. Tarixiy maktabning iqtisodiyot fani rivojiga qo‘shgan hissasi va yo‘l qo‘ygan kamchiliklari haqida gapirib bering.

9. G.Shimoller va L.Brentanoning iqtisodiy mavzudagi asosiy asarlari va uslubiyati haqida gapirib bering.

# X BOB. IQTISODIY TA’LIMOTLARDA SOTSIALISTIK YO‘NALISH

## 10.1. Iqtisodiy ta’limotlarda sotsialistik yo‘nalish va ularning tarixiy taqdiri

Hayoliy sotsialistik g‘oyalarining dastlabki ko‘rinishlarida, ya’ni Platon asarlaridan boshlab T.Mor va T.Kompanelli asarlarining barchasida xususiy mulk tanqid qilib kelindi.

Bu olimlar jamiyatni qayta tuzishni taklif qilib nisbatan adolatli, rivojlangan jamiyatni asoslab berishga intildilar. Lekin, bularning barchasi xayoliy sotsializm shakllanishi arafasidagi dastlabki g‘oyalar edi, xolos. Hayoliy sotsializmning haqiqiy rivojlanish davri XIX asrning birinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. Bu davrda G‘arbiy Yevropa kapitalistik munosabatlar rivojlanib, sinfiy ziddiyatlar oshkor bo‘ldi. Ayniqsa, klassik iqtisodiy maktab vakillarining asosiy asarlarining ta’siri ko‘pgina maktablarda bo‘lgani kabi xayoliy sotsialistlar qarashlariga ham jiddiy ta’sir o‘tkazdi. Shuningdek, bu davrda sanoat to‘ntarilishining yakunlanishi va Yevropa mamlakatlarida yuz bergan jiddiy iqtisodiy o‘zgarishlar ham hayoliy sotsialistlar A.Sen-Simon, Sh.Fure va R.Ouenlar o‘z asarlarida ko‘rsatib, mavjud kapitalizmni ichki xususiyatlarini kengroq ochib berishga intildilar. Bu olimlar guruhi iqtisodiy fan rivojiga katta xissa qo‘shib, ilk bor kapitalistik munosabatlar abadiy emasligini, unda iqtisodiy inqirozlar mavjud bòlishini ko‘rsatib berdilar. Shu jumladan, ular ham klassiklar kabi texnika taraqqiyotining jadallashuvi, ilmiy kashfiyotlar va jamiyat ishlab chiqarishini umumjahon rivojini iqtisodiy siyosatning asosiy maqsadi deb hisobladilar. Bundan tashqari, xayoliy sotsialistlar tabiiy tartib konsepsiyasiga amal qilib jamiyat va alohida olingan insonning ideal ijtimoiy tuzilishi modelini ilgari surdilar.

***XIX asrning birinchi yarmidagi hayoliy sotsializmning o‘ziga xos xususiyatlari.*** Xayoliy – sotsialistlar klassik iqtisodiy maktab vakillaridan farq qilib, xususiy mulkchilikni va kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlarini tanqid qiladilar, jamiyatning barcha a’zolariga baxt keltiradigan yangi jamiyat yuzaga keladi, deb ishchilarni ishontiradilar. Ular yangi jamiyat adolatli ijtimoiy tuzim loyihalarini bayon etib, iste’mol va taqdimotni qayta tashkil etish bilan cheklanib qolmasdan balki ishlab chiqarishni tubdan o‘zgartirishni taklif qildilar.

Shuningdek, ularning ijtimoiy adolatni targ‘ib qilishga qaratilgan g‘oyalari aynan adolatsizliklardan voz kechishi zarur degan fikrlari asosida nafaqat hayoliy balki bozor iqtisodiyotiga qarshi qarash

ko‘rinishini oladi. Va nihoyat, XIX asrning birinchi yarmida ijod qilgan hayoliy – sotsialistlar ta’limotlarida bozor iqtisodiyotiga muqobil qarashlari turlicha namoyon bo‘ladi. Bu o‘rinda ushbu maktab vakillarining birinchidan, individual (yakka) faoliyatni jamoa mehnat faoliyati bilan almashtirish mexanizmini qanday izohlashlari bilan, ikkinchidan mehnatkashlarni jamoa tashkilotlariga birlashish tamoyillari xususiyatlarini qay tarzda tushuntirishlarida o‘z aksini topadi.

Bu shart-sharoitga e’tibor berib, Sh.Jid va Sh.Rist o‘z asarlarida quyidagicha yozishadi: «Sen-Simon va uning izdoshlari haqiqiy jamoachilik (kollektivizm) tarafdorlari bo‘lib, ular jamoat tashkilotlariga millatning hamma a’zolarini kiritishga harakat qiladilar va bunday birlashuvni tepadan boshlashni taklif qiladilar, ya’ni milliylashtirish va boshqa jarayonlarni endi siyosiy hokimiyat o‘z qo‘liga oladi».

R.Ouen va Sh.Fure hamda ularning izdoshlari «Sotsialist-assotsiatsiyachilar» bo‘lib, Sen-Simonchilardan farqli o‘laroq indivit to‘da (massa) ichida yo‘qolib ketmasligini istadi. Ularni mayda avtonom guruhlar yordamida saqlab qolishni taklif qilib, birlashuv jarayonini yuqoridan emas balki quyidan borishini maqsadga muvofiq deb hisoblaydilar.[44]

Nihoyat, hayoliy-sotsializm namoyandalari o‘zlarining benuqson ijtimoiy tuzumlarini turlicha: Sen-Simon industrializm, Fure garmoniya, Ouen esa kommunizm deb atadilar. Lekin ularning barchasi ekspluatatsiyaning yo‘q bo‘lishi, aqliy va jismoniy mehnat o‘rtasidagi qarama-qarshilikning bartaraf etilishi hamda xususiy mulkning yo‘q bo‘lishi to‘grisidagi fikrlarni bir xil takrorladilar. XVIII asrning oxiri, XIX asrning boshlarida G‘arbiy Yevropada ishlab chiqarishning hukmron shakli manufaktura bo‘lib, fabrika ishlab chiqarishi endigina shakllanayotgan edi. Kapitalizmning moddiy sharoitlari va ishchilarning jamiyatning asosiy sinfi sifatida shakllanishi dastlabki bosqichlarda edi.

Hayoliy – sotsialistlar ijtimoiy adolatli jamiyatga o‘tish yo‘llarini aniq ko‘rsata olsalarda, lekin ular sinfiy manfaatlar qarama – qarshiligini ta’kidlab o‘tdilar. Ular ishchilar sinfiga ezilgan jabrlanuvchi sinf sifatida qarab, asosiy e’tiborni ongni rivojlantirishga, o‘z g‘oyalarini tashviqot qilib kommunalar, «falansterlar» orqali hayotga tatbiq etishga qaratdilar. Mehnatkashlarni ozod etishning moddiy sharoitlari yaratilmaganligi tufayli hayoliy – sotsialistlar bo‘lajak jamiyatning fantastik loyihalarini taklif etdilar. Ular o‘zlarini sinflardan yuqori qo‘yib, jamiyatning barcha a’zolari manfaatlarini ifoda etayotganliklarini ko‘rsatmoqchi bo‘ldilar.

[44] Ш.Жид, Ш.Рист. История экономических учений. - М., Экономика, 1995. Стр.170.

Shuningdek, siyosiy kurash, revolyusiyalarni rad etib, ijtimoiy adolat g‘oyalarini tashviqot qilish yo‘li bilan jamiyatni qayta tuzishni orzu qildilar. Mana shularning barchasi g‘oyalarning xayoliy bo‘lib qolishiga sababchi bo‘ldi. Biroq, hayoliy sotsializm o‘zining cheklanganligiga qaramasdan, kapitalizm oyoqqa turayotgan bosqichda progressi ta’limotlar qatorida alohida o‘rin egallaganligini aytishimiz lozimdir.

## 10.2. Sen-Simon, Sh.Fure va R.Ouenlarning iqtisodiy qarashlari.

Fransiyada burjua inqilobidan keyin kapitalizm yana tez rivojlandi. Jamiyat oldida doimiy ravishda ko‘ndalang bo‘lib qolgan yangi savolllarga fransuz mutaffakkiri Sen-simon birinchi bo‘lib javob berishga urindi.



**Anri Klod de Rebrua Sen-Simon** (1760-1825 yy.) Fransiya xayoliy sotsializmining namoyandasi bo‘lib, quyidagi mashhur asarlarning muallifidir: «**Sanoat tizimi haqida**», «**Inson haqidagi fan ocherklari**», «**Sanoat yoki siyosiy, ma’naviy va falsafiy mulohazalar**», «**Yangi xristianlik**» va boshqalar.

Sen-Simon maxsus iqtisodiy tadqiqotlarni amalga oshirmadi, balki asosiy e’tiborni ijtimoiy muammolarga karatdi. U butun yaxshi jamiyat to‘grisidagi umidini akl-idrokka, ma’rifatga bog‘ladi, u insonning aql-idrokini tarixiy jarayonning to‘la hokimi va rahbari sifatida bildi, jamiyatni yaxshi tarzda qayta qurish yo‘llarini tashviqot qilishni esa o‘z ta’limoti amalga oshirilishining bosh vositasi deb hisobladi.

Fransuz ma’rifatparvarlaridan farq qilib, Sen-simon ishlab chiqarishdagi inson faoliyati, mulkchilik formalari kabi iqtisodiy faktorlarga katta baho berdi. U «*Ilk davr*», «*Qulchilik*», «*O‘rta asrlar*», «*Hozirgi davr*» va «*Oltin asr*»larni alohida ajratib, ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarni ko‘rsatib O‘tdi. «Hozirgi davr» (ya’ni XIX asrlarning ikkinchi yarmi) O‘tish davri deb belgilanib,

«*… bu davrda, - deb yozadi Sen-Simon, -olimlar, tadbirkorlar va ishchilardan iborat sanoatchilar shakllanadi, ular qirol hukumati bilan birgalikda odil jamiyatni barpo etishlari kerak, bu esa o‘z navbatida «Oltin asr»ga kirib kelishni ta’minlaydi».*

Sen-Simon o‘zining tarixiy konsepsiyasidan kelib chiqib, hozirgi davrni o‘rganib borish uchun o‘tgan davrga nazar tashlash kerakligini

aytib, «*har bir alohida olingan davr mulohazasida juda yuzaki, hatto notug‘ri xulosalarni beradi, so‘nib borayotgan o‘tmish qoldiqlari, tug‘ilib kelayotgan kelajak bilan qorishtirib yuboriladi*», deb ko‘rsatadi.

Tarixiyligiga qaramay Sen-Simonning jamiyatning rivojlanish konsepsiyasi idealistik edi, chunki uning asosini fan taraqqiyoti, ong va g‘oyalar ravnaqi tashkil etardi.

Lekin uning idealistik tarixiy konsepsiyasida ayrim materialistik fikrlar ham yo‘q emas. Jumladan, Sen-Simon shaharlar, sanoat va savdoning rivojlanishi burjuaziyaning shakllanishiga sabab bo‘lganligini, iqtisodiy holat esa mulkchilikka tobe bo‘lgan o‘ziga xos ijtimoiy-tarixiy formalarni vujudga keltirishini aytib o‘tadi. «*hokimiyat va boshqaruvni belgilovchi qonun ham,* - deb yozadi u, - *mehnat farovonligini to‘liq ta’minlay oladigan mulkchilik va undan foydalanishni belgilovchi qonundek katta ahamiyatga ega emas*». (Xaqiqatdan ham, hozirgi vaqtda respublikamiz va qo‘shni mustaqil respublikalar iqtisodiy taraqqiyotida mulkchilik va mulkchilik formalari haqida qabul qilingan qonunlar ahamiyati kattaligini eslang).

Sen-Simonning bo‘lajak adolatli jamiyati industrial tizim deb nomlanib, u industrial jamiyat yirik sanoat ishlab chiqarishi bazasi asosida rivojlanadi, sanoat – alohida reja asosida, boshqaruv esa yagona industrial markaz orqali amalga oshiriladi deb hisoblagan edi.

Sanoat ishlab chiqarishining taraqqiyoti va mahsulotlarni taqsimlash olimlar tomonidan olib boriladi. Katta tajribaga ega bo‘lgan sanoat kapitalistlari boshqaruvni tashkil qilish bilan mashg‘ul bo‘ladilar, ishchilar esa ishlab chiqarish rejalarini bajarish uchun astoydil mehnat qilishlari zarurdir.

Sen-Simon yangi ijtimoiy tashkilotni vujudga keltirishda, ayniqsa, sanoatda anarxiyaga (xokimimiyatsizlikka) yo‘l qo‘yilmasligiga va reja asosidagi markaziy boshqaruvga katta e’tibor berishni taklif etadi. Sen-Simon qarashlariga ko‘ra, erkin raqobatga asoslangan ijtimoiy tizim bu tugab borayotgan feodalizmdan yangi ideal jamiyatga o‘tish davridagina emas, balki inqilobiy harakatlardan holi, tinch sur’atlarda ijtimoiy tenglikka asoslangan «industrial jamiyat»ga o‘tish davri hamdir. Adolatli «industrial jamiyat» ko‘rilishi haqidagi o‘zining mulohazalarida u ilmu-fan va ilg‘or nazariyalarga yuqori baho berib, bo‘lg‘usi yangiliklarni tarixiy muqarrar deb hisoblaydi. Shu bilan bir qatorda Sen-Simon o‘zining «industrial jamiyat»ida boshqa xayoliy-sotsialistlar kabi qarama-qarshi sinflarni yuqolib ketishi va hokimiyat tomonidan siyosiy funksiyalarga nisbatan iqtisodiy funksiyalarga katta e’tibor berishini

taxmin qiladi. Lekin shuni alohida qayd etish zarurki, xayoliy sotsializmning boshqa barcha vakillaridan farq qilib Sen-Simon sotsializmda xususiy mulkchilik bo‘lishini inkor etmaydi, balki aynan xususiy mulkchilik va undan foydalanishni tartibga soladigan qonun zarurligini ko‘rsatib o‘tadi.

Shuningdek, olim o‘z qarashlarida anarxiyaga insonlarga ziyon yetkazuvchi boshqaruv deb qarab, uni tanqid qiladi. U mavjud o‘zgarishlar tezlik bilan rivojlanib, davlatning to‘liq kamolatini ta’minlaydi, insonlar esa erishishlari mumkin bo‘lgan tenglik va ayniqsa, mul-kchilikka faqat shu «industrial jamiyat» yordamida yetib boradilar deydi. Garchi Sen-simon yangi ijtimoiy tuzumning xaddan tashqari mujmal manzarasini tasvirlagan, shu jamiyatga borishning notog‘ri yo‘lini ko‘rsatgan bo‘lsa ham uning ba’zi taxminlari katta kelajakka molik edi. U proletariatning nazariyotchisi emas edi va shu sababli uning tarixiy rolini tushunmadi. Ayni vaqtda u ishchilar ahvolining naqadar og‘irligini ko‘rdi. «*Mening maqsadim,* - deb yozgan edi u, - *Yevropadagina emas, butun dunyoda ham shu sinfning qismatini yengillashtirishdan iborat*». U davlatni «odamlarni boshqarish quroli» dan ishlab chiqarishni tashkil etish, fan va san’at taraqqiyotini ta’minlash, ya’ni «narsalarni boshqarish quroli» ga aylantirish tartib, osoyishtalikni nazorat qilishni esa jamoatchilikka topshirish kerak, degan g‘oyani ilgari surdi. Sen-Simonning yangi industrial tizimi sotsialistik jamiyat emas edi, chunki unda xususiy mulkchilik, kapital jamg‘arish, bankirlar va tadbirkorlar sinflari hali mavjud edi. Bu esa o‘z navbatida umumxalq mehnatiga asoslangan rejali keng ishlab chiqarishni inkor etadi.

Sen-Simon asarlarining asosini kapitalizmni tanqid tashkil etadi. Bu ishlab chiqarish va taqsimotdagi anarxiyani, raqobat, xalq ommasining qashshoqlashuvi va ishchilarning ayanchli ahvoldaligini kapitalizm illati deb hisoblaydi. Olim ishchilar, kapitalistlar va savdogarlarni bir sinf vakillari deb, ularni industriallar deb atadi. Feodal jamiyatining hokim sinflari bo‘lgan dvoryanlar, ruhoniylar va boshqa amaldorlarni esa befoyda, keraksiz sinflar deb hisoblaydi. Shuni aytish kerakki, Sen-Simon kapitalizmni ilmiy ravishda tanqid qilmadi. U burjua jamiyati bo‘ysinishi zarur bo‘lgan iqtisodiy qonunlarni e’tibordan chetda qoldirdi.

Sen-Simon ta’limotlarni tashviqot qilishda uning shogirdlari *O.Rodrig*, *V.Anfonten* va *O.Bazar*lar katta rol o‘ynadilar. Ular «**Sen-Simon ta’limoti**» kitobini nashr qildirib, uning nazariy qarashlarini boyitdilar, lekin bu olimlar ham burjua jamiyatining asosiy sinflari va ular o‘rtasidagi sinfiy kurash mohiyatini to‘liq tushunmadilar, natijada XIX

asrning 30- yillariga kelib, Sen-Simon maktabi tor doiraga aylandi va tarqalib ketdi.



Fransuz hayoliy sotsializmining yana bir yirik namoyandasi **Fransua Mari Sharl Fured**ir (1772-1837yy.). U Bezanson shahrida savdogar oilasida dunyoga kelib, butun hayoti mobaynida savdo bilan shug‘ullandi. Bo‘sh vaqtlarida o‘z ma’lumotini to‘ldirib, mustaqil ravishda fizika, astronomiya va falsafa fanlari bilan shug‘ullandi, ijtimoiy tadqiqotlarni amalga oshirdi. Sharl Fure o‘zining «**To‘g‘ri harakat va mushtarak taqdirlar nazariyasi**», «**Umumiy birlik nazariyasi**», «**Savdo qallobligi haqida**», «**Yangi sanoat dunyosi va ijtimoiy dunyo**» nomli asarlari va qator maqolalarida kapitalistik jamiyatni keskin tanqid qildi va ijtimoiy adolatli jamiyat barpo etish dasturini ishlab chiqdi. Uning tasvirlashicha, inson o‘zi yashayotgan jamiyatning barcha yaramas illatlaridan tozalanishi lozim, shunday ijtimoiy tuzum o‘rnatish kerakki, bu tuzum insonning kamol topishiga, extiyojlarini to‘liq namoyon qilishiga, extiyojlarini qondirishga imkoniyat bersin.

SH.Fure kishilik jamiyatining tarixiy rivojlanishini o‘rganishga o‘zining katta xissasini qo‘shdi. F.Engels «**Anti Dyuring**» asarida shunday degan edi: «*o‘tmishning asosiy etap* (*bosqich*) *larida SH.Furening genialligi keng namoyon bo‘ldi. U jamiyat o‘z rivojlanishida yovvoyilik, patriarxalchilik, varvarlik va sivilizatsiya (madaniyat) bosqichlarini bosib o‘tganligini ko‘rsatib berdi*». Bunday taqsimot garchand ishlab chiqarish taraqqiyoti darajasini hisobga olgan bo‘lsa-da, lekin ishlab chiqarish munosabatlarining xususiyatini va moddiy ishlab chiqarishda ishlab chiqarish usulining turlichaligini inkor etadi. Shuning uchun varvarlikka quldorlik va feodalizm kabi turlicha ijtimoiy-iqtisodiy jamiyatlar kiritiladi. Sivilizatsiya davrini esa u kapitalizm vujudga kelishi bilan bog‘laydi. Lekin shuni aytish kerakki, uning qarashlariga xos xususiyat har bir davrning asosiy faktori sifatida faqat ishlab chiqarish darajasinigina emas, balki inson ehtiyojlari va tabiatni uyg‘unligini ham alohida ajratib ko‘rsatishdir.

Shunday qilib, ana shu holatlar muayyanligining vujudga kelishi o‘z navbatida sivilizatsiyalar o‘rniga har tomonlama rivojlangan assotsiatsiyalar (uyushmalar) tashkil topishiga sabab bo‘ladi.

Kapitalizmni tanqid qilish SH.Fure ta’limotining eng kuchli jihatidir. Jamiyatning yangi sotsial tashkiloti barpo etilmasa, ishlab chiqarishning rivoji mehnat ahliga baxt emas, balki kulfat keltiradi, deydi u. «*Burjua sivilizatsiyalarining o‘ziga xos xususiyati*, - deb yozadi olim, - *tartibsiz ishlab chiqarishdan iborat. Boylik ko‘paymoqda, ammo ishlab chiqaruvchi inson ana shu ko‘payib borayotgan boylikdan baxramand bo‘layotgan yo‘q*» (SH.Fure. Izbranniye sochineniY. T.II, M., 1954, str.68). U aholining ayrim qismi behuda, parazit hayot kechirib, ezilgan mehnatkash xalqning ekspluatatsiya qilinishi hisobiga yashayotganini aytish bilan birga, bunday jamiyat aholining barcha qatlamlarini to‘liq ta’minlash imkoniga ega emas degan xulosaga keldi. SH.Fure ayniqsa, kapitalistik savdo nuqsonlarini, undagi tovlamachilik, olibsotarlik va muttahamlikni fosh etadi. «*Agar biz Sen-Simonda*, - deb yozgan edi. F.Engels, - *tafakkurning genial kengligini, shuning natijasida uning qarashlarida eng so‘nggi sotsialistlar nomuntazam iqtisodiy fikrlari deyarli hammasining kurtaklari bayon etilganini ko‘rsak, SH.Fure mavjud ijtimoiy tuzumni tanqid qilganligini, bu tanqidda sof fransuzcha O‘tkir zehnning, tahlilning g‘oyat chuqurligi bilan qo‘shilganligini ko‘ramiz, u burjua dunyosining jamiki moddiy va ma’naviy nochorligini toqatsizlik bilan fosh qilib tashladi…»* Haqiqatdan ham SH.Fure o‘z asarlarida nafaqat mavjud jamiyatni balki klassik iqtisodiy maktab vakillari yuqori baho berayotgan erkin raqobatga asoslangan iqtisodiyotni ham va umuman klassiklarning o‘zlarini ham keskin tanqid qiladi. Uning fikriga ko‘ra erkin raqobatga asoslangan iqtisodiyot savdogarlar va savdo agentlar sonini keraksiz darajada oshirib yuborgan bo‘lib, bu esa asosiy kamchiliklarni e’tibordan chetda qoldirgan. SH.Fure sivilizatsiya jamiyatning kamchiliklari deb quyidagilarni belgilaydi: ijtimoiy xalos; aholi nufuzini oshib borishi; kambagallikni kuchaytiruvchi industrializm va boshqalar. Lekin SH.Fure kapitalizmni har tomonlama tanqid qilgan bo‘lsa-da, boshqa hayoliy sotsializm namoyandalari singari u ham islohotlar yo‘li, tashviqotni kengaytirish bilan ekspluatatsiya, adolatsizlikka qarshi kurashib, «odil jamiyat» sari bormoqchi bo‘ldi. Kelajak jamiyatning asosiy yacheykasi bir necha ishlab chiqarish assotsiatsiyalaridan iborat falanga (jamoa) dir. Falanganing har bir a’zosi mehnat qilish huquqiga ega bo‘lib, mehnat zavq bagishlashi, kishilarning extiyojiga aylanishi kerak. Sh.Fure o‘sha paytda mashaqqat deb hisoblangan mehnat qanday qilib inson uchun huzur-xalovatga aylanishi mumkin degan masalani o‘rtaga qo‘yadi. U burjua huquqi tizimini tanqid qilib, mehnat qilish huquqini birinchi o‘ringa qo‘yadi, mehnat qilish

huquqi bo‘lmasa qolgan hamma huquqlarning qadri yo‘q deb hisoblaydi. Uning mehnat musobaqasi to‘grisidagi, mehnatni insonning g‘ayrat-shijoati namoyon bo‘ladigan ijodiy jarayonga aylantirish haqidagi g‘oyalari ijobiy ahamiyatga egadir.

Angliya – sanoat to‘ntarishini amalga oshirgan birinchi mamlakat bo‘lib, kapitalizm u yerda tez va dadillik bilan rivojlandi. Bu xol tabiiy, Angliya xayoliy sotsializmining o‘ziga xos xususiyatini belgilab berdi. U xususiy mulkchilikning barcha ko‘rinishlarini inkor etib, fransuz sotsialistlarining industriallar jamiyati, turli uyushmalariga moyilligi yo‘q edi. Siyosiy iqtisodni proletariat manfaatlariga xizmat qildirishga harakat kommunistik jamoalar tashkil etish tajribalarini qo‘llash va nihoyat tinch yo‘l bilan yangi «odil jamiyat» ni qurish imkoniyatlarini isbotlashga urinish bu maktabga xosdir.

Angliya xayoliy sotsializmining vujudga kelishi va rivojlanishi Robert Ouenning (1771 – 1858yy.) hayoti va ijodiy faoliyati bilan bogliqdir. U Shimoliy Uelsda hunarmand oilasida dunyoga keldi. Maktabni tugatgach, o‘zi mustaqil shug‘ullangan, yoshlik yillaridayoq mehnatkashligi, tadbirkorligi bilan ajralib turgan. R.Ouen 1800 yildan boshlab pyu-Lenark (Shotlandiya) dagi yigiruv korxonasida boshqaruvchi bo‘lgan, o‘sha yillarda unda insoniyatni qutqarishni maqsad qilgan islohatchilik g‘oyalari shakllanadi. Biroz keyinroq (1820 yildan boshlab) xayoliy sotsializmga xos bo‘lgan fikrlar va tashviqotga asosiy e’tiborni qaratadi. R.Ouenning «**Jamiyatga yangicha qarash yoki harakterni shakllantirish haqida tajribalar**», «**Yangi axloqiy dunyo kitobi**», «**Adolatni almashuv bozori**», «**Ulug‘ milliy hunar ittifoqi**» asarlarida uning sotsialistik loyihalari bayon etilgandir. U kapitalistik jamiyatni tanqid qilib, uning xalqqa qarshi mohiyatini ochib beradi. Barcha mulkni umumning mulkiga aylantiradigan, qashshoqlik yuqoladigan, mehnat jafo-zulmdan baxt-saodatga aylanadigan kommunistik jamoalar tuzish fikriga keldi. Shu maqsadga xalaqit beradigan uchta to‘siq bor, deydi u. Bu uchta illat: xususiy mulk, din va burjuacha nigohdir. Biroq olim kapitalistik taraqqiyotning obyektiv qonunini tushunmadi, sinflar ko‘rashini inkor etdi. Yangi tuzum yangi yo‘l bilan yoki tinch yo‘l bilan ko‘riladi va unga tinch yo‘l bilan o‘tiladi, deb ishondi. R.Ouenning loyiha va ijtimoiy dasturlari fransuz xayoliy-sotsialistlaridan farq qilib, ancha aniq va amaliyligi bilan ajralib turadi. U ishchilar mehnatini yengillashtiradigan yoshlar va qariyalar mehnatidan tungi ish vaqtida foydalanishni ma’n etgan, rag‘batlantirishni tashkil qilgan, u Angliyaning ilk fabrika qonunchiligining asoschilaridan edi.R.Ouen iqtisodiy

qarashlarining tavsifli xususiyati shundan iboratki, u burjua siyosiy iqtisodini inkor etgan fransuz hayoliy sotsialistlaridan farq qilib, o‘z nazariyalarini yaratishda Rikardoning qiymatning mehnat nazariyasiga tayanadi. U Rikardodan keyin qiymatning asosiy manbai deb mehnatni hisobladi. Xususiy mulk bilan bir qatorda mehnat bilan kapital o‘rtasidagi qarama - qarshiliklar sababchisi deb pul hisoblandi.

R.Ouen qiymatning sun’iy o‘lchovi bo‘lmish puldan voz kechib, mehnat harajatlarining ekvivalenti sifatida «ishchi pullarini» joriy etishni taklif etadi. U kapitalistik ishlab chiqarishni qaytadan tuzib «ishlab chiqarish uyushmalarini» tashkil etishga harakat qildi.

Lekin bu urinishlar behuda bo‘lib chiqdi, chunki kapitalistlar o‘z korxonalarini ixtiyoriy sotish haqida o‘ylamagan bo‘lsalar, kasaba uyushmalari sotib olish uchun imkoniyatlari yo‘q edi. R.Ouen birinchilardan bo‘lib T.Maltusning «aholi nufuzi» qonuniga qarshi chiqdi. U mehnatkashlarning og‘ir ahvolga tushib qolishiga aholi soni ortib borishi emas, balki mavjud mahsulotlarning adolatsiz taksimlanishi sabab bo‘lmoqda, deb ko‘rsatadi.

R.Ouen hayoliy sotsializmi va uning isloxotchilik faoliyati qarama - qarshi harakterdadir. U ishchilarning manfaatlarini himoya qilib, boylik mehnatda yaratiladi, deb ko‘rsatish bilan birga ayni vaqtda ishchilarga e’tiborsiz passiv rol belgilaydi, kapitalistlarni esa asosiy kamchilik qoniqarsiz tarbiyada deb oqlashga harakat qiladi. Lekin olim qarashlari va faoliyatida qarama-qarshiliklar bo‘lishiga qaramay, uning ayrim tajribalari barbod bo‘lgan bo‘lsa-da, umuman olganda R.Ouenning g‘oyalari ijobiy ahamiyatga ega bo‘lib, Angliya ishchilar harakati taraqqiyotida katta rol o‘ynadi. U o‘zining ko‘pgina asarlarida jamiyatni to‘gri tashkil qilish konsepsiyalarini ilgari suradi. Ularning barchasida har bir fuqaro uchun mehnatning majburiyligi, jamiyatning eng muhim tamoyillaridan deb hisoblanadi. Shuningdek, R.Ouenning ishlab chiqarish uyushmalarida ishchi pullarini o‘rni moddiy boyliklar odilona taqsimlash masalalarini va umuman xususiy mulkchilikka berilgan baho o‘sha davr uchun katta ahamiyatga molik edi.

## 10.3. Sotsialistik-Rikardochilarning iqtisodiy qarashlari

XIX asrning 20-30 yillarida Angliya hunarmandlari va ishchilari orasida sotsialistik g‘oyalar shakllandi. Bu g‘oyalarni o‘rganish bilan yangicha yo‘nalishni tashkil qilgan olimlar *Jon Grey*, *Tomas Godskin* va *Jon Brey*lar edilar. Ular asosan ishchilar orasidan kelib chiqib, muammolarni xal etishda mustaqil ravishda o‘z qarashlarini e’lon qildilar.

**Tomas Godskin.** O‘tgan asrlarda ilmiy axborot va publitsistika janr sifatida hali bir-biridan ajralmagan edi. T.Godskin asarlari bilan yaqindan tanishar ekanmiz, bu yerda biz ilmiy izlanishlarning bizning tafakkurimizga ko‘ra belgilarini topamiz. Avvalo bu qo‘yilgan masalaga yaqindan taalluqlidir.

1827-yilda T.Godskin «**Taniqli siyosiy iqtisod**» nomli kitobini e’lon qildi, lekin uning asosiy g‘oyalari avvalroq 1825 yilda «**Kapitalning daf qilishiga qarshi mehnatni himoyalash**» asarida bayon etilgan edi.

Dastlabki nazariyalarida olim kapital ishlab chiqarishdan tashqarida degan fikrni bildirib, o‘z zamondosh iqtisodchi olimlariga qarshi chiqdi. Uning fikricha, aylanma kapital umuman yig‘ilgan zapaslar emas, masalan, ishchilar novvoyxonada non yopishadi, boshqa ishchilar esa uni sotib olishadi, demak, aylanma kapital – bu zapas «yigilma» emas, balki «mavjud» mehnatdir.

T.Godskiy asosiy kapitalni to‘plangan mehnat deb biladi, lekin ishchilarsiz xech qanday mashina hech narsa ishlab chiqara olmaydi. Bundan shunday xulosa chiqadiki, foyda o‘tgan mehnat hisobiga emas, balki kundalik mehnat tufayli yuzaga keladi. Lekin asosiy kapital o‘z egasi uchun mehnatdan ustunlik qilish vositasi hisoblanadi. Yuqorida aytilganlarning barchasidan T.Godskinning ikkinchi tezisi kelib chiqadi: kapitalist tomonidan o‘zlashtirib olingan foyda ishchilarning mehnatdan oladigan to‘liq mahsulot huquqini buzish demakdir. Bu zo‘ravonlik kapitalistlar tomonidan mehnatning bo‘ysundirilishi bo‘lsa, ularning hokimiyati ishchi mahsulotini o‘zlashtiradi. T.Godskin: «*…kapitalistlar o‘z* h*ollaricha Rikardoning qiymatning mehnat nazariyasini buzishadi, u* h*olda bu qanday qonun bo‘ldiki, u yoki bu kishilarning xohishiga* q*arasa!*...», - deb yozadi.

Kapitalistlar hech narsa ishlab chiqarmaydilar, lekin ular o‘zlarini ish bilan ta’minlovchi va rahnamo deb ishchilarni ishontiradilar. Bu yerda Godskin siyosiy iqtisodni ayblaydi, chunki u bir vaqtning o‘zida ham ularning da’vosini oqlaydi, ham ularni hayron qolarli darajada rivojlanish hamda sivilizatsiyaning buyuk va munosib quroli deb ataydi. T.Godskinning aytishicha, jamiyatdagi barcha jamg‘arma kapitalistlar tomonidan amalga oshiriladi. Lekin maxsulotni ishlab chiqarishga ketadigan harajatlarni va kapitalistga foyda ko‘rinishida tegadigan maxsulotni ham faqat ishchi ishlab chiqaradi. Foyda ko‘p bo‘lgan sari ish haqi kam bo‘lishini ko‘rsatib o‘tadi. (Bu fikr Rikardoniki bo‘lganligini eslab o‘taylik). Godskin esa bu fikrdan uzoqlashganligini quyidagi misollarda ko‘rishimiz mumkin. Ko‘ylak va ikki juft etikning haqiqiy

bahosi mehnatning ma’lum miqdori hisoblanadi. Lekin u yoki bu tovarni qo‘lga kiritish uchun ishchi kapitalist foydasiga yana ko‘proq mehnat miqdorini sarf etishi kerak. Godskin *ishchi ishlab chiqargan hamma narsa uning o‘ziga tegishli bo‘lishi kerak*, deb yozadi. Lekin har bir ishchining tegishini qanday belgilash mumkin? Ishlab chiqarishda mato bo‘lagi yigiruvchida, tikuvchida, oqartiruvchi va buyoqchida, ularning hammasi turli xil shaxslardir. Bu yerda mehnat taqsimlangan. Ularning har biri alohida bitta operatsiyani bajaradi va buning natijasida tayyor maxsulot yuzaga keladi. Buni qanday bo‘lish mumkin? «*Men bu masalani xal etishni ishchilarning o‘zlariga erkin xal qilish uchun berishdan boshqa yo‘lni bilmayman*». T.Godskin kapitalistlarda ikkita funksiyani ajratadi. Ishbilarmonlar, tashkilotchi va ixtirochilar kabi ular ham ishchilardir. Lekin kapitalistlar va kapitalning vakillari kabi ular faqat ishchilarga zulm qiluvchi vositadirlar. T.Godskin bunday xo‘jayinlarni mamlakatdan chiqarib yuborishni maslahat bermas edi. Begona o‘lkalarda kashfiyotchilik va uddaburonlik bo‘lib, mamlakatdagi qolgan aholiga ziyon yetkazish demakdir. Haqiqiy adolatni tiklashning birdan-bir vositasi yoki chorasi, - deb hisoblaydi olim, - ishchilarni kasaba uyushmalariga birlashtirishdir.

***Jon Grey***. Yoshlik yillaridanoq R.Ouen pafmletlarini o‘qib, ularni targ‘ibot qildi. 1825 yilda u o‘zining «**Inson baxti haqida ma’ruzalar**» kitobini nashr qildirdi. XIX asrning 20-30 yillarida ingliz ishchilarining sevimli kitobi bo‘lgan bu qo‘llanma R.Ouen ta’siri ostida yozilgan edi. J.Greyning fikricha, jamiyat uch toifadagi kishilarga bo‘linadi: birinchisi, ishchilar, ular barcha moddiy boyliklarni yaratuvchi kishilardir. Ikkinchisi, shifokor, o‘qituvchi va boshqalardir. Uchinchisi esa «mustaqil sinflar» dir. «*Bu mustaqil sinflarni tashkil qiluvchi kishilar ikki xil holatga bog‘liqdir. Birinchidan, atrofdagilarning mehnatsevarligiga, ikkinchidan, noxaqlikning mavjudligiga. Bu esa ular ustidan hukmronlik qilish imkoniyatini beradi*.» J.Greyning qarashlarida zo‘rlikdan yuz o‘girishga va adolatga tinch yo‘llar bilan erishishga chaqiriqni uchratishimiz mumkin.

Olimlarning fikricha, jamiyatning asosini ayirboshlash munosabatlari tashkil qiladi. Kishilar orasida boshqa barcha munosabatlar esa mana shu munosabatlar ustiga ko‘riladi. Qashshoqlikning bosh sababchisi esa raqobatdir. «*Faqat savdo tartiblarining to‘liq o‘zgarishi insonlarni baxt-saodatga olib keladi*».

1831 yilda J.Greyning «**Ijtimoiy tartib**», «**Ayirboshlash asoslari haqida harakat**» nomli asarlari e’lon qilindi. Bu asarlar siyosiy iqtisodga

oid asarlar hisoblanib, unda ishlab chiqarish, taqsimot, aholining nufuzi, soliq va soliqqa tortish muammolari, shuningdek, jamiyatda ayirboshlash tartibini qayta tashkil etish ko‘rsatiladi.

Umumiylik savdo palatasi tashkil etilib, u barcha tarmoqlar – dehqonchilik, sanoat va savdo ishlari boshqaruvini tashkil etadi. Yer va kapital egalari o‘z mulklarini mazkur boshqaruv apparatiga bir yilcha avvaldan belgilangan mukofot hisobiga topshirib, o‘zlarini turli tavakkallardan xalos qiladilar.

Barcha xo‘jalik ishlariga rahbarlikni palata topshirigiga ko‘ra amaldorlar yoki ziyolilar olib boradilar. Sanoat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari milliy savdo omborlarida saqlanib, o‘sha yerdan savdo do‘konlariga sotuvga chiqariladi.

Umummilliy idora tashkiliy reja asosida ish olib borib, tovarlar narxini ishlab chiqarish tannarxini qoplaydigan darajada va hatto foyda keltiradigan darajada belgilaydi. Ish haqlari esa xech qanday qiymatga ega bo‘lmagan qog‘oz pullar bilan to‘lanadi. J.Grey o‘zining «**Xalq baxtsizligiga qarshi to‘g‘ri vosita**» nomli pamfletida ishchi pullari g‘oyasini rivojlantiradi. Bu ish vaqti va o‘rtacha mehnat bahosini tasdiqlovchi kvitansiya ishchilarga do‘konlardan shunga loyiq mahsulotlarni sotib olish imkonini beradi. «Ishchi pullari» o‘sha davrda turli ko‘rinishlarda Prudon va Brey kabi olimlar tomonidan ham taklif qilingan edi.

**Jon Brey.** J.Breyning «**Mehnatga nisbatan adolatsizlik va uni bartaraf etish yo‘llari**» nomli kitobi 1839 yilda nashr qilindi. T.Godskin va J.Greyning pamfletlari kabi Breyning kitobi ham katta shuhrat qozondi. U ham ishchilar orasidan yetishib chiqqan bo‘lib, bosmaxonada harf teruvchi va muqova qiluvchi bo‘lib ishlar edi. O‘zining qarashlariga ko‘ra J.Brey ham Grey singari ishchilarning sinfiy ko‘rashiga qarshi edi. Uning asosiy kitobi «**Xalq xartiyasi xujjatlari**» e’lon qilingandan bir yil keyin chiqdi. Xartiyaning asosiy mazmuni Britaniya saylov tizimini demokratlash edi (umumxalq saylov huquqi, yashirin ovoz berish, nomzodlar mulkiy senzlarini bekor qilish va boshqalar). Chartizm harakati ham aynan shu davrdan boshlanib, unga J.Breyning asari chaqirik sifatida xizmat qildi. Dunyoda adolatsizliklar qayerdan vujudga kelishini, jamiyat va davlat nima ekanligini, mehnatning zaruriyati, kapital jamgarish va ayirboshlash xususiyatlarini o‘rganishga o‘z e’tiborini qaratdi. J.Brey shunday deb yozadi: «*Adolatli tuzumda hamma maxsulotlarni baholab, ayirboshlash, ishlab chiqarishga sarf qilingan butun harajatlarning yigindisi bilan belgilanar edi, boylik teng ayirbosh*

*qilinar edi. Shu bilan birgalikda juda qadimdan jamiyatda yuksak darajada tengsiz ayirboshlash tizimi xukm surar edi: ishchilar kapitalistlarga yil davomida mehnat qilar edilar va evaziga yarim yillik mehnatning* q*iymatini olar edilar*». Xuddi shu yerdan, aslo taxmin qilinmagan individlarning jismoniy va aqliy kuchlari ichidan boylik va hokimiyatning tengsizligi kelib chiqadi.

Xuddi shu ayirboshlash tengsizligi bir sinfga hech narsa bilan shug‘ullanmaslikni va dabdabali yashashni ta’minlaydi, boshqa bir sinfni og‘ir mehnatga mahkum etadi.

J.Brey shunday deydi: «*Siyosiy iqtisodchilarning tasdiqlashicha har bir ayirboshlash o‘zaro manfaatlidir. Aslini olganda esa kapitalist bilan ishchi o‘rtasida hech qanday ayirboshlash yo‘q! Ishchi kapitalistga o‘zining mehnatini beradi, xo‘sh, kapitalist unga nima beradi? Kapitalist ayirboshlash uchun yo mehnatni, yo kapitalni berishi mumkin. Kapitalist hech qachon mehnatni bera olmaydi, chunki u mehnat qilmaydi. Shu bilan birga kapitalist kapital ham bermaydi, chunki uning kapitali kamaymaydi, balki ko‘payadi. Ishchining mehnati evaziga kapitalist nima beradi? Ishchining bir haftalik mehnati evaziga kapitalist va xususiy mulk egalari unga o‘zlarining shu hafta ichida olgan boyliklarining bir qismini beradilar. Boshqacha qilib aytganda, ular ishchidan biron narsa oladilar, ammo o‘rniga xech narsa bermaydilar*».

«*Xech kim dunyoda qandaydir tug‘ma yoki tabiiy boylikka ega emas,* - deb davom etadi J.Brey, - *tabiat insoniyatga nimaiki bersa, bu mehnatga bo‘lgan qobiliyatidandir. Demak, agar kimdir xech qachon mehnat qilmasdan boylikka egalik qilsa, bu boylik unga tegishli bo‘lishi adolatsizlikdir. U o‘zlarining mehnatlari evaziga yuzaga keltirgan insonlarga tegishli bo‘lishi kerak, chunki kapital o‘z-o‘zidan yuzaga kelmaydi. Angliyaning ulkan kapitallari yaratilish tamoyili bo‘yicha kapitalistlarga tegishli bo‘lishi kerak emas (ular uni o‘qlari ishlab chiqarmaydilar). Bu ayirboshlash tamoyili asosida ham bo‘lgan emas, ya’ni ular kapitalni o‘z mehnatlari evaziga ayirboshlab olganlari yo‘q. Meros huquqi asosida ham emas (bu boyliklarning merosxuri yo‘q). Qaysi eshikka qaramaylik, mehnatkash kishi bilan puldor o‘rtasidagi shartnoma adolatsizlik va aldamchilik bilan tugallanadi*». J.Brey xulosa qilib, xech qanday siyosiy saylov isloxotlari bu tartibni o‘zgartirmaydi, deydi. Mavjud tartibdagi ishchilar sinfi qanchalik aqlli, yuqori ma’naviyatli yoki mehnatsevar kuch bo‘lishidan qat’iy nazar, tug‘rilab bo‘lmaydigan qulllikka mahkumdirlar. Shuning bilan birgalikda u ishchilar sinfining ko‘rashi kishilarga qarshi emas, balki tuzumga qarshi,

u kapitalistlar bilan yoki kapital bilan emas, balki kapitalni qo‘llash usuli bilan ekanligini uqtiradi.

## 10.4. Marksizm vujudga kelishining shart-sharoitlari va K.Marksning iqtisodiy ta’limoti



XIX asrning o‘rtalarida iqtisodiy ta’limotlar tarixida yangi bir yo‘nalish – marksizm vujudga keldi. K.Marksning nomi ko‘pchilikda inqiloblar bilan bir deb qaraladi. Xaqiqatdan ham bu fikrda jon bor, chunki u F.Engels bilan birgalikda proletariatning kapitalizmga qarshi kurashi zarurligini isbotlovchi nazariyaga asos soldi, buni tasodifiy hol deyish qiyin, chunki shu davrda kapitalistik xo‘jalik rivoji, sanoat to‘ntarilishining ayrim (Angliya va G‘arbiy Yevropa) mamlakatlarida nihoyasiga yetganligi, sanoatning iqtisodiyotda yetakchi ro‘lni egallashi, ishchilar sinfining jamiyatdagi mavqeining keskin oshganligi, kapitalistik jamiyatning feodalizmdan ustunligi namoyon bo‘lishi bilan birga uning bir qancha illatlari ham mavjudligi (ishsizlik, ish vaqtining uzunligi, maoshning kamligi, iqtisodiy inqirozlar, mulkiy va sinfiy tabakalashuvning tobora kuchayishi, mustamlakachilik va boshqalar) qat’iy yangi ta’limot paydo bo‘lishiga asos bo‘ldi. O‘z davrida burjua olimlari deb atalgan tadqiqotchilar (Sismondi, Prudon, qisman Smit, Rikardo), xayoliy sotsialistlar va boshqalar kapitalistik tizimning bir qancha negativ tomonlarini ochib bergan edilar. Ana shu illatlar bu davrda keskin kuchaydi, mehnat va kapital, ishchilar va sohibkorlar o‘rtasidagi qarama-qarshilik tobora ortib bordi. 1831-34 yillar Fransiyada Lion tikuvchilari, 30-40-yillarda Angliyadagi vuddistlar va chartistlar harakati ishchilar sinfining mustaqil sinf sifatidagi chiqishlari edi. 1844 yilda Sileziya tikuvchilarining qo‘zgoloni Germaniyadagi inqilobiy harakat darakchisi bo‘ldi. 1848 yilda burjua inqilobi tufayli marksizmning vujudga kelish jarayoni yanada kuchaydi. Avvalgi davrdagi iqtisodiy talablar asta-sekin siyosiy tus ola boshladi.

Vujudga kelgan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy sharoit hamda avvalgi davrdagi bir qancha iqtisodiy g‘oyalar asosida, birinchi navbatda klassik iqtisodiy maktab, utopik sotsializm ta’limotlari tufayli marksizm shakllandi. Kapitalistik tuzum, hozirgi davr tili bilan aytganda bozor iqtisodining bekamu-ko‘st emasligi, uning ijobiy tomonlari bilan birga xal

etilishi shart bo‘lgan muammolarining ham mavjudligi yangi iqtisodiy ta’limot paydo bo‘lishiga turtki bo‘ldi.

Uning bosh iqtisodiy asari «Kapital» bo‘lib, unda asosiy iqtisodiy g‘oyalar ilgari suriladi (1-jildli 1867 yil nashr etilgan). Marksning iqtisodiy merosida klassik maktab g‘oyalari asosiydir. Bu olimning tadqiqot predmetida iqtisodiyotda ishlab chiqarish sohalari muammolarining tahlili ustuvordir. V.Petti tadqiqotlariga baho berib, ishlab chiqarishning burjua munosabatlarining ichki aloqalarini o‘rganish ta’kidlanadi.

Tadqiqot uslubi boshqa olimlardan keskin farq qilmaydi, iqtisodiy jarayonlar siyosat va davlatda nisbatan ustuvor hisoblanadi, ammo kapitalizm va shunga muvofiq xo‘jalik yuritishning bozor mexanizmi o‘tkinchi deb qaraladi.

Bazis va uskurtma to‘grisidagi konsepsiya olim uslubiyotida markaziy o‘rinni egallaydi. Unga ko‘ra ishlab chiqarish yetakchi hisoblanadi, formatsiyalar to‘grisidagi fikrda esa kapitalistik jamiyatning o‘tkinchiligi ko‘rsatiladi, bunga asosiy sabab ishlab chiqarish vositalariga xususiy mulk va bozor anarxiyasidir. Yangi jamiyat sotsializm va kommunizm bo‘lib, unda ishlab chiqarish vositalari xususiy o‘zlashtirish obyekti bo‘lmaydi.

Sinflar to‘g‘risidagi nazariyada sinfiy ko‘rash masalasi asosiydir, bunda kapitalistlar va ishchilar sinfi hisobga olinadi, uchinchi sinf to‘g‘risida shu narsa aytiladiki, mamlakatning industrlashib borishi tufayli rentaning daromad sifatidagi ahamiyati kamayib boradi.

Kapitalga nisbatan ishchilarni ekspluatatsiya qilish va ishchi kuchi ustidan hokimiyat o‘rnatish vositasi sifatida qaraladi. Kapitalizmdagi va demak, bozor munosabatidagi qarama-qarshiliklar kapital bilan bog‘lanadi. Undan tashqari kapital tovarni ishchi kuchi bilan birlashtirib, o‘sib boruvchi qiymatga aylanadi. Qo‘shimcha qiymat bilan kapital o‘zaro chambarchas bog‘liqligi ko‘rsatiladi. Faqat qo‘shimcha qiymat yaratuvchi yoki kapitalning o‘z-o‘zidan o‘sishiga xizmat qiluvchi ishchigina unumli bo‘ladi, deb baho beriladi.

Kapitalning organik tuzilishi to‘grisidagi g‘oya «yangilik» bo‘lib, asosiy va o‘zgaruvchi kapitalning nisbati – S/V ga tenglashtiriladi. Bundan ekspluatatsiya me’yori (qo‘shimcha qiymat meyori)-qo‘shimcha qiymatning o‘zgaruvchan kapitalga nisbati sifatida qaraladi (A.Smit va D.Rikardolarda kapital asosiy va aylanma qismlarga bo‘lingan). Bu yerda asosiy kapital (mashina, asbob-uskuna, xom ashyo….) qo‘shimcha qiymat yaratmaydi.

Kapitalning jamg‘arilishi sanoatning markazlashuvi va konsentratsiya bilan bog‘lanadi, bu esa ishsizlik (rezerv) kuchayishiga olib keladi, bunday jamgarilishning absolyut, umumiy qonuni deb ataladi.

K.Marksda qiymatning mehnat nazariyasi to‘g‘risida to‘la ma’lumot beriladi, qiymatning mehnat sarflari bilan o‘lchanishi birdan-bir to‘g‘ri deb qaraladi. Ammo talab va taklifga ko‘ra, tovar bahosi qiymatga nisbatan oshishi va kamayishi mumkin. «Ishlab chiqarish bahosi» konsepsiyasi ilgari surilib, qiymatga qiyos qilinadi (xarid bahosi bilan tenglashtiriladi). Oddiy tovar ishlab chiqarishda (to bozor iqtisodiyoti) va kapitalizmning dastlabki davrida baholar qiymat qonuni bilan tartibga solinar ekan. Rivojlangan kapitalistik iqtisodiyotida esa baho A.Smit bo‘yicha tabiiy baho, D.Rikardo bo‘yicha ishlab chiqarish bahosi (yoki qiymati), fiziokratlar bo‘yicha zaruriy baho deb qaraladi. Uzoq muddat davomida ishlab chiqarish bahosi taklifning zaruriy shartidir.

Marksning bu g‘oyasiga Kondratyev «mehnat nazariyasining yuqori shakli» deb baho beradi. Mark Blaug fikricha, marksistlarning qarashlari shunga borib taqaladiki, agar biz qiymatning mehnat nazariyasidan boshlamasak, kapitalistlar mehnat jarayonida ishtirok etmasdan turib, umumiy mahsulotning bir qismini o‘zlashtirishni isbotlab bera olmaymiz (ya’ni ekspluatatsiya manbai yuqoladi).

Pul nazariyasi Rikkardo – Mill g‘oyalariga amal qilinadi, ammo pulning miqdoriy nazariyasi inkor etiladi. Bunda ma’lum davr davomida savdo aylanmalari va pul massasi oborotlari (aylanmasi) doimiy emasligi dalil qilib ko‘rsatiladi.

Marksning qo‘shimcha qiymat nazariyasi asosiy bo‘lib, uning vujudga kelishi quyidagicha «isbotlanadi» (klassik maktab g‘oyalari bo‘yicha hamma narsa o‘z qimmatida sotiladi va shu qimmatda olinadi, ya’ni ortiqcha narsa yuzaga kelmaydi). Mehnat aniq miqdoriy o‘lchovga ega, ishchi kuchining qimmatini baholash esa – bu katta darajadagi muammodir, hamda fe’l-atvor holati, jamoa va psixologiya (ruhi) tomonidan aniqlanadi. Shu sababli qo‘shimcha qiymatning manbai bo‘lib, faqat o‘z ishchi kuchini sotayotgan unumli ishchilarning «haqqi to‘lanmagan mehnat» hisoblanadi. Bu «zaruriy» va «qo‘shimcha» ish vaqtidagi jarayondir. «Qo‘shimcha vaqt» va «qo‘shimcha mehnat» bilan «qo‘shimcha daromad» yuzaga keladi.

«*Unumli mehnat*» to‘grisidagi fiziokratlar (yuqoridagi boblarda berilgan) tomonidan ishlab chiqarilgan. Marks bu g‘oyani rivojlantirib shunday xulosa chiqaradi: birinchidan, agar mehnat «mutlaq» bo‘lmagan shakldagi qo‘shimcha qiymatni ya’ni «nisbiy qo‘shimcha qiymatni»

yaratsa (bu tirikchilik vositalari qiymati (qiymati) arzonlashuviga olib keladi); ikkinchidan unumli mehnat muomala sohasida emas, ishlab chiqarish sohasida qo‘shimcha qiymat yaratgandagina unumli bo‘ladi.

*Daromadlar to‘g‘risida* fikr yuritib, yo‘llanma ishchilar o‘z «kuchini» sotib kapitalistdan oladigan xaqdir (bu yerda «ishchi kuchi» ish xaqiga almashtiriladi), vaholangki klassik maktab vakillari bo‘yicha mehnat uchun ish haqi beriladi. Bu nazariyaga ko‘ra, ish haqi ishchi va uning oilasi hayotini ta’minlash uchun zarur tovarlarga ekvivalentdir. Uning miqdori ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va texnologik jihozlash darajasiga boglik, bu esa oxir oqibatda ish haqi o‘sishi uchun to‘siq bo‘ladi, chunki texnik iqtisodiy taraqqiyot doimiy ortiqcha ishchi kuchini yaratadi. Kapitalist va ishchi o‘rtasidagi almashuv munosabatlari ishchi ziyoniga bo‘ladi. Hech vaqt real ish xaqi mehnat ishlab chiqarish kuchlari o‘sishiga mutanosib ravishda o‘smaydi. Erkin raqobat iqtisodiyoti sharoitida ishchilar kasaba qo‘mitalariga suyangan hollarda ham bu sharoitni o‘zgartira olmaydilar. Mehnat unumdorligi o‘sishi tufayli, tovar va xizmatlar qiymatining puldagi ifodasi pasayib borishi oqibatida ishchilar tomonidan sotib olinadigan tovarlar bahosining har doim adekvat pasayishiga olib keladi, bu esa ishchilar axvolining doimo yomonlashuvidir.

*Foyda va foyda meyori*. Bu daromad shakli sohibkor tomonidan ekspluatatsiya yordamida paydo bo‘ladi; Rikardodagi foyda me’yori emas, boshqa qo‘shimcha qiymat me’yori emas, hatto ekspluatatsiya me’yori to‘g‘risida fikr yuritiladi

Korxona yoki sohasidagi qo‘shimcha qiymat xissasi o‘zgaruvchi kapital va mehnat xissasi qancha ko‘p bo‘lsa, shuncha ko‘p bo‘ladi, kapitalning organik tuzilishida (S/V) doimiy kapital xissasi kam bo‘lsa, demak, korxona qanchalik mashina va boshqa texnikalar bilan yaxshi qurollangan bo‘lsa, shuncha kam bo‘ladi.

Qo‘shimcha va foyda meyori o‘rtasidagi farq shundan iboratki, birinchisi o‘zgaruvchi (V) kapitalga nisbat shaklida, ikkinchisi esa umumiy kapital (S+V)ga nisbat shaklida bo‘ladi. Foyda meyori pasayib borish tendensiyasiga ega (Rikkardo-Mill bo‘yicha hayot uchun zarur mahsulotlarga baho oshuvchi, demografik omillar, tuproq unumdorligi pasayishi va boshqalar), ammo Marks bo‘yicha buning sababi kapitalning organik tuzilishi (S/V) da o‘zgaruvchan (V) kapitalning xissasi kamayishi va demak, kapitalning jamgarilishi bilan bogliq.

Ekspluatatsiyani kuchaytirish (yoki qo‘shimcha qiymatni oshirish) ning yo‘llari 2 ta, ish soatlari oshiriladi (absolyut) yoki mehnat unumdorligi orttiriladi (nisbiy).

## 10.5. Markscha iqtisodiy ta’limotning iqtisodiy tarixi

Markscha g‘oyalar davr sinovidan o‘tdimi, degan o‘rinli savol tug‘iladi. Umuman, o‘z davrida sotsialistik va konkret sovet davlati va dunyoning 1,5 mlrd aholisini o‘z ichiga olgan sotsialistik lager deb atalgan mamlakatlardagi ijtimoiy tuzimning mazmuni nimadan iborat edi, hozirda bu yo‘lni davom ettirayotgan davlatlarning istiqboli qanday, kabi muammolar bugungi kunda oz emas. Bu murakkab savollarga baholi qudrat o‘z fikrimizni bildiramiz.

Imperializm sotsialistik inqilob arafasi ekanligini dastlab Rossiyada, keyinroq qisqa vaqt bo‘lsa ham Germaniya (Bavariya), Vengriya, Mongoliya va II jahon urushidan keyin ba’zi davlatlarda isbotlandi. Lekin bu inqilob yuksak rivojlangan, ishchi sinfi ko‘rchilikni tashkil etgan joylarda emas nisbatan o‘rta yoki kam rivojlangan davlatlarda ro‘y berdi.

Markscha ta’limot asoschilarining umumxalq mulkini yaratish, xususiy mulkchilikni yo‘q qilish, iqtisodiyotni qat’iy rejalashtirish, raqobatni yo‘qotish, ya’ni bozor iqtisodiyotini bekor qilish to‘grisidagi g‘oyalari (Sovet davlati va boshqalarda) o‘zini oqlamadi.

Lenin va leninchilarning oktabr to‘ntarishi jahon revolyusiyasiga aylanadi, degan umidlari ham ro‘yobga chiqmadi. Oqibatda Sovet davlati amalda yagona sotsialistik davlat bo‘lib qoldi. Bizda bashorat qilingan umuxalq, ya’ni davlat mulki asosiy bo‘lib qoldi, qisman kolxoz-kooperativ jamoat mulki saqlandi, xususiy mulkchilik barham topdi, bozor iqtisodiyoti o‘rniga markazdan rejalashtirilgan iqtisodiyot keldi, ilgari qolo davlat qisqa vaqt ichida ancha ilg‘or mamlakatlar safiga o‘tib oldi. Agar shu yutuq bo‘lmaganda Gitler Germaniyasi sobiq ittifoqni yer bilan yakson qilib yuborgan bo‘lar edi. Lekin 70-yillarda, ayniqsa, 80-90-yillarda Sovet ittifoqi inqirozga yuz tutdi. Xo‘sh, sotsializm va kommunizm g‘oyasi puch bo‘lib chiqdimi yoki gap boshqa yerdami?

Bu yerda tarixga ekskursiya qilishga tug‘ri keladi. Kapitalizm (ayniqsa, imperializm, davlat-monopolistik kapitalizm bosqichida) avvalgi jamiyatlardan ijobiy farq qiladi, uning ko‘plab imkoniyatlari borligi aniqlanmoqda; ayniqsa, burjuaziya katta tajribaga ega (XVIII asrning o‘rtasida paydo bO‘lgan bu sinfning 250 yillik tajribasi bor), o‘z boshidan qanchadan-qancha jarayonlarni o‘tkazdi, u feodal munosabatlarga qarshi qonli ko‘rashda hokimiyatni qo‘lga olgach, asosiy

ishlab chiqarish vositalarining egasiga aylandi, dastlab ekspluatatsiyaning jirkanch usullari q'llanildi (14-16 soatlik ish kuni, bolalar va ayollarning mehnatidan foydalanildi, ish xaqi nihoyatda oz, sotsial sharoit goyatda ogir edi), oqibatda bir qancha sotsial inqiloblar va iqtisodiy inqirozlarni boshidan kechirdi, bu sinf kurashlarda chiniqdi, tajriba orttirdi, o'zini himoya qilish, yashash uchun yo'l qidirdi, ilojini topdi. Dastlabki va keyingi yillarda mustamlakalar (koloniyalar) joniga oro kirdi, ular hisobiga metropoliyaning iqtisodiy va demakki, siyosiy ahvolini nisbatan yaxshilandi.

Mustamlakachilik tizimi tugatgan hozirgi paytda ham ilgari koloniya bo'lgan davlatlar 'z qarzlarini emas, hatto foizlarini to'lashga ham qodir emaslar (masalan, Janubiy Amerika davlatlari AQShga juda katta qarzdor). Yana bir fikr shuki, barcha kapitalistik davlatlarning ravnaqi bir xil emas, balki turlichadir.

Rossiyadagi inqilob (chet el intervensiyasi bejiz emas), sotsializm yo'lini birinchi bo'lib tanlagan davlatlar – SSSR, Mongoliya va boshqalar, II jahon urushi, yangi sotsialistik yo'ldan borishni istagan davlatlar, mustamlakachilik tizimining yemirilishi, iqtisodiy va siyosiy jahon urushi, yangi sotsialistik yo'ldan borishni istagan davlatlar, mustamlakachilik tizimining yemirilishi, iqtisodiy va siyosiy inqirozlar kapitalistik davlatlar oldiga yangidan-yangi muammolarni qo'ydi. Katta tajribaga ega bo'lgan burjua ilmiy-texnika progressidan unumli foydalandi, ishlab chiqarishni o'stirdi, foyda oshdi, ishchilar sinfi va xalqning moddiy turmush darajasini oshirishga va ijtimoiy tenglikni yumshatishga erishdi. Masalan, AQShda milliy boylikning 60 foizi 1 foiz aholining qo'lida, bunga xalq jim qarab tura olmadi. Shuning uchun bu tizim yo'qolish xavfining oldini olishga majbur edi (SSSR tajribasi).

Shu vaqt davomida SSSR deb atalgan sobiq mamlakatda rivojlanish tobora susayib bordi, ijtimoiy tenglik kuchaydi, bunga bir qancha sabablar bor. Avvalo, voqealarni sun'iy tezlashtirishga urinildi. 1928 yildan boshlab yangi iqtisodiy siyosat vazifalari inkor etildi, vaxolangki, bu jiddiy va uzoqqa mo'ljallangan siyosat edi. Kapitalistik munosabatlarga chek qo'yishga shoshildik, ma'muriy-buyruqbozlik usulini joriy qilib, ayniqsa, qishloq xo'jaligida majburiy kollektivizatsiya kabi yirik xatolarga yo'l qo'ydik, dehqonlar va ishbilarmonlar faoliyatiga sun'iy to'siq yaratdik. Ikkinchi besh yillik oxirida sotsializm qulab bitkazilganligini e'lon qildik va AQShga yetib olish va undan uzib ketish vazifasini belgiladik. II jahon urushi oqibatlari va undan keyingi voqealar, sovuq urush, qurollanish poygasi (40-50 foiz harajat), boshqa davlatlarga

beg‘araz yordam, ilmiy-texnika taraqqiyotiga e’tiborning kamligi (kibernyetika va genyetikani dastlab inkor etish) iqtisodiyotda qo‘pol xatolar va yomon oqibatlarga olib keldi. Ayniksa, ogir sanoatning ustun rivojlanish qonuni katta ziyon keltirdi. 1953 yilda Stalin vafotidan so‘ng G.M.Malenkov tomonidan xalq iste’mol mollarini ko‘proq ishlab chiqarish g‘oyasi zararli deb e’lon qilindi. Ayniqsa, N.S.Xrushchevning iqtisodiy siyosati xalq xo‘jaligini keskin og‘ir ahvolga solib qo‘ydi.

Ilg‘or kapitalistik davlatlarda qayta qurish (agar shunday deyish joiz bulsa) ancha ilgari boshlandi. Masalan, AKShda 1929-33 yillar buyuk inqiroz davrida 17 mln ishsiz bo‘lgan paytda sotsializatsiya rejalari tuzildi, insonning manfaatlarini ta’minlamay, himoyalamay borib halokatga uchrash mumkinligi ayon bo‘lib qoldi (buning uchun 200-250 yil kerak bo‘ldi).

II jahon urushidan keyin Germaniyada L.Erdhard tomonidan ijtimoiy yo‘naltirilgan iqtisodiyotga yo‘l ochildi, Shvetsiya va bir qancha mamlakatlarda davlat tomonidan ijtimoiy himoya kuchli qilib qo‘yildi.

Yuqorida aytilganidek, bir qancha davlatlar sotsializm g‘oyasidan voz kechmagan. XXRda sotsializm asoslarini qurish 50-100 yillik vazifa qilib belgilangan, KXDR, Kuba va Vyetnam sotsialistik respublikasida ham bu jamiyatni qurish uchun harakat bor.

Markscha ta’limot tarix sinovidan to‘la o‘tmadi. Uning taqdiri kelajak tarixi hukmiga havola etiladi.

Sen Simonizm ta’limoti o‘z rivojida to‘rtta bosqichni bosib o‘tdi. Birinchi bosqich uning 1815 yilgacha yozilgan asarlarida yoritilib, olimning ijtimoiy-iqtisodiy tafakkuri endi shakllanib borayotgan edi. Ikkinchi bosqich Sen-Simon xayotining so‘nggi o‘n yilligida yozilgan asarlarni o‘z ichiga olib, ularda kapitalizm tabiiy va abadiy degan fikrdan qaytib, yangi qarama-qarshilik va raqobat o‘rniga birodarlik va hamkorlikka asoslangan jamiyat vujudga kelishi ko‘rsatiladi. Bu almashinuv tinch yo‘l bilan, «industriallar jamiyati» ning rivojlanish va feodallarni tugatish asosida olib boriladi. Sen-Simon umuman xususiy mulkchilikka qarshi chiqqan emas, u faqat jamiyatda maxlum nazorat o‘rnatilganligi maqsadga muvofiqdir, deb hisoblaydi.

Uchinchi bosqichga Sen-Simonning vafotidan keyin olti yil ichida uning shogirdlari yaratgan asarlar hamda ularning tashviqot va amaliy faoliyati kiradi. Bu bosqichda Sen-Simonizm sotsialistik ta’limotga aylanib, xususiy mulkchilikni bartaraf etishni, boylikning har kimning mehnati va layoqatiga qarab taqsim qilishni, ishlab chiqarishni esa rejalashtirishni talab qiladi. Bu g‘oyalar to‘liq ravishda 1829 yillarda Sen-

Simonning yaqin shogirdlari S.A.Bazar, B.P.Anfonte, B.O.Rodrig tomonidan Parijda o‘qilgan ommaviy ma’ruzalarda o‘z aksini topdi.

Sen-Simon va uning shogirdlari asarlarida siyosiy iqtisodning asosiy toifalarining ilmiy taxlilini uchratmaymiz. Ular qiymat shakllarini, ish xaqi, foyda va yer rentasini xususiyatlarini o‘rganishni maqsad qilganlari yo‘q. Balki, siyosiy iqtisod fani oldiga yangi vazifalarni: kapitalistik ishlab chiqarish usulining vujudga kelishi va rivojlanishi, undagi qarama-qarshiliklar, nima uchun va qanday ko‘rinishda sotsializmga o‘rin bo‘shatish kerakligini o‘rganishni qo‘yadi.

1831 yilda boshlangan to‘rtinchi bosqich Sen-Simonizm inqirozi bosqichidir. Ishchilar orasida mustahkam o‘rin egallamagan sen-simonchilar dastlabki revolyusiyalar davrida ancha o‘zlarini yo‘qotib qo‘ydilar. Natijada ular orasida kelishmovchiliklar vujudga kelib, ikkiga bo‘linishga, keyinchalik esa umuman Sen-Simonizmning oqim sifatida tarqalib ketishiga sabab bo‘ldi.

Sen-Simon agar yangi jamiyatning umumiy qiyofasini, ya’ni eskizini yaratgan bo‘lsa, Fure o‘z navbatida undagi mehnatni va xayotni tashkil qiluvchi alohida yacheykalarning moxiyatlarini o‘rgandi. Fure asarlari va g‘oyalarining ahamiyati shundan iboratki, olimning o‘zi kapitalizm qonuniyatlarini o‘rganishga harakat qildi. Uning mehnatni tashkil qilish, mehnatni tabiiy zarurat o‘rnida bilish va musobaqalar to‘grisidagi g‘oyalari hozirgi davrda ham katta ahamiyatga egadir.

Xayoliy-sotsialistlar ichida Ouen birinchi bo‘lib klassik iqtisodiy maktab tamoyillari asosida kapitalizmga qarshi xulosalarni chiqardi. U o‘z qarashlarini Rikardoning qiymatning mehnat nazariyasi asosida yaratib, ayrim xollarda Buagilber qarashlaridan ham keng foydalandi.

Sen-Simon va Fure ta’limotlari bilan tanishgan chog‘imizda ularning g‘oyalari to‘liq sotsialistik bo‘lmay, xali xususiy mulkni saqlab qolganliklari, kapitalistlarning sinf sifatida saqlab qolinishi va ularning ishlab chiqarish vositalaridan foydalanib, foyda olishlari mumkinligini kuzatamiz. Ouen tizimi esa ulardan farq qilib, nafaqat sotsialistik qarashlarni rivojlantirdi, shu bilan birga ikkinchi yuqori faza bo‘lmish kommunizmni ham tasvirladi.

Lekin Ouen ta’limoti ham qarama-qarshiliklar va tartibsizliklardan xoli emas edi. Chunki sinfiy munosabatlarning yetilmaganligi jamiyatni qayta qurish imkoniyatini bermas edi. Garchan Ouen ishchilar sinfining tutgan o‘rnini to‘g‘ri tushunmagan bo‘lsa-da, o‘z g‘oyalari bilan marksistik iqtisodiy ta’limotning vujudga kelishida alohida o‘rin egallagan edi.

R.Ouen tashviqotlaridan ruhlangan klassik iqtisodchilar Smit va Rikardo ta’limotlari bilan yaqindan tanish bo‘lgan va siyosiy iqtisodda ishchilar manfaatlarini birinchi bor ifoda etgan kishilar sotsialist-rikardochilar edi. Ularning iqtisodiy g‘oyalari Ouennikiga nisbatan ancha mukammal bo‘lib, Rikkardo ta’limotini ilmiy rivojlantirishga urindilar.

Sotsialistlar Rikardoning «qiymatning mehnat nazariyasi» ni chuqur o‘rganib uni mantiqiy nihoyasiga yetkazdilar. Ular mehnat bilan kapital o‘rtasidagi ayirboshlashni mavjud qonunlarga zid deb fanda foydani ilmiy izohlash zarur deb ko‘rsatdilar. Lekin o‘zlari bunga haqiqiy ilmiy ta’rif bera olmadilar.

XIX asrning 20-30 yillarida sotsialist-rikardochilar ilk ishchilar harakatlari shakllanayotgan davrda katta ijobiy yutuqlarga erishdilar va iqtisodiy ta’limotlar tarixi fani rivojiga ma’lum xissa qo‘shdilar.

XIX asrning o‘rtalarida marksizm iqtisodiy ta’limoti vujudga keldi. Bu ta’limot bo‘yicha kapitalizmning o‘z davri uchun (avvalgi formatsiyalarga nisbatan ustunligi ijobiy tomonlari ko‘rsatib berildi. Lekin bu jamiyatning kelajagi yo‘q ekanligi, o‘z o‘rnini yangi jamiyatga bo‘shatib berishi «isbotlandi»). Qiymatning mehnat nazariyasi asosida ishchilarning ishlab chiqarish vositasidan maxrum qilinishi (yoki kapitalistlar tomonidan egallanishi) natijasida kapitalistlar qo‘shimcha qiymat olish yo‘li bilan doimo boyib borishi, ishchilarning *ekspluatatsiya qilinishi va qashshoqlashib borishi* qonuni ochildi.

Kapitalizm ichki qarama-qarshiliklarining chuqurlashuvi tufayli bozor mexanizmi ularni tartibga sola olmadi. Korxonalarning hajmi inqirozlar tufayli doimo o‘sib borishi, firmalarning yiriklashuv tendensiyasi kapitalizm xususiyatidir. Ayrim odamlar tomonidan mulkning monopolizatsiyasi ro‘y beradi, ishchi kuchi tovarga aylanadi, ommaning proletarlashuvi kuchayadi, ularning k’pchiligida ishsizlik va boshqa negativ holatlar tufayli norozilik ortadi, oxir – oqibatda kapitalistik jamiyat yemiriladi. Bu jarayon dastlab eng rivojlangan bir qancha mamlakatlarda bir vaqtning o‘zida ro‘y beradi, deb bashorat qilindi. Yangi jamiyatda xususiy mulk o‘rniga umumxalq mulkining ustun bo‘lishi ko‘rsatildi.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshida kapitalizmning monopoliyalashgan davrda leninizm ta’limoti yuzaga kelgan bo‘lib, marksizm to‘ldirildi va rivojlantirildi. Bu ta’limotga ko‘ra kapitalizmning yemirilishi va inqilob nisbatan past rivojlangan, imperializm zanjirlari bo‘sh bo‘lgan ayrim mamlakatlarda ham ro‘y berishi mumkinligi ko‘rsatildi. Bu bashorat XX asr boshida qisman Rossiya, Mongoliya, II

jaxon urushidan keyin bir qancha Yevropa, Osiyo va Amerika mamlakatlarida oqlandi. Yetmish yildan ortiq davom etgan «sotsialistik» jamiyat qurish tajribasi o‘zini to‘la oqlamadi. Ayniqsa, sof bozor munosabatlaridan voz kechish, davlat mulkining yetakchi bo‘lib olishi va davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvi, xususiy mulk va xususiy savdoning inkor etilishi, yerga davlat monopoliyasi, erkin raqobatning musobaqa bilan almashtirilishi, baholarning yuqoridan qat’iy belgilanishi, rejalashtirishning yuqoridan qat’iy joriy qilinishi, erkin tanlash huquqining cheklanganligi va boshqalar bozor munosabatlarining yangi shakli – ma’muriy-buyruqbozlik asosidagi iqtisodiyotni keltirib chiqardi, erkin ozorga zid iqtisodiyotni vujudga keltirdi. Oqibatda sobiq SSSR va boshqa «sotsialistik» deb atalgan mamlakatlarda iqtisodiy va siyosiy inqiroz ro‘y berdi, ular parchalandi va bozor iqtisodiyoti yo‘liga o‘tishga majbur bo‘ldi.

## Asosiy tushuncha va iboralar

Nobozor iqtisodiy g‘oyalar; assotsiatsiya; yacheyka; falanga; xaos; pamflet; xartiya; chortizm; Marksning qo‘shimcha qiymat nazariyasi; kapitalizmning taqdiri; asosiy aylanma kapital; kapitalning organik tuzilishi; aholining nisbiy va absolyut qashshoqlashuvi; kapitalizmning o‘limi haqidagi g‘oyalarning asossizligi; monopolistik kapitalizm; «sotsialistik deb atalgan g‘oyaning tarixiy taqdiri.

## Nazorat va mulohaza uchun savollar

1. Xayoliy sotsializmning vujudga kelishidagi tarixiy shart-sharoitlar.
2. Xayoliy sotsializmning haqiqiy rivojlanish pallasi qaysi davrga to‘g‘ri keladi?
3. Xayoliy sotsialistlar adolatli jamiyatga o‘tish yo‘llarini qanday ko‘rsatdilar?
4. Sen-Simonning iqtisodiy qarashlari haqida nimalarni bilasiz?
5. Sen-Simonning qanday asarlarini bilasiz?
6. Sen-Simon fransuz ma’rifatparvarlaridan nimasi bilan farq qiladi?
7. Sen-Simonning jamiyatning rivojlanish konsepsiyasi qanday edi?
8. Sen-Simon o‘z asarlarida nimani tanqid qildi?
9 Sh.Furening iqtisodiy qarashlari haqida nimalarni bilasiz?
10. Sh.Fure qaysi davrda yashadi va ijod etdi?
11. Sh.Furening qanday asarlarini bilasiz u bu asarlarida nimalarga e’tibor berdi?

12. Sen-Simon va Sh.Furening iqtisodiy g‘oyalari bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?

13. R.Ouenning iqtisodiy konsepsiyasiga xos xususiyatlar nimalardan iborat?

14. R.Ouenning qanday asarlarini bilasiz?

15. R.Ouen iqtisodiy qarashlarining o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

16. Sotsialist-rikardochilar (J.Grey, T.Godskin, J.Brey)ning iqtisodiy qarashlariga xos xususiyatlar nimalardan iborat?

17. Sotsialist-rikardochilarning namoyandalari yashagan davrning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyalari.

18. Sotsialist-rikardochilarning qanday asarlarini bilasiz va ular bu asarlarda qanday g‘oyalarni ilgari surdilar?

19. Sotsialist-rikardochilar qanday iqtisodiy masalalarga ahamiyat berdilar?

20. Iqtisodiy ta’limotlar tarixida sotsialist-rikardochilarning tutgan o‘rni va ahamiyati.

21. Marksizm vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari nimalardan iborat?

22. K.Marks va F.Engels iqtisodiy ta’limotining asosini nimalar tashkil etadi? Qo‘shimcha qiymat nazariyasi nima?

# XI BOB. MARJINALIZM TA’LIMOTI VA NEOKLASSIK IQTISODIY MAKTABLARI

## 11.1. Marjinalizmning umumiy ta’rifi va rivojlanish bosqichlari

XIX asrning 70-yillarida klassik siyosiy iqtisod maktab o‘rniga marjinalizm iqtisodiy nazariyasi vujudga keldi. Marjinalizm (inglizcha – me’yorli) tadqiqotining predmetini me’yorli tahlil tashkil etadi. Marjinalizm iqtisodiy yo‘nalishining namoyondalari Fridrix Vizer (1851-1926, Avstriya maktabi), Yevgeniy Byom-Baverk (1851-1914, Avstriya maktabi), Alfred Marshall va boshqalar bo‘lgan. XIX asrning 70-yillaridan boshlab klassik (mumtoz) qiymatning mehnat nazariyasida chinakam inqilobiy o‘zgarishlar yuz bergan edi.

Avstriya maktabining namoyondalari, ya’ni dastlabki marjinalistlar iqtisodiyotni sub’ektiv-psixologik nuqtai-nazardan baholab (obyektiv iqtisodiy qonunularni inkor etib), asosiy e’tiborni iste’mol(talab)ning tutgan o‘rniga bag‘ishlab, ishlab chiqarish (taklif)ni ikkinchi darajali qilib qo‘ydilar.

Keyingi marjinalistlar ishlab chiqarish va iste’mol jarayonlarini yaxlit o‘rganib, me’yoriy iqtisodiy o‘lchamlarni taqsimot va ayirboshlash jarayonlariga ham tadbiq etdilar. Natijada yangi iqtisodiy g‘oyalar namoyondalari klassik iqtisodiy maktabning davomchilari sifatida baholanib, ularga neoklassiklar deb nom berildi.

Marjinalizm nazariyasi markazida o‘z foydasini maksimallashtirishga intiluvchi firma (ishlab chiqaruvchi) va xarid qilingan ne’matlardan maksimal foydalilik olishga intiluvchi alohida iste’molchi turadi. Marjinalizmning asosiy kategoriyalari: me’yorli unumdorlik, me’yorli foydalilik, me’yorli xarajatlar va b.

Qiymat nazariyasini ilmiy tahlil qilishda yaratilgan eng yuqori foydalilik, ya’ni marjinalizm ta’limotining keng tarqalishi ham mana shu olimlar nomi bilan bog‘liqdir.

Bu boradagi o‘zining ilk fikrlarini (deyarli bir vaqtda, turli davlatlarda) S.Jevons 1863-yilda nashr etilgan «Siyosiy iqtisod nazariyalari» nomli asarida bayon etadi. Siyosiy iqtisoddagi yangi yo‘nalishning o‘ziga xos xususiyati shundan iborat ediki, ular moddiy ne’matlar qiymatini unga zarur bo‘lgan ijtimoiy mehnat chiqimlari va mehnat miqdori bilan belgilamasdan, balki tovarning foydaliligi (nafliligi) va noyobliligi bilan bog‘lanadi. «Eng yuqori foydalik» tushunchasini kiritdilar.

**Avstriya maktabi.** 1871 va 1874-yillar oralig‘ida, Jevons, Menger

va Valras ortodoks iqtisodiy nazariyaning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadigan kitoblar nashr qildilar. Ularning ta’siri birdaniga amalga oshmadi, balki asrning so‘nggi choragi davomida sekin asta rivojlandi, keyingi me’yoriy naflilik nazariyachilarining kurashishi orqali sekin asta yangi g‘oyalarning tan olinishiga erishilgan. Pirovard mahsulotlarning qiymatini va narxini aniqlashda Jevons, Menger va Valrasning fikrlari o‘xshash bo‘lgani uchun biz ularning fikrlarini alohida o‘rganmay, umumiy ravishda mavzular bo‘yicha yoritib ketamiz. Ayrim me’yoriy tahlilni rivojlantiruvchilarning fikrlarida sezilarli farqlar mavjud bo‘lib, biz ularni keyinroq o‘rganib chiqamiz. Xususan, ularning iqtisodiy usullar bo‘yicha qarashlari har xil edi. Menger va hozirgi Avstriyaliklarning intellektual manbai alohida e’tirofga sazovor bo‘ldi. Ammo Valrasning umumiqtisodiy muvozanatlik nazariyasi va unda me’yoriy tahlilni ishlatishi o‘ziga xos burilish edi.

Chunki u keyingi mikroiqtisodiyot nazariyasining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu nazariyalarning hammasi iqtisodiy nazariya fanida yangi bo‘lim ochishga yetarli darajada zarur edi. Bir-biridan mustaqil ravishda ijod qilgan bu 3 ta iqtisodchilar qiyosiy narxlarni belgilab beruvchi kuchlarning o‘ziga xos revolyutsion tahlilini yaratdik, deb ishonishgan edi. Jevons buni juda aniq va lo‘nda shunday izohladi: takror va takror fikrlash va izlanish meni qiymat to‘laligicha naflilikka bog‘liq ekan, degan yangi fikrga yetakladi. Avvalgi qarashlarda qiymatning manbasi naflilikda emas, balki ishchi kuchidadir degan fikrlar keng tarqalgan va hatto mehnat qiymat kelib chiqishining yagona sababi, degan qarashlar ham bor edi[45].

Mengerning fikri milliylik ruhida bo‘lishiga qaramay, eng kamtarona edi: Bu yerda bizning fanimizning umumiy tamoyillarini o‘z ichiga olgan ushbu soha Germaniya siyosiy iqtisodiyotidagi yaqin davrdagi rivojlanishning mahsulidan hech ham kam emasligi va bizning fanimizning eng muhim tamoyillarining islohoti oldingi davrda nemis olimlari tomonidan deyarli butunligicha ishlab chiqilgan asos ustida amalga oshirilgani meni quvontiradi. O‘zining umumiqtisodiy muvozanatlik nazariyasi bilan tanilgan, Valras ham uning hissasi tengi yo‘q va o‘ziga xosligiga ishonib shunday izohlaydi: men hozir original metodga ko‘ra, puxta ishlab chiqilgan yangi rejaga asoslangan, ijtimoiy va siyosiy iqtisodiyotning elementlari va xulosalari haqida maqola nashrdan chiqarishni boshlay oldim va u hozirgi iqtisodiy fandan bir necha jihatlari bilan farq qiladi, deb ayta olaman.

[45] W S. Jevons “The Theory of Political Economy” (New York: Kelley and Millman, 1957), p. 1.

Jevons, Menger va Valras davo qilayotgan ishlari original va revolyutsion ekanligi to‘g‘rimi? Bu muammoda biz ularning har birining hissalarini aniq ajratishimiz kerak. Jevonsning iqtisodiy nazariyaga qo‘shgan asosiy hissasi me’yoriy tahlilning talabni tahlil qilishda ishlatilishi edi. Menger taklif va talabni tahlil qilishda me’yoriy tahlilni tadbiq etdi, lekin taklifga kamroq e’tibor qaratdi. Valras esa talab va taklif nazariyasiga me’yoriy tahlilni ishlatdi, ammo taklifga ko‘proq e’tibor qaratdi va iqtisodiyotning umumiqtisodiy muvozanatlik modelini shakllantirdi.

Ularning fikrlarida haqiqatdan ham o‘xshash jihatlari mavjud bo‘lmasada, me’yoriy tahlildan foydalangan o‘tgan davr yozuvchilarining (masalan, Gossen Kurnoning) fikrlaridan farqli o‘laroq, iqtisodiy nazariyaning keyingi rivojlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsata oldilar. Ammo ularning ishlari qay darajada revolyutsion ekanligini oldingi klassik nazariya bilan solishtirgan holda va neoklassik mikroiqtisodiyot nazariyasining keyingi rivojlanishiga qarshi qo‘ygan holda aniqlash mumkin. Qiymatning klassik nazariyasi kamchiliklariga kelsak, bu uchala yozuvchilar ham qiymatning klassik nazariyasi narxlarni belgilovchi omilarni tushuntirish uchun yetarli emas, deb hisobladilar.

Ularning eng muhim tanqidi qiymatning ishlab chiqarish xarajatlari nazariyasiga umumiylik yetishmasligi edi, chunki real hayotda shunday tovarlar bor ediki, ularning narxlarini klassik nazariyasi asosida tahlil qilib bo‘lmas edi. Ular Rikardoning qiymatning mehnat nazariyasini, Mill va Seniorning ishlab chiqarish xarajatlari nazariyalarini tanqid qilishdi, chunki bu nazariyalar miqdori o‘zgarmas tovarlarning narxini tushuntirish uchun alohida izoh talab qilardi. Neoklassik (vertikal)talab egri chizig‘iga ega bo‘lgan tovarning, misol uchun yer, noyob tangalar, san’at asarlari yoki vinolarning qiymati yoki narxi ularning ishlab chiqarish xarajatlariga bog‘liq emas. Qiymatning ishlab chiqarish xarajatlari nazariyasining yana bir kamchiligi-bu tovarlarning narxi yoki qiymati o‘tgan davr xarajatlarini ham o‘z ichiga olishida edi. Jevons, Menger va Valraslar hammasi tovar ishlab chiqarishdagi katta xarajatlar har doim ham baland narxlarni keltirib chiqarmaydi, degan fikrni ilgari surdilar. Me’yoriy naflilik nazariyasiga ko‘ra, aksincha qiymat naflilikka yoki iste’molga bog‘liq va u o‘tmishdan emas, kelajakdan keltirib chiqariladi. Tovar ishlab chiqarishda qancha xarajat qilinmasin, bozorda uning narxi iste’molchi olishi mumkin bo‘lgan naflilikka bog‘liq bo‘ladi. O‘zlarining mahsulotlari uchun talabni noto‘g‘ri taxmin qilgan ishlab chiqaruvchi buni qanchalik og‘riqli ekanligini yaxshi bilishadi. O‘lik zaxira atamasi

talab haddan tashqari past bo‘lishi hisobiga narxlari ishlab chiqarish xarajatlaridan ham kam bo‘lgan tovarlarga nisbatan ishlatilgan. Jevons bunga norozi holda shunday deydi: “Qachonlardir o‘tmishda sarf qilingan mehnat hech qanday tovarning kelajakdagi qiymatiga ta’sir ko‘rsata olmaydi, u abadiy yo‘qoladi. Tijoratda ketgan narsa abadiy ketadi”. Uchala yozuvchilar e’tiborini qaratgan muammo shu ediki, pirovard tovardagi qiymat ishlab chiqarish omillari tomonidan yaratiladimi (klassik nazariyaga ko‘ra) yoki pirovard tovar qiymati ishlab chiqarish omillarining qiymatlarini belgilaydimi? Me’yoriy naflilik maktabi ishlab chiqarish omillari qiymati bor, ammo ularni qiymatining miqdori pirovard ishlab chiqarilgan tovarlarni iste’mol qilishdan olingan me’yoriy naflilik orqali aniqlanishini ta’kidlashdi. Oraliq tovarlar yoki ishlab chiqarish omillari o‘z qiymatlarini pirovard tovarlar qiymatiga o‘tkazmaydi. Richard Vatley, Rikardoning qiymatning mehnat nazariyasini dastlabki tanqidchisi, buni 1830-yilda juda yaxshi ifodalab berib, shunday dedi marvaridlar uni olish uchun sho‘ng‘iganlari uchun qadrli emas, balki u qadrli bo‘lgani uchun odamlar uni olish uchun sho‘ng‘iydilar. Me’yoriy naflilik yozuvchilari fikriga ko‘ra, klassik nazariyadan oldingi nazariyalarning va klassik iqtisodiy nazariyaning kamchiliklaridan yana biri narx belgilashdagi asosiy element umumiy yoki o‘rtacha naflilik emas, balki me’yoriy naflilik ekanini tushuna olmasligidadir. Adam Smit oldingi adabiyotlardan olmos-suv paradoksini ya’ni olmoslar yuqori narxlansa ham kam naflilikka ega ekanligini, ammo suvning narxi past bo‘lsa ham ko‘p nafi borligini topib aytib ketgan. Klassik nazariyachilar bu paradoksni tushuntirib berisha olmadi, chunki ular olmos va suv beradigan umumiy naflilik haqida o‘ylab, ularning me’yoriy nafliliklarining ahamiyatini to‘liq anglab yetisha olmadilar.



**Kembrij maktabi. A.Marshall va uning narx, ish haqi haqidagi nazariyalari.** Kapitalizmdan imperializmga o‘tish davrida Angliyada Kembrij dorilfununida iqtisodchilar maktabi vujudga keldi.

Maktabning nomi ham shu dorilfununning nomidan olingan. Alfred Marshall (1842-1924) marjinalizmning «Kembrij maktabi» lideri hisoblanadi. U Kembrij (Angliya) universitetida o‘qidi, uni tugatdi va shu yerda butun hayoti davomida o‘qituvchilik qildi.

1902 yildan boshlab u yangi «Ekonomiks» fanini kiritdi va siyosiy iqtisod fani asta-sekin siqib chiqarildi. Uning asosiy asari «Ekonomiks

tamoyillari» («Prinsipi ekonomiki») (1890) hisoblanib, bu kitob 6 jilddan iborat. Mazkur kitob olim hayoti davomida 8 marta qayta nashr etilib, unda fanning predmeti to‘g‘risida fikr yuritiladi.

Metodologiya va iqtisodiy nazariya sohasida Marshall iqtisodiy jarayonlarga sub’ektiv qarashlarga asoslangan funksional tadqiqot usullarini qo‘llaydi.

Narx nazariyasi Marshallning nazariy mulohazalari markazida turadi. U qiymat va narx kategoriyalarini aynan bir narsa deb ko‘rsatib, aslida, qiymatni chetlashtirib qo‘ydi va narxni bozor iqtisodiyotining eng muhim elementi, deb hisoblaydi. Olim avvalgi tadqiqotlarda qiymatning iste’mol va almashuv ( ikkita) shakllari alohida-alohida qaralgan edi, Marshallda esa bu farq yo‘q. Obyektiv qiymat kategoriyasidan foydalanadi. Bu narsa uning nazariyasida muvozanat narxi rolini bajaradi. Marshallning nazariyasi sintetik nazariya nomini oldi, chunki muallif bu nazariyada o‘zidan avvalgi mavjud narx nazariyalari «eng yuqori foydalilik (naf)», «ishlab chiqarish chiqimlari», «talab va taklif» nazariyalarini birlashtirib, ularning hammasini to‘g‘ri deb ko‘rsatdi. Narx nazariyasi bilan bir qatorda Marshall foyda va ish haqi nazariyalarini ilgari surdi.

A.Marshallning va uning maktabdoshlari o‘z uslublari (metodologiya)da umuman, Avstriya maktabini qo‘llab-quvvatlaydilar, lekin unga ayrim jiddiy o‘zgarishlarni ham kiritishni lozim topdilar. Jumladan, faqat funksional tadqiqot usulinigina tan olish bilan birga, bozor munosabatlarining uch asosiy zaruriyatlarini: narx, talab, taklifni o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rib chiqadilar.

Ularning fikricha, avvalo ishlab chiqarish iste’mol harakatini aniqlaydi, keyinchalik u eng yuqori foydalilik va talab doirasi ko‘rinishiga kiradi. Kembrij maktabi tadqiqotlariga ikki tomonlama qarash lozim. Agar, biz unga bozor iqtisodiyotida baholashni ichki mexanizmini tushuntirish uchun urinish sifatida qarasak, haqiqatni biroz siyqalashtirilayotganini ko‘rishimiz mumkin. Lekin bu izlanishlarga boshqacha nuqtai-nazardan qarashimiz ham mumkindir, bunda biz e’tiborni tovar-bozorlardagi aniq muammolarni hal etishga qaratilganligiga va natijada amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan ilmiy xulosalar vujudga kelganligining guvohi bo‘lamiz.

Marshall tadqiqotlarida talab va taklif o‘rtasidagi munosabat (birinchilik) qaraladi, qaychida yuqori va pastki keskichlar qanday rolni o‘ynasa (barovar), bu yerda ham ahvol shunday, ular bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Hozirgi zamon iqtisodiy ta’limotlarining asosini tashkil etadi.

## 11.2. Amerika maktabi J.B.Klark nazariyasi

XIX asrning oxirlari (so‘nggi 35-yili)da AQSh monopolistik rivojlanish bosqichiga kirdi. Monopolistik birlashmalar soni tez ko‘payib bordi, (masalan, 1% monopoliyalar qo‘lida 60 % boylik to‘plandi).



Iqtisodiyotda ularning tanho hukmronligi kuchayib bordi. Kolumbiya dorilfununining professori Jon Beyts Klark (1847-1938) boshchiligidagi yetakchi iqtisodchilar guruhi siyosiy iqtisodda yetakchilik mavqeini egalladi, mana shu guruh siyosiy iqtisodning Amerika maktabini vujudga keltirdi. Shu davrdan AQSh iqtisodchilarining tadqiqotlari jahon bo‘yicha yetakchidir (Nobel mukofotlari sovrindoriga e’tibor bering). J.B.Klarkning «Boylik falsafasi» (1886), «Boylikning taqsimlanishi» (1889), «Iqtisodiy nazariyaning muhim belgilari» (1907) asarlari o‘ziga xos yangicha konsepsiyalarni ishlab chiqishda katta rol o‘ynaydi. Amerikaning monopolistik burjuaziyasi shu konsepsiyalarni o‘ziga qurol qilib oldi. J.B.Klark Amerika iqtisodiy uyushmasini tuzish (1885) tarafdorlaridan biri bo‘ldi. U mehnatkashlarning siquviga zarba berish maqsadida, kapitalning ekspluatatorlik mohiyatini niqoblashni shu uyushmaning vazifasi deb bildi.

Bu yerda gap sotsialistik qarashlarga qarshi, bozor munosabatlari ustunligini ko‘rsatish masalari yetakchidir.

Klark iqtisodiyotda ma’naviy omillarni hal qiluvchi omillar, deb hisoblab, Avstriya maktabining asosiy metodologik usullariga qo‘shiladi. U ishlab chiqarish munosabatlarini inkor etdi, uning konsepsiyasi tarixiy bo‘lmagan xarakterda bo‘lib, o‘zining qorishmaligi (eklektizmi) bilan ajralib turar edi. Klark taqsimotni siyosiy iqtisodning asosiy maqsadi deb bildi. U «Boylikning taqsimlanishi» asarida ijtimoiy daromadning taqsimlanishi mojarolarsiz amal qiladigan va ishlab chiqarishning har bir omiliga o‘zi yaratgan boylik yig‘indisi beradigan tabiiy qonun vositasi bilan boshqariladi, deb isbotlashga urindi.

J.Klark avvalgi iqtisodiy ta’limotlarni metodologik va nazariy jihatdan yangilashga intilib, uni tabiiy ravishda tenglashtirdi. Nazariy mexanikaga o‘xshatib siyosiy iqtisodni uch bo‘limga: 1) universal iqtisodiyotga; 2) iqtisodiy statikaga va 3) iqtisodiy dinamikaga bo‘ldi.

Birinchisiga umumiy universal qonunlar, ikkinchisiga shu qonunlarning statik (harakatsiz) iqtisodiyot sharoitidagi, uchinchisida

rivojlanish holatidagi qonunlar amal qilishini ko‘rsatadi.

Siyosiy iqtisodni bunday bo‘limlarga bo‘lish, iqtisodiy fan vazifalariga yangilik kiritishdir. Bu narsa siyosiy iqtisodni ijtimoiy sinfiy muammolardan holi qildi (keyinchalik qarab chiqiladigan ijtimoiy-institutsional yo‘nalishga e’tibor bering).

Klark jamiyat taraqqiyotida sifat siljishlari, inqilobiy sakrashlar bo‘lishi mumkin emas, deb hisoblaydi. U mo‘tadillik-sobitlikni jamiyatning asosiy holati, deb hisoblaydi va muvozanat nazariyasining nusxalaridan birini rivojlantiradi. Iqtisodiy dinamikaga qilingan murojaat muhim yangilik bo‘ldi, chunki u iqtisodiyotning ishlab chiqarishdagi holatini juz’iy hodisa deb hisoblaydi.

J.B.Klark boshchiligidagi Amerika maktabi namoyondalari yo‘l qo‘ygan kamchiliklardan qat’iy nazar bu iqtisodchilar erishgan ilmiy natijalar katta ahamiyatga egadir.

Avstriya va Kembrij maktabi iqtisodchilari tovarlar bozori va ayrim korxonalar tajribasida qo‘llanilgan ilmiy tahlilni J.B.Klark o‘zgacha, ya’ni makroiqtisodiyotni o‘rganishga olib kirishga harakat qildi. Ijtimoiy mehnat, ijtimoiy kapital va befarqlik zonalari tushunchalari yuzaga keldi, shuningdek, «eng yuqori unumdorlik» nazariyasida qo‘llanilgan ilmiy tahlil va tushunchalarni hozirgi davr iqtisodiy nazariyalarida uchratish mumkin, bu esa Amerika maktabining yuksak ilmiy ahamiyatga egalgini belgilaydi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Lozanna maktabi (L.Valras, V.Pareto, K.Viksell va boshqalar) vujudga keldi, ular tomonidan matematikani iqtisodiyotga qo‘llash yuksak darajaga ko‘tarildi. Hozirgi davrda bu usul ekonometrika sifatida alohida rivojlangan.

Neoliberal yo‘nalish tarafdori M.Fridmanning monetar konsepsiyasida «ishsizlikning tabiiy normasi» sharoitida pul miqdorini 3-4% oshirish iqtisodiy o‘sishga olib kelishi tahlil etildi. Keynschilik o‘rniga (1970) kelgan bu yo‘nalish Buyuk Britaniya (Tetcher), AQSh(Reygan), Chili va boshqa mamlakatlar rivojiga ijobiy ta’sir etdi. Hozirgi davrda jahonda neoklassik yo‘nalish iqtisodiy fikrlashda yetakchi, ammo davlat rolini ham tan oladi.

Keyingi davrlarda «neoklassik sintez» konsepsiyasi vujudga keldi, uning muallifi P.Samuelson(1915) bo‘lib, jahonga «Ekonomika» darsligi bilan mashhur. Bu kitob 1948 yil yozildi va 15 martda qayta nashr etilgan. Bu asar uchun unga 1970 yil Nobel mukofoti laureati unvoni berilgan. Bu asarda asosiy e’tibor ommaviy ishsizlik va inflyatsiyani yengish masalalariga qaratilgan. Bu qarashlarda hozirgi yangi keynschilik

va neoliberal g‘oyalarning bir-biriga ta’siri(sintezi)ni ko‘rish mumkin. Umuman, hozirgi davrda barcha iqtisodiy g‘oyalar o‘rtasida (tobora yaqinlashuv va bir-biriga ta’siri) aralash g‘oyalar kuzatilmoqda**.**

## Tayanch ibora va tushunchalar

Marjinalizm, sub’ektiv-psixologik, neoklassika, A.Marshall, «ekonomiks», baho, talab, taklif, talab elastikligi, «Marshall xochi (kresti)». Byom-Baverk, «Robinzonad» usuli, qadriyat, taqsimlash va eng yuqori foydalilik nazariyalari, Klarkning «eng yuqori mehnat unumdorligi» nazariyasi, L.Valras, «noyoblik», «eng yuqori foydalilik».

## Muhokama uchun savollar:

1. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida vujudga kelgan iqtisodiy ta’limotlarga xos xususiyatlar nimadan iborat?
2. XIX asrning 70-yillarida shakllangan qaysi maktablarni bilasiz?
3. Marjinalizmning iqtisodiy ta’limotlar tarixida tutgan o‘rni haqida aytib bering.
4. Kembrij maktabining uslubiyatiga xos xususiyatlari nimadan iborat?
5. A.Marshallning asosiy asari va unda bosh mavzu nimalardan iborat?
6. Klarkning iqtisodiy nazariyasiga ta’rif bering.

# XII BOB. INSTITUTSIONALIZM YO‘NALISHLARI MOHIYATI VA AHAMIYATI

## 12.1. Institutsionalizmning asosiy xususiyatlari

Ijtimoiy-institutsional yo‘nalishning boshlanishi XIX asrning oxirlariga to‘g‘ri keladi va XX asr 20-30 yillarida AQSH da keng tarqalgan.

Iqtisodiy ta’limotlardagi institutsionalizm yo‘nalishi AQShda 20-asrning 20-30 yillarida keng tarqaldi. Bu yo‘nalish nomi lotincha «instituto» urf-odat, ko‘rsatma, muassasa so‘zidan olingan va kapitalizmning imperializm bosqichiga o‘tishi bilan bog‘liq ravishda ro‘y berdi (sanoat va moliya monopoliyalari, korxonalarning yiriklashuvi va boshqalar). Institutsionalistlar moddiy omillar bilan birga ruhiy, ma’naviy, huquqiy va boshqa omillarni iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi deb hisobladilar.

Yo‘nalish vakillarining fikricha, institutlar jamiyat rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchlari bo‘lib xizmat qiladi. Obyektiv iqtisodiy qonunlar tan olinmaydi. Xususiy mulk, soliq, pul, kredit, foyda va savdo kabi iqtisodiy kategoriyalar jamiyat ruhining paydo bo‘lishi shakli hisoblanadi.

Bu yo‘nalishdagilar ma’lum guruhlarning odat, an’analari, yurish-turishi, o‘ylash usullari, huquqiy-axloqiy va boshqa ko‘rinishlar evolyutsiyasini tadqiq qiladilar.

Institutsionalizm evolyutsiyasi uch davrga bo‘linadi.

1. Eski negativ maktab (20-30 yillar) T.Veblen (1857-1920), J.R.Kommons (1862-1945), V.Mitchell (1874-1948), J.Gobson (1858-1940), U.Gamilton g‘oyalarida namoyon bo‘ldi. Iqtisodiy jarayonlar turli tushunchalar asosida bayon qilinadi. Masalan, Veblen iqtisodiy jarayonlarni ruhshunoslik, biologiya va antropologiya bilan bog‘laydi. Kommons ruhshunoslik huquqini, Mitchell antropologiya va matematika hisob-kitoblarini ustun qo‘yadi.

2. Kechki institutsionalizm (I jahon urushidan keyin) J.M.Klarkning «Iqtisodiy institutlar va insonlar farovonligi» asarlarida, G.A.Berlining «Mulksiz hokimiyat» va «XX asr kapitalistik inqilobi» asarlarida, G.Minzning aksionerlar soni ortishi, kapital mulkni kapital funksiyasidan ajralish jarayoni haqidagi maqolalarida qayd etilgan.

Neoinstitutsionalizm 60-70 yillardagi ijtimoy institutsional yo‘nalish. Amerikalik nazariyotchi L.Lou, shvedsiyalik iqtisodchi G.Myurdal tomonidan ishlab chiqarilgan. J.K.Gelbreyt va R.Xeylbroner tomonidan

rivojlantirilgan. Iqtisodiy jarayonlar rivoji industriya va texnokratiya rolining o‘sishi bilan bog‘liq deb qaraladi. Ijtimoy hayotga asoslanib, iqtisodiy jarayonlar borishi tushuntiriladi.

## 12.2. T.Veblen – institutsionalizm asoschisi



Veblen neoklassik atamasini iqtisodiy nazariyaning klassik ajdodlariga alohida e’tibor berish uchun kiritdi. Uningcha klassik va neoklassik yo‘nalishlar ilmiy asoslanmagan edi. Uning neoklassikaga tanqidiy yondashuvi ishlarida ham ko‘rinib turar edi. Veblen tizimda kichik o‘zgarishlar qilishgan: misol uchun tizimdagi kichik mantiqiy kamchiliklarni tuzatishga qiziqmas edi. U neoklassiklarning markaziga zarba berdi. Uning ta’limoti asoslari ilmiy asoslanmaganligini tasdiqlab berdi. Nazariy tuzulmaning asosiga bunday hujum, unda ta’lim olganlarni ikki tanlov orasida qoldiradi: ular tanqidlarga qo‘shilishlari va uning asosida o‘zgartirilgan muqaddimadan yangi nazariyaga asos solishlari yoki tanqidlarni rad etishlari mumkin. Nazariy tuzilmaning asosiy bosh muqaddimasini tan oluvchi lekin yangilarini taklif etuvchi tanqidiy qarash nisbatan mantiqiydir. Tajribaga asoslangan to‘g‘ri xulosalar ham inkor etilishi yoki qabul qilinishi mumkin. Lekin bu holda qabul qilish qoidalar bilan ishlaganlar uchun biroz yengilroq. Chunki bu ularning shug‘ullanishlarida va mo‘ljal olishlarida kuchli ta’sir qiladigan qayta tuzatishlarga olib kelmaydi. Veblen Smit asos solgan muqaddimaga qo‘shilgan holda klassik iqtisodiyotning nazariy asosini yuksaltirmoqchiligi bilan Marshallga ham, Rikardoga ham, Keynesga ham o‘xshamas edi. U mavjud tizimni buzib, iqtisodiyotdan, antropologiyadan, sotsiologiya, psixologiya va tarixdan mustaqil bo‘lgan yaxlit ijtimoiy bir fanga asos solmoqchi edi. Uning ortodoksal qarashlar bilan bir qatorda yetakchi noortodoksal qarashlarni ham tanqid qilgani qiziq, sababi ikki tarixiy maktab va marksistlar tub farazlari va prokonsepsiyalari (oldindan paydo bo‘lgan noto‘g‘ri fikr) fanga asoslanmaganligidan yetarlicha takomillashmagan deb hisoblangan. Smit iqtisodiyotni va jamiyatni tahlil qilishdan oldin yaxshi natijalarga erishish maqsadida jamiyatni ilohiy kuchlar tashkil etgan degan prokonsepsiyaga asoslangan edi. Keyinchalik bu farazlar o‘rniga fizikadagi kabi tabiiy qonuniyatlar iqtisodiyot va jamiyatshunoslikda ham paydo bo‘ladi va

zamonaviy kashfiyotlar va izlanishlar bu kuchlarning ishlashini tushuntirib beradi, degan qarash egalladi.

**“Bekorchilar sinfi”**. Rasmiy sanoat bo‘linishi Veblen tabiri bilan aytganda, bekorchi qatlamga ham tegishli edi. 1989-yilda Veblen o‘zining eng ommalashgan kitobi “Bekorchi sinf nazariyasi”ni nashr ettirdi. U o‘z davrining ko‘plab ilg‘or fikrli kishilarining sevimli kitobiga aylandi. Bu yerda u quyidagilarni muhokama qilish uchun boshlang‘ich tabaqalashtirishni qo‘lladi: ko‘zga ko‘ringan iste’mol, isrofgarchilik, moliyaviy musobaqa va moddiy madaniyat ramzi sifatidagi kiyim. Bunda u quyi rivojlangan madaniyatlar haqida mulohaza qildi: insonlarning yoki qabilaning talonchilik qudrati o‘z boshliqlariga xurmat maqomini berib, yuqori ehtirom etiladi. Zamonaviy industrial iqtisodiyotda esa bu ta’magirchilik kuchi jamiyatning kam sonli a’zolari qo‘lida ko‘p foyda to‘planishida o‘zini ko‘rsatadi. Bu odatda tan olinmasada, bizning madaniyatimiz ularning paydo bo‘lishi uchun bir qancha mexanizm (qurilma, tizim)lar bilan ta’minlaydi. Chunki moliyaviy bellashuvda boylik to‘plash kuchli mativ hisoblanib, u jamiyat orasida tezda yoyiladi. Biz xarid qilayotgan buyumlar bizning talonchilik qobiliyatlarimizni yaqqol ko‘rsatadi. Uy-joy, avtomobil va ayniqsa, kiyimlarimiz bizning talonchilik qatoridagi o‘rnimizni belgilov-chi aniq nishondir. Agarda er moliyaviy ishlar bilan band bo‘lsa oila boyligini ko‘rsatishni ayol o‘z zimmasiga oladi. Buni u kiyinish va turli buyumlarda ko‘rsatganidek, bir qancha xizmatkorlar ham moliyaviy ta’minlanganlikning yorqin namunasidir. Ishlamaydigan tabaqa katta foyda ko‘ruvchi sinf bo‘lganligidan qanday ish qilsalar ham moliyaviy jabhada bo‘lardi, mulkchilikning yo‘qligi maqullanardi, lekin biror ish qilinishi kerak bo‘lsa yuqori menejment, moliya va bankchilik rasmiy ravishda maqullanar edi. Huquqshunoslik yaxshi kasb chunki “huquqshunos qallob talonchining barcha ishlari tafsilotlaridan bohabar bo‘ladi”. Bizning ishdan tashqari harakatlarimiz Veblen aytganidek, madaniyatdagi yuqori martabani egallash uchun bo‘lgan ishtiyoqimizga ta’sir etadi. Injiner, kashfiyotchi kabi bir qancha odamlar texnologik ishlarda bo‘lishiga qaramasdan, Veblen qayd etganidek, amerikalik biznes odamlari kvantizm (barcha narsa xudodan deb ishonuvchi ta’limot) ruhini “kelishuv, ogohlantirish, maxfiy bitishuv, asossiz ayblash” kabi namoyish etadi. Lekin biznes odamlari foyda olib bo‘lmaydigan texnologik jamiyatdan naf ko‘rishardi. Uning qayd etishicha, “samimiy lekin yaxshi aytilgan amerikancha ibora bor “Ovoz chiqarmagan to‘ng‘iz, cho‘chqaning ham ovqatini yeydi”.

Veblenning fikricha ilmiy va fan doirasida o‘qitilish odamni tadbirkorlikdan uzoqlashtiradi, amaliyotdagi tajriba bilimlar ortidan quvish bilan teng bo‘lmaydi. Talabalardan to akademik ma’muriyatgacha boshqaruvchilarni “bilimlar sardori” deb ataydi. Ularning sobiq bilimdonlar ekanligini hisobga olib, Veblen ularni madaniyatimiz moliyaviy qiymatlari qurboni bo‘lgan va o‘z yo‘llaridan adashganlar deydi. Biznesdagi o‘z vazifadoshlari kabi ular ham o‘rta va oxirini unutib qo‘yganlar. Universitetlar boshqa hamkasblar singari bir birlari bilan resurslarni sovurishda poyga o‘ynaydilar. Boshqaruvchi va doimiy xodimlar yangi binolar, maydonlar va yer mulk qurishga ta’lim tizimi va dasturlaridan ko‘ra ko‘proq qiziqadilar.

Mablag‘lar biznes maktablariga, universitetga ham, jamiyatga ham foydasi tegmaydigan rasmiy, norasmiy dabdabali tantanalarga sarflanadi. Veblen jamoaviy huquqlari yo‘q va “vatan yigiti” bo‘lishga intilayotgan “oyliklari odamlar oladigan maosh bo‘lmagan” “professorlarni” oqlamaydi. Fakultetlarni nazorat qilish uchun prezidentlar “hukmga qat’iy amal qiluvchi va vafodor” kishilarni va boshqa vazifalarni joriy etdi. Universitetlarga bilim maskanlari maqomini qaytarish uchun Veblen doimiy xodimlar boshqaruvini tugatishni taklif etadi. Ushbu satirik ko‘rinishdagi gaplari bilan u qanchalik jiddiy yondoshganligini aytish qiyin, lekin buning amalga oshishi qiyin kechishini aytib o‘tgan edi.

**Barqaror va uzoqni ko‘ruvchi kapitalizm**. Veblen biznes davri nazariyasining rivojidagi sanoat va moliyaviy xizmatlar bilan uzoq davrlardan beri davom etayotgan kapitalizm tendensiyalaridagi va olib sotarlik qilish o‘rtasidagi farqqa diqqatini qaratdi. Bu davrning rivojlanish bosqichi davomida biznes odamlarining moliyaviy o‘yinlari kredit hajmining oshib borishiga olib keldi va balandroq qiymatlar korporatsiyalarning noaniq qobiliyatida foyda olish uchun joylashtirildi. Qo‘shimcha kreditlarning uncha ahamiyati bo‘lmaganidek, kapital xizmat qiymati ko‘tarildi. O‘zini mustahkamlash jarayoni davomida kredit hajmi va sifatli mahsulotlarning qiymati ikkinchi darajali bo‘lishi ularning narxlari ko‘tarilishi bilan keng davom etdi. Lekin tez orada sifatli tovarlar hokimiyatining daromad keltirishi va ularing qiymati ishonchli narxlarda ko‘rsatilishi o‘rtasida katta bo‘shliq yuzaga keldi va tugatish va kamaytirish davri boshlandi. Narxlarning tushishi, ishlab chiqarish hajmi, xizmat va kreditlarni kamaytirish, ko‘proq realistik asosdagi firmani qayta sarmoyaga aylanishini boshqardi. Bu davrning tushkunlik bosqichi davomida, kuchsizroq firmalar kattaroq, kuchliroq firmalar tomonidan siqib chiqarildi yoki egallab olindi va Amerika sanoatidagi mulkchilik va

nazorat jamligi kam sonli kishilar qo‘llariga o‘tdi. Bu davrning tushkunlik bosqichi davomida, kuchsizroq firmalar kattaroq, kuchliroq firmalar tomonidan siqib chiqarildi yoki egallab olindi va Amerika sanoatidagi mulkchilik va nazorat jamligi kam sonli kishilar qo‘llariga o‘tdi. Bu davrning tushkunlik bosqichi o‘zini to‘g‘irlash kuchlarini o‘z ichiga oladi, chunki haqiqiy ish haqi tushdi va foyda chegaralari oshdi.Yakunida ortiqcha kredit iqtisodiyotni va biznesning moliyaviy qiymatini siqib chiqardi, muvozanat varaqalarida tushuntirilishi natijasida sanoat ishlab chiqarish hajmi ko‘proq o‘rtacha rivojlandi. Veblenning barcha yozuvlari sistemaning uzoq davom etgan tendensiyalarini muhokama qilgan bo‘lsada, bu muammolar uning “Bekorchi sinf nazariyasi”, “Biznes faoliyati nazariyasi” va “Sotsializm nazariyasidagi ba’zi e’tiborga olinmagan jihatlar ” asarida mukammal yoritilgan. Marksistik kapitalizm tahliliga tanqidiy yondoshgani kabi Veblen ham ortodoksal nazariyaga tanqidiy yondoshdi.

Veblenning kelajak haqidagi taxminlarida sanoat xizmatlari va manfaatlariga zid kelgan moliya orqali keskinlik va konflikt yuzaga keladi. U Bekorchi sinf nazariyasi tahlillarida maslahat beradi raqobat, daromad va tovarlarning iste’moldagi nohaq taqqoslanishini boshqaradi, iqtisodiyotda ko‘zga ko‘ringan iste’mol bo‘linishi va ko‘rinib turgan isrofgarchilikni, reklama qilish va marketing narxlarini ko‘taradi. Biz insoniyat rivojiga halaqit bergan tovarlar oqimi o‘sishini qabul qila olamiz, chunki sanoat har doim foyda izlovchi biznes odamlari tomonidan boshqarilgan. Nima bo‘lganda ham ishlayotgan aholi va muhandislar o‘zlarining kundalik assotsatsiyalarida dalilning mohiyati, sabab va natija o‘rtasidagi aloqa orqali sanoat xizmati paydo bo‘ladi, sistema nazorati kuchayadi, sanoat iqtisodiyoti uning so‘zini bajaradi. Veblenning fikriga ko‘ra, Marks adashganligiga qaramasdan, uning bashoratida kapitalizm revolyutsiyalar natijasida pasayadi, kambag‘al kambag‘alroq bo‘lib o‘sadi, kapitalizm tugashi mumkin bo‘lib qoladi, chunki ishchi sinflar sistema rivojlangani sari o‘zlarini birmuncha kambag‘alroq his qiladilar. Veblen iste’mol namunalaridagi raqobat kapitalizm ostida qudratli kuchlarni dunyoga keltirishi va u tizmda ziddiyatlar va ishchi sinflar guruhida norozilik paydo qilishi, xususiy mol-mulk yakunini boshqarishiga ishonadi. Maslahat shuki, kapitalizm tugashi mumkin, chunki individuallikning kapitalizm bilan aloqadorligi Veblen tahlilining mantiqqa mos kelmaydigan yana bir xususiyatiga misol bo‘ladi. Marks fikrlariga zid ravishda, Veblen quyidagicha maslahat beradi, kapitalizm muvaffaqiyatsizligi sababli emas, balki o‘zining muvaffaqiyatliligi

sababli tugaydi. Veblen fikrini ochiq va to‘liq bayon etishdan bosh tortadi va bularning barchasi haqiqatda sodir bo‘lmasligi mumkinligini aytadi. Kapitalizm va xususiy mulkchilikning kelajagi mavhum. Bitta bo‘lishi mumkin bo‘lgan narsa, ishchilar sinfi orasida ilmiy va texnologik pozitsiyaning o‘sishi kuzatiladi va muhandislar biznesni odamlarning o‘rniga boshqaradi, shunday qilib iqtisodiyot texnologik kasb nazoratiga o‘tadi. Veblen aytgan bu rivojlanishlar sodir bo‘lsa, buning ma’nosi mulkchilik yo‘q bo‘lishining tugashi, moliyaviy manipulyatsiya va foyda izlash bo‘ladi va sanoat insoniyat uchun foydali bo‘lgan tovarlar ishlab chiqarishga yo‘naladi.

## 12.3. V.Mitchell iqtisodiy qarashlari

Vasley Klar Mitchell (1874-1948) 1896 yilda yunon va lotin adabiyotini o‘rganish uchun Chikago Universitetiga o‘qishga kirdi. Jon Devey va Torsten Veblenning darslarini olgandan so‘ng, falsafa va iqtisodiyotga ko‘proq qiziqa boshladi va nihoyat iqtisodiyotni davom ettirishga qaror qildi. Mitchell Veblenning g‘oyalarini to‘lig‘icha qabul qilmagan bo‘lsada, uning iqtisodiyoti ortodoksal emas, shuning uchun unda odatda institutsionalistlar maktabi bilan bir xil deb qaraladi. U Veblenning ba’zi ortodoksal iqtisodiy nazariya tanqidlarini qabul qildi va ularni to‘ldirdi, lekin u sanoat iqtisodiyotini tushuntirib beruvchi to‘liq nazariy tizim yaratishga harakat qilmadi. Uning J.M.Klarkka yozgan noodatiy ochiq xatida, iqtisodiy nazariyaning asosiy oqimidan yo‘nalishini o‘zgartirganligini, fikrlari undan boshqachaligini ochiqchasiga bayon etgan.Shuningdek, u aniq muammolar va metodlarni abstraktlariga nisbatan afzal ko‘ra boshlaganligini aytgan.

Mitchell dalillarni keltirish orqali iqtisodiyotda o‘ziga xos yondoshishni ko‘rsatdi. U Chikagoga bordi, u yerda falsafani ham iqtisodiyotni ham o‘rgandi. U iqtisodiyotni falsafadan osonroq deb bildi, uningcha nazariyaning texnik qismi oson. Menga yer bering va men yer orqali olib sotarlikni davom ettiraman, shuningdek men “xulosalarim” foydasiz ekanligini ham bilaman. Mitchell Veblenning fikrlaridan hayron bo‘ldi va sezdi “nazariyalar davom etishida ba’zilari bir biriga mos keladi. Hali Mitchell Veblenning tizimidagi ortodoksal nazariyadagi bir xil metodologik zaiflikni anglab yetmasdan, ularning farazlari ham, maqsadga muvofiq xulosalari ham muvaffaqiyatsizlikka uchradi”[46]. Lekin

[46] This delightful letter can be found in a number of places, including Lucy Sprague Mitchell’s “A Personal Sketch” in Wesley Clair Mitchell: The Economic Scientist, ed. Arthur F. Burns (New

hech narsa ortodoksal iqtisodchilarning bajaradigan ish tartibi me’yorlari ilmiy bo‘lmagan sinovlar bilan bog‘lana olishiga meni ishontira olmaydi. Bu o‘ziga xos munosabat Mitchellning umr bo‘yi qilgan sa’y harakatlarida aniq ravshan ko‘rinadi. Iqtisodiy nazariyalar tarixini o‘rganishda, u ma’lum bir nazariyachilar so‘zlariga qiziqmadi. Lekin ba’zi muammolarga aynan shu nazariyachilar qarshi chiqdi boshqalar emas, nega ular ma’lum mulklarni hech qanday savolsiz qabul qildi va nega ularning zamondoshlari ular muhim deb bilgan fikrlarni va xulosalarni qabul qildi. Iqtisodiyot nazariyasi tarixida Mitchellning ishlari relativ pozitsiyaning eng yaxshisini namoyish qildi. U iqtisodiy nazariyani kengroq tushuntirdi va davr muammolariga aqliy munosabat bildirdi. Bu munosabat ham uning biznesdagi ishini aniq ko‘rsatib berdi. Abstrakt mulkchilikda hech qanday davrlar nazariyasi topilmaganligini u rad etdi va natijalardan xulosa qildi. Uning yondoshishi u taklif etgan noaniq nazariyalarni tekshirishda dastlabki bosqichdek vaqt qismlariga misol bo‘ladi, shuningdek u diqqat bilan tuzilgan edi. Uning ishlari biznes davrlari paydo bo‘layotgan vaqtda deyarli nazariy edi, bu nazariy tushunchalar yashirin va to‘laligicha tahlil qilinardi. U shuningdek, ortodoksal nazariyaning gedonistik psixologik taxminlariga e’tiroz bildirdi, lekin Veblenning instinkt nazariyalarini ham qabul qilmadi. U ijtimoiy fanlar inson harakatlarini yaxshiroq tushuntirishini va rivojlantirishini tasdiqladi.

Mitchell yozuvlarining tub ma’nosi ortodoksal nazariyadagi ziddiyat bilan birgalikda etik ziddiyat ham bor. Mitchell iqtisodiy bilimni ijtimoiy yordamni rivojlantirishga ishlatishga umid qilgan, iqtisodiy haraklatlardagi o‘zgarishni yaxshiroq nazorat qilish, firmalar harakatlarining yaxshiroq birlashishiga erishish uchun iqtisodiyotni o‘rganish milliy rejalashtirish uchun ehtiyojlarni ko‘rsatadi. Mitchell Veblenning moliyaviy va sanoat xizmatlari o‘rtasidagi farqni biznes davrlarini o‘rganishda uning yondoshishini umumiy yo‘l ko‘rsatuvchi sifatida qabul qildi. Iqtisodiy harakatlardagi o‘zgarishlar biznes qarshi harakati orqali foydaning qiymatlari o‘zgarishini keng miqdorini tashkil qiladi. Chunki biznes fikrlarida ishonch va mavhumlik joylashadi, biznes odamlarining investitsiya fikrlari doim kelajakka ham optimistik, ham pesimistik qarash natijasida bo‘ladi. Iqtisodiy harakatlardagi o‘zgarishlar iqtisodiyotdagi pul bilan bog‘liq tizimlar rivoji sifatida qabul qilinadi. Shu sababli ortodoksal nazariya bilan uning me’yoriy, o‘zgarmas va

---

York: National Bureau of Economic Research, 1952), pp. 93-99; and J. M. Clark, Preface to Social Economics (New York: Farrar and Rinehart, 1936), pp. 410-416. We cite Clark.

muvozanat tushuncha asoslari mos kelmaydi. Mitchell biznes davrining yana bir boshqa modelini chizishga harakat qilmadi. U biznes davri mobaynida nimalar sodir bo‘lganligini tushuntirish o‘rniga, bu davrni tasvirlovchi tahlillarni berishga harakat qildi. Chunki har bir davrda noyob, umumiy nazariya rivojlanishi mumkinligi chegaralangan; hali barcha davrlar aniq o‘xshashlikka ega emas, chunki tushkunlik yangidan boshlash, rivojlanish va krizisning turli xil davrlari davomida barcha iqtisodiy kuchlarning o‘zaro ta’sirini ko‘rsatib bergandi. Mitchelldan oldin boshqalar bu davrni o‘zini yaratilishiga sabab bo‘lgan jarayon sifatida ko‘rgan bo‘lishiga qaramay, u birinchi bo‘lib bu tushunchaga mukammal shakl bedi va u bilan keng amaliy ma’lumotlarni himoya qildi. Uning bu davrni tushuntirishi qarama-qarshiliklardagi foydalar bosqichining o‘zgarishi asosida bo‘ldi. Tushkunlikdan keyingi tiklanishning urug‘larini narxlarning tushishiga qiziqish, foyda keltirmaydigan firmalarni tugatish, o‘zgaruvchan narxlarni rad etish va mol-mulk ro‘yxatlari tushib ketishi ham tuzatiladi. Shuningdek, rivojlanish krizisning urug‘larini va keyingi tushkunlikni narxlarni ko‘tarish bilan surib chiqaradi. Mitchellning tasvirlovchi tahlillari natijalari bilimdonlarni nazariyaning mulohazalari yig‘indisi tasviri va matematik qiziqishlardan holi bo‘lgan hamda ma’lum ma’noda Marshallnikiga o‘xshardi. Marshallning mikroiqtisodiy tahlillari ostidagi murakkab, nazariy, tub ma’no yo‘qolgan, lekin ba’zi o‘lchovlari hali ham mavjud.

**Iqtisodiy o‘sish bosqichlari.** Amerika olimi Uolter Rostou (1916) o‘zining «Iqtisodiy o‘sish bosqichlari» (1960) kitobida jamiyatning xo‘jalik rivojlanishi bosqichlarini ko‘rsatib berishga harakat qildi.
U.Rostou iqtisodiy taraqqiyotning beshta bosqichini ko‘rsatib berdi:

1. An’anaviy jamiyat. Nyutongacha bo‘lgan fan va texnika hamda qishloq xo‘jaligining ustunligi bilan ifodalanadi.
2. O‘tkinchi jamiyat. Unda iqtisodiy o‘sish uchun shart-sharoitlar yaratilgan bo‘ladi, fan yutuqlari ishlab chiqarishga tadbiq etiladi, banklar paydo bo‘ladi, ishlab chiqarishni investitsiyalash kuchayadi.
3. Yuksalish davri (sanoat inqilobi). Asosan, eski an’anaviy uklad tugatiladi, iqtisodiy o‘sish normal holat hisoblanadi, sanoatning asosiy tarmoqlari jadal rivojlantiriladi, davlat eksportni rag‘batlantiradi.
4. Yetuklik bosqichi. Aholining o‘sishiga qaraganda mahsulot ishlab chiqarishning doimo ortiq bo‘lishi ta’minlanadi, milliy iqtisodiyotning jahon xo‘jaligiga integratsiyalashuvi kuchayadi, an’anaviy jamiyat batamom tugatiladi.

5. Ommaviy iste’mol bosqichi. Uzoq muddat foydalaniladigan iste’mol buyumlari va xizmat ko‘rsatish asosiy ahamiyat kasb etadi.

Uningcha, kommunizm – bu «o‘tkinchi davrning kasali», «yagona industrial jamiyat»ga o‘tishning mumkin bo‘lgan yo‘llaridan biridir.

## Tayanch so‘z va iboralar

Institutsionalizm, T.Veblen, davlat, kasaba uyushmasi, yirik korporatsiyalar, urf-odat, an’ana, «bekorchi sinf», «texnostruktura», «Yangi industrial jamiyat», sikllik rivojlanish, prognoz, monetarizm.

## Muhokama uchun savollar:

1. Institutsionalizm so‘zining ma’nosini tushuntirib bering.
2. Institutsionalizmning paydo bo‘lish tarixiy shart-sharoitlarini tushuntiring.
3. Institutsionalizmning asosiy namoyondalarini sanab bering.
4. Monetarizmning asosiy namoyondasi va g‘oyalari.

# XIII BOB. J.M.KEYNSNING IQTISODIY TA’LIMOTI VA KEYNSCHILIK

## 13.1. J.M.Keynsning iqtisodiy ta’limoti



Jon Meynard Keyns (1883-1946) – hozirgi zamonning buyuk olimi, iqtisodchisi. Uning dunyoqarashi o‘zi oldin bilim olgan, keyin o‘qituvchilik qilgan Kembrij universitetida shakllandi. U A.Marshall qo‘lida ta’lim oldi. Ammo uning izidan bormadi, o‘ziga xos yo‘nalishda nazariya yaratdi.

J.M.Keyns o‘z tadqiqotlari asosida bir qator asarlarni nashr etdi. Ular «Ehtimollar to‘g‘risida traktat» (1921), «Erkin tadbirkorlikning tugatilishi» (1926), «Pul to‘g‘risida traktat» (1930) va boshqalar. Uning «Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi» nomli asosiy asari 1936 yili chop etildi. Bu asarlardagi bosh masala kapitalizmni oqlash, uning inqirozlarsiz rivojini ta’minlashning abadiyligini isbotlashga urinishdir.

Keyns ta’limotining asosiy va yangi g‘oyasi shuki, bozor iqtisodiy munosabatlari tizimi mukammal va o‘z-o‘zini avtomatik ravishda tartibga sola olmaydi. Shu sababli, maksimal darajada bandlikni va iqtisodiy o‘sishni faqat davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvi ta’minlay oladi.

1929-1933 yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi sanoat jihatidan rivojlangan va past rivojlangan mamlakatlarga katta zarba berdi. Avvalgi (klassik, nyeklassik) ta’limotlar tadqiqotida mikroiqtisodiy tahlil (alohida korxona) asosiy o‘rinni egallagan bo‘lsa, inqiroz katta ishsizlik sharoitida boshqacha, makroiqtisodiy tahlil (davlat, jaxon)ga zarurat to‘g‘ilgan edi. Fanning bu sohasida hozirgi davrning taniqli iqtisodchisi J.M.Keyns muhim kashfiyotni yaratdi.

Xuddi shu davrda ijtimoiy iqtisodiyot masalalarida munozara kuchaydi. Unda erkin xo‘jalik faoliyati va davlatning iqtisodiyotga aralashuvi, trestlar va sindikatlar, proteksionizm va fritrederlik muammolari ko‘ndalang bo‘lib turar edi. Shu davrdagi ilmiy tadqiqotlar muammosi hozirgi davrda, kunlarda ham nihoyat dolzarb, chunki davlat bozor iqtisodiyotini tartibga solishi kerakligi masalasi uzul-kesil xal etilmagan. Bu borada ikki yo‘nalish hukmron. Keyns ta’limotiga tula asoslanuvchilar – keynschilar va unga qisman qo‘shiluvchilar neoliberallardir.

XX asrning birinchi yarmida iqtisodiy inqirozlarning damba-dam takrorlanishi tufayli ko‘pgina «kapitalizmni tartibga solishga» oid iqtisodiy g‘oyalar soni ko‘paydi. Ana shunday yo‘nalishning yorqin tarafdori bo‘lib ingliz iqtisodchisi **Jon Meynard Keyns** (1884-1946) shuhrat qozondi. Iqtisodchi, davlat arbobi bo‘lgan Keyns Iton va Kembridj universitetlarida iqtisodiyot va matematikadan ta’lim oldi, A.Marshall qo‘lida o‘qidi (1902-1906, 1909-1915-yillarda o‘qituvchilik qildi, 1920-yildan Kembridj universitetida professor, 1913-1946-yillarda iqtisodiy jurnal muharriri bo‘lib ishladi). 1909-yil «Indeks uslubi» iqtisodiy maqolasi, 1913-yilda uning birinchi asari – «**Pul muomalasi va Hindiston moliyasi**» kitobi chop etildi. 1919-yilda «**Versal tinchlik shartnomasining iqtisodiy oqibatlari**» nashr etilishi bilan u iqtisodichi sifatida ko‘pchilikka tanildi. Bu asarida u shartnomaga nibatan bir qancha tanqidiy fikrlar bildirgan edi. Keyns 20-30-yillarda iqtisodiyotga oid bir nechta kitoblar yozdi («Ehtimollik to‘g‘risida risola» (1921), «Pul islohoti to‘g‘risida risola» (1923), «Mister Cherchelning iqtisodiy oqibatlari» (1925), «Erkin tadbirkorlikning intihosi» (1926), «Pul tug‘risida risola» (1930) va boshqalar), ammo unga mashhurlik keltirgan bosh asari – «**Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi**» (1936) kitobidir. 1940 yilda «**Urush harajatlarini qanday qoplash mumkin**» degan kitobi ham nashr etildi. Bu asarlardagi bosh masala kapitalizmni oqlash, uning i degan kitobi ham nashr etildi. Bu asarlardagi bosh masala kapitalizmni oqlash, uning inqirozlarsiz rivojini ta’minlashning abadiyligini isbotlashga urinishdir. Uning yaratgan nazariyasi iqtisodiyot ta’limotlari tarixida alohida o‘rin egallaydi va bu o‘ziga xos inqilob bo‘lib, hozirgi davrda ham ahamiyatlidir. Keyns asosiy asarining boshidayoq klassik maktabga qarshi ekanligini bayon etdi.

Keyns ta’limotining asosiy va yangi g‘oyasi shuki, bozor iqtisodiy munosabatlari tizimi mukammal va o‘z-o‘zini avtomatik ravishda tartibga sola olmaydi. Shu sababli maksimal darajada bandlikni va iqtisodiy o‘sishni faqat davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvi ta’minlay oladi. Bu ish davridagi amaliy iqtisodiyotdagi aniq axvol bilan chambarchas bog‘lik edi. Yetakchi olimlarning ta’kidlashicha (J.K.Gelbreyt, M.Blaug), firmalar, monopoliya va oligopoliyalar faoliyatidagi tengsizlik nisbatan kichik doiradagi odamlarning faoliyati bilan bog‘liq, bu tengsizlik tamoyilida davlatning aralashuvi bilan tuzatilishi mumkin edi.

Aslida u iqtisodchi Alfred Marshallning – Kembridj maktabining davomchisidir, ammo yondashuv boshqacha. Asosiy nazariy muammolar qiymat, kapital, ish haqi va boshqalar bo‘yicha asoslanadi. Psixologik

omillarning ustunligiga ishonadi va qiymatning mehnat nazariyasini, qo‘shimcha qiymatni inkor etadi, uni ishlab chiqarish omillari konsepsiyasi bilan almashtiriadi. Keyns kapitalizm bozor iqtisodi illatlarini to‘g‘rilash uchun davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvi tarafdori bo‘lib chiqdi. Vaholanki, avvalgi olimlar (klassik maktab) buni inkor etganlar va inqirozni tasodifiy voqea deb hisoblaganlar. Avvalgi tadqiqotchilardan farqli ravishda «samarali talab»ni, ya’ni iste’mol va jamg‘arishni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Yuqorida qarab chiqilgan iqtisodiy ta’limotlardan biri – merkantilizmda davlatning iqtisodiyot (siyosat)ga aralashuvi talab etiladi, prteksionizm iqtisodiy siyosati shuni talab etadi. J.M.Keyns u yaratgan konsepsiyaga merkantilistlarning ta’sirini inkor etmaydi. Ikkala ta’limotdagi umumiy g‘oyalar quyidagilardan iborat:

Mamlakatda pul masalasini ko‘paytirish uchun intilish (pulning qadrini biroz pasaytirish) va shunga muvofik ssuda foizini kamaytirish va ishlab chiqarishga investitsiyalarni qo‘yishni rag‘batlantirish vositasi sifatida, baho (narx-navo)lar oshuvini qo‘llash (savdo ishlab chiqarishni ragbatlantirish usuli sifatida), pulning yetishmasligi ishsizlik sababi deb tan olinadi hamda iqtisodiy siyosatning milliy (davlat) xususiyatiga ega ekanligi tushuniladi. U tadqiqotning makroiqtisodiy uslubini, ya’ni makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘lgan milliy daromad va jamg‘armalar o‘rtasidagi bog‘lanish hamda nisbatlarni tadqiq qilish g‘oyasini ilgari surdi. Bu tadqiqot usuli o‘z davrida fiziokratlar (F.Kene, A.Tyurgo) K.Marks tomonidan qo‘llanilgan Keynsgacha mikroiqtisodiy yondashuv, ya’ni alohida xo‘jalik obyektlari bo‘lgan firmalar iqtisodiyotini tahlil etish rasm bo‘lgan edi. Firmaning rivoji millat mamlakat ravnaqi bilan bir deb qaralar edi. Asosiy e’tibor umumiy iqtisodiyotga emas, balki firmaga qaratilgan edi. Keyns ta’limoti iqtisodiy siyosat bilan chambarchas bog‘liqdir. Agar Marks kapitalistik tizimning yemirilishini bashorat qilgan bo‘lsa, Keyns kapitalizm muhandisi sifatida uni ta’mirlash yo‘lini aniqlab berdi. Davlat tomonidan rag‘batlantiriladigan talab «samarali talab» konsepsiyasi ilgari suriladi.

Kapitalizmning bosh illatlari bu ishsizlik va inqirozlardir, Keyns bularning sabablarini sohibkorlar psixologiyasidan topishga intiladi. Inqirozlar kapitalistning qayfiyatiga qarab ro‘y beradi, ya’ni optimizmdan pessimizmga o‘tganda bo‘ladi. Asosiy e’tibor «iste’molga moyillik» va «jamgarishga moyillik»ka qaratiladi.

Keynsning umumiy bandlik nazariyasi quyidagilarga asoslanadi: Ish bilan bandlik ortishi tufayli milliy daromad va demak, iste’mol ortadi, ammo iste’mol daromadga nisbatan sekinroq ortadi, chunki daromad

ortishi bilan «jamg‘arishga intilish» kuchayadi. Uningcha, asosiy psixologik qonun shundan iboratki, odamlar odatda daromadlar ortishi bilan iste’molni ham o‘stiradi, ammo bu o‘sish daromadlar darajasida bo‘lmaydi. Oqibatda daromadlar o‘sishi bilan jamgarish ortadi va iste’mol nisbati kamayib boradi. Oxirida esa «samarali talab» kamayadi, talab shunday yo‘l bilan ishlab chiqarish hajmlariga va bandlik darajasiga ta’sir etadi.

Iste’mol talabining yetarlicha o‘smasligi yangi investitsiyalarga harajatlarning oshuvi yo‘li bilan qoplanishi, ya’ni ishlab chiqarish iste’molining ishlab chiqarish vositalariga qarab oshuvi yo‘li bilan koplanishi mumkin. Shu sababli investitsiyalarning umumiy hajmi bandlik hajmini belgilashda hal qiluvchi rolni o‘ynaydi. Keynsning fikri bo‘yicha investitsiyalar hajmi investitsiyalarga bo‘lgan intilishga bog‘liq. Sohibkor investitsiyalarni kapitalning «eng yuqori samaradorligi» foiz darajasigacha pasaygan paytgacha kengaytiradi (foyda me’yori o‘lchanadigan rentabellik). Kiyinchilik shundaki, kapitalning rentabelligi pasayadi, foiz darajasi esa mo‘tadil bo‘ladi. Bu holat yangi investitsiyalar uchun imkoniyatni pasaytiradi, demak, bandlik o‘sishi ham kamayadi. Kapital «eng yuqori samaradorligi»ning pasayishi kapital massasining o‘sishi, shuningdek, kapitalist-tadbirkorlarning bulajak daromadlariga ishonchsizlikka «moyilligi» bilan tushuntiriladi. Keyns ta’limoti bo‘yicha bandlikning umumiy hajmi uch omilga – «iste’molga moyillik», «eng yuqori samaradorlik» va foiz meyoriga bog‘lik.

Keyns ochgan «asosiy psixologik qonun» uningcha, istalgan jamiyat uchun qo‘llanilishi mumkin va iste’mol talabining kamomadi asriy tendensiyaga ega hamda barcha uchun yagona iste’mol qonuni mavjuddir.

«Kapitalning eng yuqori samaradorligi», qo‘shimcha kapital birligi tomonidan vujudga keltiriladigan bo‘lajak foydaning shu birlikka ketgan ishlab chiqarish chiqimlariga nisbatidir. Keynsning fikricha, daromad, foyda keltiradigan narsalar kapital hisoblanadi (boshqa omillarda ham shunday). Uningcha, kapital noyobligi, ya’ni cheklanganligi tufayli foyda keltiradi. Kapitalning ko‘payishi borasida uning samaradorligi yoki foydaliligi kamayib boradi. Ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida va kapitalning tez jamlanishi tufayli bir avlod umri davomida «kapitalning eng yuqori samaradorligi» nolga tenglanishi mumkin, deydi u. Kapitalning samaradorligi psixologik omillarga bog‘lik ekan, endi kapitalistning o‘z korxonasining kelajagiga beradigan bahosi uning qayfiyatiga qarab o‘zgaradi.

Keyns foizga alohida e’tibor beradi, uni pul qarzi uchun berilgan xaq deb hisoblaydi. Foiz uningcha, muomaladagi pul miqdoriga va «likvidlilik afzalligi» ga boglik (likvidlilik – pulga tez aylana olish, kadrlilik demakdir). Uning miqdori «likvidlilik afzalligi» ga to‘gri va muomaladagi pul miqdoriga teskari proporsionaldir.

Keynsning fikricha, foiz meyori ma’lum davrga likvidlilikdan, ya’ni boylikning likvid, pul shaklidan voz kechish hisobiga beriladigan mukofotdir. Boylikning pul shakli eng harakatchan va qulaydir, shu sababli kapitalist doim o‘z boyligini pul shaklida saqlashga va undan ajralmaslikka intiladi. Mana shu niyat, manna shu ishtiyok Keyns tomonidan «likvidlilik afzalligi» deb ataladi. Bu kapitalist likvid shaklda saqlamoqchi bo‘lgan resurslarning miqdori bilan o‘lchanadi.

Keynsning umumiy nazariyasida investitsiyalarning umumiy bandlik hajmini aniqlashdagi asosiy roli to‘grisidagi tezis muximdir. Ular iste’mol talabining yetarli emasligini to‘ldirishi (kompensatsiyalash) kerak. Bunda ishlab chiqarishni kengaytirish masalasi iste’mol talabi oshuvidan alohida qaraladi. Investitsiyalarning ko‘payishi ishlab chiqarishga qo‘shimcha ishchilarni jalb etishga olib keladi, bu esa bandlik, milliy daromad va iste’mol usulini ta’minlaydi. Yangi investitsiyalar tufayli bandlikning dastlabki o‘sishi yana qo‘shimcha bandlikni vujudga keltiradi, chunki qo‘shimcha ishchilarning talabini qondirish zarurati tug‘iladi. Qo‘shimcha bandlikning o‘sish koeffitsiyentini Keyns *multipliqator* deb ataydi, u bir tomondan investitsiyalar o‘sishi, ikkinchi tomondan bandlik va daromadlarning o‘sishi o‘rtasidagi nisbatni ko‘rsatadi. Multipliqatorning formulasi:

$$K = \frac{dYw}{dJw}$$

bunda, K – multipliqator koeffitsiyenti,

*Yw* – daromad o‘sishi;

*Jw* – investitsiya o‘sishi.

Multipliqator «iste’molga eng yuqori moyillik» bilan bog‘lik, chunki u iste’molga ketgan sarflar o‘sishining daromadlar o‘sishiga nisbatini bildiradi. «Iste’molga eng yuqori moyillik» qancha yuqori bo‘lsa, multipliqator ham shunchalik katta va demakki, bandlik yaxshi bo‘ladi. Keyns bir qancha hisob-kitoblarga asoslanib, AQSH ning multipliqatorini aniqladi, u 2.5 ga teng ekan. Bu daromadlar o‘sishi investitsiyalar ortishidan 2.5 marta ortiq degani, ya’ni 1 dollar investitsiya 2.5 dollar daromad keltiradi. Olim o‘zining iqtisodiy dasturini ilgari suradi. Unga ko‘ra Keyns kapitalistik jamiyatda ishsizlik va inqirozlarning

muqarrarligini tan olmaydi. Ammo kapitalistik tizim mexanizmi bu voqealarni avtomatik ravishda hal etish imkoniyatiga ega emas. Hozirgi davrda shaxsiy tashabbus asosida yechiladigan masalalarni markazlashgan nazorat asosida hal qilish hayotiy zaruriyatga aylanmoqda. Bunda davlat soliq tizimi, foiz me'yorini qisman cheklash, ba'zi boshqa yo'llar bilan iste'molga moyillikni oshirishga yordam berish kerak, deydi u.

Hozirgi davr tili bilan aytganda, Keynsning fikricha, bozor iqtisodiyotida talab va taklif avtomatik tarzda muvozanatga kelmaydi. O'z davrida J.B.Sey va biz yuqorida ko'rib chiqqan boshqa olimlar bu masalada yagona fikrda bo'lib, har qanday taklif o'z-o'zidan talabni yaratadi («Bozor qonunlari») degan edilar. Keyns «Sey qonuni» ga qarshi chiqadi, uni to'g'ri tanqid ostiga oladi.

Xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish uchun foiz normasini tartibga solish taklif etiladi. Uningcha, davlat muomaladagi pul miqdorini oshirish yo'li bilan foiz darajasini tartibga solish imkoniyatiga ega. Muomaladagi pul miqdorini oshirish amalda inflyatsiya (pulning kadrsizlanishi)ni qo'llash demakdir, ammo bunda ssuda foizi kamayadi va pul ishlab chiqarishga qo'yish uchun rag'batlantiriladi.

To'la bandlikni ta'minlash uchun faqat investitsiyalarning emas, balki milliy daromadni ham tartibga solish taklif etiladi. Buni hal qilish vositasi sifatida soliqlarga murojaat qilish kerak deyiladi. Aholining «jamg'armalari» ni muomalaga kiritish maqsadida soliqlarni oshirish talab etiladi va bu omonatlar davlat investitsiyalarini oshirish uchun foydalanilishi mumkin deyiladi. Shu vaqtning o'zida boylarning solig'ini oshirishga qarshilik qilinadi. Keyns o'z taklifini quyidagicha tushuntiradi: Mehnatkashlarning soliqlarini oshirishdan maqsad – ularning «jamg'armalari»ni kamaytirish va iste'molni rag'batlantirishdir. Haqiqiy ish haqini pasaytirish uchun inflyatsiya asosida narx-navoni oshirish yo'li tavsiya etiladi. Real ish haqini pasaytirmasdan to'liq bandlikni ta'minlash mumkin emas, degan fikr ishchilarga o'qtiriladi. Daromadlikning pasayib borishi tufayli bandlikning birmuncha ortishi ilgari band bo'lganlarning real daromadlari esqarishi bilan bog'lik. Keyns ishchilarga murojaat qilib, ish haqini oshirish uchun ko'rashish kerak emas, deydi, chunki bu jami haqiqiy ish haqining ishchilarning turli guruhlari o'rtasida qayta taqsimlanishiga olib keladi, uning o'rtacha miqdori esa o'zgarmaydi. U ish haqini «o'zgartirmaslik» siyosatini o'tkazish va shu yo'l bilan narx-navo o'sishi sababli ish haqini oshirish talablarini yo'qqa chiqarishni taklif etadi. Uningcha, ishchilar haqiqiy ish haqining pasayishiga

chidashlari kerak, chunki shu yo‘l bilan ishsizlikning oldi olinadi. Kapitalistlarga esa haqiqiy ish haqini pasaytirishning ahamiyati tushuntiriladi. Keyns bundan tashqari nominal ish haqini pasaytirishga ham qarshi emas edi.

Ishsizlik va inqirozlarga qarshi ko‘rash bahonasida unumsiz iste’molning barcha ko‘rinishlari turli yo‘llar bilan reklama qilinadi. Iqtisodiyotni harbiylashtirish bilan birga hukmron sinflarning parazitik iste’molini oshirish ana shunday yo‘llar guruhiga kiritiladi.

Keynsni hozirgi davrda hammaga yaxshi tanish ibora bo‘lgan «*aralash iqtisodiyot*»ning otasi deyish mumkin, bu iqtisodiyotda hukumat hal qiluvchi rolni egallaydi. Sof iqtisodiyot deyarli hech qaysi davlatda yo‘q. Keynsning iqtisodiy g‘oyalari birinchi navbatda «buyuq inqiroz» ta’siri ostida paydo bo‘ldi. 1929-1933 yillardagi bu buyuk inqiroz Amerikani larzaga keltirdi, ishlab chiqarish yarmiga (50%)ga qisqardi. 17 mln odam ishsiz edi (25%), 9 mln omonatchi kuyib qoldi. Ana shunday sharoitda iqtisodiyoni qutqarishning muhim yo‘li-hukumat harajatlari ekanligi ko‘rsatib berildi. Keyns o‘zining asosiy asarining birinchi satrlaridan boshlaboq «klassik iqtisodiy maktabga qarshi» ekanligini yozadi (ayniqsa davlatning iqtisodiyotga aralashuvi masalasida turli fikrlar mavjud).

Keyns yaratgan sifat jixatidan yangi ta’limotda o‘sha davrda asosan shaxsiy xususiy tashabbusga berilgan masalalarni nazorat qilish uchun markazlashgan nazoratni yaratishni hayotiy zarurat ekanligi ko‘rsatiladi. Davlat iste’molga moyillikni oshirish uchun, qisman, mazkur soliqlar tizimi orqali, qisman foiz normasini belgilash va boshqa mumkin bo‘lgan usullar yordamida o‘z raxbarlik ta’sirini o‘tkazishi kerak bo‘ladi. Chunki mavjud sistema (tizim) eng muhimi hozirda ishlayotganlar mehnatini taqsimlashda emas, balki bandlik hajmini aniqlashda yaroqsiz bo‘lib qoldi, deb yozadi Keyns.

Albatta, to‘la bandlikni ta’minlashga zarur bo‘lgan markazlashgan nazorat muassasalari tufayli davlatning an’anaviy funksiyalarini ancha kengaytirishni talab etadi. Ammo shu bilan birga, shaxsiy tashabbus va ma’suliyatni amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar ham doim mavjud bo‘ladi, deb uqtiradi u davlat tomonidan iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishning samaradorligi davlat investitsiyalari uchun mablag‘lar topish, aholini ish bilan to‘la band qilish va foiz meyorini qat’iy belgilashga bog‘lik bo‘ladi. Foiz stavkalari qanchalik past bo‘lsa, bu investitsiyalarga rag‘batni shunchalik oshiradi, investitsion talab oshadi, bandlik o‘sadi, ishsizlik yo‘qolib boradi.

Ishlab chiqarish omillari (kapital, mehnat, yer) qanchalik to‘la jalb etilsa, amalda o‘sib boruvchi baholarga ega bo‘lamiz (pulning miqdoriy nazariyasi). Resurslar to‘liq foydalanilmagan paydo baholarning mu’tadilligi saqlanishi mumkin.

Keyns nazariyasi bo‘yicha massasini 2 marta oshirish baholarning 2 marta oshuviga olib kelmaydi. Yetakchi iqtisodchilar fikricha, «keynscha inqilob haqiqatda ro‘y bergan.

## 13.2. Keynschilar va neokeynschilar

J.M.Keyns g‘oyalari uning izdoshlari tomonidan davom ettirildi va uch oqimga ajraldi, biz oqimlarni keynschilik deb ataymiz.

Keyns ta’limoti ayniqsa, AQShda katta shuhrat qozondi. Garvard universiteti professorlari E.Xansen (1887-1975), S.Harris, J.M.Klarklarning asarlarida bu g‘oyalar rivojlantirildi va dastlab yangi keynschilik, keyinroq esa ortodoksal keynschilik deb ataldi. Keyns qoidalari asosan to‘liq qabul qilindi, ammo masalan, Xansen tomonidan stagnatsiya nazariyasi bilan to‘ldirildi.

Xansenning, kapitalizm qiyinchiliklari uning ichki qarama-qarshiliklaridan emas, balki «tashqi impulslar»ning susayganligi tufaylidir. Davlat harajatlarini ustirish uchun soliqlarni oshirish taklif etiladi, ularning fikricha ish haqining 25-30 foizi emas, balki 60 fozini soliq sifatida olish, shuningdek «meyordagi inflyatsiya» ham taklif etiladi.

E.Xansen, J.M.Klark va boshqalar multipliqator konsepsiyasini to‘ldirdilar. Multipliqatorlar ta’siri keyingi qator davrlarda ham bo‘ladi, ya’ni uni uzluksiz jarayon deb qaradilar.

Yangi Keynschilar samarali talabdan ham yuqori keskin o‘sishni tushuntirishga harakat qiladilar. Ular multipliqator tamoyilini *akseleratsiya* tamoyili bilan to‘ldirdilar. Bu tamoyilga ko‘ra, aniq-tiniq sharoitlarda daromadlar o‘sishi investitsiyalar o‘sishiga olib kelishini ko‘rsatuvchi koeffitsiyent (multipliqator tushunchasiga teskari). Multipliqator tamoyiliga ko‘ra investitsiyaning qanday ishlatilishi juda muhim ahamiyatga ega emas, u ish bilan bandlikni ta’minlab, daromadni oshirish kerak. Yangi keynschilar esa investitsiyaning qanday ishlatilishiga katta e’tibor berib, industrlashgan investitsiya tushunchasini kiritdilar. Akselerator investitsiya o‘sishining daromad o‘sishiga, ya’ni investitsiyadan keyingi va undan oldingi daromadlarning farqlari nisbati bilan aniqlanadi.

Yangi tamoyilning mohiyati shundaki, ba’zi bir asbob-uskuna, mashina va mexanizmlar ishlab chiqarish uchun nisbatan uzoq vaqt talab etiladi, shu muddatni kutish mazkur mashinalar ishlab chiqarishni kengaytirishga psixologik (ruhiy) ta’sir etadi, bu esa real talabdan ortiq bo‘ladi va investitsiyaga talab ham ortadi.

Multipliqator va akselerator g‘oyalariga asoslanib iqtisodiyotning uzluksiz o‘sish shakli ishlab chiqildi, uning asosida davlat kapital qo‘yilmalari yotadi. Davlat byudjeti kapitalistik iqtisodiyotda tartibga solinadigan bosh mexanizm hisoblanadi.

Soliqlar iqtisodiyot o‘sganda oshadi va inqirozlar davrida kamayadi. Davlat to‘lovlari esa aksincha, inqiroz davrida oshadi va o‘sish davrida kamayadi. Shu yo‘l bilan Xansenning fikricha samarali talab hajmi me’yorlashadi. Bunda xususiy kapital qo‘yilmalarini tartibga solish va davlat harajatlarini sharoitga qarab o‘zgartirish chegaralari ham belgilanadi. O‘sish davrida davlat harajatlarini cheklash, inqirozlar davrida uni oshirish va shu yo‘l bilan xususiy harajatlarni kompensatsiyalash taklif etiladi, harbiy iqtisod maqtaladi, uni kon’yukturani me’yorlashning eng yaxshi vositasi deb qaraladi (AQSH da harbiy harajatlar doim yuqori bo‘lishiga e’tibor bering).

**Fransiyadagi keynschilik xususiyatlari.** XX asrning 40-yillari Keyns g‘oyalari Fransiyada ham shuxrat qozondi. Keyns g‘oyalarini to‘laligicha (G.Ardan, P.Mendes-Frans) qabul qilganlar ham bo‘ldi. Ba’zilari (F.Perru) ssuda foizini tartibga solishni samarasiz deb hisobladilar, bundan ko‘ra iqtisodiyotni rejalashtirish taklif etildi. Bunda davlat yo‘li bilan tartibga solishni monopolistik kapitalning xususiy manfaatlariga moslashtirish kerak deyiladi. Fransuz olimlari imperativ va indekativ rejalashtirishni ajratishadi. Imperativ rejalar direktiv xususiyatga ega (sotsialistik rejalashtirish). Indekativ rejalashtirishda reja markazi asosiy maqsadni belgilaydi va turli usullar bilan tadbirkorlarni ma’lum xatti-harakatlariga yo‘naltiradi. Ular faqat davlat sektoridagi korxonalar uchun zaruriy hisoblanadi (Hindiston, Malayziya va boshqa bir qancha kapitalistik mamlakatlarda shu usul qo‘llaniladi). Uzoq muddatli prognozlar va rejalar tuzish keng qo‘llanilmoqda (bu xaqda to‘laroq ma’lumot quyida beriladi).

Keyns uslubi kapitalizmdagi inqirozlarning oldini olishga qaratilgan edi, ammo II Jaxon urushidan keyin AQSH va boshqa mamlakatlarda bu inqirozlar davom etmoqda. 1948-1949, 1953-1954, 1957-1958, 1960-1961, 1967, 1969-1971, 1974-1975 va 1981-1982 yillardagi hamda boshqa inqirozlar bu fikrimizning dalilidir.

Bular Keyns ta’limotini tanqid qilish uchun asos bo‘ldi. Masalan, S.Harrisning fikricha, Keyns barcha qiyinchiliklarni hisobga ola olmagan, masalan, to‘la bandlikka erishish haqida gap boradi-yu, qanday qilib uni doimo ta’minlash haqida taklif yo‘q, inflyatsiyaning eng katta darajasi noaniq, davlat qarzlarining chegarasi ham berilmagan.

Keyinchalik yangi keynschilik o‘rniga postkeynschilik vujudga keldi. Ingliz iqtisodchilari J.Robinson, N.Kaldor, P.Sraffa, amerikalik olimlar A.Eyxnyer, S.Vayntraub mana shu postkeynschilar guruhiga kiradilar. Ular kapitalistik tizimning ichki turg‘unligi konsepsiyasini tanqid qiladilar, Keyns buyicha go‘yoki asosiy g‘oya kapitalistik iqtisodiyotning nostabilligi bo‘lgan. Yangi keynschilik g‘oyalari ham tanqid ostiga olinar ekan, agar boshqa olimlar Keyns g‘oyalarini statik, ya’ni turg‘un deb qarasalar, ular bu ta’limotni dinamik, ya’ni harakatchan nazariya deb karaydilar.

Postkeynschilarning avvalgi davrda paydo bo‘lgan «yuqori naf», «ishlab chiqarish omillarining eng yuqori unumi» nazariyalarini tanqid qilishi xususiyatlidir. Ular o‘z g‘oyalarini D.Rikardoning qiymat qonuniga asoslanib ilgari suradilar. Ularga polshalik iqtisodchi M.Kaletskiyning taqsimot konsepsiyasi qo‘l keldi. Investitsiyalar o‘sishi bilan ayrim sinflar iste’molining xissalari o‘rtasidagi bog‘lanish qonuniyati qarab chiqiladi. Postkeynschilar o‘z tadqiqotlariga ijtimoiy-iqtisodiy institutlar, masalan, kasaba uyushmalari rolini ham kiritadilar. Bu ta’limotda o‘sish va taqsimot muammolari markaziy o‘rinni egallaydi. Ishlab chiqarishda usha sur’atlari milliy daromadning taqsimotiga bog‘lik, daromad va uning usishi esa jamg‘armaga, umumiy jamg‘arma esa ish haqi va foydadan jamg‘arilgan jami summaga boglik. «Jamg‘arishga moyillik» har kimda har xil bo‘lgani sababli, taqsimotdagi o‘zgarishlar jamg‘armaning umumiy summasiga ta’sir etadi. Demak, milliy daromadni taqsimlash uning o‘sishiga ta’sir qiladi. Undan tashqari, milliy daromadni taqsimlash kapital jamgarilishi funksiyasi hisoblanadi. Kapitalning jamgarilish sur’ati foyda meyorini belgilaydi va demak, milliy daromaddagi foyda me’yorini aniqlaydi. Ish haqi xissasi qoldik mikdor sifatida qaraladi, ammo ishchilar ko‘rashi bu nisbatga ma’lum o‘zgartirish kiritish mumkin. Bu yo‘nalish tarafdorlarining fikri real xaqiqatga ancha yaqin g‘oyalar hisoblanadi.

Postkeynschilar iqtisodiy siyosatlarda kapitalistik iqtisodiyotni tartibga solish mexanizmini yanada takomillashtirish tarafdorlari edilar. Ko‘pchilik «daromadlar siyosati» ni oqlaydi, chunki bu yo‘l bilan inflyatsiyaga qarshi ko‘rashish mumkin.

Keyns g‘oyalarini neoklassik yo‘nalish bilan yaqinlashtirishga intiluvchilar ko‘p bo‘lgan. Ular orasida A.Piguning xizmatlari katta. Uning fikricha, inqirozlarning asosiy sababi - bu ish xaqining egiluvchanligidir. Bandlik tula bulmagan holda makroiqtisodiy muvozanat faqat ish haqi va baholarning elastik (qayishqoq) bo‘lmagan holatida mumkin deb qaraladi.

Hozirgi davr keynschiligida ikkita tendensiya hukmron hisoblanadi: 1) AQSH ning bir qator iqtisodchilari bog‘lik Amerika keynschilari. 2) avvalo Fransuz tadqiqotchilari nomi bilan bog‘liq Yevropa keynschilari.

## 13.3. Keynschilikning AQShdagi xususiyatlari. Iqtisodiy o‘sish nazariyalari

50 yillarda keynschilik g‘oyalari rivojlantirilib, yangi g‘oyalar ilgari surildi. Ularning asosiy mohiyati iqtisodiy o‘sish sur’atlari doimligini ta’minlovchi mexanizmlarni aniqlash va isbotlashdan iboratdir. Oqibatda «multipliqator-akselerator» tizimini hisoblashga asoslangan va o‘ziga xos keynschilikning o‘sish nazariyalari, jamg‘arish hamda iste’mol o‘rtasidagi o‘zaro boglanish harakteristikalaridan foydalanib iqtisodiy dinamikani modellashtirish yuzaga keldi.

Yuqorida tilga olingan iqtisodiy o‘sish nazariyalarining asosiy namoyondalari Massachusets texnologiya instituti professori Yevsey Domar (1914) va Oksford universiteti professori Robert Harrod (1890-1978) hisoblanadi. Ularning nazariyasi (modeli) iqtisodiyotning doim (mu’tadil) sur’atlarda o‘sishi dinamik barqarorlik (ilgarilab borish) ning asosiy sharti sifatida maqsadga muvofiq ekanligining umumiy xulosalarini birlashtiradi. Ularning fikricha, shundagina ishlab chiqarish quvvatlari va mehnat resurslarida to‘la foydalanishga erishish mumkin. Harrod-Domar modelining boshqa bir qoidasi buyicha ayrim parametrlar, chunonchi daromadlardagi jamgarma xissasi va kapital kuyilmalarning o‘rtacha samaradorligi uzoq vaqt mobaynida doim deb tan olinishi hisoblanadi. Mualliflar dinamik barkarorlik va doimiy o‘sishga erishish avtomatik ravishda bo‘lmasligi, balki davlatning shunga muvofiq siyosati natijasida, ya’ni davlatning iqtisodiyotga faol ishtiroki tufayli ro‘y berish mumkinligini ta’kidlaydilar.

Domar va Harrod modellaridagi farq-boshlangich pozitsiyalardagi ayrim ko‘rsatkichlardir. Masalan, Harrod modelidagi investitsiya va jamgarmalar tengligi g‘oyasi, Domarda esa pul daromadlari (talab) va ishlab chiqarish quvvatlari (taklif) teng deb qabul qilinadi. Ikkala olim shunga ishonchlari komilki, daromad o‘sishini ta’minlashda

investitsiyalar roli, ishlab chiqarish quvvatlarining oshirilishi faoldir, bunda shu narsa ko‘zda tutiladiki, o‘sish bandlikka yordam beradi, bu esa o‘z yo‘lida, korxonalarning yarim quvvat bilan ishlashi va ishsizlikning oldini oladi. Bu Keynsning shu soxadagi konsepsiyasini so‘zsiz tan olishdir; chunki Keyns bo‘yicha, iqtisodiy jarayonlar investitsiya va jamgarmalar orasidagi proporsiyalar xususiyati hamda dinamikasiga bog‘liq, aniqroq aytilsa investitsiyalarning ildam o‘sishi, baholar darajasi o‘sishiga sabab bo‘ladi, jamgarmalar o‘sishi esa korxonalarning to‘la ishlamasligi va ishsizlikning sababidir.

Shuni aniq qilib aytish kerakki, Keyns ta’limoti inqirozlar, urushlar va urushdan keyingi davrlar uchun samarali bo‘ldi, chunki favqulotda holatlar davrida davlatning roli kuchli bo‘lishi kerak. Amalda esa ayniqsa, 2-jahon urushidan so‘ng G‘arb mamlakatlarini sotsialistik orentatsiyasi kuchaydi (davlat mulki oshib bordi). Davlat byudjeti qarzlari ko‘payib, ishsizlik ham o‘sgan, inflyatsiya kuchli. Bu ijtimoiy ishlarni ko‘paytirishga qaratilgan tadbirlar oqibatidir deb tan olinmoqda. Ishsizlikning ish haqini pasaytirish yo‘li bilan hal etish tarafdorlari ham mavjud, ammo pul massasini ko‘paytirish (inflyatsiyaga olib keladi), ya’ni emissiya yo‘li ko‘pchilikka oson ko‘rinadi. Bu konsepsiya ma’lum davr mobaynida inflyatsiya bo‘lmagan holda minimal ishsizlik darajasini isbotlashga imkon beradi.

70-yillardan boshlab keyns ta’limotga nisbatan davlatning iqtisodiyotga aralashuvi bo‘yicha neoliberalizm g‘oyalari asosiy bo‘lib qoldi, chunki bu davrda jaxonning ko‘pgina mamlakatlarida inqiroz holatlari doim voqeaga aylanib qoldi. Inflyatsiya, davlat byudjetining kamomadi, ishsizlik tobora kuchaydi. Nyeoliberallar keynschilarni tanqid qilar ekanlar, iqtisodiyotda davlat sektorining oshuvi, erkin raqobatning kamayishi, iqtisodiyotning muxim tarmoqlariga investitsiyalar kamayganligi ular g‘oyalarining sayozligidan dalolat beradi, deb hisoblaydilar.

70-80-yillar neoliberal g‘oyalar iqtisodiyotda tobora ustunligini egallay boshladi. Kup davlatlarda iqtisodiyotni denatsionalizatsiya qilish kuchaydi (nodavlat shakllariga o‘tildi). Buning oqibatida Buyuq Britaniya (Tetcherizm), Fransiya, Yaponiya, Chili (Pinochet), Ispaniya va boshqa mamlakatlarda davlatning iqtisodiyotga aralashuvi minimal-lashtirildi va iqtisodiy axvol yaxshilandi.

## 13.4. J.M.Keynsning «Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi» asari

J.M.Keynsning «Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi» nomli asosiy asari 1936 yil chop etildi. Iqtisodchilarning ta'kidlashicha, J.M.Keynsning ushbu asari XX asr iqtisodiyot fanida katta burilish yasadi va ko'p jihatdan hozirgi davrda ham mamlakatlar iqtisodiy siyosatini ifodalaydi.

J.M.Keyns birinchi bo'lib makroiqtisodiy uslubni qo'lladi, ya'ni xalq xo'jaligi yalpi miqdorlari: ijtimoiy mahsulot, yalpi jamg'arma, yalpi investitsiya, jami iste'mol xarajatlari va boshqalar o'rtasidagi bog'liqlik va nisbatlarni tadqiq etdi.

Keyns o'z tahlilining boshlang'ich nuqtasi qilib ish bilan bandlik muammosini tanladi, chunki ishsizlik o'sha paytda nihoyatda ko'paygan edi. Aynan iste'mol buyumlariga talabning kamligi bahoning pasayishini va taklifning qisqarishini keltirib chiqaradi, bu esa ish joylarining kamayishiga olib keladi.

Keyns asarning boshidayoq klassik maktab ta'limotiga qarshi ekanligini bayon etdi.

J.M.Keyns fikriga ko'ra, inqiroz paytida davlat yalpi talabni pul-kredit va byudjet siyosati vositasi yordamida tartiblab turishi kerak. U eng avvalo, xususiy investitsiyalarni rag'batlantirishga asosiy e'tiborni qaratdi. Yalpi talabni rag'batlantiruvchi vositalardan biri kambag'allar, ya'ni jamg'armaydiganlar uchun soliqlarni kamaytirish, boylar uchun esa soliq stavkasini oshirish (bu jamg'armani kamaytiradi) taklif qilindi.

J.M.Keyns insonning psixologik moyilligini o'rganib, uni daromad o'zgarishi bilan bog'laydi. Iste'mol o'zgarishi bilan daromad o'zgarishi o'rtasidagi nisbatni iste'molga bo'lgan me'yorli moyillik, deb ataydi va uni quyidagi formula bilan ifodalaydi:

$$MRS = \Delta S / \Delta Y$$

Agar daromad o'zgarsa, iste'mol ham shu yo'nalishda o'zgaradi, lekin iste'mol o'zgarishi daromad o'zgarishi darajasidan past bo'ladi.

Iste'mol va umumiy daromad o'rtasidagi nisbatni u iste'molga bo'lgan o'rtacha moyillik deb atadi:

$$ARS = S / Y$$

Shu bilan birga J.M.Keyns o'z nazariyasida jamg'armaga bo'lgan moyillik tushunchasini ham ilgari surdi.

$$MRS = \Delta S / \Delta Y,$$

*va*

$$ARS = S / Y$$

Agar umumiy daromad oshsa, unda kishilar ushbu oshgan daromadning bir qismini iste'molga sarflasalar, ikkinchi qismini jamg'aradilar, ya'ni

$$\Delta S \; q \; \Delta S = \Delta Y.$$

J.M.Keynsning asosiy psixologik qonuniga muvofiq, daromadlarning o'sib borishi bilan jamg'armaga bo'lgan moyillik oshib boradi, ya'ni milliy daromadning jamg'ariladigan qismi ko'payadi.

| Milliy daromad | 0 | 100 | 200 | 300 | 400 | 500 |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Iste'mol (S) | 50 | 100 | 150 | 200 | 250 | 300 |
| Jamg'arma (S) | -50 | 0 | 50 | 100 | 150 | 200 |

Keyns jamg'arma va investitsiya o'rtasida bog'liqlikni aniqlab, agar jamg'arma bilan investitsiya o'rtasida katta, sezilarli uzilish paydo bo'lsa, u o'z navbatida iqtisodiy inqirozga olib kelishini isbotlab berdi. Agar investitsiyalar jamg'armalardan kam bo'lsa, u holda yalpi talab taklifdan kam va milliy daromad kamaya boradi. Agar investitsiyalar jamg'armalarga teng bo'lsa, yalpi talab taklifga teng va milliy daromad darajasi o'zgarmay qoladi.

**Multiplikator.** J.M.Keyns investitsiyalarning ko'payishi bilan milliy daromadning ko'payishi o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qildi. Investitsiyalarning ko'payishi milliy daromadning o'sishiga olib keladi va u quyidagi formula ko'rinishida ifodalanadi:

$$\Delta Y = \Delta I * M$$

Investitsiyalarning ko'payishi va uning natijasida milliy daromad va aholining ish bilan bandligining o'sishi maqsadga muvofiq iqtisodiy samara sifatida ko'riladi. Iqtisodiy samara multiplikator deb ataladi. Multiplikator – bu son koeffitsiyenti bo'lib, daromad o'sishi bilan ushbu o'sishni yuzaga keltirgan investitsiyalar o'sishi o'rtasidagi nisbatni ifodalab beradi. Multiplikator atamasini birinchi marta ingliz iqtisodchisi R.Kan 1931 yili ishlatgan (ish bilan bandlik sohasidagi multiplikator).

$$M = \Delta Y / \Delta I, \; yoki$$

$$M = 1/MRS$$

Multiplikator nazariyasiga ko'ra, kishilarning jamg'armaga bo'lgan moyilligi qancha ko'p bo'lsa, multiplikatorning ahamiyati shuncha kam bo'ladi. To'la ish bilan bandlik sharoitida multiplikator amal qilmaydi, negaki bo'sh turgan resurslarning bo'lmaganligi sababli ishlab chiqarishni

ortiqcha kengaytirib bo‘lmaydi.

Keyns bir qancha hisob-kitoblarga asoslanib, AQShning multiplikatorini aniqladi, u 2,5 ga teng ekan. Bu daromadlar o‘sishi investitsiyalar ortishidan 2,5 marta ortiq degani, ya’ni 1 dollar investitsiya 2,5 dollar daromad keltiradi (ish bilan bandlikni o‘stirish – asosiy maqsad).

**Likvidlik ustunligi nazariyasi.** J.M.Keyns «likvidlik ustunligi» (odam o‘zida naqd pul bo‘lishini xohlash) tushunchasini kiritdi. O‘z ishlarining yurishib ketishidan havotirlanish, kelajakka ishonmaslik kishilarni naqd pul saqlashga undaydi. Kishilarning o‘z uylarida naqd pul zaxiralarini ushlab turishi, J.M.Keyns bo‘yicha, quyidagi sabab (motiv)larga bog‘liq:

- xarid qilish zarurligi (transaksion motiv);
- kutilmagan vaziyat uchun (ehtiyot shartdan);
- olib sotarlik sababi.

Likvidlikka bo‘lgan talab bilan foiz stavkasi o‘rtasida teskari bog‘liqlik mavjud: foiz stavkasi qancha yuqori bo‘lsa, odamlarda o‘z aktivlarini naqd shaklda saqlashga bo‘lgan xohish shuncha kam bo‘ladi va aksincha.

**Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning chora-tadbirlari.** J.M.Keyns ta’limotidagi asosiy yutuqlardan biri shundan iboratki, unda iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solib turishning zarurligi ko‘rsatib berildi. Keynsni hozirgi davrda hammaga yaxshi tanish ibora bo‘lgan «aralash iqtisodiyot»ning otasi deyish mumkin, bu iqtisodiyotda hukumat hal qiluvchi o‘rinni egallaydi.

J.M.Keyns fikriga ko‘ra, iqtisodiy jarayonlarning davlat tomonidan tartiblanishining samaradorligi davlat investitsiyalari yordamida vositalarni qidirishga, aholining to‘la ish bilan bandligiga erishishga, foiz normasini pasaytirish va belgilashga bog‘liq. Boshqacha aytganda, J.M.Keyns konsepsiyasi bo‘yicha, ssuda foizi qancha past bo‘lsa, investitsiyalarga bo‘lgan qiziqish shuncha yuqori bo‘ladi, bu o‘z navbatida ish bilan bandlikni oshiradi, ishsizlikni tugatishga olib keladi.

Natijada 1929-1933 yillardagi iqtisodiy jahon inqirozi avvalgi «sof ta’limot» nazariyotchilarining fikriga qo‘shimcha kiritishni talab etdi. Iqtisodiy ta’limotlar tarixida Keyns inqilobi deb nom olgan o‘zgarish ro‘y berdi. Agar avvallari bozor iqtisodiyoti barcha muammolarni avtomatik ravishda xal qiladi degan g‘oya ustun bo‘lsa, Keyns ularga boshqacha qarab, davlatning iqtisodiyotga aralashuvini zarur deb hisobladi. Bandlik, foiz, milliy daromad, investitsiyalar o‘rtasidagi munosabatlar o‘rganilib,

«aralash iqtisodiyot», multipliqator tushunchalari kiritildi. Keynschi va Neokeynschilar davlatning iqtisodiyotga aralashuvini qo‘llab, «akselerator koeffitsiyenti»ni qo‘lladilar, unga ko‘ra daromadlarning investitsiyalarga ta’sirini qurish mumkin. Keynschilikning ayrim shakllarida indikativ rejalashtirish ham qo‘llab-quvvatlanadi. Ishsizlik va inflyatsiyani bandlik yo‘li bilan xal etish mumkin degan g‘oya ustun.

## Asosiy tushuncha va iboralar

Keyns; davlatning iqtisodiyotga aralashuvi; «Umumiy nazariya…», aralash iqtisodiyot; psixologik qonun; bandlik, milliy daromad, investitsiya; foiz, likvidlik; multipliqator; keynschilik; AQShdagi keynschilik; akselerator; Fransiya keynschilari; indikativ rejalashtirish.

## *Nazorat va mulohaza uchun savollar*

1. Keyns ta’limotining moxiyati, «Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi» asari to‘ğrisida nima bilasiz?
2. Davlat iqtisodiyotga nima uchun aralashuvi kerak?
3. Keyns ta’limotiga qanday shart-sharoitlar asos qilib olingan?
4. Keynsning «psixolog qonuni» nimani anglatadi?
5. Investitsiya, multipliqator koeffitsenti nima?
6. Foiz, likvidlikning mohiyati nimada?
7. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi doiralari qanday?
8. Amerika va Yevropadagi keynschilik xususiyatlari nima?
9. Domar Harrodning iqtisodiy o‘sish nazariyalari nimani bildiradi?
10. Keyns ta’limotining hozirgi davrdagi ahamiyati nimadan iborat?

# XIV BOB. J.M.KEYNSNING SAMARALI TALAB NAZARIYASI

## 14.1. Samarali talab nazariyasi

XX asrda iqtisodiyot nazariyasi olamida yashab faoliyat ko‘rsatgan mashhur olimlardan biri Jon Meynard Keynsdir (1883-1946). Keyns iqtisodiyotni tartibga solish uchun davlatning boshqaruvchilik rolini ko‘tarish sohasida qator tavsiyalar ishlab chiqdi. Keynsning ilmiy izlanishlari va tavsiyalari XX asrning 30-70 yillari davomida yirik davlatlar iqtisodiy siyosatida keng qo‘llanilib keldi. Hozirgi sharoitda ham Keyns ta’limoti o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. Uning asosiy iqtisodiy nazariyasi dastlab kapitalistik dunyoda 1930-1933 yillarda ro‘y bergan eng daxshatli iqtisodiy krizisdan chiqish yo‘llari va vositalarini ko‘rsatishga qaratilgan edi. Bu g‘oyalarni Keyns o‘zining «Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi» nomli asarida olg‘a surgan.

Keyns nazariyasini «samarali talab» nazariyasi deb ta’riflaydilar. Uning fikricha, birinchi navbatda investitsiyalar orqali yalpi talab faolligini oshirish va rag‘batlantirish kerak. Shu asosda ishlab chiqarishni kengaytirish va tovarlar taklifini oshirishga erishish mumkin. Keyns nazariyasiga muvofiq davlat investitsiyalarini ko‘paytirish maqsadida baholar va foiz darajasini shakllanishini o‘z qo‘liga olib iqtisodiyotni tartibga solishi shart. Keyns nazariyasi davlatni iqtisodiyotga faol aralashuvi haqidagi ta’limotdir. Keyns o‘z o‘zini boshqaradigan bozor mexanizmiga ishonmaslikka da’vat etadi. Iqtisodiyotni normal rivojlanishi uchun bozor mexanizmi emas, balki davlatning iqtisodiy roli muhimroqdir. Bozor iqtisodiyoti o‘z kasalini o‘zi tuzatmaydi.

Keyns J.B.Seyning (1767-1832) «yalpi talab hamma vaqt yalpi taklifga teng bo‘ladi» degan qonunini tanqid ostiga oldi. U Seyning ishlab chiqarshning o‘zi daromadlarni shakllantiradi va talabni yaratadi» degan fikriga aslo qo‘shilmaydi. Keynsning fikricha, daromadlar hech vaqt talab miqdoriga teng bo‘lmaydi, balki undan ortiqdir. Baholarni uncha tez o‘zgarmasligi, talab va taklif ustidagi muvozanatni tezlik bilan ta’minlay olmaydi. Bu vazifani davlat bajarishi mumkin. Keyns ilgarigi «taklif talabni keltirib chiqaradi» degan tushunchani teskarisini, ya’ni «talab o‘ziga teng taklifni yaratadi» degan nazariyaga asos soldi.

Uning ta’limotiga ko‘ra, yalpi talab korxonalar, iste’molchilar, davlat tomonidan ma’lum baholar bilan sotib olishga tayyor bo‘lgan ishlab chiqarilgan tovarlarning real hajmidan iboratdir. Keyns ta’limotida iqtisodiyotni boshqarish mexanizmi va vositalari ko‘rsatiladi. To‘lovga qodir talabni qondiradigan ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun

investitsiyalarni ko‘paytirish yo‘llari sifatida, Keyns quyidagilarni taklif etadi:

1. Davlat xarajatlarini ko‘paytirish, davlat kapital qo‘yilmalarini ko‘tarish, davlat tomonidan tovar xaridlarini ko‘paytirish.

2. Kreditlarga to‘lanadigan protsentni pasaytirish. Bu esa o‘z navbatida kapital qo‘yilmalar samaradorligini oshiradi, investitsiya- larni ko‘paytiradi.

3. Kapital salmoqlar samaradorligini oshirish.

Pirovardida, Keynsning xulosalariga muvofik, ishlab chiqarish kengayadi, qo‘shimcha ish joylari tashkil topadi, ishsizlik qisqaradi. Keynsning ta’limotida investitsiya multiplikatori nazariyasi alohida o‘rin olgan.

Multiplikator – daromadning o‘sishi va shu asosda investitsiyalarning ko‘payishini aniqlaydigan koeffitsiyentlardan iboratdir. Keyns multiplikator orqali milliy daromadning ko‘payishini investitsiyalar o‘sishiga bog‘laydi. Iste’molchi o‘z daromadlarining o‘sgan qismini iste’molni kengaytirishga sarflashi multiplikatorni kuchayishini bildiradi. Aksincha, iste’molchilar jamg‘arishga ko‘proq e’tibor bersalar, multiplikator kamayadi. Shu bilan bir vaqtda multiplikator samarasini cheklaydigan hollar ham mavjud. Multiplikatsiya mavjud imkoniyatlardan va bo‘sh ishchi kuchidan foydalanmagan holda ro‘y beradi. Ehtiyot kuchlar bor bo‘lganda mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish arzonroq tushadi. Multiplikatsion samaradorlikni ko‘tarish davlat byudjetidan ajratilgan mablag‘lar hisobidan erishiladi (yangi ish o‘rinlarini yaratish, ish haqi to‘lanadigan jamoat ishlarini tashkil etish). Keyns makroiqtisodiy nazariyaning yirik namoyandasi sifatida quyidagi xulosalarga keladi:

1. Bandlik darajasi mamlakatda ish hajmiga bog‘liqdir.

2. Umumiy talab hamma vaqt to‘lov qobiliyatiga bog‘lik bo‘lib qolavermaydi. Chunki daromadlarning ma’lum qismi jamg‘ariladi va muomalaga tushmaydi. Aholiga jamg‘arishga intilish xosdir.

Ishlab chiqarish hajmi doimo tadbirkorlar kutgan natijaga, kelajak davrda samarali talab darajasiga bog‘lik. Bu esa kapital investitsiyasi uchun sharoit yaratadi. Investorlar va jamg‘armalar tengligi sharoitida, hamda foiz stavkalar va foiz samaradorligi kapital qo‘yilmalariga mos kelgan holda ham investitsiyalar va jamg‘armalar tamoman mustaqil harakat qiladilar. Keyns ta’limoti keng makroiqtisodiy modellarni keltirib chiqardi. Ular iqtisodiy voqeliklarni yangicha ilmiy tahlil etishga imkon beradi. Iqtisodiy voqeliklarni o‘rganish uchun «daromad-xarajat»

usulini qo‘llashga imkon beradi. Yalpi talab va yalpi taklifni davlatning iqtisodiy siyosatini muhim qismi ekanligini isbotlab berdi. Adabiyotda «Keyns samarasi» (Effekt Keynsa) degan tushuncha bor. Uning asosiy mazmuni shundan iboratki, tovarlarga bo‘lgan talabning o‘zgarishi ularning umumiy bahosiga bog‘lik. Masalan, baholarning umumiy darajasini pasayishi ortiqcha pullarni ko‘payishga olib keladi. Bu esa ortiqcha pullarni, pul muomalasini rivojlanishiga olib keladi. Natijada obligatsiya narxlari oshadi, foiz stavkasi pasayadi, investitsiyalar ko‘payadi, tovarlarga bo‘lgan talab ko‘paya bordi. Baholarning umumiy darajasini ko‘tarilishi iqtisodiyotning barcha jarayonlariga salbiy ta’sir qiladi.

## 14.2. Yangi keynschilik

XX asrning ikkinchi yarmida J.M.Keyns nazariyasi asosida yangi keynschilik shakllandi. 50-yillarda keynschilik g‘oyalari rivojlantirilib, yangi g‘oyalar ilgari surildi. Ularning asosiy mohiyati iqtisodiy o‘sish sur’atlari doimiyligini ta’minlovchi mexanizmlarni aniqlash va isbotlashdan iboratdir. Oqibatda, «multiplikator-akselerator» tizimini hisoblashga asoslangan va o‘ziga xos keynschilikning o‘sish nazariyalari, jamg‘arish hamda iste’mol o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanish xarakteristikalaridan foydalanib iqtisodiy dinamikani modellashtirish yuzaga keldi. Uning ancha ko‘zga ko‘ringan vakillari amerikalik E.Xansen (1887-1975), P.Samuelson (1915), Y.Domar (1914), S.Harris (1897-1974), R.Solou (1924), ingliz R. Harrod (1900-1978)lar hisoblanadi.

Yangi keynschilikning asosiy tadqiqot ob’ekti makroiqtisodiy miqdorlarning (yalpi talab, yalpi taklif, jamg‘arma) o‘zaro ta’siri hisoblanadi. Ular iqtisodiy o‘sish nazariyasini ishlab chiqdilar. Iqtisodiy o‘sishning asosiy omillari investitsiya hisoblanadi. Yangi keynschilar multiplikator tamoyilini akseleratsiya tamoyili bilan to‘ldirdilar. Akselerator prinsipiga ko‘ra, daromadlarning o‘sishi konkret sharoitda investitsiyaning ko‘payishiga olib kelishi ham mumkin. Buning ma’nosi shundan iboratki, daromadlarning ko‘payishi yalpi talabning oshishiga olib keladi, yalpi talabning oshishi esa, ishlab chiqarishning kengaytirilishini taqozo etadi va yangi investitsiyalarga bo‘lgan talab kelib chiqadi (yangi investitsiyalarni ko‘payishi – asosiy maqsad).

Yangi keynschilar iqtisodiyotni bilvosita va bevosita tartiblash chora-tadbirlarini ishlab chiqdilar. Bilvosita ta’sir o‘tkazish usuliga soliq siyosati, byudjet orqali moliyalashtirish, kredit siyosati va boshqalarni

kiritdilar.

Ularning nazariyasi (modeli) iqtisodiyotning doim (mo‘tadil) sur’atlarda o‘sishi, dinamik barqarorlik (ilgarilab borish)ning asosiy sharti sifatida maqsadga muvofiq ekanligining umumiy xulosalarini birlashtiradi. Ularning fikricha, shundagina ishlab chiqarish quvvatlari va mehnat resurslaridan to‘la foydalanishga erishish mumkin. Harrod-Domar modelining boshqa bir qoidasi bo‘yicha ayrim parametrlar, chunonchi, daromadlardagi jamg‘arma hissasi va kapital qo‘yilmalarning o‘rtacha samaradorligi uzoq davr mobaynida doimiy deb tan olinishi hisoblanadi. Mualliflar dinamik barqarorlik va doimiy o‘sishga erishish avtomatik ravishda bo‘lmasligi, balki davlatning shunga muvofiq siyosati natijasida, ya’ni davlatning iqtisodiyotga faol ishtiroki tufayli ro‘y berishi mumkinligini ta’kidlaydilar.

Domar va Harrod modellaridagi farq boshlang‘ich pozitsiyalardagi ayrim ko‘rsatkichlardir. Masalan, Harrod modelida investitsiya va jamg‘armalar tengligi g‘oyasi, Domarda esa pul daromadlari (talab) va ishlab chiqarish quvvatlari (taklif) teng deb qabul qilinadi. Ikkala olim shunga ishonchlari komilki, daromad o‘sishini ta’minlashda investitsiyalar roli, ishlab chiqarish quvvatlarining oshirilishi faoldir, bunda shu narsa ko‘zda tutiladiki, o‘sish bandlikka yordam beradi, bu esa o‘z yo‘lida, korxonalarning yarim quvvat bilan ishlashi va ishsizlikning oldini oladi. Bu Keynsning shu sohadagi konsepsiyasini so‘zsiz tan olishdir, chunki Keyns bo‘yicha, iqtisodiy jarayonlar investitsiya va jamg‘armalar orasidagi proporsiyalar xususiyati hamda dinamikasiga bog‘liq, aniqroq aytilsa, investitsiyalarning ildam o‘sishi, baholar darajasi o‘sishiga sabab bo‘ladi, jamg‘armalar o‘sishi esa korxonalarning to‘la ishlamasligi va ishsizlikning sababidir.

## 14.3. Keyns g‘oyalarining hozirgi davrdagi ahamiyati

Keyns ta’limoti inqirozlar, urushlar va urushdan keyingi davrlar uchun samarali bo‘ldi, chunki favqulotda holatlar davrida davlatning roli kuchli bo‘lishi kerak. Amalda esa ayniqsa, ikkinchi jahon urushidan so‘ng G‘arb mamlakatlarini sotsialistik orentatsiyasi kuchaydi (davlat mulki oshib bordi), davlat byudjeti qarzlari ko‘payib, ishsizlik ham o‘sgan, inflyatsiya darajasining oshishi kuzatildi. Bu ijtimoiy ishlarni ko‘paytirishga qaratilgan tadbirlar oqibatidir. Ishsizlikning ish haqini pasaytirish yo‘li bilan hal etish tarafdorlari ham mavjud, ammo pul massasini ko‘paytirish (inflyatsiyaga olib keladi), ya’ni emissiya yo‘li ko‘pchilikka oson ko‘rinadi. Bu konsepsiya ma’lum davr mobaynida

inflyatsiya bo‘lmagan holda, minimal ishsizlik darajasini isbotlashga imkon beradi.

XX asrning 70-yillaridan boshlab Keyns ta’limotiga nisbatan davlatning iqtisodiyotga aralashuvi bo‘yicha neoliberalizm g‘oyalari asosiy bo‘lib qoldi, chunki bu davrda jahoning ko‘pgina mamlakatlarida inqiroz holatlari doimiy voqeaga aylanib qoldi. Inflyatsiya, davlat byudjetining kamomadi, ishsizlik tobora kuchaydi. Neoliberallar keynschilarni tanqid qilar ekanlar, iqtisodiyotda davlat sektorining oshishi, erkin raqobatning kamayishi, iqtisodiyotning muhim tarmoqlariga investitsiyalar kamayganligi ular g‘oyalarining sayozligidan dalolat beradi, deb hisoblaydilar.

70-80 yillar neoliberal g‘oyalar iqtisodiyotda tobora ustunlik qila boshladi. Ko‘p davlatlarda iqtisodiyotni denatsionalizatsiya qilish kuchaydi (nodavlat shakllariga o‘tildi). Buning oqibatida Buyuk Britaniya (Tetcherizm), Fransiya, Yaponiya, Chili (Pinochet), Ispaniya va boshqa mamlakatlarda davlatning iqtisodiyotga aralashuvi minimallashtirildi va iqtisodiy ahvol yaxshilandi.

Monetarizm va keynschilik konsepsiyalarining umumiy tomonlari shundan iboratki, har ikkala nazariya, eng avvalo, bozor iqtisodiyoti sharoitida qo‘llanishga qaratilgan. Ma’lum ma’noda har ikki nazariya bir-birini o‘zaro to‘ldirib turadi. Agar J.M.Keyns daromadlarning xarajatlarga miqdoriy bog‘liqligini asoslab bergan bo‘lsa, M.Fridman esa daromad-larning pulga bog‘liqligini ko‘rsatib berdi.

M.Fridmen iqtisodiy jarayonlarda pul, pul massasi va pul muomalasi ahamiyatini kutarishga harakat qildi. Uning kontseptsiyasidagi asosiy masala davlatning qattiqqolligi faqat pul siyosatiga amal qiladi.

## Tayanch so‘z va iboralar

J.M.Keyns, davlatning iqtisodiyotga aralashuvi, «aralash iqtisodiyot», bandlik, milliy daromad, investitsiya, foiz, likvidlik, multiplikator – akselerator.

## Muhokama uchun savollar:

1. Buyuk turg‘unlik to‘g‘risida ma’lumot bering.
2. Keynsning asosiy asari va undagi bosh g‘oya.
3. Likvidlik nazariyasini tushuntiring.
4. Multiplikator nazariyasini tushuntirib bering.
5. Yangi keynschilarning iqtisodiy ta’limotlarini tushuntirib bering.

# XV BOB. NEOLIBERALIZM KONSEPSIYALARINING MOHIYATI VA AHAMIYATI

## 15.1. Neoliberalizmning umumiy xususiyati va asosiy belgilari

Neoliberalizm XX asrning 1930 yillarida keynschilikdan farqli ravishda, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishga bo‘lgan muammolarga mustaqil qarash tizimi sifatida kelib chiqdi. Neoliberalizm erkin raqobat, shaxsiy manfaatlardan kelib chiqqan yakka faoliyat ustunligi g‘oyasiga asoslangan nazariya. Yakka iqtisodiy faoliyatga bo‘lgan davlat aralashuvi cheklangan bo‘lishi kerak. Agar keynschilik davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvi chora-tadbirlarini qo‘llab-quvvatlasa, neoliberalizm esa davlatning passiv tartiblashi tarafdori hisoblanadi. Iqtisodiy fandagi zamonaviy oqimlarning biri sifatida neoliberalizmning kelib chiqishi A.Smit va D.Rikardo asarlarida shakllangan liberalizm iqtisodiy siyosatidan boshlanadi.

**Neoliberalizm konsepsiyasi.** Liberalizmning asosiy belgilari erkin raqobat davridagi tovarli iqtisodiyotning o‘ziga xosligini aks ettirgan. Liberalizm, iqtisodiy siyosat sifatida, erkin tadbirkorlik tizimini xo‘jalikni tashkil etishning ancha qulay shakli deb qaragan. Erkin bozor mexanizmi iqtisodiy resurslarni optimal taqsimlash va foydalanishni ta’minlaydigan yagona tartiblovchi mexanizm hisoblangan, davlat esa ba’zi bir ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib turuvchi kuch sifatida amal qilgan.

XX asrning 1930 yillarining o‘rtalariga kelib, keynschilikning rivojlanishi bilan iqtisodiy nazariyada va amaliyotda liberal yo‘nalish inqirozi namoyon bo‘la boshladi. Uning natijasida bir guruh iqtisodchilar o‘zlarining qarashlaridan voz kechgan holda keynschilikka qo‘shilib ketdi va bu yangi ta’limotni ancha to‘g‘ri deb hisobladi, ikkinchi guruh iqtisodchilar bozor munosabatlarida davlatning xarakteri, o‘rni va roli to‘g‘risidagi o‘zlarining ko‘z qarashlarini himoya qildi va ularni qayta o‘zgartirgan holda neoliberalizm guruhini tashkil etdi. Keyinchalik iqtisodiy fanda neoliberal konsepsiyasining asosiy tamoyillari ishlab chiqildi va ularning amaliyotda amal qilishi ko‘rsatib berildi, neoliberalizm oqimi va maktabi shakllantirildi, shuningdek, mazkur konsepsiyaning mohiyati va mazmuni to‘g‘risida bir butun tushunchalar yaratildi.

Neoliberalizm, bozor munosabatlari tizimi xo‘jalik yuritishning ancha samarali shakli ekanligi, u iqtisodiy rivojlanish va o‘sish uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratib berishi to‘g‘risidagi qoidaga asoslanadi. Neoliberallar iqtisodiyotni erkinlashtirish, bahoning erkin shakllanish

tamoyillaridan, iqtisodiyotda xususiy mulkning va nodavlat xo‘jalik tuzilmalarining yetakchilik rolidan foydalanish tarafdori hisoblanadi. Bunda ular davlatning iqtisodiyotni tartiblashdagi rolini futbolni boshqarib boradigan, lekin o‘yinda ishtirok etishga haqqi bo‘lmagan hakamga o‘xshatadi.

L.Erxardning “mumkin bo‘lgan barcha joyda - raqobat, qayerda zarur bo‘lsa o‘sha yerda-tartiblash” qoidasiga amal qilgan holda, iqtisodiy jarayonlarda davlat ishtirokini kamaytirish va iqtisodiyotdagi nomuvozanatlikni bartaraf etishning sharti sifatida tadbirkorlarning erkin va barqaror amal qilishiga ko‘maklash zarurligini isbotlab berdi. Neoliberalizmning asosiy belgilari:

- bozor mexanizmi va erkin raqobat ustunligini e’tirof etgach, neoliberallar raqobat muhitini shakllantirish va unga amal qilishni nazorat qilish bo‘yicha davlatning iqtisodiyotga aralashuvini mumkin deb hisoblaydi;
- zamonaviy iqtisodiyotning samaradorligini ta’minlashda iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining erkin amal qilishini qo‘llab-quvvatlaydi;
- monopoliyani milliy xo‘jalikning har tomonlama rivojlanishi yo‘lidagi to‘siq, deb e’lon qiladi va iqtisodiyotdagi monopol moyillik bilan kurashning zarurligini asoslab beradi;
- o‘zini keynschilikka va xo‘jalik hayotiga faol aralashuv tamoyiliga asoslangan totalitarizmga qarshi raqib deb hisoblaydi.

XX asrning 30-yillaridayoq erkin raqobat tizimini cheklovchi iqtisodiyotni davlat tartiblashining keynschilik g‘oyalariga qarshi, davlatning iqtisodiyotga aralashuvining muqobil neoliberal chora-tadbirlari turli mamlakatlarda ishlab chiqarila boshladi. Hozirgi zamon sharoitida “neoliberallar” nomi bilan ataluvchi bir qancha maktablar amal qiladi. Unga Chikago (M.Fridman), London (F.Xayek), Frayburg (V.Oyken, L.Erxard) maktablarini kiritish mumkin.

**“Ordoliberalizm”nima?** Ikkinchi Jahon urushidan keyin neoliberalizm g‘oyalari, eng avvalo G‘arbiy Germaniya amaliyotida muvaffaqiyatli qo‘llanila boshlandi. Bu g‘oyalar 1948 yildan neoliberalizm rasmiy doktrinasiga aylandi. O‘sha yili V.Oykenning muharrirligi ostida xo‘jalik va ijtimoiy tuzum to‘g‘risidagi neoliberallarning yillik jurnalining birinchi soni “Ordo” nomi bilan chop etildi. V.Oyken ishlatgan “Ordo” so‘zi “Tabiiy tuzum... erkin bozor xo‘jaligi” tushunchasini bildiradi. Germaniyada neoliberalizm doktrinasi “Oyken maktabi” ta’sirida hatto “ordoliberalizm” deb atala boshlandi.

Fridrix Fon Xayek (1899-1992y.) neoliberalizmning otasi

hisoblanadi. U juda ko‘p iqtisodiy va ijtimoiy-falsafiy mazmundagi asarlarning muallifi, ularning ichida asosiylari: “Baholar va ishlab chiqarish” (1929), “Pul nazariyasi va iqtisodiy sikl” (1933), “Foyda, foiz va investitsiyalar” (1939), “Kapitalning sof nazariyasi” (1941), “Qullikka yo‘l” (1944), “Erkinlik konstitutsiyasi” (1960), “Sof pullar” (1976), “Erkin kishilarning siyosiy tuzumi” (1973-1979). Inson erkinligining ustunligini F.Xayek bosh tamoyil sifatida ko‘rsatadi. Erkinlik – bu davlat tomonidan har qanday majbur qilishning bo‘lmasligi. F.Xayek fikriga ko‘ra, davlat maorifni tashkil qilish bilan ham, ijtimoiy sug‘urtani tashkil qilish bilan ham, uy-joy haqi stavkasini tartiblash bilan ham shug‘ullanmasligi kerak, bunday xatti-harakatlar “ma’muriy despotizm”dan boshqa hech narsa emas; davlatni pul emissiyasini amalga oshirishdagi monopol huquqidan ham mahrum etish kerak; davlatga ishonib topshirish mumkin bo‘lgan maksimum narsa - bu qarilik pensiyalarini, ishsizlik bo‘yicha nafaqalarni to‘lashdan iborat.

F.Xayek “o‘z-o‘zidan bo‘ladigan tartib” konsepsiyasini qattiq turib himoya qildi. Unga ko‘ra, zamonaviy jamiyatni tavsiflovchi uning barcha elementlari yig‘indisi hech vaqt inson tomonidan ongli ravishda tashkil etilishi mumkin emas (chunki uning bilimi, ongi cheklangan), aksincha ular o‘z-o‘zidan yuz beradigan tartib doirasida rivojlanib boradi. “Biz hodisalar o‘rtasidagi aloqani muayyan darajada tushunishimiz mumkin, lekin ularni boshqara olmaymiz”, deb yozadi, F.Xayek. Shuningdek, u ijtimoiy tartib ongli xatti-harakat natijasi bo‘lishi mumkin emas, jamiyatda o‘rnatilgan tartib o‘z-o‘zidan bo‘ladigan xatti-harakat natijasidir degan fikrni ilgari surgan.

F.Xayek makroiqtisodiy tahlilga salbiy munosabatda bo‘lgan. Uningcha, mikroiqtisodiy jarayonlarni tadqiq qilish bir butun iqtisodiyotning amal qilishini tushuntirib berish uchun zarur va yetarli hisoblanadi. Alohida xo‘jalik sub’ektlari xatti-harakatining muvofiqlashuvi muammosi axborot yordamida hal etilib turiladi. Axborot bozor bahosi mexanizmi orqali kelib tushadi, u xo‘jalik ishtirokchilariga ustunlik beradi. Bozorning samaradorligi shunda ko‘rinadiki, unda aniq axborotlar yetarli va ular tez tarqaladi. Natijada ideal emas, lekin shunga yaqin muvozanat o‘rnatiladi. F.Xayek ijtimoiy tizmni tanqid qiluvchilardan biri sifatida, to‘liq va operativ axborotga ega bo‘lmagan markaziy rejalashtirish bozor iqtisodiyotiga o‘xshab samarali amal qila olmasligini ko‘rsatib berdi. Baholarning bir markazdan o‘rnatilishi, ularning ustidan nazorat qilib turilishi, F.Xayekning fikri bo‘yicha, axborotning buzilishiga, noto‘g‘ri tarqalishiga olib keladi. Baho talab va

taklifni to‘g‘ri aks ettirmaydi, mahsulotlarga bo‘lgan talab to‘g‘risida ishlab chiqaruvchi aniq tasavvurga ega bo‘lmaydi.

F.Xayek bo‘yicha, pul emissiyasiga bo‘lgan davlat monopoliyasi erkin jamiyat uchun zararli, negaki hukumat bunday monopoliya yordamida o‘z fuqarolari hisobiga davlat muammolarini yechishga urinadi (masalan, davlat qarzi muammosi, davlat xarajatlarining ko‘payib ketishi va boshqalar). U davlat emissiyasini xususiy emission banklarning erkin raqobati bilan almashtirishni taklif qiladi. Xususiy valyutalarni chiqarayotgan banklar o‘rtasidagi erkin raqobat natijasida odamlar kundalik hayotda foydalanish qo‘l keladigan ancha barqaror valyutani tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

V.Oyken “iqtisodiy tizim” tiplari to‘g‘risida o‘zining “Milliy iqtisodiyot asoslari” (1947) kitobida xo‘jalikni tashkil etish shakllarining asosiy tiplarini (turlarini) ko‘rsatib beradi. Mazkur kitobning “Iqtisodiy tizimlar” bobida “xo‘jalikning ideal tiplari” to‘g‘risidagi g‘oya ilgari suriladi. Uning mohiyati V.Oykenning quyidagi mulohazalarida ochib beriladi: har qanday mamlakatning iqtisodiyoti juda ko‘p bir xil elementlardan tashkil topgan, ya’ni pul, baho, foyda, kapital, foiz, mehnat, ish haqi va shu kabilar. Nega bo‘lmasa turli mamlakatlarning iqtisodiyoti turlicha? V.Oyken bo‘yicha, buning sababi bosh elementlarda yashiringan. Bunday elementlar, bir tomondan – bu erkin bozor xo‘jaligi, ikkinchi tomondan – markaziy boshqaruv xo‘jaligi hisoblanadi. Bu bosh elementlar ideal yoki sof xo‘jalik tiplari hisoblanadi va boshqaruv uslublari bo‘yicha bir-biridan farq qiladi. Birinchi xo‘jalik tipida buyruq berishga, o‘z hukmini o‘tkazishga hech kimning haqi yo‘q. Ikkinchisida - barcha qarorlar yuqoridan qabul qilinadi.

V.Oykenning keyinchalik qayd qilishicha, real voqelikda bunday ideal xo‘jalik tiplari amal qilmaydi. Shuning uchun “xo‘jalikning ideal tipi” tushunchasi bilan birga, u iqtisodiy hayotda doimo amal qiladigan “xo‘jalikning real tipi” tushunchasini kiritadi.

Lekin har xil iqtisodiy tizim xo‘jalikning ideal tipiga intiladi. Bu yerda xo‘jalik tiplari nima bilan aniqlanadi degan savol tug‘iladi? Buning sababi, V.Oykenning fikricha, mamlakatning milliy-mintaqaviy xususiyatlariga, ya’ni an’ana, urf-odat, axloq, din, madaniyat darajasi, odamlar ongining shakllanishi va shu kabilardan kelib chiqadi. Boshqacha aytganda, xo‘jalik tiplari xalqning o‘z tanloviga bog‘liq. V.Oykenning fikriga ko‘ra, ibtidoiy jamoa, quldorlik, feodal yer egaligi, totalitar davlatlar, shu jumladan, sotsialistik iqtisodiyot markazdan boshqariladigan xo‘jalikka intiladi. Xalq qancha madaniylashgan bo‘lsa, u

shuncha markazlashmagan iqtisodiyotni tanlaydi.

Bunday vaziyatda davlat o‘zini qanday tutishi kerak? Neoklassiklar nuqtai nazariga ko‘ra, bozorni tanlash - tabiiy jarayon, chunki ular iqtisodiyotning faqat bir tipini - erkin bozor xo‘jaligini tan oladi. V.Oyken bo‘yicha esa, insoniyat uchun iqtisodiyotning ikki tipi tabiiy, markaziy boshqaruv xo‘jaligi o‘zining amal qilishida hatto ancha uzoq tarixiga ega. Shuning uchun, xalqning xo‘jalik tipini tanlashida davlat uning istagiga quloq solishi, ijtimoiy institutlarni tashkil etishda yordam berishi kerak. Masalan, agar bozor bo‘lmasa, bozorni tashkil etish. Keyin davlat bir chetga chiqib turishi va bozor ishtirokchilarining o‘yin qoidalarini kuzatib borishi kerak. Bu yerda neoliberallar futbol komandasini misol tariqasida ko‘rsatadi. Ularning nuqtai nazariga ko‘ra, davlat - bu futbol hakami, neoklassiklar esa davlatni hakamsiz ko‘cha futbol komandasiga o‘xshatadi. Neoliberallar fikriga ko‘ra, ular iqtisodiy tizimni tanlash to‘g‘risidagi ta’limotni shakllantirdi. Agar neoklassiklar sotsialistik tizimni ko‘zi bog‘langan, ertami-kechmi o‘raga qulab tushadigan tizim sifatida tarixning qisqa muddatli xatosi deb hisoblangan bo‘lsalar, neoliberallar esa markaziy boshqaruv xo‘jaligini iqtisodiyotning tabiiy varianti deb hisoblaydi. U (iqtisodiyot) istibdod tartibotidan kelib chiqqan (Rossiyada- podshoh, Sharq xalqlarida-xon va boshqalar). Shuning uchun neoliberallar fikriga ko‘ra, markaziy boshqaruv xo‘jaligi tarixning xatosi hisoblanmaydi, balki uzoq tarixga ega, o‘zida erkin tadbirkorlik unsurlarini, albatta, mujassamlashtiruvchi qonuniyatli jarayon hisoblanadi.

L.Erxard (1897-1977)ning iqtisodiy islohotlari G‘arbda neoliberal yo‘nalish tarafdorlari ichida alohida ajralib turadi. Uning bevosita ishtirokida 1950 yilga kelib G‘arbiy Germaniya krizis holatidan olib chiqildi, unda pul va iqtisodiy islohotlar amalga oshirildi. L.Erxard-iqtisodchi va yangi xo‘jalik tartibi asoschisi hisoblanadi. U 1945 yilning oxirida Bavariya iqtisodiyot vaziri etib tayinlangan. L.Erxard Germaniya iqtisodiyoti «jiddiy tuzilmaviy qayta qurishga muhtoj» deb ko‘rsatib beradi va real vaziyatdan kelib chiqqan holda to‘g‘ri ish yuritish zarurligini uqtirib o‘tadi. Uning takidlashicha, bozor iqtisodiyotidan rejali iqtisodiyotga o‘tish asosiy muammo hisoblanmaydi, chunki «balanslashuvga moyil iqtisodiyotdan qaytish oson», ammo «rejali iqtisodiyotni erkin bozor xo‘jaligiga aylantirish juda katta qiyinchiliklar bilan bog‘liq», chunki tabiiy muvozanatdan chetga chiqqan iqtisodiyotga birdan o‘tish davrisiz erkin bozor imkoniyatlarini yaratib berish qiyin.

Urushdan keyingi Germaniya iqtisodiyoti juda qiyin ahvolga tushib

qolgan. Ishlab chiqarish quvvatining uchdan ikki qismi ishlamasdi. Narxlar muttasil oshib borgan, mamlakatda «qora bozor» hukmronlik qilgan. Aholining qo‘lidagi pul vositalari milliy mahsulot miqdoridan deyarli o‘n barobar ortiq bo‘lgan. Birinchi chora-tadbirlar 1948-yili iyunda o‘tkazilgan pul islohoti bo‘ldi va u bir butun Germaniya iqtisodiyotini isloh qilishda katta rol o‘ynadi. Yangi nemis markalarini eski muomaladan chiqarilayotganlari bilan almashtirish birga (yangi marka) o‘n (eski marka) nisbatda amalga oshirildi. Ish haqi, pensiya, ijara haqi to‘lash birga bir nisbatida amalga oshirildi. Har bir kishi qirq markadan oldi. Almashtirishdan keyin qolgan pulning bir qismi maxsus schyotlarda muzlatib qo‘yildi. Bank tizimi isloh qilindi. Qo‘shimcha ko‘rilgan chora-tadbirlar yangi inflyatsiya kelib chiqishning oldini oldi: dastlab eski valyutani yangi valyutaga almashtirish kursi amalda bir yangi marka o‘n besh eski markani tashkil etdi. Pirovard natijada pul massasi (naqd mablag‘lar va bank depozitlari) 14 martadan ko‘proq kamaydi. Islohot puxta tayyorlangan bo‘lib, u keskin va izchillik bilan o‘tkazildi. Islohotni tayyorlash va o‘tkazish ikki yilga yaqin davom etdi. Narx-navoning oshishi taxminan olti oy ichida to‘xtatildi. 1950 yil boshiga kelib ishlab chiqarish urushdan oldingi darajadan oshib ketdi.

Iqtisodiy islohotning muvaffaqiyatli chiqishiga sabab nima? Uning asosiy sababi saqlanib qolingan moddiy bazaning mavjudligi, nisbatan arzon ishchi kuchi, aholining qondirilmagan talabining ishlab chiqarishga faol ta’sir ko‘rsatishi bo‘ldi.

## 15.2. Neoliberalizm va ijtimoiy bozor xo‘jaligi

AQSh va G‘arbdagi boshqa rivojlangan mamlakatlarning moliyaviy va moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashi islohotning muvaffaqiyatli chiqishiga turtki bo‘ldi. Iqtisodiy yordam Marshall rejasi bo‘yicha amalga oshirildi, shuningdek, oziq-ovqat, yoqilg‘i, urug‘lik, o‘g‘it boshqa yo‘llar bilan ham yetkazib turildi. Germaniya iqtisodiyotiga Amerika transporti va Amerika armiyasining boshqa anjomlari keltirib berildi. Imtiyozli shartlar bilan Evropa qayta tiklash dasturi fondidan kreditlar ajratildi. Hukumatning boshqaruv tizimini o‘z qo‘lida ushlab turishi, o‘z vaqtida iqtisodiy kursni o‘zgartira bilishi ham muhim ahamiyat kasb etdi. Garchi o‘zining iqtisodiy liberalizmga moyilligini yashirmagan bo‘lsa ham, L.Erxard «sof» liberal bo‘lgan emas. U tanlab olingan yo‘ldan og‘ib ketmaslik uchun davlat dastaklaridan keng foydalandi.

Davlat qiyinchiliklarni boshidan kechirayotgan tarmoqlarni, ayniqsa, toshko‘mir sanoatini, metallurgiya, elektroenergetikani qo‘llab-

quvvatladi. Investorlarga va tadbirkorlarga soliq imtiyozlari yaratilib berildi. L.Erxard va uning hamkasblari tomonidan olib borilgan islohot, Germaniya iqtisodiy taraqqiyoti uchun shart-sharoit yaratib berdi. U iqtisodiy qo‘llanmalarga kiritildi va qarorlarni realizatsiya qilish, qayta tashkil etish vositalaridan va metodlaridan samarali foydalanish uchun qulay paytni topish namunasi sifatida qaraladi.

Shu bilan birga, hech bir namuna real shart-sharoitlarni, maxsus xususiyatlarni hisobga olmagan holda universal yechim yoki tayyor sxema vazifasini o‘tashi mumkin emas.

## 15.3. Ijtimoiy bozor xo‘jaligi konsepsiyasi

“Ijtimoiy bozor xo‘jaligi” atamasini birinchi bor Kyoln universiteti qoshidagi iqtisodiy siyosat instituti direktori Alfred Myuller-Armak o‘zining “Iqtisodiyotni tartiblash va bozor xo‘jaligi” (1947-y.) asarida ishlatgan. Myuller-Armak “ijtimoiy tenglik” prinsipi bo‘yicha “bozor erkinligi” prinsipini va adolatli taqsimlashni birga qo‘shib olib borish konsepsiyasini ishlab chiqdi. Unda raqobat kurashi natijasida qo‘lga kiritilishi mumkin bo‘lgan yuqori unumdorlik natijalari, ijtimoiy-siyosiy tadbirlar yordamida ham qo‘lga kiritilishi mumkinligi to‘g‘risidagi g‘oya ilgari suriladi. Ijtimoiy bozor xo‘jaligi bo‘yicha tadqiqotlar V.Repke, L.Erxard, V.Oyken va boshqalar tomonidan davom ettirildi.

Ijtimoiy bozor xo‘jaligi modelining keng tarqalishiga asosiy sabab, yuqori o‘sish sur’atini ta’minlagan Erxardning samarali iqtisodiy siyosati hisoblanadi. Ikkinchi Jahon urushidan keyin GFR da olib borilgan bu siyosat o‘rtacha yo‘l atalmish siyosat hisoblanardi. U ijtimoiy ziddiyatlarni yumshatishga, tadbirkorlikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga, aholi o‘rtacha qatlamining turmush sharoitini yaxshilash uchun qulayliklar yaratib berishga yo‘naltirilgan. V.Repke tavsifiga ko‘ra “ijtimoiy bozor xo‘jaligi” - bu “iqtisodiy insonparvarlik” tomon qo‘yilgan qadam. U o‘zining “insonparvarlik jamiyati” kitobida yozishicha, xo‘jalik yuritishning bu shakli kollektivizmga personalizmni, hokimiyatning to‘planishiga erkinlikni, markazlashuvga markazlashmagan tizimni, tashkil etishga o‘z-o‘zidan sodir bo‘lishni qarshi qo‘yadi. V.Repkening fikriga qo‘shilgan holda, L.Erxard xristian- demokratik ittifoqi (XDI) siezdida (1957 y.) GFRda “ijtimoiy bozor xo‘jaligining” ikkinchi bosqichi boshlanganligini tasdiqlab o‘tadi. Sal keyinroq 60-yillarning boshida o‘z nashrlarining birida L.Erxard aynan “erkin musobaqa, eng avvalo, ijtimoiy bozor xo‘jaligining asosiy unsuri hisoblanadi”, deb qayd qilib o‘tadi. 1965 yili XDI ning navbatdagi siezdida esa, L.Erxard GFR da

“ijtimoiy bozor xo‘jaligini” yaratish dasturi tugallanganini, u mamlakatni “shakllangan jamiyatga” aylantirgani to‘g‘risida e’lon qiladi. “Shakllangan jamiyat” doktrinasi L.Erxard va uning maslakdoshlarining fikriga ko‘ra, bu “ijtimoiy bozor xo‘jaligini” yaratish orqali erishish mumkin bo‘lgan eng qulay “tabiiy iqtisodiy tartib”ni topish. Unda ijtimoiy tuzum va ishlab chiqarish munosabatlarining beshta formasi (tipi) va sinfiy antagonizm to‘g‘risidagi marksistik g‘oyalar qat’iyan inkor etiladi. Mazkur doktrina V.Oykenning kishilik jamiyatiga faqat “markaziy boshqaruv” va “erkin bozor xo‘jaligi” tiplari xos degan qoidaga asoslanadi.

**Ijtimoiy bozor xo‘jaligida davlatning roli.** Raqobat sharoitlari avtomatik tarzda yuzaga kelmaydi, balki muayyan shart-sharoitlarning bo‘lishini taqozo etadi. Iqtisodiy tartib, Oykenning tasdiqlashicha, o‘z-o‘zidan o‘rnatilmaydi, uni iqtisodiy faoliyat o‘zi keltirib chiqarmaydi. Uni davlat o‘rnatadi. Iqtisodiy siyosat prinsiplarini asoslab bergach, V.Oyken davlat xo‘jalik ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanmasligini, balki amal qilish qoidalarini o‘rnatishi va ularni hayotga tadbiq etishi kerakligini ko‘rsatib o‘tadi. Davlat to‘g‘ridan-to‘g‘ri tartiblash yo‘li bilan hal qilib bo‘lmaydigan vazifalarini, iqtisodiyotga doimo aralashishni o‘z zimmasiga olmasligi kerak. Bu yerda asosiy narsa, L.Erxard qayd qilib o‘tganidek, davlatning iqtisodiy faoliyati bilan xususiy tadbirkorlik o‘rtasida optimal nisbatni topishdir. Davlatning azaliy va bosh vazifasi fuqarolarga erkin amal qilish huquqini beruvchi qoidalarni ishlab chiqish. Davlatning roli, Repke-Erxard obrazli qilib ko‘rsatib berganidek, futbol maydonidagi hakamga o‘xshaydi, u o‘yinchilar muayyan qoidaga amal qilyaptimi, yo‘qmi kuzatib boradi, lekin o‘zi bevosita o‘yinda ishtirok etishga haqi yo‘q. Boshqacha aytganda, davlat “ijtimoiy bozor xo‘jaligining” amal qilish shart-sharoitlarini qo‘llab-quvvatlab turishi uchun erkin raqobat “qoidalarini” kuzatib turishi, narxning tashkil topish shart-sharoitlarini nazorat qilib turishi, monopol narxlarning o‘rnatilishining oldini olishi, xususiy mulk muhofazasini kafolatlashi kerak.

## Tayanch so‘z va iboralar

Talab, taklif, yalpi talab va yalpi taklif, talab iqtisodiyoti, kapital taklifi, ish kuchi taklifi, resurslar taklifi, iqtisodiyotni erkinlashtirish (liberallashtirish), soliqlar siyosati, ochiq investitsiya siyosati, krizis depressiya, iqtisodiyotni jonlantirish, iqtisodiy yuksalish, neoliberalizm metodologiyasi, neoliberalizmning metodologiyasi, neoliberalizmning

yirik namoyondalari Lyudvig Erxard va Fridrix Fon Xayek ta’limotlari.

## Nazorat va mulohaza uchun savollar

1. Taklif iqtisodiyoti konsepsiyasining mohiyati nimadan iborat?
2. Kapital taklifini qanday tushunasiz?
3. Ish kuchi taklifi nimani bildiradi?
4. Resurslar taklifini makroiqtisodiyotdagi ahamiyati nimadan iborat?
5. Neoliberalizm nima?
6. Neoliberalizm namoyondalaridan kimlarni bilasiz?
7. Ular nazariyasini qisqacha izohlang

# XVI BOB. HOZIRGI ZAMON IQTISODIY TA’LIMOTLARI EVOLYUTSIYASI

## 16.1. Neoklassik sintez konsepsiyasining moxiyati

Iqtisodiyotda bir qancha ofatlar, xususan, ommaviy ishsizlik va inflyatsiya ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda asosiy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Qanday qilib aholining mu’tadil va to‘la bandligini, real daromadlar o‘sishini ta’minlash mumkin degan savollar hammani, iqtisodiyot fani namoyondalarini ham qiziqtirib kelmoqda. Ayniqsa inqirozsiz iqtisodiy siklning sirlari nimada muhimdir.

Bu va boshqa masalalar bilan neoklassik sintez yo‘nalishi shug‘ullanib, unda klassik iqtisodiy ta’limot tomonidan ilgari aniqlangan haqiqat va qoidalar hozirgi davrdagi daromadlar shakllanishi nazariyalari bilan sintez qilinadi. Bu soxada barakali ijod etgan P.Samuelson fikricha, «neoklassik sintez» bu aslida hozirgi neokeyns va neoliberal qoida va «xaqiqat» larning ilk neoklassik g‘oyalar bilan, shuningdek klassik maktabning ayrim postulatlari va avvalo hozirgi davrdagi daromadlar shakllanishi nazariyalari bilan birlashtirib qarashidir.

***Nyeoklassik sintez konsepsiyasining yangi versiyalari***. Bu yangi goyaning paydo bo‘lishi bilan iqtisodiy tahlilda aralash shakldagi qarashlar ustundir, iqtisodiyotni tartibga solishning turli shakllari taklif etiladi. Hozirgi davrda iqtisodiyotni makroiqtisodiy tartibga solishda asosan uchta ta’limot qarashlari sitbiozm (qorishmasi) ishtirok etadi. Bular: 1) turli modifikatsiyadagi keynschilik ta’limotlari, 2) taklif iqtisodiyoti nazariyalari va 3) monetarizm. Keynschilik qarashlarida asosan davlatning iqtisodiyotga faol ishtiroki keng targ‘ib etiladi. Bunda kon’yunkturaning o‘zgarishi bilan ishlab chiqarishning yuqori darajasini ta’minlash, ish bilan bandlik, siklik rivojlanishni yumshatish asos qilib olinadi. Bunda asosiy e’tibor davlat byudjetiga qaratiladi, shu yo‘l bilan to‘lov imkoniyatlariga talab tug‘ridan-to‘g‘ri tartibga solinadi. Monetaristlar fikricha esa iqtisodiy hayotga umuman aralashmaslik tamoyili qo‘llab - quvvatlanadi.

Ayrim fikrlar buyicha neoklassik sintez faqat iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishnigina emas, balki umumiy iqtisodiy muvozanatni modellashtirishni ham o‘z ichiga oladi. Ayrim olimlarning aytishicha (A.B.Anikin) Samuelsonning neoklassik sintezi avvalo klassik mikroiqtisodiyotni yangi mikroiqtisodiyot bilan qo‘shilishi deb qaraladi. Yuqorida keltirilgan qarashlarni uch qismga bo‘lish mumkin: ularning birinchisi iqtisodiyotda to‘la bandlikni ta’minlash va bu tamoyilini erkin

bozor iqtisodiyoti elementlari bilan birgalikda (iqtisodiy liberalizm) shuningdek, erkin bozor stixiyasini chegaralovchi Keynschilik konsepsiyasi elementlari ham qo‘llanilishi mumkin. Ayniqsa, davlat siyosatida Fiskal va pul-kredit tizimlari hamda «ishsizlikning tabiiy normasi» (M.Fridmen) konsepsiyasidagi antiinflyatsion imkoniyatlar, hamda Erhard-Ryopkelarning «Ijtimoiy bozor xo‘jaligi» prinsiplari birgalikda harakat qiladi. Ikkinchi qarashlarda XIX asrning oxirida neoklassiklar tomonidan ilgari surilgan qiymat (qimmat) nazariyasida eski va yangi qiymat nazariyalari yotadi, yoki harajat nazariyasi va eng yuqori foydalilik nazariyasi yotadi. Bu yerda marjinalistlarning ikkinchi tulkini vakili A.Marshall ilgari surgan yondashuv sistemasi to‘g‘risida gap bormoqda. Bu yerda V.Pareto va boshqalarning baho, talab va taklif hamda umumiy iqtisodiy muvozanat masalalari ko‘zda tutiladi.

Uchinchi qarash bo‘yicha umumiy iqtisodiy muvozanatning hozirgi modeli bir vaqtning o‘zida makro va mikro iqtisodiy tadqiqotlarga asoslanadi. Bu tadqiqotlarda avvalgi sof iqtisodiy nazariya va mukammal raqobat qarashlardan voz kechiladi, ishlab chiqarish va iste’mol soxalarini bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilmaydi. Bu qarashlarda Keynsning «Psixologik qonuni» ya’ni, daromadlarning iste’molga nisbatan tezroq o‘sishi, «Veblen Effekti» va boshqa noiqtisodiy omillarning ta’siri ham hisobga olinadi.

***Pol Antoni Samuelsonning «Ekonomiks» asaridagi g‘oyalari.*** Shuni eslatib o‘tmoqchimizki, 1901 yildan boshlab fizika, kimyo, meditsina (biologiya), adabiyot va tinchlikni saqlash soxalarida Nobel mukofoti berilib keladi. 1968 yili Shvetsiyadagi Riksbankning 300 yilligi munosabati bilan va albatta iqtisodiyot fanining insoniyat hayotidagi yuksak rolini tan olish va rag‘batlantirish maqsadida iqtisodiyot bo‘yicha (oltinchi) Nobel mukofoti joriy etildi va 1969 yildan buyon har yili berib kelinmoqda. Birinchi bo‘lib bu mukofot iqtisodchi-matematik olimlar gollandiyalik Yan Tinbergen va norvegiyalik Ragnar Frishga «iqtisodiy jarayonlarni matematik taxlil etishda dinamik modellarni rivojlantirish va qo‘llash bo‘yicha tadqiqotlari uchun» berildi (boshqa Nobel mukofoti laureatlari to‘g‘risidagi ma’lumotni A.Razzokovning 1998 yilda chop etilgan kitobidan olish mumkin).

1970 yilda (ikkinchi bulib) Nobel mukofoti P.Samuelsonga «statik va dinamik iqtisodiy nazariyani rivojlantirgani va shu bilan iqtisodiyot fani tahlilini yanada yuqoriroq pogonaga ko‘tarishga xissa kushgan ilmiy ishi uchun» berildi. Quyida shu iqtisodchining iqtisodiy g‘oyalari to‘g‘risida fikr yuritiladi.



**Pol Antoni Samuelson** (1915) Chikago universitetida ta’lim olgan (1932-1935) Garvard oliy maktabida A.Xansen, V.Leontyev, Y.Shumperetlardan ilm o‘rgandi. 1941 yildan Massachusets texnologik institutida ishlay boshladi (dastlab professor assistenti). Amerika iqtisodiy assotsiatsiyasi (1961), Ekonometrik jamiyat (1951). Xalqaro iqtisodiy assotsiatsiya (1965-1968) prezidenti bo‘lib saylangan. Olim nazariyotchi bo‘lish bilan birga, AQSH prezidenti yordamchi, «News-week» jurnalida faol ishtirok ham etdi. Biz bu olimni asosan «Ekonomiks» kitobi muallifi sifatida yaxshi taniymiz. Samuelsonning bu kitobi dastlab 1948 yili chop etildi va 14 marta qayta nashr etilib, hozirgi iqtisodiy ta’limotlarning asosiy yo‘nalishlaridan birini tashkil etadi.

1992 yilda bu kitob Vilyam Nordxaus bilan ham mualliflikda nashr etildi. «Ekonomiks» kitobi «Ekonomika» nomi bilan rus tiliga o‘girildi.

Ma’lumki, hozirgi zamon (XX asr) iqtisodiy ta’limotlarida uch asosiy: 1) neoklassik; 2) keynschilik va 3) institusional yo‘nalishlar mavjud bulib, Samuelson shulardan birinchisining vakili sifatida ijod etgan.

Klassik (mumtoz) maktab iqtisodchilari allaqachonlar (XVIII asrda) davlat xususiy tadbirkorlar kirisha olmaydigan yoki kirishni hohlamaydigan ayrim tovarlarni ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatishni (masalan, milliy mudofaa sohasiga taalluqli) uning o‘zi zimmasiga olish kerak degan fikrga rozi bo‘lganlar. Lekin shu bilan birga ular bunday ishtirok juda kam darajada bo‘lishi kerak, deb hisoblar edilar.

Samuelson hal qilishni mumtoz maktab bozor ixtiyoriga qoldirishni istagan haddan tashqari ko‘p muammolarga bozorning ta’siri unchalik o‘tab bermasligini sezdi. Qo‘shimcha oqibatlar, sog‘liqni saqlash, ta’lim, sanoatning ifloslantirishi muammolariga talab va taklif qonuni ta’sir etmaydi. Binobarin, davlat iqtisodiyot uchun maqsadlarni aniqlashni o‘z zimmasiga olishi va bu maqsadlarga erishish uchun o‘z kuchidan foydalanishi kerak. Samuelson eng kam ish haqi to‘grisidagi qonuni daromadlar pillapoyasining eng pastida turgan ishchilarga yordam berish usuli deb hisoblaydi; u davlatning uy-joy qurilish dasturlarini moliyalashtirishni va oziq-ovqat yordamini qashshoqlikni kamaytirish usuli sifatida qo‘llab-quvvatlaydi. «Ekonomiks» asarida tarixiy-iqtisodiy

ekskurs mavjud bulib, XVIII asr oxiridagi Maltusning aholi nufusi nazariyasi eslanadi; A.Smitning «Ko‘rinmas qo‘l» haqidagi g‘oyalar tahlil etiladi. Asarda o‘tgan davrdagi deyarli barcha doktrinalar qarab chiqiladi (bular tug‘risida yuqorida o‘qishingiz mumkin).

Uning fikricha, hozirgi davr iqtisodchilari «neoklassik sintez» ga erishish uchun samarali kredit-pul va fiskal siyosatni Smit va Marshallning klassik mikroiqtisodiyotini hozirgi daromadning darajasini aniqlash bo‘yicha mavjud makroiqtisodiyot bilan birlashtirish, ikkala yondashuvdagi barcha sog‘lom fikrlarni jamlashtirishga harakat qilmoqdalar.

Kitobning dastlabki boblarida A.Smitdan hozirgi davrgacha bo‘lgan iqtisodiy ta’limotlar moxiyati tarixiy-iqtisodiy jixatdan qarab chiqiladi. Ayniqsa A.Smit, T.Maltus, D.Rikardo asarlari har tomonlama taxlil etilgan.

Uning fikricha 1820-1870 yillar – 50 yil davomida iqtisodchilar va siyosatchilar gipnoz holatida bo‘lgan, bunga asosiy sabab «sanoat inqilobi» bo‘lib, bir qancha g‘oyalar, ayniqsa T.Mal-tus, D.Rikardolarning aholining o‘sishi bilan daromadlar pasayishi to‘grisidagi fikrlar chippakka chiqdi.

Neoklassik iqtisodiyot tug‘risida fikr yuritib XX asrning 70-yillari iqtisodiy qarashlarda ikki yo‘nalish paydo bo‘lganligi qayd etiladi: 1) Keyns va keynschilik; 2) Marks g‘oyalari. Ayniksa neoklassik yo‘nalishda matematik usullarning keng qo‘llanilishi, talab, foydalilik, umumiy iqtisodiy muvozanat masalalarining yangicha tahlili yanada ilmiyroq bo‘lib qoldi. A.Marshall, J.B.Klark, U.Jevons, L.Valras, V.Pareto tadqiqotlarida matematik elementlar «iqtisodiy tahlilning nozik metodlari» ga olib keldi. J.M.Keynsning tadqiqoti yuqori baholanadi, «Sey qonuni» ga ehtiyoj qolmadi, deb yozadi P.Samuelson. Keyns va Keynschilar ta’sirida «*aralash iqtisodiyot*» yaxshi faoliyat ko‘rsata boshlaganligi ta’kidlanadi. Ikkinchi jahon urushidan so‘ng ishlab chiqarish nihoyatda tez o‘sganligi, aholi turmush darajasi oshganligi ta’kidlanadi. Ammo, deb ta’kidlaydi olim, hali bizni to‘la bandlik va mu’tadil baholar o‘rtasida tanlash imkoniyatidan xalos qila oladigan yagona mukammal iqtisodiy siyosat modeli yaratilmadi.

Samuelson Chikago maktabi vakillari faoliyatiga, xususan, M.Fridmenning monetar tizimiga yuksak baho beradi, chunki bu olimlarda «erkin raqobat», «bozor baholari» asosiydir.

Olim iqtisodiy taraqqiyotning omillariga baho berib, uni to‘rtta deb hisoblaydi:

1. Mehnat resurslari (inson birinchi va asosiy);
2. Tabiiy resurslar;
3. Kapital;
4. Texnologiyalar.

Olimning bu omillari «**taraqqiyotning to‘rt g‘ildiragi**» deb yuritiladi. E’tibor berib qarang, inson roli eng yuksak qo‘yilgan. Xaqiqatan ham inson bo‘lmasa boshqa omillar ishga tushmaydi (masalan, Yaponiya, GFR…).

Shu sababli yuqorida keltirilgan Umar Xayyomning fikri naqadar hayotiy, hozirgidek jaranglab turibdi.

Hozirgi davr iqtisodiy nazariyalarida A.Lafferning soliqlar hajmi va yalpi milliy mahsulot o‘rtasidagi bog‘lanish tahlil etilgan. Laffer effekti buyicha soliqlarni oshiraverish bilan milliy daromad ma’lum miqdorga oshadi, keyin pasayadi. Soliqlar miqdorini pasaytirish qisqa davr mobaynida byudjetga tushumlar kamayishiga olib kelsa ham, istiqbolda jamgarmalar, investitsiya va daromadlar ko‘payishi tufayli byudjet tushumlari oshadi. Soliq stavkasi optimumiga yetish uchun egri chiziqlari (Laffer egri chizigi) chizilgan.

Unga ko‘ra, soliq ortishi bilan davlat byudjetiga tushumlar ortavermaydi. Aksincha, shunday ma’lum chegara borki, undan ortiq soliq stavkasi byudjetga tushumlarni kamaytiradi, chunki yuqori soliqlar xo‘jalik faoliyatiga bo‘lgan qiziqishni (raqobatni) kamaytiradi va ishlab chiqarish hajmlarining pasayishiga olib keladi. Demak, ma’lum hollarda soliq stavkalari pasaytirilishi ishlab chiqarishning faqat o‘sishigina olib kelmasdan, byudjetga soliq tushumlarining o‘sishiga ham olib keladi.

Bunday siyosat **RF** da **2000** yildan boshlab amalga oshirildi, **soliq stavkalari** barcha uchun **13%**ga tushirildi va yaxshi natija bermoqda.

## 16.2. Ekonometrikaning hozirgi zamon asosiy yo‘nalishlari

Yuqorida iqtisodiyotdagi matematik uslublar to‘g‘risida fikr yuritgan edik (Kurno, Tyunen). Unda iqtisodiyotni dastlab matematika, statistikadan foydalanib tahlil etish usullari berilgan. XX asrda bu yo‘nalish yana yuqori bosqichga ko‘tarildi. Bu yo‘nalishning muhim xususiyati shuki, uning namoyandalari iqtisodiy ta’limotlar va iqtisodiy tahlillarda matematika uslublarini keng qo‘llaydilar, iqtisodiyotga liberal yondashuv mavjud.

Davr taqozosi tufayli iqtisodiyotdagi ekonometrika yo‘nalishi ham tobora rivojlanib, takomillashib bormoqda. Evolyusiya davomida uning namoyandalari qo‘llaydigan tushunchalar o‘zgarmoqda, bugungi kunga

kelib miqdoriy tahlil usullari ham rivojlanmokda, taxlil soxasi ham kengayib bormoqda. Quyidagi omillar bu yo‘nalishning rivojini zarur qilib qo‘ydi:

1. Tahlilning matematik va statistik uslublarining rivoji, ayniqsa matematik programmalash, turli o‘yinlar nazariyasi, matematik statistikaga oid ishlarning ko‘payishi;

2. Ilmiy-texnika taraqqiyotining rivoji, fanning yangi tarmoqlarining paydo bo‘lishi, xususan kibernetika, elektro-hisoblash texnikasi, kompyuterlar tizimi, iqtisodiyot sohasidagi informatsiyaning tobora ko‘payishi, bu informatsiyani tayyorlash, uzatish, qabul qilish va qayta ishlash hajmlarining keskin ortib ketishi;

Umuman hozirgi davrda hayotni, uning muhim qismi bo‘lgan iqtisodiyotni bu yo‘nalishsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Shu sababli ekonometrika ham ilmiy, ham amaliy jihatdan muhim bo‘lib qoldi.

XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida Lozanna universiteti professori L.Valras kapitalistik iqtisodiyotining «umumiy iqtisodiy muvozanati» modelini ko‘rdi. Bu yo‘nalish Valras ishining davomchisi, italyan olimi Vilfredo Pareto (1848-1923) tomonidan keng rivojlantirildi. U «eng yuqori naf» nazariyasini hal etish, iste’mol ne’matlarining nafi (foydaliligi)ni hisoblash uchun harakat qildi va matematik usullardan keng foydalandi. Pareto o‘z taxlili asosiga daromad miqdori va tovarlar bahosini qo‘ydi.

Iste’mol ne’matlari to‘plami turlicha bo‘lishi tabiiy. Shu sababli Pareto «ideal muvozanat» shaklini oladi, bunda avtomatik ravishda paydo bo‘ladigan «xususiy muvozanat» har bir iste’molchining optimal tanlovidan vujudga keladi. Bu usul bilan Pareto «eng yuqori naf» nazariyasini boshi berk ko‘chadan olib chiqa olmadi, lekin uning «afzal qurish» va «loqaydlik egri chiziqlari» nazariyasidan ekonometrik tadqiqotlarda foydalanib kelinmoqda. U Valrasning umumiy iqtisodiy muvozanat nazariyasini takomillashtirishga harakat qildi. U ustozidan farqli ravishda ishlab chiqarish funksiyasining mahsulot chiqarish hajmiga bog‘liqligi koeffitsiyentining o‘zgarishi mumkinligini tan olgan. «Pareto qonuni»da kapitalistik mamlakatlarda aholi daromadlarining taqsimlanish giperbolasining tenglamasi beriladi (1897).

Foydalilik (naf) funksiyasini topish uchun ne’matlar to‘plami afzalligi konsepsiyasi Jon fon Nyeyman tomonidan yanada rivojlantirildi. U o‘yin nazariyasiga asoslanib, individuumning maksimum yutuqqa intilishi sharoitidan kelib chiqib, iste’-molchining o‘zini tutish modelini

ishlab chiqdi. Bunda ne’matlar foydaliligi konsepsiyasi psixologik talabni qondirish mezonlari bilan bog‘lab o‘rganiladi.

*R.Xuker* (Buyuk Britaniya) tomonidan korrelyatsion tahlil o‘tkazilgan, bunga rus statisti *A.A.Chuprov* ham ancha xissa qo‘shgan. Ekonometrika alohida ilmiy yo‘nalish sifatida iqtisodiy nazariya, matematika va statistikadan 20-30 yillarda ajralib chiqdi, bu xususan *G.Mur* va *G.Shuls* (AKSH) asarlari tufayli ro‘y berdi. «*Ekonometriya*» matni birinchi bor polshalik iqtisodchi *P.Chompa* (1910) tomonidan ishlatildi (ekonometrika va ekonometriya iboralari teng kuchli hisoblanadi), ilmiy qo‘llanuvga esa norvegiyalik iqtisodchi *R.Frisk* (1926) kiritdi. U **I.Fisher**, **I.Shumpeter**, **Ch.Rouz** va boshqa amerikalik olimlar bilan birga «Xalqaro ekonometriya jamiyati» ning tashkilotchisi hamdir (1930). Bu jamiyat 1933-yildan «Ekonometrika» jurnalini nashr etadi.

U.Mitchell va u boshqargan «iqtisodiy barometrlar» ning Garvard maktabi vakillari ham bu yo‘nalishga katta xissa qo‘shmoqdalar. Keyingi davrda italiyalik iqtisodchilar E.Barone va M.Pantaleoni, amerikalik I.Fisher, G.L.Mur, E.Chemberlin, shvetsiyalik K.Viksell, G.Kassel va boshqalar bu soxada muxim yutuqlarni qo‘lga kiritdilar.

30-yillardagi tadqiqotlar asosan iqtisodiy sikl muammolari bilan bog‘lik bo‘lib, ular bu sikl sabablari va iqtisodiy konyunktura xususiyatini aniqlashga bag‘ishlangan. I.Fisher, R.Frish, M.Kaletskiy va ayniqsa Y.Tinbergen bu sohada qator tadqiqotlarni o‘tkazdilar. Niderlandlik olim Tinbergen ba’zi sikllar konsepsiyalarini iqtisodiy modellar yordamida tekshirishga urinib ko‘rdi. U bunday sikllardan 1919-1932-yillardagi AQSH, 1870-1913-yillardagi Angliya va 1923-1937-yillardagi Niderlandiya iqtisodiy modellarini tuzib chiqdi: ular ahamiyatga ega bo‘lmasa-da, matematik-statistik uslublarning rivojiga katta turtki bo‘ldi. Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, odatda o‘zgaruvchilar yoki ularning logarifmlari orasidagi bog‘lanish chiziqli bo‘ladi, ya’ni ularning grafigi tugri chizik bo‘ladi. Shunday tenglamalar yo‘li bilan talab (narxlar, mahsulot hajmi, daromad, soliq va boshqalar), taklif, chiqimlar, import-eksport va boshqa funksiyalarni ifodalash mumkin. Ishlab chiqarish funksiyalari ham shu turdagi tenglamalar guruhiga kiradi. Birinchi, eng oddiy ishlab chiqarish funksiyasi Ch.Kobb va P.Duglas (AQSH, 1928) tomonidan tuzildi, keyin R.Solou, K.Arrou (AQSH) lar tomonidan umumlashtirildi, unda ishlab chiqarish ko‘lami, texnika taraqqiyoti va boshqa omillar ham hisobga olindi. Bunday progressiv modellar alohida mahsulotlar uchun, korxona, firma, tarmoq va umumxalq xo‘jaligi uchun ham tuzilishi mumkin.

30-yillarda *Y.Tinbergen* (Niderlandiya), 50-yillarda *L.Klayn* (AQSH), *R.Stoun* (Buyuk Britaniya) korrelyatsion ko‘p faktorli modellarni tuzdilar, unda alohida kapitalistik mamlakatlar iqtisodiyotidagi ishlab chiqarish, shaxsiy va davlat talabi, narx, soliq, tashki savdo oboroti, kapitalning ishlatilishi va jamg‘arilishi, ishchi kuchi taklifi hamda boshqa o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi statistik aloqadorlik o‘z aksini topgan.

Xalq xo‘jaligi tarkibini tahlil etish maqsadida tarmoqlararo balans tipidagi modellardan foydalaniladi. Dastlab bunday model 1925-1926 yillarda sobiq SSSR da **P.I.Popov** (1872-1950) raxbarligida ishlab chiqildi. Keyinchalik bu uslub **V.Leontyev** (asli rossiyalik, AQSH, 1906-1999) tomonidan rivojlantirildi va moliya oqimlari tarkibini o‘rganish uchun *R.Frish* tomonidan tadbiq qilindi. Marksning qayta ishlab chiqarish shakli modeli sovet iqtisodchisi *G.A.Feldman* (1928) tomonidan tayyorlandi. Kapitalistik sikllarning iqtisodiy dinamika modellari Tinbergen, Frish, M.Kaletskiy, J.Xiks, R.Harrot, P.Samuelson va boshqalar tomonidan ishlab chiqildi.

Ekonometrika uslublari ko‘pincha ekstrapolyatsiya tendensiyalariga asoslangan.

Sovet olimi **L.V.Kantorovich** chiziqli progarmmalash uslubining asoschichi hisoblanadi. U *V.V.Novojilov, A.L.Lurye* (SSSR), *T.Kumpans, J.Dansing* (AQSH) va boshqalar bilan birga resurslarni optimal taqsimlash va foydalanishga oid iqtisodiy masalalarni hal qilishga imkon beradi.

Lekin shuni alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, sobiq SSSRda bu yo‘nalish, ayniqsa kibernetika, elektron hisoblash mashinalaridan foydalanishga mafkuraviy tus beriladi, kibernetika, genetika fanlari burjua manfaatlari uchun xizmat qiladigan soha deb qaraldi, bu soha olimlari tazyiq ostiga olindi. Faqat keyingi yillarda bu xatolik to‘g‘rilandi va ekonometrika faniga e’tibor kuchaydi.

Ekonometrikaning muhim xususiyati shuki, u ham ilmiy, ayniqsa amaliy ahamiyatga ega. Ko‘pgina yetakchi mamlakatlarda iqtisodiy matematik uslublardan foydalanish iqtisodiyotning ma’lum sohalari, tarmoqpari bo‘yicha sikl modellari ishlab chiqilmoqda va amalda qo‘llanilmoqda. Ayniqsa, AQShda bu soxada muxim yutuqlar qo‘lga kiritildi. L.Kleyn va A.Goldberger AQSHning (1929-1952-yillar) mukammal modelini tuzib chiqdilar. Kvarta, yillik, besh yillik va boshqa modellar mavjud.

Buyuk Britaniyada ham qayta ishlab chiqarish iqtisodiy modeli (1961) 1948-56-yillardagi parametrlar asosida A.Kleyn, R.Boll,

E.Xezlvud, P.Vandom tomonidan tuzilgan. R.Staun Kembridj modeli (1960-70-yillar) ham diqqatga sazovor.

Ekonometrik modellashtirish Yaponiya, Fransiya, Niderlandiya va Norvegiyada keng qo‘llaniladi va iqtisodiy prognozlashtirishda bevosita foydalaniladi. Iqtisodiy taxlilning tarmoqlararo balans metodini tuzish 30-yillarda amerikalik iqtisodchi (asli rossiyalik) **V.Leontyev**ning tadqiqotlari asosida yuzaga keldi va bu tadqiqotlar «*harajat – chiqarish*» modeli nomi bilan ma’lum. 1973 yilda Nobel mukofot laureati bo‘lgan V.Leontyev (1906-1999) metodi iqtisodiyotda bir mahsulotning boshqa turdagi mahsulot bilan to‘ldirilishi jarayonlarini tadqiq qilishga yo‘naltirilgan. U 1941 yil «1919-29 yillarda «**Amerika iqtisodiyotining strukturasi**» kitobini nashr qildi va unda o‘z uslubini taklif etdi. Hozirgi davrda deyarli barcha mamlakatlarda «harajat – chiqarish» jadvallari mavjud. Bu metod ayniqsa prognozlash, kelajakni aniqlash borasida qo‘l kelmoqda. Ayniqsa turli sharoitlarda (agar…, unday yoki bunday bo‘lsa…) iqtisodiy siyosat oqibatlari tahmin qilinadi va shunga xos taktika, strategiya ishlab chiqiladi.

Hozirgi davrda chop etilayotgan iqtisodiyotga oid kitoblar, ayniqsa g‘arb asarlari turli-tuman shakl, jadval, grafiklar bilan jixozlangan, har bir fikr, goya, matematik va statistik ma’lumotlar bilan izohlab boriladi, bu esa materialni yaxshi o‘zlashtirish, uni to‘g‘ri va tez tushunishga yordam beradi (masalan, «Ekonomiks» kitobi).

Keyingi yillarda iqtisodiyotda prognoz va kelajak masalalari muhim bo‘lib qolmoqda va *futurologiya* («kelajak» degani) nazariyalari vujudga kelmoqda. Bu borada turli soha mutaxassislari *D.Bell*, *J.Ellyul*, *G.Kan*, *L.Martel*, *V.Braun*, *R.Xeylbronyer*larning g‘oyalari diqqatga sazovordir. Ular 200 yildan keyin bo‘ladigan (superindustrial) jamiyat to‘g‘risida optimistik fikr yuritmoqdalar. Shu bilan birga pessimistik, tashvishli va halokatli prognozlar ham bor (*E.Fromm, O.Toffler*), global, umumbashariy o‘zgarishlar oqibati halokatli bo‘lishi ham tahmin etilmokda. Rim klubi va V.Leontyevning mualliflar bilan birga bildirgan fikrlari «**Jaxon iqtisodiyoti kelajagi**» (1979) kitobida aks ettirilgan bo‘lib, unda hozirgi zamon qarama-qarshiliklari, texnik-iqtisodiy va sotsial masalalarning o‘zaro bog‘liqligi ko‘rsatilgan.

Sobiq SSSR davrida iqtisodiyotda matematik usullarni qo‘llash borasida ham muhim tadqiqotlar olib borildi. Markaz (Moskva), Ukraina (Kiyev) va O‘zbekistonda (Toshkent) ilmiy markazlar vujudga keldi. Toshkentda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi qoshida Kibernetika (1966) ilmiy tadqiqot instituti (hozir ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi) tashkil

etildi. Uni tashkil etish, shakllantirish va rivojlantirishga, malakali kadrlar tayyorlashga akademik **V.Kobulov** (1921 yilda tug‘ilgan) katta hissa qo‘shdi. Bu olimning ilmiy faoliyati hisoblash texnikasini fan-texnika va xalq xo‘jaligining turli sohalariga joriy etish bilan bog‘liq. U ayniqsa iqtisodiy kibernetika sohasida samarali ijod qildi. U respublikada kibernetika maktabi asoschisidir. Iqtisodiyotga matematik uslublarni qo‘llash borasida Toshkent Xalq xo‘jaligi instituti (hozirda Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti) olimlarining roli nixoyatda katta. Universitet qoshida respublikada yagona «*Iqtisodiy kibernetika*» (1969) – hozirgi «*Informatika va boshqarish*» (1992) fakulteti tashkil etilgan va u kadrlar tayyorlash uchog‘i hisoblanadi. Bu yerda «*Iqtisodiy kibernetika*», «*Iqtisodiy informatika*», «*Iqtisodiy informatsiyani avtomatik qayta ishlash sistemalari*» va boshqa kafedralar mavjud.

Akademik *S.S.Gulomov*, i.f.d., professorlar *T.Shodiyev, B.Berkinov, A.Kodirov, I.Ubaydullayev, R.Alimov, K.Alimov, SH.Komilov* va boshqalar matematik metodlarni iqtisodiyotda qo‘llash, ayniqsa ishlab chiqarish tarmoqlarini modellashtirish yo‘nalishida muhim tadqiqotlarni amalga oshirganlar. V.Kobulov asos solgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni algoritmlash bo‘yicha maxsus yo‘nalish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni, ayni paytda ulardagi jarayonlarni tadqiq etishda akademik V.K.Kobulov tomonidan asos solingan algoritmlash-tirish uslubiyoti markaziy o‘rinni egallaydi. Algoritmlashtirish uslubiyoti ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga matematika va u bilan bog‘lik fanlarni qo‘llashning tub mohiyatini ochib beradi. Mazkur uslubiyot iqtisodiy nazariya va amaliyot uchun zarur bo‘lgan vosita hamda usullarni, yo‘nalishlar va tamoyillarni, «inson–kompyuter» muloqatidagi samaradorlikni ta’minlashda xizmat qiladi, har qanday makro yoki mikro iqtisodiy jarayonlarning asl holati bilan ular to‘grisidagi subyektiv bilimlar o‘rtasidagi farqlanishning eng kichik darajada buli-shiga erishish vositasi hisoblanadi.

Iqtisodiy jarayonlardagi yaxlitlik va qismiylikka, uzluksiz va uzilishlarni barqarorlik hamda boshboshdoklikni, davriylik va davomiy-likni, bog‘liqlik, aloqadorlik va boshqa holatlarni sifat hamda miqdoriy jihatdan muqobillikda tadqiq etuvchi vosita va usullarning majmuasi algoritmlashtirish fanini tashkil etadi.

Algoritmlashtirish ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar faoliyatini tadqiq etishda bir necha bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Bular amaliyot-tajriba, qonunlar, masalalar, matematik andozalar, algoritmlar, dasturiy-

matematik ta’minot, hisoblashlardir. Albatta, bu keltirib o‘tilgan bosqichlar teskari aloqaga asoslangan yopiq boshqaruv tizimini tashkil etadi. Ular o‘z xususiyatlariga ko‘ra tasniflanadi. Har bir bosqich ayrim amaliy o‘zgarishlar asosida ramziy ma’nodagi «bank»lar nomi bilan ataladi. Algoritmlashtirilgan tizimning amaliy tarkibi V.K.Kobulovning tavsiya-siga ko‘ra oltita asosiy va ikkita yordamchi algoritmik banklardan iborat bo‘ladi. Asosiy banklar: ma’lumotlar banki №1, qonunlar banki №2, belgi-xususiyatlar banki №3, andozalar banki №4, algoritmlar banki №5, amaliy dasturlar banki №6. Yordamchi banklar: masalalar qo‘yish banki №0 va operatsion bank №7.

Har bir bank ikki qismga: ma’lumot qismi va shu ma’lumotlarni qayta ishlash (kiritish-chiqarish, uchirish, o‘zgartirish, saqlash va boshqalar) vositalari qismiga bo‘linadi.

Shunday qilib, algoritmlashtirish uslubiyoti ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlar taraqqiyotini hisobga olishda va faol ta’sir o‘tkazish bo‘yicha vosita hisoblanadi. Mazkur uslubiyotni sun’iy tafakkur («intellekt») yaratishning alifbosi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki har qanday ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni zamonaviy kompyuterlarda kuzatish, tahlil etish va boshqarish uchun keltirilgan uslubiyotni qo‘llash talab etiladi.

V.K.Kobulov mazkur yo‘nalishni «algoritmik kibernetika» deb ta’riflagan. Bu yo‘nalishni amaliyotga tadbiq etish turli yirik ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishni tezlashtiradi. Chunki algoritmlashtirish yo‘nalishida matematik statistika, ekonometriya, iqtisodiy kibernetika va boshqa sohalarda erishilgan yutuqlarni o‘zaro uyg‘unlik asosida qo‘llash ko‘zda tutilgan.

Natijada eng so‘nggi davrdagi iqtisodiy ta’limotlarda neoklassik sintez yetakchi bo‘lib qoldi, bu yangi yo‘nalish odatda amerikalik P.Samuelson va uning «Ekonomiks» kitobidagi g‘oyalar bilan bog‘lik. Shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, bu kitobning boshqa mualliflar tomonidan chiqarilgan variantlari ham mavjud bo‘lib, ularda ham aynan shu masalalar tahlil etiladi. Yangi qarashdagi o‘ziga xos xususiyat shuki, unda avvalgi davrda paydo bo‘lgan iqtisodiy g‘oya, nazariya va ta’limotlar har tomonlama o‘rganilib, ularning barchasidagi ratsional fikrlar jamlanadi, bunda eng asosiy maqsad «foyda maksimumiga erishganda, optimal hajm qancha bo‘lishi kerakligi» tahlil etiladi.

Buni boshqacha talqin etiladigan bo‘linsa, «cheklangan resurslardan foydalanib, doimo o‘sib boruvchi ehtiyojlarni to‘laroq qondirish» masalasi ko‘rib chiqiladi.

Nyeoklassik sintezda keynschilik, neoklassik, neoliberal g‘oyalarning ijodiy qorishmasidan foydalaniladi.

Ayniqsa iqtisodiyotga ekonometrika uslublari tobora chuqur kirib bormoqda. Ekonometrika uslublari barcha iqtisodiy ta’limot yo‘nalishlari tomonidan amaliyotda keng qo‘llanilmoqda. Bu borada Respublikamizda ham yaxshi natija to‘plangan.

## Asosiy tushuncha va iboralar

Nyeoklassik sintez; Samuelson; inqirozsiz iqtisodiy sikl; Nobel mukofoti laureatlari; «Ekonomiks»; cheklangan resurs; usib boruvchi iste’mol; Ekonometrika evolyusiyasi; ekonometrika sohasidagi respublikamiz olimlari.

## Nazorat va mulohaza uchun savollar

1. Nyeoklassik sintezning mohiyati.
2. P.Samuelsonning «Ekonomiks» asaridagi asosiy g‘oyalar.
3. «Ekonomiks» asarida qaysi olimlarning fikrlari tanqid qilinadi?
4. Yangi yo‘nalishning o‘ziga xos xususiyatlari.
5. Iqtisodiyot bo‘yicha Nobel mukofotlari qachondan beri topshiriladi? Bir necha mashxur laureatlarga ta’rif bering.
6. Ekonometrikaning hozirgi davrdagi asosiy yo‘nalishlari qanday muammolarni hal etadi?

# XVII BOB. JAHON XO‘JALIGI TO‘G‘RISIDAGI IQTISODIY TA’LIMOTLAR

## 17.1. Jahon xo‘jaligi to‘grisidagi iqtisodiy ta’limotlar

Hozirgacha biz asosan ayrim mamlakatlardagi milliy iqtisodiyot, iqtisodiy jarayonlar to‘ğrisida fikr yuritdik. Ammo iqtisodiyotga xos bo‘lgan muxim bir xususiyat shuki, u chegara bilmaydi, baynalminal xususiyatga ega. Agar bu masalaga tarixan yondashilsa, iqtisodiyotning, xo‘jaliklarning yaqinlashuv jarayoni ilgaridan ma’lum. Masalan, eramizdan avvalgi II asrdayoq Buyuq ipak yo‘li bilan Xitoy, Yaponiya, Koreya mollari Hindiston, Eron, o‘rta Osiyo orqali Vizantiya va Italiyaga olib kelingan, u yerdan sotib olingan mollar boshqa mamlakatlarga olib borilgan. Tarixiy faktlarga murojaat etilsa, har bir karvonda ko‘p sonli odamlar, yo‘q ortilgan ot, tuya, xachir va boshqalar bo‘lgan, yo‘l bir necha oylab davom etgan. Bu xalqaro savdo yo‘li XIV-XV asrlarda Amir Temurning olib borgan iqtisodiy siyosati tufayli keng rivojlandi (kam boj olingan, karvon yo‘llari qaroqchilardan himoya qilingan, bir kunlik yo‘l oxirida karvonsaroy bo‘lgan, u yerda suv uchun quduqlar, sardobalar ko‘rilgan, ot-o‘lov, yem-hashak va oziq-ovqatlari saqlangan).

Amir Temur «Dunyo savdo bilan obod bulur» degan fikr bildirilgan, bu fikrning hozirgi davrda qanchalik dolzarbligi hammaga ayon. Bobur Hindistonda podsholik kilgan davrda ham bu sohada muhim ishlar qilingan. Agradan Kobulgacha bo‘lgan yo‘l bo‘ylab har 15 mil (1 mil=1.6 km) masofaga 6 tadan ot va unga qaraydigan xizmatchilar qo‘yilib, ular xalqqa xizmat kilgan (U.Erskin Bobur Hindistonda T., «Chulpon», 111-bet).

Jahon bozorining vujudga kelishi ko‘pincha XV asr oxiri va XVI asr boshi bilan belgilanadi. Bu fikrda ham jon bor albatta, chunki buyuk geografik kashfiyotlar tufayli Amerika qit’asi, ko‘plab yangi orol va mamlakatlar ochildi. Ular bilan dengiz orqali iqtisodiy aloqa kuchaydi, mustamlakachilik tizimi vujudga keldi. Iqtisodiyotning baynalminallashuv jarayoni doim rivojlanishda bo‘ldi va ayniqsa ikkinchi jahon urushidan keyin bu jarayon mazmun jihatdan tobora chuqurlashib, hududi kengayib bormoqda. Jahon xo‘jaligi, uning paydo bulishi, rivojlanishi va takommillashuv qonuniyatlari, tamoyillari doim olim va mutaxassislarning diqqat markazida bo‘lgan.

***Xalqaro iqtisodiy integratsiyasi. Nisbiy afzallik konsepsiyasi.*** Hozirgi davrda dunyoda 250 dan ortiq mamlakat mavjud bulsa, ularning tabiiy iqlimiy sharoitlari nihoyatda turli-tuman. Ularning aholisi, xujalik

faoliyati, turmush tarzi ham xilma-xildir. Tarixiy, an’anaviy sharoit taqozosi tufayli har bir mamlakatda o‘ziga xos xo‘jalik faoliyati, mahsulot turlari yuzaga kelgan. Masalan, bizga yaxshi tanish bo‘lgan kartoshka, makkajuxori, pomidor, tamaki Amerika kashf etilgandan keyin bizga olib kelindi va rivojlandi. Xuddi shunday yo‘l bilan o‘zaro boglanish, savdo-sotik, madaniy aloqalar kuchayib bormoqda. Ayniqsa, xalqaro savdo munosabatlari bu borada yetakchi o‘rinni egallaydi va iqtisodiy ta’limotlarda ham bu soxada muxim yutuqlar mavjud. Xalqaro iqtisodiy integratsiya dastlab savdo sohasida keng tus olgan.

Xalqaro savdo rivojlanishi jarayonlari iqtisodiyoti allaqachon milliy davlatlar doirasidan chiqqan va bu borada bir qancha iqtisodiy ta’limotlar mavjud. Ular klassik, neoklassik va neokeynschilik nazariyalarida o‘z aksini topgan. Ayniksa, XIX-XX asrlardagi iqtisodchilar A.Smit, D.Rikardo, R.Torrens, J.S.Mill, A.Marshall (yuqorida ular bilan tanishganmiz) J.Vaynyer, G.Xaberler, G.Jonson, P.Samuelson va boshqalar bu sohada barakali ijod qildilar.

A.Smit tomonidan *mutloq afzallik prinsipi* ishlab chiqilgan, unga ko‘ra, eng kam harakat talab etuvchi tovarlar ishlab chiqarish va eksport qilish samaralidir va aksincha.

Klassik iqtisodiy maktab vakili D.Rikardo birinchilardan bulib mehnat taqsimoti faqat ayrim ishlab chiqarish soxasidagina emas (A.Smit fikri), balki xalqaro ko‘lamda ham obyektiv zarurat ekanligini isbotlab berdi. Olimning fikri shundan iboratki, prinsipial jihatdan qaralsa, har bir davlat o‘ziga kerakli barcha narsani (tovarlarni) ishlab chiqarishi mumkin, ammo bu iqtisodiy jihatdan qanchalik to‘g‘ri, degan savol tug‘iladi. Unga javob berib, Rikardo aytadiki, har bir davlat ma’lum bir maxsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashadi, mehnat unumdorligi bo‘yicha turlicha ko‘rsatkichga, demak, *nisbiy afzallikka*, ustunlikka ega bo‘ladi. Masalan, Shotlandiyada suli, Portugaliyada faqat vino ishlab chiqarish samaraliroqdir, chunki sarf-harajatlar miqdori eng kam bo‘lgan sohani rivojlantirish afzaldir. Bunda albatta, tabiiy sharoit, an’analar, tarixiy tajriba, yer, suv, inson resurslari, xalqning mentaliteti va boshqalar hisobga olinishi kerak. Masalan, musulmon davlatlarida chuchqachilikni rivojlantirish haqida so‘z ham bo‘lishi mumkin emas va boshqalar.

Solishtirma harajatlar tamoyili ham barcha mamlakatlar uchun tegishlidir va qaysi maxsulotni ishlab chiqarish va eksport qilish muammosi xal etilganda hisobga olinishi shart. Shu sababli ayrim davlatlarda u yoki bu soxa «mustaqilligi» uchun kurash e’lon qilinganda

bu omil albatta yaxshi o‘rganib chiqilishi maqsadga muvofiqdir. (D.Rikardo ta’limoti yuqori boblarda to‘la berilgan).

Nyeoklassik, ya’ni «sof» iqtisodiyotni targ‘ib etuvchilar xalqaro mehnat taqsimotining rivoji va savdo sharoitlarining o‘zgarishi sabablarini aniqlashni bosh vazifa qilib qo‘yganlar, ammo ular savdo almashuvida pul mexanizmi yo‘lini inkor etadilar. R.Harrot, F.Maxlup, K.Kurihara kabi neokeynschilik tarafdorlari esa xalqaro savdoning pul mexanizmiga alohida e’tibor beradilar, shu bilan bir vaqtda xalqaro mehnat taqsimoti, baynalminal qiymat, baholar nisbati deyarli e’tiborga olinmaydi.

«Sof» ta’limot tarafdorlari fikricha, jahon bozorida «mukammal raqobat» mavjud; barcha kongragentlar xalqaro savdoda bir xil imkoniyatga ega; taklif doimo talabni vujudga keltiradi; savdo balansi o‘zini-o‘zi tartibga solish prinsipi bor. Eksport va import baholari nisbatini tushuntirishda ular uzoq muddatli rejalarda «savdo sharoitlari» industrial davlatlar ziyoniga va agrar mamlakatlar foydasiga o‘zgarmoqda, deb o‘ylamoqdalar va buni yer unumdorligining pasayib borishi degan qonun bilan bog‘lamoqdalar. Ular tovar eksporti va importining fizik hajmlari o‘sishini hisobga olmagan xolda xalqaro savdo rivoji tendensiyalari agrar xomashyo yo‘nalishidagi davlatlar iqtisodiyoti tashqi savdo pozitsiyalari yaxshilashuviga olib kelmoqda, demoqdalar. Xalqaro savdoning neokeynschilik ta’limoti vakillarining fikricha, har bir mamlakat ichki bozorda ko‘proq tovar ishlab chiqarishga intilgani sababli mehnat va kapital bilan bandlikning to‘la emasligi tufayli ko‘proq eksport qilishga va kamroq import qilishga intiladi. Shu sababli ham xalqaro savdo o‘zini-o‘zi tartibga soluvchi jarayon bo‘la olmaydi, aksincha tovar eksporti kapital ishlab chiqarish bilan rag‘batlantirilishi kerak, import esa proteksionistik choralar bilan cheklanishi zarur. Bu choralar umummilliy manfaatlarga mos kelar emish.

Keyingi davrda vujudga kelgan iqtisodiy ta’limotlarda E.Xeksher, B.Olin (Shvetsiya), P.Samuelson tomonidan yaratilgan «*ishlab chiqarish omillarining xalqaro taqsimoti*» nazariyasi (modeli) tipik hisoblanadi. Ularning fikricha, har mamlakat iqtisodiyoti ishlab chiqarish omillari (kapital, mehnat, tabiiy resurslar) bilan bir xil ta’minlanmaganligi bilan, demak, har bir omilning turlicha bahoga egaligi (ish haqi, foiz, renta) bilan tavsiflanadi. Ayrim mamlakatlarda mehnat asosiy omil (boshqasidan son jixatdan ko‘p) bo‘lsa, uning narxi kapital va yerga nisbatan past baholanadi; kapital mo‘l bo‘lgan mamlakatda u boshqa ikki ishlab chiqarish omiliga nisbatan arzon bo‘ladi. Har bir mamlakat

o‘zining ustunligini realizatsiya qilishga intiladi, jaxon bozoriga ishlab chiqarish omili nisbatan arzon yo‘l bilan tayyorlangan tovarlar ko‘proq chiqariladi. Bunday ishlab chiqarish ixtisoslashuvi shunga olib keladiki, barcha davlatlar o‘ziga qulay va foydali bo‘lgan xo‘jalik tarmoqlarini rivojlantirib, qulay sharoit bo‘lmagan boshqalaridan voz kechadi. Bu nazariya ishlab chiqarishning chiqimlarini mutlaqlashtiradi va xalqaro ixtisoslashuvining yagona mezoniga asoslanadi. Shu sababli jahon savdosi uyg‘un (garmonik) jarayon deb qaraladi. Bunda jahondagi real shart-sharoitlar to‘la hisobga olinmaydi, masalan o‘z davrida mustamlaka egasi (metropoliya) bilan koloniyalar o‘rtasidagi munosabatlarni xech ham uyg‘un deb bo‘lmaydi. Iqtisodiy yuksak davlat bilan qoloq mamlakatlar o‘rtasidagi aloqalarda ham garmoniya bo‘lishi amri maxol. Lekin kelajakda ideal shakl sifatida bu xodisa ro‘y berishi mumkin.

60-yillarda texnologik xususiyatdagi yangi xalqaro mehnat taqsimoti konsepsiyalari paydo buldi. Bular orasida eng yaxshi ma’lum bo‘lgani «tovar xayotining sikli» nazariyasidar, uning mualliflari amerikalik iqtisodiyotchilar G.Xofbauer, R.Vernon, M.Poznyer va boshqalar hisoblanadi. Uning asosini qayta ishlash sanoatidagi xalqaro mehnat taqsimoti tashkil etadi. Sanoatda paydo bo‘ladigan texnologik jihatdan har bir yangi mahsulot kirish, eksponent o‘sish, sekinlashuv va tugash siklini o‘tadiki, bu tartib ishlab chiqarishga joriy etish, kengayish, kamolot va eskirish jarayoniga tug‘ri keladi (jami 5 stadiya). Ishlab chiqarishni joriy etish fazasida yangi maxsulotni tayyorlash asosan yuqori rivojlangan ilmiy-texnik bazaga va bozorda shu mahsulotning raqobatbardoshligini sinovchi sharoitning mavjudligiga bog‘lik. O‘sish va kengayish fazasi uchun industrial bazaning quvvati bilan belgilanadigan mahsulotni ommaviy ravishda ishlab chiqarishni tashkil etish xususiyatlidir. Yetuklik, kamolot fazasida maxsulot ishlab chiqarish soddalashib, ommaviy tus oladi. So‘nggi (eskirish) fazasi mazkur maxsulot o‘rnini qoplovchi yangi takomillashgan maxsulotning paydo bo‘lishi bilan bevosita bog‘lik, undan tashqari avvalgi mahsulotga talab ham keskin kamayadi. Shunday texnologik jarayon mavjud namunaviy mamlakat sifatida AQSH misol qilib keltiriladi. Xalqaro mehnat taqsimotining rivoji esa boshqa mamlakatlarning Amerika iqtisodiyotiga texnologik qaramligi asosida shakllanishi tasavvur etiladi.

Ilmiy-texnik progress bilan bog‘lik iqtisodiy qarashlar ingliz iqtisodchisi **Jon Xiks** (1904-1989) tomonidan ilgari surilgan. Uning modeli bo‘yicha texnika progressi neytral, mehnatni iktisod kiluvchi va kapitalni iqtisod qiluvchi guruxlarga bo‘linadi. Texnika progressi

oqibatida ishlab chiqarish va iste’mol xalqaro savdoga neytral, ijobiy va salbiy tasir ko‘rsatishi mumkin.

## 17.2. Xalqaro mehnat taqsimotini taqdim etishdagi tanqidiy yo‘nalish

Hozirgi davrda amerikaliklar yapon avtomobillarini minadilar, shvedlar fransuzlar pishlogini iste’mol qiladilar, kanadaliklar koreys kompyuterlarini sotib oladilar, italiyaliklar Liviya neftidan foydalanadilar, ruslar amerikaliklar donidan non pishiradilar. Bu savdo munosabatida ichki savdoga nisbatan ikkita o‘ziga xoslik mavjud. Birinchidan, xalqaro savdoda ishtirok etuvchi firmalar va iste’molchilar turli mamlakatlarda yashaydilar. Birinchi paydo bo‘ladigan savol shundan iboratki, nega o‘zi xalqaro savdo mavjud?

Hozirgi davrda xalqaro mehnat taqsimoti butun jahon yo‘li bilan ishlab chiqariladi. Ko‘pincha davlat hukumatlari bu savdoni tartibga solish uchun tariflar, ya’ni import qilinayotgan tovarlar uchun soliqlar solinadi. Ikkinchi muhim o‘ziga xoslik shuki, savdo qilayotganlarning har biri boshqa-boshqa valyuta (pul) dan foydalanadilar. Masalan, Amerika xaridorlari yapon avtomobillarini dollarda sotib oladilar. Avtomobillarni ishlab chiqarayotgan yapon ishchilari o‘z maoshlarini iyenlarda olishni istaydilar. Demak, bu yerda xalqaro hisob-kitob masalasi ko‘tariladi.

Hozirgi davrda xalqaro mehnat taqsimoti butun jahon xo‘jaligining tashkil topishi va rivojlanishining xal qiluvchi omilidir. Bunda kapital chiqarish masalalari ham yetakchi o‘rinni egallaydi. Shu sababli ularga bag‘ishlangan bir qancha nazariyalar mavjud. Tarixan birinchi bo‘lib neoklassik ta’limotlar vujudga keldi. Ularning asosi B.Olin (Shvetsiya), K.Iverson (Daniya), R.Nurkse (Avstriya-AQSH) asarlarida o‘z aksini topgan. Ular o‘z ta’limotlarida marjinalizm konsepsiyasiga asoslangan xolda, kapitalning harakatchanligi, «kapitalning eng yuqori unumi» (foiz stavkasi bilan ifoda qilinadi) u yoki bu mamlakat kapitalining mo‘l-ko‘lligining turlicha ekanligi bilan izoxlaydilar. Kapitalning «mo‘l-ko‘lligi» yoki «kamligi» uning migratsiya sababi qilib ko‘rsatiladi. Bu jarayon to kapital unumi bir xil bo‘lguncha davom etadi. Bu esa ishlab chiqarish omillari samaradorligining o‘sishi, milliy daromadning ortishi, butun mamlakatlar iqtisodiy rivojlanish darajasining tekislanishiga olib keladi.

Kapital chiqarishning neokeynschilik ta’limoti 30-50-yillarda shakllandi, F.Maxlup, YE.Domar va R.Harrot bu nazariyaning asoschilari hisoblanadilar. Ularning fikricha, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishda savdo, to‘lov balansining o‘zgarishi tufayli, ya’ni aktiv savdo balansi

bo‘lgan mamlakatlarda kapital ortiqchaligi (jamgarmalarning investitsiyalardan ko‘pligi), passiv balansli mamlakatlarda esa aksincha, kapital yetishmasligi sababli kapital harakati ro‘y beradi. «Jamgarmalar» ning ortiqchaligi mamlakatni iqtisodiy depressiya va ishsizlikka olib boradigan eng muhim omil deb qaraladi. Unga qarshi kurash yoki uning oldini olish uchun «jamgarmalar» hisobiga qo‘shimcha tovar eksportini moliyalash zarur deb topiladi. Ammo bunda import oshmasligi, ya’ni kapital chiqarish yo‘li bilan xal etilishi kerak.

Bu yo‘nalish vakillari kapitalistik tuzumda kapitalni realizatsiya qilishdagi qarama-qarshiliklarni tan oladilar va buni hal etish uchun kapital chiqariladi, bu esa ortiqcha tovarni ko‘paytirish hisobiga ro‘y beradi. Bu nazariya rivojlanayotgan mamlakatlarda «yordam» konsepsiyasini isbotlash uchun ham asos bo‘ladi.

60-70-yillarda kapital chiqarishning «dinamik modeli» ommalashdi, unda R.Harrotning iqtisodiy dinamika nazariyasi asosida mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro kapital eksporti sabablari va oqibatlarini aniqlashga urinish bor. U kapital eksporti va importini yalpi milliy mahsulot o‘sishi, investitsion daromad va to‘lovlar bilan bog‘lashga intiladi. Unda nokeynschilikning xalqaro kapital harakati konsepsiyasiga asoslanadilar. Shu vaqtning o‘zida iqtisodiy o‘sishning neoklassik nazariyasi ham hisobga olinadi. Bularning hammasi o‘nlab o‘zgaruvchi parametrlarni o‘z ichiga oluvchi iqtisodiy matematik modellar asosida hal qilinadi. Masalan, amerikalik iqtisodchilar J.Borts va K.Kopekilar tuzgan ana shunday modelda 20 dan ortiq o‘zgaruvchi va shuncha tenglama mavjud; unda matematik apparat ustun bo‘lib, u nazariy asosning bo‘shligini kompensatsiyalaydi.

Ular kapital ortiqchaligi masalasini tushuntirishda neokeynschilarga asoslanadilar va uni jamgarmalar va investitsiyalar orasidagi farq sifatida e’lon qiladilar. Bu farq ishchi kuchi yetishmasligi va tez usuvchi kapital miqdori o‘rtasidagi texnik-iqtisodiy disproporsiyadan kelib chiqadi, deb tushuntiriladi.

Kapital o‘sishi to‘lov balansi saldosi musbat bo‘lganda investitsion daromadlar investitsion to‘lovlardan ortiq hollarda ro‘y beradi. Daromadi to‘lovlardan yuqori bo‘lgan mamlakatlar kapitalni sof eksport qiladigan, aksincha, to‘lovlari daromaddan ustun bo‘lganlar esa kapitalni sof import qiladigan mamlakatlardir. Chunki ulardagi kapital miqdori mavjud mehnat resurslaridan ancha kam bo‘ladi. Bunda chet el investitsiyalari bilan sof kreditor yoki debitor mamlakatlar axvoli o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanish ta’kidlanadi.

Bevosita investitsiyalar nazariyasi ham 60-70-yillarda ishlab chiqilgan bo‘lib, kapital chiqarish va kiritishning sabab hamda oqibatlarini aniqlash masalalari asos qilib olingan. Ularning fikricha, kapital chiqarish asosan yirik korporatsiyalar tomonidan amalga oshiriladi va boshqa mamlakat kompaniyalarining chet eldagi iqtisodiy pozitsiyalari bilan raqobatga duch keladi. Buning sababi shuki, hozirgi sharoitda rentabel ishlab chiqarishni tashkil etish asosan chet eldagi bozorlarni egallash bilan bog‘liq. E.X.Chemberlin monopolistik konkurensiya nazariyasini ishlab chiqdi, unga ko‘ra monopolistik konkurensiya ishlab chiqarish va kapital konsentratsiyasi tufayli emas, balki firmaning bozorga, iste’molchilarning shaxsiy talablariga muvaffaqiyatli moslashishi natijasidir.

Bevosita investitsiyalarni amalga oshiruvchi korporatsiyalar xuddi ana shunday monopolistik ustunliklarga ega bo‘lishlari kerak. S.Xaymer–Ch.Kindlebergerlarning «oligopolik strukturalar» (monopolistik ustunliklar) modelida bu jarayon korporatsiya-investorda «differensiyalashgan mahsulot», maxsus bozor bilimlari, kerakli texnologiya, yuqori malakali menejment mavjudligi tufayli ro‘y berar ekan.

Keyingi davrda xalqaro monopoliyalarning yangi turi – transmilliy va transkorporativ konsernlar tashkil topmoqda. Bu monopoliyalar faoliyatini aks ettiruvchi bir qancha ta’limotlar mavjud. Ularda xalqaro monopoliyalar bir qancha millatlar nomidan chiqayotgan mustaqil korporatsiya sifatida izohlanadi va butun dunyoda ilmiy-texnika taraqqiyoti mevalarini targ‘ib qiluvchi tashkilot deb qaraladi. Bu monopoliyalar misolida iqtisodiy aloqalar har qanday siyosat va mafkuradan holi degan fikr ilgari surildi, ya’ni u yoki bu korporatsiya ko‘p mamlakatlarda ishlab chiqarish va kommersiya operatsiyalarini olib borayotgan bo‘lsa, «sof xalqaro» korxonaga aylanadi va hech bir mamlakat manfaatlarini himoya qilmaydi. G.Jonson, Ch.Kindleberger va boshqalar xalqaro monopoliyaning ilmiy texnika yangiliklarini targ‘ib etish, tinchlikni saqlashga oid faoliyatlarga keng o‘rin berishgan. Ayniqsa rivojlanayotgan mamlakat-larda bu transmilliy korxonalarning roli yuqori baholanadi, ularning ilmiy texnika sohasida, investitsiyalar qo‘yish bo‘yicha faoliyati ijobiy deb qaraladi.

Xalqaro monopoliyalar rivojiga tanqidiy bo‘lgan nazariyalar ham mavjud (R.Barnet – AQSH, E.Penrouz – Angilya), bu nazariyalarda xalqaro konsernlar davlat iqtisodiy siyosatining ayrim unsurlari, masalan, soliq solish, kredit va investitsion siyosat, valyutani tartibga solish va

boshqalarning samarasiz bo‘lib qolishiga olib keladi. Bu korporatsiyalar o‘zlari ish yuritayotgan davlatlarda bu mamlakat iqtisodiyoti va siyosatiga salbiy tazyiq o‘tkazish uchun bir qancha usullardan foydalanishlari mumkin. Ayniqsa bu holat iqtisodiy jihatdan qoloq rivojlanayotgan mamlakatlarda salbiy oqibatlarga sabab bo‘lishi mumkinligi aytiladi. Shu sababli ular xalqaro korporatsiyalar faoliyatini shunday qayta ishlab chiqishni taklif etadilarki, ularning harakatidagi «salbiy tomonlan»ning yo‘qotilishi va jahon bozorini bo‘lib olish «qoidalari»ni reglamentatsiyalash kerak.

Integratsion jarayon bo‘yicha yagona alohida ta’limot yo‘q, ammo integratsion isbotlash, qo‘llab-quvvatlash borasida bir qancha yo‘nalishlarning ba’zi bir umumiy tomonlari mavjud, ular quyidagilardir: kapitalistik iqtisodiy integratsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni sohtalashtiriladi; bu jarayon umumiy qonuniyat sifatida qaraladi va XVIII-XIX asrlarda vujudga kela boshlagan ichki bozor bilan bir narsa deb qaraladi, Yevropa va shimoliy Amerika mamlakatlari rivojlanayotgan va boshqa davlatlar bilan olib boriladigan aloqa sifatida beriladi; monopolistik kapitalning kapitalistik integratsiyaning harakatlantiruvchi kuchi sifatidagi roli bo‘lib ko‘rsatiladi.

Odatda iqtisodiy integratsiya to‘grisidagi nazariyalarda integratsiyaga a’zo mamlakatlar o‘rtasidagi barcha to‘siqlar va ayniqsa savdo, boshqa iqtisodiy munosabatlarda to‘la erkinlik berilishi zarurligi qayd etiladi. Shu bilan birga bozorning ko‘lami va iqtisodiyotning o‘sish sur’atlari o‘rtasida funksional (ya’ni bevosita) bog‘lanish bor degan g‘oya ham ilgari suriladi. Shunday qilib, iqtisodiy integratsiya zarurati tashki bozorning qayta ishlab chiqarishga hal qiluvchi ta’siri tufayli yuzaga keladi (ya’ni aksincha emas).

Iqtisodiy integratsiya bo‘yicha ta’limotlarda asosiy e’tibor «bojxona ittifoqi»ga berilib, unda o‘zaro savdo bo‘yicha har qanday cheklashlar bekor qilinishi va «uchinchi mamlakatlar» uchun yagona bojxona tarifi joriy qilinishi kerak bo‘ladi. Bunda ayrim iqtisodchilar – B.Belash (AQSH), V.Rebke (Shveysariya) va boshqalar bu jarayonni ideal erkin bozor munosabatlariga qaytish shaklida qaraydilar va avvalgi davr voqealarini hozirgi monopolistik davrga ko‘chiradilar. Boshqalari esa, masalan Ch.P.Kindleberger (AQSH), P.Striten (Angliya), A.Marshall va V.Perru (Fran-siya)lar yirik korporatsiyalar mavjudligini tan oladilar, ularning fikricha, jahon bozorini o‘zaro bo‘lib olib, «bojxona ittifoqi» kartellarga qarshi siyosat tufayli ularning faoliyatidagi salbiy tomonlarni neytralizatsiya qiladi, go‘yoki xalqaro integratsiya antimonopol

yo‘nalishiga ega. Amaliyotda bu jarayonlar har doim ham nazariyadagidek emas, masalan Yevropa iqtisodiy hamjamiyati (umumiy bozor, hozir Yevropa ittifoqi)da kartellashtirishni taqiqlash to‘g‘risida qonun bo‘lishiga qaramasdan, bu jarayon aksincha tezlashdi, bugungi kunda ko‘ptarmoqli kompaniya-konsernlar vujudga kelmoqda.

Olimlarning fikricha, iqtisodiy integratsiyaning asosiy ijtimoiy-siyosiy oqibatlari quyidagilardan iborat bo‘ladi: ishlab chiqarishning doimo o‘sishi va iqtisodiy inqirozlarning bo‘lmasligi ta’minlanadi; iqtisodiyotning doimo o‘sishi tufayli aholining turmush darajasi ko‘tariladi; ishchi va kapitalistlar o‘rtasidagi sotsial sheriklikni rivojlantiradi; turli mamlakatlar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar va siyosiy nifoqlar tugatiladi. Demak, iqtisodiy integratsiya kapitalistik jamiyatga xos bo‘lgan illatlarni kamaytirish vositasi sifatida qaraladi.

## 17.3. Valyuta munosabatlari tahlili, jahon pulining yangi metall konsepsiyasi. «Suzib yuruvchi kurs»

Iqtisodchi olimlar xalqaro valyuta munosabatlariga alohida e’tibor beradilar. Valyuta bozorida milliy valyuta chet el valyutasiga (masalan, AQSH dollari, Meksika pesosi, nemi markasi, iyena yoki funt sterling) almashtiriladi. Almashuv (valyuta) kursi bu chet el valyutasi birligining milliy puldagi ifodasidir. Bu munosabatlar har kuni, hatto har soatda o‘zgarib turishi mumkin. Valyuta kursini stabil (turg‘un) qilish uchun to‘lov balanslarining tengligiga erishish yo‘li taklif etiladi.

30-yillargacha to‘lov balanslarini tartibga solish mexanizmini taxlil etishda D.Yum, J.Mill tomonidan ishlab chiqilgan «klassik» nazariya ustun mavqeaga ega bo‘lgan. Bu g‘oyaga ko‘ra, oltinning xalqaro harakati va har bir mamlakatdagi baholarning o‘zgarishi avtomatik ravishda bir-biri bilan bog‘liq, oqibatda barcha mamlakatlarning to‘lov balansi barqarorlikka intilish tendensiyasiga ega. Oltin standartining tugatilishi bilan olimlarning ko‘pchiligi neokeynschilik pozitsiyalariga o‘tib oldilar («Oltin standarti» XIX asrda va XX asrning ma’lum davrida amalda bo‘lgan, masalan, Buyuk Britaniyada 1821-31 yillar oltin standartidan foydalanilgan, AQSH da 1934 yil dollarni oltinga aylantirish tugatildi). Yangi sharoitda to‘lov balansini tartibga solishda asosiy e’tibor davlatning hisob stavkasiga ta’siri muhim deb hisoblanadi. Boshqa tartibga solish chorasi sifatida importni kamaytirish va eksportni rag‘batlantirish, buning uchun esa mehnatkashlarning ichki to‘lov imkoniyatlari talabini pasaytirish (deflyatsiya yo‘li) yoki milliy valyutani devalvatsiya qilish usuli taklif etiladi.

60-yillardagi iqtisodiy jarayonlar neokeynschilik metodlaridan voz kechishga sabab bo‘ldi, yana neoklassik yo‘lga qaytildi, ya’ni davlatning iqtisodiy, shu jumladan valyuta ishlariga aralashuvi cheklandi, valyutalar kursining erkin tebranishiga imkon berildi, bu esa o‘z navbatida avtomatik barkarorlashuviga olib kelishi kerak edi. Ammo valyuta kursi o‘zgarib turishining to‘lov balansiga ta’siri cheklangan harakterga ega bo‘ladi (masalan, valyutaning «suzib yuruvchi kursi» paytida bu narsa aniq bo‘lib qoldi), chunki to‘lov balansining barqaror emasligi muomala sohasiga emas, balki ishlab chiqarish bilan bevosita bog‘liq. To‘lov balanslari passivi davlatning chet eldagi harajatlariga ayniqsa, turli harbiy-siyosiy aksiyalarga bog‘liq bo‘ladi. Valyuta kursining qalqib turishining o‘zi ham xalqaro valyuta tizimining beqarorligini kuchaytiradi. So‘nggi yigirma yil ichida industrial rivojlangan mamlakatlar chegaralangan (fiksatsiya qilingan), ammo har holda tartibga solinadigan kursdan elastik valyuta kursiga o‘tib oldilar. Absolyut elastik valyuta kursida almashuv kursi valyuta bozoridagi teng kuchli valyuta bahosida belgilanadi, cheklangan kurs chog‘ida esa valyuta kursi Markaziy bank tomonidan belgilanadi, bunda bank belgilangan kurs bo‘yicha xorijiy valyutani har qancha miqdorda olish va sotish majburiyatini o‘ziga oladi. Valyutaning elastik kurs miqdori uch omilga bo‘liq:

1. Ichki va tashqi narxlar darajasi. Boshqa sharoitlar teng bo‘lganda ichki baholarning o‘sishi valyuta kursining pasayishiga olib keladi (xarid qilish qobiliyati pariteti nazariyasi):

2. Savdo oqimi bilan bog‘lik omillar; masalan, eksport bozorining kamayishi yoki yuqotilishi, defitsit, ya’ni valyuta arzonlashuvini keltirib chiqaradi.

3. Kapital oqib o‘tishi. Mamlakat ichida foiz stavkalarining oshishi kapitalni jalb etadi va bu bilan milliy valyutaning qimmatlashuvini keltirib chiqaradi.

Chegaralangan va elastik valyuta kurslarni solishtirganda qaysi biri ustunligini aniqlash qiyin. Elastik almashuv kursi odatda, qisqa vaqt davomida turg‘un bo‘lmaydi, ammo uzoq muddatli rejalarda zaruriy elastiklikka ega bo‘ladi. Aksincha, chegaralangan almashuv kurslari qisqa muddat uchun samarali, ammo uzoq kelajak uchun o‘ta noelastikdir. Bu tizimlarning xech qaysisi narxlar barqarorligi va to‘la bandlik bo‘yicha to‘la ustunlikka ega emas. Valyuta kursining sun’iy ravishda yuqori bo‘lishi ishsizlika olib keladi, past bo‘lishi esa inflyatsiyani kuchaytiradi.

Likvidlik (haridorgirlik) muammosini xal etish borasida iqtisodchilar (J.M.Keyns, R.Triffin va boshqalar) «yuqori likvidlik boshqariladigan valyuta» chiqarishni tushunadilar yoki xalqaro valyuta munosabatlariga ichki qog‘oz-pul munosabatini tartibga soladigan tamoyillarni qo‘llashni taklif etadilar. Oxir-oqibatda bu loyihalarning mohiyati shundaki, to‘lov balans saldosi aktiv bo‘lgan davlatlar to‘lov balansi defetsit (kamomad) bo‘lgan davlatlarga kredit berishga majbur qilishga qaratiladi. Shu maqsadda xalqaro valyuta chiqarish taklif etiladi. Bu valyu-ta qo‘shimcha likvidli mablag‘ni ta’minlaydi va passiv to‘lov balansiga ega bo‘lgan mamlakatlar bevosita aktiv savdoga ega bo‘lgan davlatlarga murojaat etmasdan, o‘z passivlarini qoplash imkoniga ega bo‘ladi.

Bu g‘oya 1696 yilda amalda realizatsiya qilindi.

***Jahonshumul iqtisodiy muammolar. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti to‘grisidagi g‘oyalar.*** Hozirgi davrda jahonda 200 dan ortiq davlat mavjud, ularning soni sobiq SSSRning parchalanishi, Yugoslaviyaning bo‘linishi va boshqalar tufayli keskin oshdi. Shundan 188 davlat BMT a’zosidir. Bu tashkilot tuzilganidan buyon (1945 yil 24 oktabr) o‘ziga xos yakun yasaldi va quyidagilar e’tirof etildi: BMT a’zolari soni 51 tadan 188 ga o‘sdi, dunyo aholisi esa shu davr mobaynida 2,5 millirddan 6,1 milliardga yetdi (o‘sish 3,5 milliard), yalpi milliy mahsulot (yoki xalq boyligi) 7 trillion AQSH dollaridan deyarli 30 trillion dollarga yetdi, ya’ni 4 martadan ko‘proq o‘sdi. 1995 yilning martida Kopengagenda BMT tashabbusi bilan ijtimoiy rivojlanish masalalari bo‘yicha xalqaro konferensiya bo‘ldi, unda 150 dan ortiq davlat (oliy makom) rahbarlari ishtirok etdilar. BMT Bosh kotibi B.Butros Goliy (*1997-yildan BMT Bosh kotibi tinchlik buyicha Nobel mukofoti laureati Kofi Annan*) uz nutqida so‘nggi yillarda kambag‘allar va boylar o‘rtasidagi tafovut kuchayib, 1960 yildagi nisbat 13:1 dan hozirgi o‘n yillikda 60:1 ga yetdi, deb ataydi. Hozirgi davrda bu nisbat 75:1 Sayyoramizning 1,5 milliard aholisi (27,3 foiz) og‘ir iqtisodiy axvolda kun kechirmoqda, ochigini aytganda esa och-yalangochdir. Bunday differensiatsiya xavfli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Undan tashqari, dunyoda ekologik muammo kuchayib bormoqda. Sog‘likni saqlash (SPID va boshqa yuqumli kasalliklar), narkobiznes masalalari tobora avj olmoqda.

O‘zaro iqtisodiy va ayniqsa savdo munosabatlarning nafi hammaga ayon bo‘lishiga qaramay, davlatlar o‘rtasidagi munosabatlar odatda garmoniya asosida emas, balki qarama-qarshiliklar asosida rivojlanmoqda. Boy va kambagal mamlakatlar o‘rtasida savdodan

tushadigan daromadlarni taqsimlashda kelishmovchiliklar kuchayib bormoqda.

Lekin keyingi davrda ilgari qoloq bulgan davlatlarning ayrimlari olib borilgan tug‘ri siyosat tufaylirivojlanish, taraqqiyot yo‘liga kirib oldilar, ularning soni tobora oshib bormokda. Ularning ayrimlari Lotin Amerikasida (Braziliya, Argentina, Meksika), ko‘pi janubi-sharqiy Osiyodadir («turt ajdaxo») Koreya Respublikasi, Tayvanь, Syangan va Singapur, bular qatoriga Malayziya, Tailand, Vyetnam, Indoneziya va boshqa mamlakatlar kelib qo‘shilmoqda. Bu davlatlarga xos bo‘lgan xususiya shuki, bozor munosabatlari keng qo‘llanilmoqda, sanoat (industriya)ning rivojiga alohida e’tibor berilmokda, xorijiy investitsiyalar (kushma korxonalar juda kup) kup ishlatilmoqda va okibatda iqtisodiyotning usish sur’atlari yuqori (5-10, hatto 14-15 foiz). Xitoy Xalq Respublikasi ham 1979-yildagi iqtisodiy islohotlar tufayli taraqqiyot yo‘liga kirdi (ayniqsa ochiq iqtisodiy hududlarda usish katta).

Quyidagi jadvalda jahondagi mamlakatlarda daromadlar taqsimoti kel-tirilgan (Jahon banki ma’lumotlari).

Shular tufayli bu sohada iqtisodiy ta’limotlarda ham o‘ziga xos yo‘nalishlar yuzaga keldi. Hozirgi davr iqtisodiyotchilari U.Rostou, R.Emerson, P.Samuelson va boshqalar kolonializmning ijobiy tomonlarini, uning qoloq mamlakatlarga «taraqqiyot» olib borganligini bo‘rttirib ko‘rsatishga intilmoqdalar. Go‘yoki mustamlakalar ilg‘or mamlakatlar yordamida o‘z mustaqilligini ta’minlashga erishganlar. Bu tuzum ilg‘or va qoloq mamlakatlarga birdek naf keltirgan deb hisoblaniladi. R.Emerson fikricha, kolonializm Sharq xalqlari uchun taraqqiyot yo‘lidan borishga imkoniyat yaratdi.

Ayrim iqtisodchilar kolonializmning salbiy tomonlarini ham inkor etmagan xolda, uni XIX asr oxiri va XX asrdagi kapitalistik mamlakatlar «deformatsiya»ga uchradi, mustamlaka davlatlarining do‘stiga aylandi, demoqdalar. «Yaxshi kolonializm» iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantiradi, bu davlatlarning o‘z-o‘zini boshqarishini ta’minlaydi.

Garbda «noiloj rivojlanish», «tashqi turtki» nazariyalari keng tarqalgan (R.Nurkse, E.Xagen), unda ozodlikka erishgan davlatlar dastlab musibatlarga uchrashi tabiiy, shu sababli ularning ahvoli ogir bo‘ladi, ochlik-yalangochliqqa mahkum etiladi. Daromadning kamligi jamg‘armalar paydo bo‘lishiga to‘siqdir va kapital qo‘yilmalar ham past darajada saqlanadi. Bu esa sanoat rivojiga va milliy daromad o‘sishiga yo‘l bermaydi hamda kambag‘allik hamda nochorlikni keltirib chiqaradi (Ilojsizlik rivojlanishi). Bu og‘ir ahvoldan chiqishning birdan-bir yo‘li –

tashqi «turtki yo‘li» hisoblanadi. Minimum kapital qo‘yilmalarning asosan tashqi investitsiyalar hisobiga asta-sekin o‘sishiga, rivojiga erishiladi. Kapital qo‘yilmalar miqdori ma’lum kritik darajadan yuqori bo‘lishi kerak, shu bilan turg‘unlik holatidan chiqib olinadi. Bu tadbirkorlik faoliyatini kuchaytiradi va xorijiy investorlar uchun qulay «iqlim»ni yuzaga keltiradi. G‘arbdagi ko‘p iqtisodchilar bu mamlakatlarda chuqur ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar o‘tkazishni ham taklif etmoqdalar. Mustamlaka (koloniya) qaram mamlakatlari bilan metropoliya o‘rtasidagi munosabatlar xech vaqt tenglik asosida bo‘lmagan, noekvivalent almashuv yo‘li bilan qo‘shimcha boylik orttirish imkoni bo‘lgan. Ilgari mustamlaka bo‘lgan qaram davlatlar mustaqillikka erishgandan keyin ham avvalgi metropoliyaga ko‘p vaqt davomida ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘lib qolaverdi. Bu davrga oid neokolonializm ta’limotlari yuzaga keldi. «Solishtirma chiqimlar» nazariyasining yangi variantlari J.Vayner, G.Xaberler, Ch.Kindleberger va boshqalar tomonidan har tomonlama ishlab chiqilgan. Bu nazariya tarafdorlarining fikricha, rivojlanayotgan davlatlarda tabiiy resurslar anchagina bo‘lganligini hisobga olib oziq-ovqat va xomashyo mahsulotlariga ixtisoslashish ma’qul, sanoatni rivojlantirishga xojat yo‘q, chunki an’anaviy eksport tovarlari hisobiga xalqaro bozordan kerakli maxsulotlarni almashib olish mumkin. Bu fikrga qo‘shilib bo‘lmaydi, chunki bu usul mamlakat rivojiga olib kelmaydi. Masalan, Malayziya xuddi shunday yo‘l tutdi, faqat o‘z xomashyosini tayyor mahsulotga aylantirgachgina muhim iqtisodiy yutuqlarga erishdi. «Ishlab chiqarish omillari» nazariyasida ham noekvivalent almashuv tizimi, chetga esa faqat xomashyo chiqarish taklif etiladi. Chet el kapitali uchun keng imkoniyatlar yaratish fikri ustundir.

Ba’zi olimlar rivojlanayotgan mamlakatlarni «industrlashtirish» nazariyalarini ilgari surmoqdalar. Masalan, N.Kaldor, J.Meyer va boshqalarning fikricha, shaxsiy iste’molni ixtiyoriy qisqartirib, iqtisodiyotni moliyalash uchun jamgarmalar yetarli emas, davlat soliq tizimi orqali iste’molni majburiy yo‘l bilan qisqartirish kerak. Ayrim hollarda «meyordagi inflyatsiya» dan foydalanish taklif etiladi.

Jamgarmalarni tashqi moliyalash manbalari bo‘yicha turli fikrlar bildiriladi. Ko‘pchilik mualliflar ayniqsa o‘tish davrida chet el mamlakatlari (birinchi navbatda rivojlangan mamlakatlar) tomonidan iqtisodiy va texnikaviy yordam zaruriy chora sifatida ko‘rsatiladi, undan keyin esa bu ishlar «xususiy chet el investitsiyalari» bilan almashadi (P.Rouzenshteyn-Rodan, U.Xiller, G.Meyer).

Rivojlanayotgan mamlakatlarni industrlashtirish strategiyasi bo‘yicha ham turli g‘oyalar mavjud. Ba’zilar (V.Lyuis, P.Bauer) faqat qishloq xo‘jaligi sohasi bilan yengil sanoatni ustun darajada rivojlantirishni taklif etadilar, boshqalar boshida oddiyroq, keyinchalik texnika va texnologiyasi murakkab bo‘lgan tarmoqlarga o‘tishni lozim deb hisoblaydilar. Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish industrializatsiyaning xal qiluvchi sharti sifatida belgilanadi. Amerika iqtisodchilari X.Leybenshteyn va V.Rattenlar qishloq xo‘jaligini texnik rekonstruksiyalashni eng muhim masala deb qaraydi. Bu davrda sanoat qishloq xo‘jaligi uchun kerakli tovarlarni ishlab chiqarishi kerakligini ta’kidlaydi. Bu fikrlarda jon bor, masalan, «ko‘k inqilob»ni amalga oshirgan bir qancha davlatlar eng muhim masala – oziq-ovqat muammosini asosan xal qila oldilar. Lekin shunga qaramasdan sayyoramizda oziq-ovqat masalasini hal etish eng muhim muammodir.

Yana bir eng dolzarb masala bu demografiya muammosidir. BMT ma’lumotlariga ko‘ra, 1945-95 yillar davomida jahonda aholi soni 2,5 milliarddan 5,5 milliardga yetdi (o‘sish 3 milliard), yalpi ichki mahsulot (milliy daromad) 7 trilliondan 22 trillion AQSH dollariga o‘sdi. Lekin aholining asosiy qismi eng tez ko‘payayotgan joylarda iqtisodiy o‘sish sust. O‘z davrida Sharl Furye Yer sharidagi maksimal aholi soni 5 milliarddan oshmasligi kerak, degan g‘oyani aytgan edi. XXI asr boshida 6 milliard aholining iqtisodiy ahvolini o‘ylash kerak bo‘ladi. Shular tufayli nazariya va konsepsiyalar ilgari surilgan.

Shular ichida davlatning iqtisodiy rivojlanishdagi roli masalasi muhimdir, bu xaqda yuqorida fikr yuritilgan edi, ma’lumki, klassik va neoklassik ta’limot tarafdorlari davlatning ishtirokini imkoni boricha cheklashni taklif etsa, Keyns va keynschilar hamda neokeynschilik davlatning ro‘li faol bo‘lishini targ‘ib etadi. Bu holatda ham ana shunday ikki xil qarash xususiyatlidir. Masalan, ingliz iqtisodchisi P.Bauer davlat faqat norentabel sohalar, masalan transport, aloqa, kommunal xo‘jalik, texnik kadrlarni tayyorlash va boshqa tarmoqlar faoliyatiga aralashuvi hamda ularga davlat sektoridan yordam berishi kerak degan g‘oyani ilgari suradi. Boshqa rentabelli tarmoqlar esa xususiy sektor qo‘liga berilishi va u yerda davlatning roli minimal bulishi kerak, deyiladi.

Iqtisodiy rivojlantirishni rejalashtirish (plan) xususiy sektorni qo‘llash, bozor xo‘jaligi defektlarini tugatish uchun kerak deyiladi. Amerikalik iqtisodchi G.Kolm fikricha, kam rivojlangan davlatlarda planlashtirishning maqsadi bozor jarayonini faollashtirishga qaratilishi kerak. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotining g‘arb andozalari

asosida olib borish ham taklif etiladi, bu tarixiy jarayon asosida ro‘y berishi kerak (kapital jamgarish, manufaktura rivoji, dehqonlarni yerdan mahrum etish…). U.Rostou o‘zining «Iqtisodiy o‘sish bosqichlari» nazariyasida shu qoidani isbotlashga urinadi. Boshqa olimlar ham shu qoidaga amal qilib, rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotini sun’iy ravishda tezlashtirishga urinmasliklari kerak, bu davlatlar kapitalistik davlatlar bosib o‘tgan yo‘ldan borishlari maqbul, boshqa yo‘l qidirishga hojat yo‘q, degan g‘oyani qo‘llaydilar. «AQSH tashqi siyosatining siyosiy iqtisodi» kollektiv tadqiqotida rivojlanayotgan davlatlar g‘arbning qisqa va uzoq muddatli manfaatlariga mos keluvchi siyosatni olib borishlari kerak degan xulosa chiqariladi.

Bu tadqiqotdagi go‘ya bo‘yicha jaxon xujaligidagi munosabatlar rivoji boshqa sivilizatsiyalashgan munosabatlar sari borishi kerak va bu jarayon keyingi paytlarda yangi xalqaro iqtisodiy tartib sifatida qaralmokda. Bunda hamma munosabatlar o‘zaro tenglikka asoslangan, barcha mamlakatlar manfaatlarini hisobga oluvchi va adolat tamoyillariga amal qiluvchi iqtisodiy-ijtimoiy aloqalar yangi xalqaro iqtisodiy tartibning asosiy mazmunidir.

Bunday g‘oyaning paydo bo‘lishi avvalgi davrlarda bu munosabatlarda tenglik bo‘lmaganligini tan olish bilan barobar fikrdir. I.Fisher, R.Dornbush, R.Shmalenzilarning ta’kidlashicha, kambag‘al mamlakatlar masalasi kambag‘al janub bilan boy shimol o‘rtasidagi muammolar sifatida tobora kuchayib bormoqda. Janub mamlakatlari o‘z qiyinchiliklarini jahon iqtisodiyotidagi mavjud avvalgi tartibdan deb bilmoqdalar, bu tartib go‘yoki ularga qarshi qaratilgandir. 1974 yilda BMT Bosh Assambleyasi yangi xalqaro iqtisodiy tartib joriy etishni qo‘llab-quvvatlovchi rezolyusiyani qabul qildi (NIEO).

Qabul qilingan yangi tartib uch qoidaga asoslanadi:

1. Xalqaro aloqalar ma’lum tartibga solib turiladi va bu turli davlatlar tomonidan siyosiy yo‘l bilan amalga oshiriladi;

2. Ishlab chiqarilgan tovarlarning davlatlararo taqsimotida rivojlanayotgan mamlakatlar manfaati ham hisobga olinishi shart va shuni ta’minlaydigan yo‘llar yaratilishi kerak;

3. Barcha iqtisodiy munosabatlar tizimi demokratiya asosida olib borilishi zarur, har bir davlat o‘z ichki tuzumidan qat’iy nazar shu munosabatlarda qatnashishga xaqlidir.

Janub birinchi navbatda Shimol tomondan yordam miqdorini oshirishni so‘raydi. Boy mamlakatlar esa berilgan yordamdan samarali foydalanish zarurligini rukach qilmoqda.

Keyingi davrda BMT tomonidan «Insoniy rivojlanish konsepsiyasi» ilgari surildi, unga to‘laroq to‘xtalishni lozim topdik, chunki undagi qoidalar respublikamiz uchun ham nihoyatda ahamiyatlidir. Iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasi daromadning ko‘payishi va insoniy farovonlikning yaxshilanishi orasidagi aloqani va unga to‘laroq to‘xtalishni lozim topdik, chunki undagi qoidalar respublikamiz uchun ham nihoyatda ahamiyatlidir. Iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasi daromadning ko‘payishi va insoniy farovonlikning yaxshilanishi orasidagi aloqani aniqlashda muhim xizmatni ado etadi. Bunday bog‘lanish nafaqat iqtisodiy o‘sishning miqdoriga, balki sifati va qanday taqsimlanishiga ham bogliqdir. Iqtisodiy o‘sish va odamlar xayoti orasidagi bog‘lanish oqil siyosat – ijtimoiy maqsadlar uchun to‘lovlar, daromad va aktivlarni qayta taqsimlashga qaratilgan fiskal siyosat orqali yaratilishi kerak. Bunday bog‘lanish qashshoqlikni kuchaytiruvchi avtomatik tarzda ishlovchi bozor iqtisodiyoti sharoitida mavjud bo‘la olmaydi. Ammo biz ehtiyot bo‘lishimiz kerak. Daromad ko‘payishi bilan insonlar hayotining yaxshilanishi orasidagi avtomatik bog‘liqlikni inkor etish iqtisodiy o‘sishni inkor qilish emasdir. Iqtisodiy o‘sish kambag‘al jamiyatlar uchun qashshoqlikni kamaytirish va umuman yo‘qotishda juda muhim. Lekin bunday o‘sish sifatining ahamiyati uning hajmidan muhimroq. Dono milliy siyosat iqtisodiy o‘sishni odamlar hayotini yaxshilashga o‘gira olishi kerak. Buni qanday qilib amalga oshirish mumkin? Bu iqtisodiy va siyosiy hokimiyatda katta strukturaviy o‘zgarishlarni talab qilishi mumkin, bu sohada insoniy rivojlanish paradigmasi juda inqilobiydir. U ko‘p mamlakatlarda amaldagi hokimiyat tizimini qayta ko‘rib chiqishni talab etadi. Iqtisodiy o‘sish va odamlar farovonligi orasida bog‘liqlikning kuchayishi ko‘p vaqt talab etuvchi yer reformasi, soliqlarning progressiv tizimi, asosiy ijtimoiy yordamning kuchaytirilishi, uni barcha muhtoj aholiga yetib boradigan qilish, odamlarning iqtisodiy va siyosiy faoliyatlari yo‘lidagi to‘siqlarning yuqotilishi hamda ularning boylikka ega bo‘lish huquqini tenglashtirish va bozor iqtisodiyoti bilan boglik, iqtisodiy siyosiy say-harakatlardan eng ko‘p ozor chekishi mumkin bo‘lganlarga vaqtinchalik ijtimoiy xavfsizlik tizimini joriy qilish kabi bir qancha chora-tadbirlarni talab etishi mumkin. Bunday siyosiy faoliyat fundamental va har bir mamlakat uchun farqlidir. Ammo ba’zi bir xususiyatlar hamma mamlakatlar uchun umumiy.

*Birinchidan,* inson muammolari markaziy muammoga aylanadi. Rivojlanish odamlar farovonligining oshishi nuqtai nazaridan tahlil qilinadi va tushuniladi. Har qanday faoliyat unda qancha odam

qatnashganligi va foydalanganligi nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Rivojlanish siyosatining muvaffaqiyatli bo‘lishining burilish nuqtasi sifatida ishlab chiqarishning ko‘payishi emas, balki insonlar xayotining yaxshilanishi olinadi.

*Ikkinchidan*, insoniy rivojlanish ikki tomondan iborat ekanligi nazarda tutiladi. Birinchisi – yaxshi sog‘liq, salomatlik, chuqur bilim, va hunarlar kabi insoniy qobiliyatlar majmuasi bo‘lsa, ikkinchisi – ish bilan ta’minlanganlik, ishlab chiqarish faoliyati, siyosiy faoliyat va xordiq chiqarish kabi erishiladigan qobiliyatlarga ega bo‘lish yo‘lidagi odamlar dunyoqarashini oshirishdir. Bu ikkala tomon me’yorining insoniy rivojlanish tomonidan tartiblanmaganligi insonlar rejalarining talafotida o‘z aksini topadi.

*Uchinchidan*, pirovard maqsadlar va ularga erishish usullari orasida aniq farq o‘tkazilishi zarur. Odamlar maqsad sifatida qaralishi kerak bo‘lsa-da, unga erishish usullari yoddan chiqmasligi kerak. Yalpi milliy mahsulotning (YAMM) o‘sishi ko‘pgina insoniy farovonlik ko‘rsatkichlari o‘sishining muhim omilidir. Ammo iqtisodiy o‘sishning harakteri va taqsimlanishi odamlar hayotini boyitishga nisbatan o‘lchanish zarur.

*Turtinchidan*, insoniy rivojlanish faqat iqtisodiyotni emas, balki butun jamiyatni qamrab oladi. Siyosiy, madaniy va ijtimoiy omillarga iqtisodiy omillarga kabi e’tibor beriladi.

*Beshinchidan*, odamlar rivojlanishning maqsadi va erishish omili ekanligi tan olinadi. Odamlar materialistik mashina uchun qulay yem emas, balki rivojlanishning oxirgi maqsadi ekanligi doim yodda bo‘lishi kerak. Odamlar tovar ishlab chiqarishning «insoniy kapital» niqobi ostidagi quroli emasligi ko‘zda tutilishi kerak.

Xo‘sh, mamlakatning insoniy rivojlanish darajasi qanday baholanadi? Bu muammoning zamonaviy yechimlariga bir oz to‘xtalamiz. Mamlakatning rivojlanganlik darajasini baholashning yaqingacha yagona usuli jon boshiga YAMM bo‘lganligi sababli, mukammalroq ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichni kashf qilish davr talabi edi. Izlanishlar natijasida insoniy rivojlanish indeks (IRI) ko‘rsatkichi kashf etildi. IRI inson rivojlanish darajasini ko‘rsatuvchi uch asos umrboqiylik, ta’lim va yashash darajalaridan iborat integral ko‘rsatkichdir. Uzoq umr qurish kutilayotgan xayot davomiyligi orqali o‘lchanadi. Ta’lim darajasi ko‘rsatkichning 2/3 qismini tashkil etuvchi katta yoshlilar savodxonligi va 1/3 qismini xosil qiluvchi ta’limning o‘rtacha davomiyligi ko‘rsatkichlari orqali ifodalanadi. Yashash xayotning mahalliy qiymati (sotib olish

pariteti yoki RRR – «purchasing power parity») ga nisbatan tug‘rilangan jon boshiga real yalpi ichki maxsulot (YAIM) orqali baholanadi. Nimaga faqat uch ko‘rsatkich? – degan savol tug‘ilishi tabiiy. Inson xayotining hamma jabhalarini aks ettirish a’lo bular edi. Ammo ma’lumotlarning to‘liq emasligi bir oz cheklanishlar tug‘diradi va bu ma’lumotlarga ega bo‘linganda, balki ularni ham hisobga olish ayni muddao bo‘lar edi. Ammo ko‘prok ko‘rsatkichlarni qo‘shish har doim ham yaxshiroq natijalarga olib kelavermaydi. Ularning ba’zi birlari ishlatilayotgan ko‘rsatkichlar bilan korrelyatsiya qilingan bo‘lishi mumkin. Bolalar o‘limi darajasi, masalan, kutilayotgan hayot davomiyligida o‘z aksini topgan. O‘zgaruvchilarning ko‘proq sonini qo‘shish umumiy manzarani xiralashtiradi va asosiy yo‘nalishlardan chalg‘itadi.

## 17.4. Insoniy rivojlanish konsepsiyasi

Insoniy rivojlanish tushunchasi so‘nggi yillarda barqaror rivojlanish g‘oyasi bilan to‘ldirildi. Buning ma’nosi shuki, hozirgi avlodning insoniy rivojlanish jarayoni kelajak avlod insoniy rivojlanishi hisobiga ro‘y bermasligi darkor. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi dastlab atrof-muhitni muhofaza qilish harakati tomonidan kiritildi, bu harakat namoyandalari rivojlanish tushunchasi «avlodlar o‘rtasidagi munosabatlar» kabi g‘oyani ham o‘z ichiga olishini himoya qilmoqdalar. Tabiiy resuslarning kamayib borishi kelajak avlodlarning rivojlanishi muammolarini keltirib chiqarishi mumkin. «Barqaror rivojlanish» konsepsiyalari atrof-muhit va tabiiy resurslar doirasidagina qo‘llanilishi mumkin bo‘lmay, balki insoniy imkoniyatlar, «insoniy kapital»ga qo‘yiladigan investitsiyalarga ham tegishlidir.

Insoniy rivojlanish konsepsiyasi BMT Taraqqiyot Dasturi (FNDP) tomonidan izchil targ‘ib qilinib kelinmoqda. Bu sohadagi izlanishlar yillik «*Insoniy rivojlanish bo‘yicha hisobotlar*» (*Human Development Report*) ko‘rinishida chop etilmoqda. 1988 yilda boshlangan o‘n yillik BMT Taraqqiyot dasturi tomonidan barqaror ijtimoiy rivojlanish o‘n yilligi deb e’lon qilingan. Bu o‘n yil davomida ijtimoiy masalalarning ko‘pgina jabxalariga tegishli o‘nta butunjahon anjumanlari o‘tkazilishi mo‘ljallangan. 1995 yil mart oyida Kopengagenda o‘tkazilgan oliy martabali ijtimoiy rivojlanish konferensiyasi va 1995 yil sentyabr oyida Pekinda o‘tkazilgan ayollar muammolarga bagishlangan koyeferensiyalar (1995 yilgi «Insoniy rivojlanish buyicha hisobot» erkak va ayollar orasida tenglikka erishish masalalariga bagishlangan) anna shular jumlasidandir. Har ikkala anjumanda o‘ta muhim zamonaviy masalalarga javob topishga

harakat qilindi. Xususan, Kopengagen anjumanida 160 ga yaqin davlat boshliqlari ishtirok etdi (unda Respublikamiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ham ishtirok etdi). Unda Butunjahon Ijtimoiy Deklaratsiyasi qabul qilindi va harbiy sohaga sarf qilinayotgan harajatlarni insoniy rivojlanish maqsadlariga safarbar qilish yo‘llari muhokama qilindi.

1995 yildan boshlab BMT Taraqqiyot milliy darajada ham «Insoniy rivojlanish bo‘yicha hisobot»larni nashr qilishda yangi mustaqil mamlakatlarga ko‘mak bera boshladi. 1995 yil uchun anna shunday hisobotning O‘zbekistonda chop etilishi bu say-harakatlarning muvaffaqiyatli tugaganidan dalolat beradi. Eslatib o‘tilgan bu hisobot O‘zbekiston mustaqillika erishgandan buyon insoniy rivojlanish borasida erishilgan yutuqlar va yuqotilishi kerak bo‘lgan kamchiliklar haqidadir. Kelajakda shunday hisobotlarni doimiy asosda chop etish mo‘ljallanmoqda. Bu ezgu yo‘lda BMT Taraqqiyot Dasturining ko‘rsatayotgan yordami beqiyosdir (O‘zbekistonda 2000 yilgi dastur ham e’lon qilindi).

Bunday hisobotlar o‘zbekistonlik mutaxasislar va BMT ekspertlarning birgalikdagi mehnatining mevasidir. Bu hisobotlar keng dunyo ommasiga taqdim etiladi va o‘zbekistonda insoniy rivojlanish qay xolda ekanligini dunyoga bildiradi.

O‘zbekistondagi ijtimoiy rivojlanish konsepsiyasining asosini aynan inson va uning manfaatlari tashkil etadi. U insonni pirovard maqsad va rivojlanish asosi deb qaraydi. Hozirgi davrdagi mavjud konsepsiyalar xoh markazlashtirilgan iqtisodiyotda moddiy mahsulotning yoki bozor iqtisodiyotda moddiy maxsulotning yoki bozor iqtisodiyotida ichki maxsulotning o‘sishi bo‘lsin, tovar ishlab chiqarishni eng asosiy maqsad deb bilgan. Undan tashqari, bu asosiy maqsad, ya’ni jon boshiga tovar ishlab chiqarishning o‘sishi, jismoniy kapitalni jamgarish hisobiga erishilgan. Ya’ni eskicha fikrlash doirasida qo‘shimcha o‘sish pirovard maqsad bo‘lsa, investitsiyalar esa unga erishish vositasi hisoblangan.

Har qanday jamiyatlarning rivojlanishida ularning bir holatdan boshqasiga o‘tish davrlari eng mushkul, og‘ir bo‘lib hisoblanadi. Bu bir hayot tarzining buzilishi va yangisining yaratilishi davomida vujudga keladigan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy harakatlardagi murakkabliklar bilan bog‘liqdir.

Jamiyatni bunday tubdan o‘zgarishi beozor o‘tishi mumkin emas. Bu o‘sish istar-istamas yuzlab va minglab odamlar, oilalar, milliy va jamoat guruhlari, butun davlatning ijtimoiy ahvoli, moddiy farovonligi, taqdirlariga dahldor bo‘ladi.

O‘zbekiston hukumati islohotlarining insonlar hayoti va farovonligiga salbiy ta’sirini imkoni boricha kamaytirish maqsadida yangi iqtisodiy va ijtimoiy tizimga bosqichma-bosqich o‘tish yo‘lini tanladi.

O‘zbekiston uchun hozirgi bosqichda birinchi va muhim vazifa bu bozor islohotlarini o‘tkazishda jadallashtirishga asos bo‘lgan, makroekonomik barqarorlikni ta’minlashdir. Chunki bu aholi turmush darajasini yetarli ta’minlashning tabiiy asosni tashkil etuvchi kelgusi iqtisodiy o‘sish zaminidir. Masalaning murakkabligi shundaki, makroekonomik siyosatning kuchaytirilishi sharoitida ijtimoiy ehtiyojlarga harajatlarni keskin kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi kerak, chunki insoniy resurslarga qo‘yilgan mablag‘’lar ularning kelajakda barqaror rivojlanish asosigina bo‘lib qolmasdan, hozirgi davrda osoyishta ijtimoiy sharoitning kafolatlanishini ham ta’minlaydi. O‘zbekiston uchun bu juda muhimdir, chunki u qo‘shni mamlakatlarda harbiy to‘qnashuvlar davom etayotgan mintaqada joylashgan. Davlat o‘tish davrining murakkabliklarini hisobga olgan holda o‘z oldiga aholining iste’mol darajasining keskin pasayib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik, ma’lum ta’lim tizimini qo‘llab-quvvatlash, aholini sog‘liqni saqlash xizmatlari bilan ta’minlash, yangi bozor munosabatlari sharoitlariga moslashishi qiyinroq bo‘lgan aholi qatlamlarini qo‘shimcha ijtimoiy yordam bilan ta’minlash, mamlakatning har bir mehnatga layoqatli fuqarosi o‘z ijobiy kuchlarini namoyon etishi, mustaqil ravishda o‘zi va oilasi uchun yaxshi hayotni ta’minlashi uchun sharoit yaratish vasifasi qo‘yilgan.

O‘tishning dastlabki bir necha yilida talay qiyinchiliklar qayd etildi, ammo hukumat iqtisodiy va ijtimoiy siyosat yurg‘izish yo‘li bilan aholini tushkunlik sharoitida shak-shubhasiz ro‘y beradigan asosiy larzalardan himoya qila oldi.

Mamlakat, shuningdek, boy tabiiy resursalardan foydalanishning puxta o‘ylangan yondashuvi asosida kattagina mablag‘larni jalb qilishga erishdi. Natijada ishlab chiqarishning pasayishi MDH mamlakatlariga nisbatan ancha kam bo‘ldi, 1996-yildan o‘sish boshlandi. Undan tashqari davlat ishlab chiqarish hajmlari pasayishiga qaramay, aholini ish bilan ta’minlashning yuqori darajasiga erishish uchun barcha tadbirlarni qo‘lladi. Ishlab chiqarishning pasayishi va inflyatsiyaning ko‘tarilishi tufayli real ish xaqi keskin pasaydi, ammo respublika ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning keng qamrovli hukumat dasturi yo‘li bilan aholining iste’mol darajasini qo‘lladi.

Albatta aholini qo‘llovchi keng qamrovli dasturni uzoq vaqt mobaynida ta’minlash qiyin masala hisoblanadi. Ammo islohotning

dastlabki bosqichida bu madad kelajakda isloxotlarning amalga oshishi uchun siyosiy va iqtisodiy barqarorlikni saqlash va milliy birdamlikka erishishda nihoyatda muhimdir. Respublika amalda muhim ustunliklarga ega va oqilona iqtisodiy siyosat amalga oshirilganda o‘tishni muvaffaqiyatli yakunlashi aniq.

Jahon xo‘jaligi, jahon bozori va integratsion jarayonlarning uzoq tarixi bor. Ayniqsa, Buyuk ipak yo‘li (m.a. II asrda) davrida aniq namoyon bo‘lgan jarayon XVI asrda buyuk geografik kashfiyotlar tufayli kuchaydi. II Jaxon urushidan keyingi davrda esa bu xalqaro iqtisodiy munosabatlar maxsus tashkilotlar orqali amalga oshirilib, hozirgi davrni ularsiz tasavvur etish mumkin emas. «Benilyuqs» (1944y.), Umumiy bozor (1957y.), Yevropa ittifoqi, OPEK (1960y.), NAFTA, EKO, Xalqaro valyuta fondi, Ja-xon banki va boshqa xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bu aloqalarni ma’lum tartibga solib kelmoqdalar.

A.Smit mehnat taqsimoti ishlab chiqarishda taraqqiyot asosi ekanligini isbotlab bergan bo‘lsa, D.Rikardo bu mehnat taqsimoti faqat ma’lum mamlakat doirasidagina emas, balki dunyo miqyosida bo‘lishi kerak, degan g‘oyani ilgari surdi. Chunki har bir davlat ma’lum sohada nisbiy ustunlikka ega bo‘ladi. «Nisbiy ustunlik», «solishtirma chiqimlar» nazariyasi xalqaro mehnat taqsimotining obyektiv zarurligini isbotlab berdi.

Bu borada bir qancha iqtisodiy ta’limot, nazariya va konsepsiyalar ilgari surildi.

Xalqaro iqtisodiy aloqalar bo‘yicha neoklassik (sof ta’limot) va neokeynschilik nazariyalari keng tarqalgan. «Sof» ta’limot tarafdorlari fikricha, iqtisodiy aloqalar xalqaro maydonda ham erkin bozor tamoyili asosida rivojlanishini qo‘llaydilar (erkin raqobat, hamma uchun bir xil imkoniyat, taklif doimo talabni vujudga keltiradi, savdo balansi o‘z-o‘zini tartibga soladi va boshqalar).

Neokeynschilik ta’limoti vakillari bu jarayondagi bozor munosabatlariga davlatning faol ishtirokini ma’qul ko‘radilar.

Mustamlakachilik mamlakatlari bilan xalqaro munosabatlar bo‘yicha turli nazariyalar mavjud, ularning ko‘pchiligi metropoliya koloniyalari uchun ijobiy ro‘l o‘ynaganligini himoya qiladi. Bevosita investitsiyalar nazariyasi mustamlakachilikda ham bo‘lib, mustaqil rivojlanish yo‘liga o‘tgan mamlakatlarda iqtisodiyotni qutqarishdagi asosiy yo‘l deb hisoblanadi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar rivoji bilan birga bir qancha muammolar mavjud, bu odatda boy va nisbatan qoloq mamlakatlar

o‘rtasidagi munosabatlardir. 70-yillarda yangi xalqaro iqtisodiy tartib qabul qilindi. Mavjud muammolarni hal etish uchun BMT tomonidan «insoniy rivojlanish» konsepsiyasi taklif etilgan.

## Asosiy tushuncha va iboralar

Jahon xo‘jaligi; mehnat taqsimoti; ixtisoslashuv; integratsiya; mutlaq afzallik; Xeksher-Olin-Samuelson modeli; investitsiya; kapital harakati; rivojlanayotgan mamlakatlar; insoniy rivojlanish konsepsiyalash quvvati; xalqaro iqtisodiy ittifoqlar.

## Nazorat va mulohaza uchun savollar

1. Jahon xo‘jaligi deganda nimani tushunamiz va u qachon vujudga kela boshlagan?
2. Xalqaro iqtisodiy integratsiya nima, uning obyektiv zarurati nimaga asoslanadi?
3. Solishtirma afzallik konsepsiyasi, solishtirma xarajatlar prinsipi nimani anglatadi?
4. «Ishlab chiqarish omillarining xalqaro taqsimoti; nazariyasining asoslari nima?
5. Kapital chiqarishning neokeynschilik ta’limoti qachon shakllandi va uning mohiyati nima?
6. Xalqaro monopoliyalar (transmilliy korporatsiyalar) nima?
7. Iqtisodiy integratsiya to‘grisidagi nazariyalarga ta’rif bering.
8. Valyuta munosabatlarining mohiyati nima, valyutaning elastik kursi qaysi omillarga bog‘liq?
9. Jahondagi asosiy iqtisodiy va ijtimoiy muammolar nimalardan iborat? Mamlakatlar rivojlanishidagi notekislik sabablari nima?
10. Rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy ahvoli va uni yaxshilashga oid nazariyalarni ta’riflab bering.
11. Yangi xalqaro iqtisodiy tartibning mohiyati nima, unga qachondan o‘tila boshlanadi? Bu tartib qanday qoidalarga asoslanadi?
12. «Insoniy rivojlanish konsepsiyasi»ning mohiyati nimalardan iborat?

# XVIII BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI MA’MURIY-BUYRUQBOZLIK TIZIMIDAN BOZOR MUNOSABATLARIGA O‘TISH DAVRI KONSEPSIYASI

*Yangi O‘zbekistonni dunyoni taraqqiy topgan, ijtimoiy iqtisodiy barqaror o‘sayotgan va inson kapitali bo‘lgan demokratik davlatlari qatoriga kirishini ta’minlash – barqaror rivojlanish strategiyamizning mazmun va mohiyatini tashkil etadi.*

***Sh.M.Mirziyoyev***

## 18.1. O‘zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarini shakllantirishning “O‘zbekcha modeli”

O‘zbekiston Respublikasi 1991-yilda O‘z mustaqilligiga erishgandan so‘ng O‘z oldiga jamiyatni iqtisodiy jihatdan barqarorligini ta’minlash bo‘yicha o‘z yo‘lini tanlab olishi zarur edi. Qariyb 21 millionga yaqin aholini turmush farovonligini rivojlangan mamlakatlar darajasigacha ko‘tarish asosiy maqsad qilib olingan edi. O‘sha davrda sobiq SSSR dan “me’ros qolgan” agrar xarakterga ega bo‘lgan iqtisodiyot qolaversa sanoatdagi nafaqat ma’naviy eskirgan, balkim, jismonan eskirgan ishlab chiqarish vositalari, butun bir mamalakatni SSSR ning xom ashyo bazasuga aylantirilganligi mamlakatimiz iqtisodiyotini achinarli holga tushurib qo‘ygan edi. Bunday vaziyatda aholining 3 dan 1 qismi mehnatga layoqatli bo‘lib turganda 3 dan 2 qismi esa yosh bolalar va nafaqa yoshidagilar tashkil qilgan bo‘lsa O‘zbekiston Respublikasida rivojlangan mamlakatlarning bozor munosabatlariga o‘tish andazasini ko‘r-ko‘rona qo‘llab bo‘lmas edi. Sotsializm iqtisodiyotining salbiy oqibatlari vatanimiz iqtisodiyotini keskin sur’atlar bilan yangi bir modelni qo‘llash imkoniyatiga ega emas edi. Shuning uchun mamlakatimizning qulay geografik joylashuvi iqtisodiyotning agrar xarakterga ega ekanligi, aholining asosiy qismi ijimoiy himoyaga muhtojligi, aholining umumiy sonidan yarmidan ko‘p qismi qishloq joylarida yashahsi kabi omillar inobatga olinib ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor munosabatlarini shakllantirish modeli ishlab chiqildi. O‘zbekiston o‘ziga xos ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor munosabatlarini shakllantirish shunday yo‘nalishini tanladikim, dunyoda bunday model, bunga o‘xshash yo‘l yo‘q.

O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor munosabatlarini shakllantirish quyidagi 5 ta prinsplarga asoslanib islohotlar amalga oshirildi:

1. Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi. Iqtisodiy munosabatlarni siyosatdan tashqari holatda shakllantirish asosiy maqsad qilib belgilandi. Bunda har qanday muammoni, jumladan, tashqi chet el davlatlari bilan iqtisodiy munosabatlar davlatning milliy manfaati nuqtai nazaridan amalga oshirish ustuvorligi ta’minlanishi kerak. Ayanan shu tamoyilga asosan Sobiq ittifoqdan qolgan inqiroz unsurlarini bartaraf etib, mamlakatimizning milliy maqsad va manfaatlari sari islohotlat amalaga oshirildi

2. Davlat bosh islohotchi . Har qanday iqtisodiy islohotlarning tashabbuskori sifatida davlat asosiy rol o‘ynaydi. Bu davrda davlat normativ me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqib, uni hayotga tatbiq eta boshladi.

3. Qonun ustuvorligiga erishish. Davlat tomonidan ishlab chiqilgan qonunlar davlatning siyosiy barqarorligini, aholining ijtimoiy muhofazasi manfaatlarini ko‘zlagan holda ishlab chiqilgan qonunlar faqatgina qog‘ozda bo‘lmasdan, balkim, amalda joriy etish asosiy vazifalardan biri deb belgilandi

4. Kuchli ijtimoiy siyosat. Mamlakatda olib borilayotgan har qanday islohotlar 1-navbatda aholining manfaatini ko‘zlagan holda ishlab chiqilishi lozim va bosqichma bosqich amalga oshirish alohida ta’kidlandi. O‘sha davrda aholining asosiy qismi yosh bolali oilar va keksa nafaqaxo‘rlardan iborat edi.

5. Bozor iqtisodiyotiga evolyutsion bosqichma bosqich o‘tish. Markazlashtirilgan boshqaruvdan asta-sekinlik bilan bozor munosabatlarini shakllantirib borish. Bunday vaziyatda shoshmashosharlikka yo‘l qo‘ymasdan asta sekinlik bilan aholi manfaatlarini ko‘zlagan holda evolyutsion yo‘l bilan bozor munosabatlariga o‘tish asosiy vazifalardan biri etib belgilandi.

Bunday tamoyillarni inkor etib bozor munosabatlarini shakllantirish salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin edi.

## 18.2. 2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi

O‘zbekiston respublikasida iqtisodiyotni rivojlantirish uchun yetarli darajada normativ me’yoriy qonun qoidalar qabul qilinib, xalq xo‘jaligin g

barcha tarmoqlarida bosqichma bosqich, shoshmashosharlikka yo‘l qo‘ymasdan tobora ko‘proq bozor munosabatlari shakllantirildi. Natijada 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirish bo‘yicha “harakatlar strategiyasi” ishlab chiqildi. Harakatlar strategiyasida ham bozor munosabatlartini shakllantirish bo‘yicha taklifklar berilib, iqtisodiyotni rivojlantirish tamoyillar ishlab chiqildi.

Jamiyatda iqtisodiyotni jadal sur’atlarda rivojlantirish uchun yetarli darajada shart shaoitlar yaratilgan bo‘lib mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish uchun yangi bosqichdagi rivojlanish daastruini ishlab chiqarish lozim.

1. Aholi va tadbirkorlarni o‘ylantirayotgan dolzarb masalalarni har tomonlama o‘rganish, amaldagi qonunchilik, huquqni qo‘llash amaliyoti va ilg‘or xorijiy tajribani tahlil qilish, shuningdek keng jamoatchilik muhokamasi natijasida ishlab chiqilgan hamda quyidagilarni nazarda tutadigan 2017—2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi

davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga yo‘naltirilgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlamentning hamda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, “Elektron hukumat” tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish;

qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga yo‘naltirilgan sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, ma’muriy, jinoyat, fuqarolik va xo‘jalik qonunchiligini, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimi samarasini oshirish, sud jarayonida tortishuv tamoyilini to‘laqonli joriy etish, yuridik yordam va huquqiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilash;

iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo‘naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo‘yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish

va uning ustuvor mavqeyini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag‘batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish;

ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo‘naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoyasi va sog‘lig‘ini saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo‘l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo‘yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta’lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san’at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish;

xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash, chuqur o‘ylangan, O‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga yo‘naltirilgan davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, O‘zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo‘shnichilik muhitini shakllantirish, mamlakatimizning xalqaro nufuzini mustahkamlash.

## 18.3. Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi

Mamlakat tarixidagi iqtisodiyotni rivojlanish holatiga to‘liq baholasak Harakatlar strategiyasidagi qo‘yilgan maqsad va vazifalar amalga oshirildi. Mamlakat iqtisodiyotini harakatlar strategiyasidagi tamoyillarga asoslanib O‘zbekiston respublikasining prezidenti SH.M.Mirziyoyev 2021-yil 6-noyabrdagi inauguratsiyasidagi so‘zlagan nutqida harakatlar strategiyasidan taraqqiyot strategiyasiga o‘tish asosiy vazifa qilib belgilanishi lozimligi ta’kidlab o‘tildi.

1. Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish yo‘nalishida quyidagi maqsadlarga erishishga qaratilgan 41 ta chora-tadbir belgilanmoqda:

– xalq bilan muloqotning mexanizmlari va ta’sirchan jamoatchilik nazoratining asoslarini takomillashtirish, “Obod qishloq”, “Obod mahalla” va boshqa hududiy dasturlar ochiq e’lon qilinib, keng jamoatchilik fikri asosida ishlab chiqiladigan tizimni yaratish;

– mahallaning “faol modeli”ni joriy etish, uni aholining muammolarini bevosita hal qilish hamda hududni rivojlantirish uchun zarur resurs va imkoniyatlar bilan ta’minlash;

– “Elektron parlament” doirasida deputatlarni o‘z saylovchilari bilan, senatorlarni hududlardagi fuqarolar bilan bog‘lash, ular bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot olib borish, saylovchilarni qiynayotgan muammolarni muhokama qilish va hal etish jarayonini raqamlashtirish;

– xalq deputatlari Kengashlarini hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi turmush darajasini oshirish, mahalliy budjetni shakllantirish va nazorat qilishdagi asosiy bo‘g‘inga aylantirish hamda mahalliy davlat hokimiyati faoliyatining asoslarini yangilash;

– davlat organlari faoliyatini “fuqaroga xizmat qilishga yo‘naltirish” g‘oyasi asosida transformatsiya qilish, ular tomonidan markaziy tuzilma va hududlar kesimida “mahallabay” ishlashga qaratilgan yillik dasturlarni e’lon qilish va muhokama qilish tartibini joriy etish;

– ixcham, professional, yuqori natijadorlikka xizmat qiladigan davlat boshqaruvi tizimini joriy etish, davlat xizmatini zamonaviy standartlar asosida tashkil qilish va byurokratiyani bartaraf etish;

– “Elektron hukumat” tizimini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarining ulushini amaldagi 54 foizdan 100 foizga yetkazish, davlat xizmatlari qamrovini oshirish.

2. Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish yo‘nalishida quyidagi maqsadlarga erishishga qaratilgan 28 ta chora-tadbir belgilanmoqda:

– mulk huquqi daxlsizligini ishonchli himoya qilishni ta’minlash va qaror (harakat) noqonuniy emasligini sudda isbotlash majburiyatini mansabdor shaxsning o‘ziga yuklash (“aybdorlik prezumpsiyasi”);

– fuqarolarni yashash joyi bo‘yicha hisobga olish (“propiska”) tizimini yanada soddalashtirish va aholiga qo‘shimcha qulayliklar yaratish, tekshirish uchun fuqaroni ichki ishlar bo‘limiga olib boorish o‘rniga barcha ma’lumotlarni joyida tekshirish tartibini joriy etish;

– jinoyat qonunchiligini liberallashtirish siyosatini izchil davom ettirish, jazoni o‘tab bo‘lganlarni jamiyatga reintegratsi qilish va ularga tadbirkorlik loyihasini amalga oshirish uchun “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”ni berish tizimini joriy etish;

– ma’muriy adliyani rivojlantirish orqali, davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o‘rnatish;

– yo‘l inftratuzilmasini takomillashtirish va xavfsiz harakatlanish sharoitlarini yaratish orqali, yo‘llarda o‘lim holatlarini keskin qisqartirish bo‘yicha dastur qabul qilish;

– huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangi qiyofasini shakllantirish, ularning faoliyatini xalq manfaatlariga xizmat qilish hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlashga yo‘naltirish;

– advokatura institutining inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda salohiyatini tubdan oshirish, uning institutsional mustaqilligini ta’minlash.

3. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, uning o‘sish sur’atlarini zamon talablari darajasida ta’minlash yo‘nalishida quyidagi maqsadlarga erishishga qaratilgan 133 ta chora-tadbir belgilanmoqda:

– aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi ichki mahsulotni– 1,6 baravar hamda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravar ko‘paytirish;

– bank tizimida xususiy sektor ulushini amaldagi 18 foizdan 60 foizgacha oshirish hamda fond bozori hajmini 7 mlrd dollarga yetkazish;

– qo‘shilgan qiymat solig‘ini amaldagi 15 foizdan 12 foizgacha, telekommunikatsiya, bank va moliya kabi sohalarda foyda solig‘ini amaldagi 20 foizdan 15 foizgacha tushirish;

– iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish va havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini 10 foizga qisqartirish;

– raqamli iqtisodiyot hajmini 2,5 baravar ko‘paytirib, dasturiy mahsulotlar industriyasi hajmini 500 mln. dollarga yetkazish;

– iqtisodiyotga 120 mlrd, shu jumladan 70 mlrd dollar miqdorida xorijiy investitsiyalarni jalb etish, eksport hajmini 30 mlrd
dollarga yetkazish;

– dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo‘jaligining yillik O‘sishini kamida 5 foizga yetkazish;

– suv resurslarini boshqarish tizimini tubdan isloh qilish va suvni tejash bo‘yicha alohida davlat dasturini amalga oshirish, har yili kamida 7 mlrd m3 suvni tejash;

– chorvachilik ozuqa bazasini kengaytirish va ishlab chiqarish hajmini 1,5-2 baravar ko‘paytirish;

– meva-sabzavotchilikni rivojlantirish, intensiv bog‘lar maydonini 3 baravar va issiqxonalarni 2 baravar ko‘paytirib, eksport salohiyatini 1 mlrd dollarga oshirish;

– sharoiti “og‘ir” bo‘lgan 14 ta tumanlarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun pasaytirilgan soliq stavkalarini O‘rnatish;

– “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qiling” dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 mln nafardan oshirish hamda xorijiy turistlar sonini 9 mln nafarga yetkazish.

4. Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish yo‘nalishida quyidagi maqsadlarga erishishga qaratilgan 55 ta chora-tadbir belgilanmoqda:

– maktabgacha ta’limning qamrov darajasini 67 foizdan 80 foizga yetkazish, nodavlat bog‘chalarga va maktablarga farzandini yuborayotgan ota-onalarning 3 mln so‘mgacha to‘lovlarini daromad solig‘idan ozod etish;

– maktablarni rivojlantirish milliy dasturini joriy etish orqali xalq ta’limi tizimida qo‘shimcha 1,2 million o‘quvchi o‘rni yaratish hamda darsliklarni yangilash uchun Davlat budjetidan 605 mlrd so‘m ajratish;

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida 1-4-sinf O‘quvchilarini bepul ovqat bilan ta’minlash tizimini joriy etish;

– oliy ta’limga qamrov darajasini amaldagi 28 foizdan 50 foizga yetkazish hamda davlat-xususiy sheriklik asosida 100 ming o‘rinli talabalar turar joylarini barpo etish;

– maktab o‘quvchilarining kamida bir kasbni egallashiga ko‘maklashish tizimini joriy etish;

– budjetdan dori vositalari va tibbiy buyumlarga ajratilgan mablag‘’larni 3 baravar oshirish, mamlakatda ishlab chiqariladigan dori vositalari miqdorini 80 foizga yetkazish;

– tibbiy xizmatlardagi xususiy sektorning ulushini 25 foizga yetkazish, “oilaviy shifokor” yo‘nalishi bo‘yicha mustaqil faoliyatni amalga oshirishga ruxsat berish;

– hududlarda birlamchi tibbiy-sanitariya xizmatining faoliyati “bir qadam” tamoyili asosida yo‘lga qo‘yilib, 105 ta oilaviy shifokor punkti va 31 ta oilaviy poliklinika tashkil etish;

– jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanadigan aholini 33 foizga chiqarish, mamlakatimizda Olimpiya va Paralimpiya harakatini rivojlantirish.

5. Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash, ushbu sohani tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish yo‘nalishida quyidagi maqsadlarga erishishga qaratilgan 33 ta chora-tadbir belgilanmoqda:

– “Harakatlar strategiyasidan – taraqqiyot strategiyasi sari” g‘oyasi asosida sog‘lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish;

– kitobxonlikni keng ommalashtirish va “Kitobsevar millat” umummilliy g‘oyasini ro‘yobga chiqarish;

– jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglik muhitini mustahkamlash;

–O‘zbekiston tarixini o‘rganish va targ‘ib qilishni rivojlantirish;

– “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasini amalga oshirish, shuningdek, 183 ta tuman va shaharlarda Ma’naviyat va ma’rifat maskanlarini barpo etish va foydalanishga topshirish;

–madaniyat va san’at sohalarini yanada rivojlantirish, madaniyat muassasalari va ob’ektlarining moddiy-texnik bazasini yaxshilash.

6. Umumbashariy muammolarga milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda yechim topish yo‘nalishida quyidagi maqsadlarga erishishga qaratilgan 39 ta chora-tadbir belgilanmoqda:

– xalqaro maydonda atrof muhitga oid tashabbuslar, shu jumladan Butunjahon ekologiya xartiyasini ishlab chiqishni ilgari surish;

– Orol dengizining tubida qo‘shimcha 500 ming gektar yashil maydonlarni barpo etib, umumiy hajmini 2,5 million gektarga yetkazish;

– ekstremizm va terrorizm, ayniqsa uning zamonaviy ko‘rinishlariga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini shakllantirish;

–yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish orqali kambag‘allik va ishsizlik darajasini kamida 2 baravar qisqartirish;

–kasbga o‘qitish ko‘lamini 2 baravar oshirib, jami 1 million ishsiz kishini kasb-hunarlarga o‘qitish va bu jarayonda nodavlat ta’lim muassasalarining ishtirokini 30 foizga yetkazish;

–jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat xizmatchilarining daromad va mol-mulklarini deklaratsiya qilish tizimi bosqichma-bosqich joriy etish;

–xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi siyosatini olib borish;

– “Vatandoshlar” jamoat fondi orqali xorijiy davlatlardagi yurtdoshlar bilan doimiy va samarali aloqalar o‘rnatish.

7. Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq va pragmatik, faol tashqi siyosat olib borish yo‘nalishida quyidagi maqsadlarga erishishga qaratilgan 77 ta chora-tadbir belgilanmoqda:

– fuqarolarning axborot olish va tarqatish erkinligi borasidagi huquqlarini yanada mustahkamlash

–davlatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash va harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish;

– favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan ekologik muammolarni bartaraf etish;

–Markaziy Osiyoda xavfsizlik, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalardagi yaqin hamkorlikni rivojlantirish;

– an'anaviy hamkorlar bilan munosabatlarni rivojlantirish, BMT, global va mintaqaviy tashkilotlardagi faoliyatni kuchaytirish.

## Tayanch tushuncha va iboralar

Harakatlar strategiyasi, kitobsevar millat, oilaviy shifokor, elektron hukumat, dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi, elektron parlament, faol modeli, xavfsizlik, BMT, global va mintaqaviy tashkilotlar.

## Muhokama uchun savollar:

1. Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash, ushbu sohani tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish yo‘nalishida maqsadlarga erishishga qaratilgan qancha loyihalar ishlab chiqilgan va ular qaysilardan iborat ?

2. Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq va pragmatik, faol tashqi siyosat olib borish maqsadida qancha chora-tadbirlar qabul qilingan va ularning asosiy bandlari qaysilardan iborat ?

3. Elektron davlat xizmatlarining ulushini necha foizdan necha foizga yetkazish vazifa sifatida belgilangan?

4. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, uning o‘sish sur'atlarini zamon talablari darajasida ta'minlash yo‘nalishida maqsadlarga erishishga qaratilgan qancha tadbirlar ishlab chiqilgan.

5. O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor munosabatlarini shakllantirish prinsiplarini aytib bering ?

6. Kasbga o‘qitish ko‘lami necha foizga oshirildi va qancha ishsiz odamni ish bilan ta'minlash vazifasi qo‘yildi.

## Test savollari

1. Iqtisodiy g‘oyalarning vujudga kelishi, rivojlanishi, kurashi va almashinuvini qaysi fan o‘rganadi?
a) iqtisodiyot nazariyasi
b) iqtisodiy ta’limotlar tarixi
v) tarix
g) menejment
2. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi iqtisodiy fanlar tizimida qanday o‘rin tutadi?
a) hal qiluvchi o‘rin
b) muhim o‘rin
v) hech qanday o‘rin tutmaydi
g) ikkinchi darajali
3. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi fanining predmeti nima?
a) iqtisodiy qonunlarni o‘rganadi
b) iqtisodiy kategoriyalarni o‘rganadi
v) kishilar manfaatini ifodalovchi iqtisodiy g‘oyalarning vujudga kelishi, rivojlanishi va o‘rin almashishi qonuniyatlarini o‘rganadi
g) iqtisodiy maktablar, iqtisodchi olimlarni o‘rganadi
4. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi uslubiy jihatdan nimalardan foydalanishi qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?
a) tarixiy
b) induksiya
v) mantiqiy abstraksiya
g) statistik
5. Iqtisodiy g‘oyalarni vujudga kelishi, rivojlanishi, kurashi va almashinuvini qaysi fan o‘rganadi?
a) iqtisodiyot nazariyasi
b) iqtisodiy ta’limotlar tarixi
v) tarix
g) menejment
6. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi qaysi fanlar bilan chambarchas bog‘liq?
a) iqtisodiy fanlar
b) tarixiy fanlar
v) iqtisodiyot nazariyasi
g) iqtisodiy fanlar, tarixiy fanlar, iqtisodiyot nazariyasi
7. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi fanining metodi?
a) davrlar usuli

b) ilmiy abstraksiya
v) tarixiy usul
g) induksiya
8. «Amalda iqtisodiy g‘oyalar o‘z davri va vujudga kelish joyining mahsuli bo‘lib, ular bilan chambarchas bog‘liqdir» degan fikr qaysi olimga tegishli?
a) A.Smit
b) J.Gelbreyt
v) D.Rikardo
g) U.Petti
9. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi fani shakllanishining tezlashish sababi nima?
a) mehnat unumdorligining oshishi
b) yollanma mehnatni ekspluatatsiya qilinishi
v) feodalizmning chirishi
g) kapitalizmda xo‘jalik va ijtimoiy hayotning baynalminallashuvi
10. «Qayerga borishimizni bilish uchun qayerdan chiqqan ekanligimizni bilishimiz kerak» degan fikr kimga tegishli?
a) F.Ruzvelt
b) K.Marks
v) U.Cherchill
g) A.Marshall
11. Iqtisodchilarning tadqiqotidagi bosh g‘oya nima?
a) ishlab chiqarish
b) taqsimot
v) jamiyat, insoniyat, ayrim shaxslarning boyligi masalasi
g) ayirboshlash
12. Iqtisodiy g‘oyalarning shakllanishi qachon paydo bo‘lgan?
a) kapitalizmda
b) quldorlik jamoa tuzumida
v) insoniyat paydo bo‘lishi bilan
g) feodalizmda
13. Qaysi formatsiyada ijtimoiy hayot baynalminallashib, iqtisodiy fikrlarni rivojlanishi xalqaro jarayonga aylandi?
a) Quldorlik tuzumida
b) Feodalizmda
v) Kapitalizmda
g) Ibtidoiy jamoa tizimida
14. Qadimgi Sharqda qo‘shimcha mahsulot olishning asosiy usuli nima

bo‘lgan?
a) yerdan unumli foydalanish
b) jamoaga birlashgan dehqonlarni ekspluatatsiya qilish yo‘li bilan renta solig‘ini olish
v) yerlarni sun’iy sug‘orish
g) lalmi yerdan foydalanish
15. Qadimgi Hindistondagi «Manu qonunlari»da nimalar aks etgan?
a) qonunlar yig‘indisi
b) ijtimoiy mehnat taqsimotining, hukmronlik va bo‘ysunish institutlarining mavjudligi
v) qulchilikni himoya qilish
g) qulchilikka qarshi kurashish
16. Hindistondagi iqtisodiy g‘oyalarni aks ettiruvchi qadimgi yodgorlik?
a) Manu qonunlari
b) Arxashastra
v) Avesto
g) Veda
17. Hindistonda iqtisodiy g‘oyalar aks etgan “Artxashastra” asari qachon yozilgan?
a) mil.avv. IV-III asrlarda
b) mil.avv. III-II asrlarda
v) mil.avv. I asrda
g) mil.avv. V asrda
18. Artxashastra yodgorligining asosiy g‘oyasi nima?
a) mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash
b) xususiy mulkni himoya qilish
v) qulchilikni mustahkamlash
g) mehnatkashlarni himoya qilish
19. Artxashastra yodgorligida qanday muammolar ko‘tarilgan?
a) buyumlarning qiymati
b) buyumning qiymati ish kuni bilan belgilanishi
v) rag‘batlantirish mehnat natijasiga mos kelishi
g) foydani oshirish yo‘llari
20. «Avesto»ning ma’nosi nima?
a) hayot yo‘riqnomasi
b) tabiatni e’zozlash
v) hayvonlarni asrash
g) tabiatni asrash
21. Avestoda qanday g‘oyalar ilgari surilganligi qaysi javobda noto‘g‘ri

berilgan?
a) sun’iy sug‘orish asosida dehqonchilik qilish
b) ona tabiatni e’zozlash
v) tuproq sharoitini yaxshilash
g) mamlakat ravnaqini yaxshilash
22. «Inson yerni tashlasa, unga qaramay qo‘ysa, unday odam o‘zgalar eshigi oldida turgan doimiy gadoyga aylanadi» degan fikr qaysi kitobda yozilgan?
a) Veda
b) Artxashastra
v) Avesto
g) Manu qonunlari
23. Qadimgi Xitoydagi iqtisodiy g‘oyalar qaysi davrda shakllangan?
a) mil.avv. IV-III asrlarda
b) mil.avv. II-I asrlarda
v) mil.avv. V-IV asrlarda
g) quldorlik jamoa tuzumi davrida
24. Qadimgi Xitoydagi iqtisodiy g‘oyalarning eng muhimi qaysi?
a) Lao-szi
b) Guan-szi
v) Konfutsiylik
g) Lun-yuy
25. Qadimgi Xitoyda davlatning iqtisodiy siyosatiga nimalar kirganligi qaysi javobda noto‘g‘ri berilgan?
a) xarajatlarni iqtisod qilish
b) xalqning to‘qliligini ta’minlash
v) ortiqcha mahsulotlarni saqlash zarurligi
g) keragicha mahsulot ishlab chiqarish
26. T.Komponella «Oftob shahri» asarini qaysi yili yozgan
a) 1550 yil
b) 1602 yil
v) 1615 yil
g) 1620 yil
27. Daosizm (aynan-yo‘l) g‘oyasi qaysi mamlakatda ko‘proq rivojlangan?
a) Xitoyda
b) Misrda
v) Hindistonda
g) Mesopotamiyada
28. «Qonunlar ko‘pligi tufayli xalq kambag‘allashmoqda» degan g‘oya

kimga tegishli?
a) Konfutsiy
b) Lao-szi
v) Izi-Chan
g) Li-kuy
29. Antik dunyo mamlakatlarida quldorlik qanday shaklda vujudga keladi?
a) klassik shaklda
b) tovar xo‘jaligi shaklida
v) natural xo‘jalik shaklida
g) mayda ishlab chiqaruvchilar shaklida
30. Qadimgi dunyo iqtisodiy fikrlarida …… ideallashtiriladi.
a) Bozor iqtisodiyoti munosabatlari
b) Natural xo‘jalik munosabatlari
v) Pul munosabatlari
g) Yirik savdo va sudxo‘rlik
31. Quldorlik tuzumi davrida asosiy ishlab chiqaruvchi kuchlar kim?
a) dehqonlar
b) qullar
v) kambag‘al xalq
g) qullar, dehqonlar
32. Ksenofont, Aristotel, Platon iqtisodiy g‘oyalarining asosiy yo‘nalishlari qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?
a) aristokratiyani himoyalash
b) natural xo‘jalikni yoqlash
v) sinfiy xususiyatga ega bo‘lish
g) tovar xo‘jaligini yoqlash
33. «Ekonomiya» so‘zini birinchi bo‘lib kim kiritgan?
a) A.Smit
b) Ksenofont
v) Platon
g) Aristotel
34. Platon aholini qanday toifaga ajratganligi qaysi javobda noto‘g‘ri berilgan?
a) faylasuflar-davlatni boshqaruvchilar
b) harbiylar-davlat boshqaruv apparatining bir qismi
v) qora toifa-dehqon hunarmand va savdogarlar
g) boylar-mulk egalari
35. Platonning buyuk kashfiyoti qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

a) mehnat taqsimoti ko‘rsatish
b) tovar-pulni ko‘rsatish
v) savdogarchilikning ajralib chiqishini ko‘rsatish
g) tovar xo‘jaligini maqtash
36. Aristotel kim bo‘lganligi qaysi javobda noto‘g‘ri berilgan?
a) faylasuf
b) iqtisodchi
v) Iskandar Zulqarnaynning tarbiyachisi va o‘qituvchisi
g) podshoh
37. «Qul tirik qurol, qandaydir tirik mulk» degan fikr kimga tegishli?
a) Platon
b) Aristotel
v) Ksenofont
g) Konfutsiy
38. Aristotel ideal xo‘jalik deganda nimani tushungan?
a) natural xo‘jalikni
b) tovar xo‘jaligini
v) uncha katta bo‘lmagan dehqon xo‘jaligini
g) savdogarchilikni
39. Xrematistika nimaligi qaysi javobda noto‘g‘ri berilgan?
a) mulk orttirish san’ati
b) boylik
v) boylik topishga yo‘naltirilgan faoliyat
g) qo‘shimcha qiymat olish
40. Qulchilik tizimini yemirilishining bosh sabablari qaysi javobda noto‘g‘ri berilgan?
a) ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasiga ishlab chiqarish munosabatlarining mos kelmasligi
b) qullarni ekspluatatsiyasining kuchayishi
v) qullar qo‘zg‘oloni
g) qullarga erkinlik berilishi
41. Feodallar dehqonlardan qanday renta olgan?
a) barshchina
b) obrok
v) pul rentasi
g) barshchina, obrok, pul rentasi
42. Nima uchun feodalizmda mehnat unumdorligi qulchilikka qaraganda ancha yuqori bo‘lganligi qaysi javobda noto‘g‘ri berilgan?
a) krepostnoyning o‘z oilasi bo‘lgan

b) ayrim ishlab chiqarish vositasiga ega
v) xo‘jalik mustaqilligiga ega
g) hamma narsani feodal o‘z qo‘lida to‘plagan
43. Feodalizm davridagi iqtisodiy g‘oyalarning asosiy yo‘nalishlari qaysi javobda noto‘g‘ri berilgan?
a) tovar-pul munosabatlarini qo‘llab-quvvatlash
b) feodal jamiyatning tabiiyligi
v) feodalizmni saqlab qolish zarurligi
g) feodalizmni yo‘qotish
44. «Yenglar, ichinglar, hadya qilinglar, lekin isrof qilmanglar» degan fikr qayerda aytilgan?
a) Qur’oni Karimda
b) Injilda
v) Avestoda
g) Utopiyada
45. Qur’oni Karimdagi asosiy g‘oyalar qaysi javobda noto‘g‘ri berilgan?
a) halol mehnat
b) dehqon va hunarmandlar mehnati
v) barcha boylikning asosi mehnat
g) sudxo‘rlikni yoqlash
46. «Kitob ul ibor» (ibratli misollar kitobi) qaysi mutafakkirga tegishli?
a) Yusuf Xos Hojib
b) Ibn Xaldun
v) Alisher Navoiy
g) Abu Nasr Forobiy
47. Ibn Xaldunning fikricha, mehnat unumdorligiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatishi qaysi javobda noto‘g‘ri berilgan?
a) hunarmandchilik
b) fanning rivoji
v) san’at
g) sanoatning rivoji
48. Krepostnoylikning vujudga kelish sababi?
a) xususiy mulk
b) yerga monopoliya egaligi
v) mehnat unumdorligining pastligi
g) mehnat unumdorligining yuqoriligi
49. Rohib F. Akvinskiy iqtisodiy g‘oyasi nimalarga qaratilganligi qaysi javobda noto‘g‘ri berilgan?
a) qullik va krepostnoylikni oqlaydi

b) xususiy mulkni himoya qiladi
v) xudoni barcha boyliklar egasi deydi
g) ekspluatatsiyani qoralaydi
50. «Russkaya pravda» qonunlar to‘plami qachon chop qilingan?
a) VII asrda
b) VIII asrda
v) IX asrda
g) X asrda
51. Kapital munosabatlarining vujudga kelishi qaysi davrga to‘g‘ri keladi?
a) XIV-XV asrlar
b) XVII asr
v) XVIII asr
g) XIX asr
52. Xayoliy sotsializm ta’limotining asoschilari kim?
a) T.Mor, T.Kompanella
b) Yermolay-Erazm
v) I.Posashkov
g) A. Marshall
53. «Utopiya» asarining muallifi kim?
a) U.Petti
b) T.Mor
v) T.Kompanella
g) A. Marshall
54. «Qo‘ylar odamlarni yeb qo‘ydi» iborasining muallifi kim?
a) U.Petti
b) T.Kompanella
v) T.Mor
g) Konfutsiy
55. «Oftob shahri» asarining muallifi kim?
a) T.Mor
b) T.Kompanella
v) A.Smit
g) U.Petti
56. «Oftob shahri» asarida nima tanqid qilingan?
a) zolimlarning shohona hayoti
b) ekspluatatsiya
v) xususiy mulk
g) jamiyatdagi tengsizlik
57. «Buyuk ipak yo‘li» nomi kim tomonidan berilgan?

a) A.Monkretyen
b) K.Rixtgofen
v) U.Petti
g) A.Smit

58. «Buyuk ipak yo‘li» orqali nima savdo qilinganligi qaysi javobda noto‘g‘ri berilgan?
a) Xitoydan ipak
b) Xitoyga har xil gazlama, ipak
v) zeb-ziynat buyumlari
g) qullar

59. Islom huquqshunosligi asoschisi kim?
a) Marg‘iloniy
b) Forobiy
v) Al-Buxoriy
g) Zamahshariy

60. Islom huquqshunosligiga qaysi asarda asos solingan?
a) hadislarda
b) Al-Xidoya kitobida
v) Nashr-al Masxad
g) Al-Madad

61. Islom aqidasiga mos tafakkur so‘fizm qachon paydo bo‘lgan?
a) V asrda Misrda
b) VIII-IX asrda arab dunyosida
v) X asrda Eronda
g) XI asrda Iroqda

62. «Qutadg‘u bilik» asarining muallifi kim?
a) Ibn Sino
b) Yusuf Xos Hojib
v) Abu Rayhon Beruniy
g) Abu Nasr Forobiy

63. Sharqdagi Aristotel kim bo‘lgan?
a) Abu Nasr Forobiy
b) Al-Xorazmiy
v) Ibn Sino
g) Abu Rayhon Beruniy

64. Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shahri» asarida ilgari surilgan g‘oyalarga qaysi javob tegishli emas?
a) mamlakatni boshqarish
b) hokimlar faoliyati

v) iqtisodiyotni boshqarish
g) erkin savdo qilish
65. Abu Nasr Forobiyning fikricha rahbarning qanday fazilatlari bo‘lishi lozimligi qaysi javobda noto‘g‘ri berilgan?
a) haq va haqiqatni sevgan
b) odil va haqgo‘y odamlarni sevadigan
v) yolg‘onni va yolg‘onchilikni yomon ko‘radigan
g) har qanday yo‘l bilan mamlakatda tinchlik o‘rnatish
66. «Hayvon tabiat ne’matlariga qanoat qiladi, odamlarga esa tabiat ne’matlari kamlik qiladi… Shu maqsadda inson dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug‘ullanishi kerak» degan fikr kimga tegishli?
a) Mirzo Ulug‘bek
b) Ibn Sino
v) Abu Rayhon Beruniy
g) Abu Nasr Forobiy
67. «Diling Ollohda, qo‘ling ishda bo‘lsin» iborasi qaysi ilmga xos?
a) klassik iqtisodiy maktab
b) merkantilizm
v) so‘fizm
g) fiziokratizm
68. Abu Rayhon Beruniyning iqtisodiy fikrlarida nima diqqatga sazovorligi qaysi javobda noto‘g‘ri berilgan?
a) qo‘l mehnati va majburiy mehnatdan erkin faoliyatning ustunligi
b) kishilarni majburlab ishlatishga qarshilik
v) meros bo‘lib avloddan avlodga o‘tadigan hunar
g) yerni sotish mumkin emasligi
69. Temur davrida davlatni boshqarish xususiyatlari qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?
a) yagona shaxs tomonidan boshqarilgan
b) har bir viloyatda devon deyiluvchi boshqarma bo‘lgan
v) vazirlar kengashi bo‘lgan
g) har bir viloyat mustaqil boshqarilgan
70. Vaqf yerlari qaysi?
a) sug‘oriladigan yerlar
b) lalmi yerlar
v) masjid va madrasa yerlari
g) askarlarning yerlari
71. A.Temur hukmronligi davrida kishilarga maosh qanday tartibda to‘langan?

a) har bir amaldorning egallagan mansabi va bajargan ishiga qarab to‘langan
b) hamisha bir xil maosh belgilangan
v) maoshni devoni buzurgning o‘zi tayinlagan
g) dehqonlarning mehnati natijasiga qarab berilgan
72. A.Temur davrida soliqning qaysi turi «xiroj» deb atalgan?
a) mulk solig‘i
b) yer solig‘i
v) daromad solig‘i
g) suv solig‘i
73. A.Temur davrida bozor ahlidan soliq olish kimlarga yuklatilgan?
a) maxsus shaxslarga
b) qal’a boshlig‘iga
v) yuzboshilarga
g) o‘nboshilarga
74. A.Temurning davlat va iqtisodiyot sohasidagi asosiy fikrlari to‘plangan
«Temur tuzuklari» nechta qismdan iborat?
a) uch qismdan
b) ikki qismdan
v) to‘rt qismdan
g) besh qismdan
75. M.Ulug‘bek tomonidan amalga oshirilgan pul islohotida qanday pul ishlatildi?
a) kumush tangalari
b) bir xil hajmdagi mis fuluslar
v) turli xil tangalarning teng huquqli faoliyati
g) oltin-kumush tangalar
76. M.Ulug‘bek davridagi pul islohoti natijasida qaysi zarbxona saqlanib qoldi?
a) Samarqandda
b) Buxoroda
v) Qarshida
g) Toshkentda
77. A.Navoiy asarlaridagi iqtisodiy fikrlar qanday xususiyatlarga egaligi qaysi javobda noto‘g‘ri berilgan?
a) savdogarchilik ma’qullanadi
b) tovlamachilik tanqid qilinadi
v) chayqovchilik tanqid qilinadi

g) sudxo‘rlik ma’qullanadi
78. A.Navoiyning dastlabki ijtimoiy iqtisodiy fikrlari shakllangan asarni ayting.
a) «Hiloliya»
b) «Mahbub-ul qulub»
v) «Vaqfiya»
g) «Xotam Toyiy»
79. «Boshsiz tana bo‘lmaganidek, podshosiz davlat ham bo‘lmaydi» degan fikr kimga tegishli?
a) Fuzuliy
b) Bobur
v) Navoiy
g) Yusuf Xos Hojib
80. Z.M.Boburning iqtisodiy fikrlari qaysi asarlarida mujassamlashgan?
a) «Boburnoma», «Mubayyin-al zakot»
b) «Xamsa»
v) hamma asarlarida
g) faqat she’rlarida
81. Z.M.Bobur davrida yer solig‘i qanday qismlarga bo‘lingan?
a) olinadigan hosil miqdori va yer maydonining miqdoriga qarab
b) yerdan olinadigan hosil miqdoriga qarab
v) yer maydonining miqdoriga qarab
g) yerning sug‘orilish darajasiga qarab
82. Merkantilizmning ma’nosi nima?
a) savdogar
b) sudxo‘r
v) vositachi
g) mulkdor
83. Merkantilizm ta’limoti qachon paydo bo‘lgan?
a) XIII asrda
b) XIV asrda
v) XV asrda
g) XVI asrda
84. Merkantilizm ta’limoti kimlarning manfaatini himoya qiladi?
a) sanoat kapitalini
b) savdo kapitalini
v) ssuda kapitalini
g) yirik yer egalarini
85. Merkantilizm ta’limotini paydo bo‘lish sababi?

a) ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi
b) Yevropada oltin va kumush qahatchiligi boshlandi
v) tashqi savdo rivojlandi
g) mamlakatlar rivojlanishida notekislik paydo bo‘ldi
86. Merkantilistik siyosatning bosh vazifasi nima?
a) mamlakatning iqtisodiy siyosatini ishlab chiqish
b) davlatga ko‘proq oltin, kumush keltirish
v) chetga tovar chiqarishni rag‘batlantirish
g) mamlakat rivojlanishini tezlashtirish
87. Merkantilizm siyosati qaysi ishlab chiqarish munosabatlarini rivojlanishiga turtki bo‘ldi?
a) kapitalistik
b) feodalistik
v) quldorlik
g) sotsialistik
88. Merkantilistik siyosat qaysi kapitalni tez rivojlanishiga turtki bo‘ldi?
a) sanoat kapitali
b) ssuda kapitali
v) savdo kapitali
g) yerga xususiy mulkchilik
89. Merkantilizm ta’limotining kelib chiqishida qaysi ijtimoiy-iqtisodiy sabablar noto‘gri ko‘rsatilgan.
a) Feodal tuzumning yemirilishi
b) Tovar-pul munosabatlarining o‘sishi
v) Yangi yerlarning ochilishi va mustamlakachilik tuzumining paydo bo‘lishi
g) Feodal tuzumining rivojlanishi
90. Merkantilizmning rivojlanish bosqichlari nechta?
a) ikki bosqich
b) uch bosqich
v) to‘rt bosqich
g) besh bosqich
91. Ilk merkantilizm qanday xususiyatga ega?
a) oltin va kumush pullar to‘plash
b) savdoni rivojlantirish
v) chetdan qimmatbaho buyumlar kelishini cheklash
g) erkin savdo
92. Mamlakatda va davlat xazinasida imkoni boricha nodir metallarni ko‘proq to‘plash siyosati qaysi?

a) proteksionizm
b) merkantilizm
v) fritrederlik
g) marjinalizm
93. Merkantilizm siyosatida nima ta’qiqlangan?
a) qimmatbaho metallni tashqariga olib chiqish
b) tashqi savdo
v) chetdan boshqa tovarlarni olib kelish
g) bir mamlakat tovarini olib boshqasiga qimmatga sotish
94. Rivojlangan merkantilizmni xarakterli xususiyati nima?
a) savdo balansi
b) erkin savdo
v) proteksionizm
g) fritrederlik
95. Merkantilizm ta’limotining asoschilari kimlar ekanligi qaysi javobda noto‘g‘ri berilgan?
a) U.Staffard
b) G.Skaruffi
v) B.Divanzetti
g) A.Smit
96. Proteksionizm nima?
a) xo‘jalik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish
b) chetdan tovar kelishiga to‘sqinlik qilish
v) chetga tovar chiqarishni rag‘batlantirish
g) erkin savdo siyosati
97. Siyosiy iqtisod tushunchasi birinchi bo‘lib qaysi iqtisodchi tomonidan qo‘llangan?
a) A.Smit
b) D.Rikardo
v) A.Monkretyen
g) U.Petti
98. Kapitalistik ishlab chiqarish usulining birinchi nazariy asosi nima edi?
a) Fiziokratlar
b) Klassik maktab
v) Merkantilizm
g) Marjinalizm
99. Bozor iqtisodiyotining birinchi ta’limoti qaysi?
a) klassik maktab
b) merkantilizm

v) fiziokratlar
g) marjinalizm
100. Angliyada sohibkorlarning tez boyishiga sabab nima bo‘ldi?
a) manufakturaning paydo bo‘lishi
b) mustamlakachilik siyosati
v) sanoat to‘ntarilishi
g) merkantilizmdan voz kechish
101. «Inson insonga bo‘ri» iborasi qaysi olimga tegishli?
a) K.Marks
b) A.Smit
v) S.Sismondi
g) T. Gobs
102. Klassik iqtisodiy maktabning asosiy xususiyati nima?
a) muomalani tekshirish
b) savdo kapitali manfaatini himoya qilish
v) tadqiqotni ishlab chiqarish sohasiga ko‘chirgan
g) unumli mehnat tushunchasini kiritgan
103. Klassik iqtisodiy maktabning asoschisi kim?
a) A.Smit
b) D.Rikardo
v) U.Petti
g) P. Buagilber
104. U.Petti o‘zining iqtisodiy ta’limotida nimani tarafdori bo‘ldi?
a) xususiy mulkning
b) mehnatni kapital tomonidan ekspluatatsiya qilinishining
v) ishchi kuchining ikki qismga bo‘linishining
g) soliqlarni ko‘paytirishning
105. U.Petti qaysi asarida merkantilizmdan butunlay voz kechadi?
a) «Soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risida risola»
b) «Irlandiyaning siyosiy anatomiyasi»
v) «Pul to‘g‘risida bir necha og‘iz so‘z»
g) «Siyosiy arifmetika»
106. U.Petti “tabiiy baho” ta’limoti bilan nimaga asos soldi?
a) qiymatning mehnat nazariyasiga
b) qo‘shimcha qiymat nazariyasiga
v) daromadlarning taqsimlanishiga
g) kapitalni ikki qismga bo‘linishiga
107. Iqtisodiy jadval qaysi olimga tegishli?
a) K.Marks

b) A.Monkretyen
v) F.Kene
g) S.Sismondi
108. «Mehnat boylikning otasi va nihoyatda faol tamoyilidir, yer esa uning onasidir» degan fikr qaysi olimga tegishli?
a) A.Smit
b) D.Rikardo
v) U.Petti
g) A.Tyurgo
109. U.Pettining fikricha, qiymat nazariyasi nima bilan bog‘liqligi qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?
a) daromadlar
b) ish haqi
v) renta
g) foyda
110. Statistika xizmati tuzish muammosini birinchi bo‘lib kim ko‘targan?
a) A.Smit
b) D.Rikardo
v) U.Petti
g) P. Buagilber
111. Fransiyada klassik iqtisodiy maktabning asoschisi kim?
a) A.Tyurgo
b) P.Buagilber
v) Lyudovik XIV
g) S.Sismondi
112. P.Buagilberning tadqiqot predmeti nima?
a) muomala sohasi
b) jamoat boyligi konsepsiyasi
v) ishlab chiqarish
g) taqsimot
113. P.Buagilber inqiroz hodisasini nima bilan bog‘laydi?
a) ichki qonuniyatlar bilan
b) yomon davlat siyosati bilan
v) taqsimotdagi kamchiliklar bilan
g) talabning kamayishi bilan
114. Fiziokratlar ta’limoti qaysi sinf manfaatini himoya qiladi?
a) ishchilar
b) dehqonlar
v) hunarmandlar

g) fermerlar
115. F.Kene taklif qilgan tasnif bo‘yicha fermerlar – bu...
a) unumli sinf
b) yer egalari sinfi
v) unumsiz sinf
g) tadbirkorlar sinfi
116. F.Kenening ta’limoti bo‘yicha «sof mahsulot» yaratiladi...
a) savdoda
b) qishloq xo‘jaligida
v) sanoatda
g) qurilishda
117. Fiziokratlar mamlakatni og‘ir ahvoldan olib chiqish yo‘lini nimada deb biladi?
a) sanoatni rivojlantirish
b) qishloq xo‘jaligini rivojlantirish
v) pul tizimini takomillashtirish
g) tashqi savdoni rivojlantirish
118. Fiziokratlarning merkantilizmdan muhim farqi nimada?
a) tadqiqot ob’ektini ishlab chiqarish sohasiga ko‘chirdilar
b) sanoat to‘ntarishini tahlil qildilar
v) qishloq xo‘jaligida olinadigan daromadlarni tahlil qildilar
g) muomala sohasini tekshirdilar
119. F.Kenening iqtisodiy fikrlari mujassamlashgan asarlari qaysi javobda noto‘g‘ri berilgan?
a) «Fermerlar», «Don»
b) «Aholi», «Soliqlar»
v) «Iqtisodiy jadval»
g) «Xalqlar boyligining tabiati» 120.Fiziokratlarning tadqiqot predmeti nima?
a) muomala sohasi
b) sanoat ishlab chiqarishi
v) qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi
g) ssuda kapitali
121. F.Kene qanday konsepsiyalarni ilgari surdi?
a) «tabiiy tartib»
b) mehnatning qiymat nazariyasi
v) daromadlar nazariyasi
g) bozor qonuni
122. Fiziokratlar jamiyatni qanday sinflarga bo‘ladilar?

a) unumli sinf, yer egalari, dehqonlarlar
b) yer egalari, unumsiz sinf, dehqonlarlar
v) unumli sinf, yer egalari, unumsiz sinf
g) unumli sinf, unumsiz sinf, dehqonlarlar

123. Takror ishlab chiqarish jarayoni va yalpi ijtimoiy mahsulotni tahlil qilishga birinchi bo‘lib kim uringan?
a) A.Smit
b) D.Rikardo
v) J.B.Sey
g) F. Kene

124. F.Kenening «Iqtisodiy jadvali»da iqtisodiy ta’limotning asosiy tomonlari nima?
a) «sof mahsulot» va «kapital»
b) «unumli va unumsiz sinflar»
v) «sof mahsulot», «kapital», «unumli va unumsiz sinflar»
g) «unumli va unumsiz mehnat»

125. Iqtisodiyot tarixida birinchi bo‘lib makroekonomik modellashtirishni kim amalga oshirgan?
a) K.Marks
b) F.Kene
v) A.Marshall
g) M. Keyns

126. Klassik maktab namoyandalari merkantilizmdan nimasi bilan farq qiladi?
a) Ishlab chiqarish sohasini tahlil qilish
b) Kapitalistik aloqalarini o‘rganadi
v) Burjuaziya bilan ishchilar o‘rtasidagi aloqalarni o‘rganadi
g) Muomala sohasini chuqur tahlil qilish

127. U.Pettida qaysi iqtisodiy kategoriya alohida holda uchramaydi?
a) Qiymat
b) Foyda
v) Ish haqi
g) Daromad

128. Angliya klassik iqtisodiy maktabi kimlar tomonidan eng yuqori cho‘qqiga ko‘tarildi?
a) A.Smit, D.Rikardo
b) U.Petti, A.Smit
v) U.Petti, D.Rikardo
g) S.Sismondi, P.Prudon

129. Klassik iqtisodiy maktab nima uchun XVIII asrda Angliyada eng yuqori cho‘qqiga ko‘tarildi?
a) kapitalistik munosabatlar shakllana boshladi
b) ekspluatatsiya kuchaydi
v) chuqur iqtisodiy va sotsial o‘zgarishlar ro‘y berdi
g) tashqi savdo rivojlana boshladi
130. XIX asrning boshlarida mehnat unumdorligining oshishini asosiy omili nima edi?
a) texnikani rivojlantirish
b) texnologiyani yaxshilash
v) mehnat taqsimotini chuqurlashtirish
g) ishchilarning bilim darajasini oshirish
131. «Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to‘g‘risida tadqiqot» asarining muallifi kim?
a) U.Petti
b) A.Smit
v) D.Rikardo
g) J.B.Sey
132. A.Smitning tadqiqot predmeti nima?
a) jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi
b) aholi bandligi
v) mulkni tahlil qilish
g) pul muomalasi
133. «Ko‘rinmas qo‘l» nima?
a) obyektiv iqtisodiy qonunlarning stixiyali harakati
b) bozorni tartibga solish
v) yuridik qonunlar bilan bozorni tartibga solish
g) iqtisodiy qonunlarni inson faoliyati bilan bog‘lash
134. A.Smit qaysi hodisani «tabiiy tartib» deb ataydi?
a) bozorning o‘z-o‘zini tartibga solinishini
b) iqtisodiy rivojlanishning shaxsiy manfaat va stixiyali qonunlarining o‘zaro samarali harakati
v) ishchi kuchining erkin harakati
g) ekspluatatsiyaning mavjudligi
135. «Ko‘rinmas qo‘l» ta’limoti qaysi olimga tegishli?
a) A.Smit
b) D.Rikardo
v) S.Sismondi
g) K.Marks

136. A.Smitning fikri bo‘yicha iqtisodiy progressning asosi nima?
a) mehnat taqsimoti
b) korxonalarda band bo‘lgan ishchilar sonini oshirish
v) texnikaning rivojlanishi
g) texnologiyani takomillashtirish
137. A.Smitning fikri bo‘yicha mehnat unumdorligini oshirilishi sababi qaysi javobda noto‘g‘ri berilgan?
a) mehnat taqsimoti tufayli ayrim ishchilarning chaqqonligi oshadi
b) bir ishdan ikkinchisiga o‘tish uchun ketadigan vaqt tejaladi
v) mehnat taqsimoti mashinalar ixtiro qilishga imkon tug‘diradi
g) mehnat taqsimoti daromadlarni oshiradi
138. A.Smit bo‘yicha ishlab chiqarish hajmining o‘sish omillari qaysi javobda noto‘g‘ri berilgan?
a) aholining unumli mehnat bilan band qismining ko‘payishi
b) mehnat unumdorligining darajasi
v) mamlakat aholisining umumiy soni
g) malakali ishchilarning ko‘pligi
139. Pul nazariyasida A.Smit pulga qanday baho beradi?
a) muomalani osonlashtiradi
b) muomalaning buyuk g‘ildiragi
v) tovarlarni sotish va sotib olishda vositachilik qiladi
g) tovar muomalasini yengillashtiradi
140. Fritrederlik nima?
a) Erkin savdo
b) Chetga tovar chiqarishga qarshi
v) Chetdan tovar kelishiga qarshi
g) Proteksionizm
141. Qiymatning mehnat nazariyasida tovar qiymati nima bilan o‘lchanadi?
a) buyumning foydaliligi
b) buyumni ishlab chiqarish uchun sarf qilingan mehnat
v) buyumning nafliligi
g) buyumning qayerda ist’emol qilinishi
142. A.Smit jamiyatni qanday sinflarga ajratadi?
a) ishchilar, kapitalistlar
b) ishchilar, yer egalari
v) kapitalistlar, yer egalari
g) ishchilar, kapitalistlar, yer egalari
143. Smit dogmasi bo‘yicha ijtimoiy mahsulotning qiymati qaysi

qismlarga bo‘linadi?
a) ish haqi va foyda
b) foyda va renta
v) ish haqi, foyda va renta
g) ish haqi va renta
144. Yer uchastkalarida differensial renta hosil bo‘lishini birinchi bo‘lib kim ko‘rsatdi?
a) D.Rikardo
b) T.Maltus
v) K.Marks
g) S.Sismondi
145. A.Smitning fikricha foyda nimaning mahsuli hisoblanadi?
a) mehnatning
b) butun avanslangan kapitalning natijasi
v) qo‘shimcha qiymatning
g) tabiatning inomi
146. D.Rikardo qaysi davrning iqtisodchisi?
a) feodalizmning yemirilish davri
b) dastlabki kapital jamg‘arish davri
v) sanoat inqilobi davri
g) manufaktura davri
147. D.Rikardoning iqtisodiy g‘oyalari mujassamlashgan asari qaysi javobda noto‘g‘ri berilgan?
a) «Oltin ajdahosi to‘g‘risida uch xat»
b) «Siyosiy iqtisod va soliq solishning boshlanishi»
v) «Milliy bank tuzishning rejasi»
g) «Siyosiy iqtisod prinsiplari»
148. «Absolyut (mutloq) afzallik tamoyili» muallifi kim?
a) D.Rikardo
b) A.Smit
v) K.Marks
g) J.M.Keyns
149. D.Rikardoning tadqiqot predmeti qaysi?
a) kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlarini tahlil qilish
b) «daromadlar taqsimotini boshqaruvchi qonunlar»ni aniqlash
v) iqtisodiy fanning predmetini aniqlash
g) kapitalistik munosabatlarning tahlili
150. D.Rikardoning fikricha ishchining ish haqini ochlik darajasida ushlab turilishi nimani ko‘rsatadi?

a) kapitalizmga xos
b) kapitalizmga xos emas
v) tabiiy qonun
g) insonlarning tabiatiga xos
151. D.Rikardo kapitalni qanday tushungan?
a) ishlab chiqarish munosabatlari sifatida
b) buyum shaklida
v) ishlab chiqarish vositalari sifatida
g) natura holida
152. D.Rikardo renta nazariyasini nimaga asoslanib tekshirdi?
a) qiymatning mehnat nazariyasiga
b) yer maydonlarining unumdorligiga
v) yer mulkchilik shakliga
g) yerga bo‘lgan xususiy mulkchilikka
153. Turli mamlakatlar o‘rtasida xalqaro mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvning foydaliligi g‘oyasini qaysi olim birinchi bo‘lib ko‘rsatadi?
a) U.Petti
b) D.Rikardo
v) A.Smit
g) J.B.Sey
154. J.B.Seyning iqtisodiy g‘oyalari qaysi asarlarda berilgan?
a) «Siyosiy iqtisod risolasi», «Siyosiy iqtisod katexizisi»
b) «Siyosiy iqtisod katexizisi», «Siyosiy iqtisod kursi»
v) «Siyosiy iqtisod risolasi», «Siyosiy iqtisod kursi»
g) «Siyosiy iqtisod risolasi», «Siyosiy iqtisod katexizisi», «Siyosiy iqtisod kursi»
155. J.B.Seyning tadqiqot predmeti nima?
a) muomala sohasi
b) ishlab chiqarish sohasi
v) jamiyatning moddiy farovonlik muammosi
g) ayirboshlash sohasi
156. J.B.Sey siyosiy iqtisodni qaysi qismlarga bo‘ladi?
a) ishlab chiqarish, taqsimot
b) taqsimot, iste’mol
v) ishlab chiqarish, iste’mol
g) ishlab chiqarish, taqsimot, iste’mol
157. J.B.Seyning «uch omil» nazariyasi asosida nima yotadi?
a) mehnat, kapital, yer

b) mehnat, yer, tadbirkorlik
v) mehnat, kapital, tadbirkorlik
g) kapital, yer, tadbirkorlik
158. «Uch omil» nazariyasini asosiy omillari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?
a) Mehnat, kapital, yer.
b) Kapital, foyda, qiymat.
v) Yer, daromad, renta.
g) Mehnat, pul, tadbirkorlik qobiliyati.
159. J.B.Seyning daromadlar nazariyasida foyda qaysi javobda noto‘g‘ri berilgan?
a) mehnat ish haqi oladi
b) kapital foyda oladi
v) yer egasi, renta oladi
g) savdogar daromad oladi
160. J.B.Seyning «bozor qonuni»ning mohiyati nima?
a) bir kishi faqat sotadi
b) bir kishi faqat sotib oladi
v) har bir odam bir vaqtning o‘zida ham sotib oluvchi, ham sotuvchidir
g) har bir odam bir vaqtning o‘zida ham ishlab chiqaruvchi, ham ist’emolchidir
161. Klassik iqtisodiy maktabga muxolif iqtisodiy maktabning Angliyadagi asoschisi kim?
a) A.Smit
b) T.Maltus
v) T.Mor
g) S.Sismondi
162. T.Maltusning asosiy asarlari qaysi javobda noto‘g‘ri berilgan?
a) «Aholi nufus qonuni to‘g‘risidagi tajriba»
b) «Yer rentasining tabiati va o‘sishi to‘g‘risida tajriba»
v) «Siyosiy iqtisod prinsiplari»
g) «Siyosiy iqtisod tanqidiga doir»
163. T.Maltusning tadqiqot predmeti qaysi javobda noto‘g‘ri berilgan?
a) ishlab chiqarish sohasini rivojlantirish
b) jamiyatni moddiy boyligini ko‘paytirish
v) iqtisodiy o‘sishni aholi sonining ko‘payishi bilan bog‘lash
g) muomala sohasini tekshirish
164. T.Maltusning aholi nufuzi nazariyasi asosida nima yotadi?
a) aholining tez o‘sishi

b) iste’mol buyumlarining sekin o‘sishi
v) ochlikning mavjudligi
g) aholi geometrik progressiya bilan o‘sadi, iste’mol buyumlari arifmetik progressiya bilan o‘sadi
165. «Rikardo maktabining tanazzuli aynan Jeyms Milldan boshlanadi» degan fikrni kim aytgan?
a) K.Marks
b) A.Marshall
v) J.M.Keyns
g) P.Samuelson
166. J.Mill ishchilarning ish haqini oshirish masalasiga qanday qaraydi?
a) ish haqini oshirish kerak
b) ish haqini pasaytirish lozim
v) ishchilarning ish haqini oshirish uchun kurashi o‘rinsiz
g) ish haqini muzlatish kerak
167. J.Mill qiymatning manbaiga qanday qaraydi?
a) qiymatni jonli mehnat yaratadi
b) qiymatning miqdorida jonli mehnat bilan birga ishlab chiqarish vositalarida mavjud bo‘lgan mehnatni ham hisobga olish kerak
v) faqat avanslangan kapitaldagi mehnatni tan oladi
g) qiymatning miqdorida jonli mehnat bilan birga muomala sohasidagi mehnat ham yotadi
168. Mak-Kullox foydaga qanday baho beradi?
a) foyda ishlab chiqarish sohasida yaratiladi
b) foyda ayirboshlash sohasida yaratiladi
v) foyda kapital egasi uchun mukofot
g) foyda taqsimot sohasida yaratiladi
169. J.Millning kapitalga munosabati qanday?
a) kapital buyum sifatida qaraladi
b) kapital ish haqi sifatida qaraladi
v) avvalgi mehnat bilan ilgari to‘plangan mehnat
g) kapital doimiy deb qaraladi
170. J.Millning rentaga munosabati qanday?
a) ijara haqi
b) yerdan foydalanganlik uchun to‘lanadigan kompensatsiya
v) differensial renta mavjud
g) absolyut renta mavjud
171. J.Millning davlatning iqtisodiyotdagi roliga munosabati qanday?
a) davlat iqtisodiyotga aralashishi kerak

b) davlat iqtisodiyotga aralashmasligi kerak
v) davlat faqat taqsimotni tartibga solishi kerak
g) davlat markaziy bank foizlarini oshirishga intilishi kerak
172. Iqtisod fanida kim birinchilardan bo‘lib, mashinalarning joriy etilishi ishsizlar paydo bo‘lishiga olib keladi deb hisoblagan?
a) A.Smit
b) F.Kene
v) S.Sismondi
g) P.Prudon
173. Mayda burjua siyosiy iqtisodining asoschisi kim?
a) F.Kene
b) S.Sismondi
v) J.B.Sey
g) T.Maltus
174. Kapitalistik yo‘ldan voz kechishni birinchi bo‘lib kim taklif qilgan?
a) K.Marks
b) S.Sismondi
v) F.Kene
g) J.M.Keyns
175. Klassik iqtisodiy maktabga muxolif g‘oyalar namoyondalarini ko‘rsating.
a) A.Sen-simon, Sh.Fure, R.Ouen
b) S.Sismondi, P.Prudon, K.Robertus
v) T.Godskiy, J.Grey, J.Brey
g) V.Rosher, K,Kins, B.Gildebrand
176. XIX asrning birinchi yarmida iqtisodiy romantizim yo‘nalishining namoyondasi kim bo‘lgan?
a) S.Sismondi
b) P.Prudon
v) K.Robertus
g) R.Ouen
177. XIX asrning birinchi yarmida yozilgan «Mulkchilik nima?» asarining muallifi kim?
a) S.Sismondi
b) P.Prudon
v) K.Rodbertus
g) F.Kene
178. P.Prudon nega ish haqini ko‘tarishga qarshi chiqadi?
a) bu daromadlar tengsizligiga olib keladi

b) bu tovar narxining oshishiga olib keladi
v) bu narx-navo ko‘tarilishiga olib keladi
g) bu talab va taklif muvozanatining buzilishiga olib keladi
179. S.Sismondi g‘oyalarini shakllanishi qaysi davr bilan bog‘liq?
a) Feodalizm davri bilan
b) Sanoat to‘ntarishi davri bilan
v) Ilk kapitalizm davri bilan
g) Kapitalizm davri bilan
180. Xalq banki g‘oyasini birinchi bo‘lib kim olg‘a surgan?
a) P.Prudon
b) K. Marks
v) A.Smit
g) R.Ouen
181. S.Sismondi dastlab qaysi ta’limotning tarafdori bo‘lgan?
a) Merkantilizmning
b) A.Smit ta’limotining
v) Fiziokratlarning
g) P.Prudon ta’limotining
182. Germaniya mayda burjua iqtisodiy ta’limoti vakilini ko‘rsating.
a) B.Gildebrand
b) V.Rosher
v) K.Robertus
g) K.Marks
183. S.Sismondi nimani tarafdori bo‘ldi?
a) Yirik ishlab chiqarishni
b) Mayda ishlab chiqaruvchilarni
v) Feodal ishlab chiqarishga qaytish
g) Qo‘l mehnatiga asoslangan ishlab chiqarish
184. S.Sismondi iqtisodiy krizislarni qanday tushundi?
a) Absolyut ortiqchalik deb
b) Nisbiy ortiqchalik deb
v) Ishlab chiqarish bilan daromadlar o‘rtasidagi nomuvofiqlik deb
d) Umuman tushunmadi
185. P.Prudon qaysi maktabning namoyandasi?
a) Merkantilizm
b) Fiziokratlar
v) Mayda burjua siyosiy iqtisodi
g) Klassik maktab
186. Qaysi nazariyani Prudon o‘zining iqtisodiy negizi deb qaradi?

a) Ish haqi
b) «Belgilangan qiymat» nazariyasi
v) Renta
g) Uchinchi shaxslar
187. XIX asr birinchi yarmida yaratilgan «Davlat – xo‘jalik tizimini bilish yo‘lida» asari muallifi kim?
a) K.Robertus
b) F.Kene
v) S.Sismondi
g) R.Ouen
188. Xayoliy sotsialistlar g‘oyalarining klassik iqtisodiy maktab vakillari nazariyalaridan farqi nimada?
a) kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlarini tanqid qiladilar
b) mayda burjuaziyani qo‘llab-quvvatlaydilar
v) boylikning asosi savdodan keladi deb hisoblaydilar
g) kambag‘allikni aholining tez ko‘payishidan deb biladilar
189. Bozor iqtisodiyotiga muxolif g‘oyalarni kimlar olg‘a surgan?
a) mayda burjuaziya tarafdorlari
b) marksizm g‘oyasi tarafdorlari
v) xayoliy sotsializm g‘oyasi tarafdorlari
g) «Nufus nazariyasi» tarafdorlari
190. G‘arbiy Yevropa xayoliy sotsializmining asoschilari kimlar?
a) S.Simon, Sh.Fure, R.Ouen.
b) J.B.Sey, S.Sismondi, F.Kene.
v) U.Petti, A.Smit, D.Rikardo.
g) T.Maltus, J.Keyns.
191. Sen-Simon o‘z nazariyasini qanday atagan?
a) garmoniya
b) kommunizm
v) industrializm
g) kapitalizm
192. Sh.Fure o‘z ijtimoiy tuzumini qanday atagan?
a) industrializm
b) garmoniya
v) kommunizm
g) kapitalizm
193. Xayoliy sotsialist R.Ouen o‘z ijtimoiy tuzumini qanday nom bilan atagan?
a) kommunizm

b) garmoniya
v) kapitalizm
g) industrializm
194. Xayoliy sotsialistlar ichida «Sanoat tizimi haqida» asarini kim yozgan?
a) Sh.Fure
b) S.Simon
v) R.Ouen
g) T.Godskin
195. Sen-Simon iqtisodiyotning qaysi tarmog‘ini sotsializm rivojlanishining asosi deb qaralgan?
a) sanoat
b) qishloq xo‘jaligi
v) moliya
g) fan, madaniyat
196. Sh.Fure ishlab chiqarish omillaridan qaysi birini birinchi o‘ringa qo‘yadi.
a) yer
b) mehnat
v) kapital
g) tadbirkorlik
197. Klassik iqtisodiy maktabga muxolif g‘oyalarning asoschilari kimlar?
a) A.Smit, T.Mor
b) J.B.Sey, T.Maltus
v) Sh.Fure, R.Ouen
g) J.M.Keyns, A.Marshall
198. R.Ouen mehnatkashlarning baxt saodatga erishuviga qaysi uch illat halaqit beradi deb hisoblaydi?
a) ekspluatatsiya, burjuacha nikoh, raqobat
b) daromadlar tengsizligi, raqobat, din
v) xususiy mulk, din, burjuacha nikoh
g) xususiy mulk, daromadlar tengsizligi, kapital
199. T.Maltusning «nufus nazariyasi»ga xayoliy sotsialistlardan kim birinchi bo‘lib qarshi chiqqan?
a) S.Simon
b) Sh.Fure
v) R.Ouen
g) T.Godskin
200. Marksistik nazariyani vujudga kelishiga qaysi shart- sharoit sabab

bo‘ldi?
a) Kapitalizmni ijtimoiy-iqtisodiy jamiyat bo‘lib shakllanishi
b) Proletariatni asosiy sinfga aylanishi
v) Burjua jamiyatida sinfiy kurashni kuchayishi
g) Kapitalizmni ijtimoiy-iqtisodiy jamiyat bo‘lib shakllanishi, proletariatni asosiy sinfga aylanishi, burjua jamiyatida sinfiy kurashni kuchayishi
201. Marksistik ta’limotni asoschisi kimlar?
a) D.Rikardo, A.Smit
b) U.Petti, A.Smit
v) K.Marks, F.Engels
g) K.Menger, B.Baverk
202. Marksning metodi nimasi bilan farq qiladi?
a) Tarixiyligi bilan
b) Ilmiyligi bilan
v) Voqealarga yuzaki qaraydi
g) Kapitalizmni tanqid qiladi
203. K.Marksning iqtisodiy g‘oyalari ko‘proq qaysi asarda yoritilgan?
a) Kapital
b) Kommanifest
v) Gota programmasining tanqidi
g) Iqtisodiy qo‘lyozmalar
204. Bozor iqtisodiyotini tartibga solish usuli qaysi iqtisodchi tomonidan ishlab chiqilgan?
a) K.Marks
b) M.Keyns
v) A.Smit
g) P.Samuelson
205. K.Marksga ko‘ra baho…?
a) tabiiy baho
b) ishlab chiqarish bahosi
v) qiymat qonuni asosida
g) zaruriy baho bilan o‘lchanadi
206. K.Marksga ko‘ra qo‘shimcha qiymatning manbai nima?
a) foyda
b) sof foyda
v) tovarga qo‘shilgan qiymat
g) haqqi to‘lanmagan mehnat
207. K.Marksga ko‘ra unumli mehnat…

a) muomala sohasida
b) ishlab chiqarish sohasida
v) moliya sohasida
g) o‘z yerida ishlaganda yaratiladi
208. K.Marksga ko‘ra takror ishlab chiqarish…
a) yalpi milliy mahsulot o‘sishi bilan
b) qishloq xo‘jaligi va sanoat ishlab chiqarilishi oshishi bilan
v) oddiy va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish asosida
g) muomala sohasidagi daromadlar yaratilishi bilan amalga oshadi
209. K.Marks bo‘yicha zaruriy ish vaqtini qisqartirish nima hisobiga yuz beradi?
a) samaradorlikni oshirish hisobiga
b) ish soatlarini kamaytirish hisobiga
v) mehnat grafigini o‘zgartirish hisobiga
g) mehnat unumdorligini oshirish hisobiga
210. XIX asr birinchi yarmida «Siyosiy iqtisodiyotning milliy tizimi» nomli asarni yozgan germaniyalik olimni ko‘rsating.
a) K.Rodbertus
b) K.Marks
v) F.List
g) B.Gildebrand
211. F.List iqtisodiy siyosatda asosiy e’tiborni nimaga qaratgan?
a) moliya siyosatiga
b) savdo siyosatiga
v) investisiya siyosatiga
g) tashqi savdo siyosatiga
212. Milliy ishlab chiqarishni «proteksionizm siyosati» bilan tiklashni qaysi olim qo‘llagan?
a) F.List
b) M.Veber
v) V.Zombart
g) V.Rosher
213. Germaniyada XIX asrda shakllangan «Tarixiy maktab» vakillarini ko‘rsating.
a) G.Shmoller, A.Brentano
b) V.Rosher, K.Knis, B.Gildebrand
v) V.Zombart, M.Veber
g) F.List, K.Marks
214. Tarixiy maktabning klassik maktab g‘oyalaridan farqi nimada?

a) abstrakt g‘oyalar
b) oshkora emprizm
v) xayoliy sotsializm
g) kommunizm
215. Iqtisodiy qonunlar yo‘q, faqat iqtisodiy omillar taraqqiyotining qonunlari mavjud, deb hisoblagan «tarixiy maktab» namoyondasini ko‘rsating.
a) F.List
b) V.Rosher
v) K.Knis
g) B.Gildebrand
216. «Yangi tarixiy maktab» namoyondasi G.Shmoller qaysi faoliyat turlarini asosiy deb hisoblagan?
a) dehqon xo‘jaligi, hunarmandlar, davlat xo‘jaligi
b) xususiy xo‘jalik, davlat xo‘jaligi, diniy xo‘jalik
v) diniy xo‘jalik, dehqon xo‘jaligi, natural xo‘jalik
g) davlat xo‘jaligi, hunarmandlar, diniy xo‘jalik
217. «Hozirgi zamon kapitalizmi» asarini tarixiy maktab vakillaridan kim yozgan?
a) A.Brentano
b) G.Shmoller
v) V.Zombart
g) M.Veber
218. M. Veberning asosiy konsepsiyasi qanday ataladi?
a) sotsial pluralizm
b) nemis sotsializmi
v) oshkora empirizm
g) yuksak benuqson tiplar
219. Marjinalizm ta’limotining ma’nosi nimada?
a) erkin savdo nazariyasi
b) eng yuqori foydalilik nazariyasi
v) foyda me’yorini oshirish nazariyasi
g) mehnat unumdorligini oshirish nazariyasi
220. Marjinalizm ta’limoti qaysi davrda rivojlangan?
a) XIX asrning 20-30 yillari
b) XIX asrning 56-70 yillari
v) XIX asrning 70-90 yillari
g) XIX asr oxiri XX asr boshlari
221. Marjinalizm rivojlanishining birinchi bosqichida qaysi olimlar katta

hissa qo‘shganlar?
a) K.Menger, U.Jevons, L.Valras
b) A.Marshall, B.Klark, V.Pareto
v) V.Rosher, K.Knis, B.Gildebrand
g) F.List, V.Zombart, M.Veber
222. Marjinalizm rivojlanishining ikkinchi bosqichida qaysi olimlarning hissasi katta?
a) K.Menger, U.Jevons, L.Valras
b) A.Marshall, B.Klark, V.Pareto
v) V.Rosher, K.Knis, B.Gildebrand
g) F.List, V.Zombart, M.Veber
223. Marjinalizmning Avstriya maktabi g‘oyalarining asosiy maqsadi nimada bo‘lgan?
a) iqtisodni butun dunyo miqyosida o‘rganish
b) iqtisodni bir mamlakat miqyosida o‘rganish
v) iqtisodni bir xo‘jalik miqyosida o‘rganish
g) iqtisodni bir oila miqyosida o‘rganish
224. Marjinalizmning Lozanna maktabi asoschisi kim hisoblanadi?
a) B.Baverk
b) U.Jevons
v) L.Valras
g) K.Menger
225. Marjinalistlar g‘oyasiga ko‘ra tovarlar qachon bir-birini almashuvchi bo‘lishi mumkin?
a) bu tovarlarning iste’mol qiymati bir bo‘lsa
b) bir tovarning narxi pasayishi ikkinchi tovarga talab oshishiga sabab bo‘lsa
v) bir tovarning narxi pasayishi ikkinchi tovarga talab pasayishiga sabab bo‘lsa
g) bu tovarlarga talab bir xil bo‘lsa
226. Marjinalistlar g‘oyasiga ko‘ra tovarlar qachon bir-birini to‘ldiruvchi bo‘lishi mumkin?
a) bu tovarlarning iste’mol qiymati bir bo‘lsa
b) bir tovarning narxi pasayishi ikkinchi tovarga talab oshishiga sabab bo‘lsa
v) bir tovarning narxi pasayishi ikkinchi tovarga talab pasayishiga sabab bo‘lsa
g) bu tovarlarga talab bir xil bo‘lsa
227. Iqtisodiyotda matematik tahlilni birinchi bo‘lib qo‘llagan marjinalist

olimni ko‘rsating.
a) B.Baverk
b) U.Jevons
v) L.Valras
g) K.Menger
228. «Siyosiy iqtisod nazariyasi» kitobining muallifi marjinalistlardan kim bo‘lgan?
a) B.Baverk
b) U.Jevons
v) L.Valras
g) K.Menger
229. L.Valrasning umumiy bozor muvozanati nazariyasi nimaga asoslangan?
a) bir tovarning talab va taklifi bozorda boshqa hamma tovarlarning talab va taklifiga bog‘liqdir
b) bir tovarning taklifi unga bo‘lgan talabga bog‘liqdir
v) bir tovarga bo‘lgan talab shu tovarning taklifiga bog‘liqdir
g) bozordagi hamma tovarlar bir-biriga bog‘liqdir
230. Noyoblik tushunchasini marjinalistlardan birinchi bo‘lib kim qo‘llagan?
a) K.Menger
b) U.Jevons
v) L.Valras
g) B.Baverk
231. «Ekonomiks» iborasini birinchi bo‘lib kim muomalaga kiritgan?
a) P.Samuelson
b) B.Klark
v) V.Pareto
g) A.Marshall
232. «Marshall xochi» nima?
a) eng yuqori nafga ega talab bahosi va eng yuqori xarajatli taklif bahosi kesishuvi
b) baho pasayishi bilan talab ortishi va taklif pasayishi
v) baho ortishi bilan talab pasayishi va taklif oshishi
g) bozor muvozanatini belgilovchi grafik chizig‘i
233. A. Marshall foiz stavkasi o‘zgarishiga qanday baho bergan?
a) foiz kamayishi bilan insonlar kam jamg‘aradilar
b) foiz kamayishi bilan insonlar jamg‘armasi oshadi
v) foiz oshishi bilan insonlar kam jamg‘aradilar

g) foiz oshishi bilan korxonalar jamg‘armasi kamayadi
234. A. Marshall raqobatga qanday baho bergan?
a) korxonalar sinib ularning soni kamayadi
b) monopolistik korxonalar paydo bo‘ladi
v) bozorda narxlarning ko‘tarilishiga olib keladi
g) bozorda narxlarning pasayishiga olib keladi
235. «Boylik taqsimoti» asari neoklassiklardan kimga tegishli?
a) V.Pareto
b) A.Marshall
v) B.Klark
g) P.Samuelson
236. J.B.Klark tadqiqotida qaysi iqtisodiy qonun ustunlik qiladi?
a) eng yuqori unumdorlik qonuni
b) miqyos samarasi qonuni
v) aholi nufusi qonuni
g) mehnat taqsimoti qonuni
237. J.B.Klark ishlab chiqarish omillari bo‘lgan mehnat va kapitalni qanday bog‘liqlikda ifodalaydi?
a) mehnat kapitalga nisbatan ko‘proq foyda keltiradi
b) kapital mehnatga nisbatan ko‘proq foyda keltiradi
v) mehnatning oshishi kapital kamayishi o‘rnini bosadi
g) mehnat bilan kapital o‘rtasida bog‘liqlik bo‘lmaydi
238. Neoklassik maktabining italiyalik vakilini ko‘rsating
a) B.Klark
b) A.Marshall
v) P.Samuelson
g) V.Pareto
239. V.Pareto o‘zining iqtisodiy tahlili asosiga nimalarni qo‘ygan?
a) daromad miqdori va tovarlar bahosi
b) tovarning nafliligi va mehnat sarfi
v) eng yuqori naflilik va ish haqi
g) kapital va mehnat
240. «Neoklassika» qanday ma’noni beradi?
a) klassiklarga muxolif g‘oya
b) yangi klassiklar
v) eng yuqori naflikni o‘rganuvchi g‘oya
g) eng yuqori unumdorlikni o‘rganuvchi g‘oya
241. Institusionalizm yo‘nalishi qanday g‘oyani olg‘a suradi?
a) Iqtisodiyotni huquqiy normalar, an’analar, muassasalar orqali

boshqarish
b) Iqtisodiyotni kompaniyalar, konsepsiyalar yordamida boshqarish
v) Iqtisodiyotni bozordagi talab va taklif orqali boshqarish
g) Iqtisodiyotni foiz stavkalarini o‘zgartirish orqali boshqarish
242. Institutsionalizm rivojlanishini nechta davrga ajratish mumkin?
a) ikkita davr
b) uchta davr
v) to‘rtta davr
g) beshta davr
243. Institutsionalizm rivojlanishi birinchi davri namoyondalarini ko‘rsating.
a) M.Klark, A.Berli, G.Miiz
b) G.Myurdal, K.Gelbreyt, R.Xeylbroner
v) A.Marshall, P.Samuelson, V.Pareto
g) T.Veblen, J.Kommons, U.Mitchell
244. Institutsionalizm rivojlanishining ikkinchi davri namoyondalarini ko‘rsating.
a) M.Klark, A.Berli, G.Miiz
b) G.Myurdal, K.Gelbreyt, R.Xeylbroner
v) A.Marshall, P.Samuelson, V.Pareto
g) T.Veblen, J.Kommons, U.Mitchell
245. Institutsionalizm rivojlanishining uchinchi davri namoyondalarini ko‘rsaing.
a) M.Klark, A.Berli, G.Miiz
b) G.Myurdal, K.Gelbreyt, R.Xeylbroner
v) A.Marshall, P.Samuelson, V.Pareto
g) T.Veblen, J.Kommons, U.Mitchell

## MUHIM SANA, TUSHUNCHA VA IZOHLAR

Miloddan avvalgi (m.a.) IV ming yillik - Sharqdagi dastlabki quldorlik davlatlari paydo bo‘ldi, ilk iqtisodiy qarashlar shakllandi.

Xammurapi (m.a. 1792-1750 yy.) - Bobil (Vavilon) podshosi toshga o‘yib yozilgan o‘z qonunlarida quldorlik tuzumining xarakterli belgilarini aks ettirgan (282 ta). Bu yodgorlik Parijda Luvr muzeyida saqlanmoqda.

Zardushtiylik (Zoroastrizm, otashparastlik) - islomgacha O‘rta Osiyo, Ozarbayjon va Eron xalqlarining dini. Bunda ayniqsa tabiatni va hayvonot dunyosini asrash va boshqa iqtisodiy masalalarga alohida urg‘u berilgan.

"Avesto" - Zardushtiylikning muqaddas to‘plami, oromiy yozuvida bitilgan. m.a. VII asrda Markaziy Osiyoda qadimgi davrdagi iqtisodiy hayot aks etgan. Mehnatga, chorvachilikka alohida e’tibor berilgan. Ko‘p qismi yo‘q bo‘lgan, to‘liq emas. Rus va o‘zbek tillariga tarjima qilingan. Bu kitob 2700 yil avval yozilgan bo‘lib, unda "ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu amal" prinsiplari ilgari suriladi.

"Artxashastra" - m.a. IV-III asrlarda Hindistondagi siyosiy va iqtisodiy hayotni aks ettirgan. Ish haqi tushunchasi ish vaqti bilan ifodalangan.

Konfutsiy (Kun-Szi, m.a. 551-479 yy.) - Xitoydagi konfutsiychilik iqtisodiy ta’limotining asoschisi. "Lunyu" suhbatlar va mulohazalar to‘plamini yaratgan. "Xalqlar otasi" iborasining muallifi. Oz iste’mol qilib, ko‘proq ishlashni targ‘ib etgan. Odat bo‘yicha boshqarish tarafdori (ota- bola; podsho-xalq, oila kabi bo‘lishi kerak)

Legistlar - Xitoydagi (m.a.VI-III asrlar) iqtisodiy oqim. Konfutsiylikka qarshi. Boshqaruv qonunlar asosida bo‘lish tarafdori. Don masalasini hal qilish bosh vazifa deb qaraladi. Dehqonlarni ro‘yxat qilish, soliq tizimini tartibga solish tarafdorlari.

"Guan-Szi" (m.a.IV asr) - Xitoydagi ijtimoiy-iqtisodiy asar, unda xo‘jalikni davlat tomonidan tartibga solish tizimlari mukammal berilgan.

M.a. II ming yillik - G‘arbda (qadimgi Gretsiya - Yunoniston va Italiyada) quldorlik tuzumi yuzaga keldi. quldorlik klassik shaklda amalga oshdi.

Gomer (m.a. XII-VII asrlar oralig‘i) - "Iliada" va "Odisseya" asarlarida natural xo‘jalik konsepsiyalarini ilgari surgan.

Solon (taxm. m.a. 640/635-559) - Yunoniston siyosiy arbobi, islohotlar o‘tkazgan. qullarni qarzga berishni man etgan (chet elliklar bundan mustasno).

Perikl (m.a. 490-429) - qadimgi yunon siyosiy arbobi. qul ekspluatatsiyasini keng qo‘llagan, lekin savdo va pul xo‘jaligini ham rivojlantirgan. Afina eng rivojlangan davrda uni boshqargan.

Ksenofont (m.a. 430-335/354) - yunon yozuvchisi va tarixchisi. quldorlikni qo‘llab-quvvatlagan. "Dehqonchilik barcha san’atlarning onasi va boquvchisi" degan iboraning muallifi. "Ekonomiya" (uy xo‘jaligi) so‘zini birinchi bo‘lib ishlatgan. Mehnat taqsimotiga alohida urg‘u bergan va uni bozor ko‘lami bilan bog‘lagan. Pulning almashuv va jamg‘arish (ikki) funksiyalarini tan olgan.

Platon (Aflotun, m.a. 428 // 427 – 348 // 347) - "Davlat" va "qonunlar" asarlarining muallifi. Jamiyatni ish quroli - natural ishlab chiqarish deb qaragan, natural xo‘jalikni qo‘llagan, pulni jamiyatdagi dushmanlikning bosh sababchisi deb bilgan.

Aristotel (Arastu, m.a. 384-322) - yirik yunon olimi, "Nikomaxov ahloqi" va "Siyosat" asarlarini yozgan. Aflotundan ta’lim olgan. Aleksandr Makedonskiyga tarbiyachilik qilgan. qulchilikning prinsipial tarafdori bo‘lgan. qul - jonli (gapiruvchi) qurol, qul - tirik mulk, degan fikrda bo‘lgan. qiymatning dastlabki shaklini tahlil etgan: buyumdan ma’lum talabni qondirish va almashish uchun foydalanish mumkin, degan, natural xo‘jalik (T-T), tovar (T-P-T) va pulning kapital shaklidagi aylanishini (P-T-P) tahlil etgan. Tovar ishlab chiqarish uchun qo‘llaniladigan harakatni qo‘llab-quvvatlagan. P-T-P, P-P shaklini inkor etadi.

Xrematistika (xrema - mulk, egalik) - mulk orttirish san’ati, ya’ni foyda va boylikni pul shaklida to‘plashga yo‘naltirilgan faoliyat. Kapital qo‘yish va jamg‘arish san’atidir. Amaliyotda kam qo‘llaniladi. Aristotel tomonidan kiritilgan.

Katon Starshiy (m.a. 234-149) - qadimgi Rimdagi qulchilikni himoya qilganlardan. Dehqonchilik to‘g‘risidagi asarida qishloq xo‘jaligiga ko‘proq e’tibor berishni taklif etadi, ko‘proq sotish va kam olishni ma’qullaydi. qullar mehnatidan ratsional foydalanishni taklif etadi (Villa xo‘jaligi). Yaxshi ishlagan qulning sharoitini yaxshilash kerak, deydi, - lekin gunohkor qattiq jazolanishi kerak.

Varron (m.a. 116-27) va Lusiy Kolumella ( milodiy I asr) - Rim agronomlari. qul xo‘jaligini samarali tashkil etishga ahamiyat berdilar, dehqonchilik va chorvachilikni ham rivojlantirishni zarur deb bilganlar. Qul mehnatining samarasiz ekanligini tushungan va dehqonchilikni erkin kolonlarga berishni taklif etganlar.

Aka-uka Grakxlar, Tiberiy (m.a.162-133) va Gay (153-121) - Rim

davlatida yer islohotining rejasini tuzganlar. Har bir yer egasidan 125 ga (500 yuger) dan ortiq yerlar tortib olinib (oilaga 1000 yuger - 250 ga), boshqalarga 30 yugerdan bo‘lib berish taklif etilgan. Mayda dehqon manfaatlari himoya qilingan. Islohotlar natija bergan. Ammo aka-ukalarning o‘limidan keyin bu islohotlar bekor qilindi.

Latifundiya - yirik yer egaligi (pomestye). Dastlab qadimgi Rimda m.a. II asrda paydo bo‘ldi, milodiy I asrda keng tarqaldi. Feodalizm davrida avj oldi. Prussiya va AQSHda rivoj topdi. Inqiloblar tufayli tugatildi.

Spartak (m.a.71 halok bo‘ldi) - qullar qo‘zg‘oloniga (m.a.73-71) rahbarlik qildi. qo‘zg‘olon yengildi. Ammo, qulchilik tuzumiga zarba berildi.

Xristianlik (nasorolik) - jahondagi keng tarqalgan uch dindan biri, buddizm va islom bilan bir qatorda milodning I asrida Rim imperiyasinig sharqiy provinsiyasi(Falastin)da mazlumlar va ezilganlar dini sifatida paydo bo‘lgan, muqaddas kitobi Injilda "Ishlamagan tishlamas" prinsipi ilgari surilgan (havoriy apostol Pavelning fikri). 325 yildan Rim imperiyasining davlat dini, unda mulk, iqtisodiy tenglik, hamkorlik va boshqa g‘oyalar ilgari suriladi.

IV asrda G‘arbiy Yevropada (Rim imperiyasining qulashi) qullik tugatilib, feodalistik munosabatlar tarkib topdi (V-XVI-XVII asrlar). Sharq mamlakatlarida feodalizmning shakllanishi III-VII asrlarda ro‘y berdi. Bu davrdagi iqtisodiy g‘oyalar tovar-pul munosabatlarining rivoji bilan bog‘liq.

Islom - VII asrda (hijriy 622 yil) dastlab Arabistonda tarqalgan so‘nggi muqaddas din. Islomning muqaddas kitobi Qur’oni Karimda (arabchada o‘qish, qiroat degani) Alloh taolo tarafidan shaxsiy mulk muqaddas deb e’lon qilingan, unga ko‘z olaytirish katta gunoh deyilgan va sudxo‘rlik harom qilingan, ortiqcha sarfharajatlar qoralangan, ayniqsa "yenglar, ichinglar, hadya qilinglar, lekin isrof qilmang" degan oyatlar bugungi kun uchun ham ahamiyatlidir.

Forobiy Abu Nasr ibn Muhammad (870-950) - qomusiy olim, Arastuning izdoshi (Arastudan keyin ikkinchi muallim nomini olgan), xayoliy sotsializmning asoschilaridan, 160 dan ortiq asar yozgan, donishmand (ayni vaqtda diniy jamoaning boshlig‘i bo‘lgan), hukmdor, tasarruf etuvchi, "sahovatli yurt" haqidagi ta’limotni rivojlantirdi (fozil davlat tarafdori).

Abu Ali ibn Sino (980-1037) - qomusiy olim, 280 dan ortiq asar yozgan, "Uy xo‘jaligi", "Ruhshunoslik" va boshqa kitoblarda iqtisodiy

qarashlari aks etgan.

Beruniy Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad (973-1048) - qomusiy olim, 150 dan ortiq asarlari mavjud, lekin iqtisodiy qarashlari to‘liq o‘rganilmagan. Mehnat boylikning asosi ekanligi to‘g‘risidagi fikrlari mavjud.

Yusuf Xos Hojib Bolasog‘uniy (~1016-1018-?) - turk tilidagi ilk "qutadg‘u bilig" ("Saodatga yo‘llovchi bilim", 1069-70) asarida ajoyib iqtisodiy g‘oyalarni bayon etgan (1990 yilda chop etildi). Ayniqsa, hunar-kasb o‘rganish, savdo-sotiqning ahamiyatiga e’tibor berilgan. Kitobda "san’at, hunar - kishiga chiroy, turli-tuman hunarlarni o‘rganmaslik tubanlik belgisi" (64-bet) ekanligi haqida fikrlar va mehnat taqsimoti g‘oyalari bor. Davlat va iqtisodiyot masalalaridagi bog‘lanishni yaxshi tushungan.

Nizomulmulk (1018-1092) - Saljuqiylar davlati vaziri sifatida "Siyosatnoma" asarini yozdi, unda soliq , davlat mablag‘larining hisob-kitobi, iqto‘ (chek yer) to‘g‘risida qimmatli g‘oyalar berilgan.

Ibn Xaldun Abu Rahmon Abu Zayd (1332-1406) - arab olimi, "Ibratli misollar kitobi" (1370)da iqtisodiy g‘oyalari jamlangan. Uning fikricha, "jamiyat moddiy qiymatlar ishlab chiqaruvchilar" jamoasidan iborat. Asarlarida moddiy zarurat tarixni harakatlantiruvchi asosiy kuch, mehnat unumdorligi, zaruriy va qo‘shimcha mehnat, qiymat tushunchalari keltirilgan. 1401 yilda Amir Temur bilan uchrashgan. "Ijtimoiy fikr" jurnalining 1998 yil, 1-sonida lavha berilgan.

Amir Temur (1336-1405) - Markaziy Osiyoda markazlashgan davlat asoschisi, uning olib borgan to‘g‘ri iqtisodiy siyosati tufayli mamlakat obod bo‘ldi, ilm-fan ravnaq topdi. "Temur tuzuklari" kitobida bir qancha muhim ijtimoiy-iqtisodiy g‘oyalari berilgan. Masalan, soliq, maosh, budjet to‘g‘risida qimmatli fikrlari bor. Yangi yerlar ochgan dehqon uch yilgacha soliqdan ozod qilingan, o‘g‘rilik, qalloblik, tovlamachilik qattiq jazolangan. Uning davrida Buyuk Ipak yo‘li rivoj topgan, savdogarlar qaroqchilardan himoya qilingan, karvonsaroylar qurilgan. "Kam yegin, kam uxla, kam gapir" aqidasiga amal qilgan.

Ulug‘bek Muhammad Tarag‘ay (1394-1449) - A.Temurning nabirasi, Shohruhning o‘g‘li, 1409-49 yy. Movarounnahrda podsholik qildi, ilm-fan, madaniyat rivojiga, mamlakatning iqtisodiy ravnaqiga katta hissa qo‘shdi, 1428 y. Fulusiy pullar islohotini o‘tkazib, chaqa pullar qadrini mustahkamladi, "Tamg‘a" bojiga alohida e’tibor berdi, uning podsholik davrida mamlakatda ichki va tashqi savdo o‘sdi.

Alisher Navoiy (1441-1501) - temuriylardan, shoir, davlat arbobi

sifatida iqtisodiyot masalalariga katta e’tibor bergan. "Mahbub-ul-qulub" asarida dehqon, hunarmand va savdogarlar faoliyatiga alohida baho beradi, uning fikrlarida almashuv zarurati ko‘rsatilgan, kapital tushunchasining elementlari bor.

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) - Andijon, Qobul va Hindiston hukmdori, "Boburnoma", "Mubayyin" asarlarida soliq siyosati, masalan, zakot to‘g‘risida qimmatli g‘oyalari berilgan. Eng muhimi, daromad oshgan sari soliqning kamayib borishining ahamiyati tushuntiriladi. Savdo va ayniqsa, tashqi munosabatlarga katta e’tibor bergan.

Tomas Mor (1478-1535) - ingliz olimi. "Utopiya" (1516) asarida xayoliy sotsializm g‘oyalari berilgan, "qo‘ylar odamlarni yeb qo‘ydi" iborasining muallifi (dehqonlarning o‘z yerlaridan mahrum qilinishi). "Utopiya" so‘zi yunoncha "u-" (yo‘q) va "topos" (joy) so‘zlaridan tashkil topgan, ya’ni bu so‘zning ma’nosi "o‘zi yo‘q joy"dir.

Tommazo Kampanella (1568-1639) - italyan iqtisodchisi, Italiyadagi og‘ir iqtisodiy ahvolni ko‘rgan. "Oftob shahri" (1602 yilda yozilib, 1632 yilda chop etilgan) kitobida umumiy mulkchilik, mehnat asosida xayoliy sotsializm g‘oyalari rivojlantirilgan.

Merkantilizm - italyancha so‘z bo‘lib, savdogar degani, feodalizmning yemirilishi va ilk kapitalizm davridagi dastlabki bozor iqtisodiy maktabi; ilk merkantilizm (monetarizm) va rivojlangan merkantilizm davrlariga bo‘linadi; boylikning asosi muomala (savdo)da yuzaga keladi, degan g‘oya ilgari surilgan.

Antuan Monkretyen (1565-1621) - fransiyalik iqtisodchi, birinchi bo‘lib "siyosiy iqtisod" tushunchasini kiritgan, merkantilizmni, savdo rivojini qo‘llagan, dvoryanlarning zeb-ziynatga berilishini qoralagan.

Jan Batist Kolber (1619-1683) - Fransiya qiroli Ludovik XIV davrida moliya vaziri bo‘lgan, merkantilizmni jonjahdi bilan qo‘llagan, uning davrida agrar sohaga e’tibor kamaygan, kolbertizm siyosatining muallifi. Bank, sanoat va savdo rivojiga hissa qo‘shgan.

Kameralistika - merkantilizmning Germaniyadagi shakli. Bu g‘oya tarafdorlari yirik feodallar xo‘jaliklarini boshqarish masalasini yuqori qo‘yadilar va buni idora doirasida hal qiladilar.

Jon Lou (1671-1729) - asli shotlandiyalik, ammo ko‘proq Fransiyada ijod etgan. Merkantilizmning bir oqimini, ya’ni korxonalar va savdo haqiqiy boylikdir, degan g‘oyani ilgari surgan. Bank, aksiya, obligatsiya va qimmatli qog‘ozlar sotish yo‘lini tutgan. Hozirgi "piramida" usulining muallifi. Oxir-oqibatda inqirozga uchradi (Moskvadagi "MMM" va

boshqa shu kabi aksioner jamiyatlarining ibtidosi). Banklarning ijobiy tomonini ko‘ra bildi.

XVII asrning o‘rtalarida (1640-1660) Angliyada burjua inqilobi bo‘lib o‘tdi, feodalistik munosabatlar sinib, kapitalistik munosabatlar shakllana boshladi.

Manufaktura - italyancha "qo‘l mahsuloti" degani, mehnat taqsimoti, qo‘l hunarmandchiligi va yollanma mehnatga asoslangan oddiy kapitalistik kooperatsiyadan keyingi ikkinchi bosqich. XVI asrning o‘rtalarida paydo bo‘ldi, sanoat to‘ntarilishiga, ya’ni fabrikaga zamin tayyorladi. A.Smit tomonidan eng mukammal korxona turi deb hisoblangan.

Petti Vilyam (1623-1687) - Angliya klassik iqtisodiy maktabining asoschisi, merkantilizmni inkor etgan, boylikning asosi ishlab chiqarishda, degan fikrni ilgari surgan, "mehnat boylikning otasi, yer esa uning onasidir" degan iborani qo‘llagan. Kapitalistik tuzumni tabiiy va abadiy deb hisoblagan. Tovarning almashuv qiymatini tan olgan. Statistika ("Siyosiy arifmetika") faniga asos solgan. Aholiga boylik yaratuvchi sifatida qaradi.

Buagilber Pyer (1646-1714) - Fransiya klassik iqtisodiy maktabining asoschisi. Agrar sohaning rivojiga e’tibor berdi, kolbertizmga qarshi kurashdi, soliq tizimni isloh qilishni taklif etdi. Pulga "buyuk yovuzlik" deb qaradi. qiymatning iste’mol shaklini tan oldi, savdo va sanoatni to‘g‘ri baholamadi. Erkin savdo, proporsional baholar tarafdori bo‘ldi va erkin raqobatni qo‘llab-quvvatladi.

Fiziokratlar - yunoncha "tabiat" va "hokimiyat" so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lib Fransiyadagi klassik siyosiy iqtisod namoyandalari F.Kenye, A.R.Tyurgo va boshqalar fiziokratizmga asos soldilar. Tadqiqot mavzuini muomala sohasidan (merkantilizm) ishlab chiqarish sohasiga ko‘chirdilar; erkin savdo tarafdorlari edilar. Fermerlar, qishloq xo‘jaligi mamlakat ravnaqining asosi deb hisoblanadi.

Kenye Fransua (1694-1774) - fransiyalik fiziokratizm oqimining asoschisi, "Tabiiy tartib konsepsiyasi", "Sof mahsulot" "Unumli mehnat" to‘g‘risidagi ta’limotni yaratdi. O‘zining "Iqtisodiy jadval"ida takror ishlab chiqarishni va sinflarni tahlil etdi, kapitalga (doimiy va aylanma) izoh berdi. Almashuv ekvivalentligi ta’limotini ilgari surdi, unda boylik yaratilmasligini isbotladi. Boylik yaratishda tabiatning ishtirokini tan oldi.

Fermer, fermer xo‘jaligi - xususiy yoki ijaraga (lendlordan) olingan yerda olib boriladigan sohibkorlik tipidagi xo‘jalik. Kapitalistik fermerchilikda yollanma mehnatni jalb etish, oilaviy shakli esa aksariyat

xo‘jalik egasining (fermer va uning oilasi) kuchi bilan olib boriladi. Dastlab Angliyada XVII asrda vujudga keldi. Hozir deyarli barcha mamlakatlarda mavjud. Fiziokratlar qo‘llab-quvvatlagan xo‘jalik turi. Erkin savdo, xususiy mulk va mavjud tuzum tabiiy deb baholanadi.

Tyurgo Ann Rober Jak (1727-1781) - fransiyalik, fiziokratizm g‘oyasini rivojlantirdi. Sof bozor iqtisodiyoti tarafdori. Minimal ish haqini qo‘llagan, jamiyatda (kapitalist va ishchilarni qo‘shgan holda) beshta sinf (Kenyeda esa uchta) borligini aytdi.

Smit Adam (1723-1790) - Angliya klassik iqtisodiy maktabining buyuk nazariyotchisi, manufaktura davrining iqtisodchisi. Asosiy asari "Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to‘g‘risidagi tadqiqot" (1776) bo‘lib, unda hozirgi til bilan aytganda erkin bozor munosabatlari o‘z aksini topgan. Unda kapitalistik iqtisodiyot, xususiy mulk ideal deb hisoblanadi. Mehnat taqsimoti (vaqtdan, malaka oshishidan, mashina qo‘llashga imkon yaratishdan) uch yutuq berishini isbotlagan. Davlatning iqtisodga aralashuvi imkoni boricha kam bo‘lishi kerak, deydi. Egoizm xususiyati jamiyat manfaatlariga qarama-qarshi emas, degan xulosa chiqaradi. Xalq boyligi ishlayotgan odamlarning soniga va ularning mehnat unumdorligi darajasiga bog‘liq deb o‘ylagan. Manufakturani sanoatning eng yuksak cho‘qqisi deb bilgan (bu fikr xato edi, chunki fabrika ustunroq). "Smit dogmasi" deb ataladigan xatoga yo‘l qo‘ygan.

Gersog Baklu - Adam Smit tarbiyachilik qilgan oila.

Sanoat to‘ntarilishi (inqilobi) - Angliyada birinchi bor XVIII asr o‘rtalarida qo‘l kuchiga asoslangan manufakturadan (ikkinchi bosqichdan) mashinalashgan zavod-fabrikaga (uchinchi bosqichga) o‘tish jarayoni (XIX asrning o‘rtalarida yakunlangan). Iqtisodiy rivojlanishda muhim o‘rinni egallaydi, ijtimoiy-siyosiy sohalarda katta o‘zgarishlarga sabab bo‘lgan.

Rikardo David (1772-1823) - A.Smit ta’limotining buyuk davomchisi, sanoat to‘ntarishi davrining iqtisodchisi. Mehnat taqsimotini korxona doirasidan mamlakatlarga ham joriy etishni taklif etgan, nisbiy ustunlik, nisbiy chiqimlar ustunligi nazariyalariga asos solgan. Fabrika davrini to‘g‘ri tushungan, fritreyderlikni (erkin savdo) qo‘llab-quvvatlagan.

Proteksionizm - lotincha, davlatning milliy iqtisodiyotini chet el raqobatidan himoya qilishga qaratilgan iqtisodiy siyosat.

Fritreyderlik - inglizcha, erkin savdo siyosati, proteksionizmga zid. Bu siyosatni bozor munosabatlariga o‘tgan davlatlar tashqi savdoda qo‘llaydilar.

Sismondi Sharl (1773-1842) - Jenevada tug‘ilgan, Fransiyada yashagan, mayda ishlab chiqarish iqtisodining asoschisi, yirik kapitalistik ishlab chiqarishga qarshi chiqdi va buni "isbotlab berish"ga harakat qildi. Mamlakatdagi barcha illatlar yirik ishlab chiqarish tufayli deb hisoblagan, u kapitalizmni tan olmagan, davlat yo‘li bilan yirik korxonalarni tugatishni taklif etgan. Klassik maktabga muxolif.

Prudon Pyer Jozef (1809-1865) - fransiyalik mayda ishlab chiqarish iqtisodchisi va sotsiologi, mayda ishlab chiqarishni himoya qildi, "ishchi puli" orqali mahsulot sotishni taklif etdi. Kapitalizmni isloh qilishni taklif etdi. Prudon pulga qarshi bo‘lgan. Klassik maktabga muqobil fikrlar bildirgan.

Rodbertus Karl Iogann (1805-1875) - nemis iqtisodchisi, o‘z iqtisodiy g‘oyalarini "Sotsial xatlar" shaklida ilgari surdi, qo‘shimcha qiymat, pul va renta bo‘yicha mayda burjuacha qarashlar tarafdori. Gegel qarash - "o‘ta soddalashtirilgan", "soxtalashtirilgan" degan ma’nosi bor, g‘ayriilmiy iqtisodiy nazariyalar majmui, asosiy namoyandalari Sey (1767- 1832) va Maltusdir (1766-1834). Ular kapitalizmni himoya qilish maqsadida iqtisodiy jarayonlarning tashqi ko‘rinishini tavsiflash va "xo‘jako‘rsin"ga klassifikatsiya qilish bilan chegaralanib, xodisaning mohiyatini tadqiq etmaydilar. Ularga faqat ayrim masalanigina olib, butun muammoni hal qilish xosdir. V.k. namoyandalari klassik iqtisodiy maktabni inkor etadilar.

Apologetika - biror g‘oya yoki ta’limotni xato bo‘lsa ham ko‘r-ko‘rona himoya qilish. Ma’lum sinf, guruhlar manfaati himoya qilinadi.

Mill Jeyms (1773-1836) - ingliz iqtisodchisi, ish haqini oshirish uchun kurashmaslik tarafdori, jonli mehnat bilan birga ishlab chiqarish vositalarining mehnatini ham tan olishni talab qilgan.

Mak-Kullox Jon Ramsey (1789-1864) - ingliz olimi, Maltusni qo‘llagan, mehnat bilan birga kapital ham boylik yaratishda ishtirok etadi, degan fikrni ilgari surdi.

Senior A. (1790-1864) - ingliz siyosiy iqtisodi vakili, "So‘nggi soat" va "Tiyilish" nazariyalarini ilgari surgan, unga ko‘ra go‘yoki ishchilar o‘n bir yarim soat ish vaqtining faqat oxirgi bir soati davomidagina foyda keltirar ekanlar.

Sey Jan Batist (1767-1837) - fransuz iqtisodchisi, klassik maktabga qarshi, "kompensatsiya" nazariyasini ilgari surgan, "Sey qonuni"ning ("Bozorlar qonuni") muallifi, unga ko‘ra taklif talabni avtomatik ravishda vujudga keltiradi, Sey inqirozlarni inkor etgan, sinflar o‘rtasidagi qarama-qarshilikni tan olmaydi ("ular o‘rtasida uyg‘unlik bor", deydi).

Proteksionizm o‘rniga savdoni targ‘ib qilgan. Ishlab chiqarishning uch omilini (kapital, ishchi kuchi va yer) ilgari surdi.

Maltus Tomas Robert (1766-1834) - ingliz iqtisodchisi, "Nufuz nazariyasi", "Tuproq unumdorligining pasayib borishi qonuni"ning muallifi. Uningcha aholi geometrik progressiya asosida, noz-ne’matlar esa arifmetik progressiya asosida o‘sib boradi, oqibatda qashshoqlikning sababi aholi soniga bog‘liq deb ko‘rsatiladi. M. aholi sonining o‘sishini cheklash tarafdori bo‘lgan.

"Uchinchi shaxslar" - XIX asr boshlarida muomalaga kiritilgan tushuncha. Xo‘jalik hayotini sinfiy tahlil qilish metodida qo‘llaniladi. Jamiyatning asosiy ishlab chiqarish kuchlari bo‘lgan tadbirkorlar va yollanma ishchilardan tashqari qatlam bo‘lib, olimlar fikri bo‘yicha ular mahsulotni yaratish va realizatsiya qilishga imkon beradi.

Bastia F. (1801-1850) - fransuz iqtisodchisi, "Iqtisodiy garmoniyalar" kitobi va g‘oyasi, "manfaatlar uyg‘unligi" va "xizmatlar" nazariyalarining muallifi.

Keri Genri Charlz (1793-1879) - amerikalik iqtisodchi, "Manfaatlar uyg‘unligi" (1872) asarini yozgan. Shu g‘oyaning tarafdori bo‘lgan, millatlar uyg‘unligi g‘oyasini ilgari surdi, Rikardo va Maltusga qarshi chiqdi. Erkin savdoni rad etdi, proteksionizm va qulchilikni qo‘lladi.

Ekonometrika (Ekonometriya) - iqtisodiy jarayonlarga matematik usullarni qo‘llash bilan bog‘liq iqtisodiy matematik yo‘nalish. XIX asrning boshlarida vujudga keldi va hozirgi kunda nazariya va amaliyotda keng qo‘llaniladi.

Kurno Antuan Ogyusten (1801-1877) - fransiyalik matematik, birinchilardan bo‘lib matematikani iqtisodiy jarayonlarga keng qo‘llash uslubini ishlab chiqdi. Ekonometrika yo‘nalishining asoschilaridan biri, "talablarning elastikligi" funksiyasi va grafigini yaratdi.

Iogann Genrix fon Tyunen (1783-1850) - nemis olimi, ekonometrikada matematik modellashtirish bo‘yicha yirik mutaxassis.

Iqtisodiy ta’limot, nazariya, qonun, kategoriya - merkantilizm, fiziokratizm, klassik iqtisodiy maktab, marjinalizm - bu iqtisodiy ta’limotlardir; "nufuz", "so‘nggi soat", "uchinchi shaxslar", yuqori foydalilik, umumiy bandlik, qiymatning mehnat nazariyasi; qiymat, qo‘shimcha qiymat, talab va taklif qonunlari; tovar, mehnat taqsimoti, pul, narx, ish haqi, renta va boshqalar iqtisodiy kategoriyalardir.

Konsepsiya (lotincha tushuncha, tizim degani) - ma’lum predmet, xodisa va jarayonlarni tushuntirish uslubi, predmet va boshqalarga qaratilgan asosiy ko‘zqarash; ularni sistematik yoritib berish uchun bosh

g‘oya; bu matn ilmiy va boshqa faoliyatdagi asosiy fikrni, konstruktiv tamoyilni belgilash uchun ham qo‘llaniladi. Masalan, tabiiy tartib konsepsiyasi va boshqalar.

Tarixiy maktab - Germaniyada (vakillari: F.List, V.Rosher, B.Gildebrand, K.Knis) vujudga kelgan siyosiy iqtisod. Unda foydalilik va yuqori naf birinchi o‘ringa qo‘yiladi. Iqtisodiy qonunlar inkor etilib, iqtisodiy tarix bilan almashtiriladi.

Fridrix List (1789-1846) - nemis iqtisodchisi, tarixiy maktab asoschilaridan biri, uning ta’limotiga ko‘ra, qiymat "millatning ruhi" tomonidan yaratiladi; Fridrix List taraqqiyotni besh bosqichga bo‘ladi: badaviylik, cho‘ponlik, dehqonchilik - manufaktura, dehqonchilik - manufaktura - savdo; urush va bosqinchiliklarning tarafdori bo‘lgan, Fridrix List fashizmning iqtisodiy nazariyotchisidir.

Rosher Vilgelm Georg (1817-1894) - Germaniya tarixiy mni maqtabining faollaridan, iqtisodiy qonunlarning obyektivligini rad etadi, iqtisodiyotni ma’naviy fan deydi, sinfiy kurashning mavjudligini rad etadi, urushlar madhiyachisi, Sey g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlaydi.

Knis Karl (1821-1892) - nemis iqtisodchisi, uningcha, iqtisodiy qonunlar yo‘q va tabiiy qonunlar bor. Knis Karl xususiy mulk va kapitalizmni abadiy deb hisoblagan. Iqtisodiy siyosatga katta o‘rin bergan.

Gildebrand Bruno (1812-1878) - nemis iqtisodchisi, iqtisodiy xodisalarni tadqiq qilishning o‘z tarixiy usulini ilgari surdi (natura, pul, kredit), uningcha qiymat - foydalilikdir va xususiy mulk abadiydir.

Sen-Simon Klod Anri (1760-1825) - Fransiya xayoliy sotsializmining vakili, ammo, Sen-Simon xususiy mulkni saqlab qolish taradori bo‘lgan.

Furye Fransua Mari Sharl (1772-1837) - Fransiya xayoliy sotsializmining vakili, kelajakni sinfsiz ko‘rgan, uningcha jamiyat ishlab chiqarish birlashmalari - falangalardan iborat bo‘ladi ("Ish rohat bag‘ishlashi zarur").

Ouen Robert (1771-1858) - ingliz xayoliy sotsializmining vakili, kelajakda xususiy mulkni inkor etgan, barcha sog‘ odamlar uchun mehnat zarur deb hisoblab, "har kimdan qobiliyatiga yarasha va har kimga mehnatiga yarasha" prinsipini ilgari surgan.

Marks Karl (1818-1883), Engels Fridrix (1820-1895) - ilmiy sotsializm nazariyasining asoschilari. Kapitalizmning o‘rniga sotsializm kelishini bashorat etganlar. Xususiy mulkni inkor qilishgan. Umumxalq mulkini asosiy deb qarashgan (tarix bularni inkor etmoqda).

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlari - yangi tarixiy maktab va

"sotsial yo‘nalish" paydo bo‘ldi. Uning vakillari G.Shmoller (1838-1917), L.Brentano (1844-1931) va K.Byuxerlardir (1847-1930).

"Neoklassitsizm", Avstriya maktabi - XIX asrning 70-yillarida paydo bo‘ldi, uning asosiy maqsadi Marksning qiymatning mehnat nazariyasiga qarshi kurash edi. Vakillari: K.Menger (1840-1920), Ye.Byom- Baverk (1851-1914), F.Vizer (1951-1926). Marjinalizm, eng yuqori naf, eng yuqori unumdorlik g‘oyalari qo‘llaniladi.

Shmoller Gustav (1838-1917) - nemis iqtisodchisi, yangi tarixiy maktabning asoschisi, siyosiy iqtisodni xalq xo‘jaligi tarixi bilan bir deb qaradi, tarixiy formatsiyaga qarshi chiqdi, unga empirizm xos edi. Iqtisodiyotda odob-huquq omilini birinchi o‘ringa qo‘ygan.

Brentano Lui (1844-1931) - yangi tarixiy maktab vakili, kapitalizmni madh etgan, "Ijtimoiy inoqlik" tarafdori, "davlat sotsializmi" g‘oyalarini ilgari surgan.

Verner Zombart (1863-1941) - yangi tarixiy maktabga yaqin turgan nemis iqtisodchisi, antagonistik ziddiyatlar va iqtisodiy inqirozlarning muqarrarligini inkor etgan, kapitalizm tartibga solingan va rejali rivojlanib boradigan xo‘jalik tarzi deb tasvirlanadi. Turli tizimlarni pluralizm asosida yaqinlashtirish mumkin, deydi. Verner Zombart shovinizm pozitsiyalarida turgan va fashizm mafkurasining shakllanishiga ko‘maklashgan.

Menger Karl (1840-1921), Byom-Baverk Yevgeniy (1851-1914), Vizer Fridrix (1851-1926) - Avstriya maktabi vakillari, iste’mol ishlab chiqarishdan ustun qo‘yilgan, tadqiqotning Robinzonada usuli keng qo‘llanilgan, qadriyatlar (yuqori foydalilik) nazariyasi ilgari surilgan. qiymat iste’mol qiymati bilan aynan bir xil deb talqin qilingan.

Lenin (Ulyanov) Vladimir Ilyich (1870-1924) - marksizmni rivojlantirgan, imperializm to‘g‘risidagi ta’limotni yaratdi, Sovet davlatining asoschisi va rahbari, "Harbiy kommunizm", "Yangi iqtisodiy siyosat" muallifi, umrining oxirida sotsializmga yangicha qarash tarafdori bo‘ldi. L. ning asosiy g‘oyalari (umumxalq mulki, qat’iy rejalashtirish, sho‘rolar tizimi) inqirozga uchradi.

Ma’muriy-buyruqbozlik (rejalashtirilgan bozor) - sobiq SSSR va "sotsialistik" deb atalgan davlatlarda amalga oshirilgan bozor turi, unda davlat mulki ustun va xususiy mulk deyarli yo‘q, imperativ qat’iy reja hukmron, erkin raqobat inkor etiladi; qat’iy baholar qo‘llanadi. Hayot bozorning bu turini inkor etmoqda.

"Harbiy kommunizm" siyosati (1918-1920) - Sovet davlatida qo‘llanilgan, tovar-pul munosabatlari inkor etilgan, qat’iy taqsimot va

to‘la milliylashtirish hamda oziq-ovqat razverstkasi amalga oshirilgan, bir qancha sotsial sohalar tekin bo‘lgan (transport, elektr energiyasi, kommunal xizmatlar). X.k. davrida mamlakat og‘ir inqirozga uchradi.

"Yangi iqtisodiy siyosat" (Новая экономическая политика "НЭП") - Sovet davlatida 1921 yilda joriy etilgan. Tovar-pul munosabatlariga keng o‘rin berilgan, denatsionalizatsiya amalga oshirilgan, xususiy ishlab chiqarish va savdoga keng o‘rin berilgan va yagona oziq-ovqat solig‘i joriy etilgan. Ya.i.s.dagi kapitalistik munosabatlar iqtisodiyotni tez tiklash va rivojlantirishga imkon berdi. Faqat og‘ir sanoat, bank, temir yo‘l, tashqi savdogina davlat monopoliyasida bo‘lgan. Moliya tizimi pul islohoti orqali kuchaytirilgan. 1928 yildan boshlab inkor etilib, ma’muriy-buyruqbozlikka o‘tildi.

Chayanov Aleksandr Vasilyevich (1888-1937) - taniqli iqtisodchi, Rossiyada tashkiliy ishlab chiqarish maktabining asoschisi, dehqonni mehnat xo‘jaligining asosi deb, oilaviy mehnat yacheykasini tashkil etgan (kollektivizatsiyaga qarshi); kooperatsiya va agrar sohalarda 200 ga yaqin asar yozgan, bosh asari “Xo‘jalikning nokapitalistik sistemalari nazariyasi”dir. Chayanov 1937 yilda repressiya qilinib, qatl etilgan. Ilmiy g‘oyalari hozirda ham ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Monopoliya - ishlab chiqarish va banklarning yiriklashuvi va markazlashuvi, sof raqobat yo‘qoladi (nomukammal raqobat), monopol baho, foyda yuzaga keladi.

Marjinalizm - fransuzcha “chegaraviy” ma’nosidagi so‘zdan olingan, XIX asrning 70-yillari Jevons, Menger, Valraslar tomonidan ochilgan iqtisodiyotning metodologik prinsiplaridan biri, iqtisodiy xodisalarni tahlil etishda eng chekka ko‘rsatkichlarga suyanadi. Iste’molni ishlab chiqarishdan ustun qo‘yadi. Qiymatning mehnat nazariyasi inkor etiladi. Avstriya maktabi vakillari tomonidan qo‘llanilgan. XIX asrning o‘rtalarida fransuz iqtisodchisi Kurno (1821-1877), nemis iqtisodchilari Tyunen (1783-1850), Gossen (1810-1858) birinchi bo‘lib marjinal tahlilni iqtisodiy nazariyaga joriy etishga uringan. Uning kategoriyalari: qimmat, eng yuqori, chegaralangan naf, noyoblik, ishlab chiqarishning eng yuqori unumdorligi va boshqalar.

Kembridj maktabi (Angliya)- asosiy vakili Alfred Marshall (1842-1924), “qiymatsiz baho” nazariyasini ilgari surdi, bahoga "eng yuqori naf" va ishlab chiqarish chiqimlari ta’sir qiladi, degan. Marksning "qiymatning mehnat nazariyasi"ga qarshi. "Siyosiy iqtisod"ni "Ekonomiks" bilan almashtirdi. Asosiy asari "Iqtisodiyot prinsiplari" (1890), 3 jilddan iborat, rus tiliga o‘girilgan.

Lozanna maktabi - L.Valras va V.Pareto (1848-1923) tomonidan iqtisodiyotda ekonometrika usullarini keng qo‘llash tufayli paydo bo‘lgan.

Amerika maktabi Jon Beyts Klark (1847-1938) - Amerika maktabi vakillaridan, AQSH va Kolumbiya universitetlari professori, Amerika maktabi asoschisi, Amerika iqtisodiy uyushmasini tuzish (1885) tashabbuskorlaridan biri. Psixologik va ma’naviy omillar hal qiluvchi deb qaralgan. Avstriya maktabi prinsiplariga qo‘shilgan. "Mehnat va kapitalning pasayib boruvchi unumdorligi" qonunini kashf etgan. Marjinalizm g‘oyalarini rivojlantirgan.

Bozor iqtisodiyoti - tovar-pul munosabatlariga asoslangan va ularga xos iqtisodiy qonunlar asosida boshqariladigan iqtisodiyot. Uzoq tarixga ega bo‘lib, sohibkorlarning erkinligi va raqobatni taqozo etadi. qiymat qonuni, talab va taklif qonuni, pul muomalasi qonuni B.i.ga xos obyektiv qonunlardir. Bozor esa sotuvchi bilan xaridor o‘rtasida tovarni pulga ayirboshlash munosabatidir.

Bozor munosabatlarining shakllanishi - ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi davridayoq boshlangan, ammo tovar-pul munosabatlarining rivoji kapitalizm bosqichiga to‘g‘ri keladi (Makkonell K.R., Bryu S.P., "Ekonomiks", M.,1992, 12-bet).

Hozirgi zamon iqtisodiy ta’limotlarining uch asosiy yo‘nalishi mavjud: 1.Neoklassik (yangi klassik); 2. Keynschilik; 3. Institutsional.

Institutsionalizm - lotincha "urf-odat", "muassasa", "ko‘rsatma", ya’ni ayrim institutlar (oila, davlat, monopoliya, kasaba uyushmasi) ijtimoiy taraqqiyotning asosi deb qabul qilgan nazariya.XX asrning 20-30- yillarida AQSHda keng tarqaldi. T.Veblen (1857-1920), J.R.Kommons (1862-1945), U.K.Mitchell (1874-1948), J.Gobson (1858-1940) va boshqalar bu nazariyaning 20-30-yillardagi vakillaridir, keyingilari esa Klark, Berli, G.Minz (50-yillar), Lou, Myurdal, Gelbreyt, Xeylbroner (60-yillar va hozirgi davr) obyektiv iqtisodiy qonunlarning mavjudligini inkor etadilar.

Buyuk depressiya - 1929-1933 yy. va hatto 1940 yilgacha AQSH va jahondagi yirik iqtisodiy inqiroz, ishlab chiqarish 50% kamaygan, ishsizlik 25% oshgan (17 mln.).

Keyns Jon Meynard (1883-1946) - ingliz iqtisodchisi, keynschilikning asoschisi, 1929-1933 yillarda Buyuk inqirozni tahlil etib, jamoat ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta’minlash maqsadida davlatni kapitalistik iqtisodiyotni boshqarishiga asoslangan nazariyasini yaratdi. Milliy daromad, kapital mablag‘, ish bilan bandlik, iste’mol,

jamg‘arish va boshqa iqtisodiy miqdorlarning tahliliga alohida e’tibor berdi. "Boshqariladigan kapitalizm"ning tarafdori bo‘ldi, turli yo‘nalishlari mavjud. A.Marshallning do‘sti, marksizmning ashaddiy dushmani, "aralash iqtisodiyot"ning otasi va "Iqtisodiy jurnal"ning muharriri. Asosiy asari "Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi" (1936). Multiplikator formulasini taklif etgan, investitsiyalarning o‘sishi, bandlik va daromad- larning o‘sishi o‘rtasidagi nisbatni ko‘rsatgan, masalan, AQSH uchun o‘sha davrda bu ko‘rsatkich 2.5 bo‘lgan, ya’ni investitsiya qilingan 1 dollar 2,5 dollar daromad keltirgan.

Likvidlik - moddiy ne’matlar va boshqa resurslarning tez pulga aylana olish qobilyati; korxonani o‘z majburiyatlarini o‘z vaqtida to‘lay olish qobiliyati balansning aktiv punktlarini pulga aylantirish.

Keynschilik - J.M.Keynsning fikrlarini ilgari suruvchi yo‘nalish, uch oqimi mavjud: 1. O‘ng oqim - o‘ta reaksion oqim, qurollanish tarafdori, tartibga solish takliflari bor. Germaniya va Italiyada keng tarqalgan; 2. Liberal oqim - monopoliya manfaatlarini himoya qiluvchi va qurollan- ishni inkor etuvchi oqim. Uning asosiy vakili Jenni Robinson xonim, bu oqimda kasaba uyushmalariga keng o‘rin berilgan. Fransiyada "dirijizm" (dirijer so‘zidan olingan) nazariyasi vujudga kelgan; 3. Yangi keynschilik, keyinroq ortodoksal keynschilik - J.M.Keynsning qoidalari to‘la qabul qilingan holda A.Xansen tomonidan stagnatsiya nazariyasi bilan to‘ldiriladi. A.Xansen va K.Klark multiplikator prinsipini akselerator prinsipi bilan to‘ldirdilar, indutsirlangan investitsiya tushunchasini kiritdilar. Imperativ (zaruriy) va Indikativ (taklif majburiy emas) rejalashtirishlardan foydalanish mumkinligi aytiladi (Fransiya va bir qancha mamlakatlarda keng tarqalgan). Asosiy vakillari fransiyalik G.Ardan, G.Mendes-Frans, F.Perru, S.Xarrislardir. Yangi keynschilik o‘rniga postkeynschilik vujudga keldi, uning vakillari J.Robinson, N.Kaldor, P.Sraffa (Angliya), L.Eyxner,

Vayntraub (AQSH); bu oqimda o‘sish va taqsimot markaziy deb hisobla- nadi. Iqtisodni tartibga solish mexanizmini yanada takomillashtirish taklif etiladi.

Multiplikator - ko‘paytiruvchi; iqtisodiyot ta’limotlarida ma’lum bog‘lanishlarni o‘rganishda, mul’tiplikatsiya effekti bor joylarda qo‘llaniladi. Masalan, Keyns ta’limoti bo‘yicha qo‘yilgan investitsiya va daromadlar o‘rtasidagi bog‘lanishni ko‘rsatuvchi koeffitsient.

Akselerator-multiplikatorga teskari bo‘lgan koeffitsient bo‘lib, milliy daromad o‘sishining investitsiya o‘suviga ta’sirini ko‘rsatadi

(neokeynschilar qo‘llagan).

Yangi klassik (neoklassik) yo‘nalish – G‘arb iqtisodiy adabiyotida "Yangi klassik ekonomiks" deb ataladi va bu yo‘nalish asosida marjinalizm g‘oyalari yotadi. Buyuk ingliz iqtisodchisi A.Marshall (1842-1894) nomi bilan bog‘liq. Shu davrda "Siyosiy iqtisod" o‘rniga mafkurasiz "Eko- nomiks" matni paydo bo‘ldi. Unda sof erkin bozor iqtisodiyoti targ‘ib etiladi, davlatning roli imkoni boricha kam bo‘lmog‘i kerak. Bu yo‘nalishda liberalizm va neoliberalizm oqimlari mavjud. Amerika monetarizmi - M.Fridman (1912, AQSH) o‘zining "Kapitalizm va erkinlik" (1960) kitobida "erkin ishbilarmonlik"ni himoya qiladi. "Ozodlik yo‘lida qurbon berish"ni va "tabiiy ishsizlik"ni qo‘llab-quvvatlaydi, davlat tomonidan beriladigan yordamga qarshi chiqadi, iqtisodiyotni to‘g‘ri pul siyosati bilan (davlat kam aralashadi) tartibga solish tarafdori. Bu oqim g‘oyalari Rossiya Federatsiyasi iqtisodiyotida qo‘llanilmoqda.

"Marshall xochi" - talab va taklif egri chiziqlarining kesishganligini ko‘rsatadi; kesishgan nuqta ularning muvozanatini hamda turg‘un bahoni ko‘rsatadi.

Fridman Milton (1912, Nyu York) - iste’mol: pulning tarixi va nazariyasi sohalaridagi tadqiqotlari uchun 1976 yilda Nobel mukofoti bilan taqdirlangan. Uning pul to‘g‘risidagi g‘oyalari (monetarizm) AQSHda R.Reygan, Buyuk Britaniyada M.Tetcher iqtisodiy siyosatida qo‘llanilgan.

Samuelson Pol (1915, AQSH) -ko‘p marta qayta nashr etilgan "Ekonomiks" (1948) darsligini yaratdi (rus tiliga ham ag‘darilgan), 1970 yilda iqtisodiyot fanlarida ilmiy tahlil darajasini oshirishga qo‘shgan hissasi uchun Nobel mukofotini olgan. Iqtisodiyotning barcha sohalariga oid ilmiy ishlari bor. "Aralash iqtisodiyot"ning nazariyotchisi. Neoklassik tahlil bo‘ycha, taraqqiyotning "to‘rt g‘ildiragi" asoschisi.

Neoliberalizm - neoklassikaning bir oqimi, klassik iqtisodiy maktabni va keynschilikni birga qo‘llash tarafdori, bunda davlatning iqtisodiyotga aralashmasligi taklif etiladi. Asosiy vakillari L. fon Mizes (1881- 1973), F. fon Xayek (1899-1992) bo‘lib, bu oqim Avstriya maktabi deb ham yuritiladi. Sotsialistik (imperativ) rejalashtirishga qat’iy qarshi, chunki bu rejalangan tartibsizlikka olib keladi, mehnat taqsimoti, xususiy mulk va erkin almashuv sivilizatsiyaning mutlaq asosi deb sanaladi. Xayek 1974 yilda Nobel mukofoti sovrindori bo‘lgan. Neoliberalizm g‘oyalari asosida "Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti" yuzaga keladi, uning asoschilari - nemis olimlari V.Rebke (1899-1966), V.Oyken (1891-1950),

L.Erxard (1897-1977)lardir. Bu konsepsiya GFR va Shvetsiyada yaxshi natija berdi, uning asosiy g‘oyalari mustaqil O‘zbekiston iqtisodiyotida qo‘llanilmoqda. Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotining asosiy qoidalari: erkin baholarning zarurligi; erkin raqobat; talab va taklifning muvozanati; iqtisodiyotning muvozanati; davlat bozor xo‘jaligida shu shartlarni kafolatlashi va uning ijtimoiy yo‘naltirilgan rivojini ta’minlash. N. nafaqat ma’muriy-buyruqbozlik tizimidan, balki kapitalizmning erkin raqobatlarga asoslangan davridan ham qat’iyan farq qiladi. Mustaqil O‘zbekistonda undan ijobiy foydalanilmoqda.

Lukas R.I. - neoliberalizmning tarafdori, "Ratsional kutilmalar" nazariyasi uchun 1995 yilda Nobel mukofoti sovrindori. Ijtimoiy-institutsional yo‘nalish evolutsiyasi industrial jamiyatdan postindustrial, superindustrial (neoindustrial) jamiyat sari boradigan konvergensiya nazariyalarida (Gelbreyt, P.Sorokin - AQSH, Raymon, Aron - Fransiya, Tinbergen - Niderlandiya) kapitalizm va sotsializmning ilg‘or tomonlarini olish va amalda qo‘llash taklif etiladi.

"Xalq kapitalizmi" nazariyasi - kapitalizm transformatsiyasi (o‘zgarishi) bilan bog‘liq, go‘yoki hozirgi kapitalizm "eski kapitalizm"dan keskin farq qiladi, ilgarigi illatlar yo‘qolgan. X.k.ning vakillari: Berli, Nidler, Cheyz, Klark, Gelbreyt... "Kapitalning demokratizatsiyalashuvi" ("Mulk diffuziyasi") yo‘li bilan aholining barcha qismi mulkka egalik qiladi (aksionerlik jamiyatlari).

Konvergensiya nazariyasi - bu nazariyaning asosida kapitalistik ijtimoiy sistemalar o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy tafovutlar go‘yo asta-sekin bartaraf etiladi, degan g‘oya yotadi. Asosiy vakillari: U.Rostou, J.Gelbreyt (1908), Ya.Tinbergen (1903).

Ekonometrika konsepsiyalari - iqtisodiyotda matematika metod-laridan keng foydalanishga asoslangan konsepsiyalar. Asosiy vakillari L.Valras, V.Pareto (Lozanna universiteti), fon Neyman, U.Mitchell, E.Barone, M.Panteleoni. 1910 yilda polshalik iqtisodchi P.Chompa "Ekonometriya" ("Ekonomterika") matnini qo‘llagan. Ilmiy muomalaga (1926) norvegiyalik R.Frish kiritgan. AQSH, Buyuk Britaniya, Niderlandiya va boshqa mamlakatlarda keng rivoj topmoqda. Turli iqtisodiy ta’limot yo‘nalishlarida qo‘llaniladi, ilmiy va amaliy ahamiyatga molik. V.Leontyev ham bu konsepsiyalardan (1906) o‘zining "chiqim - chiqarish" uslubida foydalangan (U 1973 yilda Nobel mukofoti sovrindori bo‘ldi). 60-70-yillarda bu yo‘nalish sobiq SSSR, xususan O‘zbekistonda rivoj topdi. Respublikamizning olim va mutaxassislari tomonidan iqtisodiy modellashtirish va algoritmlash bo‘yicha muhim tadqiqotlar

amalga oshirilgan.

Jahon xo‘jaligi - qadimdan vujudga kelgan, ammo XVI asrdagi buyuk geografik kashfiyotlar tufayli rivoj topgan, ayniqsa II Jahon urushidan keyin avj olgan xalqaro iqtisodiy munosabatlar majmui. Xalqaro mehnat taqsimoti bu xo‘jalikning moddiy asosini tashkil etadi. Xalqaro integratsiyada baynalmilallik xos.

Xalqaro mehnat taqsimoti - butun jahon xo‘jaligining tashkil topish va rivojlanishining hal qiluvchi omili. Birinchi bo‘lib uning zarurligini D.Rikardo aytgan. Ayrim ishlab chiqarish korxonalaridagi kabi (A.Smit), jahon xo‘jaligida ham mehnat taqsimoti nisbiy chiqimlar ustunligini beradi, ya’ni ayrim mamlakatlarning ma’lum sohada ixtisoslashuvi yuqori samara beradi.

Jahon iqtisodiyoti nazariyalari - jahon bozorida mahsulot, valuta, ishchi kuchi va boshqalarning harakat jarayonlariga xos qonun va qonuniyatlarini o‘rganuvchi nazariyalar. "Ishlab chiqarish omillarining xalqaro taqsimoti" nazariyasi tipikdir (E.Xeksher, B.Olin, P.Samuelson); "Mahsulot hayoti sikli" nazariyasi (G.Xufbauer, R.Vernon, M.Pozner); Monopo- listik raqobat nazariyasi (E.X.Chemberlin) va boshqalar.

Absolut (mutlaq) afzallik prinsipi - A. Smit tomonidan ilgari surilgan g‘oya bo‘lib, savdo munosabatlaridagi mutlaq afzallikni anglatadi (tovarlarni ishlab chiqarishda sarf-xarajatlarning ustunligi hal qiluvchi hisoblanadi).

Nisbiy afzallik prinsipi - D. Rikardo tomonidan izohlab berilgan prinsip bo‘lib, ishlab chiqarish omillari (kapital, mehnat, yer) xarajatlarining afzalligini ko‘rsatadi va tashqi iqtisodiy aloqalarda keng qo‘llaniladi.

Insoniy rivojlanish konsepsiyasi - BMT tomonidan 90-yillarda ilgari surilgan. Unda taraqqiyot natijalarining inson bilan hamohang bo‘lishi ko‘zda tutiladi, moddiy boylik (yalpi milliy mahsulot) bilan birga sog‘lom hayot, savodxonlik, demokratik institutlar bilan birinchi o‘ringa qo‘yiladi (ayrim davlatlar kambag‘al bo‘lishiga qaramay, bu sohada yuqori natijaga erishmoqdalar va aksincha) hamda "ijtimoiy rivojlanish indeksi" (IRI) bilan o‘lchanadi.

Nokapitalistik (kapitalizmni chetlab) rivojlanish konsepsiyasi - ilgari qoloq bo‘lgan, kapitalizm taraqqiyoti bosqichini to‘la bosib o‘tmagan mamlakatlar uchun tavsiya etilgan rivojlanish yo‘li. Bir qancha mamlakatlar shu yo‘ldan borib, sotsializm quryapmiz, deb o‘ylagan. Hayot buni inkor etdi.

O‘tish davri - bu yerda ma’muriy-buyruqbozlik (imperativ

rejalashtirilgan) iqtisodiyotdan bozor munosabatlariga o‘tish davri. O‘z davrida sotsiolistik deb atalgan mamlakatlarning, xususan, O‘zbekistonning bozor munosabatlariga o‘tish davri.

Iqtisodiy rivojlanishning “o‘zbek modeli” – 1991-yil 1-sentabrdan mustaqil taraqqiyot yo‘liga o‘tgan Respublikamizning ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ilgari surilgan, uning besh tamoyili mavjud: 1. Iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligi va bunda iqtisodiyotning har qanday mafkuradan holi bo‘lishi. 2. Davlat bosh islohotchi. 3. Qonunning hamma narsadan ustun turishi. 4. Kuchli ijtimoiy siyosat. 5. Bozorga bosqichma- bosqich, tadrijiy (evolutsion) yo‘l bilan borish.

## O‘rta asrlarda amalda bo‘lgan iqtisodiy atamalarning izohli lug‘ati

Avbosh (arab. شابوا ) – bezori, bevosh, sayoq. O‘rta asrlarda biror-bir turdagi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanmay sayoq yurgan kimsalar yoki o‘z haq-huquqlarini talab qilib, xo‘jayinlarga qo‘l ko‘targan kishilarga nisbatan ishlatilgan so‘z.

Avorizot (arab. راوات اذ ) – favqulodda olinadigan soliq turi (Amir Temur mazkur soliq turini bekor qilgan).

Adad (arab. دعدَ) – son, raqam, tartib raqami kabi tushunchalarni ifodalovchi so‘z shakli; miqdor, “dona” ma’nosida ham ishlatiladi.

Allof (arab. فلآع) – giyohfurush; o‘tin-cho‘p sotish bilan shug‘ullanuvchi kishi; bozorda g‘alla, un sotuvchi savdogar.

Amvol (arab. لاومـ ( ا– xususiy shaxsga qarashli mulk, mol-dunyo, kapital.

Amir (arab. ريما ) – lashkarboshi, amru farmon beruvchi, harbiy boshliq, hokim. Arab xalifalari tomonidan o‘z qo‘l ostidagi turli mamlakatlarning hokimlariga berilgan unvon. Amir Temur va mang‘it sulolalaridan bo‘lgan hukmdorlar podshoh, xon avlodlaridan bo‘lmaganliklari uchun o‘zlarini A. deb ataganlar. Ular shu unvon bilan xalifa, xon yoki podshoh nomidan harbiy qo‘mondon sifatida mamlakatni idora qilganlar. A. Unvoni Amir Temur farzandlari va keyingi sulolalar davrida oliy hukmdor tarafidan vazirlar va mahalliy hokimlarga in’om etilgan.

Amr (arab. رما ) – “buyruq” tushunchasining eskirgan atamasi.

Attor (arab. راطع) – atir va xushbo‘y pardoz-andoz mollari bilan savdo-sotiq qiluvchi mayda savdogar. Keyinchalik A.lar ro‘zg‘or buyumlari, kundalik hayotda kerak bo‘ladigan mayda-chuyda mollar, dori-darmon kabilar bilan ham savdo-sotiq qila boshlaganlar.

Attorlik ( arab. كيلراطع) – atir-upa kabi pardoz-andoz va kundalik mayda-chuyda ro‘zg‘or buyumlari sotish bilan bog‘liq kasb nomi; bozorda attorlarning do‘koni joylashgan qator, rasta.

Aqor (arab. راقا ) – ko‘chmas mulk, yer-suv, zamin tushunchalarini anglatuvchi ijtimoiy atama. Temuriylar davrida Markaziy Osiyo va Eronda (Temuriylar hukmronlik qilgan sarhadlarda) yer-suv, bog‘-rog‘, tegirmon, kanal, do‘kon, ustaxona, bozor kabi ko‘chmas mulklar A. deb atalgan. A.ni vasiyat bilan vaqf (q. Vaqf)ga aylantirish mumkin bo‘lgan.

Ahd (arab. دهع ) – qat’iy so‘z, qaror, va’da; kelishuvchi tomonlar o‘rtasida biror masalada tuzilgan shartnoma, bitim.

Badal (arab. بدَل ) – 1) biror narsa evaziga to‘lanadigan haq; 2) narsaning qiymatiga muvofiq keladigan boshqa biror narsa; 3)

keyinchalik: biror tashkilot, jamiyat kabilarga a’zo bo‘lgan shaxsning o‘z jamiyatini iqtisodiy jihatdan qo‘llash maqsadida unga to‘lab turadigan puli, a’zolik haqqi.

Bazzoz (arab. بذاذ ) – ip, gazlama bilan savdo-sotiq qiluvchi savdogar, do‘kondor. B.lar bozorlarda gazlama savdosi bilan shug‘ullangan, gazlamalarni ot-aravalarga ortib, ko‘chma savdo bilan ham shug‘ullangan.

Bakovul, baqovul XII–XIV asrlarda belgilangan joylarda savdogarlarning tamg‘a (boj) solig‘ini to‘lab o‘tishlarini nazorat qiluvchi kichik mansabdagi harbiy xizmatchi; XV asrdan keyin podshoh, xon va lashkarga ovqat tayyorlash ustidan nazorat qilib turuvchi harbiy mansabdor; keyingi asr (XVIII, XIX va XX asr)larda to‘ylarda taom tayyorlashga bosh-qosh bo‘ladigan yoki taom tayyorlovchi pazanda.

Barlos – turkiy urug‘lardan biri. B.lar o‘zbek qabilalari orasida o‘ta jangovar urug‘ bo‘lib, ular, asosan, chorvachilik bilan shug‘ullangan; tog‘li va tog‘ oldi tumanlarda yashagan. Amir Temur B. urug‘iga mansub bo‘lgan. Temuriylar davrida bu urug‘dan ko‘pgina bek va amirlar yetishib chiqqan.

Barot (arab. باربت ) – maktub, podshoh yoki xon guvohnomasi; patent, ism. 1. Podshoh, xon tomonidan soliq yoki to‘lovdan ozod etish; ma’lum muddatda xalqdan soliq, pul, g‘alla yoki yem-xashak to‘plash; ma’lum shart bilan biror mulk yoki mansabni egallash uchun beriladigan maxsus yorliq, guvohnoma. 2. Eronda hozirgi vaqtda pochtadan yuborilgan pul va boshqa qimmatbaho qog‘ozlarni olish uchun beriladigan hujjat. 3. Hijriy yil hisobi bilan sakkizinchi oy (sha’bon). 4. Erkaklar ismi.

Baqqol (arab. بقال ) – bozor, guzar yoki o‘z hovlisi yonidagi do‘konchalarda mayda-chuyda ro‘zg‘or buyumlari, meva, shirinlik, sabzavot, dorivor, guruch, mosh kabi mahsulotlar sotuvchi mayda savdogar.

Baho (arab. بها ) – 1) narsaning, molning pul bilan ifodalangan qiymati; 2) ahamiyat, qadr, qimmat; 3) hozirgi vaqtda: o‘quv yurtlarida o‘zlashtirish darajasiga qarab qo‘yiladigan ball.

Begor (hind.) – O‘rta Osiyo va O‘rta Sharqda hukmronlar yoki mulkdorlarga tekinga ishlab berish majburiyati. B. Eronda VIII asrdan, O‘rta Osiyo, Hindiston va Afg‘onistonda X asrdan amalda bo‘lgan.

Boj (arab. باج ) – o‘lpon, soliq, to‘lov. O‘rta Osiyoda ilk o‘rta asrlardan boshlab bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga, ichki nizolar kuchaygan vaqtda bir viloyatdan boshqa viloyatga o‘tish uchun,

shuningdek, ichki bozorlarda savdogarlardan olingan maxsus to‘lov, o‘lpon.

Bozargon (fors. زابناگرَ) – bozorchi, savdogar. O‘rta asrlarda mamlakatlararo va viloyatlararo yurib savdo qiluvchi kimsa, bozorchi, savdogar. Xon va sultonlar (hukmdorlar) ko‘pincha o‘z elchilarini B.larga qo‘shib yuborishgan. B.larning o‘zlari ham savdo-sotiq ishlaridan tashqari, ayg‘oqchilik ham qilganlar.

Bozor ahli – harbiy yurishlar vaqtida o‘rdu atrofida savdo-sotiq bilan mashg‘ul bo‘lgan kishilar.

Bolish – mo‘g‘ullar va qisman turklar orasida (XIII-XIV asrlar) muomalada bo‘lgan tilla yoki kumush pul. 1 B. 75 dinorga teng bo‘lgan. Ba’zi manbalarda esa 1 B.ni 300 dinorga barobar bo‘lgan deb ko‘rsatilgan. B.ning vazni 150 misqoldan 600 misqolgacha kelib, oltin va kumush B.ning muhri va yozuvlari bo‘lmagan.

Bosqoq (mo‘g‘ul.) – o‘rta asrlarda oliy hokimiyat tarafidan bosib olingan mamlakatlarga yuborilgan, mahalliy hukmdorlar faoliyati va xatti-harakatini nazorat qilib boradigan maxsus mansabdor. B.lar asosan o‘lpon va soliq yig‘ish bilan shug‘ullanishgan. B.lar ixtiyoriga maxsus harbiy qism va xazina xizmatchilari biriktirilgan.

Buyuk ipak yo‘li – miloddan avvalgi birinchi ming yillikning II yarmidan to milodiy XVI asrgacha – geografik kashfiyotlar orqali suv yo‘llari qaror topguncha - Sharq va G‘arbni bog‘lagan qadimgi asosiy karvon yo‘li. B.i.y. orqali qadimgi Hindiston, O‘rta Osiyo va Kichik Osiyoga asosan ipak eksport qilingan. Shu bois bu yo‘l tarixda “Ipak yo‘li” nomi bilan shuhrat topgan. Sohibqiron Amir Temurning harbiy va iqtisodiy siyosatida B.i.y. alohida o‘rin tutgan.

Vazifa (arab. وﻇﻴﻔﺔ) – maosh, oylik, ish, topshiriq, xizmat. 1. Qadimda hukmron tomonidan martabali shaxs va ruhoniylarga belgilangan muddatlarda berib turilishi lozim bo‘lgan muayyan miqdordagi oziq-ovqat, mahsulotlar. 2. Bajarilishi lozim bo‘lgan avvaldan belgilangan ish, yumush, xizmat. 3. Ma’lum lavozimni bajarish bilan bog‘liq faoliyat turlari tizimi, lavozim.

Vazn (arab. وزن ) – o‘lchov; og‘irlik, salmoq. 1) jismning o‘lchab aniqlanadigan og‘irligi; 2) she’r o‘lchovi.

Vasiqa (arab. وﺛﻴﻘﺔ ) – Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida mol-mulk oldi-sotdisi to‘g‘risida tuzilgan rasmiy hujjat (shartnoma).

Vaqf (arab. وﻗﻒ ) – turish, turoq, qo‘zg‘almas; davlat tomonidan ajratilgan mol-mulk; tinim, pauza-sukunat; belgi. 1. She’rdagi turoq, Qur’on surasini o‘qiyotganda har bir oyat oxirida to‘xtash. 2. Hukmdorlar

yoki mulkdorlar tarafidan din va xayrli maqsadlar yo‘lida maktab, madrasa, musofirxona, yetimxona, kasalxona hamda diniy muassasalar ixtiyoriga daromadidan foydalanib turish, ammo o‘zini sotmaslik sharti bilan o‘tkazilgan yoki vasiyat qilib qoldirilgan mulk. Ma’lum shaxslar tomonidan qilingan V. “Vaqfi ahliy”, vaqf qiluvchining avlodlari foydasiga qilingan V. “Vaqfi avlod”, mozorga qilingan V. “Abvob al-birr”, xayr-ehson qiluvchi muassasalar V.i “Abvof al-xayr” deb yuritilgan. V. mulklari 3 yildan ortiqqa ijaraga berilmagan va bu mulklar xiroj, ushr, zakot soliqlaridan ozod qilinmagan. 3. Musiqiy asarlarni ijro etish paytidagi tinim, kichik pauza-sukunat. 4. Arab yozuvidagi undosh harflar ustiga qo‘yiladigan, undoshni unliga aylantirmaslik kerakligini bildiradigan belgi; 5. V. yozuvda nuqta ma’nosida ham ishlatiladi. 6. Aruz qoidalaridan biri.

Vaqfnoma – mulk, boylik yoki daromad keltiradigan boshqa ashyolarni vaqf tariqasida machit, madrasa, eshon, mufti yoxud so‘fiylik jamoalari ixtiyoriga o‘tkazish haqidagi hujjat. V. qozi tasdig‘idan keyin huquqiy hujjat hisoblanib, unda mulkning vaqfga o‘tkazilish sababi, mulk egasining nomi, mulkning mutavalli (boshqaruvchi)si, mulkdan foydalanish tartibi aniq ko‘rsatilgan bo‘ladi. Amir Temur hukmronligi davrida vaqf mulki ajratish amalda bo‘lib, V.lar muhim huquqiy hujjat hisoblangan.

Vaqfxo‘r – vaqf mulkidan foydalanuvchi yoki vaqf daromadi hisobiga tirikchilik qiluvchilar.

Voris (arab. وارث ) – 1) meros olish huquqiga ega bo‘lgan shaxs, merosxo‘r, bo‘lg‘usi meros egasi; 2) bobolardan meros qolgan moddiy va ma’naviy boyliklarga egalik qiluvchilar.

Vorislik huquqi – meros qoldirilgan mol-mulkning vorislar qo‘liga o‘tishini ta’minlaydigan shariy va huquqiy me’yorlar majmui.

Vofurush (fors. فروش او ) – bozor va guzarlarda oyoq kiyimlari bilan savdo qiladigan do‘kondor.

Gazi shar’iy – taxminan 49,875 sm.ga teng uzunlik o‘lchovi.

Garov (fors.-tojik. گرو ) – 1) u aniq bir majburiyatni, shartni bajarish; qarzni belgilangan muddatda qaytarishni kafolatlash maqsadida qimmatbaho buyum yoki boylikni qarz beruvchiga qoldirish; 2) biror narsa yoki hodisa haqida bahslashuvchi ikki tomon o‘rtasidagi shart.

Go‘r rabboniylik – biror-bir iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanmasdan o‘g‘irliq va bosqinchilik bilan kun kechirish tarzi.

Dallol (arab. دلال) – Sharq mamlakatlarida muayyan haq evaziga savdo-sotiq ishlarida vositachilik qiluvchi shaxs.

Dang, danik (fors.-tojik. دگـذ، دکـیذَ ) – biror narsaning oltidan bir qismi. Masalan, dinor yoki dirhamning oltidan biriga to‘g‘ri keladi. XIV–XIX asrlarda bir Buxoro D.i 0,8 kg.ga teng bo‘lgan.

Daromad (fors.-tojik. ددمار ) – kirim; kirish. 1. Tijoratchi, hunarmand, dehqon va boshqalarning biror faoliyat evaziga oladigan puli, foydasi. 2. Muqaddima, debocha, umuman, musiqiy asarning bosh qismi.

Darxon (fors. ن داخر ) – o‘rta asrlarda soliq, to‘lov va boshqa majburiyatlardan ozod qilingan yoki yengillik berilgan imtiyozli va daxlsiz qabila, urug‘ yoxud mansabdor.

Dasturxonchi – o‘rta asrlarda hukmdorlar saroyidagi zimmasiga xon va uning mehmonlari oldiga dasturxon tuzash vazifasi yuklatilgan kichik xizmatkor.

Dahsar (fors. ده رسد) – og‘irlik o‘lchovi birligi. Botmonning ¼ ulushi D. deb yuritilgan. Botmon 4, 8, 12, 16 pud miqdoridagi har xil kattalikda ishlatilgan. D. Xorazmda unsir deb atalgan.

Devon (fors. ناوید ) – oliy hukmdor idorasi. Temuriylar davrida D. devoni oliy, devoni mol, devoni tavochi, devoni amlok, devoni yarg‘u, devoni insho, devoni muxtasiblarga bo‘lingan. Bu mahkamalarning har biri o‘ziga xos vazifani bajargan. Masalan, devoni mol moliya devoni hisoblanib, asosan, xazina ishlari bilan shug‘ullangan; 2) biror shoirning she’rlari radiflariga ko‘ra alifbo sirasi bilan tartib etilgan to‘plam.

Devonbegi – devon boshlig‘i. O‘rta asrlarda soliq yig‘uvchi muassasa boshlig‘i bo‘lib, keyinchalik unga mamlakatning barcha moliya ishlari yuklatilgan.

Dinor (lot.) – VII–X asrlarda Osiyoning musulmon davlatlarida, Shimoliy Afrika va Ispaniyada muomalada bo‘lgan asosiy pul birligi.

Dirham, diram (yunon.) – VII–XIV asrgacha Osiyoning musulmon mamlakatlarida, Shimoliy Afrika va Ispaniyada muomalada bo‘lgan pul birligi – kumush tanga; misqol (4,8 gr.)ning o‘ndan yetti qismi, 3,36 gr.ga teng kumush yoki mis pul. D. Hindistonda boburiylar davrida XVI asrda ham zarb qilingan.

Dorug‘a (mo‘g‘ul. “daraxu” – nazoratchi, boshliq; daraxtu – bosmoq, ezmoq) – o‘rta asrlarda Oltin O‘rda, O‘rta Osiyo va Eronda viloyat, o‘lka, shahar hokimi. D. zimmasiga, asosan, aholini ro‘yxatga olish, oliq-soliq yig‘ish yuklatilgan.

Dorug‘ona – shahar hokimi foydasiga yig‘ib olingan pul yoki boshqa shakldagi moddiy boylik; dorug‘a haqi.

Yobisa – o‘zlashtirilmay yotgan qo‘riq yer; quruq yer.

Yom, jom (mo‘g‘ul. yo‘l) – o‘rta asrlarda elchi va choparlar to‘xtab o‘tadigan joy, bekatning qadimgi nomi. Yo. da ularga qo‘noq, oziq-ovqat va ot-uloviga yem-xashak berilgan. Zarurat bo‘lsa, jo‘nab ketishlarida otlari almashtirib berilgan. Chingizxonning kichik o‘g‘li O‘qtoy qoon Yo. qurishga alohida ahamiyat bergan. Amir Temur ham Yo.larning o‘z vazifasini bajarishini qattiq nazorat qilib borgan. Yom, Jom kabi joy nomlari Yo. o‘rnida vujudga kelgan toponimlardir.

Yombi (mo‘g‘ul. yomba, xitoycha “yuane bao”) – 1) quyma kumush bo‘lagi (kumush yombi). Dastlab, pul sifatida yirik savdo muomalalarida ishlatilgan. Birinchi marta Xitoyda paydo bo‘lgan; 2) yaxlit quyma yoki tabiiy oltin, kumush bo‘lagi.

Yomchi – yom, yomxona xizmatchisi, bekat nazoratchisi. Yo.ning zimmasiga elchilar, choparlar, ziyoratchilarni qo‘noq hamda oziq-ovqat bilan ta’minlash, jo‘nab ketishlarida, zarurat bo‘lsa, otini almashtirib berish yuklatilgan.

Yorliq (turk. farmon, buyruq) – 1) hukmdorlar tarafidan tegishli mansabdorlarga qo‘shin to‘plash, ariq qazish, yo‘l qurish kabi turli tadbir va hasharlarni uyushtirish, ularga xalqni jalb qilish uchun berilgan yozma buyruq; 2) hukmdorlarning amirlar va ruhoniylarga biror imtiyoz berish haqidagi uning o‘z muhri bilan tasdiqlangan rasmiy hujjat; 3) keyingi asrlarda: mollarning ustiga qo‘yilgan va uning turi, uzunligi, miqdori, bahosi kabilarni ko‘rsatadigan maxsus belgi; 4) hozirgi vaqtda: rasmiy hujjat.

Yorg‘u (mo‘g‘ul. sud) – 1) qonun, sud majlisi, hukm, jazolash, o‘ch olish; 2) o‘rta asrlarda soliq, to‘lov va xirojlarni to‘lashdan bosh tortgan dehqonlardan undiriladigan jarima; 3) g‘avg‘o, qiyqiriq, dod solish ma’nosida ham keladi.

Yorg‘uchi – mo‘g‘ullarda qonunchi, qonun asosida (Chingizxon yososi asosida) hukm chiqaruvchi mansabdor.

Yoso – qonun, qoida, qaror; xon buyrug‘i. Chingizxon joriy etgan qonun.

Jav (fors. وخ ) – og‘irlik o‘lchovi, arpa donasi: 0,045 gr.ga teng bo‘lgan.

Jarib (arab. بيرخ ) – Sharq mamlakatlarida, jumladan, O‘rta Osiyoda VII asrdan boshlab qo‘llangan hajm, og‘irlik va yuza o‘lchov birligi. O‘rta Osiyo rasmiy-huquqiy hujjatlarida J. bir tanob (bir jarib 3600 kv. gazga, ya’ni taxminan bir tanobga teng bo‘lgan yuza o‘lchovi)ni ifoda etgan. Yer o‘lchovchi mansabdor jaribkash yoki jarib amin deb atalgan.

Jarchi – podshoh va xonlarning farmoyishlarini el-yurt orasida e’lon qiluvchi kichik mansabdor. Tavochi bilan yurib lashkar ham to‘plagan. J.lar podshoh, xon, amir va beklarning farmon, bildirish va chaqiriqlarini ko‘cha-kuylarda, rasta va bozorlarda yurib, qichqirib xalqqa yetkazishgan. Shuningdek, ular biror narsa yo‘qotganlarning yoki savdogarlarning topshiriqlarini ham elga ma’lum qilishgan.

Jogir, joygir (fors. ریگاجه، ریگاج ) – boburiylar davrida Hindistonda keng tarqalgan yerga egalik shakllaridan biri. J. egasi J.dan undirilgan davlat solig‘ining bir qismini olgan. Buning evaziga muayyan miqdorda otliq askar va yuk tashuvchi hayvonlar saqlashi hamda ko‘prik, sug‘orish inshootlari qurishi va ularni ta’mirlab turishi shart bo‘lgan. J. yerlar hukmdor tarafidan istagan vaqtda almashtirib turilgan. XVII asrning II yarmidan e’tiboran J. yerlar kimga qarashli bo‘lsa, uning xususiy mulkiga aylana boshlagan.

Jogirdor – jogir sohibi. Toj-taxt oldida ko‘rsatgan xizmatlari uchun beriladigan in’om: yer-suv, mol-mulk egasi. “Jogir” atamasi “suyurg‘ol”ning sinonimi bo‘lib, boburiylar davrida (1526-1858) Hindistonda amalda bo‘lgan.

Jud (fors. دوجه ) – in’om, ehson; saxiylik, qo‘li ochiqlik.

Juz’ya, jiz’ya (arab. هیزج) – dastlab arab xalifaligida, keyinchalik boshqa musulmon davlatlari (jumladan, O‘rta Osiyo)da musulmon bo‘lmagan fuqarolardan olingan jon solig‘i. J. balog‘atga yetganlarga (qariyalar, ayollar, bolalar, qul, gado va monaxlar undan ozod qilingan) solinib, u asosan pul va natura shaklida undirilgan.

Zakot (arab. ذتاک ) – 1) islom mamlakatlarida shariat hukmi bo‘yicha puldor, mulkdor musulmonlarning o‘z mol-mulkidan ixtiyoriy beradigan xayr-ehsoni, musulmonlikning farzlaridan biri bo‘lib, Z.ning olinishi, miqdori va undirish tartib-qoidalari Qur’onda ko‘rsatib o‘tilgan; 2) O‘rta Osiyoda Z. chorva va mol-mulkning qirqdan bir ulushi miqdorida har yili xazina foydasiga olingan soliq turi.

Zakotchi (arab. یچتاکز ) davlat xazinasiga xonlikning viloyat va tumanlaridan Z. yig‘uvchi amaldor.

Ijara, ijora (arab. هراچیا) – yer egalari tomonidan yerni ishlash uchun kambag‘al mehnatkashlarga berish shartlaridan biri, yer egasining haqini pul bilan to‘lash.

Islohot (arab. تاحلاصا ) – isloh qilish, tubdan o‘zgartirish; qaytadan, yangidan qurish; tashkil etish.

Iqto‘, iqta (arab. عاطقا) – kesim, bo‘lak; bir bo‘lak yer. O‘rta asrlarda toju taxt oldida ko‘rsatgan alohida xizmatlari uchun shahzodalar va

amirlarga davlatga tegishli yer-suv hisobidan in’om etiladigan chek yer. I. odatda umrbod berilmay, u istalgan vaqtda qaytarib olinishi va boshqa kishiga tortiq etilishi mumkin bo‘lgan. I. yerlari IX asrdan boshlab, uni tortiq sifatida olgan shaxslarning xususiy mulkiga aylana boshlagan. I yerlari saljuqiylar va halokuiylar davrida nihoyatda ko‘paygan. Temuriylar davrida I o‘rnida tiyul va suyurg‘ol boburiylar saltanati davrida esa jogir atamalari qo‘llangan.

Kadxudo (fors. ادخدک ) – 1) bu yerda: shahar oqsoqoli; 2) hukmron, podsho; 3) xotinli kishi, yer, ro‘zg‘or boshlig‘i.

Kalontar (fors. رتنالک ) – qishloq oqsoqoli.

Kasana (fors.-tojik. ەنسک) – yollangan hunarmand-kosib tomonidan uyda tayyorlanadigan buyum va shu tartibda ishlash.

Kasanachi (fors.-tojik. یچنسک) – yollangan, uyida ishlaydigan hunarmand kosib.

Kasod (arab. داسک ) – 1) talab yoki xaridor yo‘qligi bois, mollarning bozorda sotilmay qolishi natijasida zarar ko‘rish; 2) kasofat, zarar.

Kepakiy (mo‘g‘ul.) – chig‘atoy xonlaridan Kepakxon (1318-1326) zamonida chiqarilgan oltin va kumush tanga.

Koranda (fors.-tojik. اکرەدَ ) – hosilning bir qismi (¼ dan ½ gacha qismi) ni olishga baylashib ishlovchi dehqon.

Kosib (arab. باک بسد ) – bozor uchun qo‘l ishi orqali mahsulot ishlab chiqaruvchi hunarmand. K.lar, odatda, o‘zlari mahsulot tayyorlab, o‘zlari sotadilar. Ko‘pchilik K.larning mahsulot tayyorlaydigan va sotadigan do‘koni bo‘ladi.

Kurux (hind.) – masofa birligi, bir kurux taxminan ikki km.ga barobar; 50 kurux 100 km.

Ko‘rmana – yangi tug‘ilgan chaqaloq yoki kelinni ilk bor ko‘-rishda beriladigan sovg‘a.

Mann (arab. نم ) – o‘rta asrlarda amalda bo‘lgan og‘irlik o‘lchovi; bir M. taxminan 23,6 kg.ga teng bo‘lgan.

Mahak toshi – kumush va oltinning tozaligini aniqlab beradigan qora tusli bir tosh.

Misqol (arab. لاقثم ) – og‘irlik o‘lchovi. Sharq mamlakatlarida qimmatbaho buyumlarning og‘irligi M. bilan o‘lchangan. Bir M. Afg‘onistonda – 4,6 g; Jazoirda 4,27 g; Misr va Sudanda – 4,08 g; Turkiyada – 4,81 g; Eronda – 4,64 g; Xorazmda (XIV asr) – 4,55 g; Buxoroda (XVI – XIX asr) – 4,8-5 g ga teng bo‘lgan. Amir Temur

davrida bir M. 4,8 g vazndagi oltin tangaga teng bo‘lgan. Bu og‘irlik o‘lchovi Yaqin Sharqda hozir ham ishlatiladi.

Molu jihot (arab. تاهجلام) – naqd pul yoki mahsulot bilan to‘lanadigan soliq. M.j. qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridan natura shaklida daromadning beshdan bir yoki uchdan bir qismi hajmida olingan.

Molu amon (moli amon نامالام) – urushda mag‘lub bo‘lgan taraf xalqidan g‘olib tomon foydasiga undiriladigan maxsus to‘lov; o‘lpon.

Mubashshir (arab. رشبم ) – podshoh va xonlarning farmon, maktub va boshqa yozishmalarini o‘lka yoki viloyatlarga yetkazib turadigan mansabdor.

Muzora’a (arab. هعرازم ) – musulmon mamlakatlarida sug‘oriladigan yerni olinadigan hosilning bir qismi evaziga ajratib berish, chorakorlik. M. taxminan XIV asrdan rusm bo‘lgan. M. shartnomasi yozma shaklda tuzilib, undan natura bilan to‘lanadigan ijara aniq belgilangan.

Muzofot (arab. تافاضم ) – aloqador, nisbatli, qo‘shilgan, tirkalgan; biron shahar yoki viloyatga tegishli yerlar.

Muljar (arab. رجلم ) – qamal paytida har bir amirga berkitilgan yer.

Mulk (arab. كلم ) – 1) ixtiyordagi, qo‘ldagi bor mol-dunyo, yer-suv, inshoot va boshqa boyliklar; 2) mamlakat, viloyat; 3) vatan; 4) dunyo, olam.

Mulk-amlok (arab. كلم - كالما) – butun mol-mulk, mol-dunyo.

Mulkdor (arab.-fors. رادكلم ) – katta yer-suv egasi, zamindor.

Mulki xiroj – xiroj (soliq) olinadigan xususiy yer. Dastlabki vaqtlarda M. x. musulmon bo‘lmagan yer egalaridan olingan (islom dinini qabul qilganlar M. x. dan ozod etilgan). VIII asrdan boshlab urush xarajatlarini qoplash uchun musulmonlardan ham olina boshlandi.

Mulki hurriy xolis – barcha soliqlardan xoli mulk. O‘rta asrlarda (XIII-XIV asrlardan boshlab) hukmdorlar alohida xizmat ko‘rsatgan zamindorlarni, amir va beklarni maxsus yorliq bilan davlat solig‘idan ozod qilganlar. Bu huquq vorislarga ham o‘tgan. M.h.x. haqidagi yorliq yangi taxtga o‘tirgan yangi xon va amirlar tomonidan ham tasdiqlangan. M.h.x. mulki xolis, mulki hur, mulki hukm deb atalgan.

Muomala (arab. هلماعم ) – iqtisodda: mehnat mahsulotlarini oldi-sotdi vositasida ayirboshlash munosabati.

Mutavvalli (arab. یلوتم) – ish boshi, boshqaruvchi. Masjid, madrasa va mozoratlarga qilingan vaqfni boshqaruvchi diniy mansabdor. Vaqf yerlarini ijaraga berish, undan keladigan daromadni taqsimlash ham M. qo‘lida bo‘lgan. M.ga vaqfdan keladigan daromadning 10 foizi maosh sifatida berilgan.

Mustavfiy (arab. یفوتسم ) – podshohlik va xonlikda moliya (kirim-chiqim) ishlarini olib boruvchi mansabdor; daftardor; hisobchi.

Muhosil (arab. لساحم ) – hosil etuvchi, tovon yig‘uvchi.

Muhr (fors. رهم ) – surg‘uch, mum yoki qog‘ozga o‘zidagi qabariq va botiq belgilaridan nusxa tushiradigan maxsus asbob. M. sopol, mis, po‘lat, bronza, kumush, oltindan yasalib, to‘rtburchak, doira, ellipssimon kabi shakllarda bo‘lgan. Qadimda O‘rta Osiyodagi har bir boy, eshon, mufti, qozi, amir, xon, saroy va davlat korxonalarining o‘z M. bo‘lgan. M. yuzasiga egasining nomi, mansabi va yasalgan yili qayd etilgan.

Muhtasib (arab. بسحتم ) – musulmonlar tomonidan shariat qonun-qoidalarining bajarilishini, shuningdek, bozor-o‘charda tosh-tarozu va narx-navoni nazorat qilib turuvchi mansabdor. M.lar, ko‘pincha, sayidlardan tayinlangan.

Narx (fors.-tojik. خرذ ) – narsaning, buyumning pul bilan o‘lchanadigan qiymati, bahosi.

Nimkorlik (fors.-tojik. کیلرامکمینذ ) – o‘rta asrlar va undan keyingi asrlarda birovlar yerini olib ishlatish usuli. N.da kam yerli yoki ot-ulov yetishmaydigan dehqon olgan hosilning yarmini o‘zlashtirish sharti bilan zamindorning yeriga ekin ekkan.

Nisor (fors. راثنذ ) – sochqi. Uchrashganda podshoh, xonlar va sultonlarning boshidan sochiladigan tanga.

Omil (arab. لماع ) – 1) oliq-soliq yig‘uvchi mansabdor; 2) biror hodisa yoki jarayonni yuzaga keltiruvchi kuch, sabab, omil; 3) amal qiluvchi, ishlovchi.

Oshlig‘ – 1) o‘lchov birligi; 2) harbiy yurishlar paytida lashkarning ehtiyoji uchun aholidan to‘plangan don-dun, oziq-ovqat; 3) g‘alla, don.

Peshkash (fors. شکشیپ ) – tortiq, tuhfa, sovg‘a. Podshohlar, xonlar, sultonlar va ularning xotin bolalariga qilinadigan maxsus tortiq.

Poyza, paysa – mis taxtachaga bitilgan, ma’lum imtiyoz berilganlik haqidagi bitik.

Raiyyat (arab. تیعر ) – Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida soliq to‘lovchi xalq, qora xalq. Dastlab barcha fuqaro, 1X asrdan boshlab soliq to‘lovchi tabaqalar – dehqonlar va shaharliklar bo‘lgan. Keyinchalik zamindorlarga tobe, ularning yeriga biriktirilgan dehqonlar R. hisoblangan.

Rais (arab. سعر ) – boshqarmoq, rahbarlik qilmoq. O‘rta asrlarda, so‘ngra, O‘rta Osiyo xonliklarida shariat qonun-qoidalariga aholi qanday amal qilayotganligi, bozorlarda tarozi va boshqa o‘lchov vositalarining to‘g‘riligini nazorat qiluvchi mansabdor; 2) keyinchalik: ba’zi saylov

organlari, muassasa, tashkilot va jamiyatlar rahbarlari; 3) majlis va yig‘inga rahbarlik qiluvchi shaxs.

Rasta (fors.-tojik. رستە ) 1) – shahar bozorlarida va qishloqlarda ko‘chaning chetida savdogarlar tomonidan qurilgan do‘konlar qatori; 2) qutulgan, xalos qilingan.

Sadaqa (arab. صدقە ) – musulmonlarda beva-bechora va faqirlarga xayr-ehson tariqasida beriladigan hadya. Kulfat yoki musibatning oldini olish yoxud daf etish, shuningdek, saxovat yuzasidan S. berilgan.

Sadr (arab. ردس ) – old, ko‘krak, to‘r; boshliq, rais. 1.Vaqfga tushgan yer-suv va boshqa mulkdan keladigan foydani nazorat qilib boruvchi diniy mansabdor. 2. Motam odati. 3. Musiqada ma’lum doira usuli va unga mos cholg‘u kuylari nomi. 4. Baytdagi birinchi misraning birinchi so‘zi.

Sari shumor – jon boshidan olinadigan soliq, jon solig‘i.

Sarmoya (fors.-tojik. سرمایە?? ) – asosiy savdo mablag‘i. Kichik savdoda harakat qiluvchi mablag‘ dastmoya deb yuritilgan.

Sarrof (arab. صارف ) – pul almashtiruvchi, pul mayda qiluvchi. Savdo rastalari va ko‘chalarda o‘tirib, kishilarning yirik pullarini maydalab, qimmatbaho buyumlarini pulga almashtirib beruvchi shaxs. S.lar chet eldan kelgan savdogarlarning pullarini mahalliy pullarga almashtirib berish; qimmatbaho toshlar, oltin, kumush va boshqalarni aniqlab, ularning bahosini belgilash; pul va buyumlarni ma’lum vaqtgacha omonatga saqlash bilan ham shug‘ullangan.

Safodbari (fors.-tojik. سپیدەرى ) – Movarounnahrda kuzgi arpa, zig‘ir, no‘xat, yasmiq, tariq va qo‘noq kabi don ekinlaridan olingan soliq. Hosilning 1/3 yoki 3/4, ba’zan undan ko‘proq qismi hajmida yig‘ilgan.

Sep – ota-ona va qarindosh-urug‘lar tomonidan turmushga uzatilayotgan qizga tortiq etiladigan mol-mulk.

Sovariy (turk. tortiq, sovg‘a) – o‘rta asrlarda podshoh va xonlar uchun raiyyatning xirojdan tashqari ixtiyoriy qiladigan tortig‘i.

Sovurun – podshoh va xonlar viloyat va shaharlardan o‘tayotganlarida aholidan to‘plab qilinadigan in’om, qimmatbaho tortiq.

Suyurg‘ol (mo‘g‘ul. in’om, sovg‘a) – oliy hukmdor tarafidan amirlar, shahzodalar, yirik mansabdorlar, shoirlar, yirik musulmon ruhoniylariga toju taxt oldida ko‘rsatgan katta xizmatlari evaziga yer-suv, mol-mulk, kiyim-kechak, nasldor ot kabilar shaklida berilgan in’om. S. Amir Temur hukmronligi davrida keng tarqalgan. Sohibqiron zabt etgan mamlakatlarining ayrim viloyatlarini shu yerlarning sobiq egalariga, o‘z o‘g‘illari, nevaralari, alohida xizmat ko‘rsatgan amirlar va qo‘shin

boshliqlariga S. qilgan. S. mulk nasldan-naslga meros bo‘lib o‘tib, davlat soliqlaridan ozod etilgan. S. egasi mulkni o‘z ixtiyoriga tasarruf etish huquqiga ega bo‘lgan.

Tavan – qavm-qarindoshlar, yaqin tanish- bilishlar, do‘st-yoronlar tomonidan to‘y yoki ta’ziya munosabati bilan tortiq qilingan pul, kiyim-kechak va oziq-ovqatlardan iborat tuhfa.

Tamg‘a – 1) qadimda mo‘g‘ullarda qoramol saqlash huquqiga egalikni bildirgan maxsus nishon, belgi; 2) keyinchalik muhr, muhr bosilgan hujjat yoki yorliq; 3) Yaqin va O‘rta Sharqda mo‘g‘ullar tomonidan joriy qilingan pul solig‘i; 4) XIII-XV asrlarda Rossiyada savdo-sotiq muomalasidan olingan soliq; 5) hujjat, buyum, qoramol va otlarga bosilgan maxsus belgi; 6) davlat ramzi, muhr.

Tanga – metaldan yasalgan pul birligi, muomala va to‘lov vositasi. O‘rta Osiyoda T.lar meloddan avvalgi III asrda chiqarilgan. Amir Temur XIV asrning 80-yillarida o‘tkazgan pul islohotida to‘la qiymatli kumush T.lar zarb qildirgan.

Tansiq (arab. قيصنة ) – mato, kiyim-kechak,buyum tarzidagi kamyob qimmatli narsalar. Mahalliy hukmdorlar tomonidan podshoh va xonlarga qilinadigan in’om, tortiq.

Tanho (arab. انحنة ) – Amir Temur davlatida lashkar boshliqlari va kichik saroy xizmatchilari uchun maosh sifatida beriladigan in’om. T. yer-suv yoki ma’lum yerdan undiriladigan xirojning bir qismi bo‘lishi mumkin.

Tara (arab. ەرتة ) – mol (tovar)ni saqlash, o‘rash va tashish uchun ishlatiladigan buyum.

Tarozi (arab. ضارتة ) – og‘irlik kuchi ta’siri bo‘yicha jismlar massasini aniqlaydigan maxsus asbob.

Tarxon – 1) o‘rta asrlarda, jumladan, mo‘g‘ullar, Amir Temur va temuriylar davrida alohida xizmat ko‘rsatgan amirlarga berilgan imtiyozli unvon. T.lar oliq-soliqdan ozod qilinganlar, xon huzuriga bemalol kirish huquqiga ega bo‘lganlar, to‘qqiz marta jinoyat qilmaguncha yasoqqa tortilmaganlar; 2) davlat soliqlaridan ozod qilingan yer-suv, mol-mulk; 3) Rossiyada imtiyozli yorliq turi.

Tasht (fors. تشط ) – lagan, tog‘ora. Tashtxona – oliy hukmdorning kundalik turmushi va qabul marosimi uchun zarur bo‘lgan buyumlar ombori. Boshlig‘i tashtdor deb atalgan.

Tag‘or – harbiy yurishlar paytida qishloqma-qishloq yurib, lashkar ehtiyoji uchun aholidan to‘planadigan don-dun.

Tim (fors.-tojik. میتة ) – 1) qadimda, shaharlar markazida, ochiq bozor va karvon saroylar yaqinida qurilgan usti yopiq savdo rastalari, karvonsaroy; 2) tomchi, qatra.

Tuzuk – turk-mo‘g‘ul xalqlari orasida amalda bo‘lgan qonun-qoidalar.

To‘qqiz-to‘qqiz – podshoh va xonlarga turk-mo‘g‘ul xalqlari orasida amalda bo‘lgan hadya qilinayotgan har bir narsadan to‘qqiztadan qo‘yish odati.

Ukulka – askarlarga jang oldidan tarqatilgan maxsus sovg‘a.

Ulus (mo‘g‘ul.) – 1) XIII asr boshlariga mo‘g‘ul davlatiga bo‘ysungan va ularga qarashli yerlarda ko‘chmanchilik bilan hayot kechirgan oilalar guruhlari; 2) Chingizxon tuzgan ilk feodal davlat; 3) biron qavm yoki shahzodalarga berilgan yer-suv, mulk va o‘sha yerda istiqomat qilib turgan xalq; 4) keyinchalik feodal tarqoqlik davrida yirik feodal mulk; 5) el, xalq, joy ma’nolarini ham anglatadi.

Ulufa (arab. هفولع) – sipohilarga berilgan maosh, oziq-ovqat, ozuqa.

Ushr (arab. رشع) – o‘ndan bir. Musulmon mamlakatlarida daromadning o‘ndan biri hisobida natura yoki pul shaklida undiriladigan soliq. U. dehqonchilik, chorvachilik, baliqchilik mahsulotlari va boshqalardan olingan. Dastlab U. saidlar, yirik musulmon ruhoniylari, ayrim amirlar va “islom lashkariga o‘z ixtiyori bilan taslim bo‘lgan” tumanlar xalqidan olingan. Keyinchalik turli davrlarda U. ning mahalliy shart-sharoitlarga ko‘ra iqto‘, dimos, o‘ntalik, dahyak kabi o‘zgargan shakllari yuzaga chiqdi.

Ug‘ruq – 1) amir yoki xonning xotini, bolalari, xizmatchilari yashagan chodirlar; 2) podshoh, xon va sultonlarning oila a’zolari va ularning tirikchilik anjomlari ortilgan karvon.

Farsax, farsang (arab. فخسر ) – O‘rta Osiyoda qadimdan ishlatilib kelingan masofa o‘lchov birligi. Bir F. 6-8 km (6-8 chaqirim, 9-12 ming qadam) ga teng.

Xazina (arab. هنيزخ) – podshoh, xon va amirlarning pullari, qimmatbaho buyum va boshqa moddiy boyliklari saqlanadigan joy; 2) yashirib qo‘yilgan qimmatbaho buyum yoki qimmatbaho metal (tanga)lar; 3) hozirgi vaqtda: X. davlatning moliyaviy zahiralari majmuini anglatadi.

Xazonai omira – davlat xazinasi

Xarajat (arab. تجرخ ) – chiqim, sarf. Biror narsa uchun qilingan sarf, chiqim.

Xarvor (fors. راورخ ) – og‘irlik o‘lchovi. Bir eshak ko‘tararlik yuk: 105-150 kg atrofida bo‘lgan.

Xarid (arab. دیرخ) – biror narsa (er-suv, mol-mulk, buyum, oziq-ovqat va sh. k. sotib olish.

Xiroj, xaroj (arab. جارخ) – O‘rta Osiyoda VII asrdan boshlab joriy qilingan yer solig‘i. Keyinchalik davlat tomonidan undiriladigan yer solig‘i ham X. deb yuritilgan. X. dastlabki vaqtlarda juz’ya atamasining sinonimi sifatida qo‘llanilib, musulmon bo‘lmagan aholi bilan bir qatorda yer-suvga ega bo‘lgan musulmonlardan ham undirilgan.

Xon (turk. qoon, xoqon – hukmdor) – turkiy xalqlar va mo‘g‘ul hukmdorlarining oliy unvoni. X. dastlab qabila boshlig‘i, keyinchalik oliy hukmdorni anglatgan.

Xonsolor – dasturxon yozuvchi, dasturxonchi.

Chaksa – O‘rta Osiyoda qadimdan ishlatilib kelingan og‘irlik o‘lchov birligi.

Chaqa – mis, jez singari metallardan yasalgan mayda, tanga pul.

Chorak (fors.-tojik. کـر اچ) – to‘rtdan bir. O‘rta Osiyodagi eski og‘irlik o‘lchov birligi. Ba’zi joylarda besh pudga, ba’zi joylarda besh qadoq (ikki kg ga )qa teng og‘irlik o‘lchovi.

Chulon – o‘ziga to‘q xonadonlardan un, don, yog‘ va boshqa mahsulotlar to‘plab pishirilgan va moddiy jihatdan qiynalib qolgan och-yalang‘ochlarga tekindan ulashish odati; xalq udumi.

Shahar omonligi xazinasi – fath etilgan shahar aholisidan to‘plangan moli omon (o‘lpon) saqlanadigan xazina.

Shilon (puli) – shulon, umumiy ovqat, podshoh ziyofati. Podshohlar ziyofati uchun xalqdan to‘planadigan mablag‘.

Shuf’at (arab. تعفشد ) – tarafini olmoq. Mulkni sotib olishga bo‘lgan imtiyozli huquq. Ko‘chmas mulk egasi shariat qoidalariga ko‘ra uni sotishi haqida qo‘shnilarini xabardor qilishi shart bo‘lib, qo‘shnilar sotuvga qo‘yilgan mulkni sotib olishdan bosh tortgandagina o‘sha mulkni sotib olish huquqi boshqalarga berilgan. Sh. huquqidan ko‘pincha mulkdorlar bahramand bo‘lgan.

Yurtovul – harbiy yurishlar paytida qo‘shinning oziq-ovqat va yem-xashak zahirasini to‘latish maqsadida yo‘l ustidagi qishloqlarga qilib turilgan bosqin.

Yasoq (mo‘g‘ul.) – taqiqlash, qonun-qoida.

O‘lja – urushda g‘olib bo‘lganlarni mag‘lub tomondan olgan qurol-yarog‘, asbob-aslaha, buyum va ot-ulovlar. O‘rta asrlarda bosib olingan yurtlardan talab olingan mol-mulk va asirlar ham O‘. hisoblangan.

O‘lpon – ekin maydoni va olingan hosilning miqdorga qarab, yiliga bir marta undirib olinadigan yer solig‘i.

O‘rdu bozor – harbiy yurishlar paytida xon o‘rdasi atrofida vaqti-vaqti bilan tashkil etiladigan bozor.

Qadoq – qadimgi massa va og‘irlik birligi. Bir Q. 409-512g.ga teng bo‘ladi.

Qalaqchi – hosilga qarab xiroj miqdorini belgilab beruvchi mansabdor.

Qarz (arab. ضرقة ) – 1) qaytarish sharti bilan berilgan yoki olingan pul, buyum, g‘alla kabilar; 2) zimmadagi vazifa, burch.

Qari, qori (arab. یرقة، یراق ) – bir metr (70 sm) atrofida bo‘lgan o‘lchov (masofa) birligi.

Qo‘nalg‘a (eski o‘zbek tili) – elchilar, xon choparlari, o‘tkinchi amaldorlar, sipohilar; ishkor paytida podshoh va uning navkarlari, soqchilar uchun qo‘noq, oziq-ovqat berish hamda ularning ot-ulovini boqish majburiyati.

G‘ozi (arab. یزاغ – g‘azot qiluvchi, urushuvchi) – g‘ayri dinlarga qarshi muqaddas urush ishtirokchisi. Kofirlarga qarshi g‘azovot yurishlarida kambag‘allar, qullar, nogironlar va keksa kishilardan tashqari, ot va qurol-yarog‘i bor har bir musulmon erkak qatnashishi shart bo‘lgan.

Hashar (arab. رشحـ ) – 1) to‘da, guruh; 2) o‘tmishda mehnatkashlarni ariq qazish, yer ochish, yo‘l va ko‘priklar qurish kabi ishlarga ommaviy jalb etish; 3) ixtiyoriy yordam turi.

# GLOSSARIYLAR

| | | | |
|---|---|---|---|
| Qo‘shilgan qiymat | Added value | Добавленная стоимость | – ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatidan sotib olingan va unumli iste’mol qilingan xom ashyo va materiallar qiymati chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismining bozor qiymati. |
| Yalpi talab | Aggregate demand | Совокупный спрос | – barcha iste’molchilar, ya’ni aholi, korxonalar va davlat tomonidan narxlarning muayyan darajasida turli tovarlar va xizmatlarni sotib olish mumkin bo‘lgan milliy iqtisodiyotdagi real pul daromadlari hajmi. |
| Agrar inqirozlar | Agrarian crises | Аграрные кризисы | – qishloq xo‘jaligida ro‘y beradigan iqtisodiy inqirozlar bo‘lib, siklli tavsifga ega bo‘lmaydi va sanoat sikllariga qaraganda ancha uzoq davr davom etadi. |
| Agrar munosabatlar | Agrarian relations | Аграрные отношения | – yerga egalik qilish, tasarruf etish, undan foydalanish va ishlab chiqarish natijalarini o‘zlashtirish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar. |
| Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish infratuzilmasi | Agricultural production infrastructure | Сельскохозяйственная производственная инфраструктура | – bevosita qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishiga xizmat ko‘rsatuvchi sohalar. |
| Agrosanoat majmuasi | Agro-industrial complex | Агропромышленный комплекс | – qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish, uni saqlash, qayta ishlash va iste’molchilarga yetkazib berish bilan bog‘liq xo‘jalik tarmoqlarining birligi. |
| O‘rtacha mahsulot | Average product | Средний продукт | – jalb qilingan barcha ishlab chiqarish omillarining bir birligiga to‘g‘ri keladigan mahsulot hajmi. |
| Bank | Bank | Банк | – iqtisodiyotning me’yorda amal qilishi uchun zarur bo‘lgan pul massasi harakatini tartibga soluvchi moliya-kredit |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | muassasasi. |
| Bank | Bank | Банк | – kredit munosabatlariga xizmat qilib, kredit tizimining negizini tashkil qiluvchi maxsus muassasalar. |
| Bank krediti | Bank loan | Банковский кредит | – pul egalari (banklar va maxsus kredit muassasalari) tomonidan qarz oluvchilarga (tadbirkorlar, davlat, uy xo‘jaligi sektori) beriluvchi pul ssudalari. |
| Bank operasiyalari | Bank operations | Банковские операции | – mablag‘larni jalb qilish va ularni joylashtirish bo‘yicha amalga oshiriladigan operasiyalar. |
| Bank foydasi (marja) | Banking profit (margin) | Банковская прибыль (маржа) | – olingan va to‘langan foiz summalari o‘rtasidagi farq. |
| Bank foyda normasi | Banking profit margins | Банковская норма прибыли | – bank sof foydasining uning o‘z kapitaliga nisbatining foizdagi ifodasi. |
| Byudjet taqchilligi | Budget deficit | Бюджетный дефицит | – davlat byudjeti xarajatlarining daromadlardan ortiqchaligi. |
| Tadbirkorlik faoliyati | Business activities | Предпринимательская деятелность | – shakli va sohasidan qat’iy nazar foyda olishga va undan samarali foydalanish maqsadiga qaratilgan iqtisodiy faoliyat. |
| Iqtisodiy sikl | Business cycle | Экономический цикл | – ishlab chiqarishning bir iqtisodiy inqirozdan ikkinchisi boshlangunga qadar takrorlanib turadigan to‘lqinsimon harakati. |
| Yuksalish | Climb | Подъём | – iqtisodiy siklning iqtisodiyotda to‘liq bandlikka erishilishi, ishlab chiqarishning inqirozdan oldingi darajadan ham ortib ketishi va to‘lovga layoqatli talabning kengayib borishini tavsiflovchi fazasi. |
| Tijorat krediti | Commercial credit | Коммерческий кредит | – korxonalar, birlashmalar va boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlarning asosan to‘lovni kechiktirish yo‘li bilan tovar shaklida bir-biriga beradigan kreditlari. |
| Tovar birjasi | Commodity exchange | Товарная биржа | – oldindan belgilangan qoidalar asosida ulgurji savdoni tashkil |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | etish shakli. |
| Qiyosiy narx | Comparable prices | Сопоставимые цены | – ishlab chiqarishning natijalari ma’lum yil (bazis yil) asosida hisoblanuvchi va boshqa yillar bilan taqqoslanuvchi narx. |
| Raqobat | Competition | Конкуренция | – bozor subyektlari iqtisodiy manfaatlarining to‘qnashuvidan iborat bo‘lib, ular o‘rtasidagi yuqori foyda va ko‘proq naflilikka ega bo‘lish uchun kurash. |
| Kapitalning to‘planishi | Concentration of capital | Концентрация капитала | – qo‘shimcha qiymatning bir qismini jamg‘arish (kapitallashtirish) natijasida kapital hajmining oshishi. |
| Ishlab chiqarishning to‘planishi | Concentration of production | Концентрация производства | – ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi hamda mahsulot ishlab chiqarish hajmining yirik korxonalarda to‘planishi. |
| Iste’mol krediti | Consumer credit | Потребительский кредит | – xususiy shaxslarga, avvalo, uzoq muddat foydalanadigan iste’mol tovarlari sotib olish uchun ma’lum muddatga beriluvchi qarz mablag‘lari. |
| Iste’mol sarflari | Consumer spending | Потребитель-ские расходы | – aholi daromadlarining tirikchilik ne’matlari va xizmatlar uchun ishlatiladigan qismi. |
| Iste’mol | Consumption | Потребление | – ehtiyojlarni qondirish maqsadida mahsulot va xizmatlarning ishlatilishi jarayoni. |
| Iste’mol | Consumption | Потребление | – jamiyat iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida ishlab chiqarish natijalari va omillaridan foydalanish jarayoni. |
| Tadbirkorlik sektori | corporate sector | Предприни-мательский сектор | – iqtisodiyotning daromad (foyda) olish maqsadida amal qiluvchi birlamchi bo‘g‘ini. |
| Kredit | Credit | Кредит | – bo‘sh turgan pul mablag‘larini ssuda fondi shaklida to‘plash va ularni takror ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun qarzga berish. |
| Valyuta birjasi | Currency exchange | Валютная биржа | – milliy valyutalar kurslari bo‘yicha ularning erkin oldi- |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | sotdisi amalga oshiriladigan, rasmiy jihatdan tashkil etilgan bozori shakli. |
| Joriy narx | Current prices | Текущие цены | – yil davomidagi ishlab chiqarish natijalari hisoblashda qo‘llaniluvchi amaldagi narx. |
| Siklik ishsizlik | Cyclical unemployment | Циклическая безработица | – iqtisodiy siklning inqiroz fazasi bilan bog‘liq ravishda vujudga keladigan ishsizlik. |
| Ishchi kuchi talabi | Demand for labor | Спрос на рабочую силу | – muayyan vaqtda ish haqining tarkib topgan darajasida turli ish beruvchilar tomonidan ishchi kuchi miqdori va sifatiga bildirilgan talab. |
| Amortizasiya normasi | Depreciation rate | Норма амортизации | – amortizasiya ajratmalari yillik summasining asosiy kapital qiymatiga nisbatining foizdagi ifodasi. |
| Turg‘unlik (depressiya) | Depression | Депрессия | – ishlab chiqarishning bir joyda depsinib turishini anglatuvchi hamda iqtisodiy faollik jonlanishi uchun shart-sharoitlarning vujudga kelishiga imkon yaratiluvchi iqtisodiy sikl fazasi. |
| Bevosita usullar | Direct methods | Прямые методы | – iqtisodiyotni tartibga solishning taqiqlash, ruxsat berish va majbur qilish tavsifidagi ma’muriy vositalari. |
| Ixtiyorida bo‘lgan daromad | Disposable income | Распола-гаемый доход | – barcha soliqlar to‘langandan keyin qolgan daromad, ya’ni shaxsiy iste’mol va jamg‘arma maqsadlarida foydalanish mumkin bo‘lgan daromad. |
| Mulkni tasarruf etish | Disposal of property | Распоряжение собствен-ностью | – mol-mulk taqdirini mustaqil hal qilish. |
| Taqsimot | Distribution | Распределение | – ishlab chiqarish omillari va uning natijalarini iqtisodiyotning turli qism va subyektlari o‘rtasida taqsimlash jarayoni. |
| Diversifikasiya | Diversification | Диверсифи-кация | – ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, mahsulot va xizmatlarni sotish bozorlarini kengaytirish |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | maqsadida tarmoq va korxonalar faoliyat sohalarini kengaytirish, mahsulot va xizmatlar assortimentlarini ko‘paytirish, ularning sifatini takomillashtirish. |
| Iqtisodiy kategoriya | Economic categories | Экономические категории | – doimo takrorlanib turadigan, iqtisodiy jarayonlar va real hodisalarning ayrim tomonlarini ifoda etuvchi ilmiy-nazariy tushuncha. |
| Iqtisodiy inqiroz | Economic crisis | Экономический кризис | – ishlab chiqarish hajmining keskin tushib ketishi. |
| Iqtisodiy rivojlanish | Economic development | Экономическое развитие | – ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy taraqqiyotida o‘z ifodasini topadi. |
| Iqtisodiy muvozanat | Economic equilibrium | Экономическое равновесие | – iqtisodiy jarayonlar, hodisalarning ikki yoki bir necha tomonining bir-biriga mos kelish holati. |
| Iqtisodiy o‘sishning ko‘rsatkichlari | Economic growth | Показатели экономического роста | – iqtisodiy o‘sishni aniqlashda foydalaniladigan qiymat, ijtimoiy naflilik va natural (jismoniy) ko‘rsatkichlar tizimidan iborat. |
| Iqtisodiy qonun | Economic laws | Экономические законы | – iqtisodiy hayotning turli tomonlari, iqtisodiy hodisa va jarayonlar o‘rtasidagi doimiy, takrorlanib turadigan, barqaror sabab-oqibat aloqalari, ularning o‘zaro bog‘liqligi. |
| Iqtisodiy yoki sof foyda | Economic or pure profit | Экономическая или чистая прибыль | – yalpi pul tushumidan barcha xarajatlar chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismi. |
| Iqtisodiy mutanosiblik | Economic proportionality | Экономическая пропорциональность | – iqtisodiyotning turli tomonlari va sohalari o‘rtasida miqdor va sifat o‘lchamlarning mos kelishlik darajasi. |
| Iqtisodiy islohotlar | Economic reforms | Экономические реформы | – iqtisodiyotda tub o‘zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan iqtisodiy chora-tadbirlar majmui. |
| Iqtisodiy jamg‘arish | Economic savings | Экономическое сбережение | – milliy daromadning bir qismining asosiy va aylanma kapitallarni, shuningdek, ehtiyot |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | va zahiralarni ko‘paytirish uchun sarflanib borishi. |
| Iqtisodiy uklad | economic structure | Экономи-ческий уклад | – turli mulkchilikka asoslangan xo‘jalik yuritishning shakllari va turlari. |
| Iqtisodiy tizim | economic system | Экономичес-кая система | – mavjud iqtisodiy munosabatlar majmuasining iqtisodiyotni tashkil qilish shakllari, xo‘jalik mexanizmi va iqtisodiy muassasalar bilan birgalikdagi tizimi. |
| Iqtisodiy bitimlar | Economic transactions | Экономичес-кие сделки | – qiymatning har qanday ayirboshlanishi, ya’ni tovarlar ko‘rsatilgan xizmatlar yoki aktivlarga mulkchilik huquqining bir davlat rezidentlaridan boshqa davlat rezidentlariga o‘tishi bo‘yicha kelishuvlar. |
| Iqtisodiyotni barqarorlashtirish | economy Stabilizing | Стабилизация экономики | – tanglik holatlariga barham berish asosida makroiqtisodiy muvozanatlikni saqlash va ishlab chiqarishni yuksaltirish uchun shart-sharoitlarni vujudga keltirish. |
| Emigrasiya | Emigration | Эмиграция | – fuqarolarning o‘z mamlakatlaridan boshqa mamlakatlarga doimiy yashash uchun ko‘chib o‘tishi. |
| Birja | exchange | Биржа | – namuna (yoki standart)lar asosida ommaviy tovarlarning muntazam savdo-sotiq ishlarini o‘tkazuvchi tijorat muassasasi. |
| Ayirboshlash | Exchange | Обмен | – jamiyat a’zolarining iqtisodiy faoliyat turlari yoki ishlab chiqarish natijalari bo‘yicha o‘zaro almashish jarayoni. |
| Valyuta kursi | Exchange rate | Валютный курс | – bir mamlakat valyutasining boshqa mamlakat valyutasida ifodalangan narxi. |
| Eksport | Export | Экспорт | – tovarlarni chet ellik mijozlarga sotish bo‘lib, bunda mazkur mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar mamlakatdan tashqariga chiqariladi. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish | Extended reproduction | Расширенное воспроиз-водство | – ishlab chiqarish miqyoslarini muntazam ravishda oshirib borishga asoslangan holdagi takrorlanishi. |
| Ekstensiv iqtisodiy o‘sish | Extensive economic growth | Экстенсивный экономичес-кий рост | – ishlab chiqarishga qo‘shimcha iqtisodiy resurslarni jalb qilish orqali ishlab chiqarish hajmining ortib borishi. |
| Faktoring | factoring | Факторинг | – boshqa iqtisodiy subyektlarning qarzdorlik buyicha majburiyatlarini sotib olish yoki qayta sotish munosabatlari. |
| Iqtisodiy o‘sish omillari | Factors of Economic Growth | Факторы экономичес-кого роста | – iqtisodiy o‘sishga ta’sir ko‘rsatishda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan va uni aniqlab beruvchi talab, taklif va taqsimlash omillarini bildiradi. |
| Pirovard mahsulot | Final product | Конечный продукт | – ishlab chiqarish jarayoni yakunlangan, shaxsiy va unumli iste’mol qilishga tayyor bo‘lgan mahsulotlar. |
| Moliya | Finance | Финансы | – pul mablag‘larining harakati, ya’ni ularning shakllanishi, taqsimlanishi va foydalanilishi bilan bog‘liq ravishda vujudga keladigan munosabatlar. |
| Moliyaviy siyosat | financial policy | Финансовая политика | – davlatning o‘z vazifalarini amalga oshirish uchun moliyani tashkil etish va foydalanish bo‘yicha chora-tadbirlar majmui. |
| Moliyaviy munosabatlar | financial relations | Финансовые отношения | – davlat, mintaqalar, tarmoqlar, korxona va tashkilotlar hamda alohida fuqarolar o‘rtasida pul mablag‘lari fondlarining harakati bilan bog‘liq holda vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlar majmui. |
| Moliya tizimi | Financial system | Финансовая система | – moliyaviy munosabatlar va turli darajada ularga xizmat qiluvchi moliyaviy muassasalar majmuasi. |
| Fiskal (soliq-byudjet) siyosati | Fiscal (fiscal) policy | Фискальная (налогово-бюджетная) | – davlat tomonidan iqtisodiyotga ta’sir ko‘rsatish maqsadida soliqqa tortish va davlat sarfi |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | политика | tarkibini o‘zgartirish bo‘yicha qo‘llaniluvchi chora-tadbirlar. |
| Forfeyting | forfeiting | Форфейтинг | – uzoq muddatli faktoring munosabatlari. |
| Friksion ishsizlik | Frictional unemployment | Фрикционная безработица | – malakasiga mos ish qidirayotgan va ish o‘rinlar bo‘shashini kutayotganlarni namoyon etuvchi ishsizlik. |
| Umumiy muvozanatlik | general equilibrium | Общее равновесие | – iqtisodiy jarayonlar, hodisalarning ikki yoki bir necha tomonining, eng avvalo yalpi talab va yalpi taklifning bir-biriga teng kelgan holati. |
| Davlat krediti | government credit | Государст-венный кредит | – davlat qarz oluvchi yoki kreditor sifatida maydonga tushadigan barcha moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar yig‘indisi. |
| Davlat krediti | government credit | Государственный кредит | – kredit munosabatlarining o‘ziga xos shakli bo‘lib, bunda davlat pul mablag‘lari qarzdori, aholi va xususiy biznes esa kreditorlari bo‘lib chiqadi. |
| Davlat sektori | Government sector | Государственный сектор | – o‘z oldiga foyda olishni maqsad qilib qo‘ymagan, asosan iqtisodiyotni tartibga solish vazifasini amalga oshiradigan turli byudjet tashkilotlari va muassasalarining majmui. |
| Yalpi ichki mahsulot (YaIM) | Gross domestic product (GDP) | Валовой внутренний продукт (ВВП) | – yil davomida mamlakat hududida ishlab chiqarilgan pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor narxlaridagi qiymati. |
| Yalpi milliy mahsulot (YaMM) | Gross national product (GNP) | Валовой националный продукт (ВНП) | – milliy iqtisodiyotda bir yil davomida vujudga keltirilgan va bevosita iste’molchilarga borib tushadigan pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor narxlaridagi summasi. |
| Uy xo‘jaliklari | Households | Домашние хозяйства | – iqtisodiyotning iste’mol sohasida faoliyat ko‘rsatuvchi asosiy tarkibiy birlik. |
| Immigrasiya | Immigration | Иммиграция | – xorijiy fuqarolarning doimiy yashash uchun mamlakatga |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | ko‘chib kelishi. |
| Import | Import | Импорт | – chet ellik mijozlardan tovarlar (xizmatlar) sotib olib, ularni mamlakatga kiritish. |
| Aholi daromadlari | Incomes | Доходы населения | – aholining ma’lum vaqt davomida pul va natural shaklda olgan daromadlari miqdori. |
| Bilvosita usullar | Indirect methods | Косвенные методы | – iqtisodiyotni tartibga solishning iqtisodiy vosita va dastaklari. |
| Inflyasiya | Inflation | Инфляция | – qog‘oz pul birligining qadrsizlanishi. |
| Inflyasion farq | inflation gap | Инфляционный разрыв | – yalpi sarflarning sof milliy mahsulot hajmidan ortiqcha bo‘lgan miqdori. |
| Intensiv iqtisodiy o‘sish | Intensive economic growth | Интенсивный экономический рост | – ishlab chiqarish omillarini rivojlantirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali mahsulot ishlab chiqarish hajmining ko‘payib borishi. |
| Oraliq mahsulot | intermediate | Промежуточный продукт | – ishlov berish, qayta ishlash va qayta sotish maqsadlarida sotib olingan mahsulotlar. |
| Davlat ichki qarzi | Internal debt | Внутренний государственный долг | – davlatning mamlakat ichida qimmatli qog‘ozlarini chiqarish, turli nobyudjet fondlaridan olgan qarzi. |
| Xalqaro kredit | international credit | Международный кредит | – ssuda kapitalining xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasidagi harakati. |
| Xalqaro valyuta tizimi | International monetary system | Международная валютная система | – xalqaro valyuta munosabatlarining davlatlararo bitimlarda huquqiy jihatdan mustahkamlangan shakli. |
| Investisiya | Investments | Инвестиции | – ishlab chiqarishni va xizmat ko‘rsatish sohalarini kengaytirishga, ya’ni asosiy va aylanma kapitalga pul shaklidagi qo‘yilma. |
| Aksiyadorlik jamiyati | Joint-stock company | Акционерное общество | – ko‘proq foyda olish maqsadida aksiyalar chiqarish orqali mehnat, mehnat qurollari va boshqa ishlab chiqarish vositalari hamda pul resurs |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | (kapital)larini birlashtirgan uyushma. |
| Mehnat birjasi | Labor exchange | Биржа труда | – ishchilar va tadbirkorlar o‘rtasidagi ishchi kuchini oldi-sotdi bitimini tuzishda vositachilikni amalga oshiruvchi va ishsizlarni ro‘yxatga oluvchi muassasa. |
| Mehnat predmetlari | labor Objects | Предметы труда | – bevosita mehnat ta’sir qiladigan, ya’ni mahsulot tayyorlanadigan narsalar. |
| Ishchi kuchi taklifi | Labor supply | Предложение рабочей силы | – muayyan vaqtda ish haqining tarkib topgan darajasida ishga yollanishga tayyor bo‘lgan mehnatga layoqatli ishchi kuchi miqdori. |
| Laffer egri chizig‘i | Laffer curve | Кривая Лаффера | – davlat byudjeti daromadlari va soliq stavkasi o‘rtasidagi bog‘liqlikning tasvirlanishi. |
| Lizing | leasing | Лизинг | – odatda ishlab chiqarish vositalari va boshqa moddiy boyliklarni keyinchalik foydalanuvchilar tomonidan muntazam ravishda haq to‘lab borib, sotib olish sharti bilan uzoq muddatli ijaraga berishdan iborat kreditning pulsiz shakli. |
| Iqtisodiyotni erkinlashtirish | liberalization of the economy | Либерализация экономики | – bu xo‘jalik hayotining barcha sohalaridagi to‘siq hamda cheklovlarni, shuningdek, davlat nazoratini keskin ravishda qisqartirish yoki bekor qilishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar tizimi. |
| Lorens egri chizig‘i | Lorenz curve | Кривая Лоренца | – daromadlar tengsizligi darajasini miqdoriy jihatdan ifodalovchi geometrik egri chiziq. |
| Makroiqtisodiyot | Macroeco-nomics | Макроэкономика | – moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohalarini yaxlit bir butun qilib birlashtirgan milliy iqtisodiyot va jahon xo‘jaligi darajasidagi iqtisodiyotdir. |
| So‘nggi qo‘shilgan | marginal product | Предельный продукт | – eng so‘nggi qo‘shilgan omil (kapital yoki ishchi kuchi) |

| | | | |
|---|---|---|---|
| mahsulot | | | evaziga o‘sgan mahsulot hajmi. |
| Bozor | Market | Рынок | – ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar (sotuvchilar va xaridorlar) o‘rtasida pul orqali ayirboshlash jarayonida bo‘ladigan munosabatlar yig‘indisi. |
| Bozor iqtisodiyoti | Market economy | Рыночная экономика | – tovar ishlab chiqarish, ayirboshlash va pul muomalasi qonun-qoidalari asosida tashkil etiladigan va boshqariladigan iqtisodiy tizim. |
| Bozor infratuzilmasi | market infrastructure | Инфраструк-тура рынка | – bu bozor aloqalarini o‘rnatish va ularning bir maromda amal qilishga xizmat ko‘rsatuvchi muassasalar tizimidir. |
| Bozor mexanizmi | market mechanism | Рыночный механизм | – bozor iqtisodiyotining faoliyat qilishini tartibga solishni va iqtisodiy jarayonlarni uyg‘unlashtirishni ta’minlaydigan dastak va vositalar. |
| Bozor obyekti | market Objects | Объекты рынка | – ayirboshlash munosabatlariga jalb qilingan iqtisodiy faoliyat natijalari va iqtisodiy resurslar, tovar, pul va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlar. |
| Bozor subyekti | market participant | Субъект рынка | – ayirboshlash munosabatlari qatnashchisi. |
| Bozor narxi | Market price | Рыночная цена | – bir tomondan, tovarlarning sotilishi ta’minlovchi, boshqa tomondan, bozorda tovarlar taqchilligini yuzaga keltirmaydigan muvozanatlashgan narx. |
| Bozor islohotlari | market reforms | Рыночные реформы | – bozor iqtisodiyotini va bozor iqtisodiyoti munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui. |
| Moddiy-buyumlashgan boylik | materially | Материально-овеществленное богатство | – milliy boylikning inson mehnati bilan yaratilgan ashyoviy – buyum ko‘rinishga ega bo‘lgan qismi. |
| Uslubiyat | Methodology | Методология | – ilmiy bilishning tamoyillari |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | tizimi, yo‘llari, qonun-qoidalari va aniq hadislari. |
| Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish usullari | Methods of state regulation of the economy | Методы государст-венного регулирования экономики | – tartibga solishning ma’muriy va iqtisodiy vositalari birligi. |
| Modernizasiyalash | Modernization | Модернизация | – jamiyat hayotining turli jabhalarini tubdan o‘zgartirish, yangilash, bu borada taraqqiyotni jahondagi mavjud ilg‘or andozalar tomon yo‘naltirish va takomillashtirish jarayonlarining majmui. |
| Ishlab chiqarishni modernizasiyalash | Modernization of production | Модернизация производства | – ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, uni ma’naviy jihatdan yangilash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish kabi chora-tadbirlarni o‘z ichiga oluvchi jarayon. |
| Pul tizimi | monetary system | Денежная система | – tarixan tarkib topgan va milliy qonunchilik bilan mustahkamlangan, mamlakatda pul muomalasini tashkil qilish shakli. |
| Pul | Money | Деньги | – umumiy ekvivalent rolini bajaruvchi maxsus tovar. |
| Pul muomalasi | Money turnover | Денежное обращение | – tovarlar aylanishiga hamda notovar tavsifidagi to‘lovlar va hisoblarga xizmat qiluvchi naqd pullar va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlarning harakati. |
| Ipoteka krediti | Mortgage | Ипотечный кредит | – ko‘chmas mulklar (yer, bino) hisobiga uzoq muddatli ssudalar shaklida beriluvchi qarz mablag‘lari. |
| Aholining tabiiy o‘sishi | Natality | Еестественный прирост населения | – bu aholining emigrasiya va immigrasiyadan tashqari harakati. |
| Milliy daromad | National income (ND) | Национальный доход (НД) | – yangidan vujudga keltirilgan mahsulotning puldagi ifodasi bo‘lib, hozirgi hisoblar tizimida SMMdan egri soliqlarni chiqarib tashlash yo‘li bilan aniqlanadi. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| Milliy boylik | National wealth | Национальное богатство | – insoniyat jamiyati taraqqiyotida ajdodlar tomonidan yaratilgan va avlodlar tomonidan jamg‘arilgan moddiy va ma’naviy boyliklar hamda foydalanishga jalb qilingan tabiat in’omlari. |
| Tabiiy monopoliya | natural monopoly | Естественная монополия | – korxonaning texnologik xususiyatlari sababli mahsulotga bo‘lgan talabni qondirish raqobat mavjud bo‘lmagan sharoitda samaraliroq amalga oshiriluvchi tovar bozorining holati. |
| Tabiiy boylik | natural wealth | Природное богатство | – milliy boylikning tabiatda mavjud bo‘lib, insoniyat tomonidan foydalanishga jalb qilingan tabiat ashyolari va kuchlari (yer, qazilma boyliklar, o‘rmonlar, suv va boshqalar). |
| Sof milliy mahsulot (SMM) | Net National Product (NNP) | Чистый национальный продукт (ЧНП) | – yil davomida jonli mehnatning unumli harakati bilan yaratilgan yangi mahsulotdir. |
| Nominal YaIM | Nominal GDP | Номинальный ВВП | – joriy narxlarda hisoblangan YaIM. |
| Nominal daromad | nominal income | Номинальный доход | – aholi tomonidan pul shaklida olingan daromadlari summasi. |
| Xo‘jaliklararo kredit | off-farm credit | Межхозяйственный кредит | – bir korxona (muassasa) tomonidan ikkinchisiga berilib, ularning kapital qurilish, qishloq xo‘jalik sohalaridagi munosabatlariga, shuningdek, ichki xo‘jalik hisobi bo‘g‘inlari bilan munosabatlariga xizmat qiluvchi qarz mablag‘lari. |
| Ouken qonuni | Okun’s Law | Закон Оукена | – ishsizlik darajasi va YaIM hajmining orqada qolishi o‘rtasidagi nisbatning matematik ifodasi. |
| Mulkka egalik qilish | ownership of property | Владение собственностью | – mulkdorlik huquqining uning egasi qo‘lida saqlanib turishi va yaratilgan moddiy boyliklarni o‘zlashtirishning iqtisodiy shakli. |
| Xususiy | Partial | Частное | – bu ikkita o‘zaro bog‘liq |

| | | | |
|---|---|---|---|
| muvozanatlik | equilibrium | равновесие | bo‘lgan iqtisodiy ko‘rsatkichlar yoki iqtisodiyot tomonlarining miqdoran teng kelishi. |
| To‘lov balansi | Payment balance | Платежный баланс | – mamlakat rezidentlari (uy xo‘jaliklari, korxonalar va davlat) va chet elliklar o‘rtasida ma’lum vaqt oralig‘ida (odatda bir yilda) amalga oshirilgan barcha iqtisodiy bitimlar natijasining tartiblashtirilgan yozuvi. |
| Shaxsiy daromad | Personal income | Личный доход | – milliy daromaddan ijtimoiy sug‘urta ajratmalari, korxona foydasidan olinadigan soliqlar va korxonaning taqsimlanmaydigan foydasini chiqarib tashlash hamda aholi qo‘liga kelib tushadigan ijtimoiy to‘lovlar summasini qo‘shish yo‘li bilan aniqlanadi. |
| Narx | Price | Цена | – real bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar va xizmatlarning ijtimoiy qiymati va ijtimoiy nafliligining puldagi ifodasi. |
| Shaxsiy iste’mol | private consumption | Личное потребление | – iste’molchilik tavsifidagi ne’matlar va xizmatlardan bevosita foydalanishni, ya’ni ularning individual tarzda iste’mol qilinishi. |
| Xususiylashtirish | privatization | Приватизация | – mulkka egalik qilish huquqining davlatdan xususiy va boshqa shaxslarga o‘tishi. |
| Davlat tassarrufidan chiqarish | privatization | Разгосударствление | – mulkni davlat hisobidan chiqarilib, boshqa nodavlat mulk shakllarining vujudga keltirilishi. |
| Ishlab chiqarish | Production | Производство | – kishilik jamiyatining mavjud bo‘lishi va rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan hayotiy ne’matlarni yaratish jarayoni. |
| Ishlab chiqarish funksiyasi | production function | Производственная функция | – ishlab chiqarish omillari bilan uning samarasi o‘rtasidagi bog‘liqlik. |
| Unumli iste’mol | productive consumption | Производительное потребление | – ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchidan foydalanish. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| Mehnat unumdorligi | productivity | Производительность труда | – ishchi kuchining vaqt birligi mobaynida mahsulot yaratish qobiliyati. |
| Foyda normasi | profit rate | Норма прибыли | – foyda massasining ishlab chiqarish xarajatlariga bo‘lgan nisbatining foizdagi ifodasi. |
| Mulkchilik munosabatlari | property relations | Отношения собственности | – mulkka egalik qilish, undan foydalanish, uni o‘zlashtirish va tasarruf etish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar. |
| Ijtimoiy takror ishlab chiqarish | Public reproduction | Общественное воспроизводство | – jamiyat miqyosida ishlab chiqarish jarayonlarining muntazam ravishda yangilanib va takroran amalga oshirilib turishi. |
| Xrapovik samarasi | ratchet effect | Эффект храповика | – yalpi talab oshganda narxning o‘rtacha darajasi ko‘tarilishi, lekin talab kamayganda, qisqa davr ichida narx pasayish tamoyiliga ega bo‘lmasligini ifodalovchi ko‘rsatkich. |
| Real YaIM | Real GDP | Реальный ВВП | – narxlarning o‘zgarishini hisobga olib, o‘zgarmas yoki qiyosiy narxlarda hisoblangan YaIM. |
| Real daromad | real income | Реальный доход | – narx darajasi o‘zgarishini hisobga olib aholi ixtiyoridagi daromadning zarur bo‘lgan moddiy va ma’naviy ne’matlarni sotib olishga yetadigan quvvati, ya’ni aholi daromadining xarid quvvati. |
| Real ish haqi | Real wages | Реальная заработная плата | – nominal ish haqi summasiga sotib olish mumkin bo‘lgan tovarlar va xizmatlar miqdori yoki nominal ish haqining sotib olish layoqati. |
| Resession farq | recessionary gap | Рецессивный разрыв | – yalpi sarflarning sof milliy mahsulot hajmidan kam bo‘lgan miqdori. |
| Jonlanish | recovery | Оживление | – iqtisodiy siklning ishlab chiqarishning barqaror kengayib borishiga o‘tishini tavsiflovchi fazasi. |
| Reeksport | reexport | Реэкспорт | – biror bir mamlakat boshqa |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlarni o‘z iste’moli uchun emas, balki uchinchi mamlakatga qayta sotish uchun xarid qilishi. |
| Islohotlar konsepsiyasi | reform concept | Концепция реформ | – ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsad va yo‘nalishlari, uni amalga oshirishning vazifalari va strategik yo‘llarining umumiy g‘oyasi. |
| Reimport | reimport | Реимпорт | – iste’molchi mamlakatdan reeksport tovarlarni sotib olish. |
| Jamg‘arish | Saving | Сбережение | – aholi, korxona (firma) va davlat joriy daromadlarining kelajakdagi ehtiyojlarini qondirish va foizli daromad olish maqsadida to‘plab borilishi. |
| Xufyona iqtisodiyot | Shadow economy | Теневая экономика | – YaIMni ishlab chiqarish, taqsimlash va undan foydalanishning rasmiy iqtisodiyotdan yashirin qismi. |
| Oddiy takror ishlab chiqarish | Simple reproduction | Простое воспроизводство | – ishlab chiqarish miqyoslarining o‘zgarmagan holda takrorlanishi. |
| Ijtimoiy infratuzilma | social infrastructure | Социальная инфраструктура | – odamlar yashash va turmush faoliyatining umumiy sharoitlarini ta’minlaydigan sohalar. |
| Ijtimoiy to‘lovlar | Social payments | Социальные платежи | – kam ta’minlanganlarga pul yoki natural shaklda yordam ko‘rsatishga qaratilgan turli xil to‘lovlar. |
| Ijtimoiy siyosat | Social politics | Социальная политика | – davlatning daromadlar taqsimotidagi tengsizlikni, iqtisodiyot qatnashchilari o‘rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qilishga yo‘naltirilgan siyosat. |
| Investisiyalar samaradorligi | soundness of investments | Эффективность инвестиций | – milliy daromad (foyda) o‘sgan qismining investision sarflar summasiga nisbatining foizdagi ifodasi. |
| Ma’naviy boylik | Spiritual wealth | Духовное богатство | – ashyoviy-buyum ko‘rinishiga ega bo‘lmagan nomoddiy qimmatliklardan va |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | insoniyatning intellektual salohiyati natijalaridan iborat. |
| Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish | State Regulation of Economy | Государственное регулирование экономики | – qonunchilik, ijro va nazorat qilish xususiyatidagi tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish. |
| Fond birjasi | Stock Exchange | Фондовая биржа | – qimmatli qog‘ozlar oldi-sotdisi bo‘yicha rasmiy jihatdan tashkil etilgan va muntazam amal qiluvchi bozor shakli. |
| Qimmatli qog‘ozlar bozori | Stocks and bods market | Рынок ценных бумаг | – turli ko‘rinishdagi qimmatli qog‘ozlar (aksiya, obligasiya, veksel, chek, depozit kabilar)ni oldi-sotdi munosabati. |
| Tarkibiy inqirozlar | Structural crises | Структурные кризисы | – iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari va sohalari rivojlanishi o‘rtasidagi chuqur nomutanosibliklarni ifodalovchi iqtisodiy holat. |
| Tarkibiy ishsizlik | Structural unemployment | Структурная безработица | – ishlab chiqarish va yalpi talab tarkibidagi o‘zgarishlar natijasida vujudga keladigan ishsizlik. |
| Milliy hisoblar tizimi | System of National Accounts | Система национальных счетов | – milliy mahsulotni ishlab chiqarish, taqsimlash hamda ulardan foydalanishni tavsiflaydigan o‘zaro bog‘liq ko‘rsatkichlar tizimi. |
| Soliq | Tax | Налог | – jamiyatda vujudga keltirilgan sof daromadning bir qismini byudjetga jalb qilish shakli. |
| Soliq stavkasi | tax rate | Ставка налога | – soliq summasining soliq olinadigan summaga nisbatining foizdagi ifodasi. |
| Iste’molga o‘rtacha moyillik | The average propensity to consume | Средняя склонность к потреблению | – shaxsiy daromadning iste’molga ketadigan ulushi. |
| Jamg‘arishga o‘rtacha moyillik | The average propensity to save | Средняя склонность к сбережению | – shaxsiy daromadning jamg‘arishga ketadigan ulushi. |
| Kapitalning markazlashuvi | The centralization of capital | Централизация капитала | – bir kapital tomonidan boshqa birining qo‘shib olinishi yoki bir qancha mustaqil kapitallarning aksiyadorlik jamiyati va boshqa shakllarda ixtiyoriy birlashishi |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | orqali kapital hajmining o‘sishi. |
| Iqtisodiy o‘sish mezoni | The criterion of economic growth | Критерий экономическо го роста | – iqtisodiy o‘sishni nisbatan to‘liq darajada baholash imkonini beradigan ko‘rsatkichni xarakterlaydi. |
| Davlatning iqtisodiy vazifalari | The economic functions of the state | Экономически е функции государства | – iqtisodiy tizimning amal qilishiga shart-sharoit yaratish va iqtisodiyotni tartibga solish hamda iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar. |
| Iqtisodiy o‘sish | The economic growth | Экономически й рост | – YaIM, SMM, MD miqdorining mutloq hajmi va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga ko‘payishida va sifatining yaxshilanishida ifodalanadi. |
| Davlat tashqi qarzi | The external debt of the state | Внешний долг государства | – xorijiy davlatlardan, ulardagi jismoniy va yuridik shaxslardan, shuningdek, xalqaro moliyaviy tashkilotlardan olingan qarz. |
| Iste’molga keyingi qo‘shilgan moyillik | The marginal propensity to consume | Пределная склонность к потреблению | – daromad hajmining o‘zgarishi natijasida iste’mol sarflari hajmining o‘zgarishi darajasi. |
| Jamg‘arishga keyingi qo‘shilgan moyillik | The marginal propensity to save | Предельная склонность к сбережению | – daromad hajmining o‘zgarishi natijasida jamg‘arish hajmining o‘zgarishi darajasi. |
| Ssuda kapitali bozori | The market of loan capital | Рынок ссудного капитала | – pul shaklidagi kapitalning foiz to‘lash sharti bilan qarzga berish bo‘yicha oldi-sotdi munosabati. |
| Ilmiy abstraksiya usuli | The method of scientific abstraction | Метод научной абстракции | – tahlil paytida xalal berishi mumkin bo‘lgan ikkinchi darajali narsalar, voqyea-hodisalarni fikrdan chetlashtirib, o‘rganilayotgan jarayonning asl mohiyatiga e’tiborni qaratish. |
| Multiplikator samarasi | The multiplier effect | Эффект мультипликат ора | – bu sof milliy mahsulotdagi o‘zgarishning yalpi sarflardagi o‘zgarishga nisbati. |
| Foiz normasi (stavkasi) | The norm (rate) percent | Норма (ставка) процента | – foiz yoki foizli daromadning qarzga berilgan pul summasiga nisbatining foizda ifodalanishi. |
| Ishlab chiqarish jarayoni | The production process | Процесс производства | – kishilik jamiyatining amal qilishi va rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan moddiy va |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | ma’naviy ne’matlarni yaratishga qaratilgan maqsadga muvofiq faoliyat. |
| Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish maqsadi | The purpose of state regulation of economy | Цель государственного регулирования экономики | – iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, iqtisodiy tizimni mustahkamlash va uni o‘zgarib turuvchi sharoitga moslashtirish. |
| Jamg‘arish normasi | The rate of savings | Норма сбережения | – jamg‘arish summasining milliy daromadga nisbatining foizdagi ifodasi. |
| Ishchi kuchini takror hosil qilish | The reproduction of the labor force | Воспроизводство рабочей силы | – insonning mehnatga bo‘lgan jismoniy kuchlari va aqliy qobiliyatlarini uzluksiz qayta tiklash va ta’minlab turish, ularning mehnat malakasini muttasil yangilab va oshirib borish, umumiy bilim va kasbiy darajasi o‘sishini ta’minlash, qarigan ishchilar o‘rnini bosadigan yosh ishchilar avlodini yetishtirish jarayoni. |
| Davlat byudjeti | The state budget | Государственный бюджет | – davlat daromadlari va xarajatlari hamda ularni moliyaviy ta’minlash manbalarining tartiblashtirilgan rejasi. |
| Yalpi ishchi kuchi | The total labor force | Совокупная рабочая сила | – jamiyat yoki alohida olingan mamlakat miqyosida qiymat va iste’mol qiymatlarini yaratishda ishtirok etuvchi bir-biri bilan chambarchas bog‘liq holda faoliyat qiluvchi ishchi kuchlarining umumlashtirilgan majmui. |
| Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davri | The transition to a market economy | Переходный период к рыночной экономике | – ma’muriy-buyruqbozlik tizimini bartaraf etish yoki tubdan o‘zgartirish hamda bozor iqtisodiyoti tizimining asoslarini shakllantirish jarayonlari amalga oshiriluvchi tarixiy davr. |
| Mulkdan foydalanish | The use of property | Ползование собственностью | – mol-mulkning iqtisodiy faoliyatda ishlatilishi yoki ijtimoiy hayotda qo‘llanilishi, ya’ni uning nafli jihatlarining |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | bevosita iste’mol qilinishi. |
| Mehnat qurollari | Tools | Орудия труда | – inson uning yordamida tabiatga, mehnat predmetlariga ta’sir qiladigan vositalar. |
| Umumiy mahsulot | Total product | Общий продукт | – jalb qilingan barcha ishlab chiqarish omillaridan foydalanish evaziga olingan mahsulotning mutlaq hajmi. |
| Yalpi taklif | total supply | Совокупное предложение | – mamlakatda narxlarning muayyan darajasida ishlab chiqarilgan va sotishga tayyor bo‘lgan barcha tovarlar va xizmatlar hajmi. |
| Kasaba uyushmasi | trade union | Профсоюз | – ish beruvchi va ishga yollanuvchi o‘rtasidagi mehnat munosabatlarining shakllanishi, amalga oshirilishi va tartibga solinishida ishga yollanuvchilarning manfaatlarini himoya qiluvchi jamoat tashkiloti. |
| Ishsizlik | Unemployed | Безработные | – mehnatga layoqatli bo‘lib, ishlashni xohlagan, lekin ish bilan ta’minlanmagan ishchi kuchi. |
| Ishsizlik darajasi | Unemployment rate | Уровень безработицы | – ishsizlarning ishchi kuchi tarkibidagi foizli nisbati. |
| Ish haqi | Wage | Заработная плата | – ishchi va xizmatchilarning mehnatining miqdori, sifati va unumdorligiga qarab milliy mahsulotdan oladigan ulushining puldagi ifodasi. |
| Ishchi kuchi | Work force | Рабочая сила | – insonning mehnat qilishga bo‘lgan aqliy va jismoniy qobiliyatlarining yig‘indisi. |

# FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

## 1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari

1. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-sonli Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni.

## 2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari va ma’ruzalari

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //Xalq so‘zi, 2020 yil 25 yanvar, № 19 (7521)-soni. uza.uz.

4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi nutq. 2016 yil 8 sentabr. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asarlari to‘plami. I-jild. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 592 b.

5. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza. 2017 yil 14 yanvar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asarlari to‘plami. I-jild. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 592 b.

6. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. - 592 b.

7. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – T.: O‘zbekiston, 2015.- 304 b.

8. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O‘zbekiston, 2011. – 439 b.

## 3. Darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar.


9. Razzoqov A. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. Oliy ta’lim muassasalarining talabalari uchun darslik / A.A.Razzoqov, Sh.H.Tashmatov, N.T.O‘rmonov. – T.: Iqtisod-moliya, 2007. – 320 b.

10. O‘lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. – T.: «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2014. – 480 b.

11. Shodmonov Sh.Sh., Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). – T., «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2021. – 784 b.

12. «Avesto» – T. Sharq matbaa nashriyot kompaniyasi. 2001.

13. Abu Ali ibn Sino. «Tibbiyot dostoni». T.1990.

14. Alisher Navoiy. «Mahbub ul qulub». T.1993.

15. Amir Temur. «Temur tuzuklari». T.1992.

16. Yusuf Xos Hojib. «Qutadg‘u bilig». T., 1990.

17. Kaykovus. «Qobusnoma». O‘qituvchi nashriyoti. Matbaa ijodiy uyi. T.: 2006y, 208b.

18. E.Umarov, M.Abdullayev. «Ma’naviyat asoslari». T.: 2006. 125b. Cho‘lpon nashriyoti.

19. «History of Economic Thought», E.K.Hunt and Mark Lautzenheiser. 2011.

20. «History of economic thought», Harry Landreth, David C. Colander.

21. W.S. Jevons. «The Theory of Political Economy New York: Kelley and Millman», 1957.

22. Abu Nasr Forobiy. «Fozil odamlar shahri».T.,1993.

23. Ibn Xoldun. «Lavhalar». Ijtimoiy fikr.1998,№1, 158-165-betlar

24. G‘ulomov S. «Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti». T., Mehnat, 1997.

25. Ibragimov.A. «Biz kim O‘zbeklar». T., Sharq, 1999.

26. Razzoqov.A. Sh.Toshmatov, N.O‘rmonov. «Iqtisodiy ta’limotlar tarixi» Darslik. T., Moliya, 2002.

27. Yo‘doshev.Q., Q.Muftaydinov, V.Abduraxmonov. «Iqtisodiy ta’limotlar tarixi». T., “Iqtisod – Moliya”. 2006.

28. Yuldoshev Sh.K., Ergashev I., Xalikova L.N. “Iqtisodiy ta’limotlar tarixi” o‘quv qo‘llanma Samarqand-2019 247 b

29. E.M. Майбурд. Введение в историю экономической мысли. Москва 1996. 544 с.

30. M.M.Muxammedov O‘zbekiston iqtisodiyotining tarixi: Amir Temur davridan hozirgi kunga qadar Toshkent 2022. 438 b.

31. Симкина Л.Г. Экономическая теория. 2-е изд. – СПб.: Питер, 2008. – 384 с.

32. Станковская И.К., Стрелец И.А. Экономическая теория: учебник / И.А.Стрелец. – 3-е изд., испр. – М.: Ексмо, 2008. – 448 с.

33. Экономическая теория / Под ред. А.И.Добринина, Л.С.Тарасевича, 3-е изд. – СПб.: Изд. СПбГУЕФ; Питер, 2008. – 544 с.

34. Камаев В.Д. Экономическая теория: Краткий курс: учебник / В.Д.Камаев, М.З.Илчиков, Т.А.Борисовская. – 2-е изд., стер. – М.: КНОРУС, 2007. – 384 с.

35. Борисов Е.Ф. Экономическая теория: вопросы – ответы: Учеб. пособие. – 2-е изд., перераб. и доп. М.: Юридическая фирма «КОНТРАКТ»: ИНФРА-М, 2008. – 192 с.

36. Носова С.С. Экономическая теория. Элементарний курс: учебное пособие / С.С.Носова. – М.: КНОРУС, 2019. – 520 с.

37. Носова С.С. Экономическая теория. Дистанционное обучение: учебное пособие / С.С.Носова. – М.: КНОРУС, 2014. – 256 с.

38. Khalikova L.N. Great Thinkers of the East. Monograph / Publishing “SamSIFL” 2023. P 140.

# MUNDARIJA

KIRISH ..... 3
I BOB. IQTISODIY TA’LIMOTLAR TARIXI FANINING PREDMETI VA O‘RGANISH USULLARI ..... 5
1.1. «Iqtisodiy ta’limotlar tarixi» fanining predmeti, uslubi, vazifasi va manbalari ..... 5
1.2. Fanning o‘rganish uslubi (metodi) ..... 6
1.3. Fanni o‘rganish vazifasi va ahamiyati ..... 11
II BOB. QADIMGI DUNYO FEODAL JAMIYATI VA ILK KAPITALIZMNING IQTISODIY TA’LIMOTLARI ..... 15
2.1. Ko‘hna Vaviloniya iqtisodiy fikrlari ..... 15
2.2. Eng qutlug‘ kasb-dehqonchilikdir ..... 16
2.3. Qadimgi Hindistondagi iqtisodiy ta’limotlar ..... 20
2.4. Qadimgi Xitoydagi iqtisodiy g‘oyalar ..... 21
2.5. Antik dunyodagi iqtisodiy fikrlar ..... 22
2.6. Qadimgi Rimdagi iqtisodiy qarashlar ..... 24
III BOB. ILK UYG‘ONISH DAVRI G‘OYALARI ..... 27
3.1. Qur’oni Karimdagi iqtisodiy qarashlar ..... 27
3.2. Xalq og‘zaki ijodidagi iqtisodiy qarashlar ..... 30
3.3. Abu Nasr Forobiyning iqtisodiy g‘oyalari ..... 31
3.4. Abu Ali ibn Sinoning iqtisodiy g‘oyalari ..... 34
3.5. Yusuf Xos Hojibning iqtisodiy g‘oyalari ..... 35
3.6. Abu Rayhon Beruniyning iqtisodiy g‘oyalari ..... 38
IV BOB. AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDAGI IQTISODIY QARASHLAR ..... 41
4.1. Alisher Navoiy va boburiylar davridagi iqtisodiy g‘oyalar ..... 41
4.2. Amir Temur davridagi iqtisodiy g‘oyalar ..... 43
4.3. Amir Temur davlati iqtisodiy taraqqiyotida savdo-sotiqning tutgan o‘rni ..... 45
4.4. Amir Temur davrida dehqonchilik, hunarmandchilik va soliqlar tizimi ..... 53
4.5. Amir Temurning iqtisodiy siyosatida moliya ishlari ..... 63
4.6. Temur tuzuklarida ijtimoiy himoya masalalari ..... 67
V BOB. MERKANTILIZM IQTISODIY TA’LIMOTI VA UNING MOHIYATI ..... 75
5.1. Merkantilizm – ilk iqtisodiy maktab sifatida ..... 75
5.2. Merkantilizmning predmeti va uslubi ..... 76
5.3. Dastlabki va keyingi merkantilizmning o‘ziga xosligi ..... 77

5.4. Merkantilizmning tarixiy ahamiyati ..... 79
VI BOB. ILK KLASSIK MAKTABNING VUJUDGA KELISHI DAVRIDAGI IQTISODIY TA'LIMOTLAR ..... 81
6.1. Klassik iqtisodiy maktab vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari ..... 81
6.2. U.Pettining iqtisodiy ta'limoti ..... 81
6.3. P.Buagilberning iqtisodiy qarashlari ..... 84
6.4. Fiziokratizm iqtisodiy ta'limoti. F.Kene – fiziokratlar ta'limotining asoschisi ..... 86
6.5. A.Tyurgoning iqtisodiy ta'limoti ..... 89
6.6. Fiziokratizmning ahamiyati va uning tarixiy taqdiri ..... 92
VII BOB. KLASSIK IQTISODIY MAKTABNING TO'LA SHAKLLANISHI, A.SMIT VA D.RIKARDOLARNING IQTISODIY TA'LIMOTLARI ..... 94
7.1. A.Smit va uning «Xalqlar boyligi…» asari ..... 94
7.2. A.Smitning ijtimoiy-iqtisodiy nazariyalari ..... 98
7.3. D.Rikardoning iqtisodiy ta'limoti ..... 108
VIII BOB. KLASSIK IQTISODIY MAKTABGA MUQOBIL G'OYALARNING VUJUDGA KELISHI ..... 112
8.1. J.B.Seyning iqtisodiy ta'limoti. «Bozor qonuni» ..... 112
8.2. T.Maltusning iqtisodiy ta'limoti. «Nufus qonuni» ..... 117
8.3. J.S.Millning iqtisodiy ta'limoti ..... 119
8.4. Mayda ishlab chiqarish nazariyalari vujudga kelishining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari ..... 121
8.5. N.V.Senior, F.Bastia, G.Keri va boshqalarning iqtisodiy ta'limotlari ..... 122
8.6. S.Sismondining iqtisodiy qarashlari va uning nazariyasi ..... 126
8.7. Iqtisodiyotda ekonometrik usullarni qo'llanilishi ..... 129
IX BOB. GERMANIYADAGI TARIXIY MAKTAB IQTISODIY G'OYALARINING MOHIYATI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATI ..... 133
9.1. Germaniya tarixiy maktablarining o'ziga xos xususiyatlari ..... 133
9.2. F.Listning iqtisodiy qarashlari ..... 134
9.3. Tarixiy maktab (V.Rosher, K.Knis va B.Gildebrand) ..... 137
9.4. Yangi tarixiy maktab va «ijtimoiy yo'nalish» ..... 140
X BOB. IQTISODIY TA'LIMOTLARDA SOTSIALISTIK YO'NALISH ..... 145
10.1. Iqtisodiy ta'limotlarda sotsialistik yo'nalish va ularning tarixiy taqdiri ..... 145
10.2. Sen-Simon, SH.Fure va R.Ouenlarning iqtisodiy qarashlari ..... 147

10.3. Sotsialistik-Rikardochilarning iqtisodiy qarashlari..... 153
10.4. Marksizm vujudga kelishining shart-sharoitlari va K.Marksning iqtisodiy ta’limoti ..... 158
10.5. Markscha iqtisodiy ta’limotning iqtisodiy tarixi..... 162
XI BOB. MARJINALIZM TA’LIMOTI VA NEOKLASSIK IQTISODIY MAKTABLAR ..... 169
11.1. Marjinalizm umumiy ta’rifi va rivojlanish bosqichlari ..... 169
11.2. Amerika maktabi. J.B.Klark nazariyasi ..... 174
XII BOB. HOZIRGI ZAMON IQTISODIY TA’LIMOTLARINING ASOSIY YO‘NALISHLARI MOHIYATI VA AHAMIYATI ..... 177
12.1. Institutsionalizmning asosiy xususiyatlari..... 177
12.2. T.Veblen – institutsionalizm asoschisi..... 178
12.3. V.Mitchell iqtisodiy qarashlari..... 182
XIII BOB. J.M.KEYNSNING IQTISODIY TA’LIMOTI VA KEYNSCHILIK..... 186
13.1. J.M.Keynsning iqtisodiy ta’limoti ..... 186
13.2. Keynschilar va neokeynschilar..... 193
13.3. Keynschilikning AQShdagi xususiyatlari. Iqtisodiy o‘sish nazariyalari ..... 196
13.4. J.M.Keynsning «Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi» asari ..... 198
XIV BOB. J.M.KEYNSNING SAMARALI TALAB NAZARIYASI
14.1. Samarali talab nazariyasi..... 202
14.2. Yangi keynschilik ..... 202
14.3. J.M.Keyns g‘oyalarining hozirgi davrdagi ahamiyati ..... 205
XV BOB. NEOLIBERALIZM KONSEPSIYALARINING MOHIYATI VA AHAMIYATI..... 207
15.1. Neoliberalizmning umumiy xususiyati va asosiy belgilari..... 207
15.2. Neoliberalizm va ijtimoiy bozor xo‘jaligi ..... 212
15.3. Ijtimoiy bozor xo‘jaligi konsepsiyasi..... 213
XVI BOB. HOZZIRGI ZAMON IQTISODIY TA’LIMOTLARI EVOLYUTSIYASI..... 216
16.1. Neoklassik sintez konsepsiyasining moxiyati ..... 216
16.2. Ekonometrikaning hozirgi zamon asosiy yo‘nalishlari..... 220
XVII BOB. JAHON XO‘JALIGI TO‘G‘RISIDAGI IQTISODIY TA’LIMOTLAR ..... 228
17.1. Jahon xo‘jaligi to‘grisidagi iqtisodiy ta’limotlar ..... 228
17.2. Xalqaro mehnat taqsimotini taqdim etishdagi tanqidiy yo‘nalish. 232

17.3. Valyuta munosabatlari tahlili, jahon pulining yangi metall konsepsiyasi. «Suzib yuruvchi kurs» ..... 236
17.4. Insoniy rivojlanish konsepsiyasi ..... 245
XVIII BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI MA’MURIY-BUYRUQBOZLIK TIZIMIDAN BOZOR MUNOSABATLARIGA O‘TISH DAVRI KONSEPSIYASI ..... 250
18.1. O‘zbekiston respublikasida bozor munosabatlarini shakllantirishning “O‘zbekcha modeli” ..... 250
18.2. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi ..... 251
18.3. Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi ..... 253
Test savollari ..... 259
Muhım sana, tushuncha va ızohlar ..... 294
O‘rta asrlarda amalda bo‘lgan iqtisodiy atamalarning izohli lug‘ati ..... 312
GLOSSARIYLAR ..... 327
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI ..... 347

Xalikova Lola Nazarovna

IQTISODIY TA’LIMOTLAR TARIXI

Darslik

ISBN 978-9910-9092-2-1

Muharrir: G.Rahimova
Musahhih: Sh.Abduraximov
Tex.muharrir: H.Amirdinov

Nashriyot tasdiqnomasi:
№ 1243-7560-5999-432c-2125-1811-8655

“Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti
140104, Samarqand sh., Bo‘stonsaroy ko‘chasi, 93-uy.

Bosmaxona tasdiqnomasi:

4268

Bosishga ruxsat etildi: 07.05.2024-yil.
Ofset bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84 1/16.
“Times New Roman” garniturasi. Raqamli bosma usuli.
Hisob nashriyot t.: 22,2. Shartli b.t.: 19,3.
Adadi: 100 nusxa. Buyurtma 119.

SamDCHTI tahrir-nashriyot bo‘limida chop etildi
140104, Samarqand sh., Bo‘stonsaroy ko‘chasi, 93-uy.